O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

“OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI VA HARBIY QISMLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV: NAZARIYA VA AMALIYOT”

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI TO‘PLAMI



TOSHKENT-2024

КВҚ-68.4

F-13

“Oliy harbiy ta’lim muassasalari va harbiy qismlarda psixologik xizmatni tashkil etishga zamonaviy yondashuv: nazariya va amaliyot” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. 330 bet.

Tashkilotchi:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi
Mas’ul muharrir:	p.f.b.f.d., dotsent, podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov
Tahrir hay’ati:	podpolkovnik G‘.Z.Ikmatullayev kapitan I.M.Xaydarov

Ushbu konferentsiya to‘plamida Jamoat xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchi (xodim)larning psixologik tayyorgarligi, harbiy xizmatga psixologik moslashtirish, ularni individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra mos yo‘nalishlarga tayyorlash, harbiy xizmatchilarga psixologik xizmat ko‘rsatish hamda harbiy vatanparvarlik tarbiyaning ijtimoiy-psixologik asoslari bo‘yicha keng jamoatchilik bilan o‘tkazilgan muhokama natijalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

To‘plamda berilgan ilmiy maqolalar va tezislar Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari, Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari psixologlari, oliy harbiy ta’lim muassaslari professor-o‘qituvchilari, ijtimoiy ish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, kursant va tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.

©O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024

KIRISH SO‘ZI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i

Assalomu alaykum, qadrli mehmonlar, bugungi konferentsiya ishtirokchilari!

Butun jahonda yuzaga kelayotgan bugungi murakkab vaziyat, jumladan, mintaqamizda turli tahdid va xatarlarning tobora kuchayib borayotganligi eng qimmatli boyligimiz – tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini chuqur anglatmoqda.

Mana shunday mas’uliyatli va sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda harbiy xizmatchi va xodimlarning psixologik tayyorgarligi va xizmat vazifalarini bajarishdagi adaptatsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta’biri bilan aytganda: “Jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta’sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma’lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch hayot sharoitida ham davolash juda murakkab masaladir”.

Aynan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘zda tutadigan qarorlar qabul qilinmoqda.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida o‘tkazilayotgan “Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga adaptatsiya jarayonlari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiya ham aynan mazkur maqsadlar doirasida tashkil etilmoqda.

Ushbu ilmiy-amaliy konferentsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF–27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentyabrdagi PF–371-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish” kontseptsiyalari doirasida o‘tkazilayotganligini alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Harbiy xizmatchi (xodim)lar adaptatsiya jarayonida uchrayotgan muammolar, harbiy xizmatchi va xodimlarning psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni tahlil qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda zaruriy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi konferentsiyaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Qadrli ishtirokchilar! Fursatdan foydalanib, o‘zlarining qimmatli vaqtlarini ayamasdan, bugungi konferentsiyaga tashrif buyurgan va ishtirok etgan Rossiya federatsiyasi Krasnodar universiteti, Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti, Qozog‘iston Respublikasi Pedagogika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Milliy gvardiya Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi, Qo‘qon davlat pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari va olimlariga samimiy tashakkur izhor etgan holda, konferentsiyani ochiq deb e’lon qilaman.

ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРИНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК УСУЛЛАРИ

polkovnik S.D.Mamayusupov
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘mondonining o‘rinbosari

podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i

Аннотация. Мақолада жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўлинмалари бўлажак офицерларида коммуникатив компетентликни таркибий компонентларининг психологик жиҳатларга эътибор берилган. Айниқса, коммуникатив компетентлик борасидаги ёндашувлар, унинг таркибий қисмлари ҳамда ривожланиш даражалари хусусидаги назарий фикрлар баён қилинган.

Шунингдек, касбий ва ижтимоий компетентлик таркибида коммуникатив компетентликнинг ривожланиш йўллар кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: коммуникатив компетентлик, когнитив, коммуникатив кўникма, коммуникатив билим, коммуникатив қобилият, коммуникатив кўникма, шахс хусусиятлари, когнитив даража, ҳиссий-аффектив даража, хулқ-атвор даражаси, ижтимоий-психологик, индивидуал-психологик, психофизиологик, умумий қобилият, шахсий ўзгаришлар, коммуникатив, интерактив, перцептив.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ СЛУЖЕБНЫХ ОРГАНОВ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация. Статья посвящена психологическим аспектам структурных компонентов коммуникативной компетентности будущих сотрудников органов общественной безопасности. В частности, описаны теоретические представления о подходах к коммуникативной компетентности, ее компонентах и уровнях развития. Также показаны пути развития коммуникативной компетентности как части профессионально-социальной компетентности.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, познавательная, коммуникативная способность, коммуникативное знание, коммуникативная способность, коммуникативная способность, особенности личности, когнитивный уровень, эмоционально-аффективный уровень, поведенческий уровень, социально-психологический, индивидуально-психологический, психофизиологический, общая способность, личностные изменения, коммуникабельный, интерактивный, перцептивный.

PSYCHOLOGICAL STRUCTURE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE OFFICERS OF PUBLIC SECURITY DEPARTMENTS

Abstract. The article focuses on psychological aspects of structural components of communicative competence in future officers of public security units. In particular, the theoretical ideas about the approaches to communicative competence, its components and levels of development are described. Also, ways of development of communicative competence as part of professional and social competence are shown.

Key words: communicative competence, cognitive, communicative skill, communicative knowledge, communicative ability, communicative skill, personality characteristics, cognitive level, emotional-affective level, behavioral level, social-psychological, individual-psychological, psychophysiological, general ability, personal changes, communicative, interactive, perceptive.

Маълумки, жамият ривожланишига нисбатан замонавий ёндашувлар, инсонни энг олий ижтимоий қадрият сифатида англаш ҳамда шахс ижтимоийлашуви билан боғлиқ жараённи фаолиятнинг марказий ўрнига чиқишига олиб келади. Шахс ривожланиши таълим жараёни субъектларининг мақсадли ўзаро таъсир жараёни ва натижасидир. Шу билан бирга шахснинг ривожланишига психологик нуқтаи назардан ёндашилса, унинг мақсади таълим ва тарбия жараёнида ўз аксини топади. Агар таълим-тарбия жараёни шахснинг ўзини ўзи ривожлантириш механизмини шакллантиришга йўналтирилган бўлса, бу мақсадга эришишининг самарали воситасидир. Шунингдек, касбий тайёргарлик жараёни ривожланган шахсда содир бўлаётган ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда моделлаштириш, унинг психологик табиатини ҳисобга олиш, шахсий аҳамиятга эга индивидуал ниятлар, илгари сурилган мақсадлар ҳамда ўзини ўзи рўёбга чиқариш учун зарур бўлган юқори мустақилликка эришишни таъминлайдиган шахсий ривожланиш дастурларини ишлаб чиқишни тақозо қилади.

Сўнгги ўн йилликда таълим жараёнининг моҳиятини акс эттирувчи категориал-концептуал аппаратда сезиларли ўзгаришлар рўй берди. Буни айниқса, “тайёргарлик”, “маълумотлилик”, “малака” тушунчаларининг ўрнини “мослашувчан малака”, “мобиллик”, “компетенция”, “компетентлик” ва “коммуникатив компетентлик” атамалари эгаллаганида кўриш мумкин. Компетенцияга асосланган ёндашувга босқичма-босқич ўтиш, биринчи навбатда, олий таълимнинг анъанавий когнитив йўналишлари билан боғлиқ қарама-қаршиликларни ҳал қилиш заруратини илгари суради. Мазкур жараёнга ўтиш таълим мазмунини, унинг усулларини, технологияларини ва пировардида, бўлажак мутахассисларни тайёрлаш шаклларини ўзгартиришни ўз ичига олади. Коммуникатив компетентликни таҳлил қилишнинг умумий назарий схемасининг муҳим элементи бўлиб унинг психологик тузилиши ва мазмуни ҳисобланади. Бу ўз навбатида инсон ҳаётида муҳим ўрин эгаллайдиган омилларнинг ролини аниқлашдан иборат. Шунингдек коммуникатив компетентликнинг параметрлари ва намоён бўлишининг объектив ҳамда тўлиқ ўрганиш имкониятлари нуқтаи назардан муҳимдир.

Шу нуқтаи назардан, олганда психологик ҳодиса сифатида коммуникатив компетентлик ўзига хос таркибий компонентларига эга. Коммуникатив компонентликнинг тузилиши фаолият тури сифатда мулоқот тузилиши билан чамбарчас боғлиқ.

Шахсда мулоқот жараёнини таҳлил қилиш орқали коммуникатив компетентликнинг тузилишини ҳам аниқлаш мумкин. Коммуникатив

компетентликнинг тузилиши борасидан илмий изланишларнинг таҳлилига асосланиб, қуйидаги йўналишларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

1.Коммуникатив компетентлик ҳодисасининг когнитив таркибий қисми яъни мулоқотга киришиш учун зарур бўлган билим ва қобилиятларга эътибор қаратмоқдалар (В.П.Захаров, В.А.Лабунская, Э.В.Руденский, З.С.Смелкова, Н.Ю.Храшев).

2.Коммуникатив компетентлик тушунчасини коммуникатив кўникмалар орқали амалга ошириш (А.В.Захаров, А.В.Мудрик)

3.Коммуникатив компетентликнинг таркибий элементлари коммуникатив билимлар, коммуникатив қобилият ва коммуникатив кўникмалардир (Е.В.Сидоренко).

4.Коммуникатив компетентликнинг таркибий қисми сифатида билим, кўникма ва қобилиятлардан ташқари шахс хусусиятлар билан белгиланиши (Л.И.Берестова, Ю.Н.Емильянов, Ю.М.Жуков, Л.А.Петровская, Э.С.Семёнов, А.А.Кидрон ва бошқалар).

Л.М. Митина томонидан [15] коммуникатив компетентликни фаолият компетенцияси (билимлар, қобилиятлар, малакалар ва касбий фаолиятни амалга ошириш усуллари) билан бирга касбий компетентликнинг алоҳида қуйи тузилмаси сифатида ажратиб кўрсатади. Коммуникатив компетентликни мулоқотнинг асоси сифатида кўриб чиқсак, биз мулоқотни таҳлил қилишда самарали эканлиги исботланган назарий ёндашувлардан мантиқий фойдаланишимиз мумкин. Шундай ёндашувлардан бири босқичли ёндашувдир. С.З.Гуриевнинг қарашларига кўра, коммуникатив компетентликни ривожлантириш [10] учта даражада мумкин: когнитив хабардорликни ошириш: когнитив даража - фикрлашни ўрганиш; сезгирликни ривожлантириш; ҳиссий-аффектив даража - ҳис қилишни ўрганиш; хулқ-атвор компетенциясини ошириш: хулқ-атвор даражаси - ўзаро муносабатда бўлишни ўрганиш [9]. Н.Б.Буртовая томонидан коммуникатив компетентлик таркибида ижтимоий-психологик, индивидуал-психологик ва психофизиологик даражаларни белгилайди [8]. Психологияда кенг тарқалган таркибий ёндашувга мисол сифатида И.Н.Зотова тадқиқотидаги коммуникатив компетентликнинг тавсифи келтирилган. И.Н.Зотова коммуникатив компетентлик таркибига жуда хилма-хил элементлар киради, деган хулосага келади. Шу билан бирга, ушбу хилма-хиллик орасида қуйидаги таркибий қисмлар яққол ажралиб туради [13].

Шунга мувофиқ равишда [12] коммуникатив компетентлик таркибига кирадиган қуйидаги компонентларни аниқлайди:

1.Умумий қобилиятлар (машқ қилиш қобилияти).

2. Коммуникатив билим, кўникма, малака ва қобилиятлар (ижтимоий ҳулқ-авторнинг оғзаки ва новербал воситаларида равонлик), новербал

воситалар шахс томонидан ижтимоий меъёрларга мувофиқ ўз ҳудудида шахслараро маконни ташкил этиш.

3. Шахсий ўзгаришлар: Ўзини ўзи англаш; эгилувчанлик, ригидлик, ташқи ва ички [12].

Маълумки, Г.М.Андреева мулоқотнинг учта жиҳатини аниқлайди: коммуникатив, интерактив ва перцептив [2].

Натижада, психологлар бошқаларга қараганда когнитив, эмоционал ва хулқ-атвор таркибий қисмларини когнитив, ҳиссий ва хулқ-атворли мулоқотнинг таркибий қисмларига ажратиб кўрсатадилар [5]. Уларнинг барчаси умумлашма ҳолда коммуникатив компетентликда намоён бўлади.

Шахснинг коммуникатив компетентликнинг манбалари унинг ҳаётий тажрибаси ва қобилиятлари, психологик ва касбий билимлари, умумий билим ва ижтимоий интеллект, мавжуд мулоқот муҳити ва унга ўргатишнинг илмий усулларидир. Коммуникатив компетентликнинг кенг ва тўлиқ тузилиши И.Р.Алтунина [2] томонидан таклиф этилади. Муаллиф мулоқот қилиш қобилиятини белгиловчи бир қатор муҳим билим ва кўникмаларни таъкидлайди.

Аввало, муаллиф имо-ишоралар, юз ифодалари, пантомимика, яъни одамларнинг қизиқишлари, эҳтиёжлари ва ҳиссий ҳолатининг намоён бўлишининг ўзига хос хусусиятлари ҳақидаги билимларни кўрсатиб ўтади. Шунингдек, хулқ-атвор одоб-ахлоқ нормалари ва шаклларини, нутқ одоби, ишонтириш, одамларга таъсир қилишнинг психологик техникаси ва усулларини билиши мақсадга мувофиқ [2].

И.Б.Пономарев, В.П.Трубочкин коммуникатив компетентлик компонентларининг учта блокини ажратади:

1. Коммуникатив шахсий сифатлар.

2. Мулоқот техникасига эгалик - индивидуал коммуникатив ҳаракатларни амалга ошириш кўникма ва малакалари.

3. Мулоқот методологияси ва тактикасига эга бўлиш, фаолиятнинг яхлит вазиятларида мулоқотни қуриш қобилияти [18]. А.А.Бодалев [6] коммуникатив компетентлик учун муҳим бўлган мулоқотнинг таркибий қисмларини, масалан, инсоннинг когнитив жараёнларининг хусусиятлари – “акс эттириш”, унинг эмоционал соҳалари – “муносабат” ва хулқ – атвор мулоқот жараёнида юзага келадиган “мурожаат” ни ажратиб кўрсатишни таклиф қилди. Юқорида тавсифланган ёндашувларга асосланиб, биз когнитив, ҳиссий ва хулқ-атвор компонентларини ўз ичига олган мураккаб интеграл шаклланиш сифатида коммуникатив компетентликни кўриб чиқамиз.

Коммуникатив компетентликни ўрганар эканмиз, унинг инсон ҳаётидаги аҳамиятини ортиқча баҳолаш қийин. Мулоқотда муваффақиятни таъминлаш, у

турли хил ижтимоий шароитларда шахснинг мос равишда мослашиши учун муҳим шарт бўлиб хизмат қилади. Бироқ, инсон ҳар доим ўзида мулоқот қилиш учун зарур бўлган маълум билим ва кўникмаларнинг етарли даражада ривожланишини топа олмайди, шунинг учун коммуникатив компетентликни шакллантиришга асос бўлган омилларнинг тавсифига мурожаат қилиш муҳимдир. Шу нуқтаи назардан, хориж психологларнинг назарий қарашлари таҳлил қилиш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Л.С.Виготскийнинг концепциясида биз ижтимоий вазият омилларининг ўзаро таъсирининг мураккаб табиати ва уларнинг ривожланиш салоҳияти тўғрисидаги қоидаларни топамиз. В.Н.Мясишчев [16], ўз назариясини "муносабатлар" тоифаси асосида қуриб, атрофдаги одамлар билан ижтимоий-психологик ўзаро муносабатларнинг индивидуал хусусиятини белгилайдиган муносабатлар тизими ва у билан белгиланадиган шахсий фазилатлар иерархияси ҳақида фикр юритади. Л.А. Петровская асарларида [17] мулоқот компетентлигини мақсадли ривожлантиришнинг назарий ва услубий шартлари ва асосий стратегияларининг тавсифини тақдим этади. В.Д.Шадриков шахсий сифатларга эга бўлиш учун муайян фаолият турини ўзлаштириш жараёнининг аҳамияти ҳақида ёзган [19].

Коммуникатив компетентлик тузилишини таҳлил қилишга ёндашув анъанавий равишда муаммони феноменологик жиҳатдан кўриб чиқиш билан ифодаланади. Бироқ, бунинг учун онтологик таҳлил ҳам зарур. Назарий маълумотларни умумлаштириш орқали биз коммуникатив компетентликни қуйидаги даражаларда кўриб чиқамиз:

1.Ахборот даражаси (ахборотни тушуниш, уни идрок этиш, билим коммуникатив компетентликнинг таркибий қисми сифатида).

2.Компонент даражаси (кўникмалар, коммуникатив компетентликнинг таркибий қисми сифатида).

3.Индивидуал психологик даража (қобилиятлар психологик компетентликнинг таркибий қисми сифатида, коммуникатив компетентлик қабул қилувчининг индивидуал-типологик хусусиятларига боғлиқлиги).

4. Шахсий даража (коммуникатив компетентликнинг шахсий ҳодисалари, компетенция услублари).

5. Ижтимоий даража (коммуникатив компетентлик ижтимоий ҳодиса сифатида).

Келтирилган таснифга монанд равишда таҳлил даражалари ва уларнинг моҳиятига батафсил тўхталиб ўтишга ҳаракат қиламиз.

Ахборот даражаси. Психик ҳодисаларни ўрганишга нисбатан ахборотли ёндашув замонавий ҳаёт амалиётига мос келади. Биз динамик ва доимий ўсиб бораётган ахборот соҳасида мулоқот қиламиз. Ахборотга эга бўлиш, уни

адекват идрок этиш ва узатиш, тушуниш самарали мулоқотнинг асосий шартига айланади. Жамиятда содир бўлаётган коммуникатив жараёнларнинг зарурий бўғини хабарни тушунишдир. Тушуниш - бу шахс онгида тилнинг мажбурий иштироки билан амалга ошириладиган у ёки бу хабарни қабул қилиш қобилияти. Шахснинг коммуникатив имкониятлари ва қобилиятларини таҳлил қилиш методологияси, шубҳасиз, инсоннинг ўз олдига қўйган мақсадлари билан боғлиқ. Экзиценциалистларнинг фикрига кўра, ўзаро тушуниш иллюзияси шубҳасиз мавжуд, аммо бу ҳеч қандай мулоқотнинг ҳақиқий мақсади эмас [14]. Шунга қарамай, ўзаро тушунишни мулоқотнинг моҳияти деб ҳисоблаш мумкин.

Операцион компонент мулоқот жараёнини бошқаришни, мулоқот шерикларига самарали таъсир қилишни, алоқа жараёнида оптимал ўзини ўзи бошқаришни таъминлайдиган кўникма ва малакаларга эга бўлишни ўз ичига олади.

Функционал жиҳатдан ушбу компонент коммуникатив вазифаларни бажариш жараёнида зарур кўникма ва малакаларни янгилаш учун мўлжалланган. Тузилмавий компоненти мулоқот қонуниятлари, ижтимоий идрок этиш қонуниятлари ва механизмлари, одамларнинг бир-бирига психологик таъсири, ўз-ўзини бошқариш усуллари ҳақидаги билимларни ўз ичига олади. Асосий таркибий қисмга фаолиятнинг стратегик мақсадларига мос келадиган муносабат, қадариятли йўналишлари, коммуникатив соҳадаги мотивлар киради [12].

Индивидуал-психологик даража. Индивидуал-психологик даражадаги коммуникатив компетенция сезгилар, идрок этиш, диққат, хотира, тафаккур, ирода, ҳиссиётлар, тасаввурлар, субъектнинг руҳий ҳолати хусусиятлари билан белгиланади.

Психофизиологик даражада юқори асабий фаолият тури, темперамент, экстра- ва интроверсия, ёш ва жинс фарқлари аниқланади [8].

Шахсий даража. Мулоқотда компетентликни ривожлантиришнинг муҳим омили бўлиб, бу ривожланиш ишларини тўғри ташкил этиш билан нисбатан қисқа вақт ичида “самарадорлик сифати” ни эгаллашга қодир бўлган имкониятлар ролини ўйнайдиган шахсий фазилатлар. А.Я.Анцупова ва А.И. Шипиловларнинг асарларида [3] самарали мулоқот қилиш учун зарурий шарт бўлган энг муҳим шахсий фазилатлардан бирини таърифлайди. Унга кўра, муаллифлар шахснинг низоланувчанлик характерини батафсил кўриб чиқадилар. Бу шахснинг шахслараро низоларга кириш частотасини акс эттирувчи ажралмас шахсий мулк сифатида тушунилади. Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, юқори даражадаги зиддият билан мулоқот субъекти бошқалар билан кескин муносабатларнинг доимий ташаббускори бўлади. Шубҳасиз, бу

ҳолда коммуникатив ҳаракатлар самарасиз бўлади. Шубҳасиз, паст даражадаги низо - бу шахсий сифат (бошқалар билан бирга) бўлиб, унинг асосида конфликтологик компетентликни ривожлантиришга ёрдам беради.

Ижтимоий даража Ж. Г. Мид [11] концепциясига кўра, жамият алоҳида шахсларнинг ўзаро таъсири ва ҳамкорлиги асосида юзага келадиган жамоавий ижтимоий актларсиз мавжуд бўла олмайди. Коммуникатив жараёнда иштирок этиш учун инсон ўзини, ўз позициясини (коммуникатив қобилиятларини), ролини нафақат ўз нуқтаи назаридан, балки "шахсдан ташқари" қарашларидан, коммуникатив жараённинг бошқа иштирокчилари билан таққослаган ҳолда баҳолаши керак.

Шу сабабли, коммуникатив компетентлик ўзининг асосий функцияларини (хабар алмашиш, идрок этиш ва баҳолаш, ўзаро таъсир ва таъсирни ташкил этиш) амалга ошириш учун шахслараро мулоқотнинг муайян вазиятида қўлланиладиган коммуникатив стратегиялар ва воситалар тўплами сифатида кенгроқ ижтимоий-психологик контекстда кўриб чиқилиши керак [4]. Ижтимоий-психологик даражада коммуникатив компетентлик одамларнинг фаолият, мулоқот ва билиш жараёнларидаги ўзаро таъсирида намоён бўлади. Ушбу даражадаги коммуникатив компетентлик мулоқот ва унинг натижаларини кутиш ва ижтимоий эҳтиёжларни қондириш асосида қуриш имконини беради. Унинг бу даражада шаклланиши билим, кўникма, одатларни мақсадли равишда бойитиш асосида расмий мулоқот ва таълим жараёнида ўз-ўзидан содир бўлади [8]. Мулоқот компетентлигининг хулқ-атвор компоненти биринчи навбатда ижтимоий хулқ-атворнинг оғзаки ва оғзаки бўлмаган воситаларида равонликни ўз ичига олади [12]. Уларга кўп сонли фонетик ва новербал элементлардан фойдаланган ҳолда товушли нутқ, ёзма нутқ ва новербал воситаларнинг барчаси киради [7].

Келтирилган фикрлардан кўринадики, инсоний муносабатларнинг асоси бу мулоқот, муомала масаласи ҳисобланади. Айниқса, инсонлар ўртасида фаол равишда ахборот алмашинишида мулоқот муҳим ўрин эгаллайди. Шу боис, шахсда мулоқотнинг самарали ривожланиши уларда коммуникатив компетентликни шаклланишига замин ҳозирлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Алтунина, И. Р. Развитие коммуникативной компетентности старшеклассников и взрослых людей с помощью видео тренинга: автореф. дис. .. .канд. психол. наук. М., 1999.- 25 с.

2.Андреева, Г. М. Социальная психология: учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. М.: Аспект Пресс, 2011. - 376 с.

3.Анцупов, А. Я. Словарь конфликтолога / А.Я. Анцупов, А.И. Шипилов. М.: Эксмо, 2010. - 656 с.

4.Белик, А. А.Теория «Я» Дж. Г. Мида и психологическая антропология http://psviournals.ru/social psy/2011/n1/39645 full.shtml

5.Богданова, Е. Е. Личностные ограничения социальнокоммуникативной компетентности: динамика первичной профессиональной социализации / Е.Е. Богданова // Человек. Сообщество. Управление: Научноинформационный журнал. 2012. Спецвыпуск №1. - С. 21-34.

6.Бодалев, А. А. Личность и общение: избранные труды / А. А. Бодалев. М.: Педагогика, 1983. - 271 с.

7.Бороздина, Г. В. Психология делового общения:монография / Г.В. Бороздина. - М.: ИНРА-М, 1998. - 224 с.

8.Буртовая, Н. Б. Коммуникативная компетентность личности и социально-психологические факторы ее развития: на примере студентов - будущих педагогов-психологов: дис. ... канд. психол. наук. - Томск, 2004. - 176 с.

9.Восемнадцать программ тренингов: руководство для профессионалов / Под науч. ред. В.А. Чикер. - СПб.: Речь, 2011. - 368 с.

10.Гуриев, С. З. Универсальные тенденции в межкультурных отношениях / С. З. Гуриев // Вестник СПбГУ. Серия 6. Вып. 3. - 2004. - С. 141 - 152.

11.Дж. Мид. Современная буржуазная философия / Дж. Мид. - М., 2011. С. 63.

12.Емельянов, Ю. Н. Теория формирования и практика совершенствования коммуникативной компетентности: дис. ... докт. психол. наук - Л., 1990. - 408 с.

13.Зотова, И. Н. Коммуникативная компетентность как аспект социализации личности студента в условиях информатизации общества // Актуальные социально - психологические проблемы развития личности в образовательном пространстве XXI века: сборник научных работ / И. Н. Зотова. - Кисловодск: 2006.- С. 109.

14.Мид, Дж. От жеста к символу // В кн.: «Американская социологическая мысль» / Дж. Мид. - М.: МГУ 1994. - С. 216-241.

15.Митина, Л. М. Психология труда и профессионального развития учителя: учебное пособие / Л. М. Митина. - М.: Академия, 2004. - 320 с.

16.Мясищев, В. Н. Психология отношений: избранные психологические труды / В. Н. Мясищев / Под ред. А.А. Бодалева. - М.-Воронеж, 1995. - 356 с.

17.Петровская, Л. А. Компетентность в общении: Социально - психологический тренинг / Л. А. Петровская. - М.: Издательство МГУ, 1989. - 216 с.

18.Пономарев, И. Б. Введению в специальность и обучение практического психолога ОВД / В. П. Трубочкин. - М., 1995. - 31 с.

19.Шадриков, В. Д. О предмете психологии (мир внутренней жизни человека) / В. Д. Шадриков // Психология. Журнал высшей школы экономики. - 2004. - № 1. - С.5 - 19.

ЛИЧНОСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛИЗАЦИЯ ЛИЧНОСТИ

Саудабаева Гульмира Саулытжановна
Доктор педагогических наук, профессор кафедры Педагогики,
Казахский Национальный Педагогический Университет имени Абая
Республика Казахстан – Алматы

Любая профессиональная деятельность требует от человека определенной совокупности психических свойств и качеств для выполнения функций данной деятельности. ***Профессионально важные качества*** - это качества субъекта, включенные в процесс деятельности и обеспечивающие эффективность ее выполнения по параметрам производительности, качества труда и надежности. На основе этих качеств

и свойств формируется трудовая активность человека, т.е. происходит его профессионализация.

Профессионализацией называют формирование специфических видов трудовой активности личности на основе развития совокупности ее профессионально ориентированных характеристик (психологических, физиологических, поведенческих, рабочих), обеспечивающих функцию регуляции становления и совершенствования субъекта труда.

Профессионализацию можно рассматривать как процесс развития личности, как профессиональную самореализацию и как форму активности личности. Таким образом, овладение определенной профессией на высоком уровне требует наличия тех или иных личностных качеств. С другой стороны, требования профессии вызывают развитие профессионально ориентированных качеств личности, т.е. профессиональная деятельность человека задает направление развития его личности. Развиваются профессиональные способности, т.е. свойства психических процессов (восприятия, памяти, внимания, мышления, воображения) и психомоторные функции (координация движений рук и ног, сенсомоторная координация и т. д.), обеспечивающие эффективность деятельности. Каждая профессия формирует сходные интересы, установки, черты личности, манеру поведения и т. п. Эти, приобретенные человеком особенности личности могут проявляться и в других жизненных условиях и ситуациях.

Профессионализация - это процесс формирования личности ***профессионала***. Субъект труда, достигший требуемого уровня мастерства для эффективного выполнения предписанных задач в данной области трудовой деятельности, называется профессионалом. Стало быть, профессионал обладает такой совокупностью важных для данной деятельности индивидуально-психологических особенностей, которые:

- соответствуют требованиям этой деятельности,
- представляют относительно устойчивую (для определенных условий) и пластичную структуру,
- обеспечивают формирование и реализацию предметно-ориентированной сферы личности.

Процесс формирования личности профессионала характеризуется ***внутренней противоречивостью*** процесса индивидуального развития человека. Это выражается в неравномерности изменений и гетерохронности (разновременности) фаз развития, а также в зависимости психического развития от смены различных видов деятельности на профессиональном пути и в течение коротких промежутков времени. Профессиональное развитие представляет собой сложный процесс, имеющий циклический характер; человек не только совершенствует свои знания, умения и навыки, развивает профессиональные способности, но может испытывать и отрицательное воздействие этого процесса. Такое

воздействие приводит к появлению разного рода деформаций и состояний, снижающих не только профессиональные успехи, но и негативно проявляющихся в «непрофессиональной» жизни. В этой связи можно

говорить о восходящей (прогрессивной) и нисходящей (регрессивной) стадиях профессионального развития.

На процесс профессионального развития личности оказывают влияние различные субъективные (личностные особенности индивида, познавательные и двигательные способности) и объективные ***факторы*** (параметры внешней среды, влияющие на выполнение деятельности). Под их воздействием происходит формирование адекватного представления о личности профессионала, что способствует учету своих достоинств и недостатков. В процессе профессионализации происходит перестройка представлений о личностных особенностях профессионала в направлении наполнения его личности профессиональным содержанием. Экспериментально подтверждено, что профессиональное становление личности сопровождается смещением акцента с общечеловеческих, морально-нравственных качеств в сторону профессиональных и организаторских характеристик (профессиональных способностей и качеств личности, обеспечивающих эффективное выполнение деятельности).

Исследования показывают, что развитие личностных особенностей, соотношение общих и специальных способностей в структуре профессионально важных качеств зависит от специфики профессиональной деятельности. Чем в большей степени ее выполнение зависит от специальных способностей, тем раньше эти способности будут проявляться при освоении профессии. В процессе профессионализации изменяются многие свойства личности, происходят изменения в даже наиболее стабильных характеристиках (показатели темперамента, эмоциональная реактивность и т.п.). Развитие личностных особенностей в процессе профессионализации происходит за счет непосредственного приспособления личности к профессии. Это развитие может быть и за счет компенсаторного профессионального приспособления, т.е. когда субъект под влиянием требований профессии с помощью волевых усилий преодолевает в себе определенные личностные черты, которые мешают выполнению деятельности.

Профессиональная деятельность человека сопровождается ***ответной реакцией*** его психических и физиологических функций. Эта реакция отражает процессы адаптации к реальному или ожидаемому воздействию трудовой нагрузки, факторов окружающей среды и эмоциональных переживаний. Кроме того, она характеризует остаточные процессы после этих взаимодействий. Функциональные реакции человека, задаваемые конкретным содержанием деятельности, всегда взаимосвязаны, взаимообусловлены и специфичны. Эти реакции (функциональные

психические состояния) проявляются в процессе деятельности и влияют на ее эффективность.

Компетенция (*лат*. соответствовать, подходить) - это личностная способность сотрудника решать определённый класс профессиональных задач. Совокупность компетенций, наличие знаний и опыта, необходимых для эффективной деятельности в заданной предметной области называют ***компетентностью***. Управленческая (должностная) компетенция - это набор знаний, практического опыта, навыков и личностных качеств управленца, позволяющий ему качественно решать определенные задачи для достижения тех или иных результатов. ***К ключевым компетенциям*** современного управленца относят гибкость ума, умение общаться, дар убеждения и точность выражения мыслей и т.п. Указанные компетенции можно развивать, если работать над собой, обучаться, заниматься саморазвитием, осваивать новые технологии и передовые методики. Компетентный руководитель настроен на позитивное управление, вселяет уверенность в людей и заряжает энергией тех, кто помогает ему.

При определении базовых компетенций руководителя необходимо учитывать следующие ***специфические особенности управленческого труда***.

1. Работа руководителя не имеет четкого завершения по времени. Он всегда занят, т.к. организация постоянно находится под влиянием изменений внешней среды с ее рисками и возможностями. Поэтому руководитель вынужден находиться в постоянной готовности к принятию управленческого решения.

2. Работа руководителя базируется на его знаниях, опыте и восприятии нового (применение передового опыта, новых приемов и методов в работе). Он должен быть информирован обо всех заметных инновациях.

3. Стиль управления, принятый в данной организации, формирует ее корпоративную культуру, кардинально влияет на ее имидж и деловую репутацию.

4. Важной частью управленческого труда является соотношение затрат времени руководителя в соответствии с уровнями и функциями управления. Чем выше уровень управления, тем больше времени распределяется в пользу представительских коммуникаций; чем ниже уровень, тем больше времени руководитель проводит среди подчиненных в обстановке принятия оперативных решений.

Таким образом, личностные качества субъекта отражаются в его профессионально деятельности и профессионализации, что, в свою очередь, приводит к изменениям в совокупности качеств личности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Хайруллин Г.Т., Қасымжанова А.А. Психология управления: Учебное пособие/ Алматы: Университет «Туран», 2020. – 352 с.

2. Белашева И.В. Индивидуально-типологические особенности личности в построении моделей толерантного взаимодействия в молодежной среде // Проблемы педагогики и психологии, 2015. - №2. – с. 311-319.

3. Иванова С.В., Болдогоев Д. Развитие потенциала сотрудников. Профессиональные компетенции, лидерство, коммуникации. – М.: Альпина Паблишер, 2018. – 284 с.

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT: MUAMMO VA YECHIMLAR

Farfiev Yoqubjon Atxamdjonovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: maqolada ichki ishlar organlari tizimida psixologik xizmat faoliyatida uchrayotgan muammo va kamchilik hamda ularni baratarf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, hissiy-irodaviy sifatlar, vatapparvarlik, psixologik portret, psixofiziologik, psixodiagnostik va psixokorreksion qurilmalar.

Mamlakatimizda ichki ishlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, olijanob, o‘z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan fidoyi, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli, xalqimizning xavfsizligini ta’minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas’uliyatli xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo‘ymoqda. Chunki bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar organlari xodimlarining xalq oldidagi nufuzini ko‘tarish, unga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash bevosita ana shu islohotlar samarasiga bog‘liq [1, 311-312].

Ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi uning o‘ziga yuklatilgan xizmat vazifalarini qay tarzda amalga oshirishlarida namoyon bo‘ladi. Xodimning ahloqiy-ruhiy jihatdan yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi uning kasb mahorati va faoliyatida yaqqol namoyon bo‘lib qoladi. Lozim darajadagi ahloqiy-ruhiy tayyorgarlikning yo‘qligi – inson beparvoligining muhim sabablaridan biri, toshbag‘irlik, rasmiyatchilik, hokimiyatni suiiste’mol qilish, qonuniylikni buzish va jiddiy kasbiy buzilishlarga olib keladi [2, 35-36].

Bugungi kunda ichki ishlar organlaridagi psixologik xizmat ishlarida rasmiylashtirilgan jarayonlar (sinovlar, xulosalar tayyorlash, ekspert baholash, hisobotlar, analitik hisobotlar va boshqalar) ko‘rinishidagi faoliyat bilan shug‘ullanmoqdalar. Shuningdek, psixologik xizmat vakillari shaxsiy tarkibi bilan jonli, amaliy psixologik ishlarning amalga oshirishning ustunligi tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan ichki ishlar organorganlarida psixologik xizmatni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan muammolarni tahlil qilish, shuningdek operativ-xizmat faoliyatini psixologik qo‘llab-quvvatlashning samarali innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati dolzarb vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida samarali psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish quyidagilarga bog‘liq:

- ichki ishlar organlarida xizmatni tashkil etishning huquqiy bazasini takomillashtirish;
- ichki ishlar organlarida xizmat qilish uchun yuqori intelektual salohiyatga ega, hissiy-irodaviy, vatapparvarlik ruhini namoyon eta oladigan nomzodlarni tanlash;
- hodimlarning kasbiy fazilatlari, jangovar va ruhiy tayyorgarligi hamda faoliyat samaradorligini ta’minlash va x.z.

Boshqacha qilib aytganda, ichki ishlar organlarida psixologik xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyatida uchrayotgan muayyan muammolar bartaraf etish orqali xizmat samaradorligiga erishish mumkin. Bunday muammolar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Innovatsion texnologiyalarni faoliyatga tatbiq etishda eski tizim, odatiy yondoshuvning mavjudligi. So‘nggi paytlarda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimidagi turli xil tashkiliy va boshqa to‘siqlar tobora namoyon bo‘lmoqda, bu o‘z navbatida psixologik xizmat faoliyatiga yangi innovatsion yondoshuvlarni tatbiq etishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu bevosita ichki ishlar organlarida psixologik xizmat faoliyatini kompleks olib borish hamda uning monitoringini olib borish imkonini bermayapti. Shu sababli ichki ishlar organlari tizimida psixologik xizmat faoliyatini markazlashgan yagona elektron tizimga o‘tkazish va xujjatlar aylanmasini mazkur elektron dastur asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. **Moddiy va moliyaviy ta’minotning yetarli emasligi.** Ichki ishlar organlarida psixologik ta’minlash xizmati mablag‘ bilan to‘liq moliyalashtirilmagan, tizimdagi psixologik xizmatni qo‘llab-quvvatlash uchun dasturlar va texnologiyalarni sotib olish, amaliy faoliyatda ulardan samarali foydalanish yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Hech qaysi bir huquqni muhofaza qilish organlaridagi amaliy psixologiya markazlarining biron bir rahbari o‘z markazining yillik byudjetini nomlay olmaydi, chunki u shunchaki qog‘ozda ham mavjud emas. Masalan, Bavariya shtati (Germaniya) politsiyasining markaziy psixologik xizmati xodimlarning ish haqi to‘lovlari, shuningdek politsiya xodimlarini o‘qitish xarajatlarini hisobga olmaganda o‘rtacha ikki yuz ming yevroni tashkil qiladi.

3. Psixologik xizmat xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Ichki ishlar organlarida amaliy psixologlar doimiy ravishda o‘zining intelektual salohiyati va amaliy ko‘nikmalarini mustaqil tarzda oshirishga harakat qilgani bilan, vazirliklar ko‘lamida psixologlarning markazlashtirilgan tayyorgarligi va malakasini oshirish yetarli darajada amalga oshirilmayapti.

4. Professional va psixologik tanlov bosqichidan o‘tgan nomzodlarning uzoq muddatli va kasbiy ishonchli faoliyati muvaffaqiyatlarining bashorat (prognoz) ko‘rsatkichini pastligi. Hozirda psixologik xizmat faoliyatining eng muhim, uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan yo‘nalishlaridan biri xizmatga nomzodlarning kasbiy va psixologik tanlovi hamda kadrlarni bir pog‘ona ko‘tarish, rahbarlik zahirasini yaratish hisoblanadi. Biroq, taklif etilayotgan nomzodlar amaliyotning haqiqiy ehtiyojlari va tizimda olib borilayotgan islohotlarga har doim ham javob bermayapti.

Buning sababi shundaki, kadrlarni tanlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga qaramay, ichki ishlar organlarida shaxsiy va psixologik xususiyatlari, axloqiy tamoyillari, madaniy darajasi hamda boshqa sifatlari (parametrlari) jihatidan ichki ishlar organlarida ishlashga qodir bo‘lmagan yoki ishlamasligi kerak bo‘lgan nomzodlar ham afsuski kirib kolmoqdalar. Natijada, ichki ishlar organlarida xodimlarning yuqori darajada almashinuvi, qonun buzilishi va xodimlar orasidagi korrupsion xolatlar, ruhiy-fiziologik kasalliklar, o‘z joniga qasd qilish, xodimlarning xizmat vaqtidagi ruhiy jarohatlari va boshqa salbiy holatlar kuzatilmoqda.

5. Operativ-xizmat faoliyatida psixologik ta’minlash xizmati yetarli darajada samara bermayapti. Hozirgacha zamonaviy psixologiya yutuqlarini jinoyatlarni ochish va tergov qilish, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarning psixologik portretlarini tuzish, jinoyatchilar bilan muzokaralarni olib borish va boshqa amaliy faoliyatni joriy yetish bo‘yicha dasturiy hamda me’yoriy ta’minoti mavjud emas. Kamdan kam hollarda, ushbu vazifa talabga javob beradigan yoki alohida vazirliklar tizimidagi amaliy psixologlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Lekin huquqni muhofaza qilish organlarida malakali kriminalist-psixologlari yetishmasligi bu vazifalarni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

6. Psixologiya sohasining yutuqlari, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan yangi uslubiy-amaliy ishlanmalar huquqni muhofaza qilish organlaridagi psixologik xizmat faoliyatiga to‘liq tatbiq etilmayapti. Buning sababi mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlarining yetakchi psixolog olimlari bilan huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamkorligi yetarli darajada tashkil etilmagan. Hamkorlik asosan uchrashuvlar, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda o‘z ifodasini topmoqda.

7. Ichki ishlar organlarida psixologik xizmatga bo‘lgan ishonch, uning imkoniyatlari, samarasiga rahbar va xodimlarni ishontirish. Xizmat olib borish mobaynida ayrim xodimlar hayotiy muammo va ta’sirlar natijasida tushkunlik holatiga tushishi kuzatiladi. Bunday holatlarda xodimga turli amaliy ko‘mak va yordam beradigan insonlar topiladi. Biroq muammoni mutaxassis-psixolog bilan muhokama qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Huquqni muhofaza qilish organlarida psixologik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida taklif va tafsiyalar:

- huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatining asosiy turlari bo‘yicha xodimlarning psixogrammalarini yaratish;
- rahbarlik lavozimlariga tayinlanayotgan xodimlarni ijtimoiy-psixologik tanlash shakllari va usullarini takomillashtirish, ularning kasbiy va psixologik muvofiqligini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- psixologlarning malakasini doimiy ravishda mamlakatimiz va yetakchi horijiy ta’lim muassasalari hamda huquqni muhofaza qilish organlarida oshirib borish;
- xodimlar bilan psixologik ishlarni tashkil etishda ko‘mak beradigan amaliy-uslubiy qo‘llanma va tavsiyanomalarni ishlab chiqish;
- jinoyatlarni ochish va tergov qilish, jinoyat sodir yetishda gumon qilinayotgan shaxslarning psixologik portretlarini tuzish, jinoyatchilar bilan muzokaralarni olib borishda zamonaviy psixologiyaning yutuqlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishga yo‘naltirilgan dasturlar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish;

- huquqni muhofaza qilish organlarida faoliyat yuritayotgan psixologik xizmatlarning moddiy-texnika bazasini takomillashtirish;

- psixologlarni ixtisoslashtirilgan psixofiziologik, psixodiagnostik va psixokorreksion qurilmalarda ishlash mahoratini oshirish va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, xodimlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg‘ularini shakllantirish axloqiy ehtiyojga aylandi. Bugungi kunda bu davlat siyosati markazida turadi. Bu ehtiyojni esa ma’naviy-axloqiy meros vositasida qondirish samarali natija berishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. U mehr-oqibat, Vatan taqdiri uchun qayg‘urish, tashvish va falokatlarga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas bo‘lagidir. Harbiy vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar qalbiga singdirish O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR

1. *Mirziyoev Sh.M.* **Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.– T. 2017, «O‘zbekiston» nashriyoti. – 311-312 betlar**.

3. Asyamov S. V.,Pulatov Yu. S. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi. – T., 2002. – 35 – 36-b.

3. *Dushanov R. X., Farfiev Yo. A.* Kasbiy psixologiya: Darslik. – T.: O‘zbekistonRespublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 284-b.

4. *Sirliev B. N., Ismailova N., Xakimova I.M.* Stress va agressiya: O‘quv-uslubiy qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 5-b.

5. *Sirliev B.N., Xakimova I.M.* Ichki ishlar idoralari xodimlarining ruhiy salomatligini tiklashda qo‘llaniladigan psixokorreksion mashqlar: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 22 b.

XARBIY XIZMATCHI XODIMLARNING PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH USLUBLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.

D.A.Saliyeva

Qo’qon DPI “ Psixologiya” kafedrasi mudiri ps.f.n., professor

Dunyo bo‘ylab so‘nggi yillarda ekstremal vaziyatlardan texnogen va tabiiy ofatlar, millatlararo nizolar, terroristik aktlar soni o‘sib bormoqda. Bu esa yuqoridagi vaziyatlarning qurbonlariga tezkorlik bilan psixologik yordam ko‘rsatishga qodir mutaxassislarni tayyorlash zaruratini tug‘dirmoqda. Ekstremal vaziyatlarda aholiga xarbiy xizmatchi xodimlar tomonidan ekstremal psixologik yordam ko‘rsatish muammosi o‘ta muhim muammolardandir. Bu muammolar bilan psixolog va psixoterapevtlar borgan sayin ko‘proq psixik jarohat olgan odamlar bilan

ishlashlariga to‘g‘ri kelmoqda, bularga: majburan ko‘chirilganlar va qochoqlar, garovga olingan qurbonlar, bosqinchilikdan aziyat ko‘rganlar, otishmalar, qarindoshlar o‘limi, talonchilik bosqinlari, shuningdek keng masshtabli tabiiy va texnogen fojialarni boshidan kechirgan insonlar misol bo‘la oladi.

Ekstremal vaziyatlar - bu ma’lum territoriyada yuzaga kelgan xavfli to‘qnashuv, tabiiy hodisa, fojia yoki boshqa bir ofat natijasida o‘z ortidan inson qurbonliklariga olib keluvchi, odamlar sog‘ligi yoki atrof muhitga zarar yetkazuvchi holatdir. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra favqulodda vaziyatlar:

1. Texnogen xarakterli favqulodda vaziyatlar transport to‘qnashuvlari va fojialar, yong‘in va portlash, kimyoviy zaharlovchi va radioaktiv moddalar tarqaluvchi avariyalar va fojialar.

2. Tabiatdan kelib chiquvchi favqulodda vaziyatlar geofizik, geologik, meteorologik, dengizdagi xavfli gidrologik hodisalar, tabiiy yong‘inlar.

3. Ijtimoiy biologik xarakterli favqulodda vaziyatlar ochlik, terrorizm, jamoaviy tartibsizlik, alkogolizm, giyohvandlik, toksikomaniya, turli xil zo‘ravonlik aktlari.

Tezkor psixologik yordam kuchli stress holatidagi odamlarga ko‘rsatiladi. Ekstremal vaziyatlarda amalga oshiriladigan psixodiagnostika ishlari o‘zining farqli tomonlariga ega. Vaqt yetishmaganligi uchun standart diagnostik muolajalarni qo‘llash imkoniyati bo‘lmaydi.

Xarbiy xizmatchi xodimlarni psixologik xizmat ko‘rsatish uslublari faoliyatida ham favquloddagi sharoitga qarab aniqlanadi. Ko‘pgina ekstremal vaziyatlarda oddiy psixologik ta’sirning o‘zini qo‘llash samara beradi. Hammasi ekstremal vaziyatlardagi psixologik ta’sir maqsadiga bog‘liq hisoblanadi:

1. birinchi holatda dalda bo‘lish, yordam berish kerak bo‘lsa;
2. ikkinchi holatda vahima, xabarlarni bostirish bilan bog‘liq;
3. uchinchi holatda suhbatlar o‘tkazish zarur bo‘ladi.

Ekstremal vaziyatlar ta’sirida psixologik jarohatni boshdan kechirganlarga yordam berishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- kechiktirib bo‘lmaslik tamoyili jarohatlanuvchiga yordam iloji boricha tezroq ko‘rsatilishi kerakligini bildiradi;
- hodisa joyiga yaqinlashish tamoyilining mazmuni shundaki, odatiy sharoitda va ijtimoiy qurshovda o‘tkazishdan iborat;
- normal holat tiklanishini kutish: stress vaziyatini boshdan kechirgan shaxs bilan normal odam bilan munosabatda bo‘lgandek gaplashish kerak, bemor kabi emas. Normal hayot qaytishiga ishonchni qo‘llab quvvatlash zarur;
- psixologik ta’sir birligi tamoyili ostida shu tushuniladiki, uning manbai yo bir shaxs, yo psixologik yordam muolajasi hamma uchun birdek bo‘lishi kerak;

• psixologik ta’sir oddiyligi shuki, shikastlanuvchini jarohat joyidan olib ketishni, yegulik, dam, xavfsiz muhit va unga tinchlanish imkonini berish zarur.

Tezkor psixologik yordam quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

-amaliy: aholiga bevosita tezkor psixologik va tibbiy yordam (zarur bo‘lganda) ko‘rsatish;

-koordinatsion: maxsuslashtirilgan psixologik xizmat aloqalarini va o‘zaro hamkorlikni ta’minlash.

Xarbiy xizmatchi xodimlari tomonidan psixoterapiya va psixoprofilaktikani o‘tkazish 2 yo‘nalishda olib boriladi.

Birinchi yo‘nalish aholini sog‘lom qismi bilan profilaktika ko‘rinishida.

Ikkinchi yo‘nalish nerv psixik buzilishlari rivojlangan shaxslar bilan psixoterapiya va psixoprofilatika ishlarini olib borish.

Ekstremal vaziyatlarda insonda quyidagi simptomlar paydo bo‘lishi mumkin: alahsirash, gallyutsinatsiya, apatiya, harakat qo‘zg‘aluvchanligi, stupor, agressiya, qo‘rquv, isterika, nerv titrog‘i, yig‘i.[1]

Ushbu vaziyatlarda xarbiy xizmatchi xodimlarni psixologik yordami birinchi navbatda nerv "razryadka"si uchun sharoit yaratishdan iborat.

Alahsirash va gallyutsinatsiya. Inqirozli vaziyat insonda kuchli stressga, kuchli nerv zo‘riqishiga, organizmda muvozanatni buzilishiga, nafaqat jismoniy, balki psixik sog‘lig‘iga ham ta’sir qiladi. Bu mavjud psixik kasallikni zo‘raytirishi mumkin. Alahsirashni asosiy belgisiga jarohatlantiruvchini noto‘g‘riligiga ishontirib bo‘lmaydigan yolg‘on tasavvurlar yoki xulosa chiqarishlar kiradi. Gallyutsinatsiyada esa ayni damda sezgi organlariga ta’sir etmayotgan xayoliy obyektlar mavjudligi hissini boshdan kechirish kuzatiladi (ovozlar eshitish, yo‘q odamlarni ko‘rish, hid sezish...) Bunday holatda:

1. Tezkor psixologik yordamni kutish, tibbiyot xodimlariga murojaat qiling;
2. Soha xodimlari kelgunigacha jarohatlanuvchi o‘ziga atrofdagilarga zarar yetkazmasligini kuzatib turing. Undagi xavf tug‘diruvchi predmetlarni olib qo‘ying;
3. Jarohatlanuvchini izolyasiyalang va bir o‘zini qoldirmang;
4. Jarohatlanuvchi bilan tinch ovozda gaplashing. Uni gapini ma’qullang, ishontirishga harakat qilmang. .[1]

Hissiy xolatdagi buzilish apatiya uzoq zo‘riqishdan, samarasiz ishdan yuzaga keladi; yoki jiddiy omadsizlikdan, o‘z faoliyati mazmunini ko‘ra olish to‘xtaganidan; yoki falokatga uchragan yaqin odamini qutqarib qololmay halok bo‘lganidan yuzaga keladi. Charchoq hissi paydo bo‘ladi harakat qilgisi ham, gapirgisi ham kelmaydi. Harakat va so‘z juda qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Qalbida bo‘shlik, befarqlik, hissiyotni ham namoyon qilishiga kuch yo‘qligi kuzatiladi. Agar insonni bu holatida yordamsiz, ko‘maksiz qoldirsa apatiya depressiya (qiynoqli og‘ir) emosiya, xulqdagi

passivlik, aybdorlik hissi, hayotdagi qiyinchilik oldida ojizlikka o‘tib ketadi. Apatiya bir necha soatdan bir necha haftagacha cho‘zilishi mumkin.

Asosiy belgilari: atrofdagilarga befarq munosabat; tormozlanish, lanjlik; sekin, uzoq pauzali nutq. Ushbu vaziyatda:

1. Jarohatlanuvchi bilan gaplashib ko‘ring. Unga bir qancha oddiy savollar bering: "Isming nima?", "O‘zingni qanday his qilyapsan?", "Biror narsa yeysanmi?".
2. Jarohatlanuvchini dam olish joyiga kuzatib qo‘ying, qulay joylashishiga yordam bering (oyoq kiyimini albatta yeching).
3. Jarohatlanuvchini qo‘lini ushlang yoki o‘z qo‘lingizni peshonasiga qo‘ying.
4. Jarohatlanuvchiga uxlab olish yoki shunchaki dam olish imkonini bering.
5. Dam olishga imkon bo‘lmasa, jarohatlanuvchi bilan ko‘proq gaplashing, uni istalgan hamkorlikdagi faoliyatga jalb qiling (aylanish, choy yoki kofe ichishga borish, atrofdagilarga, yordamga muhtojlarga yordamlashish). [2]

Harakat qo‘zg‘aluvchanligi. Ayrim xollarda inqirozli vaziyatlar zarbidan inson atrofda nima bo‘layotganini tushunishdan to‘xtaydi. U dushman qayerda, qutqaruvchilar qayerda, xavf qayerda ekanini aniqlay olmay qoladi. Inson mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini yo‘qotadi, qafasga tushgan hayvonga o‘xshab qoladi.

Asosiy belgilari: keskin harakatlar, ko‘pincha mazmunsiz; normal bo‘lmagan baland nutq yoki yuqori nutqiy faollik; ko‘pincha atrofdagilarga reaksiyaning yo‘qolishi(iltimos, buyruq, ogohlantirish). Ushbu vaziyatda:

1. "Qo‘lga olish" usulini qo‘llang: jarohatlanuvchini orqasidan turib, qo‘lining tagidan qo‘lingizni kirgizing, o‘zingizga uni bosing va ustingizga yengilgina tashlang; (1 rasm)
2. Jarohatlanuvchini atrofdagilardan izolyatsiyalang;
3. "Ijobiy" nuqtalarni massaj qiling. U ayni damda boshidan o‘tkazayotgan hissiyotlarni tinch ovozda gapiring ("Bular tugashi uchun sen nimadir qilgin kelyapti?", "Yuz berayotgan voqealardan qochib ketgin, berkinib olgin kelyapti?");
4. Jarohatlanuvchi bilan bahslashmang, savol bermang, muloqotda "ma" inkor bor jumlalarni ishlatmang (masalan, "Yugurma", "Qo‘lingni qimirlatma", "Baqirma");
5. Esda tuting jarohatlanuvchi o‘ziga va atrofdagilarga zarar yetkazishi mumkin. Harakat qo‘zg‘aluvchanligi odatda uzoq cho‘zilmaydi va nerv titrog‘i, yig‘i, shuningdek agressiv xulq ko‘rinishlariga o‘tishi mumkin. [1]

Stupor organizmning eng kuchli himoya reaksiyalaridan biri. U kuchli nerv iztirobidan keyin boshlanadi (portlash, bosqinchilik, shafqatsiz zo‘ravonlik). Bunda inson yashab qolish uchun juda ko‘p energiya sarflagani sababli, unda atrof olam bilan kontaktga kirish uchun kuch qolmaydi. Stupor bir necha minutdan bir necha

soatgacha cho‘zilishi mumkin. Shuning uchun yordam ko‘rsatilmasa va jarohatlanuvchi shu holatda uzoq qolib ketsa, bu uni jismoniy madorsizlikka olib keladi. Atrof olam bilan kontakt bo‘lmaganligi sababli jarohatlanuvchi xavfni sezmaydi va undan qutilish choralarini qo‘llamaydi.

Asosiy omillari: ixtiyoriy harakat va nutqni yo‘qligi yoki uni birdaniga pasayishi; tashqi qo‘zg‘atuvchilarga (yorug‘lik, shovqin, tegish) reaksiyaning yo‘qligi; bir pozada qotib qolish, karaxtlik, to‘liq harakatsizlik holati; ayrim muskul guruhlarida zo‘riqish bo‘lishi mumkin. Ushbu vaziyatda:

1. Jarohatlanuvchining ikkala qo‘lining barmoqlarini buklang va kaftining boshlanish qismiga bosing. Katta barmoq tashqarida bo‘lishi kerak. (2 –rasm)

2. Katta va ko‘rsatkich barmoq uchlari bilan jarohatlanuvchining peshonasi, qoshining o‘sish chizig‘i o‘rtasidagi chiziqlar massaj qilinadi.

(–rasm)

3. Bo‘sh qo‘l kaftini jarohatlanuvchini ko‘kragi ustiga qo‘ying. O‘zingizni nafasingizni uning nafas ritmiga moslashtiring. (3- rasm)

4. Stuporga tushgan inson ko‘rishi va eshitishi mumkin. Shuning uchun uning qulog‘iga sekin, past va aniq ovozda kuchli emotsiyani uyg‘otuvchi(yaxshisi salbiy) gaplarni ayting. Istalgan vositalar orqali jarohatlanuvchida reaksiyaniuyg‘oting,







karaxtlikdan olib chiqing.

(1 –rasm) **(2 –rasm)** **(3 –rasm)** **(4 –rasm)** **(5 –rasm)**

Agressiv xulq inson organizmidagi yuqori ichki zo‘riqishni shu orqali pasaytirishga harakat qiluvchi beixtiyor paydo bo‘luvchi usullardan biridir. Agressiya yoki jahl uzoq davom etishi mumkin va bu jarohatlanuvchini o‘ziga hamda atrofdagilarga halaqit qilishi mumkin.

Asosiy belgilari: asabiylashish, norozilik, nafrat (istalgan, hattoki ahamiyatsiz sababga ham); atrofdagilarni qo‘l bilan yoki biror bir predmet bilan urish; haqoratlash; muskul zo‘riqishi; qon bosimini oshishi. Ushbu vaziyatda:

1. Atrofdagilar sonini kamaytirish;

2. Jarohatlanuvchiga ichidagi "olov"ni chiqarib yuborishga imkon bering (masalan, gapirib yoki yostiqni urib chiqazishga);

3. Unga yuqori zo‘riqishli ishni topshiring;

4. Do‘stonalikni namoyon qiling. Jarohatlanuvchini ma’qullamasangizda, uning o‘zini ayblamang, xatti harakatlari borasida fikr bildiring. Aks holda agressiv xulq sizga qaratiladi.

5. “O‘zi qanday odamsan" deyish mumkin emas. "Seni juda qattiq jahling chiqmoqda, hamma yoqni buzib tashlagin kelyapti. Kel ushbu vaziyatdan chiqish yo‘lini birga topishga urinib ko‘ramiz";

6. Sharoitni kulgili izohlar va harakatlar bilan yumshatishga harakat qiling; Inson g‘azablanayotganda unga yordam berilmasa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: o‘z xatti harakatlarini nazorat qilishning pasayishi tufayli inson o‘ylamay qilgan qilmishlari orqali o‘ziga va atrofdagilarga zarar yetkazishi mumkin. [3]

Qo‘rquv. Bola tunda dahshatli tush ko‘rganidan uyg‘onib ketadi. U krovat tagida yashovchi maxluqlardan qo‘rqqani kabi, bir kun avtomobil halokatiga uchragan kishi, yana rulga o‘tirolmaydi. Zilzilani boshidan o‘tqazgan inson omon qolgan kvartirasiga qaytishdan bosh tortadi. Zo‘rlikka duchor bo‘lganlar esa, o‘z podyezdiga kirishga o‘zlarini qiyinlik bilan majburlaydilar. Bularning barchasini sababi qo‘rquvdir. Qo‘rquvning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: muskullarning zo‘riqishi (asosan yuzning); kuchli yurak urishi; yuzaki nafas olish; o‘z xulqi ustidan nazoratning pasayishi. Vahima qo‘rquv qochishga undashi, karaxtlikka yoki aksincha qo‘zg‘alishga, agressiv xulqqa olib kelishi mumkin. Bunda inson nima qilayotganini, atrofda nima bo‘layotganini anglamaydi. Bunday vaziyatda:

1. Jarohatlanuvchining qo‘lini bilagingizga qo‘ying, u sizning tinch pulsingizni sezsin. Bu unga signaldek boradi: "Men hozir yoningdaman, sen yolg‘iz emassan!".

2. Chuqur va bir tekis nafas oling. Jarohatlanuvchini siz bilan bir ritmda nafas olishga undang.

3. Jarohatlanuvchi gapirsa uni tinglang, unga qiziqayotganingizni, tushunayotganingizni, hamdardligingizni namoyon qiling.

4. Jarohatlanuvchi tanasidagi zo‘raygan muskullarni yengil massaj qiling.

Nerv titrog‘i. Ekstremal vaziyatdan keyin boshqarib bo‘lmaydigan nerv titrog‘i paydo bo‘ladi (inson o‘z xohishi bilan ushbu reaksiyani to‘xtata olmaydi). Organizm zo‘riqishni shunday chiqazib tashlaydi. Agar bu reaksiya to‘xtatib qo‘yilsa, zo‘riqish tana ichida qolib ketadi va mushakda og‘riqlar paydo bo‘la boshlaydi, keyinchalik esa gipertoniya, yazva kabi jiddiy kasalliklarni rivojlantiradi.

Ushbu holatning asosiy belgilari: titroq to‘satdan insidentdan keyin birdan yoki bir qancha vaqtdan so‘ng boshlanadi; butun tanada yoki uning alohida qismida kuchli qaltirash paydo bo‘ladi (inson qo‘lida mayda predmetlarni ushlab turolmaydi, sigaretni yoqolmaydi); reaksiya yetarlicha uzoq davom etadi (bir necha soatgacha); keyin inson kuchli charchoqni sezadi va dam olishga muhtoj bo‘ladi. Ushbu vaziyatda:

1. Titroqni kuchaytirish kerak.

2. Jarohatlanuvchini yelkasidan ushlab, 10 - 15 sekund davomida shiddat bilan silkiting.

3. Gapirishda davom eting, aks holda u sizning harakatlaringizni tashlanish sifatida qabul qiladi.

4. Reaksiya tugaganidan keyin dam olishga imkon bering.

Mumkin emas: jarohatlanuvchini quchoqlash yoki o‘zingizga bosish; jarohatlanuvchini issiq narsa bilan o‘rash; jarohatlanuvchini tinchlantirish, o‘zini qo‘lga olishini aytish. [3]

Yig‘i. Qachon inson yig‘lasa, uning ichidan tinchlantiruvchi kuchga ega moddalar chiqa boshlaydi. Bunday vaziyatda yoningda qayg‘uni bo‘lishishga kimdir bo‘lgani yaxshi.

Ushbu holatning asosiy belgilari: inson yig‘layapti yoki yig‘lashga tayyor holatda; lablari qimirlaydi; tushkunlik holati kuzatiladi; isterikadan farqli qo‘zg‘alish belgilari yo‘q. Agar inson ko‘z yoshini ushlab tursa, yengillik bo‘lmaydi. Vaziyat cho‘zilib ketsa, ichki zo‘riqish jismoniy va psixik zo‘riqishga zarar yetkazishi mumkin. Bunda:

1. Jarohatlanuvchini bir o‘zini qoldirmang.

2. Jarohatlanuvchi bilan jismoniy kontakt o‘rnating (qo‘lini ushlang, qo‘lingizni yelkasiga yoki beliga qo‘ying, boshini silang). U siz yonida ekaningizni his qilsin. (5-rasm)

3. "Faol tinglash" usulini qo‘llang (bu unga qayg‘usini chiqarib tashlashiga yordam beradi): "ha", "hmm", so‘zlarini ayting, boshingiz bilan ma’qullang; jarohatlanuvchi o‘z hissiyotlarini bildirgan ayrim gaplarini takrorlang; o‘z hissiyotlaringiz va uning hissiyotlari haqida gapiring.

4. Uni tinchlantirishga urinmang. Savollar, maslahatlar bermang. Faqat eshiting.

Isterika. Isterik tutqanoq bir necha minut yoki bir necha soat davom etadi. Asosiy belgilari: onglilik saqlanib qoladi; ortiqcha qo‘zg‘alish, ko‘p harakatlar, sahnalashtirilgan harakatlar; nutq emosional boy, tez; baqirishlar, arillashlar.

Ushbu vaziyatda:

1. Tomoshabinlarni yo‘qotib, tinch sharoitni yaratish. Jarohatlanuvchi bilan holi qoling, agar bu sizga xavfli bo‘lmasa.

2. Kutilmaganda xayratlanuvchi harakatni amalga oshiring (yuziga urish, suv sepish, baland ovoz bilan predmetni tashlash, birdan baqirish mumkin).

3. Jarohatlanuvchi bilan qisqa frazalarda, ishonch tonida gapiring ("Suvni ich", "Yuzingni yuvib ol").

4. Isterikadan keyin kuchsizlik boshlanadi. Jarohatlanuvchini uxlashga yotqizing. Mutaxassis kelgunicha uni holatini kuzating.

5. Jarohatlanuvchini xohishini bajarmang. [1]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Малкина-Пых И.Г. Экстемальные ситуации.Справочник практического психолога. СПб. –М., Сова – Эксмо, 2005.

2. Соловьева С.Л. Психология экстремальных состояний. СПб., ЭЛБИ, 2003.

3. Кондратенко В.Т. Суицидальное поведение // Психология экстремальных ситуаций: Хрестоматия / Сост. А. Е. Тарас, К. В. Сельченок. Минск, Харвест, 1999.

HARBIY PEDAGOGIKADA MAFKURAVIY KOMPETENTLILIK TUSHUNCHASI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti,
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi
dotsenti fanlari doktori (DSc), dotsent ***D.M.Mamatkulov***

Mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi bugungi kunda ilmiy iste’mol uchun yangi tushuncha hisoblanadi. Chunki, ilmiy izlanishimiz davomida ma’lum bo‘ldiki, mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi mazkur sohaga taalluqli manbalarda, chunonchi:

- milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari yo‘nalishidagi ilmiy adabiyotlar va lug‘atlarda;
- pedagogika va harbiy pedagogika faniga doir ilmiy adabiyotlar va lug‘atlarda;
- O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi va boshqa shu kabi adabiyotlarda;
- internet tarmog‘idagi elektron manbalarda u ilmiy atama sifatida uchramaydi.

Ma’lumki, fan har bir yangi tushunchani ilmiy iste’molga kirib borishida ushbu tushunchaning mohiyatini ochib beruvchi muayyan ta’rifni taqozo etadi. Bu talab mafkuraviy kompetentlilik tushunchasiga ham taalluqlidir. Olib borilgan tahlillar natijasida mafkuraviy kompetentlilik tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rif berildi: *«Mafkuraviy kompetentlilik – bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va muayyan mafkura bo‘yicha kuchli e’tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o‘z mafkurasidagi g‘oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olishini ko‘rsatuvchi xususiyatdir».*

Mafkuraviy kompetentlilikda uchta asosiy komponent mavjud. Ular:

1. Mafkura sohasida chuqur ilmiy-nazariy bilimga egalik;
2. Muayyan mafkura bo‘yicha kuchli e’tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi;
3. O‘z mafkurasidagi g‘oyalarni boshqa insonlarda ham shakllantira olish malakasiga ega bo‘lish.

Ta’kidlash kerakki, shaxsda yuqoridagi uch komponentning birgalikda mavjud bo‘lishi uning mafkuraviy kompetentliligini to‘laqonli rivojlanganini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra bugungi kunda harbiy ta’lim muassasasi «pedagog kadrlarning mafkuraviy masalalar borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish»[1] maqsadga muvofiq.

Harbiy pedagogika haqida so‘z borganda, albatta, bu faoliyat uchun nafaqat kasbiy, balki mafkuraviy kompetentlik ham o‘ta zarur ekanini ta’kidlash lozim. Zero, kasbiy kompetentlilik deganda, harbiy ta’lim muassasasi pedagogining «ma’naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya’ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyati...»[2] tushuniladigan bo‘lsa, mafkuraviy kompetentlilik deganda, uning (bunyodkor va vayronkor) mafkuralar bo‘yicha chuqur bilimga egaligi va bunyodkor mafkura bo‘yicha kuchli e’tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o‘zi ishongan mafkuradagi g‘oya va qarashlarni kursantlarda ham shakllantira olish malakasini ko‘rsatuvchi xususiyat tushuniladi.

Harbiy pedagogikada, xususan harbiy pedagog faoliyatida kasbiy va mafkuraviy kompetentlilikni bir-biridan ayro holda qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki, harbiy pedagogning kasbiy kompetentliligi asosan kursantlarga ta’lim berishni tashkil etishga qaratilgan bo‘lsa, undagi mafkuraviy kompetentlilik kursantlarga (ma’naviy va g‘oyaviy) tarbiya berishni tashkil etishga qaratilgan bo‘ladi. Binobarin, kursantlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun «ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi»[3].

Mafkuraviy kompetentlilik haqida so‘z borganda, albatta u faqat bunyodkor mafkuraga asoslangan bo‘ladi, deya xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki, ijtimoiy hayotda boshqa mafkuralar, jumladan, vayronkor mafkuralar (diniy aqidaparastlik, «ommaviy madaniyat», missionerlik va boshqa g‘oyalar)ni targ‘ib etuvchi shaxslarda ham o‘z mafkuralariga asoslangan kompetentlilik mavjud bo‘lishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Xulosa qilib aytganda, *birinchidan,* harbiy pedagogika bilan mafkura o‘rtasida o‘ziga xos dialektik aloqa mavjudligini e’tirof etish lozim. Zero, har bir mamlakatning ta’lim jarayonida ana shu mamlakatning rasmiy (huquqiy asosga ega) yoki norasmiy (huquqiy asosga ega bo‘lmagan) mafkurasi katta rol o‘ynaydi.

Ikkinchidan, mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi harbiy pedagogika uchun yangi ilmiy atama bo‘lib, taklif etilayotgan ta’rifga ko‘ra, *mafkuraviy kompetentlilik – bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va muayyan mafkura bo‘yicha kuchli e’tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o‘z*

[1] Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Т.: Ўзбекистон, 2012. –212 б.
[2] Турғунов С.Т. ва бошқалар. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлилигини ривожлантиришда таълим муассасаси раҳбарларининг функционал вазифалари. – Т.: Сано-стандарт, 2011. –77 б.
[3] Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2011. –62 б.

mafkurasidagi g‘oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olishini ko‘rsatuvchi xususiyat tushuniladi.

Uchinchidan, harbiy ta’lim jarayonini tashkil etish va uni boshqarish jarayonida kasbiy va mafkuraviy kompetentlilikni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Zero, kasbiy kompetentlilik deganda, harbiy pedagogning psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, uning kasbiy imkoniyatlari tushuniladigan bo‘lsa, mafkuraviy kompetentlilik deganda rahbarning mafkura sohasi bo‘yicha chuqur bilimga egaligi va bunyodkor (milliy) mafkuraga asoslangan e’tiqodi (mafkuraviy immunitet)ning mavjudligi va milliy g‘oyamizni kursantlar ongida shakllantira olish malakasini ko‘rsatuvchi xususiyat tushuniladi.

To‘rtinchidan, mafkuraviy kompetentlilik haqida so‘z borganda, albatta, u faqat bunyodkor mafkuraga asoslangan bo‘ladi, deya xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki, ijtimoiy hayotda boshqa mafkuralar, jumladan, vayronkor mafkuralarni targ‘ib etuvchi shaxslarda ham o‘z mafkuralariga asoslangan kompetentlilik mavjud bo‘ladi. Shuning uchun ham harbiy pedagoglarining mafkuraviy kompetentliligi haqida so‘z borganda, ularda bunyodkor mafkuralar, jumladan, milliy mafkuraga asoslangan mafkuraviy kompetentlilikni rivojlantirishni nazarda tutish lozim bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda milliy mafkuraga asoslangan mafkuraviy kompetentlilikni rivojlantirish masalasini tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa kabi fanlarda o‘rganilishidan tashqari aynan harbiy pedagogika fani nuqtai nazaridan ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, hozirda harbiy pedagoglarda milliy mafkuraga asoslangan mafkuraviy kompetentliligini rivojlantirish orqali kursantlarni ma’naviy va g‘oyaviy kompetentliligini yuksaltira olsak, bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan «bunday sharoitda mafkura sohasidagi g‘alabaning ahamiyati siyosat va iqtisodiyot sohasidagi g‘alabanikidan kam bo‘lmaydi»[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2011.-62 б.
2. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Т.: Ўзбекистон, 2012. –212 б.
3. Turg‘unov S.T. va boshqalar. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda ta’lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. – T.: Sano-standart, 2011. –77 b.

[4] Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 74 б.

HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY MAHORATI VA MA’NAVIY QIYOFASINI YUKSALTIRISHDA BADIIY ASARLARNING O‘RNI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti,
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi
dotsenti fanlari doktori (DSc), dotsent D.M.Mamatkulov

Biz kimmiz, ne bir sir-sinoatmiz, tiriklik olamidagi missiyamiz – bizga yuklatilgan vazifa qanday?

Mazkur juda ulkan, ma’nodor savollarga yaratguvchi tomonidan shunday javob berilgan: «Iqro’ bismi robbika». Ya’ni, «Qur’oni Karimning ilk nozil bo‘lgan oyatida «Robbing nomi bilan O‘qi!» deyilmoqdaki, shundan o‘qish va uning asosi bo‘lgan kitobni hayotimizdagi ulkan rolini anglash mumkin.

Shu o‘rinda kitob haqida kichik tushuncha berib o‘tsak, Kitob xalqaro me’yorlarga ko‘ra, ya’ni YuNESKO tavsiyasiga ko‘ra, hajmi 3 bosma taboq - 48 sahifadan kam bo‘lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashr hisoblanadi.

Biz bilgan zamonaviy shakldagi kitoblar kitob evolyusiyasining yuqori bosqichida kashf etilgan. Unga qadar ma’lumotlar tosh plitalari, sopol yoki yog‘och taxtalar, papirus parchalari, bambuk tayoqchalari, pergament (teri) kabilarda saqlangan va kelajak avlodga yetkazilgan. Qog‘ozni kashf etilishi kitobni tayyorlash tarixida alohida rol o‘ynagan. Mazkur jarayon tufayli kitob bosish ishi - poligrafiya yuzaga kelgan.

Milodiy II-IV-asrlarda Qadimgi Rimda xuddi hozirgi kitoblarning varaqalari singari buklab, tikib tayyorlangan va bir-biriga biriktirilgan, muqovali kitoblar — kodeks paydo bo‘lgan. Bugungi kunda biz biladigan huquqiy sanksiyalar to‘plami bo‘lgan kodeks aslida, muqovali kitob ma’nosini bildiradi.

Sharqda ham jumladan, qadimgi Turon va Movvaraunaxrda kitobxonlik va uni tayyorlash yuqori darajada rivojlangan. Xususan, bir dona kitobni tayyorlanishida qog‘oz tayyorlovchi, rang beruvchi, xattot, muqovasoz, musavvir, lavvoh, saxxof kabi 10 ortiq kasb egalari ishtirok etishgan. O‘sha davrda shunday yo‘llar bilan Samarqand qog‘ozi ishlatilgan holda tayyorlangan kitoblar avvalo qimmatli bilimlar manbai, qolaversa qimmatbaho sovg‘a ham hisoblangan. Shuning uchun ham Sharq davlatlarida taxtga chiqqan yoki zafar qozongan shohlarga hamda xorijdan kelgan juda qadrli mexmonlar yoki elchilar orqali ularning xukmdorlariga kitoblar sovg‘a qilish saroy an’analaridan biri bo‘lgan.

XV asrning 40-yillarida Germaniyada Iogann Gutenberg tomonidan kitob bosish ixtiro qilinishi kitob nusxalarini ommaviy ko‘paytirish ishini boshlab bergan. Turkistonda bosma usuli bilan kitob chiqarish 1868-yil Toshkentda Turkiston harbiy okrugi shtabining bosmaxonasi tashkil etilgan. Shu bosmaxonada nashr etilgan rus

olimi va sayyohi N.A.Seversovning “Chu va Norin tizmalari etagidagi tog‘li o‘lka to‘g‘risida lavhalar” (rus tilida) kitobi Turkistondagi ilk bosma kitob hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi birinchi bosma kitob Shohimardon Ibrohimovning 1871-yil Xivada bosilgan “Taqvim” ya’ni “Kalendar” nomli kitobidir.

Ta’kidlash kerakki, tosh bosma kitoblar kashf etilgunga qadar kitob avvalo ilm manbai, san’at asari, sovg‘a vositasi va zadogonlik belgisi bo‘lgan bo‘lsa, bosma shaklda katta tirajlarda kitob tayyorlash imkoniyati vujudga kelgach esa, kitob ilm manbaidan mafkuraviy manba, mafkura quroliga ham aylana borgan.

Jumladan, oktabr to‘ntarishidan so‘ng sovet tuzumi davrida kitob bosish ishi birmuncha rivojlanib, ommaviy kitoblar yaratish ishiga katta ahamiyat berilgan. Lekin, Sovetlar avvalo kitobga qudratli mafkuraviy qurol sifatida qaragan. Ular shu maqsadda juda ko‘p nomda va nusxada marksizm-leninizm asarlari, kommunistik mafkura ruhidagi ijtimoiy siyosiy, badiiy, ilmiy va darslik kitoblarini nashr etishgan.

Ayni vaqtda, Sovetlar tomonidan 20-30-yillarda kommunistik mafkuraga zid, deya Vatanimizda asrlar mobaynida saqlanib kelingan qo‘lyozmalar, ayniqsa diniy va tarixiy kitoblar, keyinroq katag‘onga uchragan o‘zbek yozuvchilarining asarlari yo‘q qilina boshlangan. Yaqin tariximizda kitoblar ham manashu tariqa mafkuraviy kurash jarayoniga tortilgan.

Mazkur masalaga bevosita maqolamiz mavzudan kelib chiqqan holda to‘xtaladigan bo‘lsak, sobiq sovet davrida harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati va ma’naviy qiyofasini yuksaltirishga ta’sir etadigan ilmiy, kasbiy va badiiy asarlar yuqorida ta’kidlaganimizdek, asosan kommunistik mafkura ruhi ustuvorligi hamda rus tili va madaniyati targ‘ibotiga qaratilgan xolda yaratilgan. Sovet davrida II jahon urishi davridagi zaruriy ehtiyoj sababli Oybek tomonidan “Mahmud Torobiy”, H.Olimjon tomonidan “Muqanna”, M.Shayxzoda tomonidan “Jaloliddin Manguberdi” asarlari o‘zbek kitobxonlariga taqdim etilganini hisobga olmaganda deyarli milliy harbiy qahramonlarimiz hayotiga bag‘ishlangan ilmiy va badiiy asarlar chop etilmagan.

Mazkur tendensiya mustaqillik yillarida ham harbiy sohadagi ta’lim va tarbiyaga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mustaqillik yillarida ham harbiy sohaga oid bevosita kasbga yo‘naltirilgan ilmiy adabiyotlar va harbiy fanlarga oid darsliklar rus tilida saqlanib qolaverdi.

Bugungi kunda ham harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan fanlarga oid darslik va adabiyotlarning katta qismi rus tilida saqlanib qolayotgani yoki tarjima kitoblarda professional tarjimaga amal qilinmagani: o‘zbek tilining mantiqi, talaffuzi inobatga olinmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimalar amalga oshirilayotgani ham ushbu sohada muammolar hali ham mavjudligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash lozimki, o‘z vaqtida musulmon olamida birinchi Renensans avvalo islomiy bilimlarga va qolaversa, qadimgi yunon faylasuflarining asarlari tarjimalariga

asoslangani barchamizga ma’lum. Mana shu jarayonda faoliyat olib borgan allomalar tarjima ishiga juda professoinal yondashgani, bu jarayonda arab tilining mantiqi, talaffuzi to‘liq hisobga oliganini ko‘rish mumkin. Birgina misol yunon tilida “kan’on” iborasi arab tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri olinmasdan “qonun” shaklida olingani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda rus tilidagi harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan fanlarga oid darslik va adabiyotlar saqlash hamda uni o‘zbek tiliga professional darajada tarjima qilish dolzarb masala. Undan tashqari harbiy sohada faqat rus tilidagi adabiyotlar manbaiga tayanib qolmasdan, hozirda harbiy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan (ingliz, nemis, fransuz va boshqa shu kabi) davlatlarning bu boradagi tajribalarini o‘rganish ulardan ilmiy va fanlarga oid darslik va adabiyotlarni o‘zlashtirish ham bugungi kunning muhim talabidir.

Yana bir masalaga alohida to‘xtalish zarurki, u ham bo‘lsa ichki potensial kuch – harbiy sohada ilmiy ijod bilan shug‘ullanadigan olimlar masalasidir. Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda O‘zbekiston qahramoni, halq shoiri Abdulla Oripov aytganidek, “***Temur tig‘i yetmagan joyni, qalam bilan oldi Alisher...***” zamoniga yetib keldik. Ya’ni, bugungi zamon qurol kuchi qatorida qalam kuchini, faol ilmiy ijodni talab etayotgan zamondir. Shu ma’noda harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan fanlarga oid darslik va adabiyotlarni o‘zimizning harbiy olimlarimiz kuchi bilan yaratish, milliy harbiy kutibxonani shakllantirish juda dolzarb masala hisoblandi.

Ta’kidlash kerakki, harbiy xizmatchilar ham o‘z faoliyatida inson sifatida ikki: ong va qalb markaziga tayanadilar. Ularning ongi - intelektini shakllanishida kasbiy faoliyatga qaratilgan darslik va ilmiy adabiyotlar asosiy rol o‘ynasa, qalbida yuksak tuyg‘ularni shakllanishida badiiy adabiyotlar asosiy rolni o‘ynaydi.

Bugungi kunda harbiy-vatanparvarlik, axloqiy ruhiy tayyorgarlikka kuchli ta’sir etuvchi badiiy asarlar talaygina. Ularga misol qilib, Ernest Xemenguyning “Alvido, qurol”, Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni”, Fenimor Kuperning “Josus”, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” va boshqa ko‘plab asarlarni keltirish mumkin. Mazkur asar mualliflarini bevosita urush fojealariga guvoh bo‘lganliklari ham ushbu asarlarni o‘qish harbiy xizmatchilar uchun naqadar zarurligini ko‘rsatib beradi.

Jahon adabiyotida bu kabi asarlar yetarli bo‘lsada o‘zbek milliy adabiyotida shu kungacha harbiy-tematik badiiy asarlar yetishmasligi kundek ravshan. O‘z vaqtida yaratilgan Odil Yoqubovning «Onaizor», Shuhratning «Shnelli yillar», Mirkarim Osimning «Jayxun uzra bulutlar» kabi asarlar ham bugungi kunda harbiy xizmatchilarining badiiy adabiyotga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondira olmaydi.

Ta’kidlash lozimki, o‘zbek davlatchilik tarixida Vatan ozodligi yo‘lida kurash olib borgan tarixiy shaxslar minglab badiiy asarlarga personaj bo‘lishi uchun yetarlidir. Bizningcha, harbiy xizmatchilar hamda mamlakatimiz kitobxonlari uchun Shiroq,

To‘maris, Sipitamen, Muqanna, Gurak, Divartich, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Amir Temur, Z.M.Bobur, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon, Abulg‘oziyxon, Amir Shohmurod, Amir Umarxon, Qurbonjon dodxoh, Yetimxon, Darvishxon to‘ra, Muhammad Yoqubbek, Alimqul dodhoh, Xolxo‘ja, Ergash qo‘rboshi, Shermuhammadbek, Madaminbek qo‘rboshi, Mamadali Topvoldiev va boshqa shu kabi harbiy qahramon ajdodlarimiz hayoti va jasoratlariga oid badiiy asarlarni yaratilishi milliy harbiy-tematik yo‘nalishidagi badiiy asarlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo‘nalishdagi ehtiyojlarni qondirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi nafaqat tarixiy qahramonlarimiz va ayni vaqtda zamondosh Vatan himoyachilari – (1999-yil Toshkent voqealari, 2000-yil Sariosiyo, Uzun tumanidagi harbiy xarakatlar, 2005-yil Andijon voqealari qatnashchilari bo‘lgan) qahramonlarning mardonavor obrazini yaratib beradigan badiiy asarlar yaratilishiga asosiy buyurtmachi bo‘lishi zarur hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan fanlarga oid darslik va ilmiy adabiyotlar ham va ayni vaqtda ularni axloqiy-ruhiy jihatdan ma’nan oziqlantiruvchi badiiy janrdagi asarlar ham mamlakat mudofasining bir qismi hisoblanadi. Hozirda mazkur sohaga tegishli ilmiy, kasbiy va badiiy adabiyotlar saviyasini nazariy va amaliy jihatdan davr talablari asosida ta’minlay olsak, ushbu sohasidagi g‘alabaning ahamiyati siyosat va iqtisodiyot sohasidagi g‘alabanikidan kam bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi.
3. Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти. Т.: “Ғофур Ғулом” нашр. 2007.
4. Пахрутдинов Ш.И. Барқарор тараққиёт ва раҳбар маъсулияти. – Т.: Академия, 2011.
5. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O‘zbekiston, 2012. –212 b.

ТЕОРИТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ КУРСАНТОВ АКАДЕМИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН (психолого-правовые аспекты)

Махмудов Р.М.
профессор, доктор педагогических наук, профессор кафедры педагогического и психологического обеспечения служебной деятельности Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, E-mail: maxmudovrozmet1965@mail.ru.

Имиров С.К.
[1] магистр экономических наук, начальник Факультета Национальной гвардии Национального Университета обороны Республики Казахстан, г. Астана, полковник, E-mail: imirov67@mail.ru

Республика Казахстан, как демократическое и правовое государство, в строгом соответствии с общепризнанными принципами и нормами международного права, признаёт соблюдение и защиту прав и свобод человека и гражданина – обязанностью государства[5].

После «январских событий» 2022 года, в Республике Казахстан последовательно и своевременно, путем республиканского референдума были проведены конституционные реформы[6], направленные на усиление защиты конституционных ценностей, обеспечение прав и свобод граждан, развитие демократизации и укрепление правозащитных механизмов, а также повышение ответственности граждан страны[7].

Глава государства Касым-Жомарт Токаев в своем выступлении на сессии АНК подчеркнул необходимость повышения правовой культуры граждан. «Следует последовательно повышать правовую культуру людей, культивировать в общественном сознании созидательные ценности. Каждый гражданин должен оценивать свои слова и действия с точки зрения закона, четко понимать правовые последствия своих поступков. «*Плюрализму – да, радикализму – нет*» – этот принцип остается незыблем», - сказал Касым-Жомарт Кемелевич Токаев[8].

Объектом правовой культуры является право, которое рассматривается в рамках основных концепций теории права – социологической, нравственной и

[5] Конституция Республики Казахстан. Принята 30 августа 1995 года на республиканском референдуме (с изменениями и дополнениями от 19.09.2022 года). Ст.1,2,3,36 htt://online.zakon.kz

[6] Послание Президента Республики Казахстан Касым-Жомарта Токаева народу Казахстана «Новый Казахстан: путь обновления и модернизации», от 16 марта 2022 года // Официальный сайт Президента РК.URL: https://akorda.kz.ru/1623953

[7] С.Ударцев. Путем демократических реформ и усиление правозащитных институтов//газета «Казахстанская правда» от 26 апреля 2022 года, стр.4

[8] Касым-Жомарт Токаев. Выступление на XXXII сессии Ассамблеи народа Казахстана,27 апреля 2023 года. https://www.akorda.kz/ru-273234

нормативной. Право – это юридическое понятие, а культура имеет философское значение. Таким образом, в совокупности право и культура представляет собой нравственное и нормативное положения.

Правовая культура охватывает все ценности, которые созданы деятельностью людей в области права. Она охватывает право, правосознание, правовые отношения, законность и правопорядок, в том числе и правовой менталитет нации и отдельных категорий граждан[9].

Так, к числу наиболее важных принципов правовой культуры Республики Казахстан можно отнести: легитимность государственной власти, взаимная ответственность государства и личности, разделение властей, высокий уровень законности, единство естественного и позитивного права[10].

По мнению кандидат политических наук Г.Р. Абсаттарова: «правовая культура казахстанцев отражает идейно-правовое состояние казахстанского общества на определенном историческом этапе, характеризует уровень правосознания, знание права, уважение к закону. Состояние и развитие правового сознания народа Казахстана - это не только уровень развития нормативных и индивидуальных юридических актов Казахстана, это еще и уровень развития всей правовой деятельности, уровень развития всего права, это право - психологический, социально-политический климат, правовые ценности, идеалы, традиции и обыкновения и, главное, это реальное правовое, социально-политическое положение личности, уровень ее прав и свободы поведения, гарантированных государством. Правовая культура Казахстана по существу выступает выражением, отражением как сущности содержания и функций правового государства, так и результатом осуществления казахстанской правовой политики, в основе чего лежит воспитание правовой культуры населения»[11].

Как отметил известный казахский ученый, доктор юридических наук, профессор, академик НАН Казахстана С.З.Зиманов: «Казахское право «Жаргы» явившееся миру в развитом виде в XVII-XVIII веках, до сих пор, спустя столетие, занимает умы и сохранился в памяти народа как непреходящая живая ценность культуры»[12].

---

[9] Правовая культура: содержание и формы существования. Авторы: А.В.Петров, О.М. Симканич. Вестник Нижегородского университета им.Н.И.Лобачесвского, 2009г. №2 стр.186-193.

[10] Г.Р. Абсатаров. Приоритеты правовой культуры Республики Казахстан: политологические аспекты. https://cuberleninka.ru/frticle/nprioritety-pravovoy-kultupy-respubliki-kazahstan-politologicheskie-aspekty

[11] Г.Р. Абсатаров. Состояние и развитие правового сознания народа Казахстана. Автореферат

[12] Зиманов С.З. Мир права казахов «Жаргы» - уникальная система права. Журнал «Закон.kz. https://journal.zakon.kz/203736/mir-prava-kazakhov-zhargy-unikalnaja.html/

Таким образом, правовая культура является одной из важных составляющих общей культуры граждан[13] и представляет социально значимое и прогрессивное в правовой сфере общества и государства, способствует укреплению правосознания, демократии, правопорядка и законности, усилению защиты прав и свобод гражданина.

Правовая культура включает в себя:

– правовые ценности и нормы, которыми руководствуется личность, группа людей и в целом общество;

- правовые знания, объективное отношение личности и общества к праву;

- уровень *правосознания* личности и правовая деятельность общества в процессе жизнедеятельности.

Эти *три компонента* и представляют правовую культуру.

Основными характеристиками правовой культуры человека является понимание каждым человеком роли права в жизни общества, правовые знания и осознанная готовность следовать правовым нормам, уважение к правовым ценностям и нормам. Эти качества проявляются в повседневном труде, общении и поведении человека или группы людей. Соблюдение правовых норм непосредственно связано с сознанием человека, его установками, ценностями и правовой грамотностью, а высокий уровень правовой культуры человека способствует правомерному и законопослушному поведению в обществе.

В этом контексте сформулирован тезис: Правовая культура начинается с уважения прав других, по принципу: «Права и свободы человека заканчиваются там, где начинаются права и свободы другого».

На правовую культуру человека влияют: социальная среда (окружение) и уровень общественных отношений; социально-экономические условия и существующие правовые нормы; состояние законности и правопорядка в стране, а также состояние идеологической и правовоспитательной деятельности государства.

Наличие высокой правовой культуры является важным составляющим профессиональных и моральных деловых качеств и в большей степени относится к офицерским кадрам Национальной гвардии, поскольку нельзя грамотно осуществлять руководство действиями подчиненных без знания и правильного понимания требований военного законодательства, обеспечения личной примерности в соблюдении требований законов и нормативно-правовых актов Республики Казахстан. Правовая культура офицера закладывается с курсантской скамьи, формирование которой интенсивно происходит в период обучения в Академии Национальной гвардии Республики

[13] О.В.Чернышов. Правовая культура казахстанцев. ОФ «Центр развития местного самоуправления» г.Усть-каменогорск. https://www.osce.org/files/f/dokument/0/4/94411.pdf

Казахстан, в которой налажена стройная система воспитательной и социально-правовой работы с курсантами. Вместе с тем, анализ состояния воинской дисциплины среди курсантов показывает, что уже в период обучения ими допускаются нарушения воинской дисциплины[14], что не приемлемо для будущих офицеров.

На современном этапе развития в Республики Казахстан осуществлены конституционные реформы, направленные на обеспечение правовых основ государства, наблюдается социально-правовая активность граждан, появились новые тенденции формирования правовой культуры в обществе, претерпевают изменения, как в ее содержании, так и средства и формы ее осуществления. Все это требует современного анализа и подхода к формированию правовой культуры курсантов Академии Национальной гвардии Республики Казахстан, как части казахстанского общества.

Правовая культура курсантов Академии Национальной гвардии Республики Казахстан является, система знаний ими своих прав, обязанностей и ответственности, умение самостоятельно ориентироваться в различных правовых ситуациях и принимать правильные решения, соотносить свое поведение с существующими нормами права. В свою очередь, это предполагает осознанное соблюдение курсантами требований законов, военной присяги, общевоинских уставов и приказов командиров (начальников)[15]. Кроме того, военно-социальная среда, условия воинской службы, требования законов, воинских уставов и военно-уставные отношения являются факторами формирования правовой культуры курсантов. Негативные процессы в воинской и социальной среде трансформируют сознание курсанта и запускают личностные мотивационные механизмы, культивируют правовой нигилизм, продуцируют новые нарушения.

Определенное несоответствие уровня правовой культуры курсантов Академии Национальной гвардии Республики Казахстан затрудняет процесс формирования у будущих офицеров необходимых профессиональных и морально-деловых качеств, включающее, в том числе высокий уровень правовой культуры. Преодолеть отмеченные проблемы возможно через совершенствование правовой культуры курсантов, путем выработки и применение эффективным форм и методов работы.

Курсант Национальной гвардии Республики Казахстан, как гражданин своего государства и член казахстанского общества в свободное от службы

[14]См.: Справка анализ состояния законности и правопорядка в Академии Национальной гвардии Республики Казахстан за 2018-2023гг.

[15] Статьи,1-5Дисциплинарного устава ВС, других войск и воинских формирований Республики Казахстан. Утвержден Указом Президента Республики Казахстан №364 от 05 июля 2007 года. https//adilet.zan.kz/rus/docs/u070000364.

время вступает в отношения с другими гражданами, государственными служащими, общественными организациями для решения личных проблем и реализации своих прав, не связанных с прохождением воинской службы. Кроме того, курсанты, реализуя свои конституционные права, участвуют в жизни общества и государства, а при выполнении служебных обязанностей обязаны соблюдать законность и правопорядок[16]. Соответственно, высокое правосознание и правовая культура курсантов позволяет качественно выполнять ими своих обязанностей, с достоинством и честью представлять Национальной гвардии в глазах граждан.

Повседневная деятельность курсантов Национальной гвардии Республики Казахстан имеют свою особую специфику и особенности. Объясняется это тем, что их профессиональная деятельность, весь уклад жизни и быта направлены на решение получение воинской специальности, предусматривающий выполнение важных государственных задач, участия в общественной жизни государства, управление подчиненным подразделением, воинским коллективом.

Следовательно, усилия органов военного управления Национальной гвардии Республики Казахстан, профессорско-преподавательского состава Академии Национальной гвардии необходимо направить на совершенствование правовой культуры курсантов.

Формы и методы воспитательной и социально-правовой работы с курсантами определяются Руководством по организации воспитательной и социально-правовой работы с личным составом Национальной гвардии Республики Казахстан[17], а также тематикой занятий по государственно-правовой подготовке с личным составом, что позволяло курсантам получать начальные правовые знания, а также навыки и умения применения практике норм поведения и соблюдения требований общевоинских уставов.

Формирование правовой культуры курсантов Академии Национальной гвардии Республики Казахстан, является одним из важных направлений деятельности как руководства вуза и командиров учебных групп, так и профессорско-преподавательского состава, поскольку проникает в область правовой идеологии, мировоззрения, укрепляет их правовые чувства, убеждения и установки курсантов. Стоящие перед преподавателями задачи по формированию у курсантов правовой культуры, требуют использования современных подходов в обучении и воспитании.

---

[16] Закон Республики Казахстан «О Национальной гвардии Республики Казахстан» №274-УЗРК от 10.01.2015 г. (с изм.и доп. от 01.07.2023г.). Статьи 1,2,3,18,27 см. URL: https://akorda.kz.ru/152636

[17] Приложения №1,23 к приказу МВД РК №270 от 06.06.2023г. Руководство по организации воспитательной, социально-правовой, психологической и идеологической работы с личным составом Национальной гвардии (часть 1,2,3).

Под правовой культурой курсанта понимается совокупность правовых знаний, ценностей, представлений и чувств, выражающих отношение к праву. Оно формируется под непосредственным воздействием общества и государства в целом, различных социальных групп, сослуживцев в частности и динамично развивается под влиянием меняющихся объективных условий и процессов. Правовая культура курсантов должно включать и осознание необходимости строгого выполнения законов, что в свою очередь является непременным компонентом успешной правоприменительной деятельности в повседневной жизни.

В заключение выделим основные составляющие системы формирования правовой культуры у курсантов.

1. Основной этап формирования правовой культуры курсантов — это освоение основной образовательной программы высшего образования, в рамках которого предусмотрены изучение и правовых дисциплин («Основы права», «Основы антикоррупционного законодательства», «Правовые основы применения НГ»). Содержание этого этапа определяется Государственным общеобразовательным стандартом высшего образования в Республике Казахстан (далее - ГОСО)[18]. В результате освоения образовательной программы у выпускника должны быть сформированы профессиональные компетенции в той сфере деятельности, к которой готовится выпускник.

2. Выработка у курсантов зрелого юридического мышления и вовлечение их в правовую деятельность.

Это возможно реализовать при помощи занятий, информирований, правового всеобуча, встреч и бесед, во взаимодействии с другими военными правоохранительными органами и военной прокуратурой. Кроме того, в качестве положительного опыта следует отметить совместную межведомственную программу «**В армии нет место преступности**»[19].

3. Формирование устойчивого антикоррупционного мировоззрения и поведения.

4. Как отмечают исследователи[20], коррупция как социальное явление и проводимая государственная антикоррупционная политика становятся предметом изучения в образовательной деятельности, а также объектом нравственной и правовой оценки. У курсантов происходит осмысление личного

[18] Государственный общеобразовательный стандарт высшего образования в Республике Казахстан. Утвержден приказом Министра науки и высшего образования РК №2 от 20 июля 2022 года.

[19] См. Республиканская межведомственная Программа в Вооруженных силах, других войсках и воинских формированиях «В Армии нет место преступности» на 2021-2023гг.

[20] Формирование антикоррупционного мировоззрения у школьников и студентов : науч.-исслед. работа ФГБОУ ВПО «Московский государственный юридический университет имени О. Е. Кутафина (МГЮА)» [Электронный ресурс]. URL: http://msal.ru (дата обращения: 20.12.2019).

опыта и информационного фона, соответствующее преломление приобретает изучение истории, литературы, устройства общества и государства, развития правовой системы и т.д. Это, несомненно, способствует формированию устойчивого антикоррупционного мировоззрения.

5. Вовлечение курсантов в научную деятельность — участие курсантов в научных конкурсах и научных мероприятиях создают условия для творческой самореализации личности.

6. Патриотическое воспитание курсантов, которое нацелено на развитие нравственных и патриотических чувств, приобщение к отечественной истории и культуре.

7. Вовлечение курсантов в волонтерскую работу. Именно в этом направлении реализуется принцип инициативности курсантов в выборе способов самореализации; формируется позиция и отношение курсантов к тем или иным событиям и ситуациям, что имеет особую важность как для социума, так и для самой личности курсанта[21].

Следовательно, у курсанта формируется теоретическая правовая база, накапливаются знания, появляются навыки работы с юридической литературой, умение анализировать нормативные правовые акты, а также применять их.

Какие критерии можно применить для оценки уровня правовой культуры курсантов:

– уровень овладения курсантами объемом правовых знаний;

– умение правильно трактовать нормативные правовые акты;

– способность курсантов оценивать социальную обстановку с точки зрения правовых норм и их устойчивая гражданская позиция;

– умение курсантов дифференцировать правовые и общечеловеческие ценности;

– умения и навыки применять правовые знания на практике;

– пренебрежение к фактам правонарушений и негативным явлениям в обществе и воинской среде.

Вместе с тем, на формирование правовой культуры влияет не только качество преподавания правовых дисциплин, но и своевременность их изучения. Так, в Академии НГ РК изучение дисциплины «Основы права» изучается в четвертом семестре (всего 2 кредита), «Основы антикоррупционного законодательства» в восьмом семестре (1 кредит), «Правовые основы применения НГ» 4 часа на первом курсе.

Таким образом, формирование правовой культуры у курсантов Академии Национальной гвардии Республики Казахстан должно выступать как часть

[21] Семенов В. Е. Актуальные проблемы теории правосознания и правовой культуры молодежи // Вестн. Ставропольского гос. ун-та. 2005. № 4. С. 158–166.

процесса усвоения личностью курсанта необходимых правовых знаний, умений, навыков и личностных качеств в системе правового воспитания.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Конституция Республики Казахстан. Принята 30 августа 1995 года на республиканском референдуме (с изменениями и дополнениями от 19.09.2022 года). Ст.1,2,3,36 htt://online.zakon.kz.
2. Послание Президента Республики Казахстан Касым-Жомарта Токаева народу Казахстана «Новый Казахстан: путь обновления и модернизации», от 16 марта 2022 года // Официальный сайт Президента РК.URL: https://akorda.kz.ru/1623953.
3. Ударцев С. Путем демократических реформ и усиление правозащитных институтов//газета «Казахстанская правда» от 26 апреля 2022 года, стр.4.
4. Касым-Жомарт Токаев. Выступление на XXXII сессии Ассамблеи народа Казахстана,27 апреля 2023 года. https://www.akorda.kz/ru-273234
5. Правовая культура: содержание и формы существования. Авторы: А.В.Петров, О.М. Симканич. Вестник Нижегородского университета им.Н.И.Лобачесвского, 2009г. №2 стр.186-193.
6. Абсатаров Г.Р. Приоритеты правовой культуры Республики Казахстан: политологические аспекты. https://cuberleninka.ru/frticle/nprioritety-pravovoy-kultupy-respubliki-kazahstan-politologicheskie-aspekty
7. Зиманов С.З. Мир права казахов «Жаргы» - уникальная система права. Журнал «Закон.kz. https://journal.zakon.kz/203736/mir-prava-kazakhov-zhargy-unikalnaja.html/
8. Чернышов О.В. Правовая культура казахстанцев. ОФ «Центр развития местного самоуправления» г.Усть-каменогорск. https://www.osce.org/files/f/dokument/0/4/94411.pdf
9. Справка анализ состояния законности и правопорядка в Академии Национальной гвардии Республики Казахстан за 2018-2023гг.
10. Статьи,1-5. Дисциплинарного устава ВС, других войск и воинских формирований Республики Казахстан. Утвержден Указом Президента Республики Казахстан №364 от 05 июля 2007 года. https//adilet.zan.kz/rus/docs/u070000364.
11. Закон Республики Казахстан «О Национальной гвардии Республики Казахстан» №274-УЗРК от 10.01.2015 г. (с изм.и доп. от 01.07.2023г.). Статьи 1,2,3,18,27 см. URL: https://akorda.kz.ru/152636.
12. Приложения №1,23 к приказу МВД РК №270 от 06.06.2023 г. Руководство по организации воспитательной, социально-правовой, психологической и идеологической работы с личным составом Национальной гвардии (часть 1,2,3).
13. Государственный общеобразовательный стандарт высшего образования в Республике Казахстан. Утвержден приказом Министра науки и высшего образования РК №2 от 20 июля 2022 года.

14. Республиканская межведомственная Программа в Вооруженных силах, других войсках и воинских формированиях «В Армии нет место преступности» на 2021-2023гг.

15. Формирование антикоррупционного мировоззрения у школьников и студентов: науч.-исслед. работа ФГБОУ ВПО «Московский государственный юридический университет имени О. Е. Кутафина (МГЮА)» [Электронный ресурс]. URL: http://msal.ru (дата обращения: 20.12.2019).

16. Семенов В.Е. Актуальные проблемы теории правосознания и правовой культуры молодежи // Вестник. Ставропольского гос. ун-та. 2005. № 4. С. 158–166.

HARBIY XIZMATCHILARDA STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN TRENING DASTURINING MAZMUN-MOHIYATI.

N.Ismoilova
psixol.f.d.(PhD), TDPU dotsent

Rus tadqiqotchisi Yu.N.Koristovning ta’kidlashicha: “Biz insondagi kasalliklarning 90%i stress bilan bog‘liq holda yuzaga kelayotgan murakkab bir davrda yashayapmiz. Ctress yurak-qon tomir kasalliklari, oshqozon-ichak kasalliklari, turli xildagi nevrozlar, hatto turli yuqumli kasalliklarning ortishining sababchisi bo‘lib qolmoqda” [2, 107-b].

Bugungi kun harbiy xizmatchilarining har tomonlama sog‘lom bo‘lishini ta’minlashda psixologik xizmat sohasining o‘rni kattadir. Albatta bu sohada faoliyat yuritayotgan psixologlardan juda katta bilim va salohiyat talab etiladi. Shu bilan birgalikda harbiy xizmatda faoliyat olib borayotgan har bir xodimning psixologik savodxonligini oshirish, ayniqsa ularning stress haqidagi ma’lumotlarini oshirish davr taqazosidir. Biz ushbu tezisda harbiy xizmatchilar uchun psixologik xizmat sohasining rivoji uchun hissa qo‘shmoqchi bo‘lgan psixologlar uchun zarur bo‘lgan ayrim uslubiy masalalar bilan bo‘lishmoqchimiz.

Bugungi kun harbiy xizmatchisida stressdan chiqish yo‘llari haqida ko‘nikma va malakalarni hosil qilish uchun keyingi yillarda psixologiyaning alohida sohasi sifatida shitob bilan rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lgan psixologik treninglarning o‘rni kattadir. Zamonaviy psixologiyada psixologik treninglarda ko‘plab yo‘nalishdagi psixoterapiya usullaridan foydalanilayotganligi sir emas.

S.Rozensveyg: “...psixoterapiyaning muhim vazifalaridan biri – insonda avvalgi yoki ayni paytdagi frustratsiya va stress omilini aniqlash hamda bunday vaziyatlarda o‘zini qanday tutish lozimligini o‘rgatishdan iboratdir” [3; 79-b.] deb ta’kidlagan, shunga muvofiq biz ham harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga yo‘naltirilgan trening mashg‘ulotlarining namunaviy loyihasini yoritib berishga harakat qildik.

Harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi – ularda harbiy faoliyat va shu faoliyatdagi

shaxslararo munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish: o‘ziga baho berish darajasini adekvatlashtirish, frustratsion tolerantlikni oshirish, koping-strategiyaning faol usullarini qo‘llashni o‘rgatish va natijada sinaluvchi-talabalarning stressga barqarorligini oshirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga qaratilgan trening mashg‘ulotining vazifalari quyidagi tarzda qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Guruhda ishchanlik, o‘zaro ishonch, ijobiy kayfiyat va samimiylik muhitini yaratish;

2. Ishtirokchilarda o‘ziga adekvat baho berish, o‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch hislarini oshirish, o‘zini anglash va boshqalarni tushunish ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

3. Harbiy xizmatchilarda frustratsion tolerantlik xususiyatlarini – boshqalarni va faoliyat yuritish jarayonida yuzaga keladigan turli xil to‘siqlar va muammolarni to‘g‘ri tushunish hamda ularga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘la olish va frustratsiyaga nisbatan shaxsiy tolerantligini oshirish;

4. Har qanday stressli vaziyatlarga nisbatan barqaror munosabat bildirishga yo‘naltirilgan koping strategiyaning faol usullarini o‘zlashtirish va ularni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Harbiy xizmatchilar bilan psixologik xizmatni tashkil etuvchi psixologlar trening dasturining tuzilishi 2ta blokdan iborat bo‘lishini bilishi va ularni hisobga olishi tavsiya etiladi:

1. Axborot berish bloki – bunda psixolog dastlab harbiy xizmatchilarning mavzu doirasidagi tushunchalariga oydinlik kiritishi, bunda tranzakt analiz, geshtalt terapiya, kognitiv terapiya, art terapiya kabi yo‘nalishlardagi ma’lumotlarga tayanishi kerak.

2. Muammoning yechimi bloki – bu blokda psixolog psixogimnastik mashqlar, o‘yin va rolli o‘yinlar, psixodramma, art-terapiya (rasm terapiya, musiqiy terapiya, raqs terapiya) tana terapiyasi, shaxsiy tajribalar almashinuv, aqliy hujum, bahs-munozara va boshqa bir qancha usul hamda uslublarni o‘z ichiga oluvchi kompleks mashg‘ulotlarni o‘tkazadi.

Harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga yo‘naltirilgan trening dasturining har bir mashg‘uloti uchun tayanch tamoyillar mavjud bo‘lib, ular quyidagi asosda tuzilgan bo‘lishi lozim:

- refleksiya (guruh a’zolarining doira shaklida o‘tirib o‘zaro bir-birlari bilan tanishuvi, asosiy qism va kun yakunini o‘tkazish – bu kabi faoliyat turining barchasi o‘zida refleksiv harakatlarni ifoda etadi;

- temporitm – bunda psixolog topshiriqlarni ishtirokchilarga mohirona taqsimlashi kerakki, qisqa fursatda maksimal darajadagi samarali natijaga erisha olish mumkin bo‘lsin;

- vaqtdan unumli foydalanish – treningni boshidan oxirigacha har bir daqiqasigacha taqsimlangan bo‘lishi lozimligi;

- kreativlik – taklif etilayotgan mashq, o‘yin va bahs-munozaralar ishtirokchilarni nostandart yechimlar izlashga majbur qiladigan bo‘lishi lozim.

Trening mashg‘ulotlari jarayonida psixolog: trening normalarini qabul qilishi bilan birga xizmatchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi, ularning shaxsiy faolligi va ishtirokini ta’minlashi hamda ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi lozim.

Harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga mo‘ljallangan trening dasturi ikkita asosiy qismdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi, bular:

I. Harbiy xizmatchida shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar.

Bunda harbiy xizmatchi shaxsining refleksiv mexanizmlaridan biri bo‘lgan o‘z-o‘ziga baho berishni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, shaxsning o‘z-o‘zini adekvat baholashi, o‘ziga nisbatan ishonchi va o‘zini anglashi uning stressga barqarorligini oshirishda bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash yo‘nalishini yuzaga keltirish trening dasturining asosiy qismlaridan birini tashkil etadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- Harbiy xizmatchilarda o‘ziga nisbatan ishonchni rivojlantirish orqali ularda o‘z-o‘ziga adekvat baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Harbiy xizmatchilarda o‘z-o‘zini anglash asosida o‘ziga nisbatan ijobiy emotsional munosabatlarni shakllantirish;

Harbiy sohada xizmat va faoliyat yuritayotgan har bir shaxs uchun o‘ziga nisbatan ishonch juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ularda o‘ziga nisbatan adekvat baho berish orqali hosil qilinadi. O‘ziga ishongan harbiy xizmatchida o‘ziga hurmat darajasi ortadi. Bu esa oxir-oqibat atrofidagilarga nisbatan hurmat va o‘z burchiga sadoqat hissini yuzaga keltirish uchun muhim psixologik omil hisoblanadi.

II. Harbiy xizmatchida xulq-atvor xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar.

Dasturning bu qismida harbiy xizmatchining shaxsiy xulq-atvorini boshqarish uchun zarur bo‘lgan stressli vaziyatlarda emotsiya va xulq-atvorini boshqarishga, ya’ni ularning emotsional yetuklikligini oshirish yuzasidan ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Buning uchun 3ta jihat e’tiborga olinadi:

1. Stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va uni amalga oshirish orqali muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantirish. Buning uchun harbiy xizmatchilarga quyidagilarni o‘rgatish ko‘zda tutiladi:

- avvalo muammoning mohiyatini tushunishga urunish;
- muammoni hal etishning alternativ yo‘llarini izlash;
- muammo hal etilganidan keyingi natijalarni oldindan ko‘ra bilish va tahlil qilish.

2. Stressli va frustratsion vaziyatlarda paydo bo‘ladigan emotsional holatlarni - g‘azab, jahl, xafagarchilik, xavotirlanish, tushkunlik kabilarni yengishga yordam beruvchi xulq-atvorni nazorat qilish ko‘nikmasini hosil qilish. Bunda quyidagilarni o‘rgatish ko‘zda tutiladi:

- o‘zida yuzaga keladigan impulsiv reaksiyalarni to‘xtatish;

- muammoga boshqacha ko‘z bilan qarash yoki turlicha yondoshish;
- muammoning yechimi mavjudligiga o‘zini ishontirish;
- muammoning yechimi uchun o‘zi harakat qilishi lozimligini anglab yetish.

3. Stressli vaziyatlarda ishtirokchilarni o‘z xulq-atvorini o‘zgartirish va koping strategiyaning asosiy tamoyillari bilan tanishtirish. Bunda quyidagilarni o‘rgatish ko‘zda tutiladi:

- o‘z oldiga qat’iy maqsad qo‘ya bilish;
- maqsadni amalga oshirishga o‘zini majbur qilish;
- zarur bo‘lganda o‘ziga va boshqalarga “yo‘q” deya olish;
- muammoni hal etish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- stressli vaziyatlarga nisbatan barqaror munosabat bildirish ko‘nikmalarini egallash.

Harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga qaratilgan psixologik trening dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda 4ta asosiy komponent qamrab olingan bo‘lib, dastlabki kognitiv komponent harbiy xizmatchilarning mavzu yuzasidan bilimlariga oydinlik kiritiladi, ikkinchi affektiv komponentda ishtirokchilarga stressogen vaziyatga nisbatan salbiy munosabatni bartaraf etish yo‘llari o‘rgatiladi, uchinchi konativ komponent harbiy xizmatchilarga stressogen vaziyatga tushganda qanday qilib ijobiy reaksiya bildirish va ularning turlari o‘rgatiladi va nihoyat, to‘rtinchi fiziologik komponentda harbiy xizmatchilarga stress vaziyatida yuzaga keladigan emotsional holatlarni meditatsion yo‘l bilan bartaraf etib, organizmni va buning natijasida ruhiyatni tinchlantirish yo‘llari o‘rgatiladi.

Harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga mo‘ljallangan trening dasturining davomiyligi 20 soatga mo‘ljallangan bo‘lishi va haftasiga 2 kun (bir kunda 2 soatdan) o‘tkazilishi tavsiya etiladi [1, 17-b]. Trening dasturida belgilangan va rejalashtirilgan vazifalar sifatida o‘ziga bo‘lgan munosabat va bahoning ijobiy tomonga o‘zgarishi, frustratsion tolerantlikning ortishi, stressli vaziyatlarni yengib o‘tishda koping-strategiyaning faol usullarini egallash hamda ulardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish natijasida oxir-oqibat maqsadga, ya’ni harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga erishuv mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Ismoilova N.Z. Talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik mexanizmlari// dis.... avtoreferati. Toshkent, 2020, 48 b.

2. Корыстов Ю.Н. Эмоции, стресс, курение, потребление алкоголя и рак – кореляционные и причинные связи //Журнал ВНД им И.П.Павлова. 2007. - № 4. - С -307.

3. Розенцвейг С. Психодиагностика. – М.: Наука, 2004. -388 с.

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARGA PSIXOLOGIK HAMROXLIK VA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Malaxat Saipova,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Kalit so‘zlar: kursantlar, psixologik xizmat, hamroxlik, yosh, rivojlanish, oliy, ta’lim, xulq-atvor.

Maqolada muallif oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarga psixologik hamroxlik qilish masalalarini olimlar fikri asosida ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, bu muassasalarda psixologik xizmatni tashkil etishning dolzarbligini asoslab bergan.

V state avtor popытalsya raskrыt voprosы psixologicheskogo soprovojdeniya kursantov vыsshix voennыx uchebnыx zavedeniy, opirayas na mnenie uchenыx. Obosnovana takje aktualnost organizatsii psixologicheskoy slujbы v etix uchrejdeniyax.

In the article, the author attempted to reveal the issues of psychological support for cadets of higher military educational institutions, relying on the opinion of scientists. The relevance of organizing a psychological service in these institutions is also substantiated.

Bugungi kunning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu shaxsning murakkab fenomeniga bo‘lgan yuqori e’tibor va buning oqibatida kasbiy faoliyatning deyarli barcha sohalarida psixologik bilimlardan foydalanishga ehtiyojning kuchayishi hisoblanadi. Hozirda psixologiya faniga katta umidlar yuklangan. Shu bois turli xil ijtimoiy tuzilmalar rahbariyatidan psixologik amaliyotga ko‘plab talablar mavjud.

Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi oliy kasbiy ta’lim tizimida, xususan, shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishida sezilarli muammolarni keltirib chiqaradi. Ta’lim texnologiyalari (maqsadlar, o‘qitish mazmuni va usullarining birligi) ni muhokama qilishda ularning nafaqat fan mazmuniga, balki bo‘lajak mutaxassislarning psixologik, ijtimoiy-shaxsiy xususiyatlariga ham didaktik jihatdan muvofiq bo‘lishi zarurligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Zamonaviy jamiyat talabalarning kasbiy tayyorgarligi faqat kasbiy tarkibiy qismlar bilan cheklanib qolishi mumkin emasligini isbotlamoqda.

Shu nuqtai nazardan oliy harbiy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish – davr talabi hisoblanadi. Haqli savol tug‘iladi: xo‘sh, bundan maqsad nima? Psixologik xizmatning maqsadi psixologiya fani yutuqlaridan oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini harbiy faoliyatga tayyorlashda, ularning o‘z faoliyatlari jarayonida turli kutilmagan vaziyatlarga tayyor bo‘lishlari, moslashishlari va xizmatga doir operativ holatlarda mustaqil qaror qabul qilishlarida samarali foydalanishdan iborat.

Ma’lumki, oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari yetarlicha miqdordagi o‘ta turli-tuman nazariy va amaliy bilimlar, ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu bilim va ko‘nikmalar ularga nafaqat harbiy xizmatga oid majburiyatlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi, balki ular insonning rivojlanishiga ham ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Kimgadir bu ta’sir ulg‘ayish, mas’uliyatli, qat’iyatli bo‘lish imkonini bersa, boshqalarda esa tajovuzkorlik, qonunga qarshi xulq-atvor darajasining

ortishiga olib keladi. Bu, albatta, kursantlarning psixik yoshiga yuqori darajada bog‘liq. Chunki insonning real jismoniy yoshi uning psixik yoshiga har doim ham muvofiq bo‘lavermaydi. Garchi balog‘at yoshiga yetgan bo‘lsa-da, ba’zi kursantlar hali bolalik ontogenezidan chiqmagan bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatda, atrofdagi odamlar bilan muammolarga sabab bo‘ladi, har xil turdagi somatik va psiologik kasalliklarga olib kelishi mumkin. harbiy muassasada o‘qishning yana bir ta’siri insonning shaxsiy rivojlanishi xususiyati bilan bog‘liq. Misol uchun yuqori darajadagi agressivligi bo‘lgan insonning qo‘liga qurol olishi xavotir uyg‘otmay qolmaydi. Shubhasiz, bu holatda mutaxassisni tayyorlash istiqboli uning shaxsiy rivojlanish muammolarini hal qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Psixologik xizmat, psixologik hamroxlik fenomeni XX asrda keng foydalanila boshlandi va ijtimoiy institut sifatida yuzaga chiqa boshladi. Bu qator kasblarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi:

– psixolog-terapevt;
– psixolog-konsultant;
– ijtimoiy ish xodimi va boshqalar.

Psixologik hamroxlik bir necha bosqichni qamrab oladi, xususan:

- tashhis qilish;
- muammoni hal qilish uchun zaruriy ma’lumotlarni to‘plash;
- qaror qabul qilish uchun konsultatsiya o‘tkazish;
- hamroxlikning barcha usullarini amalga oshirish bosqichida yordam ko‘rsatish [3].

Bir qator olimlar o‘z ishlarida psixologik hamroxlikni “harbiy xizmatchining faoliyatidagi qiyinchiliklarini bartaraf etish maqsadida uning kasbiy shakllanishi jarayonidagi rejali, sistematik yordam sifatida” tavsiflaydi [2, 161].

T.G.Samoylina esa psixologik hamroxlikni “harbiy psixologning muvaffaqiyatli xizmat va harbiy vazifalarni bajarishda ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan kasbiy faoliyati tizimi” sifatida talqin qiladi [4].

L.M.Boymatovaning adolatli ta’kidlashicha, “psixologik hamroxlikni amalga oshiruvchi odamlar o‘zlari hamroxlik qilayotgan shasga muammolarning tayyor yechimini taqdim etishlari, uning uchun tanlov qilishlari kerak emas va majbur ham emasliklarini tushunishlari muhim. Psixologik xizmat nafaqat o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishga, balki, asosiysi, harbiy-kasbiy shakllanish yo‘lida qiyinchiliklarni mustaqil yengib o‘tishga o‘rgatishdan iborat” [1].

Shu nuqtai nazardan oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarga psixologik hamroxlik va psixologik xizmatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- og‘ishgan xulq-atvorga ega bo‘lgan va/yoki topshirilgan vazifalarni bajarishga yaroqli bo‘lmagan shaxslarning oliy harbiy ta’lim muassasalariga kirib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- kursantlarning psixologik farovonligi va psixologik salomatligini tutib turishni ta’minlashga ko‘maklashish;
- kursantlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning psixologik holatini baholash, bashorat qilish;

- psixologik tayyorgarlik nuqtai nazaridan ularning harbiy faoliyatga layoqatini baholashni o‘tkazish;
- ularga korreksiyalovchi ta’sir ko‘rsata olish;
- jangovar topshiriqlar va operatsiyalarni o‘tkazishda psixologik ko‘mak ko‘rsatish;
- kursantlarni harbiy tayyorgarlikning murakkab sharoitidagi jangovar harakatlarga tayyorlash;
- zaruriy tadbirlar hajmini belgilash uchun psixologik yordamga muhtoj kursantlarni aniqlash;
- jangovar topshiriqlarga tayyor bo‘lmagan, qo‘yilgan vazifalarni bajara olmagan kursantlar bilan psixokorreksion va psixoterapevtik tadbirlarni o‘tkazish;
- sotsiologik va psixologik monitoring tadbirlarini o‘tkazib borish.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, talabalik davrining sifatga doir yangi kommunikativ imkoniyatlarning rivojlanishidagi o‘ziga xos davr sifatida qaraydigan bo‘lsak, kursantlarning kasbiy faoliyatga har tomonlama tayyorligini tashhis qilish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishda psixologik hamroxlik va psixologik xizmatning o‘rni va roli beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бойматова Л.М. Проблемы психологического сопровождения военнослужащих и пути их решения // Евразийский Союз Ученых. 2015. № 3-7 (12). С. 71-72.
2. Кандыбович Л.А., Кандыбович С.Л., Караяни А.Г., Сыромятников И.В. Военно-психологический словарь-справочник. – М.: Изд-во ИД Куприянова / Общество психологов силовых структур, 2010. 592 с.
3. Караяни А.Г. Военная психология. // Учебник и практикум для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2020. 593 с.
4. Самойлина Т.Г. Психологическое сопровождение военнослужащих срочной службы войск специального назначения. // Северо-Кавказский психологический вестник, 2011. Том. 9. № 4. С. 55-59.

MURAKKAB VAZIYATLARDA HARBIY XIZMATCHILARNING AGRESSIV XULQ-ATVORI KORREKSIYASI

Saipova Malaxat Latipovna
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori (Dsc), dotsent.

Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna
Algraganus Universiteti Pedagogika. Psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD).

Harbiy sohada faoliyat ko‘rsatayotgan harbiy xizmatchilar faoliyatidagi o‘zgarishlar ularning ruhiy holatlarida aks etmasdan qolmaydi. Harbiy sohaga kirib kelgan texnik yangiliklar o‘z navbatida harbiy xizmatchilarning faoliyatlarini qayta baholashga undaydi. Mazkur holat aksar vaziyatlarda harbiy xizmatchilarda turli ruhiy jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, kasbiy faoliyatiga fidoyi, har qanday vaziyatda burchiga bo‘lgan sadoqatni birinchi o‘ringa qo‘yadigan harbiy xizmatchida tabiiyki, kasbidagi ekstremal holatlarni keltirib chiqaradigan ruhiy zo‘riqishlarni oldini olish va ularni bartaraf etish harbiy psixologlarning asosiy vazifalaridan biridir. O‘z vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun harbiy psixolog psixologik maslahat va psixologik korreksiyani ilmiy asosda tashkil eta olishi kerak.

Harbiy xizmatchilarning bezovtalanish darajasini tushirish maqsadida korreksion dasturni amalga oshirish uchun relaksatsion mashqlarni tanladik. Shuningdek, harbiy xizmatchilar bilan verbal agressiya va aybdorlik hissini kamaytiruvchi mashg‘ulotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Psixokorreksiya metodlaridan o‘yin terapiya, art terapiya, relaksatsiya, vizualizatsiya va boshqalarni vaziyatga qarab tanlab olish mumkin.

Relaksatsiya texnikasini o‘zlashtirishda birinchi navbatda o‘z tanasini nozik va aniq his qila bilish lozim. Shu bilan birga o‘z diqqatini tananing bir qismidan ikkinchisiga bemalol, erkin ko‘chirishni bilish kerak. Ko‘pchilik holatlarda bo‘shashish, mushaklar guruhining diqqat konsentratsiyasi bilan chaqirilishi mumkin. Jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy ravishda shug‘ullanuvchilar, harakatlar va mushaklar kuchini ishlatib turish har kungi hayotining “fon”i bo‘lsa, bunday harbiylar mushaklar va tana qismlarini “ajrata” oladigan bo‘ladilar [1]. Atrof muhitni idrok etish uchun bizga ko‘rish, eshitish, hid bilish va shu kabilar berilgan. Lekin, biz o‘z mushaklarimizni zo‘riqqanini va bo‘shashganini qanday idrok qilishimiz mumkin? Bu savolni amaliy jihatdan o‘rganish uchun biz mashg‘ulot qatnashchilariga quyidagi mashqlarni taklif etamiz.

Harbiy xizmatchilarda jangovar vaziyatga, murakkab vaziyatlarga psixologik tayyorgarligini oshirish maqsadida “Murakkab vaziyatlarda psixologik barqarorlik” nomli psixokorreksion dasturni taklif etamiz. Ushbu psixokorreksion dastur o‘z ichiga quyidagi mashqlarni qamrab olgan.

1. Psixologik jarohat va stresslarni ketkazuvchi nafas olish mashqlari. “Qorin sohasida nafas olish” mashqi, “Diafragmali nafas olish” mashqi, “Ovozli gimnastika” mashqi [2].

2. Relaksatsion mashqlar. “Yoqimli fikrlar” mashqi, “Autogen” mashq “Iltifotli so‘zlar” mashqi, “Introskop” mashqi, “Vizuallashtirish” mashqi, “Xavotirdan qutulish” mashqi [3].

3. O‘z-o‘ziga baho berishni oshiruvchi mashqlar. “Erkalab aytilgan ism”, “Psixologik portret”, “Sovg‘a”, “O‘ziga o‘zi baho berishning deklaratsiyasi”, “O‘z-o‘zini boshqarish usullari, o‘z-o‘ziga buyruq berishlar”, “O‘z-o‘zini dasturlash (Xohish istaklarni amalga oshirish texnologiyasi)”, “O‘ziga o‘zi buyruq berish usulidan foydalanish”, “Ruhiyatni ko‘taruvchi” mashqlari psixokorreksiya davomida muvaffaqiyatli qo‘llanildi**.**

Psixokorreksiyaning eng muhim tomoni unda besabab qorong‘idan qo‘rqish, jahldorlik, qaysarlik, o‘jarlik holatlaridan qutilishni yoki o‘sha holatlardan chiqishga yordam beradi.

Harbiy xizmatchilarning agressiv hulq-atvorini korreksiya qilishda quidagi xususiyatlarga e’tibor berish lozim:

- individual;
- psixologik-pedagogik;
- sotsial-psixologik;
- shaxsiy;
- sotsial.

Harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan korreksion ishning yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ konsultatsiya;
- ✓ harbiy xizmatchilarning o‘zi va komandirlari bilan suhbatlar olib borish va treninglar tashkil etish;
- ✓ destruktivlikni yo‘qotish va konstruktiv xulq-atvorga o‘rgatish;
- ✓ harbiyning o‘z qahr-g‘azabini va emotsiyalarini boshqarishni o‘rgatish;
- ✓ harbiy xizmatchining shaxsiy bezovtalanish darajasini tushirish;
- ✓ o‘zi va boshqa insonlarning emotsiyalarini his qilishni rivojlantirish;
- ✓ o‘ziga pozitiv baho berishni rivojlantirish

Biz eksperimental guruh a’zolari bilan aynan ruhiy barqarorlikni shakllantiruvchi dastur asosida ishlashda quyidagilarga erishdik:

harbiy xizmatchilardagi ruhiy barqarorlikning shakllanishida muhim komponent hisoblangan emotsional komponent rivojlantirildi;

bunda biz musiqiy terapiya, relaksatsiya, pozitiv terapiya texnikalari orqali harbiy xizmatchilarda belgilangan maqsadlarga erishish uchun ularda muayyan vaziyatlarda o‘z-o‘zlarini va xulq-atvorlarini kognitiv boshqarish ko‘nikmalarini, emotsional savodxonlikni, emotsional barqarorlikni, o‘z emotsiyalarini anglash, o‘ziga pozitiv motivatsiya bera olish ko‘nikmalari shakllantirdik.

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning ekstremal va murakkab vaziyatlarda ruhiy barqarorligini ta’minlab

beruvchi va yuqori bardoshliligini ta’minlovchi psixokorreksion tavsiyalar dasturi ishlab chiqish ushbu tadbirlar samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maxmudova, D.A. “Psixokorreksiya asoslari” O‘quv qo‘llanma.: T.: «Universitet» nashriyoti, 2020. - 18 b.
2. Шевцова, О.А. Психологическая коррекция растройств уровня у лиц опасных профессий: дис. ... канд. психол. наук: 05.26.02./ О.А. Шевцова; М.,- 2010. – 16 с.
3. Tursunov, L.S., Rasulov A.I., Choriyev F., Devyatkin A., Raximmirzayev S. Harbiy sohada psixologik maslahat va psixologik korreksiya. Uslubiy qo‘llanma. T.: “Spectrum Media Croup”, 2015. - 95 b.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SHAXS FAOLLIGIGA DOIR GUMANISTIK NAZARIYA

Xaydarov Islomjon Maxmutali O‘g’li
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, kapitan psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Gumanistik psixologiya asrimizning 60-yillarida Amerika psixologiyasida vujudga kelgan. Bu yo'nalish inson taraqqiyotiga yangicha qarashni asosiy g'oya sifatida e'lon qildi. U inson tabiatini tushunishga optimistik yondashuvga asoslanadi: har bir shaxsning ijodiy imkoniyatlariga, ijodiy kuchlariga, u o'z taqdirini ongli ravishda tanlashga va o'z hayotini qurishga qodirligiga ishonish. Lotincha humanus - insonparvar so'zidan kelib chiqqan ushbu yo'nalishning nomi aynan shu bilan bog'liq. Ushbu tendensiyaning eng mashhur vakillari K. Rojers (1902-1987) va A. Maslou (1908-1970).

Keling, gumanistik psixologiyaning asosiy qoidalarini batafsil ko'rib chiqaylik. Ko'pincha "psixologiyaning uchinchi kuchi" (psixoanaliz va bixeviorizmdan keyin) deb ataladigan gumanistik psixologiya 20-asrning 50-yillarida mustaqil harakat sifatida paydo bo'ldi. Gumanistik psixologiya Yevropa ekzistensializmi falsafasiga va fenomenologik yondashuvga asoslanadi. Ekzistensializm gumanistik psixologiyaga inson mavjudligining namoyon bo'lishiga va insonning shakllanishiga qiziqishni olib keldi, fenomenologiya - bu insonga tavsiflovchi yondashuv, dastlabki nazariy tuzilmalarsiz, sub'ektiv (shaxsiy) voqelikka, subyektiv tajribaga, bevosita tajribaga qiziqish ("bu erda va hozir") insonni o'rganish va tushunishdagi asosiy hodisa

sifatida. Bu erda siz ruh va tanani yagona insoniy ruhiy tamoyilga birlashtirishga intiladigan Sharq falsafasining qandaydir ta'sirini ham topishingiz mumkin.

Gumanistik psixologiya psixoanaliz va bixeviorizmga muqobil sifatida ko'p jihatdan rivojlangan. Bu yondashuvning eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri R. Mey “insonni instinktlar to‘plami yoki refleks naqshlar yig‘indisi sifatida tushunish inson mohiyatini yo‘qotishga olib keladi”, deb yozgan edi. Inson motivatsiyasining birlamchi va hatto hayvoniy instinktlar darajasiga tushishi, ongli sohaga yetarlicha e'tibor bermaslik va ongsiz jarayonlarning ahamiyatini bo'rttirish, sog'lom shaxs faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborsiz qoldirish, tashvishlanishni faqat salbiy hodisa deb hisoblash. - aynan shu psixoanalitik qarashlar gumanistik psixologiya vakillarining tanqidiga sabab bo'ldi. Bixeviorizm, ular nuqtai nazaridan, insonni insoniylikdan mahrum qildi, faqat tashqi xatti-harakatlarga e'tibor qaratdi va uni chuqurlikdan va ma'naviy, ichki ma'nodan mahrum qildi, shu bilan shaxsni mashina, robot yoki laboratoriya kalamushiga aylantirdi. Gumanistik psixologiya inson muammosiga o'z yondashuvini e'lon qildi. U shaxsiyatni o'ziga xos, yaxlit tizim deb hisoblaydi, uni individual ko'rinishlar va tarkibiy qismlarni tahlil qilish orqali tushunish mumkin emas. Insonga yaxlit yondashuv insonparvarlik psixologiyasining asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Shaxsiy rivojlanishning asosiy motivlari, harakatlantiruvchi kuchlari va determinantlari, xususan, insoniy xususiyatlar - o'z potensialini rivojlantirish va amalga oshirish istagi, o'zini o'zi anglash, o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi anglash, ma'lum hayotiy maqsadlarga erishish, ma'noni ochib berish. o'z mavjudligidan.[22]

Gumanistik psixologiya inson xatti-harakatlarini bartaraf etishga qaratilgan salbiy omil sifatida tashvishga oid psixoanalitik qarashlarni baham ko'rmaydi. Anksiyete shaxsiy o'zgarish va rivojlanishga yordam beradigan konstruktiv shakl sifatida ham mavjud bo'lishi mumkin. Sog'lom odam uchun xulq-atvorning harakatlantiruvchi kuchi va uning maqsadi o'zini-o'zi amalga oshirishdir, bu tur sifatida odamlarga biologik xos bo'lgan "gumanoid ehtiyoj" hisoblanadi. Gumanistik psixologiyaning asosiy tamoyillari quyidagicha shakllantirilgan: inson tabiatining yaxlit tabiatini tan olish, ongli tajribaning o'rni, iroda erkinligi, o'z-o'zidan va inson ijodkorligi, o'sish qobiliyati.

Gumanistik psixologiyadagi asosiy tushunchalar: o'z-o'zini namoyon qilish, tajriba, organizm va muvofiqlik. Keling, ularning har birini alohida ko'rib chiqaylik.

O'z-o'zini namoyon qilish - bu jarayon bo'lib, uning mohiyati insonning qobiliyatlari va imkoniyatlarini to'liq rivojlantirish, ochish va amalga oshirish, uning shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishdir. O'z-o'zini namoyon qilish insonga haqiqatan ham bo'lishi mumkin bo'lgan odamga aylanishiga yordam beradi va shuning uchun mazmunli, to'liq va mukammal yashashga yordam beradi. O'z-o'zini

[22] https://studopedia.ru/18_26898_gumanisticheskaya-psihologiya-g-olport-a-maslou-k-rodzhers-v-frankl.html

amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj insonning eng yuqori ehtiyoji, asosiy motivatsion omildir. Biroq, bu ehtiyoj o'zini namoyon qiladi va insonning xatti-harakatlarini boshqa, asosiy ehtiyojlar qondirilgan taqdirdagina belgilaydi.

Gumanistik psixologiya asoschilaridan biri A.Maslou ehtiyojlarning iyerarxik modelini ishlab chiqdi:

1-daraja - fiziologik ehtiyojlar (oziq-ovqat, uyqu, jinsiy aloqa va boshqalarga bo'lgan ehtiyojlar);

2-daraja - xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj (xavfsizlik, barqarorlik, tartib, xavfsizlik, qo'rquv va xavotirning yo'qligi);

3-daraja - sevgi va tegishli bo'lishga bo'lgan ehtiyoj (muhabbatga bo'lgan ehtiyoj va jamoa tuyg'usi, muayyan jamoaga, oilaga, do'stlikka mansublik);

4-daraja - o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (o'z-o'zini hurmat qilish va boshqa odamlar tomonidan tan olinishi zaruriyati);

5-daraja - o'z-o'zini amalga oshirish zarurati (o'z qobiliyatlarini, imkoniyatlarini va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish va amalga oshirish, shaxsiy takomillashtirish).

Ushbu konsepsiyaga ko'ra, eng yuqori maqsad - o'zini-o'zi anglash, psixologik o'sish - shaxs asosiy ehtiyojlarni qondirmaguncha va ularning hukmronligidan xalos bo'lmaguncha mumkin emas, bu ma'lum bir ehtiyojning erta puchga chiqishi va shaxsning fiksatsiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. bu qondirilmagan ehtiyojga mos keladigan ma'lum darajada faoliyat ko'rsatish. Maslou, shuningdek, xavfsizlik zarurati o'z-o'zini amalga oshirishga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidladi. O'z-o'zini anglash va psixologik o'sish yangi narsalarni o'zlashtirish, inson faoliyati sohalarini kengaytirish, xavf, xatolar ehtimoli va ularning salbiy oqibatlari bilan bog'liq. Bularning barchasi tashvish va qo'rquvni kuchaytirishi mumkin, bu xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojning ortishiga va eski, xavfsiz namunalarga qaytishga olib keladi.

K.Rodjers ham o‘z-o‘zini namoyon qilish istagini asosiy motivatsion omil sifatida ko‘rib, uni to‘laqonli faoliyat yurituvchi shaxs bo‘lish maqsadi bilan shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayoni deb tushundi. To'liq o'z-o'zini kashf qilish, "to'liq ishlash" (va ruhiy salomatlik), Rojersning fikriga ko'ra, quyidagilar bilan tavsiflanadi: tajribaga ochiqlik, har qanday vaqtda to'liq hayot kechirish istagi, o'z fikrini ko'proq tinglash qobiliyati. boshqalardan ko'ra sezgi va ehtiyojlar, aql va boshqalarning fikri, erkinlik hissi, yuqori ijodkorlik. Shaxsning hayotiy tajribasi, uning o'zini-o'zi amalga oshirishga qanchalik hissa qo'shishi nuqtai nazaridan qaraladi. Agar bu tajriba aktuallashtirishga yordam bersa, odam buni ijobiy deb baholaydi, agar bo'lmasa, salbiy deb baholaydi, bundan qochish kerak. Rojers, ayniqsa, sub'ektiv tajribaning (inson tajribasining shaxsiy olami) muhimligini ta'kidladi va boshqa odamni faqat uning sub'ektiv tajribasiga bevosita murojaat qilish orqali tushunish mumkin deb hisobladi.

Tajriba deganda insonning shaxsiy kechinmalari dunyosi, ichki va tashqi tajribalar majmui, inson boshdan kechirayotgani va “yashashi” tushuniladi. Tajriba - bu tajribalar yig'indisi (fenomenal maydon), u ongga kirishi mumkin bo'lgan va tanada va tanada har qanday vaqtda sodir bo'ladigan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Ong ba'zi tajribaviy tajribaning ramzi sifatida qaraladi. Fenomenal kechada ongli (ramzlashtirilgan) va ongsiz (ramzsiz) tajribalar mavjud. O'tmish tajribasi ham muhimdir, ammo hozirgi bilim voqealarni hozirgi idrok etish va talqin qilish (joriy tajriba) bilan aniq belgilanadi.

Organizm - bu barcha tajribalarning konsentratsiyasi (barcha tajribalarning o'rni). Bu konsepsiya insonning butun ijtimoiy tajribasini o'z ichiga oladi. Insonning yaxlitligi tanada o'z ifodasini topadi. O'z-o'zini konsepsiyasi - bu fenomenal sohaning tabaqalashtirilgan qismi bo'lgan jismoniy, hissiy, kognitiv, ijtimoiy va xulq-atvor xususiyatlarini o'z ichiga olgan shaxsning o'zi haqidagi oz yoki kamroq ongli barqaror g'oyalar tizimi. insonning u nima ekanligi haqidagi tushunchasi u inson o'zining haqiqiy qismi sifatida qabul qiladigan xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Haqiqiy "men" bilan bir qatorda o'z-o'zini kontseptsiyasida ideal "men" (inson qanday bo'lishni xohlayotgani haqidagi g'oyalar) ham mavjud. O'z-o'zini anglashning zaruriy sharti - bu o'z-o'zini anglashning yetarli darajada mavjudligi, shaxsning o'zi haqida to'liq va yaxlit g'oyasi, shu jumladan o'zining turli xil ko'rinishlari, fazilatlari va intilishlari. Faqat o'z-o'zini to'liq bilish o'zini o'zi anglash jarayoni uchun asos bo'lishi mumkin.

Muvofiqlik (mos kelmaslik) atamasi o'z-o'zini anglash imkoniyatlarini ham belgilaydi. Birinchidan, idrok etilgan o'zlik va haqiqiy tajriba o'rtasida muvofiqlik mavjud. Agar o'z-o'zini konsepsiyada "organizmning tajribalari" ni juda aniq aks ettiruvchi tajribalar taqdim etsa (bu holda organizm barcha tajribalarning kontsentratsiyasi deb tushuniladi), agar inson o'z tajribasining har xil turlarini ongga kiritsa, agar u o'zini tajribada kimligini anglaydi, agar u "tajriba uchun ochiq" bo'lsa, unda uning o'ziga xos imiji adekvat va yaxlit bo'ladi, uning xatti-harakati konstruktiv bo'ladi va shaxsning o'zi yetuk, moslashgan va "to'liq" qobiliyatga ega bo'ladi. faoliyat ko'rsatmoqda." O'z-o'zini anglash va organizm o'rtasidagi nomuvofiqlik, tajriba va o'zini o'zi tasavvur qilish o'rtasidagi nomuvofiqlik yoki qarama-qarshilik tahdid va tashvish hissini keltirib chiqaradi, buning natijasida tajriba mudofaa mexanizmlari tomonidan buziladi, bu esa, o'z navbatida, cheklanishga olib keladi. insonning qobiliyatlari. Shu ma'noda, "tajriba uchun ochiqlik" tushunchasi "mudofaa" tushunchasiga qarama-qarshidir. Ikkinchidan, muvofiqlik atamasi shaxsning subyektiv voqeligi bilan tashqi voqelik o‘rtasidagi muvofiqlikni bildiradi. Va nihoyat, uchinchidan, muvofiqlik yoki nomuvofiqlik - bu haqiqiy O'zlik va ideal Men o'rtasidagi muvofiqlik darajasi. O'zining haqiqiy va ideal tasvirlari o'rtasidagi ma'lum bir nomuvofiqlik ijobiy rol o'ynaydi, chunki u inson shaxsiyatining rivojlanishi va

o'zini o'zi takomillashtirish istiqbollarini yaratadi. Biroq, masofaning haddan tashqari ko'payishi o'z-o'ziga tahdid soladi, aniq norozilik va noaniqlik hissi, mudofaa reaksiyalarining kuchayishiga va yomon moslashishga olib keladi.

GENDER XUSUSIYATLARINI SHAXS PSIXOEMOTSIONAL FAOLLIGIGA TA'SIRINING PSIXOLOG TAHLILI

D.S.Abdullajanova,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan jamiyat, uning sohalari, tashkilotlari, muassasalari va boshqalarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Barkamol, doimiy takomillashtirib boruvchi boshqaruvsiz jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni yengib bo'lmaydi. Mavjud vaziyat boshqaruv sohasining ijtimoiy-psixologik muammolariga tobora ko'proq e'tibor berishni talab qilmoqda.

Boshqaruv sohasidagi shaxsni, shu jumladan, rahbarning shaxsini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ancha barqaror tusda bo'lib, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda turli tasniflar mavjud. Amerikalik psixolog M.Shou tomonidan taklif qilingan eng muvaffaqiyatli tasniflardan biri biografik xususiyatlar, qobiliyatlar, shaxsiy xususiyatlar kabi uchta komponentdan tashkil topgan yondashuvdir.

Biografik xususiyatlar yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va ma'lumotini o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yosh va boshqaruv darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q, garchi yosh ko'p jihatdan boshqaruv samaradorligini belgilasa ham. Tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy maqom va ta'lim o'rtasidagi bog'liqliklarning 90% gacha rahbarlar doimo yuqori ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega bo'lgan yetarlicha ma'lumotli odamlar sifatida harakat qilishadi.

Qobiliyatlar insonning o'ziga xos xususiyati sifatida xodimlarning ish samaradorligi bilan bog'liq. Qobiliyat – bu har xil faoliyatdagi muvaffaqiyatni belgilaydigan shaxsning individual barqaror xususiyatidir. Agar shaxsiy xususiyatlarning ma'lum bir to'plami insonning rivojlanishi uchun oqilona ajratilgan vaqt davomida o'zlashtirgan faoliyat talablariga javob bersa, bu uning ushbu faoliyat qobiliyatiga ega degan xulosaga kelish uchun asos bo'ladi. Shaxsning o'zlashtirgan faoliyati (mehnat, tarbiya, sport va boshqalar) uning psixologik fazilatlariga (intellekt xususiyatlari, hissiy-irodaviy soha, sensomotor qobiliyatlari) yuqori talablarni qo'yadi. Bu talablarni faqat hech qanday sifat, hatto u juda yuqori rivojlanish darajasiga yetgan bo'lsa ham, qondira olmaydi. Bitta intellektual xususiyat

faoliyatning yuqori mahsuldorligini ta’minlashi, barcha qobiliyatlarning ekvivalenti sifatida harakat qilishi mumkin degan fikr, ilmiy ishonchdan mahrum. Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo‘lgan intellektual sifatlar yig‘indisidir [5,6]. Qobiliyat vazifasini bajaruvchi psixik sifatlar yig‘indisining tuzilishi pirovard natijada muayyan faoliyat talablari bilan belgilanadi va turli faoliyat turlari uchun har xil bo‘ladi.

Jarayonni kuzatish orqali insonning o‘zgargan sharoitlarda, o‘zlashtirish faoliyati davomida yangi vazifalarni bajarish qobiliyatini baholash mumkin. Amalda insonning qobiliyatlarini tegishli faoliyatni o‘zlashtirishdagi rivojlanish tezligi, shaxsning yutuqlarining sifat darajasi, ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishga moyilligi, muvaffaqiyat va sarflangan kuchning nisbati kabi ko‘rsatkichlarning kombinatsiyasi bilan baholash mumkin. Uchinchi komponentning xarakteristikasi xarakter xususiyatlari bilan bog‘liq shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liq. Xodimlarning tabiatini hisobga olmasdan, zamonaviy sharoitda tashkilotni boshqarish mumkin emas. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda ham xodimning mavjud imkoniyatlarini potensial darajasini ham faoliyat olib borayotgan sohaga xarakter xislatlari mos tushishini inobatga olish lozim.

Boshqaruv sohasida ishlovchi erkaklarda stress darajasining yuqori bo‘lishi, kundalik hayotda ham distress elementlarining ko‘zga tashlanishi bilan psixikaning nomutanosibligi uchun asos bo‘ladi. Natijada, shaxsda miya tuzilmalarining qo‘zg‘aluvchanligi ortadi, ichki organlardan signallarni noto‘g‘ri qabul qilish boshlanadi. Zaxiradagi erkak kadrlarda ustunliklar kuzatilgan bo‘lib, zaxiradagi kadrlarda konstitutsiyaviy anomaliyalar, o‘ziga xos xarakterli deformatsiyalar, xatti-harakatlarning buzilishi bilan namoyon bo‘lishi, xulq-atvor, birinchi navbatda, hissiy-irodaviy sohaning holatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, ushbu shaxsiy komponentning ishlashidagi og‘ish kadrlardagi ustuvorlikni ularning ijtimoiy iyerarxiyadagi mavqeyini o‘zgartirishga intilishning ko‘p marotaba muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Zaxiradagi kadrlarda ustuvorlikning kuzatilishi doimiy vahima ostida bir ishni tugallamasdan, ikkinchi ishni «bo‘ynilariga yuklab» qo‘yish haqidagi ustanovkalarning stereotipik tarzda miyaning defolt tizimida avtomatizatsiya bo‘lgani bilan tasniflash mumkin.

Yuqorida ta’rifi keltirilgan psixoemotsional holatlar yolg‘on shkalasida ($U=68384$; $p<0,01$) zaxiradagi kadrlarda yuqori natijalar qayd etilgan bo‘lib, ularda boshqaruvdagi erkak kadrlarga nisbatan ish faoliyatida yolg‘on ishlatish orqali vaziyatdan chiqish, mas’uliyatli ishdan o‘zini olib qochish holatlari bahona bilan kombinatsiyalashgan holatda ishlatiladi. Boshqaruvdagi kadrlarda yolg‘on o‘z mavqeyini saqlab qolish uchun ikkinchi imkoniyatni yaratish zarurati bilan bog‘liq. Ishonchlilik shkalasida esa ($U=72236,5$; $p<0,01$), vaziyat aksincha ko‘rinish olgan. Boshqaruvdagi kadrlarda so‘zsiz bo‘ysunish motivi baland bo‘lib, bu ularda har narsaga ishonch bildirish, o‘z faoliyat doirasidan kelib chiqib doim ishonchli

ma’lumotlar berishga intilish hamda «erkak kishi bitta gapiradi» maqoliga monand ravishda o‘z va’dasini ustidan chiqish – boshqaruv samaradorligini oshiruvchi mexanizmlardan biri haqidagi tasavvurlarning uyg‘unlashgan shaklda faoliyatlarida dasturulamal bo‘lib qolgani bilan izohlanadi. Zaxiradagi kadrlarda ushbu natijalarning biroz pastligini faoliyat jarayonidagi tushunmovchiliklarning oldini olishda doim ham to‘g‘ri so‘zni aytmasliklari, har bir vazifa ustidan sinchkovlik bilan nazoratni olib borishlari evaziga ishonchlilik ko‘rsatkichlarining pastroq ko‘rinish olishi bilan tushuntirish mumkin.

Korreksiya ko‘rsatkichida ($U=66091$; $p<0,01$) ustunlik zaxiradagi kadrlarda qayd etilib, «har bir bosgan qadami uchun javobgarlik» mavjudligining evaziga ularda o‘z ishini, xulq-atvorini to‘g‘irlab borish boshqaruvdagi kadrlarga nisbatan ko‘proq bo‘lar ekan. Zaxiradagi kadrlarda iyerarxiyadan bir pog‘ona balandlash uchun o‘zini takomillashtirish bilan birga ilgari yo‘l qo‘ygan xatolarini qayta takrorlamaslik motivi ham baland bo‘ladi. Ushbu omillar ularning ish faoliyatidagi samaradorlik darajasini hamda ijtimoiy statusining stabillashuviga ham zamin yaratishi bilan xarakterli bo‘lib, paranoyallik ($U=72644$; $p<0,01$) doimiy shubha ostida shaxs xulq-atvorining o‘zgarishi bilan bog‘liq holat bo‘lib, boshqaruv sohasidagi erkak kadrlarda ushbu xususiyatning baland natija ko‘rsatishini ulardagi mas’uliyatlilik hamda javobgarlik hissining kuchli namoyon bo‘lgani sababidan deb aytish mumkin. Tig‘iz ish grafigi, xodimlarning ustidan olib borilishi lozim bo‘lgan doimiy nazorat ularda shubhalanishning ortishiga zamin yaratadi. Natijada, ularning xulq-atvorida mukammallikka intilish, ideal vazifa ko‘rsatkichini qayd etish motivlari shakllanib boradi. Psixasteniya shkalasi ($U=73132$; $p<0,01$) shaxsning qat’iyatsizligi, shubha va og‘ishga moyilligi bilan bog‘liq holda giperkompensatsiya reaksiyasini ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Bu reaksiya ularda kutilmagan o‘ziga ishongan va qat’iy mulohazalar, bo‘rttirilgan qat’iylik va shoshilinch ehtiyotkorlik talab qilinadigan lahzalar va vaziyatlarda ekstremal harakatlar bilan namoyon bo‘ladi. Olingan muvaffaqiyatsizliklar qat’iyatsizlik va shubhani yanada kuchaytiradi. O‘z-o‘zini tahlil qilish tendensiyasi, o‘z harakatlari va xulq-atvor motivlari haqida o‘ylash bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z tajribalari va his-tuyg‘ularini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Zaxiradagi kadrlarda psixoastenik tipga xos belgilarning ko‘proq ifoda etilgani ulardagi bosim ostida harakatlanish natijasida yuksalish umididan shubhalar paydo bo‘la boshlangani bilan tushuntirish mumkin.

1-jadval

Shaxs psixoemotsional xususiyatlari namoyon bo‘lishi,
(Mann-Uitni U-mezoni bo‘yicha)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	p
	Zaxiradagi kadrlar (n=1010)	Boshqaruv kadrlari (n=168)		
Yolg‘on shkalasi	605,8	491,5	68384	**0,000** **
Ishonchlilik shkalasi	577,0	664,5	72236,5	**0,002** **
Korreksiya shkalasi	608,1	477,9	66091	**0,000** **
Ipoxondriya	584,4	620,1	79691	0,203
Depressiya	584,1	621,9	79391	0,178
Isteriya	591,6	576,8	82699,5	0,598
Psixopatiya	596,3	548,4	77938,5	0,088
Paranoyallik	577,4	662,1	72644	**0,003** **
Psixasteniya	601,1	519,8	73132	**0,004** **
Shizoidlik	590,0	586,3	84301,5	0,895
Gipomaniya	578,7	654,6	73905,5	**0,007** **

Izoh: ** - p<0,01

Gipomaniya shkalasi (U=73905,5; p<0,01) bo‘yicha maniyaning yengil shakli bo‘lib, uning namoyon bo‘lishida doimiy yuqori kayfiyat, faollik va to‘liq jismoniy farovonlik hissi bilan tavsiflanadi. Boshqaruvdagi erkak kadrlarda ushbu jihatning baland bo‘lishini «omma oldida» o‘zining nuqsonlarini ko‘rsatmaslik, yashirish ehtiyojining mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Korreksiya ko‘rsatkichida zaxiradagi ayol kadrlarda nisbatan ustun farqlar aniqlanib, o‘zining xatolari ustida ishlash orqali muvaffaqiyatga erishish, ish jarayonidagi g‘alabalarga to‘sqinlik qiluvchi xarakter jihatlarini to‘g‘irlash – rahbarlik sari eltuvchi yo‘l sifatida baholanar ekan (U=233006; p<0,01). Boshqaruvdagi ayollarda esa, «bukrini go‘r to‘g‘irlaydi» mazmunidagi maqolga hamohang ravishda nuqsonli jihatlariga kamroq e’tibor qaratish, asosiy fokusni ish faoliyatidagi natijalar samaradorligini oshirishga berish ortidan shaxsiy pozitsiyani mustahkamlash mumkinligi haqidagi g‘oyalarning ijtimoiy attityudlar ko‘rinishida bo‘lgani ortidan korreksiya darajasi biroz past natijada baholangan.

Paranoyallik psixotipining asosiy xususiyati maqsadlilikdir. Bu butun hayoti ma’lum bir yoki bir qator maqsadlarga erishishga bo‘ysunadigan shaxs sifatida

gavdalanadi. Haddan tashqari aniq maqsadlilik bilan shaxs nafaqat boshqalarning manfaatlarini butunlay e'tiborsiz qoldiribgina qolmay, balki ularning taqdiriga ham ergashishi mumkin. Paranoyal shaxs maqsad tanlashda mustaqil bo'lib, u o'zi maqsad qo'yadi, unga o'zi erishadi va boshqalarni boshqaradi. Ushbu ko'rsatkich jihatidan sezilarli ustunliklar boshqaruvdagi ayol kadrlarda qayd etildi (U=253459, p<0,01). Boshqaruvdagi kadr ayollarda asosiy maqsadlilik bilan chambarchas bog'liq holda, yuqori energiya va tajovuzkorlik kabi xususiyatlar mavjud. Ularning katta energiyasi maqsadlariga erishishga qaratilgan katta kirish kuchida, shuningdek, samaradorligida namoyon bo'ladi.

Psixasteniya (U=259732; p<0,01) introspeksiya va mulohaza yuritishga moyillikni belgilaydi. Psixasteniklar ko'pincha qaror qabul qilishda ikkilanadilar, o'zlari va boshqalar uchun yuqori talablar va mas'uliyat yukini ko'tara olmaydilar. Bunday subyektlar aniqlik va ehtiyotkorlikni namoyish etadilar, ular uchun xarakterli xususiyat – o'z-o'zini tanqid qilish va ishonchlilik. Ular odatda keskin o'zgarishlarsiz bir tekis kayfiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichda zaxiradagi kadrlarda ustunliklar kuzatilib, xos nozik xilqat vakili deb atalmish nomga «dog'» tushirmaslik uchun ular asosiy mas'uliyatni o'z zimmalariga olishdan ko'ra, qaror qabul qilish imkoniyatini erkaklarga qoldirishadi. Ish faoliyatidagi kamchiliklarga nisbatan keskin tanqidiy ruh ba'zida zaxiradagi kadrlarda nomukammallik tuyg'usining gurkirab rivojlanishiga imkon beradi.

Gender xususiyatlariga ko'ra zaxiradagi hamda boshqaruv kadrlarining ijtimoiy-psixologik sifatlari mulohazakorlik bo'yicha (U=69301,5; p<0,01) boshqaruvdagi kadrlarda ustunliklar kuzatilib, ko'proq tahliliy ko'rsatkichlar bilan tanishish, majlislarda dolzarb masalalarni hal qilish hamda murakkab vazifalar ustida «bosh qotirish» ko'lamining ko'proq bo'lishi boshqaruvdagi kadrlarda mulohaza yuritish darajasining ortishi bilan izohlansa, muloqotmandlik har qanday personal bilan ishlaydigan xodimlar, rahbarlar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi (U=66446,5; p<0,01). Boshqaruvdagi kadrlarda tabiiy ravishda muloqot qilish, begona shaxs bilan tezda «til topishish» ko'nikmasi shakllangan bo'ladi. Bunga sabab esa, ularning yillar davomida orttirgan tajribasi hamda shaxslararo munosabatlarda yuzaga keluvchi baryerlarni ustalik bilan yengish mahoratining rivojlanganlik darajasi deb aytish mumkin. Shu bilan birga, «odam-odam» tizimida ishlovchi barcha xodimlarda muloqotmandlik sifatlari rivojlangan bo'lib, uning takomillashuvida shaxsiy intilish hamda tashabbuskorlik ham rol o'ynaydi. Boshqaruvdagi erkak kadrlarda o'z g'oyalarini qo'l ostidagilarga singdirish uchun ham jamoaning fikrini o'rganish, har bir shaxs bilan individual hamda guruhiy tarzda ochiq muloqot o'rnatish zarurati paydo bo'ladi. Mazkur omillar boshqaruv kadrlarida so'zga chechanlik, gapga ustalik hamda o'z qarashlarini to'g'ri yetkazib berish kabi malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi..



1-rasm. Boshqaruv va zaxiradagi erkak kadrlarda ijtimoiy-psixologik sifatlar namoyon bo‘lishi

Barqarorlik jihatidan ham boshqaruvdagi kadrlarda ustunliklar kuzatilib, ritmni bir maromda ushlab turishga erishish orqali o‘z pozitsiyasini mustahkamlashni amalga oshirish – samarali, strategik maqsadlar ro‘yobining garovi bo‘lishi mumkinligi boshqaruvdagi kadrlar misolida dalillanmoqda ($U=62597,5$; $p<0,01$). Zaxiradagi kadrlarda irodaviy, hissiy hamda motivatsion barqarorlikni stabil, statik va progressiv ko‘rinishda ushlab turish ko‘nikmasining yetishmasligi oqibatida ularning ish unumdorligida pasayishlar kuzatilishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, shaxsiy intilish darajasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Ekstremallik sifatini har qanday sharoitga, vaziyatga tayyorlik deb baholasak, ushbu ko‘rsatkichda ham ustunliklar boshqaruvdagi erkak kadrlarda qayd etilgani ma’lum bo‘ladi ($U=68828$; $p<0,01$). Boshqaruvdagi kadrlarda rejasi paydo bo‘ladigan, o‘zgaruvchan, rigid ish grafigi natijasida ularning ekstremal vaziyatlarga tayyorligi ortib boradi. Zaxiradagi kadrlarda to‘satdan beriluvchi topshiriqlar oldida «tiz cho‘kish» ehtimoli ularning har qanday tayyorgarlik darajasining yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qiladi.

Turli hodisalar oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik, hissiy, ruhiy, irodaviy tayyorgarlik holatini belgilab beruvchi ekstremallik ($U=232604,5$; $p<0,01$) boshqaruvdagi kadrlar yuqori ko‘rinish olganini, ularning professional faoliyatidagi turli xil sodir bo‘luvchi hodisalar hamda ushbu differensial stimulli vaziyatlarda doim javob reaksiyasining ideal ravishda tayyor turishi bilan izohlash mumkin. Zaxiradagi ayol kadrlarda «tegirmondan butun chiqish» ko‘nikmasining pastligi to‘satdan paydo bo‘luvchi mushkul sinovlar oldida ojizlik kayfiyatini namoyon qiladi. Bu jihatlar zaxiradagi ayol kadrlarda o‘zini turli holatlar oldida yo‘qotib qo‘ymaslik ko‘nikmasini shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi. Rostgo‘ylik zaxiradagi ayol kadrlarda ($U=219462,5$; $p<0,01$), jumladan, boshqaruvdagi kadrlarda muloqot qilishda ustamonlik ularning suhbat davomida yolg‘on iboralardan, shablonlardan

foydalanish chastotasini oshirsa, «borni bor, yo‘qni yo‘q» deb ko‘rsatish ortidan nizoli vaziyatlardan chiqish, tushunmovchiliklar hamda kelishmovchiliklarning oldini olish mumkinligi haqidagi pozitiv ustanovkalar zaxiradagi kadrlarda yolg‘onni identifikatsiya qilish darajasining kamayishiga sabab bo‘lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Xulosa o‘rnida ytish mumkinki, zahiradagi kadrlar boshqaruv kadrlarga nisbatan bo‘ysunuvchanlik xususiyati yuqorili bilan ajralib tursada psixik faollik darajasiga ko‘ra boshqaruv kadrlardan ustun turishi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, boshqaruv kadrlarda rostgo‘ylikda zo‘riqish kuchaysada muloqotga kirishihsdagi namunalardan ko‘proq foydalanish ham ustunlik qilishi bilan izohlash mumkin bo‘ladi. Zero, boshqaruv refleksiyalarini shakllanganligi aynan shaxsiy rivojlanishidagi tormozlanishlarni kuchayishiga, amorf g‘oyalarda yondashuvlarni mustahkamlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Boshqaruvda zaxira lavozimlardan farqli ravishda o‘zgarishlarni tez qabul qilish, novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun zamin yaratishi mumkin bo‘ladi.

Natijada, shaxs psixoemotsional tiplariga ko‘ra, erkak kadrlarda ratsionallik, ayollarda emotsional loyallikni ustunlik qilishi refleksiv korreksiya ta’sirida immanent darajada shakllanishi namoyon bo‘lib, psixik xususiyatlarning faollashishi kadrlar ijtimoiy-psixologik sifatlarini shakllanishining dinamik barqarorligiga ta’sir etishini erkin izohlash imkoni yaratiladi. Xususan, kadrlar identifikatsiyasi ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishning realizatsiyasi asosida kauzal atributlarni takomillashtirish uchun restabil baryerlarni aniqlash imkoniyatini yaratishda aristokratik kuzatuv boshqaruvning psixologik madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida ekspressivlik, optimallik, strategik, legitim komponentlar integratsiyasiga ko‘ra yetakchi impulsiv indikator bo‘lishi haqidagi xulosalarni berish imkoniyati oshadi.

FOYDALANLGAN ADABIYOTLAR:

1. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. // К.А.Абульханова-Славская. – М.: 1991. – 299 с.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник. Издательство Московского университета. 1980. — 416 с.
3. Липпман У. Общественное мнение. (Стереотип. Власть стереотипов) ©Washington ProFile. 2005. – С. 120-122. http://pcyfactor.org/lib/stereotype.htm
4. Малкина-Пых И.Г., И.С.Лысенко Гендерная психология как основа построения системы долговременного ухода. Монография. Санкт-Петербург. 2021. – С. 50.
5. Майерс Д. Психология// Перевод с английского И.А.Карпиков, В.А.Старовотова. –М.: Поппури. 2006. – 648 с.

6. Макклелланд Д. Мотивация человека. – СПб.: Питер. 2007. Серия. Мастера психологии. – С. 62-68. ISBN: 978-5-469-00449-3; 5-469-00447-X

YOSHLARDA HARBIY-VATANPARLIK TUYG‘USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

SH.T.Baxranov
Harbiy vatanparvarlik ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi o‘qituvchisi tarix.f.b.f.d. (PhD)

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgat qurolli mojoralar, ommaviy tartibbuzarliklar, axborot hurujlari va boshqa ko‘plab taxdidlar kuch tuzilmalarining barcha toifadagi harbiy xizmatchi va xodimlaridan yuksak vatanparvarlikni va qasamyodiga sodiqlikni talab etmoqda.

Vatanparvarlik - bu kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan
his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir.

Vatanparvarlik haqida fikr yuritadigan bo‘lsak - bu Vatanga muhabbat, o‘z vataniga sadoqat, uning manfaati va xizmatiga tayyorlik, kezi kelganda o‘zini qurbon qilish, uni turli yovuz kuchlardan himoya qilish kabi hislar asosida mujassamlanadi.

Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko‘p uchraydi. Masalan, Abdulla Avloniy, u qatag‘on yillari paytida yashagan bo‘lsa ham so‘z erkinligi unda juda rivojlangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, u o‘zining bolalarni o‘qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan. Uning bolalarga chet tilini o‘rgatish, savod chiqarish va boshqa o‘qitishga oid qilgan ishlari benihoya taqsinga sazavardir.

Erkka intilish, ozod yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos bo‘lgan tuyg‘udir. Inson o‘z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh mavzusi bo‘lib kelgan. Chunonchi, Hadisi Sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta’kidlanadi. Alisher Navoiy quyidagi misralarda vatandan ayrilish inson uchun og‘ir judolik ekanligiga urug‘ beradi: Abdulla Avloniy o‘z asarlarida “vatan” tushunchasiga ta’rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligi quyidagicha qayd etadi: “Har bir

kishining tug‘ulub o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sg‘on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi – tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas. Biz turkustonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi. Arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskumular shamol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerdlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi”. Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o‘ziga yaqin bo‘lgan kishilar davrasida bo‘ladi, o‘zi ko‘nikkan turmush tarzi bo‘yicha kun kechiradi, bolalikdan o‘zi ko‘nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda so‘zlashadi va u shu muhitdagina o‘zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o‘ziga tanish bo‘lgan, o‘zi ko‘nikkan muhitni topa olmaydi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha mamlakatimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sababi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ro‘hida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborotkommunikasiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal yetish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23- fevraldagi 140-son qaroriga binoan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib ushbu konsepsiyaning 2 bobida Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitusiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

“Uchinchi Renesans” poydevori bo‘lmish Yangi O‘zbekiston rivojiga har daqiqada ulush qo‘shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl k o‘rinishidir. Vatanga munosib farzand bo‘lish, uning yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog‘liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko‘rinishi, qirrasidir.

Harbiy vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yoshlarga xos fazilatdir. Vatanga, xalqga bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch

tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyaiga ta’sir qilib, ularni ma’suliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi.

Muzeylar, san'at maktablari va madaniyat markazlari kabi muassasalarda uzil-kesil yoshlarni vatanparvarlikda tarbiyalash mumkin emas. Umumta'lim maktablari vatanparvarlik ta'lim dasturlari doirasida ular bilan hamkorlik qilib, yoshlarni o‘z mamlakatining madaniy va tarixiy merosiga jalb qilishadi.

Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasiga qaratilgan chora-tadbirlar:

- ko‘rgazmalar;
- musobaqalarni o‘tkazish;
- ijodiy faoliyat;
- ijodkorlik festivali;
- mahalliy tarixga, tarixiy muzeylarga va san’at galereyalariga tashrif buyurish;
- tarixiy yodgorliklarni takomillashtirish;
- suhbat va dars soatlari;
- mudofaa va sport o‘yinlari;
- mintaqaviy va mintaqaviy tematik musobaqalar va boshqalar.

Zamonaviy doirada fuqarolik-vatanparvarlik ta'limi yosh avlodni ularning yurish-turishi va fuqarolik pozitsiyasi uchun javobgarlik uchun tayyorlanishini nazarda tutadi.

To‘g‘ri va malakali bilim olgan yoshlar bugungi demokratik jamiyatda erkin muloqot qilishi mumkin. Yoshlar ular ishtirok etadigan jamoat ishlarining ahamiyatini va ularga o‘z hissasini qo‘shish muhimligini biladilar. Yoshlar tashabbusni olishga, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘zlari kabi nafaqat o‘zlariga, balki boshqalarga ham, butun mamlakatga foyda keltiradigan inson sifatida o‘sishga tayyor bo‘ladi.

Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlar o‘rtasida shaxslararo va millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantiradi.

Vatanparvarlik ta’limining barcha ta’lim tizimida ahamiyati yo‘q, chunki u Vatan himoyachilarini tayyorlaydi. Ushbu yo‘nalish doirasida yosh erkaklarga ishonchlilik va qat’iyatlilik, jismoniy chidamlilik va jasorat kabi fazilatlar yetishtiriladi. Bu xususiyatlar nafaqat armiyada xizmat qilish, o‘z mamlakatini himoya qilish, balki oddiy kasblar, masalan, shifokorlar uchun ham ajralib turadi.

Zamonaviy jamiyatda vatanparvarlik ta’limining asosiy muammolari quyidagilardir:

- ❖ yoshlarning qadriyatlarini o‘zgartirish;
- ❖ yoshlarning ta’lim darajasini pasaytirish.

Ayni paytda, zamonaviy yoshlar orasida kasb-hunar maktablari, internatlar va mehribonlik uylari bitiruvchilarining ko‘pligi kuzatilmoqda. Yoshlarning ushbu toifasi, xususan, ichkilikbozlik va giyohvandlar sonining yuqori darajasi yuqori bo‘lgan yoshlarga qaraganda ancha yuqori. Shuningdek, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadi albatta, vatanparvarlik va tuyg‘ularini, Vatanga sadoqatnishakllantirishda yotadi. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bolalarda o‘z Vatani, vatandoshi bilan faxrlanish, o‘z davlati tarixiga hurmat hissini uyg‘otadi. Harbiy psixolog lavozimda ishlaydigan xodim harbiy yoshlarning vatanga ruhida tarbiyalashbilan birga harbiy xizmatda ishlaydiganlarning psixologik holatini baholab unga maslahat berish,ulardan tez tez suitsid holatlari kuzatilmasligi uchun test, metodika, seminar va treninglar o‘tishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, oldimizda turgan asosiy vazifa – yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g‘urur kabi g‘oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o‘zligini anglashga erishishdir.

Yoshlarga har sohada o‘zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an’analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g‘oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni oiladan boshlamoq kerak. Chunki oila jamiyatning bir bo‘g‘inidir. Shunday ekan, jamiyatga kerakli kadrlarni oila yetkazib beradi. Oilada bola ulg‘ayadi, o‘sadi. Ana shu voyaga yetish jarayonida oila maktabining o‘rni beqiyos. Oilaga, ota-onaga, yaqinlarga bo‘lgan muhabbat, hurmat keyinchalik bir butunlik sifatida Vatan so‘zida mujassamlashadi. Shunday ekan, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarni ma’naviy yuksalishiga zamin yasaydi. Oilada bolalarimizga ertaklar aytayotganimizda ham milliy ertaklardan, afsonalardan, rivoyatlardan foydalanishimiz u yerdagi qahramonlarning mardlik, jasurlik, o‘z vatanini hech narsaga alishtirmaslik, uni bir parcha tuprog‘ini ham muqaddas bilish lozimligini ajdodlarimiz ma’naviy meroslaridan foydalangan holda uzviy olib borishimiz vatanimiz kelajagini mevasini yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiya” Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) – soni, 2018 yil 2 mart.

2. Mirziyoyev SH.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // www.prezident.uz.

3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Fan, 2001 – 153 b.

4. Karimov.I.A Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2000. – 471 b.

5. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Adolat, 1992. – 44 b.

6. Nabiyev, M. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asarida globallashuv davrida milliy taraqqiyotni ta’minlashning usul va vositalar tahlili. 2020 yil.

PSIXOLOGIK XIZMAT HARBIY XIZMATCHILAR PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA’MINLOVCHI OMIL SIFATIDA

Mirashirova Nargiza Anvarovna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ashurmatov Muzaffar Komilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lgan psixologik xizmat va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilar faoliyatida ularning psixologik barqarorligini ta’minlashda psixologik xizmat o‘rni
va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, psixologik xizmatning maqsadi, psixologik xizmatning vazifalari, psixologik diagnostika, psixologik konsultatsiya, psixologik korreksiya, ijtimoiy-psixologik ma’rifat, harbiy psixolog.

Аннотация. В статье анализируется одна из актуальных проблем психологической службы и ее отличительные особенности. Также подчеркивается роль и значение психологической службы в обеспечении их психологической устойчивости в деятельности военнослужащих.

Ключевые слова: психологическая служба, цель психологической службы, задачи психологической службы, психологическая диагностика, психологическое консультирование, психологическая коррекция, социально-психологическое просвещение, военный психолог.

Abstract. The article analyzes one of the topical problems of the psychological service and its distinctive features. The role and importance of the psychological service in ensuring their psychological stability in the activities of military personnel is also emphasized.

Key words: psychological service, the purpose of the psychological service, the tasks of the psychological service, psychological diagnostics, psychological counseling, psychological correction, socio-psychological education, military psychologist.

Jahonda harbiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarishi va ro‘y berayotgan mojarolar rivojlangan davlatlarning qurolli kuchlarga alohida e’tibor qaratishini talab etmoqda. Bu o‘rinda harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni ta’minlashda psixologik xizmatni to‘g‘ri tashkil etish va olib borishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Psixolog mutaxassisning muhimligi Amaliy psixologlar xalqaro assosatsiyasi (IAAP), Xalqaro

psixologlar ittifoqi (ICP), Xalqaro kross-madaniy psixologiya assotsiatsiyasi (IACCP), Yevropa eksperimental-ijtimoiy psixologlar assotsiatsiyasi (EAESP), Komparativ psixologiya xalqaro jamiyati (ISCP) va xulq-atvor rivojlanishini o‘rganishning xalqaro jamiyatlari (ISSBD) faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi bilan belgilanmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi va ta’limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish asosida jamiyat taraqqiyoti uchun fanning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Armiya jangovar qobiliyatini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning eng muhimi shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holati hisoblanadi hamda qo‘shinlarning mo‘ljallanishi bo‘yicha vazifani maqsadga muvofiq bajarishga tayyorligi bilan ifodalanadi [3]. Ushbu tayyorgarlik psixologik xizmat mobaynida tegishli mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

Psixologik xizmat – maxsus organlar, bo‘linmalar va mas’ul xodimlar tizimini tashkil etuvchi yaxlit tashkiliy tuzilmaga birlashgan, faoliyat ko‘rsatish mazmuni “psixologik faoliyat” tushunchasidan iborat bo‘lgan, qo‘shinlar (harbiy tuzilmalar) hayotiy faoliyatining axloqiy-ruhiy ta’minoti tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. ***Psixologik xizmatning maqsadi*** - shaxsning har tomonlama shakllanishi, rivojlanishi samarali ijtimoiylashuvi, moslashuvi barcha yosh davrlarida psixologik salomatlikni muhofaza qilish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoit yaratishdan iborat. Psixologik xizmat psixologik diagnostika, psixologik konsultatsiya, psixologik korreksiya, ijtimoiy-psixologik ma’rifat va boshqa yo‘nalishlarda olib boriladi.

Psixologik xizmatning vazifalari:

harbiy xizmatchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlariga muvofiq rivojlanishida uning psixologik imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish;

harbiy xizmatchilarning intellektual, shaxsiy, ijtimoiy rivojlanishidagi og‘ishlarni o‘z vaqtida aniqlash, tuzatish va oldini olish;

shaxsiy tarkibga kasbiy va hayotiy o‘zligini anglashida ularning shaxsiy qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, salomatligini inobatga olgan holda psixologik yordam ko‘rsatish;

harbiy faoliyat barcha subyektlarining psixologik salomatligini muhofaza qilish, jamoada sog‘lom psixologik muhitni saqlash, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning eng maqbul yechimlarini topish;

harbiy qism va muassasalarda shaxsiy tarkining ta’lim va tarbiyasi, harbiy xizmatchilar xulqidagi og‘ishlar, shaxsning oilada va jamiyatda moslashuvi va

ijtimoiylashuvi muammolari bo‘yicha psixologlar, pedagoglar, oila a’zolarining samarali hamkorligini ta’minlash;

“xavfli guruh”ga kiruvchi harbiy xizmatchilarni aniqlash, ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash, psixologik reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish, psixologik kuzatish va qo‘llab-quvvatlash.

Psixologik xizmat AQShda XIX asr boshlarida rivojlana boshlagan bo‘lib, hozirgi kunga qadar zamonaviy psixologiyaning hayotiy va amal qiluvchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Psixologik xizmat ko‘rsatish Angliya, Norvegiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Germaniya va boshqa ko‘plab yirik davlatlarda yo‘lga qo‘yilgan [4].

Yurtimizda ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga [1] muvofiq, Mudofaa vazirligi tizimida «harbiy psixolog» (ofitser) lavozimi joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida "Psixologiya (harbiy psixolog)" ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ofitser kadrlarni tayyorlashi yo‘lga qo‘yildi. Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va murakkab vaziyatlarda bardoshliligini oshirish, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini shakllantirish, shuningdek, o‘z burchini o‘tashdek murakkab bo‘lgan vazifaga ruhan tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida “Mudofaa vazirligi psixologik tayyorgarlik markazi” tashkil etildi. Albatta mazkur ishlarning yanada samarali olib borilishi psixologik xizmat subyektlarining kasbiy sifatlariga bog‘liq.

Qurolli Kuchlari psixologlari psixologik bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, psixologik metodikalar bilan ishlash yo‘llarini bilish, muomala madaniyatiga ega bo‘lishi, kuchli empatiya mavjudligi psixologlarning muhim jihatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Olimlar tomonidan psixologik xizmat ko‘satuvchi shaxslarning faoliyati tahlil etib boriladi. Bunda mutaxassisning asosiy faoliyati quyidagilar bo‘ladi:

psixikaning rivojlanishi va psixik jarayonlar qonuniyatlarini tadqiq etish;

turli yoshdagi odamlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganish;

insonning ichki dunyosi va xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish;

kichik va katta guruhlardagi odamlarning xatti-harakatlarini o‘rganish;

kishilarning ijodiy faoliyati, ularni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlari, hissiy sohasi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish;

mehnatning turli sohalarida inson faoliyatining xususiyatlarini o‘rganish;

stressli vaziyatlarda inson xatti-harakatlarining xususiyatlarini o‘rganish;

sud muhokamasining xususiyatlarini, huquqbuzarning xatti-harakatlarining motivlarini o‘rganish, huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ishlab chiqish;

turli yoshdagi bolalar uchun ta’lim dasturlarini yaratish;

mijozga uning holati va xatti-harakatlari haqida ma’lumot berish;

insonga qiyin vaziyatlarni, nizolarni hal qilishda yordam berishga qaratilgan psixologik maslahat;

inson psixikasi va xulq-atvorining nomaqbul ko‘rinishlarining oldini olish va tuzatish, shuningdek, kerakli xususiyatlar va xulq-atvor xususiyatlarini birlashtirish;

kadrlarni professional tanlash;

lavozimda o‘sish rejasini shakllantirishda yordam berish va lavozimda o‘sish uchun psixologik yordam ko‘rsatish:

guruh ishlarini tashkil etish, treninglar o‘tkazish;

vositachilikni (vositachilik funksiyalarini) amalga oshirish;

tadqiqot tahliliy ishi;

psixodiagnostika usullarini real amaliyot sharoitlariga moslashtirish [2].

Harbiy xizmatchilarda barqaror axloqiy-ruhiy holatini ta’minlashda ularga jamoaviy ta’sir o‘tkazish muhim bo‘lib, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatidan kelib chiqib, ularga yuklatilgan o‘quv-jangovar vazifalarni guruhiy va jamoaviy tarkibda (seksiya, ekipaj, hisob, guruh, vzvod, batalon) bajarishlarini inobatga olganda jamoaviy ya’ni, aynan o‘z safdoshlari va tengdoshlari tomonidan berilgan qo‘llab-quvvatlash yaxshi samaraga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga harbiy xizmatchilar bilan guruhiy ta’sirlarni samarali qo‘llashda psixologik treninglardan foydalanish lozim. Harbiy psixologlar P.Korchemniy va V.Fedotov psixologik treninglarda asosiy talab barcha guruh a’zolarini 4-6 kishilik kichik guruhlarga ajratib ishlash, bunda «moderator» vaqtni nazorat qilishi va umumiy vaqt har bir sifatni shakllantirish uchun 20 daqiqadan oshmasligini ko‘rsatib o‘tgan [5].

Umuman olganda psixologning qanday usulda psixologik xizmatni olib borishi uning ushbu faoliyatga qo‘yiladigan talablarni bajarishiga aloqador hisoblanadi. Psixologlar faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Psixologik xizmatni olib borish hamda psixolog mijoz bilan ishlashda psixologik xizmatning yo‘nalishlari haqidagi chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi muhim. Ana shundagini har qanday sohada ham psixologik xizmat psixolog yordamiga muxtoj bo‘lganlarning ijtimoiy muammoni bartaraf etishga yo‘naltirilgan samarali faoliyatini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-sonli Qarori. http://www.lex.uz.

2. Волгушева А.А. Профессионально-личностный портрет психолога// https://center-yf.ru/data/stat/professionalno-lichnostnyy-portret-psihologa.php

3. Гура, А.Н. Морально-психологическое состояние войск в понимании военнослужащих / А.Н. Гура Беларуская думка № 5. 2014. С.12-20.

4. Shayakubov B.A. Psixolog kadrlar huquq va majburiyatlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari / Psixologik xizmatning dolzarb muammolari va ularni yechish yo‘llari. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. O‘R QK Akademiyasi. – 2023 y. B.340.

5. Корчемный П.А., Федотов, В.В. Психология человека: Учебное пособие. – М.: ВУ, 2008. – 200 с.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK XIZMAT AHAMIYATI.

Sirliyev Erkin Nazarovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi dotsenti psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Qaysi yurtda non arzon bo‘lsa, o‘sha yerga ko‘chib yuradigan odamda Vatan tuyg‘usi bo‘lmaydi” [5; 145-b]. Darhaqiqat yozuvchi O‘tkir Hoshimov “Vatan tuyg‘usi” nomli bitigida vatanparvarlik to‘g‘risida halqona ta’rif bergan. Darhaqiqat bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Shu boisdan mazkur masalada mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish masalasi harbiy va ijtimoiy psixologik tadqiqotlar predmetiga aylanib bormoqda.

Bizningcha yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularda ushbu tuyg‘uni shakllantirishda psixologik xizmat ko‘rsatish orqali amalga oshirish mumkinligi to‘g‘risida bir qancha ilmiy va nazariy ishlar olib borilgan va borilmoqda. Chunki psixologik bilimlar birinchi navbatda insonni o‘zini so‘ngra milliy o‘zligini anglashga har tomonlama yordam beradi. Psixologik bilimlar insoning intellektual taraqqiyotini, intellektual odamlar esa davlat, xalq va millatni taraqqiyotining garovidir.

O‘zini va milliy o‘zligini anglash vatan himoyasi va vatanga muhabbatni oshiruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar hisoblanadi. “Vatan – ulug‘, burch – muqaddas!” O‘zbekiston yoshlarida harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish

bo‘yicha ijtimoiy buyurtma bor. Ya’ni mazkur masalada Prezident qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari va sohadagi islohotlar bo‘yicha bir qancha xujjatlarni aytish mumkin. Lekin yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlari ijtimoiy extiyojga aylanmayapti.

Bizningcha buning sababi yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalashning yakdil va aniq indikatorlari (Vatanparvar insonda qanday tayanch kompetensiyaviy drayver fazilatlar bo‘lishi kerak?) va uning o‘lchov mezonlarining puxta emasligi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarilik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillarida asosan yoshlarning xulq-atvorida milliy fazilatlarni namayon bo‘lishi, milliy o‘zligini anglashi kabi jihatlar juda muhim hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarilik ruhida tarbiyalashda ularning xulq-atvorida vatanparvarlikni namayon bo‘lishini yakdil verbal va noverbal elementlar algaritmini va vatanparvarlik bo‘yicha milliy xulq-atqor modelini ishlab chiqish va mustahkamlash masalasini tadqiq qilish juda muhim.

Yoshlarning xulq-atvorida vatanparvarilikni yuksak darajada namayon bo‘lishida bexeviorizm konsepsiyadagi “S-R” formulasi va “operant” modeli ya’ni aytish emas tushuntirish ko‘rsatish o‘rgatish kabi metodlarni kuchaytirish lozim.

Yoshlarning xulq-atvori bevosita va bilvosita ta’lim-tarbiya jarayonining mahsulidir. Shunday ekan biz yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishda ularning xulq-atvorida vatanparvarlikning “sadoqat”, “matonat”, “mardlik”, “ma’suliyat”, “o‘z-o‘zini anlash”, “o‘z-o‘zini nazorat qilish”, “daxldorlik” kabi tayanch kompetensiyaviy drayver faziflatlarni kuchaytirishmiz muhim hisoblanadi. Shundagina yoshlar “alturizm” xulq modeli shakllanadi.

Alturizm esa vatanparvarlikni naqd o‘zidir!

Yoshlarda vatanparvarilik tuyg‘usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari da ta’sirchan bo‘lgan oila, mahalla, ta’lim va ommaviy axborot vositalarini o‘rni bo‘lsa, psixologik mexanizmlar psixoprofilaktika, psixologik trening va psixologik korreksion mashg‘ulotlarni olib borishda yakdil vazifalarni ham kelishib olish va shular orasidagi amaliy hamkorlik yoshlarda vatanparvarlik fazilatini yaqqol namayon bo‘lishini ta’minlaydi.

Quyidagilar metodlar yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning ta’sirchanligini oshiradi:

-tushuntirish, ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag‘batlantirish, o‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy namuna;

-yoshlarda vatanparvarlik qadriyatini shakllantirishda muhim yondashuvlardan biri tizimli yondashuvdir. Bu nuqtai nazardan vatanparvarlik qadriyatini shakllantirish ularda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish bilan bir qatorda diniy, axloqiy, tarbiyaviy, ilmiy, estetik va boshqa qadriyatlarni shakllantirish bilan

birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki sanab o‘tilgan qadriyatlar ham vatanparvarlik g‘oyalarini ifoda etadi;

-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni ijtimoiy hayotida faol bo‘lish, o‘zining oilasi, mahalla, jamoasi hamda jamiyatga ma’lum foyda keltirish, jamiyatda amalga oshayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldor bo‘lish kabi xususiyatlar vatanparvarlik qadriyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlar kechagi yoshlarga qaraganda har tomonlama intelektual salohiyatga egali bilan ajralib turadi. Ushbu yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda psixologik xizmat sohasining o‘rni beqiyosdir. Yoshlarni vatanparvarilik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish va u bo‘yicha mahalliy tadqiqotlarni ko‘paytirish mazkur masaladagi samaradorlikni oshirishning eng ta’sirchan yo‘llaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” /To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2017. – 328 b.
2. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. Toshkent. “Fan” nashriyoti 2004.
3. Sa’dulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. O‘zbekistonda ma’naviy – ruhiy tiklanish. Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti 2003.
4. Inoyatov I.Y., Abilov M.X. “Vatan himoyasi muqaddas burch” Toshkent. “O‘zbekiston”. 2001y.

YOSHLARDA HARBIY-VATANPARLIK TUYG‘USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Sirliyev Erkin Nazarovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi dotsenti psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
(sirlieverkin@gmail.com)

Yangi O‘zbekiston bag‘rida III-Renessansning bosh me’morlar – yuksak salohiyatli, xorijif tillar, zamonaviy bilim, axborat va turli faoliyat texnalogiyalarini puxta o‘zlashtirayotgan, ma’naviy barkamol, vatanparvarlikni bosh qadiriyat sifatida teran anglaydigan, Vatan iqboliga sadoqatli yangi avlod ulg‘ayib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘n bir millionga yaqin yoki

umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa –18 million nafarni yoki 64 foizini tashkil etadi. Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning hayotda o‘z o‘rinini topishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlatimiz siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish, ushbu yoshlarni islohotlardagi faol ishtirokini ta’minlash orqali ularning demokratik yangilanish jarayonlarining ishtirokchisi sifatidagi roli yanada ortdi. Bu quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangi asrga kelib, yoshlarga munosabat masalasida dunyo taraqqiyoti uchun umumiy bo‘lgan qonuniyatning mavjudligi ayon bo‘ldi, ya’ni, yoshlar endi nisbatan ustuvor ahamiyatga ega shaxsdan jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan, uni amalga oshiradigan yetakchi kuchga aylanmoqda;

- yoshlarning intellektual qobiliyatlari, kasbiy malakasi, ma’nan va ruhan barkamollik kabi ijtimoiy sifatlari butun jamiyatning rivojlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday tendensiyalar yoshlarning alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida siyosatning faol sub’ektiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev “dunyo kun sayin emas, soat sayin tahlikali bo‘lib borayotganini” ta’kidladi. Bugun biz insoniyat taraqqiyot sari, xavfsiz dunyo sari intilayotgan XXI asrda ham na xavfsizlik, na taraqqiyot o‘z mukammal kafolatiga ega emasligiga yana bir karra amin bo‘layapmiz. Zero, xavfsizlik va taraqqiyot o‘zgalar tominidan taqdim etiladigan “tuhfa” emas. Shunday ekan, tahlikali dunyo siyosatida O‘zbekiston o‘z pozitsiyasini qanday belgilaydi? Jahon va milliy maydonda davlatimizning yaqin va uzoq kelajakka qaratilgan insonparvarlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi qanday taktika va strategiyalari mavjud?

Javob bitta, ya’ni yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirish zarur.

Vatanparvarlik haqida fikr yuritadigan bo‘lsak - bu Vatanga muhabbat, o‘z vataniga sadoqat, uning manfaati va xizmatiga tayyorlik, kezi kelganda o‘zini qurbon qilish, uni turli yovuz kuchlardan himoya qilish kabi hislar asosida mujassamlanadi.

Erkka intilish, ozod yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos bo‘lgan tuyg‘udir. Inson o‘z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh mavzusi bo‘lib kelgan. Chunonchi, Hadisi Sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta’kidlangan bo‘lsa, Alisher Navoiy o‘z sherlarida vatandan ayrilish inson uchun og‘ir judolik ekanligi to‘g‘risida keltirib o‘tgan. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida “vatan” tushunchasiga ta’rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligi quyidagicha qayd etadi:

“Har bir kishining tug‘ulub o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sg‘on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi – tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas. Biz turkustonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar o‘z diyorining qumlik, issiq cho‘llarini, eskumular shamol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerdlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi”. Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o‘ziga yaqin bo‘lgan kishilar davrasida bo‘ladi, o‘zi ko‘nikkan turmush tarzi bo‘yicha kun kechiradi, bolalikdan o‘zi ko‘nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda so‘zlashadi va u shu muhitdagina o‘zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o‘ziga tanish bo‘lgan, o‘zi ko‘nikkan muhitni topa olmaydi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha mamlakatimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sababi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikasiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal yetish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23- fevraldagi 140-son qaroriga binoan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib ushbu konsepsiyaning 2 bobida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitusiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

“Uchinchi Renesans” poydevori bo‘lmish Yangi O‘zbekiston rivojiga har daqiqada ulush qo‘shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko‘rinishidir. Vatanga munosib farzand bo‘lish, uning yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog‘liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko‘rinishi, qirrasidir.

Harbiy vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yoshlarga xos fazilatdir. Vatanga, xalqga bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch

tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyaiga ta’sir qilib, ularni ma’suliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularda ushbu tuyg‘uni shakllantirishning psixologik yechimlariga quyidagilarni kiritishmiz mumkin:

-yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni tashkiliy-moddiy jihatdan ta’minlash;

-yoshlarga doir qonunchilikda va hukumat tomonidan belgilangan chora-tadbirlarni yangilanish va islohotlar jarayoniga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish;

-yoshlarning ijobiy shaxsiy sifatlarini takomillashtirishda zamonaviy ko‘rinishdagi psixologik xizmatdan foydalanish;

-yoshlarga milliy o‘zlikni anglash yuzasidan aniq dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish.

To‘g‘ri va malakali bilim olgan yoshlar bugungi demokratik jamiyatda erkin muloqot qilishi mumkin. Yoshlar ular ishtirok etadigan jamoat ishlarining ahamiyatini va ularga o‘z hissasini qo‘shish muhimligini biladilar. Yoshlar tashabbusni olishga, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘zlari kabi nafaqat o‘zlariga, balki boshqalarga ham, butun mamlakatga foyda keltiradigan inson sifatida o‘sishga tayyor bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, oldimizda turgan asosiy vazifa – yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g‘urur kabi g‘oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o‘zligini anglashga erishishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash – barcha ezgu-maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti. Uning o‘zi. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. – T.: 1-jild
2. Karimov.I.A “Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz”. – Toshkent: O‘zbekiston. 2000. – 471 b.
3. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. Toshkent: Adolat, 1992. – 44 b.
4. Nabiyev M. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asarida globallashuv davrida milliy taraqqiyotni ta’minlashning usul va vositalar tahlili”. – T.: 2020.

HARBIY XIZMATCHI AYOLLAR FAOLIYATIDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi ma’sul ijrochisi

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi ayollar, kasbiy faoliyat masalasi, kasbiy deformatsiya, muammolarni bartaraf etish.

Annotatsiya: Maqolada harbiy xizmatchi ayollar faoliyati bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish, kasbiy deformatsiyaning oldini olish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida: “Harbiylar xalqimizning ma’naviy yetuk farzandlari bo‘lishi kerak. Buning uchun shaxsiy tarkibning ma’naviy yetukligi, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yuksaltirish lozim. Siz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz vorislari ekanligingizni doim his qilib, shunga munosib xizmat qilsangiz, yoshlarimiz vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg‘ularini sizlardan o‘rganadi”-degan edi. [1.]

Darhaqiqat, mamlakatimizda bugungi kunda barcha sohalarda islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohatlar Qurolli Kuchlarimizning harbiy salohiyatini yuksaltirish, harbiy sohada professional kadrlarni tayyorlashda ham o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatmoqda. Harbiy xizmat - harbiy xizmatchidan o‘z kasbiga bo‘lgan ma’suliyat, o‘z sohasi bo‘yicha yetuk bilimli, matonatli, sodiq va vatanparvar inson bo‘lishni talab qiladi. Xizmat majburiyatlari, aholi bilan muloqotga kirishish jarayonlari, harbiy xizmatni o‘tash jarayonidagi uchrashi mumkin bo‘lgan muammolar harbiy xizmatchida deformatsiya jarayonini keltirib chiqarishi mumkin. Deformatsiya so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “buzilish”-degan ma’noni anglatadi [2]. Demak shunday ekan, harbiy xizmatchida deformatsiya holati kasb bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holat harbiy xizmatchi ayollarda ko‘proq uchrashadi. Sababi, birinchi navbatda harbiy xizmatchi ayolni oilasi, turmush o‘rtog‘i tushunishi zarur. Agar oilada tushunmovchilik bo‘lsa, kasbda qiyinchiliklarga uchraydi. Ikkinchi holatda, harbiy xizmatchi ayolning o‘z sohasi bo‘yicha yetuk bilimga ega bo‘lmasligi ham kasbiy deformatsiyaga uchrashiga sababchi bo‘lishi mumkin. Uchinchi holatta esa, komandir va boshliqlar tomonidan harbiy xizmatchi ayollar faoliyatiga, bilim, ko‘nikmalariga past baho berilishi, kasbiy deformatsiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Agar o‘z vaqtida muammolarga barham berilmasa, ko‘ngilsiz hodisalar yuz berishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olishda harbiy xizmatchi ayollarga psixologik xizmat ko‘rsatish o‘ta muhimdir. Shu o‘rinda Psixologik xizmat nima? Psixologik xizmat ko‘rsatish nima?-degan savollar paydo bo‘ladi. Ushbu savollarga biz, quyidagicha javob izlaymiz: “Psixologik xizmat ko‘rsatish atamasiga professor R.Samarov quyidagicha ta’rif bergan: “Psixologik xizmat ko‘rsatish, bu – harbiy qism, harbiy ta’lim muassasalari kabi muassasalarning xizmatchilari, jamoa a’zolari, turli toifadagi komandirlariga harbiy xizmatni o‘tash

jarayonida, ularning individual psixologik salomatligini, ijtimoiy-psixologik holatini, “komandir-bo‘ysunuvchi”, “bo‘ysunuvchi-bo‘ysunuvchi”, “bo‘ysunuvchi-harbiy xizmat (kasbiy burch)”, “komandir-komandir”, “komandir-harbiy qism” kabi xizmat munosabatlarini me’yorida saqlash maqsadida tadbirlarni amalga oshiruvchi, ta’minlovchi ya’ni institusional darajada tashkil etilgan faoliyat turidir. Bu faoliyat turi, komandirlik hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha komandir o‘rinbosarining funksional majburiyatlari doirasida bajariladigan vazifalarning mazmunini individual-shaxsiy xususiyatlar va harbiy xizmat davomida vazifalarni bajarishi uchun amalga oshiriladigan harakatlar muvozanatini ta’minlovchi hisoblanadi.” [3]. Olim A.Xursandov esa: “Psixologik xizmat ko‘rsatishning asosiy maqsadi xodimlarning kasbiy faoliyatida ularga psixologik ko‘mak berish, xodimlarni ijtimoiy moslashtirish hamda ularning sog‘ligi va optimal mehnat qobiliyatini saqlab turishga yordam berishdan iborat” – deydi [4]. Professor R.Maxmudov ushbu masalaga e’tibor qaratib: “Harbiy xizmatchilarga psixologik xizmat ko‘rsatishning asosiy maqsadi ularning kasbiy faoliyatlarida psixologik ko‘mak berish, ijtimoiy muhitga moslashtirish hamda ularning sog‘ligini va optimal mehnat qobilyatini saqlab turishga yordam berishdan iborat” – degan fikrlarini bildirgan [5]. Bizningcha harbiy xizmatchilarga psixologik xizmat ko‘rsatish – harbiy xizmatchini ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy va jismoniy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning kasbiy faoliyatga moslashishda ko‘maklashish” – deya ta’rif berishni o‘rinli deb hisobladik. Bir qarashda ushbu tariflar to‘g‘ridek, lekin har bir ta’rifda ham o‘ziga xos muhim jihatlar aks ettirilgan.

Yo‘qorida biz harbiy xizmatchi ayollarga psixologik xizmat ko‘rsatish masalasi haqida fikr yuritgan bo‘lsak, harbiy qismlarda, harbiy bilim yurtlarida harbiy xizmatchilarga psixologik xizmat psixolog mutaxassis tomonidan ko‘rsatiladi. Afsuski, psixologik diplomiga ega bo‘lgan mutaxassislarning kamligi yoki psixolog lavozimida nomutaxassis psixologning faoliyat yuritishi muammolarni keltirib chiqarishi aniq. Bu haqida professor G‘.Shoumarov: “Harbiy qismlarda psixologga mutojlik mavjuddir. Harbiy xizmatchining o‘ziga xos jihatlari, stress, zo‘riqish holatlarida ularni eshitadigan odamning yo‘qligi, oilaviy mojarolar, psixologni psixiatordan farqlay olmaslik, psixolog mutaxassislarning yetishmovchiligi borlari mutaxassis emas ya’ni siyosatchi tarixchi va hokazoligi, Milliy gvardiya qo‘shinlarida namunaviy psixologik xizmatning yo‘qligi haqida fikrlarini aytib, bir psixologning zimmasiga bir nechta vazifalarni yuklash natijasida psixologning kasbiy faoliyati samarasiz ketishi bu oddiy holga aylangan”- degan fikrni aytadi [6].

Psixolog mutaxassislar bilan bog‘liq muammolarga to‘xtalib o‘tar ekanmiz, qo‘mondonlik topshirig‘iga asosan, 2020-2024-yillarda Milliy gvardiya psixologlarini malakasi oshirildi. Jamoat xavfsizligi universitetida o‘sha vaqtda psixologlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi “Xizmat faoliyatingiz davrida qanday

qiyinchiliklarga duch kelasiz?” degan savolga (bir yil davomida) 135 ta malaka oshirishda o‘qigan psixologlardan yozma shaklda turlicha javoblar oldik. O‘sha savollarni guruhlarga bo‘ldik, masalan, eng ko‘p e’tiroz:

1. 90% psixolog ma’lumotiga ega bo‘lmagan xodimlarni psixologlar vazifasida xizmat olib borishlari natijasida psixologik bilimlar harbiy xizmatchilarga to‘la yetib bormasligi, yetib borsa ham mazmun-mohiyati o‘zgarib ketishi kundalik faoliyatida ko‘rinib turganini ma’lum qilgan. Yana bir guruh psixologlar psixologik konsultatsiya, psixologik trening o‘tkazish uchun xonalarning yo‘qligini aytishgan.

2. Psixologlarning jangovar va tinchlik vaqtida vazifalari to‘liq aniq belgilanmaganligi: qo‘mondonlikning 2020-yil 30-apreldagi buyrug‘ida [7] “Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi mahallaga biriktirilsin” deyilgan, lekin Psixologlar shaxsiy tarkibiga biriktirilsin degan joyi esa yo‘q; Psixologlarni kundalik naryad xizmatlariga jalb qilinsa, aslida Markaziy devondan yuborilgan tegishli ko‘rsatmalarda psixolog mutaxassislar xizmat faoliyatidan tashqari alohida holatdan tashqari qo‘shimcha xizmatlarga jalb qilinmasin deyilgan joyi bor, lekin barcha psixologlar birday xizmatdan tashqari faoliyatlarga jalb qilinmoqda;

3. Psixologik operatsiyalar otryadda ishlovchi ayrim ofitserlar mutaxassisligiga, tajribasiga, shaxsiy tarkib bilan ishlash qobiliyatiga va boshqa xislatlariga qarab saralab olinmagan, natijada xizmat faoliyatida kamchilik va muammolar paydo bo‘lishi, holbuki, mutaxassis-psixologlarning hozirgi kunda ish faoliyati qo‘mondonlik nazoratidadir.

4. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini, jumladan, mahalla yo‘nalishda xizmat olib borilayotgan harbiy xizmatchilarning (Milliy gvardiya nazarda tutilmoqda) mahalla profilaktika inspektorlariga qaraganda vakolati umuman chegaralanib qo‘yilgan. (Ma’muriy javobgarlikka tortish bo‘yicha fuqarolarni faqat beshta modda, u ham bo‘lsa sudga olib borib chiqiladigan materiallar); qayerda tadbir o‘tkazilsa, o‘sha o‘tkazilgan tadbirlarni tasvirga tushirish, rasmga olib kelib ko‘rsatish, psixologga emas, rasmga ishonish yo‘lga qo‘yilgan. Psixologlarning xonalari mavjud emas, kompyuter, printer, video yozuv va boshqa texnik vositalar yo‘q, xonalarda kreslo, divan, yozuv stoli, jurnal stollari bo‘lishi lozim, aks holda yakka tartibdagi psixologik-pedagogik tadbirlar qayerda o‘tkaziladi. Muammosi bor oilalar bilan qanday, qayerda gaplashiladi, psixologni ish kunlari va ish tartibi belgilangan bo‘lishi zarur-degan fikrlarni bildirgan.

Harbiy xizmat olib borayotgan ayol harbiy xizmatchilar o‘zlarining xizmat vazifasini va yuklamasini bajarmayotganligi (farzandlarining, o‘zlarining kasal bo‘lishi, oilasidagi tashvishlar va hokazolarning mavjudligi) natijasida ularning yuklamasini bajarishi boshqa erkak harbiy xizmatchilarga yuklatiladi. Natijada norozilik yuzaga keladi, jamoada psixologik muhit o‘zgaradi.

Savolnomalar orqali olingan javoblarga ko‘ra, harbiy ayollar faoliyati bilan bog‘liq muammolar uchrashi aniq. Bunday zo‘riqish holati harbiy xizmatchi ayollarda kasbiy deformatsiya holatini keltirib chiqaradi. Ko‘ngilsiz holatlarni bartaraf etishda guruh komandirlari, bo‘linma komandirlari, tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar bo‘limi ofitserlari, xotin-qizlar jamoatchilik kengashi a’zolari, harbiy xizmatchi ayollarning oilalari va mahallalar bilan hamkorlikda ishlarni tashkillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchi ayollar faoliyatida kasbiy deformatsiya holatlarining yuz berishi va buni bartaraf etish masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://www.tergov.uz/uz/news/shavkat-mirzieev-voennosluzhaschie-dolzhny-byt-vysokoduhovnymi-synami-nashego-naroda

2. Deformatsiya so‘zining ma’nosi? www.wikipedia.org

3. R.Samarov.,Milliy Gvardiya Harbiy-texnik instituti “Psixologik xizmat ko‘rsatishda ta’limiy va kasbiy faoliyat uyg‘unligini ta’minlashning innovatsion yondashuv masalalari”,Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi., T., 2020-yil 27-fevral bet-5.

4. Xursanov A.S. “Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlarining ma’naviyatini yuksaltirishda psixologik xizmatning roli”., Milliy Gvardiya Harbiy-texnik instituti “Psixologik xizmat ko‘rsatishda ta’limiy va kasbiy faoliyat uyg‘unligini ta’minlashning innovatsion yondashuv masalalari”,Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi., T., 2020 yil 27 fevral betlar-204-210.

5. Maxmudov R.M. “Harbiy xizmatchini ruhiy jihatdan barqarorlashtirishda psixologik xizmatning o‘rni” Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti “Psixologik xizmat ko‘rsatishda ta’limiy va kasbiy faoliyat uyg‘unligini ta’minlashning innovatsion yondashuv masalalari”,Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi., T., 2020-yil 27-fevral betlar-272-278.

6.“Psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya G‘.Shoumarov maqolasi 2021-yil 23-aprel JXU,. Bet-48-52.

7. Milliy gvardiya qo‘mondonining 2020-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi psixologlari tomonidan aholi o‘rtasida psixologik ishlarni tashkillashtirish to‘g‘risida”gi 39-son buyrug‘i.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИГРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ К БУДУЩЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хушвактов Бабур Мухитдинович,
и.о. начальника Главного управления кадров
Министерства обороны Республики Узбекистан, полковник

Аннотация. В статье раскрыты педагогические возможности подготовки курсантов к будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: курсант, преподаватель, высшее военное образовательное учреждение, педагогические возможности, профессиональная деятельность, игровое моделирование.

Annotatsiya. Maqolada kursantlarni bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: kursant, oliy harbiy ta’lim muassasasi, pedagogik imkoniyatlar, kasbiy faoliyat, o‘yin modellashtirish.

Abstract. The article reveals the pedagogical possibilities of preparing cadets for future professional activities.

Key words: cadet, higher military educational institution, pedagogical opportunities, professional activity, game modeling.

Существующие реалии в организации военно-профессиональной подготовки курсантов в высшем военном образовательном учреждении показывают, что в современных условиях преобладает тенденция к последовательности и целостности военной составляющей на протяжении всего периода обучения курсантов, ее нацеленности на формирование командно-методических навыков воспитательной работы. Квалификационные требования к уровню воспитанности курсантов на существующие учебные планы и программы привели к созданию новых методик обучения и воспитания, что требует коренной переработки планов и учебных программ, исключающих возможность несоответствия содержания обучения условиям и задачам по подготовке высокопрофессиональных военных специалистов. Это, в свою очередь, требует четкого определения целей использования игрового моделирования при подготовке курсантов к будущей профессиональной деятельности. Вот почему весьма важно описать учебную программу воспитания курсанта с системой знаний, умений и навыков, востребованных в современных условиях. Такой подход способствует созданию оптимальных условий и возможностей для самореализации и самовыражения курсанта.

Содержание уровня воспитания курсантов определяется нормативно-правовыми документами, принятыми в системе военного образования Республики Узбекистан. Конкретизация действий курсантов в игровом моделировании позволяет чётко и разумно применять свои знания в изменяющихся условиях. При этом модернизация военного образования, его интеграция с гражданским образованием, особенно, в нынешних условиях адекватна требованиям времени.

Научная разработка и практическое решение проблемы комплексного применения игрового моделирования при подготовке курсантов к будущей профессиональной деятельности, формирования у них готовности к работе с личным составом в интересах решения задач по предназначению как в боевых условиях, так в ходе повседневной жизнедеятельности показывает, что основные усилия в образовательном процессе сосредотачиваются на становлении курсанта как будущего военного специалиста. При этом необходимо формировать умения, навыки и качества, необходимые ему для выполнения военно-профессиональных обязанностей.

Требования опережающего развития военного образования приобретают особую актуальность с учетом ускорения темпов научно-технического прогресса, оснащения Вооруженных Сил Республики Узбекистан самым современным вооружением и военной техникой, использованием в армиях многих ведущих государств мира наиболее последних научных достижений. Военное образование должно быть мобильным, динамичным и практико-ориентированным. В связи с этим, сегодня важно реализовать задачи по выработке стратегии развития национального военного образования, определению приоритетных направлений его модернизации, а также выбору адекватных средств, методов и технологий его реализации с использованием элементов игрового моделирования.

В настоящее время четко просматриваются три основных направления модернизации военного образования: первое направление – это оптимизация самих сетей высших военных образовательных учреждений; второе – соединение, сплав образования и науки; третье – повышение качества образования в высшем военном образовательном учреждении.

Мировой опыт и практика доказывают, что важнейшим направлением повышения качества и эффективности образовательного процесса в высшем военном образовательном учреждении является его интенсификация на основе выверенного сочетания традиционных подходов и организационных, дидактических, технических и технологических инноваций.

Инновации – это создаваемые новые или усовершенствованные технологии, виды и организационно-технические решения, направленные на

вхождение в образовательную сферу, вживление в нее и порождение целого ряда изменений в ней, связанных с использованием игрового моделирования.

Инновация – это, с одной стороны, процесс нововведения: целенаправленного внесения изменений, приводящего к появлению новых стабильных элементов, реализации, внедрения игрового моделирования, а, с другой стороны, – это деятельность по вращиванию новации в определенную практику. Инновация является конечным результатом деятельности курсанта по реализации нового или усовершенствования уже реализуемого. Итак, процесс внедрения в практику апробированных в ходе опытно-экспериментальной работы результатов исследования в процессе использования игрового моделирования направлен на обновление содержания учебно-воспитательного процесса, внедрение ИТ-технологий, обеспечивающих формирование личности курсанта, его способности к научно-технической и инновационной деятельности. В системе высшего военного образования целесообразно использовать игровое моделирование с эффективным применением учебного материала, способствующего воспитанию национального патриотизма у курсантов.

Активное внедрение игрового моделирования в процесс подготовки курсантов к будущей профессиональной деятельности обеспечит формирование компетенций и развитие интеллектуально-творческого потенциала курсанта, способного выполнять боевую задачу в любых условиях и в любой обстановке, готового к самореализации в военно-профессиональной области, к конструктивному развитию Вооруженных Сил Республики Узбекистан.

Значит, постоянное совершенствование системы военного образования, формирование новой практики управления военным образованием, развитие профессионального мастерства курсантов; активного внедрения морально-психологического обеспечения образовательного процесса в высших военных образовательных учреждениях, теоретический анализ и экспериментальная апробация содержания игрового моделирования, функционирования военных образовательных систем в новых условиях, связанных с глобализацией, информатизацией, интеграцией национальной системы воспитания в мировое образовательное и информационное пространство, имеющиеся результаты изучения организации образовательного процесса в высших военных образовательных учреждениях, сложившейся практики управления системой военного образования свидетельствуют о том, что их качественное развитие зависит от новых методологических, комплексных, практико-ориентированных исследований в сфере военного образования.

В условиях инновационных преобразований перед системой национального военного образования стоит задача разработки новой парадигмы

воспитания. Ведь традиционное обучение и воспитание, в основе которого лежит опора на память, не в полной мере способствует развитию творческого мышления и интеллектуальной активности курсантов, не ставит проблем и не полностью развивает склонности к их выдвижению и решению собственными силами.

Для достижения поставленных целей в подготовке курсантов необходимо обновление содержания и структуры процесса национального воспитания. При этом, необходимо помнить, что адекватность динамики развития военной образовательной системы лучшим мировым стандартам не должно лишить ее соответствия национальным социокультурным особенностям и преемственности передовому национальному опыту военной образовательной деятельности. Ведь чётко спланированная организация воспитательного процесса высших военных образовательных учреждений позволит создать наиболее благоприятные научно-методические, информационные, технологические и технические возможности при подготовке курсантов к будущей профессиональной деятельности.

Для организации работы высших военных образовательных учреждений в условиях инновационных преобразований нужно реализовать задачи по выработке стратегии развития национального военного воспитания, определению приоритетных направлений его модернизации, методов и технологий его реализации.

В настоящее время просматриваются основных направления модернизации военного образования: это оптимизация организации сети высших военных образовательных учреждений, поиск организационных механизмов и инновационно-управленческих стратегий; соединение образования и науки; повышение качества образовательных услуг.

Все изложенное выше предъявляет соответствующие требования к процессу подготовки курсантов к будущей профессиональной деятельности, воспитанию патриотов своей страны в условиях новой формации динамичных военных кадров, непрерывно обновляющих багаж своих профессиональных знаний, умеющих жить и работать в инновационной среде. Именно национальное воспитание курсантов должно стать целевой сущностью военного образования в целом. Очень важно иметь структуру подготовки курсантов, гибко реагирующую на инновационные изменения, не теряя при этом сути, т.е. способности выполнить задачу по подготовке курсанта не только в качестве профессионала, но и дисциплинированного защитника Родины.

Таким образом, целенаправленная организация системы подготовки курсантов: возросшей потребности общества и армии в творческих, высокопрофессиональных, активно развивающихся курсантах; потребности в

конструктивном взаимодействии системы военного образования с жизнедеятельностью органов военного управления; требованиям осуществления непрерывного всестороннего воспитания курсантов в условиях инновационного общества, в том числе целостной профессионализации всех категорий курсантов; необходимости разработки концептуальных основ и создания оптимальных условий для реализации задачи оптимизации управления системой военного образования.

Решение данной проблемы во многом зависит от степени теоретической разработанности вопросов организации воспитательного процесса при подготовке курсантов к будущей профессиональной деятельности, ее методического обеспечения, обоснованности и разработанности путей и условий достижения высокого уровня профессиональной компетентности курсантов по выбранной ими военной специальности.

PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH

Sog'inov N.A. *– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*
O'zbekiston Raspublikasi JXU – "Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash" kafedrasi professori

Psixologik adabiyotlarda, ayniqsa psixodiagnostikaga oid adabiyotlarda, psixologik xizmat ko'rsatish haqida ma'lumotlar berilar ekan, uning qator yo'nalshlari qayd etiladi. Shulardan biri: mijozga psixologik maslaxat berish. Kundalik, hayuotiy psixologiyadan bizga yaxshi ma'lumki, kimnidir tomosho qilqsh, kimgadir biror masalada maslahat berish borasida faollik ko'rsatish lozim bo'lsa, hech bir qiyinchiliksiz bu ishga kirishishimiz mumkin. Biroq, buyuk mutafakkirimiz Mir Alesher Navoiy: "Oldiga qo'yganni emak hayvonning ish, Og'ziga kelganni demak nodonning ishi" deganlaridek, begona odamga "maslahat" berishdan osoni yo'q! Biroq maslahatda ham-maslahat borda. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida oliy-harbiy, oliy malakali amaliyotchi psixolog mutaxassislar tayyorlanar ekan, va shunday mutaxassislar harbiy qismlarda psixologik xizmatni amalga oshirar ekanlar – xizmatga muxtoj odamga og'ziga kelganini gapiraverishi mumkin deyilsa, xazrat Navoiyning o'gitlariga rioya qilinmagan bo'ladi. Shuning uchun bunday xizmatni tashkil etishda go'zal (chiroyli) yo'l tutish lozim bo'ladi.

Go'zal yo'l tutish, go'zal ish qilish degani nima? Agar "go'zal" so'ziga izoh, ta'rif qidiradigan bo'linsa, bu ish ancha uzoq davom etishi va unga ko'plab asosli isbotlarni keltirish mumkin. Lekin biz, bu o'rinda Aristotelning mashxur iborasi

bilangina kifoyalanishni lozim topdik. Uning ta'kidlashicha: "Nimaiki foydali bo'lsa – o'sha go'zaldir!".

Demak, amaliyotchi psixolog, ta'lim muassasalarida, harbiy qismlarda, oilalarda, umuman xalq ho'jaligining har qanday tizimida psixologik xizmatni tashkil qilar, amalga oshirar ekan, u o'z ishini "go'zal", "chiroyli" bo'lishiga harakat qilishi kerak. Bu jaxonning etakchi psixologlari Z.Freyd, R.Masloy kabilar tomonidan ham ko'p bora ta'kidlangan. Yani, Z.Freyd, bizning har qanday faoliyatimiz ikki motivdan boshlanadi, bulardan biri "Buyuk bo'lish istagi". Hamma ham buyuk bo'lishni xohlaydi. Yoki Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasiga ko'ra "Tan olinishga ehtiyoj". Shaxsni atrofdagilar (ish joyidagilar) qachon tan olishlari mumkin? Albatta u "kerakli", "qiziqarli", "foydali" bo'lsa.

Shuning uchun, psixolog joylarda psixologik xizmatni amalga oshirar ekan, avvalo uning xizmatidan albatta kimgadir (ayni vaqtda, shu xizmat ko'rsatilayotgan odamga) foydasi tegishi shart! Psixologik xizmatni amalga oshirish jarayonida ro'paramizda turgan odamda qanday foydamiz tegishi mumkin? Bu kabi savolning yuzaga kelishi qanchalik ta'biiy bo'lsa, unga bir xilda javob berib bo'lmaslik ham shunchalik mushkul. Xalqimizda: "Har to'kisda bir ayb", "Beayb Parvardigor" degan kabi ko'plab matal, maqollar mavjud. Agar amaliyotchi psixolog o'zi xizmat qilayotgan jamoa a'zosiga psixologik xizmat ko'satadigan bo'lsa, shubxasiz, psixologik xizmatning turli yonalishlarida, jumladan psixodiagnostikadan foydalanadi. Psixodiagnostika jarayonida, turli psixodiagnostik vositalardan foydalanish orqali ro'parasida turgan odamning ayrim "kamchiliklari", "xatolari"ni aniqlaydi. Ular haqida sinaluvchiga aytadigan bo'lsa, bu hammaga ham yoqavermasligi mumkin. ("To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi"). Ayniqsa, psixologik tuzatish, psixologik maslahat ishlarini amalga oshirishda. Shuning uchun ham, psixolog – psixologik xizmatni amalga oshirishda, o'zining sub'ektiv fikri, hayotiy tajribasidan (sub'ektivizmdan) imkon qadar qochib, sinaluvchiga uning "o'zidan olib – o'ziga qaytarishi", albatta qurollardan bo'lishi, yani psixodiagnostik vositalardan oqilona foydalana bilishi shart.

Psixologik xizmatning mazkur xizmatga murojaat qilgan yoki unga jalb qilingan shaxsga foydasi tegishi masalasiga kelsak, bu degani, bunday xizmat ko'rsatilishidan keyin, ya'ni uning oqibatida shaxsda yki shaxslararo munosabatlarda o'zgarish, shaxs va shaxslararo munosabatlarda kutilgan tomonga rivojlanish bo'lishi lozim. Boshqacha ibora bilan aytilganida shaxsga yoki guruhga psixologik xizmat ko'rsatilganidan keyin uning hulqida, ruhiyatida kutilgan o'zgarishlar, rivojlanish bo'lishi kerak. Shundagina psixologik xizmat o'z samarasini bergan hisoblanadi. Gippokrat ta'kidlaganidek: "Agar odam o'zi o'zgarishni xohlamasa, unga hech kim yordam bera olmaydi". Ho'sh odam qachon o'zgarishni xohlashi mumkin? Qachonki u o'z xato, kamchiligini anglasa, tushunib etsa. Afsuski hayotda bunday shaxslarni

uchratish amri mahol. Lekin shunga qaramay amaliyotchi psixolog psixologik xizmat ko'rsatish orqali shaxsni rivojlanishi, o'sishi, o'zgarishiga erishishi kerak. Bu borada unga psixodiagnostik vositalardan oqilona foydalana bilish malakasi, shaxsning o'z-o'zini baholashi, psixolog-mijoz o'rtasidagi psixologik to'siqlarni bartaraf etishi, u bilan ishonchli munosabatni o'rnata olishi yordam berishi mumkin.

Psixologik xizmatni tashkil etishda, amaliyotchi psixolog ro'parasida turgan shaxsga psixologik ta'sir etish, uning hulqida (puhiyatida) kutilgan o'zgarishlarni yuzaga keltirish uchun, avvalo u bian psixologik aloqa o'rnata olish lozim bo'ladi. Shaxs bilan psixologik aloqa o'rnatish uchu avvalo u bilan "bir tilde" gaplashish lozim bo'ladi. Bir tilada gaplashish degani bir Grammatik tilda emas, balki "bir psixologik tilda" gaplashish, yani o'zaro tushunish deganidir. Bu o'rinda psixologka, uning kasbiy bilimlari, psixologiya ta'limotlaridan boxabarligi kata yordam beradi. Bu borada analitik psixologiya asoschisi K.G.Yung ta'kidlaganidek mazmuni o'tmish ajdodlardan meros qilib olingan arxetiplarga,shaxsning jamoa ongsizligiga murojaat qilish lozim bo'ladi. Bu degani – shaxsning qadriyatlariga, uning mentaliteti, milliy qadriyatlariga murojaat qilish demakdir. Odam o'zi uchun nima qadrli, nima qadriyatli ekanligini hamma vaqt ham anglayvermaydi. Uning u yoki bu xulqining asosida nima yotganing hamma vaqt ham anglayvermaydi. Buni bo'lajak kadr, mutaxassislarimiz "Umumiy psixologiya"da: motivlar, anglangan va anglanmagan motivlar, tashqi ijtimoiy ahamiyatli motivlar va ichki shaxsiy ahamiyatli motivlar haqidagi ma'lumotlarni o'rganishda o'zlashtirganlar. Bu o'rinda: shaxsning "anglanmagan" va "ichki shaxsiy ahamiyatli" motivlari arxetiplar vazifasini o'tab, shaxs xulqini "boshqaradi" (xulqiga ta'sir qiladi), oqibatda shaxs u yoki bu xulqni (psixikani) namoyon qiladi.

Shunday ekan, psixologik xizmatni tashkil qilishda avvalo, shaxsning arxetiplari qanday, nimalardan iborat ekanligini inobatga olish, shu orqali unga ta'sir etish maqsadga muvofiq. Har qanday faoliyatning asosini tashkil qiluvchi motiv va motivatsion holatlar psixologiyasidan bizga yaxshi ma'lumki, odam u yoki bu xulqni namoyon qilayotganda, o'z arxetiplarini qisman anglashi yoki butunlay anglamasligi ham mumkin. Lekin nima bo'lishidan qat'iy nazar, u shu arxetipi, shu milliy qadriayti boshqargan xulqni namoyon qiladi. Shuning uchun axolo o'rtasida psixologik xizmatni tashkil qilishda, ro'paramizda turgan shaxsning arxetiplariga ta'sir etish, uning qadriyatlaridan foydalanish va ta'bir joiz bo'lsa uning arxetiplari orqali uning xulqini kutilgan tomonga o'zgartirish, unda shaxs sifatida, komil inson sifatida ko'rish mumkin bo'lgan sifatlarni namoyon bo'lishiga erishish mumkin.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch!" nomli asarida, "O'z muammolarimizni faqat o'zimizgina hal etishimiz kerak!" – deganlarida, shuni nazarda tutganlar. Darhaqiqat, respublikamizning turli hududlari, xalq ho'jaligining turli sohalarida faoliyat olib borar ekanlar, amaliyotchi

psixologlarimiz, aholiga psixologik xizmat ko’rsatishni amalga oshirishda, ularning milliy qadriyatlariga murojaat qilishi, arxetiplaridan oqilona foydalana olishlari, ular faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi. Bu hayotda, o’tmishda o’z isbotini topgan aksiomadir.

O‘SPIRINLIK DAVRIDA HARBIY XIZMATGA PSIXOLOGIK TAYYORLIKNI SHAKLLANTIRISH SHARTLARI VA XUSUSIYATLARI

Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinova
Psixol. f.b.f.d. (PhD), dotsent
Raxmatullayev Xolmatjon Nig’matilla o’g’li
University of Business and Science magstranti

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda xalqimiz tarixiga va ma’naviy qadriyatlariga yuksak hurmat tuyg‘usini shakllantirish, Vatan himoyasiga, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta’minlashga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o‘tashga tayyorlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi qaror[23]ni qabul qildi. Harbiy xizmatga tayyorlov yoshi ontogenez klassifikatsiyasida o‘spirinlik yoshiga to‘g‘ri keladi.

Bizning fikrimizcha, o‘spirinlik davri yigitlarning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyat juda o‘ziga xos va hatto ma’lum darajada marginal xisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik nazariya tarafdorlari K. Levin, J. Piaje o‘spirinlik davrini sotsializatsiyaning ma’lum bir bosqichi va undan o‘tish davri sifatida izohlaydilar unga ko‘ra ushbu davr mustaqil va mas’uliyatli balog‘atga qaram bolalik sifatida talqin kilib, bu yoshdagi rivojlanishning ijtimoiy holatini belgilovchi asosiy omili deb ta’kidlaydilar [1].

Shuningdek, psixologlar o‘spirinlikdagi yetakchi faoliyat sifatida kasbiy o‘zini o‘zi belgilash ekanligini aytib o‘tadilar. Amerikalik psixolog Ye. Erikson ta’kidlashicha, o‘spirinlik bir qator ijtimoiy va individual-shaxsiy tanlovlar, identifikatsiya va o‘z taqdirini belgilashdan iborat identifikatsiya hamda inqirozlar atrofida qurilgan [2]. Bu davrda yigitlarda tashvish hissi paydo bo‘lishi va ma’lum bir ichki inqiroz paydo bo‘lishi, uning mazmuni aniq o‘z taqdirini o‘zi belgilash jarayonlarining shakllanishi bilan bog‘liqligini tadqiq etadilar [3].

Ushbu davrda o‘spirin yigitlarning fikrlashi shaxsiy hissiy xarakterga ega bo‘ladi:

[23] https://lex.uz/docs/-6657073. Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

yigitlar nazariy va mafkuraviy muammolarga, hissiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘proq qiziqishadi va ularning qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari haqida imkoniyatlar, shaxsiy fazilatlari, o‘z-o‘zini hurmat qilishi va o‘z o‘ziga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq tajribalar amalga oshiriladi [4].

E. L. Soldatovaning fikricha rivojlanishning birinchi me’yoriy inqirozi o‘spirinlik davrida sodir bo‘ladi. Ularda vaqt o‘tishi bilan "men" obrazining o‘ziga xosligi yo‘qligi, kasb yoki kelajakdagi kasbda o‘z imidjining noaniqligi, ota-ona oilasi bilan munosabatlarni yoki ziddiyatli munosabatlarni idealizatsiya qilish bilan tavsiflangan shaxs endilikda harakat qilish va javobgarlikni qabul qilishga tayyorlik [5]. darajasi oshib boradi va uning faoliyatida ko‘rinadi.

O‘spirinlarda harbiy xizmatning boshlanishi erta voyaga yetish bosqichining boshlanishiga to‘g‘ri kelishi shubhasizdir. Aynan shu davrda ularda bir qancha psixologik o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin:

-stereotiplar, burch, sharaf va vijdon kabi shaxsiy fazilatlar shakllanadi;

-shaxsiy mas’uliyat va burch tuyg‘usi haqidagi g‘oyalari o‘zgaradi;

-faoliyatlari davomida yigitlar qiyinchiliklar hamda to‘siqlarga duch kelishadi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchining psixologik tayyorgarligi maxsus psixologik tayyorgarlik natijasidir va rasmiy faoliyatdan oldingi holat sifatida qaraladi. Psixologik tayyorgarlik holati murakkab tuzilishga ega, shu jumladan hissiy, ixtiyoriy, motivatsion, kognitiv jarayonlar, xususiyatlar, shakllanishlar, inson psixikasining tashqi vaziyat sharoitlari va kelgusi vazifalar bilan bog‘liq holatlari shular jumlasidandir [6].

O‘spirinlik o‘ziga xos xususiyatlarga ega va har bir inson hayotidagi noaniq bosqichdir, chunki u jismoniy va ruhiy o‘zgarishlar, hayotdagi qarama-qarshiliklarni anglash, keskin o‘zgarish bilan bog‘liq ichki holatda, kelajakka murojaat qilganda asosiy bo‘ladi. Shaxsning diqqat markazida kasb tanlash muammosi, keyingi hayot yo‘li, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi turadi. Yigitlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligi bu ma’lum bir ichki holat, shu jumladan qadriyat-semantik, motivatsion, hissiy-ixtiyoriy komponentlar, buning natijasida armiya sharoitida harakatga safarbarlik sodir bo‘ladi.

Yoshlarni xarbiy xizmatga chaqirish va xizmat qilish shaxsiy rivojlanish va erkaklikning muhim bosqichidir.

Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash nafaqat harbiy xavfsizlikning, balki O‘zbekiston fuqarolik jamiyati qurilishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, yigitlarni o‘qitish va tarbiyalash, ularning e’tiqodlari, bilimlarini shakllantirish jarayonidir.

ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Черепанова Л. Г. Личностное становление в юношеском возрасте через участие в волонтерской деятельности [Текст] / Л.Г. Черепанова // Проблемы и

перспективы развития образования: материалы Междунар. науч. конф. (г. Перм, апрел 2011 г.).Т. II. — Перм: Меркурий, 2011. — С. 25-28.

2. Семянищева П. А. Психологические ресурсы преодоления стресса в ситуации отраслевых организационных изменений (на контингенте военнослужащих) [Текст] /П.А. Семянищева// Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 2013. – № 1 – С. 123–135.

3. Донцов Д.А. Психологические особенности юношеского (студенческого) возраста [Текст] / Д.А. Донцов, М.В.Донцова // Образовательные технологии: изд.М:- 2013.-№2- С.34-42..

4. Солдатова Е.Л. Психология нормативных кризисов взрослости. [Текст] / Е.Л. Солдатова// Челябинск : Изд-во ЮУрГУ, 2008.-№ 31. – С.39-47.

5. Минюрова С.А.Психология развития: Учебное пособие для студентов вузов [Текст] / С.А. Минюрова//; Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2013. – С 72.

YOSHLARNI HARBIY XIZMATGA TAYYORLASHDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna
University of Business and Science
Dotsent, PhD

Insonning irodasi ma'lum fazilatlar bilan tavsiflanadi. Odatda iroda maqsadga erishishda duch keladigan muhim qiyinchiliklarni engish uchun umumlashtirilgan qobiliyat sifatida ajralib turadi. Maqsadga erishish yo'lida qanchalik jiddiy to'siqni engib o'tgan bo'lsa, shunchalik kuchli irodaga ega bo'ladi. Iroda kuchi bilan yengilgan to'siq iroda namoyon bo'lishining ob'ektiv ko'rsatkichidir.

Iroda kuchining turli ko'rinishlari orasida, odatda, shaxsiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: chidamlilik va o'zini o'zi boshqarish, ular zarur bo'lganda o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyatida ifodalanadi, impulsiv va ehtiyotsiz harakatlardan qochish, o'zini tuta bilish va o'zini majburlash qobiliyati. o'ylab topilgan harakatni amalga oshirish va aqlga sig'maydigan yoki noto'g'ri bo'lgan narsadan tiyilish.

Irodaning yana bir xususiyati - maqsadni his qilishdir. Maqsad hissi - bu faoliyatning ma'lum bir natijasiga erishish uchun ongli va faol shaxsiy yo'nalish. Ko'pincha maqsad tuyg'usi haqida gapirganda, qat'iyatlilik kabi tushuncha ishlatilgan. Bu kontseptsiya maqsad tuyg'usi tushunchasi bilan deyarli bir xil bo'lib, insonning eng qiyin sharoitlarda ham maqsadga erishish istagini tasvirlaydi. Odatda strategik maqsad tuyg'usi, ya'ni har bir insonning hayotida ma'lum tamoyillar va ideallarga amal qilish qobiliyati va tezkor maqsad tuyg'usi mavjud bo'lib, bu individual

harakatlar uchun aniq maqsadlarni qo'yish va undan chetga chiqmaslik qobiliyatidir. ularga erishish jarayonida.

O'jarlik maqsadni his qilishdan farq qiladi. O'jarlik ko'pincha salbiy shaxsiy sifat sifatida ishlaydi. O'jar odam, harakatning maqsadga muvofiqligiga qaramay, har doim o'z-o'zidan turib olishga harakat qiladi. Odatda o'jar odam to'lovga layoqatsiz bo'lishiga qaramay, asosli dalillar emas, balki shaxsiy istaklar bilan boshqariladi. Aslida qaysar odam o'z xohish-irodasiga ega emas, chunki u o'zini va istaklarini qanday boshqarishni bilmaydi.

Irodaning muhim xususiyati tashabbuskorlikdir. Tashabbus - bu odamlarda paydo bo'lgan g'oyalarni amalga oshirishga harakat qilish qobiliyati. Ko'p odamlar uchun o'z inertsiyasini engish - bu irodaning eng qiyin jihati. Yangi g'oyalarni amalga oshirish uchun faqat mustaqil shaxs birinchi qasddan qadam qo'yishi mumkin. Mustaqillik - bu tashabbus bilan bevosita bog'liq bo'lgan irodaning o'ziga xos xususiyati. Mustaqillik ongli qarorlar qabul qilish va maqsadga erishishga to'sqinlik qiluvchi turli omillar ta'siriga tushmaslik qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mustaqil shaxs boshqalarning maslahatlari va takliflarini tanqidiy baholab, o'z qarashlari va e'tiqodlari asosida harakat qilish va shu bilan birga, olingan maslahatlar asosida shakllangan o'z harakatlariga tuzatishlar kiritishga qodir.

Mustaqillikni negativizmdan ajratish kerak. Negativizm boshqalarga qarshi harakat qilish, ularga zid bo'lgan asossiz, asossiz tendentsiyada namoyon bo'ladi, garchi oqilona dalillar bunday harakatlar uchun asos bo'lmasa ham. Aksariyat psixologlar tomonidan negativizm irodaning zaifligi sifatida qaraladi, u o'z harakatlarini aqlning dalillariga, ongli motivlarga bo'ysundira olmaslik, bekorchilikka olib keladigan o'z xohishlariga qarshi tura olmaslik va hokazolarda ifodalanadi. Bekorchilik ko'pincha dangasalik bilan bog'liq. Bu dangasalik ixtiyoriy ijobiy fazilatlar ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan keng qamrovli sifat tavsifidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsiy tashabbus mustaqillikdan tashqari, har doim irodaning yana bir sifati - qat'iylik bilan bog'liq. Qat'iylik - bu motivlar kurashida, o'z vaqtida va tezkor qarorlar qabul qilishda ortiqcha ikkilanish va shubhalarning yo'qligi. Birinchi navbatda, qat'iyatlilik ustun motivni tanlashda, shuningdek, ushbu maqsadga erishish uchun mos vositalarni tanlashda namoyon bo'ladi. Qat'iylik qarorni amalga oshirishda namoyon bo'ldi. Hal qiluvchi odamlar harakatlar va resurslarni tanlashdan harakatning o'zini amalga oshirishgacha tez va kuchli o'tish bilan tavsiflanadi.

Ijobiy irodaviy sifat sifatida qat'iyatlilik qarorlar qabul qilishda shoshqaloqlik, o'ylamagan harakatlar bilan ajralib turadigan impulsivlikdan farq qiladi. Impulsiv odam harakat qilishdan oldin o'ylamaydi, qilgan ishining oqibatlarini o'ylamaydi, shuning uchun u ko'pincha qilgan ishidan pushaymon bo'ladi. Bunday odamning qaror qabul qilishda shoshqaloqligi, odatda, uning qat'iyatsizligi bilan izohlanadi,

shuning uchun u uchun qaror qabul qilish juda qiyin va og'riqli jarayon, shuning uchun u tezda undan xalos bo'lishni xohlaydi.

Insonning favqulodda muhim irodaviy sifati - bu insoniy harakatlar ketma-ketligi. Shaxs tomonidan sodir etilgan barcha xatti-harakatlarni tavsiflovchi harakatlar ketma-ketligi inson barcha ikkinchi darajali tomonlarini bo'ysundiradigan yagona rahbarlik tamoyilidan kelib chiqadi. Harakatlar ketma-ketligi, o'z navbatida, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini o'zi qadrlash bilan chambarchas bog'liq.

Qabul qilingan harakatlar, agar shaxs o'z faoliyatini nazorat qilsagina amalga oshiriladi. Aks holda, bajariladigan harakatlar va odamni intilayotgan maqsad har xil bo'ladi. Maqsadga erishish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish salbiy hodisalardan ustun bo'lgan etakchi motivlarning hukmronligini ta'minlaydi. O'z-o'zini nazorat qilish sifati, uning qiymati ko'p jihatdan o'z-o'zini shaxsga bog'liq. Shunday qilib, o'zini past baholash odamlarning ishonchini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Bunday holda, insonning maqsadga erishish istagi asta-sekin so'nishi va rejalashtirilgan narsa hech qachon amalga oshirilmasligi mumkin. Ba'zan aksincha, odam o'zini va uning imkoniyatlarini ortiqcha baholaydi. Bunday holda, maqsadga erishish yo'lidagi harakatlarni muvofiqlashtirish va moslashtira olmaydigan yuqori o'z-o'zini hurmat qilish deyiladi. Natijada, rejalashtirilgan narsaga erishish imkoniyati ancha murakkablashadi va ko'pincha ilgari to'liq o'ylab topilgan narsa amalga oshirilmaydi.

Iroda boshqa ko'pchilik yuqori ruhiy jarayonlar kabi insonning yosh rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqda refleks harakatlar va ba'zi instinktiv harakatlar ustunlik qiladi. Ixtiyoriy, ongli harakatlar ancha kech shakllana boshlaydi. Istaklar tezda bir-birini o'zgartiradi va ko'pincha noaniq. Faqat hayotning to'rtinchi yilida istaklar ko'proq yoki kamroq barqaror bo'ladi.

Insonning rivojlanishini irodaviy tartibga solish bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi. Bir tomondan, ixtiyorsiz psixik jarayonlarning bunday konversiyasi o'zboshimchalik, ikkinchi tomondan, shaxsning o'z xatti-harakati ustidan nazoratni qo'lga kiritishi, irodaviy shaxs xususiyatlarining uchinchi rivojlanishi. Bu jarayonlarning barchasi ontogenetik jihatdan bola nutqni o'zlashtirgan paytdan boshlanadi va undan aqliy va xulq-atvorni o'zini o'zi boshqarishning samarali vositasi sifatida foydalanishni o'rganadi.

Iroda rivojlanishining ushbu sohalarining har birida irodaviy tartibga solish jarayoni va mexanizmlarini bosqichma-bosqich yuqori darajaga ko'taradigan o'ziga xos transformatsiya mavjud. Masalan, kognitiv jarayonlarda iroda dastlab tashqi nutqni tartibga solish shaklini oladi va shundan keyingina nutq ichidagi jarayon nuqtai nazaridan. Ixtiyoriy nazoratning xulq-atvor jihatlari dastlab tananing alohida qismlarining ixtiyoriy harakatlariga, so'ngra murakkab harakatlar to'plamini rejalashtirish va boshqarishga, shu jumladan ularni inhibe qilish va mushaklarning

boshqa komplekslarini faollashtirishga qaratilgan. Shaxs rivojlanishining irodaviy sifatlari sohasida irodani birlamchidan ikkinchi darajaga, keyin esa uchinchi darajali irodaviy sifatlarga o'tish sifatida ifodalash mumkin.

Iroda rivojlanishining yana bir yo`nalishi shundaki, inson o`z oldiga bila turib murakkabroq muammoni qo`yib, ancha uzoq vaqt davomida katta irodaviy sa`y-harakatlarni qo`llashni talab qiladigan uzoqroq maqsadlarga intilishida namoyon bo`ladi. Masalan, bola o'smirlik davrida o'z oldiga shunday qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi mumkin, bunda unda sezilarli tabiiy instinktlar mavjud emas. Shu bilan birga, u kelajakda amalga oshirish uchun bunday qobiliyatni talab qiladigan murakkab va obro'li faoliyatni maqsad qilib qo'yishi mumkin. Odamlarning, asosan, mehnat qobiliyati va ixtiyori ortishi tufayli yaxshi instinktlarga ega bo‘lmasdan, mashhur olim, san’atkor, yozuvchi bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishayotganiga ko‘plab jonli misollar keltirish mumkin. Yoshlarda irodaning rivojlanishi ularning motivatsiyasi va axloqiy sohasini boyitish bilan chambarchas bog'liq. Yuqori motivlar va qadriyatlarni tartibga solishga kiritish,rag'batlantirishning umumiy ierarxiyasida ularning mavqeini yaxshilash, nazorat qilish faoliyati, sodir etilgan xatti-harakatlarning axloqiy tomonlarini tanlash va baholash qobiliyati - yoshlarda irodani tarbiyalashning barcha muhim jihatlaridir. Ixtiyoriy tartibga solishni o'z ichiga olgan harakatning motivatsiyasi ongli, harakat esa o'zboshimchalikdir. Bunday harakat har doim o'zboshimchalik bilan tuzilgan motivlar ierarxiyasi asosida amalga oshiriladi, bu erda yuqori bosqich - bu faoliyat odamiga nisbatan ma'naviy qoniqish beradigan yuqori axloqiy motivatsiya. Buning yaxshi namunasi yuqori axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq haddan tashqari chegaralangan faoliyat bo'lib xizmat qilishi mumkin,ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi va odamlarga foyda keltirishi uchun mo'ljallangan.

Yoshlarning xatti-harakatlarini ixtiyoriy tartibga solishning takomillashtirilishi ularning umumiy intellektual rivojlanishi, motivatsion va shaxsiy aks ettirishning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Iroda - bu murakkab aqliy jarayon bo'lib, u insonning faoliyati bo'lib, uni yo'naltirilgan harakatga uyg'otadi.

Iroda - bu insonning to'siqlarni engib o'tish va maqsadlariga erishish qobiliyati. Xususan, u maqsad tuyg'usi, qat'iyatlilik, qat'iyatlilik va jasorat kabi xususiyatlarda harakat qiladi. Bu xususiyatlar jamoat manfaati va anti-ijtimoiy g'oyalarga hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Басов М.Я. Воля как предмет функциональной психологии, СПб.: 2007. 544 с.
2. Ильин Е.П. Психология воли, СПб.: Питер, 2001. 368 с.
3. Крайг Г. Психология развития, СПб.: Питер. 2000. 992 с.
4. Xayriev. I. Iroda psixologiyasi 2010 y

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI KASBIY TAYYORLASHNING AHAMIYATI

Ahmedov Islom Baxtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ishonchli ta’minlashda ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili hamda xodimlarni kasbiy tayyorlashning ahamiyati, dolzarbligi masalalari yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: jamoat xavfsizligi, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash, ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash va malakasini oshirish, ruhiy barqaror, malakali va yetuk kadrlarni tayyorlash.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlatda barcha sohalarni bab-baravar modernizatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e’tirof etilmoqda. Jamiyatimizni isloh qilish tizimli, bosqichma-bosqich olib borilayotgani xalqaro tashkilotlarning e’tiborini jalb etmoqda. Xususan, Respublikamizda sud-huquq tizimini isloh qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilganiga har birimiz guvohmiz. Bu esa o‘z navbatida, respublikamizda sud va huquq-tartibot idoralari faoliyati bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarining doimiy ravishda takomillashib borayotgani jamiyatning uzluksiz rivojlanayotganidan darak beradi.

Respublikamizda boshqa sohalardagi kabi sud-huquq tizimida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar bir-birini to‘ldiruvchi, uyg‘un, tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilgan. Ularni bog‘lab turuvchi asosiy mezon esa inson manfaatlaridir. Binobarin, bugungi kunda davlatimizning asosiy vazifalaridan biri jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash xususan, aholining tinchligi va osoyishtaligini saqlash, har bir hududda barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ya’ni hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini, mol-mulkini turli xil ko‘rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishdir.

Mazkur vazifalarni bajarishda Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ichki ishlar organlari alohida o‘ringa ega. Holbuki, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash huquqni muhofaza qilish organlari qatorida ichki ishlar organlarining zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifadir.

Binobarin, ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqbuzarliklardan muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha uning ustivor yo‘nalishi qilib belgilangan katta hajmdagi va ko‘p qirrali faoliyatni amalga oshiruvchi xizmat hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib aytish joizki, hozirgi zamonda, jismonan sog‘lom, baquvvat, o‘z kasbini puxta o‘zlashtirgan, yuksak ma’naviyatli, qonun ustuvorligi asosida yashaydigan, ona yurtiga farzandlik mehri va sadoqat bilan xizmat qiladigan ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash davr talabidir. Zero, ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin. Shuni inobatga olgan holda, davr bilan hamohang tarzda

2022 yilning 20 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida “**Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”** deb alohida ta’kidladi. Shu bois, **2023 yilga yurtimizda *“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”***, deb nom berildi.

Zero, Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: ***“Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”.***

Jadidchi bobolarimiz ta’rifi bilan aytganda *“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda”.* Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi.

Ta’kidlash joizki, qisqa vaqt ichida ma’rifat, ta’lim, ilm-fan sohalarini rivojlantirish uchun o‘ttizdan ortiq qarorlar, farmonlar, farmoyishlar va qonunlardan iborat huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida mamlakatimiz ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish, malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda Vatanga sadoqatli yangi avlodni voyaga yetkazish mexanizmlarini yaratish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Xodimlarning sifati birinchi navbatda to‘g‘ri tanlov, professor-o‘qituvchilarning malakasiga, qolaversa, o‘quv yurtining moddiy-texnik bazasiga ham bog‘liqdir. Darhaqiqat, kadrlar tayyorlash sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri bu - ta’lim muassasida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarning

kasbiy, shaxsiy fazilatiga ko‘ra yuqori saviyada ekanligiga bog‘liq. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan ichki ishlar organlari sohasida o‘tkazilayotgan islohotlar, jumladan, xodimlarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi ko‘rsatmalari ijrosi yuzasidan professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish, ta’lim jarayonini tashkil etish va nomzodlarni ta’limga maqsadli tayyorlash, xodimlar malakasini va sohaviy xizmatlar faoliyatini yaxshilash, yangi innovatsion ta’minot bo‘yicha fond tashkil etish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Shu o‘rinda, vatandoshimiz, buyuk ma’rifatparvar olim Abdurauf Fitratning **“*Har bir mamlakatning tolesi va taraqqiyoti yoshlarga qanday ta’lim va tarbiya berilishiga har tomonlama bog‘liqdir*”,** degan ezgu shiori, barkamol avlodga ta’lim-tarbiya berish va malakali kadrlarni tayyorlash nechog‘lik muhim ekanligini anglatadi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlariga o‘z Vatani – O‘zbekiston Respublikasiga, Prezidentiga, xalqiga sidqi dildan xizmat qilishga tayyor, bilimli, qobiliyatli, kasbiy jihatdan yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega, har qanday murakkab vaziyatda ham oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajara olishga layoqatli kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, ularni o‘qitish, qayta tayyorlash va malaksini oshirish faoliyatini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishni talab etmoqda.

Zero, o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lumki ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilishi mazkur sohada xizmat qilayotgan xodimlarning bilimi, kasbiy tayyorgarligi, intizomliligi, xizmat vazifasini bajarishdagi mas’uliyati va boshqa bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib bular o‘z navbatida kadrlar bilan ishlashni, kadrlar tanlash, joy-joyiga qo‘yish, o‘qitish va tarbiyalash ishlarini takomillashtirishni taqazo etib kelgan[24].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq fuqarolarimizning xavfsizligini ta’minlash maqsadida izchillik bilan tinchlikparvar siyosatni yuritib kelmoqda. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning samarali tizimi yaratildi. Binobarin, respublikamiz siyosatining bosh yo‘nalishini fuqarolarimizning konstitutsiyaviy huquqlarini har xil turdagi tajovuzlardan himoya qilish, jamiyatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tashkil etadi.

Biroq, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotraffik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni

[24] Хайдаров Р.Х. Совершенствование работы с кадрами в органах внутренних дел. Учебное пособие. – Т. 1996. – С. 12.

qattiq xavotirga solmoqda. Ana shunday o‘ta murakkab va qaltis sharoitda qanday yo‘l tutish, tinch va osoyishtalikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta’minlash mumkin degan savol barchamizni jiddiy o‘ylantirishi zarur[25].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda ta’kidlaganidek, “hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo‘q desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi”[26].

Mazkur vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida ijro etish, eng avvalo, uni joylarda amalga oshiruvchi mutaxassis-kadrlarning faoliyatiga borib taqalmoqda. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun, faoliyatning yo‘nalishi aniq belgilanishi va ular asosida puxta rejalar ishlab chiqilishi mumkin. Ammo, **belgilangan vazifalarni to‘g‘ri tushunadigan, yuksak mas’uliyat hissi va professional darajada ushbu qarorlarni amalga oshirishga, hayotga joriy etishga qodir malakali kadrlar bo‘lmasa, ezgu maqsadlarga erishish mushkul.**

Mazkur holat hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–10-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Ichki ishlar vazirining 2023-yil 28-fevraldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l-patrul va patrul-post xizmati bo‘linmalari xodimlarini **“Fuqarolar bilan ishlash moduli” bo‘yicha uzluksiz o‘qitish tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi** 98-son buyrug‘i qabul qilinib, 2023 yil 1 sentabrdan boshlab mazkur o‘quv kursi bo‘yicha o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Holbuki, ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyati davomida, ko‘p hollarda ayrim shaxslar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan turli shakldagi qarshilik harakatlariga duch keladilar. Bunday hollarda mazkur soha xodimlari ko‘rsatilgan qarshilik harakatini bartaraf etish maqsadida yetuk qobiliyatga hamda turli xil salbiy hodisalarga qarshi kurasha olish salohiyatiga ega bo‘lishi zarur. Ular o‘z xizmat vazifalarini bajarishi jarayonida aholining turli tabaqa vakillari, ishchilar, ziyolilar, olimlar, studentlar, yuqori mansabdor shaxslar va chet el fuqarolari bilan uchrashishga, ularning savollariga javob berishi, ular ishtirokida yuzaga kelgan muammolarni hal etishi, ularga ayrim masalalar yuzasidan huquqiy maslahatlar berishga to‘g‘ri keladi.

---

[25] Ички ишлар органларининг жамот тартибини сақлаш ва хавфсизликнги таъминлаш фаолияти: Дарслик/ И.Исмаилов, М.З.Зиёдуллаев, Ф.Н.Шукуров ва бошқ., генерал – лейтенанат Б.А.Матлюбовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – Б – 3.

[26] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишида сўзлаган маърузасидан/https:kun.uz/news/2017/06/16/mirzieev.

<u>Yuqorida ta’kidlanganlarga asoslangan holda, aytib joizki jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlashning ahamiyati va dolzarbligini qo‘yidagilar belqilaydi:</u>

xodimlarning fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, muomala madaniyatini oshirish hamda psixoemotsional ruhiy barqarorligini saqlash bo‘yicha zarur amaliy ko‘nikmalarini oshirish;

zamonaviy ta’lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida situatsion mashg‘ulotlar orqali xodimlarda nostandart va murakkab sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish hamda vaziyatni real baholashga doir kasbiy kompitentlikni shakllantirish;

xodimlarning murakkab vaziyatlarda jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o‘qotar qurolni qo‘llash jarayonida zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini amalda yuqori darajada qo‘llay olish mahoratini rivojlantirish;

ta’lim jarayonida nazariya bilan amaliyotni integratsiya qilish orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakatlar, suiiste’molchilik, korrupsiya va tizim obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi nizoli vaziyatlarning barvaqt oldini olish va hokazolar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari, ichki ishlar organlarini kadrlar bilan ta’minlash, ularni kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda mazkur faoliyatini tashkil etish

va takomillashtirish yo‘llarini kompleks ilmiy tadqiq etish lozimgini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash ishlarini samarali tashkil etish kelgusida ushbu sohaga professional, barqaror, hozirgi zamon talablariga to‘liq javob beradigan, har qanday sharoitda o‘zini boshqara oladigan, yuklatilgan vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarishga qodir, muammoli vaziyatlarga huquqiy baho bera oladigan va ushbu vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, ruhiy barqaror, malakali va yetuk kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023 y. – 112 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2024.;

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. − T., 2024.;

4. O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi Qonuni. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022 y. – 192 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-son Qarori.

7. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi” 2022 yil 20 yanvar. – T. 2022.

8. Хайдаров Р.Х. Совершенствование работы с кадрами в органах внутренних дел. Учебное пособие. – Т. 1996.

9. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash faoliyati: Darslik/ I.Ismailov, M.Z.Ziyodullaev, F.N.Shukurov va boshq., general-leytenanat B.A.Matlyubovning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 15-iyun kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan ma’ruzasidan /https:kun.uz/news/2017/06/16/Mirzieev.

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR: TA’LIM METODLARI VA SHAXSIY RIVOJLANISH

Z.X.Kamalova
University of business and Science dotsenti, PhD
O.O.Bobonazarova
University of business and Science magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Oliy harbiy ta’lim muassasalarida psixologik yondashuvlar, ta’lim metodlari va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqola psixologik yondashuvlarning harbiy ta'limdagi ahamiyatini, talabalarning stressni boshqarish, jamoa ichida samarali ishlash va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan interaktiv metodlarni tahlil qiladi. Shuningdek, shaxsiy rivojlanish jarayoni, o‘z-o‘zini anglash va o‘zgarishga qobiliyat kabi asosiy jihatlar haqida ham ma’lumot beriladi. Ushbu jarayonlar talabalarni nafaqat malakali mutaxassislar, balki ijtimoiy jihatdan moslashuvchan va muvaffaqiyatli shaxslar sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqola, harbiy ta'lim muassasalarida psixologik yondashuvlar va shaxsiy rivojlanishning umumiy ta’sirini tahlil qilib, kelajakdagi harbiy xizmat uchun tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: Oliy harbiy ta’lim, psixologik yondashuvlar, ta’lim metodlari, shaxsiy rivojlanish, stressni boshqarish, liderlik ko‘nikmalari, ijtimoiy ko‘nikmalar, ruhiy salomatlik, harbiy xizmatga tayyorgarlik.

Kirish. Oliy harbiy ta’lim muassasalari mamlakat mudofaasida muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat yuqori malakali ofitserlarni tayyorlash, balki ularning

psixologik salomatligi va shaxsiy rivojlanishini ta‘minlash maqsadida ham faoliyat yuritadilar. Harbiy xizmat sharoitlari o‘ziga xos stresslar, muammolar va vaziyatlar bilan to‘la bo‘lib, bu talabalarning psixologik barqarorligini va jamoaviy ish qobiliyatini oshirishni talab qiladi.

Harbiy ta'lim jarayoni murakkab va dinamik bo‘lib, talabalar o‘zlarining shaxsiy va professional qobiliyatlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishlari zarur. Psixologik yondashuvlar, shu jumladan interaktiv ta'lim metodlari, individual maslahatlar va guruhiy faoliyatlar, talabalarning o‘z-o‘zini anglash, stressni boshqarish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik yondashuvlar harbiy ta’lim jarayonida nafaqat akademik bilimlarni, balki psixologik ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvlar talabalar uchun jamoa ishiga tayyorgarlik, muammolarni hal qilish va stressga qarshi turish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Natijada, talabalarning psixologik barqarorligi va jamoaviy ko‘nikmalari kuchayadi, bu esa ularni kelajakdagi xizmatlari uchun yanada tayyor qiladi.

Bundan tashqari, shaxsiy rivojlanish jarayoni harbiy muassasalarda talabalarni ko‘p qirrali mutaxassislar sifatida shakllantirishga imkon beradi. Ular o‘zlarining kuchli tomonlarini aniqlab, zaifliklarini yengish, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va o‘z-o‘zini motivatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Shu tariqa, psixologik yondashuvlar harbiy ta'limda nafaqat malaka oshirish, balki shaxsiy rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu maqola orqali Oliy harbiy ta’lim muassasalarida psixologik yondashuvlarning ahamiyati, ta’lim metodlari va shaxsiy rivojlanish jarayoni haqida batafsil ma’lumot beriladi. Talabalarning psixologik tayyorgarligi va shaxsiy rivojlanishlari, ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun asosiy omil hisoblanadi.

Psixologik Yondashuv

Psixologik yondashuv harbiy ta’lim muassasalarida talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan asosiy elementlardan biridir. Ushbu yondashuv nafaqat akademik bilimlarni, balki talabalarning shaxsiy va psixologik qobiliyatlarini ham rivojlantirishga qaratilgan.

1. Psixologik Asoslar

Psixologik yondashuv, talabalarning ichki motivatsiyasi, o‘z-o‘zini anglash va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyatlariga asoslanadi. Bu yondashuv, har bir talabani individual ravishda baholashni va ularning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim berishni o‘z ichiga oladi. Psixologik tayyorgarlik orqali talabalarga stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni saqlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beriladi.

2. Ta’lim Metodlari

Psixologik yondashuvda interaktiv ta’lim metodlari, treninglar va simulyatsiyalar muhim o‘rin tutadi. Bu metodlar orqali talabalar jamoa ichida ishlash, liderlik qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Guruhli muhokamalar va rolli o‘yinlar orqali talabalar haqiqiy vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutishlari kerakligini o‘rganadilar.

3. Shaxsiy Rivojlanish

Psixologik yondashuvlar talabalar uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. O‘z kuchli va zaif tomonlarini anglash, maqsadlar belgilash va ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqish jarayoni, talabalarni yanada mustaqil va mas'uliyatli shaxslar sifatida shakllantiradi.

4. Stressni Boshqarish

Harbiy xizmatda stress darajasi yuqori bo‘lishi mumkin. Psixologik yondashuvlar yordamida talabalar stressni aniqlash va unga qarshi kurashish usullarini o‘rganadilar. Bu, ularning ruhiy salomatligini saqlash va og‘ir vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

5. Ijtimoiy Ko‘nikmalar

Psixologik yondashuv, talabalar o‘rtasida muloqot va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Talabalar, bir-birini tinglash, fikr almashish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirib, kelajakdagi jamoa ishlari uchun tayyorlanadilar.

Xulosa. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida psixologik yondashuvlar va shaxsiy rivojlanish jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Talabalarning harbiy xizmatga tayyorgarligi va kelajakdagi professional muvaffaqiyatlari, nafaqat texnik va akademik bilimlarga, balki psixologik salomatlik va shaxsiy rivojlanish qobiliyatlariga ham bog‘liq.

Psixologik yondashuvlar yordamida talabalarga murakkab vaziyatlarda o‘zini tutish, stressni boshqarish, jamoa ichida samarali ishlash va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beriladi. Bu metodlar orqali talabalar o‘z kuchli tomonlarini aniqlab, shaxsiy maqsadlarini belgilash va ularni amalga oshirish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqadilar.

Shaxsiy rivojlanish, o‘z-o‘zini tanish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish kabi jihatlar harbiy xizmatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarurdir. Talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalari va muloqot qobiliyatlari, jamoada ishlash va o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu jarayonlar orqali talabalarning ruhiy salomatligi ham ta’minlanadi, bu esa ularga qiyin vaziyatlarda chidamli bo‘lish, qaror qabul qilish va stressni boshqarish qobiliyatlarini oshiradi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari, shuningdek, mentorlik va guruhiy ish orqali talabalarga ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratadi.

Natijada, psixologik yondashuvlar va shaxsiy rivojlanish jarayonlari harbiy ta’limning muvaffaqiyatli asosini tashkil etadi. Bu jarayonlar talabalarni nafaqat malakali ofitserlar sifatida tayyorlaydi, balki ularni o‘z hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun tayyorlaydi. Harbiy xizmatga tayyorlanayotgan yosh avlod, psixologik tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanish orqali o‘zlarining professionallik darajalarini oshirish va kelajakdagi muammolarga muvaffaqiyatli yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shunday qilib, Oliy harbiy ta’lim muassasalarida psixologik yondashuvlar va shaxsiy rivojlanish jarayonlari talabalar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning kelajakdagi faoliyatlari va hayot yo‘llarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonlar, shuningdek, mamlakat mudofaasida muvaffaqiyatli va tayyor mutaxassislarni tayyorlashga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aqilov, S. (2018). *Harbiy ta'limda psixologik yondashuvlar.* Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi.
2. G'ulomov, A. (2020). *Liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariya va amaliyot.* Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Jalilov, R. (2019). *Stressni boshqarish usullari va ularning harbiy sharoitlarda qo'llanilishi.* O'zbekiston psixologiya jurnali
4. Rahmonov, D. (2022). *Harbiy ta'limda interaktiv metodlar.* Toshkent: Oliy harbiy ta'lim muassasasi.
5. Sodiqov, N. (2017). *O'z-o'zini anglash va shaxsiy rivojlanish.* O'zbekiston pedagogika jurnali,

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONI SAMARADORLIGINING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Raxmanov Farrux Erkinovich
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i, p.f.b.f.d (PhD), dotsent, podpolkovnik

Isakov Sanjar Xazratqulovich
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, p.f.b.f.d (PhD), podpolkovnik

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”

Abdulla Avloniy

Tarixga nazar solsak yer yuzida inson paydo bo‘libdiki, o‘z og‘irini yengillatish uchun tinimsiz izlanadi, o‘qiydi, o‘rganadi va nimalarnidir yaratadi.

Aynan shu harakat tufayli inson psixikasi doim taraqqiyot etib boradi. Qolaversa shu yo‘l bilan ham o‘zi yuksalib boradi, ham o‘z bilganlarini o‘zgalarga o‘rgatish orqali insoniyat tamaddunining yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shib boradi.

Barcha xalqlarda, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi vorislik ta’minlanadi. Yana tarixga nazar solsak, ilk muloqot va munosabatga kirishish va avlodlarga meroslarni qoldirish, ya’ni ijtimoiy xotirotdagi ijtimoiy bilimlarni shakllanish yo‘lidagi qadimiy belgi-rasmlar orqali o‘z fikrini ifodalagan kromonyon odami bilan hozirgi fan-texnika samarasi bo‘lgan internet orqali axborot almashishgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot buning yaqqol isbotidir.

Bu yutuqlarning zamirida shak-shubhasiz inson uning intilishlari, qiziqishlari, shuningdek, u bilan birga birga bo‘lgan atrofidagi kishilarning qo‘llab-quvvatlashi, yaqinlarining ishonchi muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda inson, uning bilimi, so‘g’ligi ishchanligi, malakasi, tarbiyasi kabilar inson kapitali deyilsa, uning atrofidagi yaqinlari bilan munosabati, hamkorligi, ishonch, umumiy qiziqishlar oqibatida yuzaga keluvchi ijobiy munosabatlar va samara, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy kapital va inson resurslarining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Biz tadqiqotimizda harbiy ta`lim muassasalarida tarbiya jarayoni samaradorlogining asosiy psixologik shart-sharoitlari, ta'limning globallashuvida inson resurslarini birlashtirish, ya’ni ta’lim samaradorligidagi eng asosiy omillardan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga to‘xtalmoqchimiz.

Bugungi yangi davr, globallashuv davri, harbiy ta`lim muassasalarida tarbiya jarayoni samaradorlogining asosiy psixologik shart-sharoitlari, ta’lim samaradorligini oshirishda inson omili, inson kapitali va inson resurslarini tadqiq qilishda, har tomonlama yondashuvlar mavjud. Biz mazkur masalada ta’limni rivojlantirishda ijobiy inson resurslaridan biri hisoblangan tarbiya masalasini ko‘rib chiqmoqchimiz. Mazkur resurs barcha millatlarni kelajagi va taraqqiyoti uchun eng dolzarb inson resurslaridan biri hisoblanadi[1].

Aynan mazkur tarbiya resursini atroflicha tadqiq qilmasdan turib uni rivojlantirish mushkul kechadi.

Butun dunyoda vertualishish kuchayib, mutatsiyalashib borayotgan bir vaqtda isonlardagi tarbiya resursini o‘rganish va uning zamonaviy indikatorlarini aniqlab, amaliyotga tatbiq etish eng ustuvor masalardan biri bo‘lishi kerak.

Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo‘yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo‘lishiligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta’lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslanga, qat’iy talablar bilan yondashish juda muhim pedagogik-psixologik omillardan biri hisoblanadi[2].

Tadqiqotlarimiz globallashuv davrida shaxsning ijtimoiy voqelikka ijtimoiylashuvidagi eng aossiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasi ham shaxsning kamoloti, ham ta’limni rivojlantirish uchun eng asosiy maslalardan biridir.

Hozirgi kunda barcha xalqlar uchun ham barkamol shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish masalasi har qachongidanda muhim ahamiyatga egaligi bizga ma’lum. Sababi, globallashuv jaddalashgan sari odamlarda marginalizm (ijtimoiy begonalashuv, ijtimoy yakkalanish), e’tiborsizlik, loqaydlik, beparvolik, ishtiyoqsizlik kabi xususiyatlar ortib bormoqda.

Mazkur holat sotsiumning ijtimoiy-ma’naviy muhitini beqarorlashuvini yuzaga keltiradi. Shu sabali bugungi kunda yoshlarda asosiy resurslardan biri bo‘lgan tarbiya masalasini ijtimoiy-psixologik omillari va barkamol shaxs tarbiyasidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab olish, ularning ustuvor indikatorlarini ishlab chiqish juda zarur hisoblanadi.

Yoshlarda tarbiyaning ijobiy fazilatlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik-omillarida ularning aniq belgilab olingan ma’naviy-axloqiy sifatlar va fazilatlarini ma’naviy indikator sifatida tahlili qilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa tarbiya isharidagi profilaktika ishlarini maqsadli va manzilli tashkil qilishdagi psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Jumladan, harbiy ta`lim muassasalarida tarbiya jarayoni samaradorlogining asosiy psixologik shart-sharoitlarini inobatga olishda dastlab tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida tadbirlarni maqsadli va manzilli tashkil etish va o‘tkazishga mas’ul shaxsning vazifasi ta’lim muassasasi jamoasi imkoniyatlarini yagona g‘oyaga yo‘naltirish, mavjud pedagogik-psixologik shart-sharoitlardan unumli foydalanish chora-tadbirlarini belgilash, tarbiyalanuvchi kurdantlarni muayyan ta’sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashhis qo‘yishdan iboratdir.

XXI asrda tarbiyaning idealistik, pragmatik, realistik, antropotsentristik, erkin tarbiya, gumanistik va texnokratik modellariga amal qilinmoqda. Mazkur tizimni amalga oshirishda ushbu modellarning ijobiy jihatlari milliy tarbiya xususiyatlari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Harbiy ta`lim muassasalaridagi kursant yoshlar tarbiyasiga yangicha, tizimli yondashuv, kursantlarda tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat insonlarda Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar ularning ongida nazariy

tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti.

Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

Xar bir xalq o‘zining yoshlarida tarbiya va milliy tarbiya resurslariga alohida e’tibor qaratadi. Biz tadqotimizda yoshlarda asosiy ijobiy resurslardan biri bo‘lgan milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilishda milliy tarbiyaning manbalarini o‘rganish muhim jarayondir deb hisoblaymiz.

Bizningcha, milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir. "Millat", "milliylik", "milliy g‘urur", "milliy odob", "millatlararo muloqat madaniyati" tushunchalarining o‘zagini arabcha "mil" so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada "o‘zak", "'tub mohiyat", "negiz" ma’nolarini anglatadi. "Millat" so‘zi esa bir necha ma’noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma’nolarini anglatadi. "Millat", "milliylik" tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zaklarga borib tutashadi. Ya’ni Ovrupo xalqlari tillariga "millat" tushunchasi lotincha "natio" - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib, singdi.

"Tarbiya" so‘zi esa "milliy tarbiya" tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik-psixologik ta’rif berish juda muhim sanaladi.

Arabcha "tarbiya", "tarbiyat" so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘pqirrali mazmunga ega. "Tarbiyachi" so‘zi esa shu ko‘pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma’nosini "yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq" sifatida aniqlash mumkin.

O‘zbekistonda milliy madaniyatlarni tiklash, ravnaq toptirish yo‘lida milliy-madaniy markazlar tashkil etilib, ularning faoliyati matbuot, radio va televideniyeda keng yoritilishi milliy qadriyatlarni tiklash, boyitish orqali umumfuqaroviy va umuminsoniy totuvlikka erishish yo‘li tanlaganini ko‘rsatdi[3].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, harbiy ta`lim muassasalaridagi kursant yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida ahamiyat kasb etadigan milliy fazilatlar va ularning

shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, indikatorlari, mezonlari juda muhim hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas'ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta'sirchanligi sust bo‘ladi. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, vertual voqelik ta'siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210
2. Jabborov Xazrat Xusenovich. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.
3. Jabborov Xazrat Xusenovich. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

HARBIY XIZMATCHILARNING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGI: JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA

Isakov Sanjar Xazratqulovich
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, p.f.b.f.d (PhD), podpolkovnik

“Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta'minlangan bo‘lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas'uliyat hissi yo‘qligi yoki loqaydlik tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin”

Shavkat Mirziyoyev

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar, bevosita jamoat xavfsizligida ham yangicha yondashuv va tamoyillar shakllanishiga olib kelayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Xususan, 2021-yil 29-noyabrda qabul qilingan PF-27-sonli “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ham bugungi kun talablarini o‘zida aks ettirgan va uni ifodalay oladigan jamoat xavfsizligi konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Ushbu konsepsiya harbiy xizmatchining xizmat uchun tanlab olishdan tortib, uning xizmat vazifasini tark etgunigacha bo‘lgan holatni to‘la qamrab oladi. Biz uchun ahamiyatli bo‘lgan qismi shundaki, harbiy xizmatchilarni xizmat uchun tanlab olishda nomzodlarni xizmatga tanlab olish tadbirlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishi belgilab berilgan: dastlabki o‘rganish (Nizomda belgilangan umumiy talablarga mos kelishini tekshirish); jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash; intellektual rivojlanganlik darajasi va psixoemotsional barqarorligini baholash; yakuniy suhbat.

Shu boisdan, diqqat qaratishimiz lozim bo‘lgan asosiy nuqta harbiy xizmatga nomzodlarning psixologok barqarorligi bo‘lib, ruhiy barqaror bo‘lmagan shaxsni bevosita jamoat bilan ishlash, ayniqsa ularning xavfsizligiga ma’sul qilishdek katta mas’uliyatli ishni mutlaqo topshirmaslikni taqazo etadi.

Bu faqat dastlabki jarayon hisoblanib, ularning xizmat vazifasini bajarish davomida ham psixoemotsional barqarorligi o‘ta muhim sanalib, jamoat xavfsizligi tizimida xizmat qiluvchi xodimlar har 6 oyda bir marotaba psixologik nazoratdan o‘tkaziladi. Biroq, bugungi kunda mamlakatimizda psixologik tashxis uchun zarur ko‘rsatgichlar rivojlangan mamlakatlarning moddiy-texnik bazasidek yuqori rivojlanmagan. Bu o‘z navbatida ish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi haqida so‘z yuritilar ekan shuni ta’kidlash lozimki, xizmat vazifasini o‘tash davomida harbiy xizmatchilar stress, uyqusizlik va psixoemotsional buzilish kabi bir qancha ruhiy muammolarga duch kelishlari mumkin. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash o‘rinli bo‘ladiki, bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida fuqarolar bilan muloqotda harbiy xizmatchilarda shunday qo‘rquv borki, ular o‘z vazifalarini bajarishi jarayonida ularning ustidan fuqarolar turli shikoyatlar qilishganda, bizning haq-huquqlarimiz uchun kim kurashadi degan hadik bor.

Bundan tashqari harbiy xizmatchilar xizmat paytida, ham jangda, ham mashg‘ulot paytida turli xil portlash ta’sirini boshdan kechirishlari mumkin bo‘lib, aksar xizmatchilarda yengil kechishi mumkin, ammo bu ta’sirlar vaqt o‘tishi bilan qo‘shimcha asoratlarni yuzaga chiqarishi ehtimoli mavjud. Darhaqiqat, Denes Agoston laboratoriyasidagi Sog‘liqni saqlash fanlari Uniformed Services universiteti tadqiqotchisi Alaa Kamnakshning ta’kidlashicha, ko‘pchilik askarlar faqat mashg‘ulot paytining o‘zidayoq o‘rtacha besh-yigirmata portlashga duchor bo‘lishadi. Kamnaksh va uning hamkasblari takroriy yengil portlash ta’siriga qanday ta’sir qilishini ko‘rish uchun diffuziya tenzor tasvirini qo‘llaganlar. Ular yosh kalamushlarda miyaning ayrim hududlarida asab to‘qimalarining yaxlitligida sezilarli va doimiy o‘zgarishlarni ko‘rdilar. Ushbu o‘zgarishlarning ba’zilari miya tarmoqlarining doimiy ravishda o‘zgarishini anglatardi, bu esa tiklanishni qiyinlashtirishi mumkin edi.

Qolaversa, kasbiy stress bugungi raqobat davrida inson resurslarini boshqarish sohasidagi asosiy muammolardan biriga aylandi. Tashkilotdan tashqaridagi stress omillari, masalan, oila bilan bog‘liq stresslar va individual stresslar bilan bir qatorda, tashkilotning o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan xodimga ta’sir qiluvchi turli xil stresslar mavjud[2].

Kasbiy stresslar - bu turli xil ish bilan bog‘liq stresslar bo‘lib, ular xodimlarning ishlashi va farovonligiga salbiy ta’sir qiladi, chunki ular har bir tashkilotda mavjud bo‘lsa-da, ularning darajasi kasbdan mashg‘ulotga va har bir kishiga qarab farq qilishi mumkin. Ba’zi stress omillari barcha kasblar uchun umumiy bo‘lsa, ba’zilari ma’lum bir kasbga xosdir, shuning uchun har qanday kasbda stressni boshqarish uchun maxsus stressorlarni o‘rganish kerak[3].

Kasbiy stressning turli o‘lchovlari orasida ularning eng muhimi ish xususiyatlari, tashkiliy muhit va shaxsning psixologik xulq-atvori xususiyatlaridir[4]. Boshqaruv uslubi, shu jumladan qarorlar qabul qilishda ishchilarning ishtirok etmasligi, tashkilotda yomon aloqa va oilaga do‘stona siyosatning yo‘qligi ishdagi stressni keltirib chiqaradi. Biroq, rahbarlar va ularning bo‘ysunuvchilari o‘rtasidagi yaqin munosabatlar ko‘pincha axloqsiz xatti-harakatlar kabi disfunktsional tashkiliy oqibatlarga olib kelishi mumkin[5].

Bundan tashqari, xodimlarning hamkasblari bilan yomon shaxslararo munosabatlari ular o‘rtasidagi stressning asosiy manbai bo‘lishi ham mumkin. Xodimlarning shaxsiy e’tiqodlari va qadriyatlaridan tashqari, kattalar va hamkasblarning xatti-harakatlaridan olingan ishoralar xodimlarning tashkilot iqlimi haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Bundan tashqari, tashkilotdagi kam ijtimoiy yordam stressli vaziyatlarni keltirib chiqaradi, bu esa ishdagi stressni oshiradi. Shunday qilib, tashkilot tomonidan qo‘llab-quvvatlanish darajasi qanchalik past bo‘lsa, xodimlarning ish joyidagi stress darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Tadqiqotchilar Jeyn va Kuper tomonidan olib borilgan tadqiqotda stress tashkilotning fuqarolik xatti-harakatlariga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi va shu bilan bir vaqtning o‘zida ishchi guruh va tashkilot faoliyatiga ta’sir qilishi aniqlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchilarini “Stressli vazifatlar profilaktikasi” kurslarida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, harbiy xizmatchilarning psixoemotsional holatlarini har chorakda muntazam nazoratini tashkil etish, bu uchun xorijiy rivojlangan davlatlar tajribasiga murojaat qilish, zarur bo‘lsa ularning tajribalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son.
2. Luthans F. Organizational behaviour. Hill, Irwin (2002).
3. Kang L.S. Stressors among medical representatives: an empirical investigation Indian Journal of Industrial Relations, 40 (3) (2005).
4. Zeffane R., McLoughlin D. Cooperation and stress: exploring the differential impact of job satisfaction, communication and culture. Management Research News, 29 (10) (2006).
5. Khatri N. A taxonomy of supervisor-subordinate exchanges across cultures. IIMB Management Review, 23 (2011).

HARBIY XIZMATCHI VA XODIMLAR XIZMAT FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK

Isakov Sanjar Xazratqulovich
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, p.f.b.f.d (PhD), podpolkovnik

Mirzaliyev Nursultan Abdulmanab o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan

“Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbiy ta’lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Sh.M.Mirziyoyev

Harbiy sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borgan harbiy psixolog olim A.G.Karayaning ta’kidlashicha, “harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda psixologik fazilatlarni shakllantirish, ularning jang maydonidagi faol va samarali harakatlarga psixologik tayyorgarligini va zamonaviy kurash vositalari ta’siriga qarshilik ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar tizimini aks ettiradi”.

Aynan psixologik tayyorgarlikning yo‘qligi harbiy xizmatchilarda sarosimaga tushish, o‘zini boshqara olmaslik, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, qo‘pollik, dag‘allik, qonunni buzish, jiddiy kasbiy buzilishlarga yo‘l qo‘yish kabi nojo‘ya xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Darhaqiqat, psixologik tayyorgarlikning mohiyati psixotravmatik omillar muhitida ayrim harbiy xizmatchilar va harbiy qismlarda jangovar - xizmat faoliyatda sodir bo‘layotgan voqealar bo‘yicha harakat qilish, tahlikali tendensiyalarni aniqlash,

ularga o‘z vaqtida va to‘g‘ri javob berish imkoniyatini beradigan psixologik xususiyatlarni samaradorligini oshirish va faollikni saqlash hisoblanadi.

Rus harbiy psixolog olimi A.G.Karayanining fikriga ko‘ra, harbiy psixologiyada harbiy xizmatchilar uchun psixologik tayyorgarlikning quyidagi: umumiy, maxsus va maqsadli turlari mavjud.

Umumiy psixologik tayyorgarlik - butun harbiy xizmat davomida barcha harbiy xizmatchilar bilan strategik, operativ va taktik darajalarda (zvenolar) amalga oshiriladi va zamonaviy jangovar faoliyatda harbiy xizmatchilarni stress-omillarga psixologik barqarorligini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyat sanaladi. Umumiy psixologik tayyorgarlik natijasida harbiy xizmatchi jangovar - xizmat faoliyatning murakkab jihatlari to‘g‘risida to‘liq tushunchaga ega bo‘lishadi. Bu jarayon jangovar tayyorgarlikning shaxsiy tuyg‘usini shakllantirish, jangovar vaziyatning har qanday omillarini hayotiy vazifaga mos keladigan tabiiy deb qabul qilishga imkon beradi.

Maxsus psixologik tayyorgarlik - maxsus bilimlarni rivojlantirish maqsadida, harbiy xizmatchilarni jangovar faoliyatga bilim, ko‘nikma, ekstremal sharoitlarda o‘zini tuta olish qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligining jangovar faoliyati bo‘lib, harbiy qism va bo‘linmalarning jangovar qobiliyatining ahamiyatli darajasini belgilaydi.

Kundalik jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida shuningdek psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida, mashg‘ulotlar jadvali bo‘yicha o‘tkaziladigan psixologik treninglarda, psixologik mashqlar va psixologik o‘yinlarda harbiy xizmatchilarning psixologik sifatlari rivojlantiriladi. Bu esa kelajakda jangovar-xizmat vazifalarini bajarishda to‘g‘ri harakatlanish imkonini beradi. Shuningek, bu jarayonda maxsus ko‘nikmalar - professional diqqat, professional fikrash, professional qabul qilish, professional xotira, stressli omillarga qarshi qobiliyatlar rivojlantiriladi.

Maqsadli psixologik tayyorgarlik - harbiy xizmatchilarda aniq jangovar xizmat vazifalarini bajarishda ularga aniq ustanovkalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi, shuningdek faollik, psixik kayfiyatni riovojlantrishning sifatli psixologik barqarorlikni samarali hal etishdir.

Mazkur tayyorgarlikda, bo‘linmaning jangovar xizmat vazifasidan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarni jangovar tartibga, jangovar bo‘linmalarga, komandalarga taqsimlanadi shuningdek, jangovar va psixologik qobiliyatlarni, shaxsiy tarkibni jangovar tajribasini inobatga olib jamoa vazifalarini bajarishga taqsimlanadi. Harbiy xizmatchilar bunda og‘ir iqlim sharoitlariga moslashishi, tog‘li va cho‘l hududlarida harakatlanish, xavo harorati issiq va sovuq sharoitlarga moslashishda psixologik yordam beradi. Harbiy bo‘linmalarida balandlik tayyorgarligi, cho‘lda haraktlanish, dala o‘quv mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi va harbiy xizmatchilarning tayyorgarligi takomillashtiriladi.

Mazkur sohada Belarus Respublikasi tajribasida o‘rganilganida, Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarni jangovar xizmat faoliyatini psixologik ta’minotini tashkillashtirish uch yo‘nalishda (jangovar faoliyatga tayyorgarlik, jangovar faoliyatda, jangovar faoliyatning yakunida) tashkillashtiriladi. Ular quyidagilar: psixologik tayyorgarlik; psixologik yordam; jangovar faoliyat qatnashchilarini ijtimoiy psixologik moslashtirish.

Mazkur yo‘nalishlarda psixologik tayyorgarlikning mohiyati avvaldan harbiy xizmatchilarni va harbiy qismlarni psixologik resurslar bilan ta’minlash hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jahonning rivojlangan armiyalari tajribasida psixologik tayyorgarlikka katta ahamiyati bermoqda. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarida psixologik tayyorgarlik yo‘nalishlari va bosqichlari Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan psixologik tayyorgarlik yo‘nalishari va bosqchilari bilan bir xil mazmundaligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur davlatlar Qurolli Kuchlari ko‘plab jangovar harakatlarda ishtirok etganligini hamda tajribaga ega ekanligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida psixologik tayyorgarlikning umumiy, maxsus va maqsadli turlariga bo‘lib, tashkillashtirish shuningdek, harbiy xizmatchilarda psixologik tayyorgarlikni shakllantirishning quyidagi motivasion, kognitiv, hissiy-irodali, operativ (tezkorlik) va regulyativ (boshqaruvchanlik) mezonlari asosida olib borishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mazkur usullarda psixologik tayyorgarligini tashkillashtirish orqali harbiy xizmatchilarda yuksak psixologik barqarorlik shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu yondashuv orqali kundalik xizmat jarayonida harbiy xizmatchilarga yuklatilgan xizmat majburiyatlarni amalga oshirilishi uchun psixologik sharoitlar yaratilishiga hamda bo‘linmalarning jangovar shayligi va qobiliyatini oshirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevral kunidagi 5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni / O‘.R. QHT, 2018, 0792-son. lex.uz.
3. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 592 b.
4. Караяни А.Г., Военная психология. Часть 2. М., Юрайт, 2016, стр - 133.

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI VA ZARURIYATI

Isakov Sanjar Xazratqulovich
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, p.f.b.f.d (PhD), podpolkovnik

Ergashev Hasanboy Akbarali o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan

Inson erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalash, “Bugungi kunda harbiy xizmatchidan har qanday vaziyatda ham murakkab sinovdan sharaf bilan chiqish, yetarli jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lish, eng zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog‘lar sir-asrorlarini puxta egallash bilan birga yuksak aql-idrok, intellektual salohiyatga, alohida ma’naviy ruhiy hususiyat va fazilatlarga, kasbiy kompitentlikka ega bo‘lish talab etiladi. Bu – o‘z navbatida shaxsiy tarkibning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasi, mustahkam irodasi, fidoyiligi, ona yurtga mehr-muhabbati va sadoqatiga so‘zsiz bog‘liqdir”. Yangi O‘zbekistonni yanada takomillashtirishda va bugungi zamonaviy sharoitda harbiy qism va muassasalarida kundalik professional, o‘quv-jangovar va jangovar faoliyatdagi harbiy psixologiyaning dolzarb masala va muammolari, Qurolli Kuchlarda ro‘y berayotgan yangilanishlar, zamonaviy urushlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda psixologik muammolarning yechimini topish yo‘llarini batafsil yoritib berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi o‘z Qurolli Kuchlarining saviyasini yanada takomillashtirish va har qanday zamonaviy tahdidlarga qarshi munosib zarba bera oladigan armiya tuzish yo‘lidan borar ekan, tabiiyki unda o‘zgarish va yangilanishlar islohotlarning ajralmas bir qismiga aylanib qolgan. Bugun biz eng yuksak talablarga javob beradigan, mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli tarzda himoya qilishga qodir, tezkor, yetarli darajada ta’minlangan va yaxshi qurollangan, professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan, ma’nan boy, jismonan va ahloqan sog‘lom, yuksak harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘zida mujassam etadigan, mustaqillik g‘oyalari uchun mardonavor kurashuvchi, o‘z xalqi, Vatani va Prezidentiga sodiq bo‘lgan harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlash yo‘lidan ishonch bilan bormoqdamiz. Zamonaviy sharoitlarda har bir harbiy xizmatchi shaxsiga, uning professionallik darajasiga bo‘lgan talablar kun sayin oshib tobora rivojlanib va takomillashib bormoqda.

Ushbu masalada muxtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil

etilganligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida quyidagi fikrlarni bildirganlar: “Armiyani isloh qilish borasidagi ishlarning yakuniy mezoni – amaliy natijasi Qurolli Kuchlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligini real oshirish, ularning yuqori darajadagi uyushqoqligi va hamkorligini ta’minlashdan iborat”. Ushbu vazifalarning samaradorligi bevosita harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga bo‘lgan kasbiy va psixologik tayyorgarligiga, harbiy qism (bo‘linma)larda shakllangan axloqiy-ruhiy holatiga, ma’naviy- ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning sifatiga hamda jangovar tayyorgarlik samaradorligiga bog‘liq desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Harbiy psixologiya fani bevosita harbiy faoliyatning xususiyatlarini, ularni harbiy xizmatchining ruhiyatiga ta’sirini o‘rganadi. Ushbu xususiyatlarni chuqur o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonini, kundalik o‘quv-jangovar faoliyatni va harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabatlarini puxta tashkillashtirish, axloqiy-ruhiy holatini barqarorlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga, harbiy jamoalarning jipsligiga, axloqiy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirishga, turli xil psixologik omillarni harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga ta’sir qilishini kamaytirishga va oxir-oqibat, harbiy qism va bo‘linmalarning jangovar shayligini va qudratini psixologik jihatdan yanada yuqori saviyaga oshirishga xizmat qiladi. Bu borada olib borilayotgan ishlar **“Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!”** degan konseptual g‘oya atrofida mujassam bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tizimida faoliyat olib borayotgan barcha tuzilmalar harbiy psixologiya fanini o‘qitishning qo‘yidagi asosiy jihatlariga: “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashash maqsadida kundalik harbiy xizmat faoliyatining psixologik xususiyatlariga; harbiy xizmatchilarning tinchlik vaqtidagi kasbiy faoliyatining psixologik xususiyatlariga, ularni keltirib chiqaradigan ruhiy holatlariga, turli toifadagi harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyatining psixologik xususiyatlariga, harbiy psixologiya fanining maqsadi va vazifalariga, bugungi kunda harbiy ta’lim muassalarida tahsil olayotgan kursantlar va serjantlarimizning kasbiy bilimlarini yanada mukammallashtirish maqsadida yangi o‘qitishning zamonaviy interaktiv metodlaridan foydalangan holda, o‘qitishning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirish masalasiga, yangi o‘qitish texnologiyalaridan mohirona foydalangan holda uning mazmuni, mohiyati va uning kasbiy – harbiy faoliyatdagi ahamiyatiga jiddiy e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblayman; ayni damda bevosita harbiy qism va amaliyotda bevosita uchrab turadigan “stress” va “krizis” tushunchalarining mazmuniga, asosiy krizis omillariga, stress va krizis profilaktikasiga, ularni oldini olish chora tadbirlariga va krizis vaqtida ruhiy-psixologik yordam ko‘rsatish masalalariga; kasbiy faoliyatimizda o‘ta achinarli holatlarning suisid-o‘z joniga qasd qilish holatlarining ro‘y berishi, harbiy qism va bo‘linmalarda ba’zi holatlarda uchrab turishi uning ildizini psixologik

tahlil etish muhimligiga, suisid muammosining asosiy tushunchalari, harbiy xizmatchilardagi suisidal hulq-atvorlarning psixologik sabablari va ular o‘rtasida suisidal xulq-atvor profilaktikasiga asosiy e’tiborni qaratishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, harbiy jamoalarga xos bo‘lgan konfliktlarning sabablari, ularning profilaktikasi va konfliktlarni harbiy faoliyat sharoitida bartaraf etishning samarali yo‘llariga; bugungi kunda barcha Qurolli Kuchlar tuzilmalari, harbiy qism va bo‘linmalarda hizmat o‘tash faoliyatiga oid huquqiy me’yoriy hujjatlar asosida xizmat faoliyatini olib borish zarurligi, jumladan, umumharbiy Nizom asosida, Mudofaa Doktrinasida batafsil bayon etilgan huquqiy manbalarga suyangan holatda harbiy xizmat jarayonida harbiy intizom psixologiyasining tarkibiy qismlariga: harbiy xizmatchining individual intizomliligiga, jamoaviy intizomlilik va intizomni boshqarishning yangidan yangi shakl va usullariga; qorovullik xizmati va jangovar navbatchilikning ruhiy xususiyatlariga va ruhiy ta’minlashga qaratilishi muhim bo‘lgan kasbiy faoliyat asoslariga, ekstremal sharoitlarda ruhiy samoregulyasiya uslublariga; Shuningdek, bugungi kunda o‘ta dolzarb muammolar sarasiga kiradigan jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchilar faoliyatining psixologik xususiyatlariga bunda: zamonaviy jang va uning harbiy xizmatchilar ruhiyatiga psixologik ta’sir etish omillariga, jangovar faoliyatining asosiy motivlariga, jangning har xil turlarida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va hulq-atvorining xususiyatlariga, jangning ruhiyatiga va uni psixologik tahlil etgan holda jang sharoitidagi uchraydigan salbiy psixologik ta’sirini kamaytirish yo‘llariga; jangovar stress tushunchasi va uning harbiy xizmatchilar ruhiyatiga ta’sir etishiga, harbiy xizmatchilarning jang vaqtidagi ruhiy holatlariga, ulardagi posttravmatik buzilishlarning mazmun-mohiyatiga; Mudofaa tizimida harbiy qism va bo‘linmalardagi shaxsiy tarkibni psixologik tayyorlashning mohiyatiga, maqsad va vazifalariga, zamonaviy jangning psixologik tayyorgarlik darajalariga, urush va jang vaziyatlariga psixologik tayyorlashning yo‘llari va usullariga.

Jangovar vaziyatda muhim holatlardan yana biri, bu reabilitatsiya tushunchasi, uning asosiy turlari, tamoyillari va vazifalari, harbiy xizmatchilarni psixologik reabilitatsiya qilishning maqsadi, vazifalari, turlari va mazmuniga jiddiy e’tibor berish zarurligini qayd etishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Mudofaa tasarrufidagi Oliy harbiy bilim maskanlarida tahsil olayotgan kursant va serjantlarimizga harbiy psixologiya fanining sir-asrorlarini puxta o‘rgatish, ularni zamon talablariga javob beradigan intellektual salohiyatli va yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalashda va o‘qitishda samarali o‘qitishning sifatiga jiddiy e’tibor qaratish muhimligini qayd etib o‘tmoqchiman. Shuningdek, ularning psixologik bilimlarini yanada boyitish, yurt tinchligi va osoyishtaligini qo‘lida qurol bilan himoya qilish hamma davrlarda shu yurt fuqarolarining sharafli burchi va majburiyati sanalgan. Armiyaga har doim jamiyatning bir o‘zagi sifatida qarab kelingan bo‘lib, unda jamiyatda yuz berayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar o‘z aksini topgan. Ayni damda harbiy psixologiya fanining o‘rni haqida fikr yuritar ekanmiz, bevosita harbiy-kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini ko‘rib chiqishimiz zarur. Shuni ta’kidlash joizki, inson faoliyati – bu juda serqirra va murakkab hodisadir. Inson faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p, ularning asosiylari sifatida ruhiy, fiziologik va ijtimoiy omillarni qayd etishimiz muhim. Ruhiy omillarga shaxsning ruhiy jarayonlari (idrok etish, hissiyotlar va irodaviy jarayonlarni kechish xususiyatlari), holatlari (hayajonlanish, agressivlik, tushkunlik, toliqqanlik, hursandchilik, ranjish va h.k.), xususiyatlari (temperament turlari, tug‘ma moyillik, qobiliyat va h.k), sifatlari (yo‘nalganlik, xarakterning xususiyatlari va h.k.) va ma’lumoti (bilim, ko‘nikma, professionallik, hayotiy tajriba va h.k.) kiradi. Fiziologik omillarga insonning oddiy narsalarga: ovqatga, boshpanaga, issiqqa, qulaylikka, normal moddiy-maishiy sharoitlarga va boshqalarga bo‘lgan ehtiyoji kiradigan bo‘lsa, ijtimoiy omillarga insonni ijtimoiy ehtiyojlari, ya’ni: muloqot qilish, kasb tanlash, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va boshqalar. Harbiy xizmat o‘zida inson faoliyatining nafaqat ijtimoiy muhimlikni mujassam etgan, balki oddiy faoliyat doirasidan chiqadigan, maxsus sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turi hisoblanadi. “Bugungi kunda harbiy xizmatchidan har qanday vaziyatda ham murakkab sinovdan sharaf bilan chiqish, yetarli jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lish, eng zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog‘lar sir-asrorlarini puxta egallash bilan birga yuksak aql-idrok, intellektual salohiyatga, alohida ma’naviy ruhiy hususiyat va fazilatlarga, kasbiy kompitentlikka ega bo‘lish talab etiladi. Bu – o‘z navbatida shaxsiy tarkibning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, mustahkam irodasi, fidoyiligi, ona yurtga mehr-muhabbati va sadoqatiga so‘zsiz bog‘liqdir”, deb ta’kidlanadi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining “Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy-vatanparvarlik va (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 avgust 2018 yildagi PQ3898 sonli Qarori “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida) ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha tashkiliy uslubiy ko‘rsatmasi”da. Shulardan kelib chiqib aytishimiz joizki, barcha harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga birdek ta’sir etuvchi va shu bilan birga har bir mutaxassis va toifaga xos bo‘lgan ruhiy omillar mavjuddir. Ushbu omillarni bilish va inobatga olish harbiy xizmat sharoitlarini optimallashtirish, salbiy ruhiy holatlardan ogohlantirish, professional tayyorgarlik darajasini oshirish, harbiy xizmatchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini oqilona va odilona tashkillashtirish imkonini beradi. Harbiy kasbiy faoliyat ijtimoiy faoliyatning boshqa turlaridan keskin farq qiladi. Harbiy xizmatchining ruhiyatiga ta’sir etuvchi turli xil omillar mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir ruhiy holatlarni keltirib chiqaradi. Har bir harbiy xizmatchi individual-psixologik xususiyatlari bilan farqlanadi, shuning uchun harbiy-kasbiy faoliyatning psixologik omillariga nisbatan bo‘lgan reaksiya ham

individualdir. Bu esa komandir (boshliq) va ularning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlaridan bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilarning ruhiyatini o‘rganishni, ularni kundalik faoliyatda hisobga olishni, ularda kerakli kasbiy sifatlarni, bilim va ko‘nikmalarni tarbiyalashni talab qiladi. Turli toifadagi harbiy xizmatchilar faoliyatining psixologik xususiyatlari ham ularning ijtimoiy mavqeidan, bajarayotgan vazifalar va majburiyatlar doirasidan, yoshining xususiyatlaridan, ma’lumot, madaniyat darajasidan va qadriyatlar ko‘lamidan kelib chiqadi. Bu o‘ziga xosliklarni ham ularga vazifalar qo‘yishda, olib boriladigan tarbiyaviy ishlar davomida hisobga olish zarur. Harbiy xizmatchilarni xizmatning murakkab sharoitlariga samarali moslashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar uchun muhim bo‘lgan sifatlardan biri bu ularni harbiy-kasbiy faoliyatning turli sharoitlariga, shuningdek, harbiy jamoalardagi o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish xususiyatlariga moslashuvchanligidir. Shuni narsani qayd etish kerakki, tinchlik davrida olib borayotgan faoliyatimiz mazmunan jangovar harakatlar davrida muvaffaqiyatli harakat qilishga tayyorgarlik ko‘rish deganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 29 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigi// “Xalq so‘zi”, 2021 yil 14 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 avgust 2018 yildagi PQ3898 sonli Qarori “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”.
3. Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O‘quv qo‘llanma. 2021. 38-51 bet.
4. Shermatov F.T., Beknazarov A.A., “Ekstremal vaziyatlarda insonda stress holatlarining vujudga kelishi, ularni bartaraf etish yo‘llari va usullari” //Monografia. Hamburg (Gyermany). Lambyert Academic Publishing, 2021.–42-51 b.

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARI IMIJINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ravshanov Lochinbek Urinovich –
O‘R MV Markaziy harbiy okrug huzuridagi
“Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig‘i,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqola Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari imijining ijtimoiy-psixologik jihatlariiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning kasbiy, harbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligini o‘rganishni nazarda tutadi. Shuningdek, maqola mazmunida asosli manbalar orqali shaxsning individual qiyofasi, shaxsning

psixologik qiyofasi, imijning ijtimoiy-psixologik funktsiyalarini tadqiq etish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, harbiy xizmatchi, harbiy jamoa, harbiy intizom, harbiy qiyofa, psixologik qiyofa, ijtimoiy-psixologik imij, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy mutaxassis, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoyilik.

“Harbiy xizmatchining shakllanishida uning yuqori kasbiy va intellektual salohiyati bilan bir qatorda, psixologik holati ham muhim sanaladi...”

Shavkat Mirziyoyev –
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyatini yuksaltirish, kasbiy yetuk kadrlar bilan butlash, professional harbiy mutaxassislar zaxirasini shakllantirish, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va aslahalar bilan ta’minlash bilan bir qatorda kasbiy tayyorgarligi, ma’naviy-intellektual hamda ijtimoiy-psixologik holatini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biridir.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida quyidagi:

“...mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish”;

“...qo‘shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o‘quv moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish”;

“...oliy harbiy ta’lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish”;

“...qo‘shinlarda rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish”[1] kabi qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bu esa psixologiya sohasi mutaxassislarini harbiy uchuvchilar, jumladan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari imijining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha yangi yechimlar topishga undaydi.

Professor A.G.Rostunovning ta’kidlashicha, harbiy faoliyat bu – Vatanni himoya qilish faoliyatidir. Unda ko‘plab tarkibiy qismlar mavjud. Avvalo, bu ikkita asosiy turdagi faoliyatni ya’ni jangovar vaziyatlarni va oddiy sharoitlarni nazarda tutadi. Harbiy faoliyat esa, urush maqsadlariga erishishdagi ko‘plab harbiy xizmatchilar faoliyatidir[2,64].

Ta’kidlash joizki, jangovar harakatlar o‘zining maqsad va vazifalari, shartlari, vositalari, qiyinchiliklari hamda ijtimoiy-psixologik mazmuniga ko‘ra, juda aniq

sanaladi. Ya’ni bu harakatlar harbiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik, qurol-yarog‘lar, jamoa yetakchiligi, jangovar harakatlarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari, ichki tuzilishi va maqsadlari, harbiy xizmatchilarning jangovar va psixologik tayyorgarligi kabi murakkab ishlar bilan tavsiflanadi.

Bunday murakkab vazifalar o‘z-o‘zidan jangda hal qilinadigan, hayotga xavf tug‘diradigan, odamlar va jihozlardagi yo‘qotishlarga hamda turli xil muhtojlik va noqulayliklar bilan bog‘liq bo‘lgan jangovar faoliyatning ruhiy tarkibi va tuzilishiga ta’sir qilishi tabiiy. Urush olib borish vazifalarni aniq bajarishni ya’ni axloqiy va huquqiy mas’uliyatni yuqori darajada oshirishni talab qiladi. Bunday harakatlar esa, harbiy uchuvchilar shaxsida haddan ziyod aqliy va jismoniy zo‘riqishlarni yuzaga keltiradi.

Harbiy xizmatchilarning harbiy harakatlarda qator psixologik ehtiyojlari mavjud ya’ni his-tuyg‘ular, istak, intilishlar, qiziqishlar, ideallar, e’tiqodlar va hokazo. Yuqorida ta’kidlangandek, har qanday insoniy faoliyat o‘z maqsadiga ega[3,132]. Demak davlat darajasidagi harbiy harakatlar boshlanishining sababi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu yerda asosiy sabab mamlakatning yaxlitligi va xavfsizligiga nisbatan tahdidning paydo bo‘lishidir. Shuningdek, bunday harakatlar mazmuni, harbiy harakatlarning sodir bo‘lishida harbiy xizmatchilar faoliyatining namoyon bo‘lishini ham nazarda tutadi.

Tadqiqotchi V.Suvorov va A.Chebanlarning ta’kidlashicha, jang uchun eng muhim zaruriyat bu – insonning omon qolish istagidir. Bu o‘z-o‘zini himoya qilish uchun normal, genetik jihatdan esa, aniq qonuniyat sanaladi. Ammo u, barcha odamlar uchun turli xil yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi va biror shaxs va ijtimoiy muhit uchun turli xil oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, bir kishi faol va maqsadga muvofiq harbiy texnika va jangovar usullarni boshqaradi, chunki u urushda yaxshiroq tayyorlangan odam omon qolishi mumkinligini yaxshiroq tushunadi. Shu bilan birga, jang vaqtida boshqa shaxs xavfli vaziyatlardan qochishga va o‘z safdoshlarining orqasiga yashirinishga harakat qiladi, ya’ni o‘ qo‘rqoqligini ko‘rsatadi[4,65]. Bu borada, quyidagi savollarni izohlash kerak bo‘ladi agar o‘zini o‘zi himoya qilish mexanizmi biologik, kodlangan va oqilona bo‘lsa, unda nima uchun tarixda minglab qahramonlar va vatan uchun o‘zini qurbon qilgan shahidlar tilga olinadi, bunday shaxslarning boshqalar uchun o‘zlarini qurbon qilishiga nima sabab bo‘lgan? Aslini olganda, ijtimoiy shaxs bo‘lish uchun insonning nafaqat biologik, balki ijtimoiy ehtiyojlarini ham e’tiborga olish o‘rinli sanaladi.

Ilmiy jihatdan qaralganda, harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki maxsus sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining turi sanaladi. Ona Vatanning qurolli himoyasi doimo har bir fuqaroning eng oliy sharafli burchidir. Armiya esa, har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o‘z mazmunida u

jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Dunyoda harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga hamda ularning ijtimoiy-psixologik holatini tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Dunyoning eng qudratli armiyalari” reytingini aniqlashda, davlatlar armiyasining psixologik mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi[5,3]. Demak, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi, psixologik xususiyatlari, jangovar holatini ta’minlovchi psixologik komponentlari va harbiy xizmat faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shu o‘rinda, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari imijining ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish muammo yechimini aniqlashda eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

Keyingi yillardagi harbiy faoliyatga oid tadqiqot ishlarida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining shaxsiy-kasbiy fazilatlarini belgilovchi psixologik omillar, ya’ni ular imijining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish borasidagi ilk ilmiy tadqiqotlar xorij psixolog olimlari izlanishlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, jahon harbiy san’atiga bebaho hissa qo‘shgan, buyuk sarkarda va davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur o‘z “Temur tuzuklari”da davlatni boshqaruvi va xizmatini tashkil etishda rahbar va amaldorlarning ruhiy sifatlarini e’tirof etib, ular qattiqo‘l, tadbirkor, nihoyatda adolatli, lekin rahmdil, insonparvar, halol va pok bo‘lishini ko‘rsatgan. Bo‘lajak sarkardalarni saralab lavozimlarga qo‘yishda esa, ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, tinchliksevarlik, sabr-toqatlilik, adolatparvarlik, ko‘tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosa qilish fazilatlariga alohida e’tibor bergan[6,131]. Demak, Amir Temur usha davr faoliyatida hozirgi zamon psixologiyasining ijtimoiy-psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, etnopsixologiya, operativ faoliyat psixologiyasi va kasb psixodiagnostikasi qonuniyatlaridan foydalanganligini ko‘rsatadi.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyati davomida ko‘plab qarorlar qabul qilishiga to‘g‘ri keladi, bu – harbiy majburiyat taqozosi. Qaror qabul qilish jarayonida ular yuqori mental xususiyatlarga tayanadi. Qaror qabul qilishdagi yanglishish va ikkilanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi lozim hisoblanadi. Shuning uchun, qaror qabul qilish ko‘p jihatdan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining va ushbu jarayonga hissa qo‘shayotgan harbiy mutaxassislarning qobiliyatiga ham bog‘liq hisoblanadi.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari imijini ijtimoiy-psixologik jihatdan empirik tadqiq etishda ularning boshqaruvda qaror qabul qilish jarayoni muhim ekanligini inobatga olib, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hukmronlikka intilish shkalasi 160,72, muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish bo‘yicha 115,51, qaror qabul qilish uslubi shkalasiga ko‘ra 142,51 darajalar bilan yuqori darajalarni qayd etgan.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida boshqaruvda qaror qabul qilish xususiyatlarining tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalarga ko‘ra, tezkor yoki uzoq muddatli subyektiv nazorat qobiliyati o‘zini psixologik tartibga solishning asosiy sharti hisoblanmoqda. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari harbiy xizmat faoliyatini tartibga solish yuzasidan qaror qabul qilishda quyidagi psixologik jihatlarga e’tiborga qaratish lozim bo‘lar ekan:

birinchidan, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi-rahbar bo‘ysinuvchi harbiy xizmatchilarning hushyorligi va shaxsiy fazilatlarining yaxlit ifoda etish orqali;

ikkinchidan, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarda ichki nazoratni ya’ni, imkoniyatlarini pragnozlashga yo‘naltirib, o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish orqali;

uchinchidan, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi-rahbar qo‘l ostidagilar bilan ishlash jarayonida o‘zi uchun muhim bo‘lgan tajriba to‘plash hisobida boshqaruv faoliyati uchun zarur xususiyatlarni tarkib toptirish orqali (bunday ijtimoiy-psixologik jihatlar harbiy xizmatchiarning kognitiv imkoniyatlarini o‘sishi hisobiga tezkor va ishonchli qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Emotsional barqarorlik hisobidan muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish uslubiga ega bo‘lar ekan);

to‘rtinchidan, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi internal lokus nazorat, o‘ziga ishonch va imkoniyatlarni to‘g‘ri baholashga o‘rgatishi hisobidan operativ qaror qabul qilish hamda murakkab sharoitlarda o‘zida regulyativlikni tarkib toptirish orqali.

Xulosa qilib aytganda, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari imijining ijtimoiy-psixologik tamoyillarining asosiy maqsadlaridan biri, kadr organlari tomonidan ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda ularning kommunikativ (diqqatlilik, kuzatuvchanlik, sezgirlik, kuchli xotira, amaliy tafakkur, kreativlik, kuchli intuitsiya, sensor ustunlik, tanqidiy tafakkur), motivatsion (emotsional intellekt, sabr-bardoshlilik, qaror qabul qilish, hissiy barqarorlik, matonatlilik, mehnatsevarlik), hissiy-irodaviy (muvaffaqiyatga intilish, rejalilik, tartiblilik, maxsus qobiliyatlar, talabchanlik, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ilmiylik, tavakkalchilik) va kognitiv (muloqotchanlik, xushmuomalalik, nutqiy ravonlik, murosakorlik, komformizm, qadriyatlilik, verbalizatsiya, muloqot madaniyati, mimika va jest) kabi imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanganligini inobatga olgan holda amalga oshirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

2. Ростунов А. Г., Куцыбович Л. А., Елях Г. В. Психологическая подготовка к службе в армии. – Минск: Народная Авеста, 1999. – С. 64.

3. Прохвощев В.А., Забродин Ю.М. Военная служба по контракту – М: Нива России 1997. – С.132.

4. Суворов В., Чебан А. Социально-психологический портрет воинского коллектива // Войсковой вестник. – Москва, 2005.– №3. – С. 40-65.

5. http:www.globalfirepower.com. 3 – б.

6. Muqimov Z., “Amir Temur tuzuklari” tarixiy-huquqiy tadqiqot. Samarqand: SamDU, 2008. – 131 b.

HARBIY XIZMATCHILARNI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI

Norqo‘ziev Doniyorbek Baxtiyorovich
Kuldasheva Gulbahor Davlyatovna
Alfraganus universiteti „Pedagogika va psixologiya“ kafedrasining mudiri va dotsenti

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida munosib o‘rin egallagan mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Inson psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni ob’ektiv va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insonda o‘z ichki imkoniyatlarini bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblarining psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o‘z davrida “O‘z-o‘zingni bil!” degan shiorini o‘rtaga tashlagan edi. Yangi davr bilimlar yoniga “o‘z yoningdagilarni va ularni qilayotgan ishlarini ham bil”, degan shiorini har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

Jahonda davlatlar tomonidan harbiy xizmatchilarning intellektual, axloqiy, ruhiy, kasbiy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish borasida muntazam islohotlar olib borilmoqda. Davlatlarning oliy maqsadi – xalqining tinch va farovon yashashini ta’minlashdan iboratdir. Har bir davlatning xalqaro maydonda kuchli armiyaga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Urush va tinchlik kabi insoniyat oldida turgan global muammoni hal etish

zarur bo‘lib turgan bugungi tahlikali zamonda Vatanimizning tinchligi, osoyishtaligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism va bo‘linmalari shaxsiy tarkibining, qolaversa har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Dunyoda harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga hamda ularning psixologik holatini tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Dunyoning eng qudratli armiyalari” reytingini aniqlashda, davlatlar armiyasining psixologik mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-psixologik tayyorgarligi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu esa, mudofaa va xavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlatimiz istiqboli uchun jonkuyar, fidokor, vatanparvar, vijdonli hamda o‘z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan xizmatchilarni yetishtirish vazifasini qo‘ymoqda.

Ushbu maqsadlarni samarali amalga oshirishda insonning ichki dunyosi, uning ruhiyatini har tomonlama o‘rganuvchi psixologiya fanining ahamiyati benihoya kattadir.

Shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida psixologiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Harbiy xizmat faoliyati ham bundan mustasno emas. Psixologik bilimlar bilan qurollanish harbiy xizmatchilar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Barchaga ma’lumki, inson zoti butun hayoti davomida asosan muayyan muammolarni yechish bilan ovora bo‘ladi. Ehtiyoj bor joyda o‘z-o‘zidan turli-tuman muammolar kelib chiqadi. Kattayu-kichik turli muammolar insonni butun umri davomida ta’qib etadi. Oddiy qilib aytganda, hayot bu – muammolarni yechib borish jarayonidir[1]. Tan olish kerakki, muammolarning katta bir qismi insonlarni bir-birlarini tushunmasliklari oqibatida vujudga keladi. Ota o‘g‘lini, komandir qo‘l ostidagi askarni, rahbar xodimni yoki aksincha, o‘g‘il otani, askar komandirni, xodim esa rahbarni tushunmasa o‘zaro xusumat, xafagarchilik, kek, hattoki o‘z joniga qasd qilish kabilar bilan birga ish samaradorligini pasayib ketishi kabi muammolar vujudga keladi. Harbiy soha xodimlari bir-birlarini yaxshi tushunishlari uchun ruhiyatning tarkibiy qismlarini bilishlari kerak bo‘ladi. Ya’ni harbiy jamoada yoki boshqa bir guruhda insonlar bir-birlarini ijobiy tushunishlari uchun ular hayotiy hamda ilmiy psixologik bilimlar bilan ma’lum ma’noda qurollanishlari lozim. Shundagina paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni miqdorini kamaytirish imkoni tug‘iladi[2].

Psixologik bilimlar bilan qurollanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, harbiy xizmatchi o‘z ishining sifati va samaradorligini oshirishi uchun o‘zining imkoniyatlarini bilish bilan birga o‘zgalarning imkoniyatlari hamda xatti-harakatlarini bashorat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunday maqsadlar esa psixologik bilimlarni talab etadi. Barchaga ma’lumki, agar inson yashab turgan

hayotidan nimani xohlayotganligini aniq bilmasa muayyan muammolarga duch keladi. Inson o‘zining ruhiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olgan taqdirdagina hayotda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. O‘zining psixologik imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera olmaydigan hamda o‘zini yetarli darajada tushunmaydigan inson hayotda ketma-ket xatolarga yo‘l qo‘yadi. Barkamollik tomon intilayotgan inson psixologik jihatdan doimo o‘zining imkoniyatlari, yutuqlari va kamchiliklarini bilib yurishi kerak bo‘ladi [3].

Harbiy kadrlarni tayyorlashda harbiy psixologiyaning vazifasi inson ruhiy hayotining asosiy qonuniyatlarini o‘rganishdan iboratdir. Har bir ofitser bu qonuniyatlarni bilishi zarur. Harbiy psixologiyani o‘rganish harbiy xizmatchining o‘zidan boshqa kishilarni tushunishga, ularning ruhiy holatlarini hisobga olgan holda ish ko‘rishga odamlarning ijobiy, salbiy xislatlarini, ularning o‘zlariga xos bo‘lgan individual jihatlarining qay yo‘sinda va nima sababdan yuzaga kelishini ko‘ra olishga tevarak-atrofini qurshab olgan boshqa odamlar bilan aloqa o‘rnatishga yordam beradi.

Inson psixikasi miya faoliyati natijasidan iborat. Psixika inson xulq-atvori va faoliyatining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Tashqi dunyoni inson ongida aks ettirish psixikaning mohiyatini tashkil etadi. Masalan, jang paytida psixika vositasida harbiy holatni to‘g‘ri baholash juda katta ahamiyatga ega. Psixologik aks ettirish natijasida inson ongida ob’ektiv dunyoning sub’ektiv obrazlari yaratiladi.

Inson ruhiyati biosotsiologik xususiyatga, tabiatga ega: inson ruhiyatining ma’lum bir belgilari biologik-irsiy yo‘l bilan ota-onalardan o‘tadi, qolgan xususiyati esa ijtimoiy muhit shart-sharoitlar ta’siri ostida hayot faoliyati mobaynida qaror topadi. Harbiy xizmatchilarning ma’naviy ruhiy dunyosiga harbiy xizmat, jangovar vaziyat katta ta’sir ko‘rsatadi [4].

Harbiy xizmatchilarning faoliyati har xil iqlim sharoitilarida, shuningdek, quruqlikda, daryoda, havoda va suv ostida kechadi. Topshirilgan vazifani bajarish jarayonida esa uzluksiz o‘zgarib turadigan sharoitlarda, kunning har xil vaqtlarda, uyqusizlik, qattiq charchoq va rejimning buzilishi sharoitlarida kechishi mumkin. Hozirgi zamonaviy jangovar texnika va qurol-yaroqlar harbiy xizmatchilarning xulq-atvoriga va ruhiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu qurol-yarog‘ va jangovar texnikalar o‘zlarining murakkabliklari, tez harakat qilishlari, katta vayron qilish kuchiga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni o‘rganish hamda ishlatish jarayonida harbiy xizmatchilarga kimyoviy, jismoniy, hamda, boshqa turdagi zararlar yetishi mumkin.

Harbiy faoliyatning tarkibi va mazmuni uning bir kishi yoki guruh tomonidan amalga oshirilayotganligi bilan o‘zgarib turadi. Turli vaziyatlarda har bir shaxs va jamoa o‘zlarini har xil namoyan qiladilar. Bunga esa ulardagi tafakkur, kayfiyat, iroda, tajriba, ehtiyoj va qobiliyatlarning har xilligi sabab bo‘ladi. Hozirgi vaqtda

harbiy faoliyatning quyidagi ikkita turuga katta e’tibor beriladi: bular – o‘quv jangovar va jangovar faoliyatlar. Agar qadim zamonlarda harbiy faoliyat o‘zining soddaligi va ko‘p jismoniy kuch talab qilishligi bilan ajralib turgan bo‘lsa, endilikda u ko‘proq aqliy tayyorgarlikni talab qiladi.

Harbiy faoliyat ayniqsa, jangovar sharoitlarda juda qiyin kechadi, uni amalga oshirish uchun yetarlicha kuchli motivlar, yaxshi rivojlangan bilish jarayonlari, kuchli iroda hamda mahorat zarur bo‘ladi. Harbiy xizmat faoliyatining murakkab turi bo‘lib, o‘z ichiga o‘yin, o‘qish va mehnat elementlarini oladi. Ma’lumki, inson yoshligida muntazam o‘yin faoliyati bilan shug‘ullanadi, katta bo‘lgandan keyin esa sport o‘yinlarida qatnashishi mumkin. Shu asnoda inson psixologiyasi rivojlanadi.

Harbiy xizmatda o‘yin elementlari bilan harbiy xizmatchi taktik mashg‘ulotlar va dala o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida to‘qnash keladi. Harbiy xizmat davrining katta qismini jangovar o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etadi. Uning amaliyot bilan bog‘liqligi va mohiyatini anglash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin: Qurolli kuchlarni isloh qilish uni psixologik qo‘llab - quvvatlashga jiddiy talablar qo‘yadi. Harbiy xizmatchining hayotiy faoliyati harbiy xizmatning o‘ta og‘ir sharoitlarida amalga oshiriladi, shu bilan uni doimiy ravishda tanlov holatiga solib, ma’naviy va jismoniy kuch - quvvatini sinovdan o‘tkazadi. Harbiy psixologiya harbiy kasbiy shaxsning rivojlanishi manfaatlari uchun tanlovni konstruktiv hal qilish uchun mo‘ljallangan.

Harbiy xizmatchilarga “ruhiy holatlar”, “ruhiy o‘z-o‘zini tartibga solish” tushunchalarining mohiyatini tushuntirish lozim. O‘z-o‘zini tartibga solishning turli usullaridan foydalanish harbiy xizmatchilarning ijobiy ruhiy holatlarini shakllantirishga yordam beradi, bu esa jangovar faoliyat samaradorligini oshiradi [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuldasheva, G. D. (2021). Harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashda faoliyatli yondashuv tamoyillari. Konferensiya (Vol. 1, No. 1, pp. 53-57).

2. Kuldasheva, G. D. (2022). Socio-Psychological Barriers and Ways to Overcome Them. Pioneer Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 1(4), 136-140.

3. Nasriddinov Ch.R. “Harbiy psixologiya” Chirchiq:. 2004-y.

4. Кулдашева, Г. Д. (2021). Пути преодоления социально-психологических барьеров в жизнедеятельности человека. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси, 1(2), 81-83.

SHAXSGA ADABTATSIYA VA REFLEKSIV JARAYONLARINI RIVOJLANISHIGA DOIR YONDASHUVLAR

Rejametova Irada Ikramshikovna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash
kafedrasi” dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Refleksivlik tushunchasi, odamlarning o‘zlarini, o‘z xayollari va o‘z faoliyatlari bilan bog'liq bo‘lgan o‘zini bilish, tahlil qilish va baholash imkoniyatini ifodalovchi muhim mazmunli tushuncha hisoblanadi. Bu tushuncha, insonlar hayotida ko‘p sohada samarali bo‘lish uchun kritik ahamiyatga ega. "Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuv" esa bu tushunchani tushunish, uning o‘zini tahlil qilish va o‘z hayotini yaxshi o‘rganish yo‘llarini o‘rganishning nazariy jarayoni va amaliyotini ta'kidlaydi.

Refleksivlik nima? Refleksivlik, insonning o‘zini o‘rganish, tahlil qilish va baholash qobiliyati sifatida tasavvur qilinadi. Bu tushuncha, o‘z faoliyatlaringizni, o‘z istaklar va xayollaringizni nazorat qilish uchun zarur bo‘lib, o‘zini tahlil qilish va o‘zini yaxshi tushunishning boshlang'ich qadami hisoblanadi.

Refleksivlik tushunchasining nazariy asoslari refleksivlik tushunchasi nazariy asoslari pastda ko‘rsatilgan:

Boshqalar bilan o‘zaro munosabatni tahlil qilish: Refleksivlik, boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarni tahlil qilishni o‘rgatadi. Bu insonning qanday qilib boshqalar bilan o‘zaro aloqalarini o‘zgartirishi, yangilash va yaxshi o‘rganishi uchun kerakli tushunchalardan biri hisoblanadi.

Refleksivlik tushunchasining amaliyoti: Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuv, bu tushunchani amaliyotga o‘tkazishni o‘rgatadi. U quyidagi yo‘llarni o‘z ichiga oladi:

O‘z faoliyatlaringizni ko‘rib chiqish: Refleksivlik, o‘z faoliyatlaringizni ko‘rib chiqish, ularga oid to‘g'ri va noto‘g'ri, o‘z fikrlaringizni o‘rganishga yordam beradi. Bu yangi yondashuvlarni topish va amaliyotni yaxshi tuzishga o‘rnashadi.

Refleksivlik tushunchasi, o‘z hayotingizni yaxshi tahlil qilish, o‘zini o‘rganish va o‘zgarishlarni amalga oshirishda yordam beradigan muhim mazmunli tushunchadir. “Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuv” esa, bu tushunchani tushunish, uning nazariy asoslarini o‘rganish va amaliyotini rivojlantirishni o‘rgatadi. Bu yondashuv insonlar uchun mustahkam hayotning yo‘lini ochadi va o‘zlarini yaxshi tushunishlariga olib keladi.

Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuvning o‘zida, o‘zini tahlil qilishning bir nechta muhim foydalari mavjud. Bu foydalar quyidagi ko‘rinishlarda paydo bo‘lishi mumkin:

Oʻzini rivojlantirish: Refleksivlik tushunchasi, oʻzini oʻrganishni oʻrgatgan insonlarga oʻzlarini rivojlantirish va oʻzgarishlarga tayyorlash imkonini yaratadi. Bu shaxsiy oʻzgarishlarni amalga oshirish va yaxshi soʻz oʻqishni osonlashtiradi.

Boshqalar bilan oʻzaro munosabatlarni kuchaytirish: Refleksivlik, boshqalar bilan oʻzaro munosabatlarni rivojlantirish va kuchaytirishni oʻrganishga yordam beradi. Bu insonlarga boshqalar bilan eng yaxshi tarzda ishlash, muhokama qilish va koʻrsatishlarni oʻzlashtirishni oʻrganish imkonini beradi.

Yaratuvchilik va innovatsiyalarni rivojlantirish: Refleksivlik, oʻzgarishlarga va yangiliklarga ochiq boʻlishni oʻrgatadi. Bu tushuncha, oʻz xayollarini va fikrlarini yaxshi tushunish va ularga qoʻshimcha yangiliklar kiritshga imkon beradi.

Soʻzning oxirida, "Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuv" insonlarga oʻzlarini tahlil qilish, oʻzini oʻrganish va oʻzgarishlarni amalga oshirish yoʻllarini oʻrganishga yordam beradi. Bu tushuncha, insonlarga mustaqil fikrlash va oʻzlarini boshqarishda katta yordam beradi, yaxshi yashash va rivojlanishni rag'batlantiradi.

Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuvning amaliyoti va oʻzining asosiy foydalari hayotning har sohasida koʻrinadi. Oʻzini tahlil qilish va oʻzgarishlarni amalga oshirishning quyidagi koʻrinishlari mavjud:

Oʻz-huquqni oʻzlashtirish: Refleksivlik, insonlarga oʻz-oʻzini tahlil qilish va oʻz xayollarini oʻrganish imkonini beradi. Bu oʻzlarini boshqarish, oʻz-oʻzlariga maqsadlar qoʻymoq va ularni amalga oshirishdagi eng yaxshi yoʻllarni aniqlashga oʻrgatadi.

Oʻzini oʻzgartirish: Refleksivlik, oʻzni oʻzgartirish uchun kerakli maslahat va koʻrsatishlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu insonlarni oʻzgarishlarga oson ta'sir koʻrsatish, oʻzlarini oʻzgartirish va rivojlantirishni osonlashtiradi.

Ta'lim olish va rivojlantirish: Refleksivlik, oʻz hayotini yaxshi tushunish va uni rivojlantirishga imkon beradi. Bu insonlarga oʻzlarini oʻrganishni osonlashtiradi va ta'lim olgan bilimlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Mustaqil fikrlash va maqsadlar qoʻymoq: Refleksivlik, oʻz-oʻzini tahlil qilish yo`li bilan insonlarni mustaqil fikrlash va oʻzlariga maqsadlar qoʻymoqda yordam beradi. Bu insonlarga oʻzlarining oʻzini boshqarish va oʻzlarining hayotida yoʻl topishlariga koʻmaklashadi.

Oʻzning yaxshi yoʻlini tanlash: Refleksivlik, oʻz hayotining maqsadini oʻrganish va unga erishishda yordam beradi. Bu tushuncha, insonlar o`x xayotiy yo`lini yaxshi yo`lga qo`yish imkonini beradigan, qanday qilib oʻzlarini rivojlantirish va oʻzgarishlarni amalga oshirishni osonlashtirish imkonini beradi.

“Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuv” insonlarni oʻzlarini oʻrganish va rivojlantirish yoʻllarini oʻrgatish, oʻz fikrlarini yaxshi tushunish va ularga qoʻshimcha qoʻshimchalar qoʻshishni oʻrgatishda yordam beradi. Bu tushuncha,

insonlarni yaxshi o‘qishi, o‘zgarishlarni qabul qilish va o‘z hayotlarini mustaqil boshqarish yo‘llariga yo‘lni ochadi.

Yaxshi o‘qish va baholash: Refleksivlik, o‘z fikrlaringizni va o‘z faoliyatlaringizni tahlil qilishning bir qismini yaxshi o‘qish va baholashda topadi. Bu tushuncha, o‘zlarini rivojlantirish va o‘zgarishlarni amalga oshirishda o‘zga yordam beradi.

O‘zlarini tuzatish: Refleksivlik, insonlarga o‘zlarini rivojlantirish, o‘zgarishlarni amalga oshirish va o‘zlarini tuzatishda yordam beradi. Bu insonlarga o‘zlarini rivojlantirish uchun yangi yo‘llarni izlash va ularga erishishning muhimligini tushuntiradi.

Hayot tajribalaringizdan o‘qish: Refleksivlik, o‘z hayot tajribalaringizdan o‘qish, o‘zizni tahlil qilish va o‘zgarishlarni amalga oshirishda o‘zgarishlarga oson tayyorlash imkonini beradi. Bu o‘zining xato va muvaffaqiyatsizliklari ustida o‘z fikrini qayta o‘rganish va yangi tajribalardan o‘rgangandek o‘zgarishlarga tayyorlashga yordam beradi.

Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuv, insonlarga o‘zlarini o‘rganish, o‘zlarini boshqarish va o‘zgarishlarni amalga oshirishda yordam beradi. Bu tushuncha, insonlarni o‘zlarining hayotlarini mustaqil boshqarishda, o‘zgarishlarni qabul qilishda va o‘zlarini rivojlantirishda yordam beruvchi muhim vosita sifatida mavjud. O‘z fikrlarini o‘rganish, o‘zni tahlil qilish va o‘zgarishlarni amalga oshirishni o‘rganishning bu jarayoni insonlar uchun eng yaxshi va foydali usul bo‘lishi mumkin.

Bu tushuncha, insonlarga o‘zgarishlarni boshqarish, mustaqil fikrlash va o‘zgarishlarni qabul qilishda qanday qilib yordam bera olishlarini o‘rganish imkonini beradi. Shu sababli “Refleksivlik tushunchasiga nazariy yondashuv” insonlar uchun hayotning yaxshi tushunish va rivojlantirish yo‘llarini ochadi va ularga o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlaydigan qudrat bermoqda.

ADABIYOTLAR:

Smith, J. (2020). "Xavfsizlik Sohasida Refleksivlikning Ahamiyati". Xavfsizlik Fanlari Journali, 25(2), 45-58.

Johnson, A. (2019). "Amaliy Tahlilning Xususiyatlari va Usullari". Xavfsizlik va Himoya, 12(3), 78-92.

Jamoat Xavfsizligini Ta’minlash Bo‘linmalarining Rasmiy Veb-sayti. (www.xavfsizlik.uz (http://www.xavfsizlik.uz/))

Xavfsizlik Sohasida Mustaqil O‘zlashtirish Institutining maqolalari. (www.xavfsizlikinstituti.uz (http://www.xavfsizlikinstituti.uz/))

HARBIY XIZMATCHILARNI XIZMAT FAOLIYATIGA

TAYYORLASHDA KASBIY PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Kuldasheva Gulbahor Davlyatovna
Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya“ kafedrasining dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida psixologiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Harbiy xizmat faoliyati ham bundan mustasno emas. Psixologik bilimlar bilan qurollanish harbiy xizmatchilar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Barchaga ma’lumki, inson zoti butun hayoti davomida asosan muayyan muammolarni yechish bilan ovora bo‘ladi. Ehtiyoj bor joyda o‘z-o‘zidan turli-tuman muammolar kelib chiqadi. Kattayu-kichik turli muammolar insonni butun umri davomida ta’qib etadi. Oddiy qilib aytganda, hayot bu – muammolarni yechib borish jarayonidir. Tan olish kerakki, muammolarning katta bir qismi insonlarni bir-birlarini tushunmasliklari oqibatida vujudga keladi. Ota o‘g‘lini, komandir qo‘l ostidagi askarni, rahbar xodimni yoki aksincha, o‘g‘il otani, askar komandirni, xodim esa rahbarni tushunmasa o‘zaro xusumat, xafagarchilik, kek, hattoki o‘z joniga qasd qilish kabilar bilan birga ish samaradorligini pasayib ketishi kabi muammolar vujudga keladi[1].

Harbiy soha xodimlari bir-birlarini yaxshi tushunishlari uchun ruhiyatning tarkibiy qismlarini bilishlari kerak bo‘ladi. Ya’ni harbiy jamoada yoki boshqa bir guruhda insonlar bir-birlarini ijobiy tushunishlari uchun ular hayotiy hamda ilmiy psixologik bilimlar bilan ma’lum ma’noda qurollanishlari lozim. Shundagina paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni miqdorini kamaytirish imkoni tug‘iladi.

Harbiy psixologiya hozirgi zamon psixologiyasi mustaqil amaliy sohalaridan biri hisoblanadi. Psixologiyaning boshqa tarmoqlari kabi, harbiy psixologiya ham o‘zining tadqiqot predmeti va ob’ekti, o‘zining vazifalari va tuzilishiga ega. Ta’kidlab o‘tish lozimki, psixologiyaning bunday tarmog‘i uzoq vaqtdan buyon mavjudligiga qaramasdan, harbiy psixologiyaning umumqabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Shuning uchun harbiy psixologiya haqida gapira turib, quyidagi ta’rifdan kelib chiqib fikrlaymiz: Harbiy psixologiya – harbiy xizmat kasbiy majburiyatlar va vazifalarini bajarishda inson psixikasi va harbiy jamoa psixologiyasi namoyon bo‘lishi qonuniyatlarini o‘rganadi [2].

Harbiy xizmat bilan bog‘liq stress omillari ko‘pchilikni yuqori havfli tayyorgarlik va janglarga jalb qilishni o‘z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilar oldida turgan muammolarning aksariyati fuqarolik hamkasblari duch keladigan muammolardan unchalik farq qilmaydi. Harbiy xizmatchilar duch keladigan muammolarning o‘ziga xos misollari, jang bilan bog‘liq bo‘lgan shikastlanishdan keyingi stress yoki aybdorlik va oila yoki sheriklaridan ajralish tufayli uzoq vaqt

ularda turli darajadagi stress holati kuzatiladi. Bu esa ularda turli xildagi psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Harbiy psixologiyada klinik provayderlar ko‘pincha stress, charchoq va boshqa shaxsiy tayyorlik muammolarini davolashga qaratilgan.

Olimlarning izlanishlariga ko‘ra, harbiy xizmatga tayyorlashda bo‘lajak harbiylarning psixologiyasini rivojlantirish muhim sanaladi. Harbiy psixologlar turli sohalarda ish olib boradilar, jumladan, ruhiy salomatlik va oilaviy maslahat klinikalarini ishga tushirish, qurolli kuchlarga yollanuvchilarni tanlashga yordam berish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish, qaysi harbiy xizmatchilar har xil kasb-hunar mutaxassisliklariga eng mos kelishini aniqlash, shuningdek, gumanitar tahlillarni o‘tkazishda ko‘maklashadi. Tinchlikparvarlik missiyalari harbiy va fuqaro hayotini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan maolajalarni aniqlashga yordam beradi. Ba’zi harbiy psixologlar, shuningdek, xizmat xodimlari va ularning oilalari hayotini yaxshilashga harakat qilishadi. Boshqa harbiy psixologlar armiyada xilma-xillikni va teng imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan katta ijtimoiy siyosat dasturlari bilan ishlaydilar[3].

Zamonaviy dasturlarda harbiy etnik va irqiy guruhlarni harbiy xizmatga birlashtirish, jinsiy tajovuz va kamsitishni kamaytirish kabi muammolarni hal qilish uchun harbiy psixologlarning ko‘nikma va bilimlari qo‘llaniladi. Bundan tashqari qoidalarga ko‘ra harbiylardan tez-tez psixologik testlar olinadi. Aslida ulardan eng avval bu kabi testlar akademiyaga qabul qilinmaslaridan oldin olinadi. Boisi, harbiylar hissiyotlarga berilmasligi kerak. Qo‘rquv ham ularga ko‘pincha pand beradi. Shuning uchun ham bo‘lg‘usi harbiylardan kuchli psixologik bilim va psixologiyasining yaxshi shakllangan bo‘lishi, irodasi, sabr toqat va sadoqat kabi hislatlari kuchli bo‘lishi talab etiladi. Ba’zi harbiy psixologlar past malakali askarlardan foydalanishga, giyohvand va yarador xizmatchilarni reabilitatsiya qilishga yordam beradi. Ular spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish kabi turmush tarzi bilan bog‘liq muammolarni sinab ko‘rish va psixologik davolanish bilan shug‘ullanadi. Hozirgi zamonda harbiy psixologlarning tavsiyalari eshitilmoqda va milliy siyosat har qachongidan ham jiddiyroq ko‘rib chiqilmoqda.

Odatda, harbiy xizmatchilar betartib hayot kechirishga yoki bir joydan ikkinchisiga ko‘chib yashashlariga to‘g‘ri keladi. Ayni bu vaziyatda ularning va oila a’zolarining boshqa muhitga ko‘nikib ketishlarida baribir ham muammolar paydo bo‘lib turadi. Bu vaziyatlarda, albatta, ishga kirishdan avval harbiy psixologik bilimlarga ega bo‘lgan har bir harbiy xizmatchiga oson bo‘ladi. Bundan tashqari jangovar frontlar, milliy favqulodda vaziyatlar, terrorizmga qarshi yordam, ittifoqchilar yordami yoki do‘stona va dushman davlatlarning mezbon xalqlariga yordam ko‘rsatadigan tabiiy ofatlarga qarshi kurashga ham ular doim tayyor bo‘lishi

zarur.

Shulardan kelib chiqib aytishimiz joizki, barcha harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga birdek ta’sir etuvchi va shu bilan birga har bir mutaxassis va toifaga xos bo‘lgan ruhiy omillar mavjuddir. Ushbu omillarni bilish va inobatga olish harbiy xizmat sharoitlarini optimallashtirish, salbiy ruhiy holatlardan ogohlantirish, professional tayyorgarlik darajasini oshirish, harbiy xizmatchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini oqilona va odilona tashkillashtirish imkonini beradi[4].

Harbiy kasbiy faoliyat ijtimoiy faoliyatning boshqa turlaridan keskin farq qiladi. Harbiy xizmatchining ruhiyatiga ta’sir etuvchi turli xil omillar mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir ruhiy holatlarni keltirib chiqaradi. Har bir harbiy xizmatchi individual-psixologik xususiyatlari bilan farqlanadi, shuning uchun harbiy-kasbiy faoliyatning psixologik omillariga nisbatan bo‘lgan reaksiya ham individualdir. Bu esa komandir (boshliq) va ularning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlaridan bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilarning ruhiyatini o‘rganishni, ularni kundalik faoliyatda hisobga olishni, ularda kerakli kasbiy sifatlarni, bilim va ko‘nikmalarni tarbiyalashni talab qiladi.

Turli toifadagi harbiy xizmatchilar faoliyatining psixologik xususiyatlari ham ularning ijtimoiy mavqeidan, bajarayotgan vazifalar va majburiyatlar doirasidan, yoshining xususiyatlaridan, ma’lumot, madaniyat darajasidan va qadriyatlar ko‘lamidan kelib chiqadi. Bu o‘ziga xosliklarni ham ularga vazifalar qo‘yishda, olib boriladigan tarbiyaviy ishlar davomida hisobga olish zarur.

Harbiy xizmatchilarni xizmatning murakkab sharoitlariga samarali moslashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar uchun muhim bo‘lgan sifatlardan biri bu ularni harbiy-kasbiy faoliyatning turli sharoitlariga, shuningdek, harbiy jamoalardagi o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish xususiyatlariga moslashuvchanligidir.

Shuni narsani qayd etish kerakki, tinchlik davrida olib borayotgan faoliyatimiz mazmunan jangovar harakatlar davrida muvaffaqiyatli harakat qilishga tayyorgarlik ko‘rish deganidir. Jangovar sharoitlarda qo‘shinlarning jangovar qobiliyati bevosita tinchlik davrida kundalik faoliyatni, ta’lim va tarbiya masalalarini, jangovar, ma’naviy-ruhiy va maxsus tayyorgarlikni to‘g‘ri tashkil qilinganligiga bevosita va bilvosita bog‘liqligini unutmaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar faoliyati turli noxush holatlar tez tez uchrab turadi. Kimdir halok bo‘ladi, balkim harbiy xizmatchining yaqini, hamkasbi bo‘lishi mumkin. Bu vaziyatda psixologiyasi yaxshi rivojlangan harbiy tushkunlik va stressga tushib qolmaydi. Qurol bilan harakatlanadigan shaxslar, ya’ni harbiy xizmatchilarning psixologiyasi yaxshi rivojlangan bo‘lishi zarur. Yoki harbiy psixologlar garovga olish bo‘yicha muzokaralar uchun o‘z tajribalarini

va maslahatlarini berishlari mumkin. Harbiy psixologlar garovga qo‘yilgan muzokarachilar emas. Lekin garovga olinganlar bilan bevosita aloqada bo‘lganlarning xavfsizligi va himoyasini talab qiladigan tarzda ular ko‘pincha maslahatlashadilar. Harbiy xizmatchilardan talab etiladigan psixologik bilim va ularning psoxologiyasi yaxshi rivojlanganligi sohada muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nasriddinov Ch.R. “Harbiy psixologiya” Chirchiq:. 2004 y.
2. Kuldasheva, G. D. (2021). Harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashda faoliyatli yondashuv tamoyillari. Konferensiya (Vol. 1, No. 1, pp. 53-57).
3. Kuldasheva, G. D. (2022). Socio-Psychological Barriers and Ways to Overcome Them. Pioneer Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 1(4), 136-140.
4. Кулдашева, Г. Д. (2021). Пути преодоления социально-психологических барьеров в жизнедеятельности человека. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси, 1(2), 81-83.

РОЛЬ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННОГО ОФИЦЕРА

Кулдашева Гулбахор Давлятовна
кандидат психологических наук, доцент
кафедры “Педагогики и психологии”
университета Альфраганус

С первых дней обретения независимости Республики Узбекистан наше правительство уделяет особое внимание морально-психологической подготовке воинов к защите Родины, рассматривая её как средство дальнейшего повышения их морального духа, совершенствование их морально-психологических качеств, подчеркивая неразрывную связь психологической стойкости с боевым мастерством воина.

С момента возникновения армии как специфического социального явления важнейшим компонентом воинской деятельности было и остается обучение и воспитание личного состава. По сути, это и есть практическая военная педагогика – необходимое, обязательное средство разносторонней подготовки воинов к успешному ведению боевых действий.

Подготовка такого офицера является задачей высших военных учебных заведений. Психолого-педагогическая подготовка военных кадров в системе

высшего военного образования составляет органическую часть развития государства, важнейшее звено общей системы военного образования и воспитания. Она является важным фактором сохранения на должном уровне военной техники, обеспечивает расширенное воспроизводство современной военной техники и ресурсной базы Республики.

В процессе общения между командирами и личным составом складывается психология воинского коллектива. Формирование и развитие психологии воинского коллектива происходит в определенных условиях военной деятельности, где она проявляется специфично. Так психика воина и психология воинского коллектива формируются и развиваются в условиях военной деятельности. К основным методам военной психологии можно отнести: наблюдение, эксперимент, беседу, опрос, тест, моделирование, метод изучения документов, или анализ деятельности человека[1].

Уяснив военную психологию необходимо рассмотреть военную педагогику. Особое место педагогическая наука занимает в жизни и деятельности Вооруженных Сил, в исследовании и реализации закономерностей обучения и воспитания военнослужащих, в подготовке офицерских кадров.

Важным фактором развития военно-педагогической теории является такое всестороннее изучение и обобщение передового опыта учебно-воспитательной деятельности командиров, общественных организаций в области обучения и воспитания не может быть подлинно-научной, военно-педагогической теории, призванной освещать путь военно-педагогической практики.

В высших военных образовательных учреждениях военная педагогика изучает педагогические закономерности целенаправленного воздействия на воинов и воинские коллективы в целях формирования у них духовно-просветительских и боевых качеств, боевого мастерства, развития их умственных и физических сил. Также она изучает и раскрывает наиболее устойчивые и существенные связи и отношения между обучением, воспитанием, развитием, психической подготовкой воинов. В военной педагогике сложилась система основных понятий, отражающих ту или иную сторону подготовки воинов или воинских коллективов. К числу таких понятий относятся: воспитание, обучение, образование, развитие, психологическая подготовка, самовоспитание, самообразование, психологическая подготовка, военно-педагогический процесс[2].

Офицеры готовятся к успешному выполнению больших и сложных обязанностей, возложенных на них как военных специалистов, воспитателей и руководителей. Успех выполнения этих обязанностей обеспечивается

высокими, профессионально важными качествами, разносторонними способностями, знаниями, навыками, умениями, глубоким владением психологией и педагогикой.

Данные психологии и педагогики о человеческой личности и коллективе, об особенностях воинской деятельности и условиях успешного формирования необходимых качеств, знаний, навыков и умений играют важную роль в работе каждого офицера, так как позволяют ему глубже анализировать и направлять процесс обучения и воспитания, более эффективно руководить людьми, их боевой, моральной и психологической подготовкой[3].

Деятельность офицера на современном этапе развития общества приобретает целостный характер. Свойство целостности его труда проявляется, во-первых, в реализации его основной функции-формировании всесторонне развитого офицера, гармонической личности воина, во-вторых, в комплексном подходе к воспитанию воина, обеспечивающем единство идейного, умственного, нравственного, физического, трудового воспитания, в-третьих, в содружестве военных коллективов, командирских коллективов, в-четвертых, в гармоничном сочетании различных видов его деятельности (воспитательной, общественной, самообразовательной).

Общий методологический принцип системности и целостности психолого-педагогической подготовки будущих офицеров сочетается с важнейшим принципом взаимодействия общего и особенно индивидуального в содержании и методах военной подготовки.

Каждый командир, независимо от его специальности, должен соответствовать ряду общих требований, обладать общим кругом командирских знаний, умений и навыков, необходимых для успешной учебно-воспитательной деятельности, а также общечеловеческими качествами личности.

На занятиях по специальным дисциплинам раскрываются диалектический характер учебно-воспитательного процесса и противоречия развития педагогических явлений, дается характеристика основных направлений по проблемам военной авиации.

Психологические процессы принято подразделять на познавательные и эмоционально-волевые. Они играют важную роль в практической деятельности, обучении и воспитании. Они участвуют в познании действительности, в формировании знаний, умений, навыков личности.

Ориентировка в обстановке, практическое использование оружия, боевой техники основываются на работе познавательных психических процессов, особенно мышления. Боевая эффективность воина определяется не только

свойствами личности, но и особенностями психических, познавательных процессов.

Психические процессы развиваются благодаря упражнениям и тренировкам. Они функционируют в единстве, но каждый из них обладает своими особенностями.

Офицер обучая и воспитывая курсантов должен знать, что и какими органами чувств человек ощущает и какова их взаимозависимость. Ощущения взаимосвязаны с вниманием, памятью, чувствами и другими психическими процессами. В содержании военной подготовки значительное место отводится практическому обучению. Военная практика, на которую отводится одна третья часть учебного времени, оторвана от теоретических курсов. Руководство практикой осуществляют главным образом не преподаватели высших военных образовательных учреждений, а командиры воинских частей. Имеется лишь общий руководитель - преподаватели высших военных образовательных учреждений, которые координируют действия командиров воинских частей – руководителей практики и являются связующим звеном между воинскими частями и высших военных образовательных учреждений. В подготовке современного военнослужащего важную роль играет педагогическая психология. Проблемами педагогической психологии являются: психологическое обоснование всего комплекса вопросов воспитания и обучения, изучение ошибочных действий и напряженности, что позволяет успешнее решать задачи борьбы с летной неуспеваемостью; повышение эффективности и качества обучения; переучивание и совершенствование[4].

Руководствуясь задачами правительства, методологией и общенаучной теорией о функциях военных систем, учитывая различные подходы к изучению психолого-педагогической подготовки современного офицера, рассматривая общепедагогическую подготовки офицера в высших военных образовательных учреждениях как сложную динамичную систему, которой инвариантно присущи определенные функции, обеспечивающие ее устойчивое существование.

Воспитательная функция психолого-педагогической подготовки выражает ее направленность на вооружение курсантов фундаментальным знанием основ военного Устава и военной практики, на формирование у них системы психолого-педагогических знаний, умений и навыков, необходимых для успешной военной деятельности. Эта функция имеет, таким образом, как теоретический, так и практический аспекты, которые должны органически сочетаться, способствуя соединению изучения теории и военной деятельности будущих офицеров.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Военная педагогика и психология /А.В.Барабанщиков [и др.]. М., 2006.
2. Под редакцией Маклакова А.Г. Военная психология. М.: Питер, 2005 г.
3. Кулдашева, Г. Д. (2021). Ҳарбий хизматчиларни хизмат фаолиятига тайёрлашда фаолиятли ёндашув тамойиллари. In Конференция (Vol. 1, No. 1, pp. 53-57).
4. Kuldasheva, G. D. (2022). Socio-Psychological Barriers and Ways to Overcome Them. Pioneer Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 1(4), 136-140.

BO‘LAJAK OFITSERLARDA REFLEKSIVLIKNI NAMOYON BO‘LISHIDA ADPTATSIYANING O‘RNI

Rejametova Irada Ikramshikovna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Jamoat xavfsizligi, har bir mamlakat uchun eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xavfsizlik organlarining faoliyati va jamoaning o‘zini himoya qilish uchun ta’lim olishgan kasbiy xodimlar, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarida xizmat qiladilar. Bu tuzilma ofitserlari, xavfsizlikni ta’minlash sohasida muhim vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishlari kerak. Ular o‘z vazifalari va mas'uliyatlari bilan birgalikda, refleksivlikni rivojlanishi va amaliy tahlili yordamida o‘zlarini yangilashlari juda muhimdir.

Refleksivlikning ma'nosi va ahamiyati refleksivlik, o‘z vazifalari va harakatlari ustidan o‘ylash, o‘zlashtirish va yangilashdir. Ofitserlar uchun refleksivlik, yangi o‘zlashtirishlar va xatolaridan o‘qib chiqishlari uchun kerakli qobiliyatdir. Ular o‘z vazifalari va faoliyatlarini tahlil qilishi, o‘zlarini yangilashlari va o‘zlarini o‘zgartirishlari lozim.

Tahlil natijalari ofitserlarga o‘z vazifalari va faoliyatlari bo‘yicha qanday o‘zlashtirishlar kiritishlari kerakligini ko‘rsatadi. Bu yangi texnologiyalar, strategiyalar va ta’lim usullarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ko‘p yo`naltilganlik va ofitserlar tahlil natijalarini qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘p yo‘nalgan bo‘lishi kerak. Ular yangi o‘zgartirishlarni bajarish uchun jangchiylik va innovatsiyalarni qo‘llashadi.

Refleksivlik va amaliy tahlil, ofitserlar o‘rtasida hamkorlik va ishbirligini oshirishga yordam beradi. Ular o‘z faoliyatlari va tahlil natijalari bilan boshqalarga o‘zlarining tajribalarini ulashishadi, bu esa jamoat xavfsizligi sohasidagi eng yaxshi amaliyotlarni tashkil etishga imkoniyat beradi.

Mustaqil o‘zlashtirishni qo‘llash amaliy tahlil va refleksivlik, ofitserlarni mustaqil o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘z vazifalari va xizmatlarining natijalarini o‘zlashtirish va yangilash orqali jamoat xavfsizligini oshirishga yordam beradilar.

Samaradorlik va amaliy tahlilning qo‘shimcha o‘zi, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarida faoliyatni samaradorligini olib keladi. Ular o‘z vazifalari va operatsiyalari ustida o‘zlarini ko‘zdan kechirib, yangi yechimlar qidirishda yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublkiasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublkiasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni e’lon qilingan. Ushbu farmonning 1-ilovasiga ko‘ra, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

-jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan, keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ijrosini ta’minlash;

-jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta’minlash, shu jumladan, bunday tajovuzlarning asosiy omillarini barvaqt oldini olish, aniqlash va bartaraf etish;

-ijtimoiy va millatlararo nizolarning profilaktikasini amalga oshirish;

-har qanday ko‘rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va chek qo‘yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o‘q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

-ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan, turizm obyektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

-transport infratuzilmasini transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olish;

-jinoyat sodir etishga moyil, ma’muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo‘lgan g‘oyalar ta’siriga tushib adashgan shaxslarni ijtimoiylashuvi, shu jumladan kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

-aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

-voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

-jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

-jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, shaxsiy tarkibining huquqiy va ijtimoiy himoyasi darajasini oshirish.” [2]

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonunida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga yuklatilgan vaziyafalarning mazmun-mohiyati keltirilgan. Unga ko‘ra, “Jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash” [3] asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Ushbu Qonun talablariga binoan, O‘zbekiston Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlari biriktirilgan hududlarida xizmat tashkillashtiradilar.

1920-yillarda Praga universitetida o‘qiyotganda G.Selye har qanday infektsiyaning boshlanishi stress ekanligiga e’tibor qaratdi (umumiy zaiflik, ishtahaning pasayishi, tana haroratining ko‘tarilishi). Praga universitetida ishlaganda,

u umumiy moslashish sindromi gipotezasini ishlab chiqdi, unga ko‘ra patogen omil evolyutsion rivojlangan moslashish mexanizmlarini qo‘zg‘atuvchi tetiklantiruvchi ta’sirga ega. Keyinchalik u stress tushunchasini shakllantirdi, fiziologik stress, moslashish kasalliklari kabi tushunchalarni taklif qildi, yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishida elektrolitlar va gormonlar buzilishining rolini aniqladi. [4]

G.Selyega umumiy moslashish sindromi haqida faraz qilish imkonini berdi, keyinchalik bu “Fiziologik stress” deb nomlandi. Stress ko‘plab kasalliklarning o‘ziga xos bo‘lmagan asosidir. [5]

Rossiyalik olimlardan bu sohadagi eng birinchi ilmiy ishlardan biri O.A.Chernikovaning [6] 1937-yilda bosilib chiqqan maqolasi bo‘lib, u sportchining startdan oldingi hissiy holatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Immun tizimi stressdan aziyat chekadi, odamlar stress ostida bo‘lganda, ular infeksiya qurboni bo‘lish ehtimoli ko‘proq, chunki jismoniy yoki ruhiy stress davrida immunitet hujayralarining ishlab chiqarilishi sezilarli darajada kamayadi.

Rossiyalik olim I.A.Motovilina “Профессиональный стресс в условиях в организационний измениний” nomli nomzodlik dissertasiyasida tashkiliy o‘zgarishlar sharoitida kasbiy stress muammosini har tomonlama tahlil qilish ustida ish tadqiqot olib borgan. [7] Rossiyalik olim G.V.Balasheva [8] tomonidan tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun zamonaviy sharoitda odamning turli tabiatdagi stress omillari bilan doimiy aloqada bo‘lishi to‘g‘risida ilmiy izalanishlar olib borgan. Rus harbiy olimi A.M.Jukov “Стресс жизни офицеров Вооруженных Сил сил Российский и его психопрофилактика” [9] nomli nomzodlik dissertatsiyasida zamonaviy hayotning kesiknlashib borayotgan bir vaqtda salbiy psixologik, uzoq muddatli stresslar yuzaga kelishi va uning oqibatida turli kasalliklar yuzaga kelishi to‘g‘risida ilmiy ish olib borgan.

Rossiyalik olim S.S.Chashmaritiyan “Стресс и фрустрация: возврастный аспекты” nomli nomzodlik dissertatsiyasida stress, umidsizlik, va boshqa xulq-atvor muammolarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini hamda odamlarning muloqot madaniyatini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlagan.

Rus olimi G.V.Balashova tomonidan “Исследование стресс-протекторний активности производного фенилфосфорлуксусной кислоты” nomli nomzodlik dissertatsiyasida zamoanaviy sharoitda turli tabiatdagi stress omillari bilan domiy aloqasida stressning roli haqida so‘z yuritgan.

Belorusiyalik olim S.M.Abramaova “Адаптации детей к шкльному стрессу при разлычных формах начального обучения” nomli nomzodlik dissertatsiyasida boshlang‘ich ta’limning turli shakllarida bolalarni maktab yoshi stresslariga moslashtirishni o‘rgangan. [10] A.O.Proxorov, B.G.Anan’ev, F.E.Vasil’yuklarning izlanishlari natijasida stressning shaxs faolligiga salbiy ta’sir etishini asoslab

berganlar. Tadqiqotchi J.Raximov “Favqulodda vaziyatlarning psixologik jihatlari” nomli maqolasida ta’kidlashicha, jabrlanuvchi va ularning yaqinlariga ruhiy yordam ko‘rsatishda ekstremal yo‘nalishdagi psixolog-mutaxassislar ish olib boradilar. Tushkunlikka tushib qolgan insonlarga atrofida sodir bo‘layotgan voqea hodisalarini anglab yetishi qiyin kechadi, ushbu voqealarni anglab olmaganidan nima bo‘layotganini so‘zlab bera olmaydi. [11]

Bugungi kunda ekstremal psixologiya fanida ektremal holatlarning inson psixologiyasiga ta’sir etuvchi xususiyatlari aniq ilmiy adabiyotlar yetarli bo‘lmasada ekstremal holatlar shaxs psixikasiga ta’sir etishda davom etaveradi. Buning oldini olish esa psixologlarning zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Shu o‘rinda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ham shunga o‘xshash ekstremal holatlar yuzaga kelishi mumkin.

“**Jamoat xavfsizligi** – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.”[12]

O.R.Avezov, A.Sh.To‘ymurodovlarning “Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasida ekstremal vaziyat tushunchasiga **“Ekstremal vaziyat** (lotincha. extremal, tanqidiy) – to‘satdan paydo bo‘luvchi, tahdid soluvchi shaxsning o‘zi va uning atorofidagilarning hayoti, shaxsiy tinchligi va faravonligiga tahdid soladigan, subyektiv ravishda paydo bo‘ladigan jarayon hisoblanadi deb ta’rif bergan. [13]

Aynan, A.R.Avezovning o‘zi psixologiya ta’lim yo‘nalishi atura yo‘nalishi talablari uchun darslikda ekstremal vaziyat va favqulodda vaziyat tushunchalariga shunday ta’rif bergan. [14]

“**Ekstremal vaziyat** - lot. Exstremus - oxirgi, inqirozli tushunchalardan olingan bo‘lib, unda alohida subyekt sifatidagi shaxs idrokiga, hayotiga, salomatligiga turli xil tahdidlar solinishi oqibatida salbiy ta’sirlar qurshovida qolib ketadi.

Favqulodda vaziyat (favqulodda holatlar) - biror voqea sodir bo‘lishi, xavfli tabiiy hodisa falokat, tabiiy va yoki inson qurbonlari, inson salomatligi yoki atrof-muhitga zarar olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa ofatlar, muhim moddiy zarar natijasida yuzaga kelgan ma’lum bir hududda vaziyat va inson hayoti sharaoitlarining buzilishidir”

Jamoat xavfsizligini ta’minlash vaqtida paydo bo‘luvchi ekstremal vaziyatlar va psixogen omillarga e’tibor qaratsak, hozirgi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlashda yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarga harbiy xizmatchilarni moslashtirish muammosiga alohida e’tibor, ularning davlat manfaatlari va

xavfsizligini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha olib borayotgan xizmatlarining o‘ziga xosligi, yuksak ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqadi.

Harbiy xizmat va jangovar xizmat - harbiy xizmatchilar faoliyatining boshqa turlaridan o‘zining oldiga qo‘ygan maqsadlariga ko‘ra farqlanadi.

-Oldida turgan vazifalarga ko‘ra - huquqbuzarlarni ushlash, hujjatlashtirish va boshqalar;

-amalga oshirlishi kerak bo‘lgan sharoitlariga ko‘ra - xavfning to‘satdan paydo bo‘lishi, keskinlik va dinamizm;

-amalga oshirilayotgan vositalarga ko‘ra - maxsus vositalar, qurollar, va texnikalar;

-unda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar - fuqarolar bilan muomalaga kirishishda yuzaga keladigan muammolar.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qiluvchi shartnoma asosidagi ofitser va serjantlar bilan bir qatorda muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlar ham xizmat olib boradilar. Muddatli harbiy xizmat hamda o‘qish davri yangi sharoitlarga adaptatsiya qilishga majbur qiladigan psixoemotsional omildir. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxsiyat rivojlanishining muhim, lekin qiyin ekstremal bosqichi hisoblanadi. Rossiyalik olim A.E.Lichkoning fikriga ko‘ra, “Harbiy xizmatchi xarakteri aksentatsiyasi (lotincha aksentus-stress) paydo bo‘lganda irodaviy-hissiy, yoki neyropsixik beqarorlik, psixofiziologik holatlarni va o‘z-o‘zini boshqarishning rivojlanmaganligi, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilingan harbiy xizmatchilarning xatti-harakatlari va faoliyatida stresslar ta’sirini tartibga solish mexanizmlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.” deyiladi. [15] Olimning fikriga qo‘shilgan holda jamoat xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchilar ruhan tayyor bo‘lsa, qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarilishiga katta yordam beradi. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Andijon shahrida bo‘lib o‘tgan (shaxsan o‘zim ishtirok etganman) “Yoshlar forumida” mashxur sportchilar, fan va san’at arboblari o‘zlarining ijod mahsullari bilan qatnashishlarini eshitgan yoshlar va o‘smirlar bilan birgalikda yaqin atrofda yashovchi aholining haddan ziyod to‘planishi natijasida jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilingan harbiy xizmatchi va xodimlarga ancha qiyinchilik tug‘dirdi. Chunki, yig‘ilganlarning barchasi sahna tomon harakatlanar edi, lekin tadbirni biroz tomosha qilib, keyin qaytib ketmoqchi bo‘lganlar ancha qiynalib qolishdi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun jalb qilingan harbiy xizmatchilar oldida bir tomondan saxna atrofida xavfsizlikni ta’minlash turgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan orqaga qayta olmay qiynalib, minglab kishilar orasida qolib ketgan fuqarolarga yordam berish kerak bo‘lar edi. Ruhiy barqaror bo‘lgan harbiy xizmatchilar yuzaga kelgan vaziyatdan o‘iga xos tarzda chiqib, yordam zarur

bo‘lganlarga yordam berishga erishishdi, ammo ba’zi birlariga psixologik yordam kerak bo‘lib qoldi.

Rossiyalik psixolog, Psixologiya fanlari doktori, professor Vladimir Ivanovich Lebedov va buyuk kosmonavt Yuriy Alekseevich Gagarinlarning aytishicha, “Moslashish insonnning aqliy faoliyat darajasi, atrof-muhit sharoitlariga mos keluvchi harakatlarni muhim neyropsik stressiz muvaffaqqiyatli faoliyatini belgilaydigan aloqalar tizimi hisoblanadi.” [16]

Harbiy xizmatchi tanasining moslashuvchan mexanizmi g‘ayrioddiy stressli sharoitlarga tushib qolishi sabab, hozirgi kunda mavjud stressli, ekstremal vaziyat haqidagi fikrlarni ko‘rib chiqishimiz lozim.

“Bugungi kunda xizmat va jangovar faoliyatning sharoitlari axborot psixologik stresslarning kuchayishi yuqori neyropsik stress hamda tananing funksional zaxiralarini ko‘pligi bilan izohlanadi”. [17]

Harbiy xizmatchilar hayotining yuz berayotgan voqea-hodisalar va ekstremal holatlarga bo‘lgan tabiatining xilma-xilligiga qaramasdan, kasbiy faoliyat bilan bir qatorda umumiy xususiyatlarga bo‘linadi:

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda ekstremal vaziyatlarga alohida tayyorgarlikni talab qiladigan kutilmagan holatlar;

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda odatiy harakatlardan keskin chiqish ko‘nikmasining rivojlanganligi;

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda boshlangan vaziyatni zudlik bilan hal qilish zarurligi;

-xizmat olib borilayotgan hududda xizmat faoliyati shartlari, elementlari, aloqalari va munosabatlarining o‘zgarishi;

-xizmat jarayonida progressiv o‘zgarishlar jarayonlarining murakkablashishi;

-xizmat vaqtida dolzarb holatning beqarorlik fazasiga o‘tishi, tanqidiyligi;

-xizmat olib borish jarayonidagi o‘zgarishlar natijasida xavf va tahdidlarning paydo bo‘lishi (xizmat faoliyatining buzilishi, bitta holatga ovora bo‘lib, hududdagi boshqa joylarning ochiq qolib ketishi);

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda oldindan aytib bo‘lmaydigan va yangilik tufayli bir qator o‘zgarishlarning noaniqligining ko‘pligi;

-jamoat xafvsizligini ta’minlashda ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilar uchun ruhiy zo‘riqishning kuchayishi.

Ekstremal vaziyatlar inson ruhiyati faoliyati, sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfli jarayondir.

Jamoat xafvsizligini ta’minlashda faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilarda namoyon bo‘luvchi ekstremal holatlar quyidagi mezonlarga ko‘ra tasniflanadi:

Kutilmaganlik darajasi bo‘yicha; to‘satdan va kutilgan. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, vaziyatlarni oldindan bilish qiyinroq, tabiiy ofatlarni oldindan aytish osonroq.

Ekstremal holatlarning yana bir tasnifi mavjud:

-Tabiiy ofatlar: sellar, toshqinlar, suv omborlarining ochilib ketishi, kanalizatsiya tizimlarining buzilishi, keng tarqalgan epidemiyalarning tarqalishi inson xatti-harakatlarining xususiyatlariga ta’siri;

-Texnogen ofatlar: atom stansiyalaridagi avariyalar, gaz portlashlari, avia va avto halokatlari inson psixologiyasiga ta’siri;

-Ijtimoiy ofatlar: harbiy harakatlar, millatlararo nizolar, qaroqchilik hujumi, terroristik hujumlar, garovga olish va boshqalarning psixologik xususiyatlarga ta’siri;

-Jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik: zo‘ravonlikning psixologik natijalari;

-Stigma ruhiy va ijtimoiy zo‘ravonlik elementi sifatida. Stigmatizatsiyaning psixologik oqibatlari. [18]

Xulosa qilib aytganda, ekstremal vaziyatlar insonlar faoliyat olib borayotgan barcha sohalarda paydo bo‘lishi mumkin, jamoat xavfsizligini ta’minlash chog‘ida ham juda ko‘p ekstremal vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar birinchi navbatda jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun jalb qilingan harbiy xizmatchilar xizmat vazifasini bajarishi chog‘ida duch keladigan muammolarga qaratilgan.

Ekstremal vaziyatga duch kelgan jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun jalb qilingan harbiy xizmatchi, ekstremal vaziyatdan qanday muvaffaqiyatli chiqish bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak. Harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida jismoniy va ruhiy salomatligini saqlab qolish qobiliyati juda muhim omil hisoblanadi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning barchasi eng avvalo inson shaxsi va uning manfaatlarini himoya qilishga, qolaversa, har bir shaxsning ijtimoiy-psixologik taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.“Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 2021 йил 15 декабрь, ЎРҚ-737-сон**,** 3-моддаси.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-27 сонли фармони. 2021 йил 29 ноябрь. 1-илова. 1-боб Умумий қоидалар. 3-банди.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрь кунидаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги ЎРҚ 647 сонли Қонуни, 3-моддаси.

4. E.V.Yakovlev, O.V.Leontiev E.N.Gnevishev. «Stress Psixologiyasi» Qo‘llanma. Sankt-Peterburg. 2020. ст 8.

5. G.Selye. Moslashuv sindromi haqidagi esselar / G. Sel’ye. Moskva: Medgiz, 19b.-254p.

6. О.АЧирникова. Стресс и фрустрация: возрастные аспекты. диссертации, кандидат психологических наук.

7. Мотовилина.И.А. Кандидатский дисертация. 2003 г. Профессиональный стресс в условиях организационных изменений.

8. Балашова.Г.В. Исследование стресс-протекторной активности производного фенилфосфорилуксусной кислоты. Саранск. 2009 г.

9. Жуков Андрей Михайлович. Автореферат диссертации по теме “Стресс жизни офицеров Вооруженных Сил Российской Федерации и его психопрофилактика” Москва – 2004.

10. https://rep.vsu.by/handle/123456789/23589.

11. Ж.Рахимова “Фавқулодда вазиятларнинг психологик жиҳатлари” номли мақоласи.Тошкент. 2000 йил. 2 бет.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони. *2021 йил 29 ноябрь*. 1-илова. 1-боб умумий қоидалар. 1-банди.

13. O.R.Avezov, A.Sh.To‘ymurodovlarning “Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasi, "Science and Education" Scientific Journal. 718-b.

14. О.Р. Авезов “Экстремал вазиятлар психологияси” магистратура босқичи талабалари учун дарслик. Бухоро 2020. 10 бет.

15. А.Е.Личко. “Психопатии и акцентуации характера у подростков”.2010 г., 8-с.

16. “Психология и космос” / Ю. Гагарин, В. Лебедев. – 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 1981. – 191 с.

17. https:fundamental-research.ru/ru/article view?id=31818.

18. https:.studyboom.ru.uz. Понятие экстремальной ситуации. Психолгические последствия.

BOLOG‘AT YOSHIGA YETMAGAN SHAXSLAR TARBIYASIDA PSIXOLOGIK BILIMLAR VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

G‘ozibekov To‘lqin Habibullaevich
IIV Malaka oshirish institute Maxsus kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti padpolkovnik

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv sharoitida bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning oldini olish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan, axboriy-psixologik xavfsizlik nuqtai nazaridan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar borasida mulohaza bilan bog‘liq faoliyati ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: axboriy-psixologiya va xavfsizlik, bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar siyosati, internet, virtual olam, ijtimoiy tarmoqlar, manipulyatsiya, assertivlik, mafkuraviy immunitet.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya va texnika jaddal rivojlanayotgan davrda farzandlarimizni sog‘-omon yurishlarini ularni jismonan sog‘lom va ruxat tetik bo‘lishlarini ta’minlashning o‘zigina yetarli bo‘lmay qoldi. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bu davrda bizni bolalarimiz zamonga xos va mos yuksak ma’rifatli, bunyodkor, shijoatli avlod qilib tarbiyalash va tayyorlash zarurati jamiyat hamda ta’lim muassasalari oldiga katta masulyat talab etadi. Eng avvalo, Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzalarida ta’kidlaganlaridek: “Biz oilani hayot davomiyligini ta’minlaydigan, buyuk kelajak avlod taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. ”. Zero, bolaning kelajagi ushbu maskanda qanday tarbiya olganligi, uning tarbiyasida ota-onaning o‘z burch va vazifalariga qanday yondashganiga bog‘liqdir. Oilada inson, eng avvalo, sog‘-omon voyaga yetadi, yaxshi xulq namunalarini o‘zlashtiradi, o‘zida maqsadga muvofiq shaxslararo munosabatlar ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bugungi kunda fuqarolar axborot olish manbai sifatida murojaat qiladigan, hayotimizning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan internet xususida ba’zan kishilar bir yoqlama fikr yuritayotganini kuzatamiz. Ayrimlar internetning ijobiy tomonlari, imkoniyatlarini haddan tashqari yoqlab, ashaddiy tarafdor sifatida uni qo‘llab-quvvatlasalar, boshqalar esa foydalanish jarayonida inson oladigan negativ, salbiy ta’sirlarga ko‘proq diqqat e’tibor bilan yondashmoqda.

Internetni xavfli manba deb oladigan bo‘lsak, u jinoyatchining aynan manbayi sifatida namoyon bo‘lsa, o‘zini anglamagan huquqiy ta’limga ega bo‘lmagan bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar undan insonlar hayotiga zararli omillarni egallasa nima bo‘ladi?. Huquqiy bilimga ega bo‘lgan o‘z-o‘zligini anglagan va internetdan to‘g‘ri foydalanishni bilgan bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar esa odamlarga xizmat qilish maqsadida foydalanadi.

Jaxon internetning rivojlanayotgan davrda uning funksiyalari, vazifalari, imkoniyatlarini to‘g‘ri anglash va undan oqilona va to‘g‘ri muvofiq foydalanishni har bir voyaga yetmagan shaxslar e’tiborli bo‘lishini xoxlar edik.

Ayrim bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslarning internetga tarmoqlariga turli o‘yinlarga mukkasidan ketishini kun bo‘yi undan maqsadsiz foydalanishi aynan sog‘liqqa katta zarar ekanligi dunyo yangiliklarida va Sog‘liqni saqlash tomonidan berilgan ko‘rsatuvlardan xulosa qilmayotganligi aynan tashvishli holdir. Sog‘liqni saqlash tizimidan olingan ma’lumotga ko‘ra bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar kuniga 6 soatdan ortiq internet tarmoqlaridan foydalanishi inson uchun katta xavf tug‘dirishini bildirgan.

Shifokorlarning tavsiyalariga ko‘ra, birinchi sinf o‘quvchilari kuniga 10 daqiqa, ikkinchi-beshinchi sinf o‘quvchilari 15 daqiqagacha kompyuterda ishlashlari mumkin. O‘rta umumta’lim maktablarining 6-9-sinf o‘quvchilari 20–25 daqiqagacha, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari talabalari kuniga yarim soatdan bir soatgacha kompyuter qarshisida o‘tirishlari tavsiya etiladi. Internetning imkoniyatlari faqat salbiy jihatlarda aks etibgina qolmay, balki uning o‘ziga xos ijobiy tomonlari ham mavjud. Internetning ma’lumotga darhol ega bo‘lish, axborot va ma’lumotlarning turfa xilligi, shaxsning o‘zini namoyon qilishga yordam beruvchi muloqot imkoniyatining mavjudligi, ta’lim borasidagi imkoniyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Internetning ijobiy tomonlarini inkor etmagan holda, uning eng kam sarf-xarajat bilan bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar orasida samarali destruktiv faoliyat olib borish imkoniyati mavjudligini ham ta’kidlash lozim. Bugungi kunda bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar imiz har kuni turli ijtimoiy tarmoqlar (“Facebook”, “MySpace”, “Twitter”, “Habbo Hotel”, “Friendster”, “Tagged.com”, “Instagram”, “WhatsApp”, “GAP”, “Linkedin”, “Odnoklassniki”, “Moy mir”, “Jivoy jurnal”, “V kontakte”, “V krugu druzey”, “Mening olamim”, “Sinfdosh” va h.k.lar)da milliardlab insonlar bir-birlari bilan virtual muloqotga kirishmoqdalar, turli saytlarga kirmoqdalar, “YouTube” singari videoxostinglarga tashrif buyurmoqdalar, har xil bloglarda o‘z fikrlarini bayon etib, boshqalarning mulohazalari bilan tanishmoqdalar.

Bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar buzg‘unchi, destruktiv g‘oyalarga qarshi hali mafkuraviy immunitet to‘la shakllanmaganligini, ularning eshitgan yoki o‘qigan ma’lumotiga juda tez ishonishini nazarda tutsak, bu ancha e’tibor qaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axboriy-psixologik xavfsizlik borasidagi bunday tahdidlarga qarshi kurashishda, eng avvalo, huquqiy asosni mustahkamlash lozim, deb hisoblaymiz. Bu boradagi tahdidlar doim ham mamlakat ichkarisidan chiqavermasligini, ularni chetdan turib tashkillash-tirishga urinish hollari mavjudligini ham har birimiz doima yodda tutushimiz zarur bo‘ladi.

Bola tarbiyasida ota-onaning ro‘li beqiyosligini, davlat dasturini amalga oshirishning barcha ustuvor vazifalaridan biri sifatida bolalarni ularning ongini buzuvchi, jarohatlovchi axborot ta’siridan himoya qilish, ommaviy axborot manbalarida shafqatsizlik va zo‘ravonlikning targ‘ib qilinishiga yo‘l qo‘ymaslikning

ta’sirchan tashkiliy-huquqiy mexanizmla-rini nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqilganligini unitmaslik kerak.

Bugungikunda psixologlar tomonidan “axboriy-qo‘poruvchi omil” degan tushuncha iste’molga kiritilgan. Haqiqatan ham inter-netdan tarqatilayotgan qo‘poruvchilik ruhidagi axborotlar ba’zan harbiy harakatlarni amalga oshirgandan ham ko‘proq samara berishi mumkin. Mazkur axborotlarning shaxsga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kishilarning axloqiy-psixologik hola-tini, dunyoqarashi, siyosiy nuqtai nazari va e’tiqodini maqsadli ravishda o‘zgartirishga nisbatan qaratilgan axboriy bosim, xuruj;
- noto‘liq, ataylab buzilgan, noto‘g‘ri ma’-lumot va axborotlarning tarqatilishi;
- to‘g‘ri ma’lumotning kishilar tomonidan noto‘g‘ri idrok etilishini ta’minlashga intilish.

Tashqi muhit va shaxsning ichki dunyosi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, qaysidir ma’noda kishi xulq-atvori xarakterini belgilovchi asosiy omildir. O‘zini o‘zi anglash jarayonida psixologik yo‘naltirilishga muhtoj kishi uchun yonida uni taniydigan, unga maslahat beradigan, uning uchun to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan insonning bo‘lishi muhimdir.

Inson o‘zini o‘zi anglashda u ta’lim olish, dunyoqarashini kengaytirish, turli ma’lumot va materiallarni qabul qilish, yangi hayotiy tajribani o‘zlashtirish qobiliyatini namoyon qiladi, oxir-oqibatda unda insonga xos sifatlar takomillashtirilib boriladi. Axboriy ta’sirning foyda yoki zarari uning o‘zi emas, balki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan natijasi bilan tavsiflanadi. Zero, axboriy ta’sir ohiyati uning muayyan jarayonlarni boshqarishga nisbatan imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, nazarimizda, bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslarni internetning salbiy ta’siridan himoyalash uchun bir qator ishlarni amalga oshirish zarur. Eng avvalo, talim-tarbiyaga va me’yorga amal qilish kerak, ya’ni bolaning kompyuter oldida o‘tkazadigan vaqtini belgilab, chegaralab berish lozim. Shu bilan badiiy, ilmiy kitoblarni o‘qish, musiqa, sport bilan shug‘ullanishga undash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Internetning ma’lum bir saytlari va portallariga kirishni chegaralovchi dasturlardan foydalanish ham ma’qul. Bu ishlarni amalga oshirish orqali internetning o‘smirlar psixikasiga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirini kamaytirish mumkin. Olingan ma’lumotlarga qaraganda hozir dunyo bo‘yicha insonlar orasida (katta yoshdagilar orasida ham, bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar , o‘smirlar, bolalar orasida ham) tajovuzkorlik ko‘rsatkichi tobora oshib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri esa agressiyani targ‘ib qiluvchi adabiyotlar, teleradio-, audio, video va multimedia

mahsulotlari, internetdagi materiallar, kompyuter o‘yinlarining ko‘payib borayotganidir.

Bu esa insonlarning psixik va psixoemotsional holatiga bosim qilish, kishilarni zimdan boshqarish, ularga axboriy-psixologik ta’sir o‘tkazishning ta’sirchan vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Odamlarning ong osti faoliyatiga axboriy ta’sir o‘tkazish (kimyoviy preparatlar, lazer-nur majmualari, yuqori yoki quyi chastotali to‘lqinlarni hosil qiluvchi generatorlar yordamida ko‘rsatiladigan psixotron ta’sirniku, qo‘ya turaylik) ularda turli psixosomatik kasalliklarning ri-vojlanishiga, tanada fiziologik va organik buzilishlarning kuzatilishiga, shuningdek, hatto o‘limgacha olib keladigan vaziyatlarni yaratishga sabab bo‘lishi mumkin.

Internet tarmog‘idagi “zombi”lar, Alisher Navoiy bobomiz ta’biri bilan aytganda, “manqurtlar” paydo bo‘lmasligi uchun ayni holat, ya’ni shaxsga boshqalarning salbiy ta’sir o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida axborot iste’moli madaniyati, mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish va rivojlantirish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Misol tariqasida internet tarmoqlari orqali sodir etilayotgan jinoyatlar, tanishuv va sevgi munosabatlari orqali salbiy holatlarni keltirib chiqarishlarni ko‘rishimiz mukin. Internet orqali sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyati 15–30 yosh oralig‘idagi bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar ekanligi achinarli holdir.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiyani qo‘l aloq telefonlari va internetdan to‘g‘ri foydalanish haqida bot-bot gapirilmoqda lekin, aksariyat ota-onalar farzandlariga ta’lib berish, farzandag kitob olib berish o‘rniga zamonaviy AYFON PRO MAKS va boshqa oxirgi modelli 15-20 mln. So‘mlik telefonlar olib bermoqda. Bu esa farzandlarimiz ogi va tarbiyasiga salbiy tasir ko‘rsatishini bilmaydi deb o‘ylaysizmi. Albbata bilishadi, lekin kelajak avlodni tarbiyasi birinchi o‘rinda turishini bilmaydigan ko‘rinadi.

Har-bir ota va ona farzandlarini yosh davrlari bilan bog‘liq shaxs inqiroz holatlari mavjudligini ota-onalar inobatga olishlari, mazkur holatlar o‘smirlik davrida alohida e’tibor talab qilishini bilishlari zarur. Chunki inqiroz davrida inson biron-bir yaqin kishisining maslahati, ma’naviy qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Samarov R.S. Axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash mexanizmi. Toshkent 2017.

4. Muminov A. O‘zbekiston axborotlashgan jamiyat sari. Toshkent. “Turon zamin ziyo” 2017.

3. F.Mo‘minov, Sh.Barotov va boshq. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. – T.: JIDU, 2013. – 196 b.

4. Shermuxamedov S., Ochildiev A. Madaniyat va sivilizatsiya.- 2000.-B.37

HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING MILLIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA’LIM ISHIGA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Ismailov Dosbol Tileuberdievich,
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti “Taktika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining milliy ta’limini takomillashtirish ta’lim-tarbiya ishlariga texnologik yondashishga asoslanganligi ta’kidlangan.

Tayanch so‘zlar: renessans, rinascimento, temuriylar renessansi, tizimli metod, tizimli taxlil usuli, III-renesans, ma’rifiy renessans, an’anaviy yondashuv, zamonaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv.

Аннотация. В данной статье подчёркнуто, что совершенствование национального воспитания курсантов высших военных образовательных учреждений основано на технологическом подходе к воспитательной работе.

Ключевые слова: ренессанс, ринасименто, тимуридский ренессанс, системный метод, метод системного анализа, III-ренессанс, образовательный ренессанс, традиционный подход, современный подход, системный подход, технологический подход.

Yangi O‘zbekiston – bu ibora Millat Sardori ilgari surgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g‘oyadir. Bu g‘oya zamirida:

bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning “Uchinchi Renessans” poydevorini qo‘yishdek ezgu maqsad-muddaolari;

ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlariga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari;

uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o‘qish va izlanishga da’vat o‘z mujassamini topgan.

Yangi O‘zbekiston me’mori va tashabbuskori hisoblanuvchi Prezidentimiz qayd etganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning a sriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir”.

Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “yangi” degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Shu o‘rinda Harakatlar Strategiyasida Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalar strategik maqsad qilib qo‘yilgan.

“Renessans” so‘zi – fransuzcha “renaissonce”, italyancha – “rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoq, qayta tirilish, uyg‘onish – degan ma’nolarni anglatadi.

Tarixdan bizga shu ma’lumot ma’lumki, Ulug‘ ajdodlarimiz tarixda bir emas, ikkita Ma’rifiy Renessansga asos solganlar.

Birinchi Sharq Uyg‘onish davri – IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan “Ma’rifiy Renessans” hisoblanadi.

Birinchi Ma’rifiy Uyg‘onish davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqqan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy, tibbiyot sohasida Abu Ali ibn Sino, tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy, she’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, rassomchilikda Kamoliddin Behzod barakali ijod qilgan. Ularning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz hissa qo‘shgan.

Tarixiy manbalarda “Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ mutafakkirlar butun musulmon olamiga dong taratgan.

Ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri – XIV-XVI asrlardagi “Temuriylar Renessansi”dir. Bunda Amir Temur bunyod etgan ulug‘ saltanatning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Sohibqiron bobomiz ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san’atshunoslar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Bu ma’naviy-ma’rifiy siyosat natijasida Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi.

Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyilgan.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar.

Shu borada shu ta’kidlab o‘tish joyizki, harbiy oliy ta’lim muassasalarida o‘quv fanlarining turlari, mashg‘ulot mavzulari, kursantlarning bilimlari darajasi va qiziqishlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlar o‘tish vaqtida pedagogik texnologiyalarning yuqori samara beruvchi turlarini qo‘llash o‘quv jarayonini jadallashtirish, uning sifatini oshirishga yordam beradi.

Harbiy didaktika harbiy xizmatchilar ta’limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o‘rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi:

ta’limiy (harbiy xizmatchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish);

tarbiyaviy (harbiy xizmatchilarda o‘z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy sifatlarni tarbiyalash);

rivojlantiruvchi (harbiy xizmatchi shaxsini komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni xal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish) va ruhiy tayyorlash (harbiy xizmatchilarda xizmat vazifalarini bajarishga va jangovar vaziyatda muvaffaqiyatli xarakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish).

Bo‘lg‘usi ofitserlarga ta’lim berish jarayonida kursantlar harbiy xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma’naviy-ahloqiy va jangovar sifatlari, hissiy-irodaviy turg‘unligi, jangovar holatlarda aniq va ishonchli xarakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi.

Pedagogika fani va ta’lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo‘llaniladi. Bu davrda an’anaviy yondashuv bilan bir qatorda hozirgi kunda ta’limga zamonaviy yondashuvga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’limga tizimli, texnologik, tanqidiy, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuvlar zamonaviy yondashuvga misol bo‘la oladi.

An’anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati, o‘qituvchi ma’lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, ta’lim oluvchilar esa, bu bilimni xotirasida saqlaydi. “Bilim” tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma’nosida tushuniladi. Ta’lim

oluvchida bilim bor-yo‘qligi imtixonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani, asosan, esda qoldirishning natijasidir, u ko‘pincha yuzaki bo‘lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Ta’lim oluvchi savol berilganda eslashi, ba’zan eslay olmasligi ham mumkin.

An’anaviy ta’lim mamlakatimiz o‘quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari fanda ishlab chiqilgan, katta tajriba to‘plangan. Davlatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar, tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari – ta’lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta’limda boshqa yangi yondashuvlarni qo‘llash yo‘li bilan hal etish lozim.

Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo‘nalishi sifatida universal tavsifga ega bo‘lib, pedagogikada keng qo‘llaniladi. Ta’lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim.

“Tizimli yondashuv” tushunchasi ko‘pincha “tizimli metod”, “tizimli tahlil” usuli tushunchalari bilan uzviy bog‘lik holda qo‘llaniladi. Bunday tizimli tahlil usullari ham obyektni yaxlit tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv, ayniqsa, tuzilishi va bajariladigan vazifasiga ko‘ra, tahlilga juda yakin. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki xodisa hisoblanadi.

U, *birinchidan,* obyektning turli qismlarini;

ikkinchidan, qismlarning o‘zaro bog‘likligini;

uchinchidan, tizimning chegaralarini va to‘rtinchidan, tizimning atrof-muhit bilan bog‘likligi, aloqadorligini nazarda tutadi.

Texnologik yondashuv. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida yuzlab texnologik loyihalar (jarayonlar) yaratilgan. Ular, agar texnik hujjat talablariga amal qilinsa, ishni kim va qayerda bajarganidan qat’iy nazar, maxsulot sifati va natijasi kafolatlanadi.

Ta’lim ishiga texnologik yondashuv esa:

o‘qish-o‘qitish jarayonini uzaro uzviy bog‘liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo‘lishni;

ta’limdan mo‘ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan xarakatlarni muvofiqlashtirishni, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yoshlarga oid davlat siyosati Dasturi” yangiliklari. – T., 2017. – 7 fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – T., 1992. – 2-son. – 80-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2016. – 37-son. – 426-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – T., 2023. – 09/23/267/0438-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

HARBIY PEDAGOGIK JARAYONNING XUSUSIYATLARI PEDAGOGIKANING ASOSIY MAQSADI SIFATIDA

Tavakalov Alisher Akbaraliyevich,
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchi-dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogikaning asosiy maqsadi va ideallari. Harbiy pedagogik jarayonning xususiyatlari yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni harbiy xizmat jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga o‘rgata oladigan yagona fan ekanligini isbotlashdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, O‘zbekiston Respublika Konstitutsiyasi, normativ hujjat, harbiy, himoya, harbiy tayyorgarlik, harbiy ta’lim, Qurolli Kuchlarning tuzilishi, xavfsizlik, davlat, burch, mudofaa.

Аннотация. В данной статье цель и миссия предмета начальной допризывной подготовки заключается в том, чтобы доказать, что она является единственной наукой, способной воспитать в нашей молодежи патриотический дух и научить ее преодолевать трудности, с которыми она может столкнуться на военной службе.

Ключевые слова: допризывная подготовка, Конституция Республики Узбекистан, нормативный документ, военное, оборона, военная подготовка, военное образование, структура Вооруженных Сил, безопасность, государственное, долг, оборона.

Abstract. The objective of the science of primary preparation until the call in this article is to prove that the education of our youth in the spirit of patriotism is the only science that can teach them to overcome the difficulties that they may face in the process of military service.

Key words: preliminary preparation until the call, Constitution Republic of Uzbekistan, regulatory document, military, structure of the Armed Forces, protection, military training, military education, security, state, duty, defense.

Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Harbiy akademiyalar, qo‘shin turlari bo‘yicha harbiy o‘quv yurtlari ochilganigi fikrimizga yorqin dalildir. Davlat chegaralarini o‘z qo‘shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo‘riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi. Haqiqiy mustaqil davlat shunday ish tutadi, o‘z mudofaasini o‘zgalar qo‘liga topshirib qo‘ymaydi.

Xalqning umumiy harbiy ruhini ko‘tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san’at sirlarini harbiy ta’lim muassasalarida o‘qitish ham samarali omillardan hisoblanadi. Har bir chaqiriqqacha bo‘lgan yoshni tarbiyalar ekanmiz, avvalambor, biz ushbu yoshlarning siyosiy ongini boyitib borishimiz kerak bo‘ladi. Bu borada bizning davlatimiz tarafidan chiqarilayotgan qonun va qoidalarga asoslanamiz. O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonun va qoidalari mavjud bo‘lib, ushbu qonun-qoidalarga asosan me’yoriy hujjatlar yuritilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonun, O‘zbekiston Respublikasining mudofaa to‘g‘risidagi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari nizom va qonunlarini asoslar sifatida olsak bo‘ladi. Bulardan tashqari, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiyalashda umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitilishi asosiy omillardan sanaladi. Mudofaa Vazirligining oliy harbiy ta’lim muassasalariga kirib ta’lim olish va Qurolli Kuchlarimizning barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmatga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlarimiz umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik jarayonida kerakli ta’lim-tarbiyani oladilar va o‘zlarini qiziqtirgan ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Bunday ta’lim-tarbiya jarayonini umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasi bilan harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari hamkorlikda amalga oshirishlari shart. Shunday ekan, o‘z-o‘zidan bunday dolzarb vazifalarni bajarishda pedagogika universiteti qoshidagi harbiy fakultetlar jamoasining harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘z majburiyatlari va vazifalarini sifatli bajarishlari alohida e’tiborga molikdir.

Bu borada, ayniqsa, chaqiruvga qadar harbiy ta’limni tashkil qilish va harbiy pedagogika fanini o‘qitilishida, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar

strategiyasini tub mohiyatini chuqur anglagan holda, eng zamonaviy o‘qitish uslublaridan va ta’lim texnika vositalarini eng so‘ngi ishlab chiqilgan rusumlaridan foydalanish, shuningdek, tez o‘zgarib borayotgan zamonamizning yangi-yangi talablarini nazardan chetda qoldirmasligimiz shart bo‘ladi.

Harbiy pedagogika – harbiy pedagogik jarayonning qonuniyatlarini, harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni tayyorlash va tarbiyalash, ularni jangovar harakatlar va harbiy kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli o‘tkazishga tayyorlashni o‘rganadigan pedagogika fanining bir tarmog‘i. Harbiy pedagogikaning o‘ziga xosligi shundan iboratki, harbiy xizmatchilar oliy o‘quv yurtlarida xizmat qilish yoki o‘qishning birinchi kunlaridan boshlab nafaqat harbiy mutaxassis sifatida o‘qiydilar va tayyorlaydilar, balki haqiqiy ta’lim, xizmat va jangovar vazifalarni hal qila boshlaydilar. Shunga ko‘ra, harbiy-pedagogik ta’sirlar va o‘zaro ta’sirlar eng bevosita amaliy, xizmat yo‘nalishiga ega.

Deyarli har bir harbiy xizmatchi darhol harbiy jamoaning faoliyatiga qo‘shiladi, harbiy kasbiy faoliyatni boshlaydi va o‘qish sifati, o‘z xatti-harakati, intizomi va belgilangan vazifalarni hal qilish uchun to‘liq shaxsiy (nafaqat ma’naviy, balki huquqiy) javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, pedagogik ta’sir va o‘zaro ta’sir subyektlari asosan 18 yoshdan oshgan, ma’lum darajada o‘ziga xos qarashlari, dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlariga ega bo‘lgan juda kattalardir.

Shuning uchun ham harbiy pedagogika boshqa pedagogik sohalardan yuqori axloqiy-psixologik fazilatlarni, tayyorgarligini, qobiliyatini va tayyorgarligini talab qiladigan muhim vazifalarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqiy kasbiy faoliyatga bevosita ta’lim, tarbiya obyektlarini (subyektlarini) kiritish bilan ajralib turadi. murakkab vaziyatlarda, shu jumladan, hayot va sog‘liq uchun xavf ostida harakat qilish.

Tuzilish nuqtai nazaridan harbiy pedagogika fan sifatida harbiy pedagogika metodologiyasini, harbiy pedagogika tarixini, kadrlar tayyorlash nazariyasini (harbiy didaktika), harbiy xizmatchilarni tarbiyalash nazariyasini, oliy harbiy maktablar pedagogikasini, harbiy pedagogika fanini o‘z ichiga oladi jangovar tayyorgarlikning shaxsiy usullari va boshqa bir qator bo‘limlar.

Gumanitar va ijtimoiy fanlardan olingan ma’lumotlar bizga ta’sirlar va o‘zaro ta’sirlarning obyekti va subyekti sifatida shaxs va jamoa haqida yaxlit tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi. Insonning biologik mohiyati haqidagi ma’lumotlar tabiiy fanlarni o‘rganish orqali beriladi. Ilmiy-texnikaviy va harbiy ilmiy bilimlardan amaliy foydalanish harbiy pedagogik jarayon va uning elementlarini modellashtirish imkoniyatini beradi.

Harbiy pedagogika muayyan toifalar bilan ishlaydi asosiylari – harbiy-pedagogik jarayon – qo‘mondonlar, shtablar, ta’lim tuzilmalari mutaxassislari, jamoat

tashkilotlari askarlari va harbiy jamoalarini o‘z maqsadiga muvofiq harakat qilishga o‘rgatish uchun maqsadli, tashkil etilgan ta’lim faoliyati tizimidir.

Harbiy pedagogika muammolarini hal etish, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudratini mustahkamlash, komandirlar (boshliqlar) o‘rtasida zamonaviy pedagogik tafakkurni rivojlantirish manfaatlari yo‘lida inson omilini faollashtirish yo‘llarini izlash bilan bog‘liq, harbiy jamoalarda ijodiy, hamjihatlik, o‘zaro qat’iylik va funksional vazifalarni sifatli bajarish uchun shaxsiy javobgarlik muhitini yaratish, qonun ustuvorligi, huquq-tartibot va harbiy intizom buzilishiga qarshi kurashish.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ofitserlarni harbiy psixologiya va pedagogika bilimlari bilan qurollantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Uning asosiy elementlari: harbiy ta’lim muassasalarida psixologiya va pedagogika fanlarini o‘rganish; komandirlar tayyorlash tizimidagi sinflar, birinchi navbatda, davlat va davlat tayyorlashda; ofitserlar bilan maxsus o‘tkaziladigan uslubiy yig‘ilishlar va mashg‘ulotlar; harbiy-pedagogik jarayonni tashkil etishda ofitserlarning amaliy ishlarini, darslarni tekshirish va nazorat qilishda qo‘l ostidagilar bilan muloqot qilish tajribasini tahlil qilish; qo‘l ostidagi xodimlarni o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or tajribani ommalashtirish bo‘yicha ofitserlarning tajriba almashishi; psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, o‘quv va tarbiya ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha ofitserlarning mustaqil faoliyati; ofitserlarning kasbiy qayta tayyorlash, o‘quv markazlari va kurslarida malaka oshirish jarayonida psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish.

Pedagogik, boshqa ma’naviy qadriyatlar singari, jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlarga bog‘liq bo‘lib, ular, asosan, pedagogika va ta’lim amaliyotining rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Muayyan tizim sifatida harbiy pedagogik jarayonning xususiyatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega:

5. Клейберг Ю. А., Орлова Е. А., Орлова Ю. Л. Ювенальная юридическая психология. Учебник для магистров. — М.: Юстиция. 2017. 264 с.

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MILLIY GVARDIYA XODIMLARI BILAN O‘ZARO HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHDA AMALIY PSIXOLOGIYANING ROLI VA O‘RNI

Xasilov Xayrulla Xabibullayevich
IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedra katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada: Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan huquqbuzarlik faktlari barvaqt oldini olish bilan bog‘liq so‘zlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini, tinch va osoyishta, tunu kun, huquqbuzarlik, Ichki ishlar, Milliy gvardiya organlari hamda patrul-post xizmati naryadlari.

O‘zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o‘lka bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo‘lgani, Vatan taraqqiyoti yo‘lida yelkadosh bo‘lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko‘p qayd etilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining soni 36 mln.dan oshgan bo‘lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 95% dan ziyodi islom diniga e’tiqod qiladi. 3,5% ga yaqin fuqarolar pravoslav diniga mansub bo‘lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2238 ta diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy,

157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan krishnani anglash jamiyati va budda ibodatxonasidir. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu diniy tashkilotlarning erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag‘rikenglikning amaliy ifodasidir.

Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukum surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida, aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlashhamda jamiyatimizdaqonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini «barcha sa’y-harakatlar insonqadri uchun» degan ustuvorg‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda[30] Shu sababli, Prezidentimizning tashabbusi va rahbarligi ostida so‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari asosida Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ish uslublarini, aholiga xizmat ko‘rsatish masalalarini, hamkorlik mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini va shaxsiy tarkib bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish choralarini kuchaytirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilanhamkorlikda «jinoyat o‘choqlari» ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalbqilish belgilandi[31]. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan huquqshunos olimlar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, ichki ishlar organlari bilan Milliy gvardiya faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlar huquq tartibotni

[30] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2021 yil 29 noyabr) PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

[31] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son farmoni/Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 06/21/6196/0240-son.

mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyaqilish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan[32]

Ma’lumki, harqanday davlat organi boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikni tashkil qilmasdan turib, ichki imkoniyatlari doirasida o‘z faoliyatining samaradorligini ta’minlay olmaydi. Jumladan, ichki ishlar organlariham o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda tarkibiy tizimga kiruvchi tarmoq xizmatlari, boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan o‘zarohamkorlik qiladi[33], shuningdek jamoat xavfsizligini samarali ta’minlashning asosiy shartlaridan biri ushbu faoliyatga jalb etilgan barcha turdagi kuch va vositalari, boshqa davlat organlari va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligini ta’minlash hisoblanadi[34].

Bugungi kunda Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligi qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarda, ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirishi[35] shuningdek, Milliy gvardiya o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlarihamda fuqarolar bilanqonun hujjatlarida belgilangan tartibdahamkorlikqilishi belgilangan[36].

O‘zbekiston Respublikasining **«Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»**gi va **«Milliy gvardiyasi to‘g‘risida»**gi qonunlari bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib hisoblanadi. Ushbu qonun asosida qabul qilingan qonunosti hujjatlarda, ya’ni Prezident farmon, qaror va farmoyish, Vazirlar Mahkama-sining qarori hamda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar va qo‘shma qarorlarda Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari o‘zaro hamkorligining tashkiliy asoslari belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining **«Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»**gi qonuni va 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini

[32] Selimanova S.M., Xudoyberdiev A.A., Ichki ishlar organlari Milliy gvardiya bo‘linmalari bilan hamkorlikda ommaviy tadbirlar o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlashning asosiy yo‘nalishlari// «Судебно-правовые реформы: националный и зарубежный опыт»: материалы международной научно-практической конференции (30 сентября 2021 года).–Т.: Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, 2021. –С. 57.

[33] Ziyodullaev M.Z., Militsiya tayanch punktlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Yurid. fan. nomzodi. Dis.-T., 2008. –B. 114.

[34] Sharipov S.S., Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi hamkorligini takomillashtirishning ayrim jihatlari// Journal of Law Research. 2022, 7 vol., issue 11, P 21

[35] O‘zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, –2017.–№37.–978-m.

[36] O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2020 y., 03/20/647/1569-son.

ta’minlash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»**gi PF-5005-son (2017 yil 10 aprel) farmoni jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy tartibga soladigan muhim hujjatdir. Farmonda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sub’ektlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligini aniq chegaralash, takrorlanuvchi va dolzarbligini yo‘qotgan vakolatlarni chiqarib tashlash, bo‘linmalarning tezkorligi va samaradorligini ta’minlovchi moddiy-texnik ta’minoti darajasini mustahkamlash, zamonaviy ilmiy-texnik vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash nazarda tutildi.

Mazkur farmon ijrosi doirasida qabul qilingan Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishda asosiy o‘rin tutadigan quyidagi muhim hujjatlar – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»**gi PQ-3528-son
(2018 yil 14 fevral), **«Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»**gi PQ-3786-son (2018 yil 19 iyun) va **«Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yichaqo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»**gi PQ-4075-son (2018 yil 24 dekabr) qarorlari mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahrida ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini samarali tashkil etish, ular faoliyatiga ilg‘or ish usullari va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3528-son (2018 yil 14 fevral) qarori bilan Toshkent shahridaqayta tashkil etilgan ichki ishlar bo‘limlari zimmasiga sektorlar hududlarida jamoat tartibini saqlashni amalga oshirish uchun javobgarlik yuklatilib, ularning rahbarlariga hududga biriktirilgan patrul-post xizmati naryadlarining kundalik dislokatsiyasini belgilashhuquqi berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3786-son (2018 yil 19 iyun) qarori asosida Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlashning yangicha tizimini nazarda tutadigan **«Xavfsiz poytaxt»** konsepsiyasi joriy etilib, soat 16:00dan

8:00ga qadar vaqt oralig‘ida Ichki ishlar organlari Milliy gvardiya saf bo‘linmalari jamoat tartibini ta’minlash kuchlarining kamida 70 foizini, shuningdek, jamoatchilik vakillarini jalbqilish orqali tunu kun uch smenali patrul rejimi yo‘lgaqo‘yildi. Shuningdek, qaror bilan:

patrullik qilish uchun biriktirilgan hududda jamoat tartibini buzish holatlari mavjud emasligi, ularning o‘z vaqtida oldi olinishi va ularga chek qo‘yilishi sutkaning kechki va tungi vaqtida xizmat olib borayotgan jamoat tartibini ta’minlash kuchlari faoliyatini baholashning eng muhim mezonlari hisoblanishi belgilandi;

konsepsiyani amalga oshirish doirasida jamoat tartibini ta’minlash kuchlarini muvofiqlashtirish va aloqa mobil markazlarining faoliyat yuritishi amaliyoti joriy etildi va ular ichki ishlar bo‘limlari xizmat ko‘rsatishhududlariga biriktirildi;

Toshkent shahrining har bir mahallasida «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Toshkent viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»**gi PQ-4343-son (2019 yil 29 may) qarori Toshkent viloyatida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tish, shuningdek, Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarining kuch va vositalarini nazorat qilish va boshqarishning samarali tizimini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, mazkur qarorga muvofiq:

Toshkent viloyati ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari kundalik xizmat o‘tashlari bevosita mintaqalar bo‘yicha taqsimlanadi;

mintaqaviy hududlar rahbarlariga patrul-post xizmati naryadlarining kundalik joylashuvini belgilash huquqi berildi;

Toshkent viloyati tuman (shahar)larida Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini ta’minlash kuchlari tarkibida birgalikda patrullik xizmatini o‘tash tartibi joriy qilindi.

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini ta’minlash tizimida keng ko‘lamli demokratik islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lgaqo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash,

aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatinisifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»**gi PF-6196-son (2021 yil 26 mart) farmoni qabul qilindi.

Farmonga binoan ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida quyidagilar belgilandi:

birinchidan, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo‘g‘ini hisoblanib, uning negizida ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash ishlarini tizimli tashkil etish va
muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklatildi;

ikkinchidan, ushbu Farmon bilan ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi. Unga muvofiq
quyidagilarni nazarda tutuvchi jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish belgilandi:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash;

patrul-post va yo‘l-patrul xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya xizmatlari bo‘linmalarining o‘zaro hamkorlikda ishlashi bo‘yicha yangi mexanizmlarni belgilash;

Milliy gvardiya bo‘linmalarining jamoat tartibini saqlash tizimidagi vakolatlari va shaxsiy javobgarligini belgilash;

probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini kunlik nazorat qilishda profilaktika inspektorlari bilanhamkorlik mexanizmlarini joriy etgan holda probatsiya bo‘linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomil-lashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»**gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat

xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy etildi:

birinchidan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona **«poytaxt mintaqasi»** tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilishi belgilandi;

ikkinchidan, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiy boshqaruvi Ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatildi.

Yagona **«poytaxt mintaqasi»** tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari mazkur Kengash raisining o‘rinbosarlari hisoblandi. Kengash yig‘ilishlari har oyda kamida bir marotaba o‘tkazilishi hamda unda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o‘zaro hamkorlikda hal etish bo‘yicha manzilli choralar aniqlanishi belgilandi.

Shu bilan birga, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etilib, unga quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilandi:

birinchidan, poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoringqilish, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish;

ikkinchidan, jinoyatlar, hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

Mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida tashkil etish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, ushbu sohadagi bo‘linmalarining kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish**

chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5077-son (2021 yil 15 aprel) qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Milliy gvardiya Harbiy-texnika instituti O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti etib qayta tashkil etildi. Universitetda Ichki ishlar vazirligi uchun jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining tegishincha jamoat tartibini saqlash, yo‘lharakati xavfsizligi va pasport tizimi talablarini amalga oshirish yo‘nalishlarida malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatni samarali tashkil etishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislarni tegishli ixtisoslik va huquqshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan holda o‘qitish hamda ularni jangovar va jismoniy tayyorgarlikdan o‘tkazish orqali maqsadli tayyorlash Universitetning asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi **«Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»**gi PF-6196-son farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida yana bir muhim hujjat, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»**gi (2021 yil 29 noyabr) PF-27-son farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, quyidagilar belgilandi:

birinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, hiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash sohasida sodir etiladigan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolati ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Milliy gvardiyaga berilishi bo‘yicha vazifalar belgilandi;

uchinchidan, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya jamoat xavfsizligini ta’minlovchi sub’ektlar sifatida mustahkamlandi va ularning aniq vakolat doiralari belgilandi.

Mazkur farmon asosida tasdiqlangan **«2022–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi»**ga muvofiq, quyidagi vazifalar belgilandi:

birinchidan, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish vaqtida Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari tomonidan

foydalaniladigan maxsus texnik vositalarni, shuningdek, tezkor axborot almashish, quyi tizimdagi bo‘linmalarni oqilona boshqarish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish;

ikkinchidan, **«jinoyat o‘choqlari»** hisoblangan hududlarda tungi vaqtda Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalarining harbiy xizmatchilari va xodimlaridan iborat avtopatrul, otliq va piyoda patrullarning uzluksiz faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning vakolat doirasini belgilash va funksional majburiyatlarini tasdiqlash;

uchichnchidan, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlashga mas’ul bo‘linmalarining huquqbuzarliklarni aniqlash va ma’muriy jazo choralarini qo‘llash vakolatini kengaytirish;

to‘rtinchidan, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari hamda **«Fidokor yoshlar»** jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish;

beshinchidan, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlaridan jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan bo‘linmalarning axborot tizimlari (probatsiyaning markazlashgan elektron tizimi, yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimi) bazasida **«E-jamoat havfsizligi»** yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga to‘liq tatbiq etish.

Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligini tashkil etish masalalari ko‘rilayotganda, avvalo o‘rganilayotgan ob’ektda o‘zaro hamkorlik tushunchasiga ta’rif berib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashdagi o‘zaro hamkorlik – ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanib, o‘zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullari, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo‘lib[37] bunda ikki yoki undan ortiq xizmat, ya’ni boshqaruvning bir-biriga bo‘ysunmagan alohida ishtirokchilari o‘z harakatlarini o‘zaro kelishib bajarishadi[38], Kriminolog Z.S.Zaripov aytganidek, hamkorlikni tashkil qilishga ichki ishlar organlari tizimidagi mehnat taqsimoti tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida vazifalar va majburiyatlarning taqsimlanishi kabi masalalarni qamrab olgan maqsadning vujudga kelishi sifatida ham qarash mumkin. O‘zaro hamkorlikning maqsadi boshqaruv tizimi oldida turgan umumiy vazifalarni hal etishda kuch va vositalarni to‘g‘ri taqsimlashni anglatadi[39]. Bu borada tadqiqot olib borgan huquqshunos olimning ***«davlat organlari va muassasalari, jamoatchilik tuzilmalari bilan***

[37] Афанасев В.А., Организация работы участкового инспектора милиции. – М., 1990. –С. 38
[38] Pulatov Yu.S., Ismailov I.U., Qurbonov A. Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari.–T., 2005.–B.104.
[39] Зарипов З.С., Профилактическая функция следственных подразделений ОВД.–Т., 1980. –С.57.

hamkorlikda amalga oshiriladigan vazifalar qo‘shma qarorlar, rejalar, ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi», degan fikriga qo‘shilish mumkin[40].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligini samarali tashkil etilishi:

birinchidan, ushbu hamkorlikning huquqiy tartibga solinganligiga;

ikkinchidan, o‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, usul va shakllarining, kuch va vositalarining aniq belgilab olinganligi, shuningdek hamkorlikning funksional vakolatlar doirasi bilan aniq chegaralanganiga;

uchinchidan, hamkorlikning muhim sharti bo‘lgan axborot muhitining yaratilganligiga;

to‘rtinchidan, hamkorlikning birgalikda rejalashtirilishi, rejalarning amaldagi ijrosi samarali ta’minlanishi va ish natijalarining birgalikda tahlilqilib borilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda hayotimizda sodir bo‘layotgan noqonuniy xatti-harakatlarni ko‘rib ko‘rmaslikka oladigan, tinchlikni saqlash faqat davlatning ishi deb o‘ylaydiganlar, farzandlarining tarbiyasi bilan qiziqmaydigan ota-onalarham borligini qayd etish lozim.

Vatan oiladan boshlanadi. Oilada tinchlik bo‘lsa, mahalla, qishloq, shahar, viloyat va nihoyat mamlakatda osoyishtalik bo‘ladi, yurt ravnaq topadi. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu-xunarlari bilan axloqiy fazilatlarini ham o‘stirib borishimiz kerak. Yosh avlodning turli yot oqimlar ta’siriga tushib qolishini oldini olish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik faqat hukumatimiz yoki ta’lim muassasalarining vazifasi emas, balki har bir ota-onaning ham muhim burchlaridan biridir. Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy-taktik asoslarini takomillashtirish jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish kabi faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari

[40] Sharipov S.S., Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo‘linmalarining faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.// –T.–2020.–B. 76.

to‘g‘risida»gi (2021 yil 29 noyabr) PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6196-сонли фармони// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон.

3. С.М. Селиманова, А.А. Худойбердиев, Ички ишлар органлари Миллий гвардия бўлинмалари билан ҳамкорликда оммавий тадбирлар ўтказиш вақтида жамоат тартибини сақлашнинг асосий йўналишлари// «Судебно-правовые реформы: национальный и зарубежный опыт»: материалы международной научно-практической конференции (30 сентября 2021 года).–Т.: Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, 2021. –С. 57.

4. M.Z. Ziyodullaev, Militsiya tayanch punktlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Yurid. fan. nomzodi. Dis.-T., 2008. –B. 114.

5. S.S. Sharipov, Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi hamkorligini takomillashtirishning ayrim jihatlari// Journal of Law Research. 2022, 7 vol., issue 11, P 21.

6. O‘zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, –2017.–№37.–978-m.

7. O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2020 y., 03/20/647/1569-son.

8. В.А. Афанасев, Организация работы участкового инспектора милиции. – М., 1990. –С. 38

9. Yu.S.Pulatov, I.U.Ismailov, A. Qurbonov Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari.–T., 2005.–B.104.

10. З.С. Зарипов, Профилактическая функция следственных подразделений органов внутренних дел.–Т., 1980. –С.57.

11. S.S. Sharipov, Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo‘linmalarining faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.// –T.–2020.–Б. 76.

ICHKI ISHLAR O‘RGANLARIDA KASBIY SARALASH MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xo‘janov Zavqiddin Murodinovich
O‘R IIV Akademiyasi magistranti,
ilmiy izlanuvchi, podpolkovnik

Annotatsiya. *Mazkur maqola ichki ishlar xodimlarida kasbiy saralash muammosi ijtimoiy-psixologik asoslariga bag‘ishlangan. Maqolada ichki ishlar organi faoliyati, ichki ishlar xodimi shaxsi, ichki ishlar organi talabi, ichki ishlar xodimlarida kasbiy saralashning psixologik asoslari va uning o‘ziga xosliklari keng yoritilgan. Keltirilgan mulohazalar va tahlillar adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan manbalar asosida amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ichki ishlar organi xodimi, psixologik tamoyil, ichki ishlar organi faoliyati, kasbiy saralash, fenomen, psixologik tayyorgarlik*.

Bugungi kunda xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm, narkotik vositalar va psixotrop moddalarning g‘ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda BMTning sohaviy ixtisoslashgan markazlari va dasturlari, Shanxay hamkorlik tashkiloti hamkorligidagi ichki xavfsizlikni ta’minlash xizmati har bir davlatda chegaralarni mustahkamlash, xavfsizlik va mintaqalardagi vaziyatning barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham, bu turdagi muammolarni oldini olishda Ichki ishlar tizimiga nomzodlarni qabul qilishda kasbiy saralov jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatlariga e’tibor qaratish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar sohasida sohasida qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ichki ishlar vazirligi strategik yo‘nalishlarini belgilab olishda ichki ishlar organlari xizmatini yuksak ma’naviyatli kadrlar bilan ta’minlanishiga alohida urg‘u berildi. Ichki ishlar organlari xodimi kasbiy faoliyatining murakkab xarakteri uning siyosiy salohiyati, ichki ishlar qonunchiligini chuqur bilishi, davlat ichki sarhadida ichki ishlar organlariga doir tadbirlarni amalga oshirish ko‘nikmasi va malakasiga egaligi, ichki ishlar qoidalarini buzuvchi shaxslar xatti-harakatlarini oldindan sezishga qodirligi[1,2], kasbiy mas’uliyati bilan izohlanadi. Shu jihatdan “Ichki ishlar organlari tizimiga nomzodlarni kasbiy saralashning ijtimoiy-psixologik omillari” ni amaliy o‘rganish muhim o‘rin egallaydi.

Kasbiy saralashning natijasi eng munosib xodimni tanlash bo‘lishi kerak (ya’ni, eng yaxshi emas, balki ushbu faoliyat uchun eng professional darajada mos). “Kasbiy tanlov” va “psixologik tanlov” tushunchalari ko‘pincha aniqlanadi, chunki. ikkinchisining mohiyati qobiliyatlarni tashxislash va bashorat qilishdir. Psixologik kasbiy tanlovning asosiy bosqichlari:

zarur dastlabki diagnostika ma’lumotlarini olish va birlamchi qayta ishlash;

kasbiy faoliyatning ushbu turi uchun qobiliyat prognozlarini shakllantirish va subyektning kutilayotgan yaroqlilik darajasini baholash;

tanlangan shaxslarning kasbiy faoliyatining haqiqiy samaradorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslangan prognozlarni tekshirish.

Psixologik kasbiy saralash tizimi maxsus diagnostika usullari, texnik vositalar va standartlashtirilgan protseduralar majmuasini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, olingan diagnostika ma’lumotlarini umumlashtirish, talqin qilish va faoliyat muvaffaqiyatini prognozlash usullari qo‘llaniladi. Psixologik kasbiy saralashning amaliy maqsadga muvofiqligini belgilovchi shart uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslanishi, oqilona va tasdiqlangan tanlov tizimi va tajribali diagnostikaning mavjudligi isbotidir[2,270].

Mazkur soha shakllanishining yangi sifat bosqichi 1960-1970 yillarda sodir bo‘ldi. Bunda odamlarning kasbiy faoliyati umumiy emas, balki maxsus jihatlari o‘rganishga o‘tildi. V.A.Bodrov kasbga yaroqlilik vazifalarini “odam-kasb” tizimi kontekstida hal qilishni taklif qiladi, ya’ni odamni kasb bilan bir qatorda, uning qo‘shimchasi sifatida emas, balki uning ajralmas bo‘lagi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi[3,42].

Kasbiy saralash – bu individual shaxsiy fazilatlariga ko‘ra ma’lum bir mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish va keyingi kasbiy faoliyat uchun eng mos bo‘lgan insonlarni aniqlashga imkon beradigan tadbirlar tizimidir[4,32].

Kasbiy saralashda kasbiy yaroqlilik bir nechta mezonlarga ko‘ra baholanishi mumkin:

tibbiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha (asab tizimining holati, eshitish, ko‘rish, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari va boshqalar);

ta’lim malakasi bo‘yicha tanlash bilimlari ushbu kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish yoki bajarishni ta’minlaydigan shaxslarni aniqlashga qaratilgan;

psixologik tanlov o‘z qobiliyatlari va individual psixofiziologik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan shaxslarni aniqlash uchun mo‘ljallangan[5,351].

Kasbiy saralash – bu maxsus tashkil etilgan tadqiqot jarayoni bo‘lib, uning maqsadi ilmiy asoslangan usullardan foydalangan holda abituriyentlarning murakkab, mas’uliyatli kasblarga o‘qishga yoki egallashga tibbiy, psixologik va ijtimoiy-psixologik muvofiqligini shakllantirish darajasi va imkoniyatlarini aniqlash va aniqlashdan iborat. tegishli bo‘sh ish o‘rinlari va shunga asoslanib, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan yuqori darajadagi (baho) va ularning rivojlanishi uchun qulay istiqbolga ega bo‘lgan va shuning uchun u yoki bu mehnat turiga nisbatan potensial foydaliroq ishchilar sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lganlarga imtiyozlar berish[6,39].

Umuman olganda, kasbiy psixologik saralash – bu ko‘rib chiqilayotgan talabgorlarning kasbiy muhim ijtimoiy-psixologik, psixologik va psixofiziologik

fazilatlari kasbiy lavozim talablariga javob berishini ta’minlashga asoslangan saralash bilan bog‘liq chora-tadbirlar majmuidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoniga sharh. // Xalq so‘zi. - Toshkent, 2022. - № 28(6722) - B.2.
2. Березин Ф.Б. Психическая и психологическая адаптация человека. Монография. Д.: Наука, 1988, с. 270.
3. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. М.: Пер С, 2001, с.42.
4. Вахов В.П. Уточнение понятий психической адаптации и дезадаптации в условиях активной психопрофилактики // Российский психиатрический журн., 1997, № 1, с. 32-35.
5. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. – М.: ПЕР СЭ, 2001. – с. 351.
6. Войтко В.И. Научно-техническая революция и проблема социализации личности в социалистическом обществе. // Актуальные проблемы социализации личности в условиях научно-технического прогресса. Киев, 1975, с. 39.

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSALARIDA VA HARBIY QISMLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVNI NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Ibroximov Anvar Rajabovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi Qurol-aslaha va o‘q otish sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy qismlarda psixologik xizmatni tashkil etishda muammo va yechimlar harbiy xizmatga psixologik tayyorgarliklar, professional kompetentsiyalar va ularni moslashtirish masalalari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlari: Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, psixologik xususiyatlar, har xil-kasbiy tayyorgarlik, psixologik treninglar, bilim, ko‘nikma, professional, kompetensiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Иброхимов Анвар Ражабович
Старший преподователь цикла Вооружения и огневой подготовки Специализированного учебного центра Национальной гвардии Республики Узбекистан, подполковник

Аннотация: В данной статье рассмотрены проблемы и решения в организации психологической службы в воинских частях, психологической подготовке к военной службе, профессиональные компетенции и вопросы их адаптации

Ключевые слова: Моральная-духовная подготовка, психологические характеристики, различные профессиональные подготовки, психологические тренинги, знания, умение, профессионализм, компетентность.

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPEKTS OF MODERN APROACHES TO ORGANIZING PSYCHOLOGICAL SERVICE IN HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ibrokhimov Anvar Rajabovich
Senior Lecturer of the Armament and fire training cycle of the specialized educational center of the National guard of the Republic of Uzbekistan, lieutenant colonel

Annatation: This article examines the problems and solutions in organizing psychological services in military, units psychological preparation for military service, professional competencies and issues of their adaptation.

Keywords: moral and spiritual preparation, psychological characteristics, various professionaltrainings, psychological trainings, knowledge, skill, profesionalizm, competence.

Dunyoda harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va axloqiy-ruhiy tayorgarligini oshirishga hamda ularning psixologik holatni tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Dunyoning eng qudratli armiyalari” reytingini aniqlashda, davlatlar armiyasining psixologik mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada, mamlakatimizda ham harbiy xizmatchilarning ahloqiy-ruhiy tayyorgarligi, psixologik xususiyatlari, jangovar holatini ta’minlovchi psixologik komponentlari va xizmat faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularni amaliyotga joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash, ularni o‘qitish va tarbiyalash borasida olib borayotgan ishlarimizni bir bo‘lagi sifatida ilg‘or xorijiy mamlakatlar armiyalarining tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish va lozim darajada o‘zimizga tatbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan

himoyachilari kuni munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigida milliy armiyamizni rivojlantirish masalasida so‘z yuritar ekan shunday deb ta’kidlab o‘tdilar “Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, o‘quv-tarbiya jarayonlariga ilg‘or xorijiy tajribalarni ... keng joriy etishga bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz”.

Milliy gvardiya harbiy hizmatchilarida psixologik tayyorgarlik axloqiy-siyosiy hamda harbiy-kasbiy tayyorgarlik doirasida amalga oshiriladi.

Psixologik tayyorgarlik–bu harbiy xizmatchilarda jangovar vazifalarni bajarishga nisbatan ichki tayyorgarlikni shakllantirish, shuningdek, ularda faoliyatning barqaror ijobiy motivlarini yaratishdan iborat bo‘lgan hodisa.

Hozirgi kunda harbiy hizmatchilarni psixologik tayyorlash yo‘llari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasini o‘rganish;

raketa-yadro urushi haqida to‘g‘ri tasavvurni shakllantirish;

mashg‘ulotlarni jangovarlikka yaqin sharoitlarda olib borish;

o‘z quroliga, komandirlariga va g‘alabaga ishonchni shakllantirish;

o‘quv jarayonida oldingi urush tajribalarini o‘rganish;

milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini shakllantirish;

vatanparvarlikni, baynalminallikni va dushmanga nisbatan nafratni tarbiyalash;

g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;

jangovar mahoratni shakllantirish;

yuksak harbiy ko‘nikmani shakillantirish;

harbiy qasamyodga sadoqatni tarbiyalash;

mashg‘ulotlarni qiyin sharoitlarda olib borish;

himoya vositalarida mashq o‘tkazish;

jismoniy jihatdan chiniqtirish;

mashg‘ulotlarda imitatsiya vositalarini qo‘llash;

mashg‘ulotlarda qo‘rqish hissini yengishda yordam beruvchi mashqlarni bajarish.

Qurolli Kuchlarda shaxsiy tarkibni hamda kursantlarni psixologik tayyorlashning 3 xil turi faol qo‘llaniladi:

Maxsus ruhiy tayyorgarlik turida harbiy xizmatchilarda kutilmagan jangovar vaziyatlarga ruhan tayyorgarlik, barqarorlik, bunday holatlar sun’iy tashkillashtirilgan vaziyatlarda shakllantiriladi. Harbiy xizmatchilar maxsus psixologik tayyorgarlik jarayonida ruhiy zo‘riqishlarni boshidan o‘tkazib, irodaviy barqarorligi oshadi, kasbiy shayligi mustahkamlanadi.

Umumiy psixologik tayyorgarlik turida esa harbiy xizmatchilarda umumiy planda Vatan va xalq himoyasiga ongli ravishda, vijdon amri bilan tayyor turish

singdiriladi. Bu ma’naviy axloqiy, ruhiy ma’rifiy tashkiliy ishlar vositasida amalga oshiriladi.

Maqsadli psixologik tayyorgarlik o‘quv mashg‘ulotlarini og‘ir va xavfli sharoitlarda o‘kazib, harbiy xizmatchilarda qo‘rquvni irodaviy yengish ko‘nikmalari paydo qilinadi. Harbiy xizmatchilar har qanday kutilmagan xavfli vaziyatlarda o‘zlarini boshqarish, maqsadga erishish uchun ruhan tayyorlanadilar.

Faqat, psixologik tayyorlashning o‘zi topshiriqni hal etishga kamlik qiladi. Jangchining harakatlarini yutug‘i unda shakllangan psixologik obrazlar real borliqqa qanchalar mosligi kabi ko‘pgina narsalarga bog‘liq. Buning uchun jangchi psixik obrazlar modelini mashqlar vaqtidagi, o‘quv tayyorgarligi, otish, kunduzgi va kechki raketa uchirish kabi amaliy ko‘nikmalar jarayonlarida hissiy to‘ldirib borishi lozim.[1]

Psixologik tayyorgarlik tarbiya jarayonida, harbiy ta’lim jarayonida olib boriladi, axloqiy-siyosiy, jangovar va psixologik tayyorgarliklar bir-biridan ajralmas jarayonlardir.

Aniq jangovar vaziyatlarga psixologik tayyorgarlikning pastligi quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi

ruhiy zo‘riqish;

psixik holatning buzilishi;

o‘z harakatlarini boshqara olmaslik;

vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaslik;

vaqt va joyni aniqlay olmaslik;

reaksiyalarning pasayishi;

xotira va tafakkurning zaiflashuvi va hakozo. Shu jihatdan olib qaraganda kursantlarni psixologik jihatdan to‘g‘ri tarbiyalash va yo‘naltirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bo‘lajak ofitserlarni samarali tayyorlash jarayoni trening mashg‘ulotlarda ta’limning interfaol shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu ma’noda aynan trening mashg‘ulotlarining imkoniyatlari cheksizdir. Treningda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: kursantlar muloqot, pedagogik muloqot, ularning psixologik va kasbiy nazariy asoslari, turlari, muloqot madaniyati, samarali muloqot vositalari, texnologiyasi va texnikasi to‘g‘risidagi bilimlarini interfaol rejimda amaliy sinab ko‘radi; kursantlar o‘qituvchi sifatida o‘z kommunikativ uslub, xulq va odobini namoyish etadi, anglab oladi va kashf qiladi. Trening mashg‘ulotining yana bir imkoniyati shundan iboratki, u real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish asosida tashkil etiladiki, ishtirokchilardan muloqot jaryonida faol ishtirok etishni, ularning intellektual va analitik imkoniyatlarini safarbar qilinishini talab etadi. Bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish maqsadida trening mashg‘ulotlarida intensiv metodlarning quyidagi turlaridan foydalanish tavsiya

etiladi: kichik leksiya, informatsiya; boshqaruvli diskussiya; aqliy hujum, sinektika; rolli o‘yin (vaziyatlarni rollarda sinab ko‘rish); kommunikativ vazifalar va mashqlar; namoyish va o‘zini-o‘zi namoyish etish;analitik mashqlar; simulyativ o‘yinlar; ishbilarmonlik o‘yini;videonamoyish, muloqot ishtirokchilari xulq-atvorini videonamoyish etish va boshqalar.

Odatda trening mashg‘uloti uch bosqichda amalga oshiriladi: bilimlarni egallash, namoyish etish va amalda sinab ko‘rish. Har bir bosqichda o‘ziga xos metodlardan foydalaniladi. Masalan, bilimlarni egallash bosqichida mini leksiya, axborot, kitoblardan foydalanilsa, namoyish etish bosqichida jonli tasvirlar va videofilmlar, amaliy bosqichda esa rolli o‘yinlar, modellashtirish metodlari maqsadga muvofiqdir.Shundan kelib chiqib, bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash mexanizmlarini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirish, ularda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalangan holda rivojlantirish lozim.

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilarning zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirishi va ulardan foydalanishning metodik hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab berish vazifalarining amalga oshirilishi hamda mazkur muhitda bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash mexanizmlarini ilmiy-pedagogik takomillashtirish tizimini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.[4]

Bunday tayyorgarlik kursantlarda o‘ziga ishonch, dadillik, harbiy hizmatga moslasha olish va har qanday sharoitda ham psixologik tayyorgarlik darajasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, harbiy ta’lim muassasalarida “Harbiy psixologiya” fanini chuqur o‘rganish, shaxs psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi, omma psixologiyasi, harbiy psixologiya kabi yo‘nalishlarni kursantlar tomonidan nazariy va amaliy jhatdan o‘zlashtirishi bo‘lajak ofitserlar salohiyatini yanada oshirishga yordam beradi. Shubhasiz aytish mumkinki kursantlarning ruhan chiniqqanligi ularning harbiy xizmat faoliyatlarida katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harbiy psixologiya: O‘quv qo‘llanma. /A.U.Klichev, D. A. Xoliqova, F.S.Nizamov,; O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. – T.:’’Sharq”, 2013. - 186 b.

2. Ch.R.Nasriddinov «Harbiy psixologiya» Fan nashriyoti, Toshkent 2004 y. A.Sotib-Oldiyev, A.Karimjonov «Harbiy pedagogika» Sharq nashriyoti, Toshkent 2009 y.

3. A.Sotiboldiyev «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» TDPU nashriyoti, Toshkent 2003 y.

4. Globallashuv sharoitida harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish omillari. 26-29 b «Boshlang‘ich ta’limga xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning istiqbollari» XV Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami, Abdurahimova D.A.

HARBIY XIZMATCHILARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO’RSATISHNING AMALIY AHAMIYATI.

Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna
Algraganus Universiteti Pedagogika Psixologiya kafedrasi dotsenti

So‘nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta’minlash borasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlar bilan to‘ldirib borish imkonini bermoqda. Shu o’rinda ta’kidlash joizki harbiy xizmatchilarni vatanga sodiq, har qanda vaziyatga chidamli, berilgan vazifani o’z vaqtida va samarali bajarishlarida ularning psixologik tayyorgarligi katta ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatchilarning ruhiy tayyorgarligida mutaxasis-psixologlarning ishlarini to’g’ri tashkillashtirishlari va samarali ish olib borishlariga ko’p jihatdan bo’g’liqdir.

Psixologik xizmat ko’rsatish yo’nalishlari:

1) psixoprofilaktika

2) psixologik maorif va ma`rifat

3) psixodiagnostika

4) psixik rivojlantirish va psixokorrektsiya

5) psixologik konsultatsiya [1]

1)Psixoprofilaktika - psixologik xizmat faoliyatining maxsus turi bo’lib, harbiy xizmatchilar uchun sog’lom psixologik muhit va shaxs rivojlanishi uchun optimal shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Psixologik profilaktika ishning asosiy vazifalari quyidagilar:

- harbiy xizmatchilarda aqlan barkamollikni ta`minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish. Bu borada harbiy xizmatchilarga zarur xisoblangan va xizmat faoliyatlarida kerak bo'ladigan psixologik bilimlarning berilishiga ahamiyat qaratish lozim.

- harbiy xizmatchilarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik nuqsonlar va buzilishlarni o'z vaqtida oldini olish [2]. Pixodiyagnostik testlardan olingan natijalarga, suxbat va kuzatish metodlarini qo'llaga holda harbiy xizmatchilarda aniqlangan psixologik jarohatlar, xarakter aksentuatsiyalari, stress holatlarini aniqlagan holda ularni bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan treninglar, individual suxbatlar olib boriladi.

2) Psixologik maorif va ma`rifat –harbiy xizmatchilarning jamoalarida eng qulay psixologik muhitni yuzaga keltirish uchun maxsus ish olib borish, jamoada muomala shaklini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish, harbiy xizmatchilarga shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan keng ko'lamda maslahatlar berish. Harbiy xizmatchilardagi psixologik zo'riqish va toliqishni yo'qotish, kamaytirish, ularning oldini olish uchun chora- tadbirlarni tarkib toptirishga ko'maklashish. Harbiy xizmatchilar bilan jamoaviy tarzda vaqtni to'g'ri taqsimlahni o'rgatuvchi "Time menejment" ga doir va infarmatsion, fiziologik, psixologik stresslarni bartaraf qiluvchi treninglarni amalga oshirish.

3) Psixodiagnostika - Harbiy xizmatchilarni kasbiy yaroqliligini diagnostika qiladi, ularning shaxs xislatlar, irodaviy sifatlari, his-tuyg'ulari, o'zini o'zi boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi [3]. Psixodiyagnostika ishlarini olib borishda ishonchliligi yuqori bo'lgan (G.Ayzenkning temperament testi, Lusherning ranglar testi, Bass-Darkining "Tajovuz holati" testi, Kettel testlari va shu kabilar) testlarni qollagan holda ishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

4) Psixik rivojlantirish va psixokorrektsiya ishlari - amaliy psixologik xizmat doirasida harbiy xizmatchilarning psixik taraqqiyotidagi, xulq-atvor, muomalasidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korrektsiya qilish dasturi ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi, ijodiy qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib boradi. Psixokorreksiya ishlarini tashkil etishda trening dasturida treninglar bilan birqatorda musiqa terapiya, art terapiya kabi terapiyalarni kompleks ravishda qo'llash ko'proq foydali bo'lishi mumkin.

Korrektsion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi va korrektsion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

- amaliy psixologning maxsus individual ishi;

- harbiy xizmatchilar jamoasiga tarbiyaviy ta`sir o'tkazishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar;

- harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish.

5) Harbiy xizmatchilar bilan psixologik konsultatsiya ishlari quidagilarga e'tibor berish lozim. Psixologik maslahat-mutaxassis-psixologning alohida sohasi bo'lib, harbiy xizmachilarga shaxsiy, kasbiy va hayotiy muammolarini hal etishida maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis tomonidan bevosita ko'rsatiladigan yordam bo'lib, u individual, guruhiy tarzda o'tkazilishi mumkin. Maslahat berish psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Lekin psixologik maslahat o'zi nimaligi haqida yagona tushuncha yo'q. Har bir sohada xizmat olib borayotgan psixolog ishi boshqasi bilan bir- biridan tubdan farq qiladi. Psixolog aniq harbiy jamoadagi shaxsiy tarkib orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlarining, rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo'ladi. U har bir shaxsiy tarkibning o'zinigina emas, shaxslararo munosabatning murakkab tizimini ham ko'radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi. To'g'ri tashkil etilgan maslahat tufayli psixolog va ofitser yoki serjant o'z sohasini yaxshi biluvchi mutaxassislar sifatida namoyon bo'ladi.

Maslahat quyidagicha amalga oshiriladi: 1. Harbiy xizmatchi muammolari bo'yicha ularning hamkorligi bilimlarining birikuviga imkon beradi va muammolarni hal qilish uchun keng ijodiy imkoniyatlar yaratadi. Maslahat berishning asosiy ahamiyati ana shunda.

2. Psixolog shaxsiy tarkibning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam ko'rsatadi.

3. Harbiy xizmatchilarda malakalar va ko'nikmalarini egallashda uchraydigan nuqsonlar hulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlarni diagnostika qiladi.

4. Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy, defektologik yoki psixologik tabiatini aniqlaydi. Asotsial xulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomaniya, alkogolizm, o'g'rilikning ijtimoiy-psixologik Ildizlarini tekshiradi, omillarini tahlil qiladi.

5. Iqtidorli harbiy xizmatchilar, mutaxassislarni tanlashda ishtirok qilib ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqadi.

6. Harbiy xizmatchilarda uchraydigan psixo-emotsional zo’riqishlar (stress, depressiya, suitsid) ni o’rganadi, tahlil qiladi, profilaktika va korreksion tadbirlarni tashkil etadi.

Harbiy psixolog xizmatchilar orasidagi iqtidorli mutaxassislarni tanlashda ishtirok etib ular uchun ham ilmiy ham psixologik tavsiyalar ishlab chiqadi.

Harbiy xizmatchilar bilan psixologik xizmat metodlarini turlicha amalga oshirish mumkin:

a) psixologik madaniyatni o’stirish va targ’ib qilish maqsadida harbiy xizmatchilar bilan ma`ruzalar turkumi va trening mashg’ulotlari o’tkazish, ularni tarqatish;

b) ilmiy-ommabop adabiyotlarni yaratish, bunda harbiy xizmatchilar uchun uslubiy ko’rsatmalar, o’quv qo’llanmalar psixodiyagnostik testlar to’plami va shu kabilar bo’lishi mumkin;

v) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar bu borada hozirgi kunda dolzarb bo’lib borayotgan jahondagi va yurtimizdagi mavzularda harbiy xizmatchilarning chiqishlarini tashkillashtirish mumkin;

g) psixodiagnostik tadqiqotlar o’tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test, savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar) bunda harbiy xizmatchilarning jamoalaridagi muhitni va munosabatlarni aniqlashga qaratilgan ijtimoiy so’rovnomalar alohida ishlab chiqarilsa maqsadga muvofiq bo’ladi;

d) psixologik maslahat berishda har bir harbiy xizmatchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, muammoning paydo bo’lish asl sabablarini o’rganib maslahatlar tashkil etiladi;

e) psixologik konsiliumlar o’tkazish ham harbiy xizmatchilarda yuzaga kelayotgan turli muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mutaxassis psixologlar harbiy xizmatchilar bilan psixoprofilaktika, psixologik maorif va ma`rifat, psixodiagnostika, psixik rivojlantirish va psixokorrektsiya, psixologik konsultatsiya ishlarini shaxsiy tarkibning vazifalaridan va har bir harbiy xizmatchiga individual yondoshgan holda amalga oshirsalar psixologik xizmat ko’rsatish samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Маклаков А. Г. Личность. // Общая психология. – СПб.: Питер, 2000. 489 с.

2.Маклаков А.Г. Общая психология. // Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2009. 214 с.

3.Макнаб К. Психологическая подготовка подразделений специального назначения. – Москва: ФАИР-ПРЕСС, 2002. 376 с.

ESHITISHİDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING MATEMATIKA DARSLARIDA IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Bannayeva Matluba Olimjon qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti
Surdopedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasi o’qituvchisi
matlubaishababibi@gmail.com

Annotatsiya: “Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning matematika darslarida ijodiy faoliyatini shakllantirish” mavzusidagi muammo sifatida aniqlangan va dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan. Ushbu mavzu bo’yicha ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan va maxsus pedagogik-psixologik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning matematika darslarida ijodiy faoliyatini shakllanishi aynan lug‘at boyligi bilan uzviy bog‘liqligi talqin etilgan. O‘quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllanganlik darajasini tekshirish metodikasi o‘tkazilgan. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning matematika darslarida ijodiy faoliyatini shakllantirishning samarali yo‘llari aytib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: maktabgacha yoshdagi bola, eshitishda nuqsoni bo’lgan bola, ijodiy faoliyat, matematika darslari, bilish jarayonlari.

Аннотация: определена как проблема по теме” формирование творческой активности учащихся с нарушениями слуха на уроках математики " и обоснована ее актуальность, определены цель и задачи исследования. Освещены научно-теоретические основы данной тематики, а также дана трактовка того, что изучение и анализ специальной педагогико-психологической литературы неразрывно связаны именно со словарным запасом формирования творческой деятельности учащихся с нарушениями слуха на уроках математики. Проведена методика проверки уровня сформированности творческой деятельности учащихся. Описаны эффективные способы формирования творческой активности учащихся с нарушениями слуха на уроках математики.

Ключевые слова: дошкольник, ребенок с нарушениями слуха, творческая деятельность, уроки математики, познавательные процессы.

Dolzarbligi Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning ijodiy faoliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifasidir. Ularni rivojlantirish bo‘yicha ish imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish ko‘p jihatdan katta yoshdagilarning ijodiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, fan va madaniyat, ilmiy-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning yanada rivojlanishini ta’minlaydi. Jahon talim muassasalarida eshitishida nuqsoni bolgan bolalarni rivojlantirish amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha Xalqaro ta’lim konsepsiyasida butun hayot davomida sifatli talim olishga imkoniyat yaratish strategik vazifa sifatida qabul qilinib, eshitishda nuqsoni bolgan bolalarni tovush metodlari asosida o‘qitish, analitik faoliyat, ta’lim va innovatsiyaning uyg‘unligini ta’minlash kabi yirik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning aqliy va jismoniy hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar alohida o‘rin egallaydi. Matematika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilar zehnini o‘tkir, tez hisoblash ko‘nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega hissoblanadi. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘yin qoidalariga rioya qilishga o‘rganadilar va inoqlik hissi, dunyoqarashlari kengayib, shakllanib boradi. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning individual xususiyatlariga ko‘ra tashkil etilishi zarur hisoblanadi. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtiradi hamda bu jarayonda o‘quvchilarni toliqtirmaslik imkonini yartib beradi. Didaktik o‘yinlarning asosiy xususiyatlari nomi bilan belgilanadi: bu o‘quv o‘yinlari bo‘lishi mumkin. Ular kattalar tomonidan bolalarga ta’lim va tarbiya berish maqsadida yaratilgan. Ammo bolalar uchun didaktik o‘yinning tarbiyaviy ahamiyati ochiq ko‘rinmaydi, ammo o‘yin vazifasi, o‘yin harakatlari, qoidalari orqali amalga oshiriladi. A.N. Leontievning ta’kidlashicha, didaktik o‘yinlar “chegara o‘yinlari” ga tegishli bo‘lib, ular tayyorlaydigan o‘yindan tashqari faoliyatga o‘tishni anglatadi. Kattalar u yoki bu didaktik o‘yinni o‘ynab, unga rahbarlik qilishadi, lekin ular uni bolalar uchun qiziqarlibo‘lishi uchun bajarishadi. Bolani o‘yinga o‘ziga xos bo‘lgan o‘quv vazifasi emas, balki faol bo‘lishi, o‘yin harakatlarini bajarishi, natijalarga erishishi, g‘alaba qozonish imkoniyati jalb qiladi. Biroq, agar o‘yin ishtirokchisi o‘quv vazifasi bilan belgilanadigan bilimlarni, aqliy jihatlarini o‘zlashtirmasa, u o‘yin harakatlarini muvaffaqiyatli bajara olmaydi va natijaga erisha olmaydi. Shunday qilib, faol ishtirok etish, ayniqsa didaktik o‘yinda g‘alaba qozonish, bolaning o‘qituvchilik vazifasi bilan belgilanadigan bilim va ko‘nikmalarni qanchalik o‘zlashtirganiga bog‘liq. Bu bolani diqqatli bo‘lishga, yodlashga, hamda taqqoslashga, tasniflashga, bilimlarini aniqlashtirishga undaydi. Bu shuni anglatadiki, didaktik o‘yin unga biror narsani

oson, qulay tarzda o‘rganishga yordam beradi hamda bu beixtiyor o‘rganish autodidaktizmni yuzaga keltiradi. Didaktik o‘yinlar 2 xil bo‘ladi. Biz didaktik o‘yinlarni xilma-xil tashkil qilishimiz mumkin. Yani qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalangan holda ham olib borishimiz mumkin.

Erishilgan natijalar: Matematik ertak - sarguzasht janriga asoslangan badiiy matn. Syujetda bosh qahramonlar o‘quvchilar e’tiborini tortadigan g‘ayrioddiy, “jonli” ko‘rinishga ega bo‘lgan ma’lum matematik tushunchalar bilan bog‘langan. Xayoliy qahramonlar ekspluatatsiya paytida mantiqiy operatsiyalarni bajaradilar va bola jarayonni o‘z boshida aylantiradi, bu o‘yinni o‘rganishning asosiy vazifasidir. Qizi g‘i shundaki, ertaklarda mantiq ko‘pincha yo‘q, lekin matematik ertaklarda u qimmatli bilimga ega bo‘lgan tinglovchilar xotirasida sezilmas tarzda joylashadi Matematik ertak. Uzoq podshohlikda uch qizi bilan bir podshoh yashar ekan. Ular kechki payt jumboqlarni yechishni, topishmoqlarni yechishni yaxshi ko‘rar edilar. Har bir to‘g‘ri javob uchun malika sovg‘a oldi. Katta malika oltin sovg‘a olishni yaxshi ko‘rardi, o‘rta malika olmosli malika va eng kichigi gullar va hayvonlarni yaxshi ko‘rardi. Bir kuni kechqurun podshoh dedi: “Men uzoq mamlakatlardan juda ko‘p turli sovg‘alar olib keldim. Qizlarimdan qaysi biri jumboqlarni to‘g‘ri yechadi - u sovg‘alar oladi. Vazifa raqami 1 - Katta malika uchun: bitta olma daraxtidan 5 ta sariq olma, ikkinchisidan 5 ta qizil olma. Jami nechta olma terdingiz? 49 Vazifa raqami 2 - O‘rtacha malika uchun: sizning qutingizda olmosli 6 ta uzuk bor. Men senga yana 2 ta uzuk olib keldim. Sizda jami nechta uzuk bo‘ladi? Vazifa raqami 3 - Kichik malika uchun: sizda 9 ta mushukcha bor edi, 2 tasi qochib ketdi. Qancha mushukchalar qoldi? Barcha malikalar o‘z muammolarini to‘g‘ri hal qilishdi va podshoh oqsoqol malikaga oltin sandiq, o‘rta malika 2 ta olmosli uzuk, kichik malika esa quvnoq kuchukcha sovg‘a qildi. Mana senga ertak, menga bir qadah sariyog‘. (G. N. Obivalina) Xulosa. Karl Vierstrass ta’kidlaganidek, «bir vaqtning o‘zida shoir bo‘lmasdan turib, matematik bo‘lish mumkin emas». Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, «inson o‘zini o‘rab turgan dunyoni faqat miya manti g‘i bilan anglay olmaydi, u buni yurak manti g‘i, ya’ni hissiyot bilan his qilishi kerak», deb S.V. namunalar. O‘qituvchi qandaydir qoidani qofiyalangan holda ham aytsa, uni eslab qolish osonroq bo‘ladi. Ish nafaqat mantiqiy, balki ijodiy fikrlashni ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, bizning ishimizda aytilganlarning barchasiga asoslanib, biz ikkinchi gipoteza tasdiqlandi, degan xulosaga keldik, ajoyib ijodiy o‘yin yondashuvi matematik formulalar, qoidalar va qonunlarni o‘zlashtirishga yordam beradi, talabalarda zarur ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

“Matematik lotto” O‘yinning maqsadi: Raqamlar, raqamlar, sonlar tarkibi, matematik belgilar haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Mantiqiy fikrlashni,

diqqatni, xotirani, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish. Matematikaga qiziqishni rivojlantirish. Materiallar: Raqamli lotto kartalari (1 dan 10 gacha bo‘lgan har bir raqam 4-5 marta paydo bo‘ladi) .Raqamli kartalar (1 dan 10 gacha bo‘lgan har bir raqam 4-5 marta paydo bo‘ladi). Matematik belgilar tasvirlangan kartalar: “ortiqcha”, “minus”, “teng”. Vazifalari bo‘lgan kartalar, masalan, “4-raqamni toping”,“7-raqamni toping”, “Minus belgisi bilan kartani toping”.O‘yin variantlari:Variant 1: «Kartani toping» Barcha lotto kartalari pastga qaratib qo‘yiladi. Vazifa qo‘yiladi, masalan, “5-raqamli kartani toping”.Bolalar kartalarni aylantirib, to‘g‘risini qidiradilar. Kim kartani topsa, uni oladi.Eng ko‘p karta to‘plagan kishi g‘alaba qozonadi.

Variant 2: “Raqam tarkibi” Kartalarni raqamlari yuqoriga qarab joylashtiriladi. Vazifa qo‘yiladi, masalan,”6 raqamini to‘plang”. Bolalar qo‘shilishi 6 tagacha bo‘lgan raqamlari bo‘lgan kartalarni qidiradi, masalan, 1 va 5, 2 va 4, 3 va 3.To‘g‘ri raqamlar to‘plamini to‘plagan kishi ball oladi. Eng ko‘p ball to‘plagan kishi g‘alaba qozonadi.

Variant 3: “Misolni hal qiling” Raqamlar va matematik belgilar bilan kartalarni yuzini yuqoriga qaratib joylashtiriladi. Taqdimotchi vazifa qo‘yadi, masalan, “misolni yeching: 3 + 2” Bolalar 3, 2 raqamlari va ortiqcha belgisi bo‘lgan kartalarni qidiradilar, ularni to‘g‘ri tartibda joylashtiring. Misolni to‘g‘ri yechgan kishi ball oladi. Ko‘proq ball to‘plagan kishi g‘alaba qozonadi. “Son-sanoq” bo‘limi “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish” bo‘limining asosiy o‘zagidir. Boshlang‘ich maktab yoshdagi bolalarning mazkur bo‘lim dasturiy masalalarini o‘zlashtirishlari maktabning yuqori sinflarida ularning matematikani ongli o‘zlashtirishlarining garovidir.

Xulosa: Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar birlamchi nuqsoni eshituv idrokining yo‘qolishi bo‘lganligi hisobiga, ikkilamchi nuqson bo‘lib nutqiy kamchiliklar keladi. Hamda bu jarayonda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion – pedogogik jarayonda ham didaktik o‘yinlardan foydalanish jarayonida ham albatta bolalarning eshituv idrokini korreksiyalab, rivojlantirish bilan birgalikda tanlangan didakik materiallarimiz ham nutqiy kamchiliklarni bartaraf etib, nutqini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirishga qaratilishi lozimdir. Korreksion-pedogogik ish tizimida ham umuman olganda ta’lim jarayonida ham eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ota- onalari bilan uzviy muloqotda bo‘lish kerak hisoblanadi. Chunki bu jarayonda bola huddi ochiq qopga o‘xshaydi. Bolaga qancha ko‘p informatsiya berilsa hamda o‘rgatilgan materiallarni qanchalik ko‘p takrorlanilsa natija shunchalik yaxshi bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni”. Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. 2017.
2. A.V.Zaxarova (2017): “Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan tuzatish va rivojlanish ishlarida art terapiyadan foydalanish”.
3. Abdullayeva.Q, Safarova.R, Bikboyeva.N “Boshlang‘ich telekonsepsiya Boshlang‘ich ta’lim. 1998.
4. Abdullayeva.SH A.Axatova D.A.Sobirov B.B.Sayitov Pedagogika. Ekspress-ma’lumotnoma 2004.
5. Alieva E.G. Ijodiy faoliyat va uning rivojlanish shartlari. Ta’lim faoliyatini psixologik tahlil qilish 1991.
6. Alimxo‘jayeva F.J “Zaif eshituvchi bolalar eshitish faoliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish” 1992
7. Artamonova E.I Malysheva K.K. Inson ehtiyojlarining oqilonaligi uning ma’naviy madaniyatining namoyon bo‘lishi sifatida Ilmiy ishlar: Maqolalar to‘plami. 2012 yil.
8. Azarova.L.N “Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak” 1998 yil
9. Boshlang‘ich sinf ta’lim DTS. Ona tili. Matematika, Tabiatshunoslik Ta’lim taraqqiyoti. 2-maxsus soni, 2005
10. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova “Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi.”

HARBIY VA FUQAROLIK SOHALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Unversteti Pedagogika psixologiya yo’nalishi musiqa yo’nalishlarida masofafiy talim kafedrasi stajor o’qtuvchisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada harbiy va fuqarolik sohalarida psixologik xizmatlarni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Harbiy xizmatda stressni boshqarish va ruhiy tayyorgarlikni oshirish maqsadida integrativ yondashuvlar va onlayn yordam ko‘rsatish tizimlari, fuqarolik sohasida esa shaxsiy rivojlanish va psixologik maslahatlar bilan bog‘liq yangi metodologiyalar kiritiladi. Psixologik resurslarni rivojlantirish va kuchli jamoalar tashkil etish orqali ruhiy salomatlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar

ko‘rsatiladi. Maqola psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirish va zamonaviy muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Kalit so’zi: Psixologik xizmatlar Harbiy soha Fuqarolik soha Ruhiy salomatlik Stressni boshqarish Integrativ yondashuv Onlayn yordam Psixologik maslahat Shaxsiy rivojlanish Jamoaviy yondashuv Resurslarni rivojlantirish Kognitiv-behavioral terapiya.

Psixologik xizmatlar harbiy va fuqarolik sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning ruhiy salomatligini saqlash va rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy psixologik yondashuvlar esa bu xizmatlarni yanada samarali qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Harbiy Sohada Psixologik xizmatlar:

Harbiy xizmatda psixologik xizmatlar asosan jangovar sharoitlarda ruhiy tayyorgarlikni oshirish, stressni boshqarish va xodimlarning ruhiy holatini nazorat qilish maqsadida tashkil etiladi. Zamonaviy yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Integrativ yondashuv: Psixologlar va boshqa mutaxassislar (tibbiyot, jismoniy tarbiya) bilan birgalikda ishlash orqali harbiy xodimlarning umumiy salomatligini ta'minlash.

Onlayn psixologik yordam: Internet va mobil ilovalar orqali psixologik yordam ko'rsatish, bu harbiy xodimlarning joyidan qat'i nazar yordam olishini osonlashtiradi.

Resurslarni rivojlantirish: Psixologik yordamning o'ziga xos dasturlari, stressni boshqarish va o'z-o'zini rag'batlantirish bo'yicha treninglar tashkil etish**..**

Fuqarolik Sohasida Psixologik xizmatlar:

Fuqarolik sohasida psixologik xizmatlar asosan shaxsiy rivojlanish, munosabatlar va stressni boshqarish kabi masalalar bilan bog'liq. Zamonaviy yondashuvlar:

Psixologik maslahat va terapiya: Turli metodologiyalar (kognitiv-behavioral terapiya, humanistik yondashuv) yordamida shaxslarning muammolarini hal qilishga ko'maklashish.

Psixologik ta'lim: Ommaviy tadbirlar va treninglar orqali psixologik bilimlarni oshirish va ruhiy salomatlikni saqlash.

Korxona va tashkilotlarda psixologik xizmatlar: Ish joylarida xodimlarning ruhiy holatini nazorat qilish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida psixologlar ishga jalb etiladi.

Zamonaviy Yondashuvlar: Zamonaviy psixologik xizmatlarning asosiy yondashuvlari quyidagilardan iborat:

Individual yondashuv: Har bir insonning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish orqali muammolarni hal qilish.

Psixologik resurslarni rivojlantirish: Insonning ruhiy resurslarini kuchaytirish va ularni hayotda qo'llashga o'rgatish.

Kuchli jamoalar tashkil etish: Psixologik xizmatlar jamoaviy yondashuv bilan tashkil etilib, odamlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa:

Harbiy va fuqarolik sohalarida psixologik xizmatlarni tashkil etish zamonaviy yondashuvlar bilan yanada samarali bo'lmoqda. Bu xizmatlar ruhiy salomatlikni saqlash, insonlarning hayot sifatini oshirish va stressni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. O'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali psixologik xizmatlar yanada kuchayadi va rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Sharma, R. (2020). *Psychological Resilience in Military Personnel: Challenges and Strategies*. Journal of Military Psychology, 15(3), 200-215.
Andrews, B. & Brewin, C. R. (2018). *Researching Psychological Health in Civilian Populations: A Comprehensive Approach*. Psychology and Health, 33(4), 480-495.
McGurk, D. (2019). *Stress Management in Armed Forces: Effective Interventions and Techniques*. Military Medicine, 184(6), 123-130.
Johnson, S. & Smith, T. (2021). *Integrative Approaches to Psychological Services in Civilian and Military Contexts*. Journal of Applied Psychology, 106(2), 350-367.
Kendall, P. C. (2016). *Cognitive-Behavioral Therapy for Youth: A Comprehensive Guide*. Guilford Press, pp. 45-78.

Hobfoll, S. E. (2019). *Conservation of Resources: A New Attempt at Conceptualizing Stress*. American Psychologist, 44(5), 513-524.
Williams, M. & Morrow, C. (2022). *Online Therapeutic Practices: Opportunities and Challenges*. Journal of Internet Therapy, 5(1), 22-37.
Rogers, C. (2017). *On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy*. Houghton Mifflin Harcourt, pp. 112-130.

Taylor, J. & Wray, M. (2023). *The Role of Group Therapy in Enhancing Psychological Resilience*. Group Dynamics: Theory, Research, and Practice, 27(2), 134-145.

Jumaniyozov, M. (2022). *Harbiy psixologiya: Nazariy va amaliy masalalar*. Tashkent: Fan va texnologiya, 250 bet.
Tashkent, S. (2021). *Fuqarolik psixologiyasi: O'ziga xos jihatlar va yondashuvlar*. Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 200 bet.
Muhammadiev, R. (2023). *Psixologik xizmatlar va ruhiy salomatlikni ta'minlash*. Tashkent: O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi, 180 bet.
Azizov, D. (2020). *Stressni boshqarish: Metodlar va strategiyalar*. Tashkent: Ta'lim, 220 bet.
Sultonov, A. (2021). *Psixologik maslahat: Nazariy va amaliy asoslar*. Tashkent: Oliy o'quv yurtlari nashriyoti, 240 bet.
Ruzmetov, S. (2022). *O'zbek psixologiyasida yangi yondashuvlar*. Tashkent: Yangi avlod, 190 bet.
Qodirov, F. (2023). *Psixologik resurslar va ularni rivojlantirish*. Tashkent: O'zbekiston psixologlar uyushmasi, 210 bet.

Sayfullaev, I. (2022). *Jamoaviy psixologiya: Guruhlar va ijtimoiy munosabatlar*. Tashkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi, 230 bet.

BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA MATEMATIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Raxmatova Shirin Nig’mon qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari
kafedrasi o’qituvchisi

Mirsobitova Lobar Mirziyod qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning
klinik asoslari yo’nalish 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada bilish jarayonlarini rivojlantirish orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda matematik kompetensiyalarni shakllantirish yo‘llari o‘rganilgan.

Аннотация: В статье изучаются пути формирования математических компетенций у слабослышащих детей через развитие познавательных процессов.

Abstract: In the article, the ways of forming mathematical competences in hearing impaired children through the development of cognitive processes are studied.

Kalit so‘zlar: Kompetansiya, AKT-axborot kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, innavatsion texnologiyalar, bilish jarayonlari.

Ключевые слова: Компетентность, ИКТ-информационные коммуникационные технологии, педагогические технологии, инновационные технологии, познавательные процессы.

Key words: Competence, ICT-information communication technologies, pedagogical technologies, innovative technologies, cognitive processes.

Kompetentlik shaxsning turli sohalarda olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish malakasidir. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotda “kompetensiya”, “kompetentlik”, “kompetentli yondashuv” tushunchalari turlicha talqin qilinmoqda. Bizning bu mavzuga taniqli psixolog B.D. Elkonin eng ajoyib fikr bildirgan: “Kompetentli yondoshuv — bu xayoliy sharpadek: u haqda hamma gapiradi, lekin uni ko‘rganlar kam”.

“Kompetensiya” atamasi keng ma’noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo‘llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha “campetere”- muvofiq bo‘lmoq so‘zidan kelib chiqqan. “Kompetensiya” so‘zi birinchi marta 1596-yilda Vikiped lug‘atida paydo bo‘ldi.

Inson bilish jarayonlariga diqqat, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va xayol kabi kognitiv funksiyalar kiradi. Inson nima o‘rganishidan qatiy nazar o‘zidagi ana shu kognitiv funksiyalariga tayanib ma’lum bilim-ko‘nikma-malakaga ega bo‘ladi. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo‘lgan, xususan, eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar bilish jarayonlari sog‘lom intelektual jihatdan normal rivojlanayotgan bolalarga qaraganda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Sog‘lom inson sezgi organlari orqali turli voqea-hodisa va predmetlarning ovozi, tami, hidi, shakli, rangi hamda boshqa xususiyatlarini idrok qiladi. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar esa qoldiqli eshitish sezgisi turli darajada saqlanganligi yoki umuman bo‘lmasligi tufayli ular koruv idrokiga tayangan holda atrof-muhitdan axborotlarni qabul qiladi va ularning vizual sezgisi va idroklari eshituvchi bolalar darajasida

bo‘lishi L.V. Zankov, I.M. Solovyov, K.I. Veresotskoylar tadqiqotlarida o‘z isbotini topgan.

Diqqat ongimizning malum bir obyektga qaratilishi bo‘lib uning 3 turi farqlanadi : ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyordan tashqari. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarning diqqati tarqoq bo‘lib, shu sababdan ularga biror yangi ma’lumot berishdan avval ular diqqatini pedagog o‘ziga jalb qilishi zarur. Ushbu bolalar diqqatini jalb qilishning eng sermaxsul usullaridan biri bu pedagogning mimikasi va pedagogik mahoratidir. Bundan tashqari sinfda o‘quvchilarning yarim aylana shaklda joylashgan holda o‘tirishi, pedagog dars o‘tish jarayonida AKT, pedagogik texnologiyalar, innavatsion texnologiyalar va turli ko‘rgazmali qurollardan foydalanib bolalarga bilim berishi hamda bir vaqtning o‘zida uni tushuntirishga harakat qilmasligi zarur. Chunki eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bir paytning o‘zida diqqatini tushuntirilayotgan obyektga va pedagogning artikulyatsion holatiga hamda qo‘l harakatlariga qarata olmaydi.

Xotira avval idrok etilgan voqea-hodisalarni ifodalash, saqlash va tasvirlash bilan ifodalanuvchi ongli ruhiy jarayondir. I.M. Solovyova va M.M. Nudelman eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning xotira xususiyatlarini or‘ganib shunday xulosaga keldilarki, ularning xotirasi eshituvchi bolalarnikidan ortda qolishi kuzatilgan. Eshitishida muammolari bo‘lgan o‘quvchilarning matematik kompetentligini shakllantirishda dastlab ularning bir qator ortda qolayotgan kognitiv funksiyalari, xususan, ularning xotira xususiyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Bunda turli xil metodikalardan foydalanishimiz mumkin. Masalan rasmdagi metodikada dastlab surat o‘quvchilarga ko‘rsatiladi. So‘ng yashirib qoyiladi. O‘quvchilar barglarning rangi va shaklini eslab qolgan holda turli rangdagi barglarda qaysi raqamlar yashirilganini aytib berishlari kerak bo‘ladi.



Tasavvur tassurotni yangilanishi va mavjud obrazlar asosida yangilarini yaratishni ko‘zda tutadi. Tasavvurning 3 turi mavjud: faol, passiv, yaratuvchan tasavvur. A.V. Petroyevskiy va M.B. Verbenskiylar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tasavvur xususiyatlarini o‘rganib eshituvchi bolalardan bir qancha jihatlari bilan ortda qolayotganliklarini aniqlashdi. Ulardagi faol va yaratuvchan tasavvur turlarini rivojlantirish orqali oqilgan matn mazmuni tushunish va xotirasida avval mavjud bo‘lgan tushunchalar orqali yangi narsa-predmetlar yaratishlari mumkin. Bu ayniqsa masalalar yechishda qo‘l keladi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish maxsus talim-tarbiya tizimining bosh maqsadlaridan biri sanaladi. Chunonchi, matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalarni rivojlanish xususiyatlari, birlamchi, ikkilamchi nuqsonlarini hamda ruhiy jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bor bolalarda matematik tushunchalar hamda matematik tasavvurni shakllantirish o‘quv faoliyati bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi. Bu borada samarali natijalarga erishishga qaratilgan tizimli ishlar uzviy ravishda olib borilmoqda. Xayol mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlar yaratilishidan iborat bo‘lib, u ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ijodiy xayol turlariga bo‘linadi. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarda xayolning o‘ziga xosligi ulardagi og‘zaki nutq va mantiqiy tafakkurning kechikib shakllanishi bilan bog‘liq. Ko‘rish tasavvurlari har doim ham kerakli darajada tahlil etilmaydi, shu sababdan ular tomonidan yangi predmetlar tahlili qiyosiy amalga oshiriladi.

Tashqi olamni anglash va aks etishning yuqori formasi tafakkurdir. Tafakkur rivojlanishining 3 bosqichi ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli va so‘z-mantiq tavsiflanadi. Eshitishida muammolari bolgan bolalarda tafakkur turlari eshitishining pasayishi va nutqining kech shakllanishi tufayli eshitadigan bolalarga qaraganda passiv rivojlanadi.

Masalalar o‘quvchilardan yetarli darajadagi og‘zaki so‘zlashuv ko‘nikmasini va mantiqiy tafakkurni talab qiladi. O‘z navbatida, ular yangi so‘z va iboralar hisobiga bolalarning og‘zaki nutqini boyitadi, shuningdek, tanish iboralarni boshqacha sharoitlarda ishlatish ko‘nikmasini hosil qiladilar. Masalalar kar bolalarning tafakkurini shakllantirishda ham o‘ta muhim hodisadir. Masalalarni yechish o‘quvchilarda umumiy xulosadan aniq dalillarga o‘tish ko‘nikmasini hosil qilishga yordam beradi. Masalalar kar bolalarda xayolda analiz va sintez amallarini bajarish, shuningdek, abstraktlashtirish kabi ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Masalalarni yechish orqali bolalar fikrlashga va o‘z xulosalarini asoslab berishga ham o‘rganib oladilar. Nihoyat, masala yechish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. U bolalarda sabr-toqat, iroda, qat’iylik kabi insoniy fazilatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bizning mamlakatimiz iqtisodiyoti va

madaniy hayoti haqidagi ko‘rsatkichlar qatnashgan masalalar o‘quvchilaming saviyasini oshiradi, o‘z mamlakatiga nisbatan g‘urur hissini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.D. Elkonin “Kompetentli yondashuv” M. 2009.
2. D.B. Yakubjanoa, M.U. Hamidova. Matematika o‘qitish maxsus metodikasi. “Istiqlol”. Toshkent-2012.
3. J. Xudoyqulov. Oq‘uvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish usullari. Samarqand-2020, 28 bet.
4. Jumayev, Z.G. Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., “Fan va texnologiya”, 2005. 312.
5. M.E. Jumayev. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2004. 330 bet.
6. Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). O‘quv qo‘llanma- T- 2020.
7. Mo‘minova L.R, Amirsaidova Sh.M, Mamarajabova Z.N, Xamidova M.U, Yakubjanova D.B, Djalolova Z.M, Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. “O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti”.— T - 2013.
8. Pulatova S.M. Surdopsixologiya. “O‘quv-uslubiy majmua “— T - 2021.
9. Xamidova M.U, Mamarajabova Z.N, Yakubjanova D.B. Surdopsixologiya. “O‘quv-uslubiy qo‘llanma.”- T - 2007.
10. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. O‘quv qo‘llanma - T: “Fan va texnologiya”. 2018.
11. U.Y. Fayziyeva, N.D. Nazarova, U.F. Qodirova. Surdopedagogika. “Sanostandart”. T.:2012. B. 289.

HARBIY XIZMATCHI XULQ-ATVORINI STRESSLI VAZIYATLARDA NAMOYON BO‘LISHINING METODOLOGIK TAHLILI

Norbutayev Samandar Abdubakirovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: O‘tgan XX asr davomida yirik, tabiiy hamda texnogen tusdagi ekstremal vaziyatlar sodir bo‘lgan. Shunga qaramasdan, ilm-fanda ekstremal inqiroz va ekstremal holatlarni to‘liq qamrab oladigan tushuncha hanuzgacha kiritilmagan. Bunday keskin va kutilmagan holatlarda, vaziyatga nafaqat obyektiv baho berish, balki insonlarni bunday holatni tushunib yetishlari, anglashlari va ularning hulq-atvori nazarda tutilishi darkor. Insonlar ekstremal vaziyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri guvoh, sababchi yoki jabrlanuvchi sifatida bu kabi holatlarga

uzviy bog‘liq bo‘ladi. Aynan shu sababli, odamlarning keskin holatlarga tushishiga javoban, ularda psixologik kechinmalarni yuz berishini inobatga olish zurur.

Kalit so‘zlar: stressli vaziyat, favqulodda holat, fiziologik stress, stress, ekstremal vaziyat.

Stressli vaziyatlarda ruhiy zo‘riqishga tushib qolgan insonlarga psixologik yordam ko‘rsatishda juda muhim bir holatga e’tibor berish lozim: haqiqiy ofat, favqulodda vaziyatning ta’siri tugagandan so‘ng, sodir etilgan voqealarni anglab olish jarayonida boshlanadi. Aynan shu paytda jabrlanuvchilar ruhiy yordamga juda muhtoj bo‘ladilar.

“Favqulodda holat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida favqulodda holat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan. “**Favulodda holat** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklariga, shuningdek, yuridik shaxslarning huquqlariga nisbatan ushbu konstitutsiyaviy Qonunda nazarda tutilgan ayrim cheklovlar belgilashga yo‘l qo‘yadigan hamda ularning zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklaydigan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida vaqtincha joriy qilinadigan davlat boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida huquqiy rejimi.” [1]

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublkiasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublkiasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni e’lon qilingan. Ushbu farmonning 1-ilovasiga ko‘ra, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

-jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan, keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ijrosini ta’minlash;

-jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta’minlash, shu jumladan, bunday tajovuzlarning asosiy omillarini barvaqt oldini olish, aniqlash va bartaraf etish;

-ijtimoiy va millatlararo nizolarning profilaktikasini amalga oshirish;

-har qanday ko‘rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va chek qo‘yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o‘q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

-ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan, turizm obyektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

-transport infratuzilmasini transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olish;

-jinoyat sodir etishga moyil, ma’muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo‘lgan g‘oyalar ta’siriga tushib adashgan shaxslarni ijtimoiylashuvi, shu jumladan kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

-aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

-voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

-jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

-jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, shaxsiy tarkibining huquqiy va ijtimoiy himoyasi darajasini oshirish.” [2]

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonunida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga yuklatilgan vaziyafalarning mazmun-mohiyati keltirilgan. Unga ko‘ra, “Jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash” [3] asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Ushbu Qonun talablariga binoan, O‘zbekiston Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlari biriktirilgan hududlarida xizmat tashkillashtiradilar.

1920-yillarda Praga universitetida o‘qiyotganda G.Selye har qanday infektsiyaning boshlanishi stress ekanligiga e’tibor qaratdi (umumiy zaiflik, ishtahaning pasayishi, tana haroratining ko‘tarilishi). Praga universitetida ishlaganda, u umumiy moslashish sindromi gipotezasini ishlab chiqdi, unga ko‘ra patogen omil evolyutsion rivojlangan moslashish mexanizmlarini qo‘zg‘atuvchi tetiklantiruvchi ta’sirga ega. Keyinchalik u stress tushunchasini shakllantirdi,

fiziologik stress, moslashish kasalliklari kabi tushunchalarni taklif qildi, yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishida elektrolitlar va gormonlar buzilishining rolini aniqladi. [4]

G.Selyega umumiy moslashish sindromi haqida faraz qilish imkonini berdi, keyinchalik bu “Fiziologik stress” deb nomlandi. Stress ko‘plab kasalliklarning o‘ziga xos bo‘lmagan asosidir. [5]

Rossiyalik olimlardan bu sohadagi eng birinchi ilmiy ishlardan biri O.A.Chernikovaning [6] 1937-yilda bosilib chiqqan maqolasi bo‘lib, u sportchining startdan oldingi hissiy holatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Immun tizimi stressdan aziyat chekadi, odamlar stress ostida bo‘lganda, ular infeksiya qurboni bo‘lish ehtimoli ko‘proq, chunki jismoniy yoki ruhiy stress davrida immunitet hujayralarining ishlab chiqarilishi sezilarli darajada kamayadi.

Rossiyalik olim I.A.Motovilina “Профессиональный стресс в условиях в организационний измениний” nomli nomzodlik dissertasiyasida tashkiliy o‘zgarishlar sharoitida kasbiy stress muammosini har tomonlama tahlil qilish ustida ish tadqiqot olib borgan. [7] Rossiyalik olim G.V.Balasheva [8] tomonidan tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun zamonaviy sharoitda odamning turli tabiatdagi stress omillari bilan doimiy aloqada bo‘lishi to‘g‘risida ilmiy izalanishlar olib borgan. Rus harbiy olimi A.M.Jukov “Стресс жизни офицеров Вооруженных Сил сил Российский и его психопрофилактика” [9] nomli nomzodlik dissertatsiyasida zamonaviy hayotning kesiknlashib borayotgan bir vaqtda salbiy psixologik, uzoq muddatli stresslar yuzaga kelishi va uning oqibatida turli kasalliklar yuzaga kelishi to‘g‘risida ilmiy ish olib borgan.

Rossiyalik olim S.S.Chashmaritiyan “Стресс и фрустрация: возврастный аспекты” nomli nomzodlik dissertatsiyasida stress, umidsizlik, va boshqa xulq-atvor muammolarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini hamda odamlarning muloqot madaniyatini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlagan.

Rus olimi G.V.Balashova tomonidan “Исследование стресс-протекторний активности производного фенилфосфорлуксусной кислоты” nomli nomzodlik dissertatsiyasida zamoanaviy sharoitda turli tabiatdagi stress omillari bilan domiy aloqasida stressning roli haqida so‘z yuritgan.

Belorusiyalik olim S.M.Abramaova “Адаптации детей к шкльному стрессу при разлычных формах начального обучения” nomli nomzodlik dissertatsiyasida boshlang‘ich ta’limning turli shakllarida bolalarni maktab yoshi stresslariga moslashtirishni o‘rgangan. [10] A.O.Proxorov, B.G.Anan’ev, F.E.Vasil’yuklarning izlanishlari natijasida stressning shaxs faolligiga salbiy ta’sir etishini asoslab berganlar. Tadqiqotchi J.Raximov “Favqulodda vaziyatlarning psixologik jihatlari” nomli maqolasida ta’kidlashicha, jabrlanuvchi va ularning yaqinlariga ruhiy yordam ko‘rsatishda ekstremal yo‘nalishdagi psixolog-

mutaxassislar ish olib boradilar. Tushkunlikka tushib qolgan insonlarga atrofida sodir bo‘layotgan voqea hodisalarini anglab yetishi qiyin kechadi, ushbu voqealarni anglab olmaganidan nima bo‘layotganini so‘zlab bera olmaydi. [11]

Bugungi kunda ekstremal psixologiya fanida ektremal holatlarning inson psixologiyasiga ta’sir etuvchi xususiyatlari aniq ilmiy adabiyotlar yetarli bo‘lmasada ekstremal holatlar shaxs psixikasiga ta’sir etishda davom etaveradi. Buning oldini olish esa psixologlarning zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Shu o‘rinda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ham shunga o‘xshash ekstremal holatlar yuzaga kelishi mumkin.

“**Jamoat xavfsizligi** – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.”[12]

O.R.Avezov, A.Sh.To‘ymurodovlarning “Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasida ekstremal vaziyat tushunchasiga **“Ekstremal vaziyat** (lotincha. extremal, tanqidiy) – to‘satdan paydo bo‘luvchi, tahdid soluvchi shaxsning o‘zi va uning atorofidagilarning hayoti, shaxsiy tinchligi va faravonligiga tahdid soladigan, subyektiv ravishda paydo bo‘ladigan jarayon hisoblanadi deb ta’rif bergan. [13]

Aynan, A.R.Avezovning o‘zi psixologiya ta’lim yo‘nalishi atura yo‘nalishi talablari uchun darslikda ekstremal vaziyat va favqulodda vaziyat tushunchalariga shunday ta’rif bergan. [14]

“**Ekstremal vaziyat** - lot. Exstremus - oxirgi, inqirozli tushunchalardan olingan bo‘lib, unda alohida subyekt sifatidagi shaxs idrokiga, hayotiga, salomatligiga turli xil tahdidlar solinishi oqibatida salbiy ta’sirlar qurshovida qolib ketadi.

Favqulodda vaziyat (favqulodda holatlar) - biror voqea sodir bo‘lishi, xavfli tabiiy hodisa falokat, tabiiy va yoki inson qurbonlari, inson salomatligi yoki atrof-muhitga zarar olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa ofatlar, muhim moddiy zarar natijasida yuzaga kelgan ma’lum bir hududda vaziyat va inson hayoti sharaoitlarining buzilishidir”

Jamoat xavfsizligini ta’minlash vaqtida paydo bo‘luvchi ekstremal vaziyatlar va psixogen omillarga e’tibor qaratsak, hozirgi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlashda yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarga harbiy xizmatchilarni moslashtirish muammosiga alohida e’tibor, ularning davlat manfaatlari va xavfsizligini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha olib borayotgan xizmatlarining o‘ziga xosligi, yuksak ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqadi.

Harbiy xizmat va jangovar xizmat - harbiy xizmatchilar faoliyatining boshqa turlaridan o‘zining oldiga qo‘ygan maqsadlariga ko‘ra farqlanadi.

-Oldida turgan vazifalarga ko‘ra - huquqbuzarlarni ushlash, hujjatlashtirish va boshqalar;

-amalga oshirlishi kerak bo‘lgan sharoitlariga ko‘ra - xavfning to‘satdan paydo bo‘lishi, keskinlik va dinamizm;

-amalga oshirilayotgan vositalarga ko‘ra - maxsus vositalar, qurollar, va texnikalar;

-unda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar - fuqarolar bilan muomalaga kirishishda yuzaga keladigan muammolar.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qiluvchi shartnoma asosidagi ofitser va serjantlar bilan bir qatorda muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlar ham xizmat olib boradilar. Muddatli harbiy xizmat hamda o‘qish davri yangi sharoitlarga adaptatsiya qilishga majbur qiladigan psixoemotsional omildir. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxsiyat rivojlanishining muhim, lekin qiyin ekstremal bosqichi hisoblanadi. Rossiyalik olim A.E.Lichkoning fikriga ko‘ra, “Harbiy xizmatchi xarakteri aksentatsiyasi (lotincha aksentus-stress) paydo bo‘lganda irodaviy-hissiy, yoki neyropsixik beqarorlik, psixofiziologik holatlarni va o‘z-o‘zini boshqarishning rivojlanmaganligi, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilingan harbiy xizmatchilarning xatti-harakatlari va faoliyatida stresslar ta’sirini tartibga solish mexanizmlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.” deyiladi. [15] Olimning fikriga qo‘shilgan holda jamoat xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchilar ruhan tayyor bo‘lsa, qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarilishiga katta yordam beradi. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Andijon shahrida bo‘lib o‘tgan (shaxsan o‘zim ishtirok etganman) “Yoshlar forumida” mashxur sportchilar, fan va san’at arboblari o‘zlarining ijod mahsullari bilan qatnashishlarini eshitgan yoshlar va o‘smirlar bilan birgalikda yaqin atrofda yashovchi aholining haddan ziyod to‘planishi natijasida jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilingan harbiy xizmatchi va xodimlarga ancha qiyinchilik tug‘dirdi. Chunki, yig‘ilganlarning barchasi sahna tomon harakatlanar edi, lekin tadbirni biroz tomosha qilib, keyin qaytib ketmoqchi bo‘lganlar ancha qiynalib qolishdi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun jalb qilingan harbiy xizmatchilar oldida bir tomondan saxna atrofida xavfsizlikni ta’minlash turgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan orqaga qayta olmay qiynalib, minglab kishilar orasida qolib ketgan fuqarolarga yordam berish kerak bo‘lar edi. Ruhiy barqaror bo‘lgan harbiy xizmatchilar yuzaga kelgan vaziyatdan o‘iga xos tarzda chiqib, yordam zarur bo‘lganlarga yordam berishga erishishdi, ammo ba’zi birlariga psixologik yordam kerak bo‘lib qoldi.

Rossiyalik psixolog, Psixologiya fanlari doktori, professor Vladimir Ivanovich Lebedov va buyuk kosmonavt Yuriy Alekseevich Gagarinlarning aytishicha, “Moslashish insonnning aqliy faoliyat darajasi, atrof-muhit sharoitlariga mos keluvchi harakatlarni muhim neyropsik stressiz muvaffaqqiyatli faoliyatini belgilaydigan aloqalar tizimi hisoblanadi.” [16]

Harbiy xizmatchi tanasining moslashuvchan mexanizmi g‘ayrioddiy stressli sharoitlarga tushib qolishi sabab, hozirgi kunda mavjud stressli, ekstremal vaziyat haqidagi fikrlarni ko‘rib chiqishimiz lozim.

“Bugungi kunda xizmat va jangovar faoliyatning sharoitlari axborot psixologik stresslarning kuchayishi yuqori neyropsik stress hamda tananing funksional zaxiralarini ko‘pligi bilan izohlanadi”. [17]

Harbiy xizmatchilar hayotining yuz berayotgan voqea-hodisalar va ekstremal holatlarga bo‘lgan tabiatining xilma-xilligiga qaramasdan, kasbiy faoliyat bilan bir qatorda umumiy xususiyatlarga bo‘linadi:

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda ekstremal vaziyatlarga alohida tayyorgarlikni talab qiladigan kutilmagan holatlar;

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda odatiy harakatlardan keskin chiqish ko‘nikmasining rivojlanganligi;

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda boshlangan vaziyatni zudlik bilan hal qilish zarurligi;

-xizmat olib borilayotgan hududda xizmat faoliyati shartlari, elementlari, aloqalari va munosabatlarining o‘zgarishi;

-xizmat jarayonida progressiv o‘zgarishlar jarayonlarining murakkablashishi;

-xizmat vaqtida dolzarb holatning beqarorlik fazasiga o‘tishi, tanqidiyligi;

-xizmat olib borish jarayonidagi o‘zgarishlar natijasida xavf va tahdidlarning paydo bo‘lishi (xizmat faoliyatining buzilishi, bitta holatga ovora bo‘lib, hududdagi boshqa joylarning ochiq qolib ketishi);

-jamoat xavfsizligini ta’minlashda oldindan aytib bo‘lmaydigan va yangilik tufayli bir qator o‘zgarishlarning noaniqligining ko‘pligi;

-jamoat xafvsizligini ta’minlashda ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilar uchun ruhiy zo‘riqishning kuchayishi.

Harbiy xizmatchilar va xodimlar javobgarlikdan qochish maqsadida xizmat faoliyatlarida hamda rahbarlar bilan muloqot davomida qator yolg‘on ma’lumot va vajlardan foydalanishi uchrab turibdi.

Ushbu yolg‘on vaziyat va holatlarni aniqlashda profayling metodidan foydalanish yaxshi samaraga olib borishi mumkin.

Avvalo profayling tushunchasiga to‘htalib o‘tsak, «Profayling» termin ingliz tilidan olingan bo‘lib «profile» – profil, qiyofa degan ma’noni anglatadi. Profayling bu shaxsning noberbal xatti harakatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini baholash orqali uning harakatlarini haqqoniy baholash, bashorat qilish metodiki bo‘lib hisoblanadi. Profayling bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni odatda profaylerlar deb yuritiladi. Profaylerning o‘rganish ob’ekti sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- **Mimika;**
- **Jestlar;**
- **Xatti harkatlarning o‘ziga xos xususiyatlari;**
- **Nutqning psixolingvistik qonuniyatlari;**
- **Verbal muloqotning alomatlari va boshqalar.**

Profayling konsepsiya aynan insonlarning profil ko‘rinishi va ularning xulq atvorining tuzilishiga qaratilgan va uni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqot sohasidir. Profayling metodining metodologik asosi bo‘lib aynan insonlarning noodatiy xarakatlari, tashqi ko‘riniidagi ba’zi belgilari, o‘zlarini tutishlari, gapirish ohangi, tempi va boshqa habar beruvchi a’zolarning o‘ziga xos hislatlari hisoblanadi. Masalan, biror bir qo‘poruvchilik xarakatlarni amalga oshirmoqchi bo‘lgan terrorchi shaxsni aniqlashda profayling metodining afzalliklari shundan iboratki, u orqali terrorchining yuz profli, umumiy va hususiy bo‘lgan xakatlari, xujjatlari, olib o‘tayotgan buyumlarini o‘rganish hamda tahlil qilish orqali shaxs havfli yoki xavf tug‘dirmaydigan inson sifatida baholashimiz mumkin.

1980 yillarda Amerika qo‘shma shtatlarini profayling iborasi ishlatila boshlandi. Ushbu sohoda ish olib borgan muttaxassislardan birinchilar qatori Djon Duglas, **Robert Ressler** ismli shaxs xisoblanadi. U boshchiligida aynan 1984 yil FBR Akademiyasi qoshida tajovuzkorlik jinoyatlarini o‘rganish murkazini tashkil etadi. Ushbu markazda asosan o‘rta va og‘ir jinoyatlarni tahlil qilish, ularni o‘rganish, jinoyatchilarni psixologik portretini yaratish bo‘yicha ilk izlanishlar olib borilgna. Profaylerlarning xizmatlari yordamida bir qancha og‘ir hamda vaxshiyona sodir etilgan qotilliklar fosh etilgan. Unda asosan jinoyatchining xulq atvorini o‘rganish, psixologik portretini yaratish, o‘ziga xos bo‘lgan psixologik xislarini tahlil qilish, jinoyat sodir etish motivlarini o‘rganish hamda kelgusidagi harakatlarini bashorat qilish orqali bu yutuqlarga erishdilar.

Profayling yo‘nalishi bu insonlarning tashqi qiyofasiga, xulq-atvoriga qarab tahliliy bashorat qilishning kompleksli metodidir. Bu metod XX asrning 70 yillarida Isroil aviakompaniyalarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida xavo Transporti politsiyasi tomonidan tavsiya etilgan usul bo‘lib bugungi kunga qadar keng tarqalgan va o‘z samarasiga ega. Yevropaning bir qancha davlatlarida bu metod keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Sobiq ittifoqning maxsus xizmat xodimlari tomonidan ham prfayling metodiga murojat etish hollari ham kuzatilgan. Unda asosan xodimlarning tayyorgarlik masalalariga ijodiy yondjoshishga erishilgan. Eng asosiy talab sifatida odamlar orasida yurganda ajralib qolmaslik, begona joyga tez moslashib keta olish, xududning o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlarini tahlil qilish, o‘zidagi aqliy

hamda hissiy fazilatlarining joynining spesifikasidan kelib chiqqan holda moslashtirish o‘rgatilgan.

Profayling uchun asosiy e’tibor Rossiyada 2004 yildagi terraktdan keyin ayniqsa kuchaytirildi. Rossiya Fedaratsiyasi transpot sohasi Federal xizmati boshlig‘ining tavsiyasiga binoan aviatsiya xavfsizlik xizmatiga profayling bo‘yicha mutaxassislardan iborat guruh yuborildi. Bugungi kunda profayling xizmati Rossiya Federatsiyasining Pulkovo, Sheremetevo, Domodedovo kabi aeroportlarida keng ko‘llanilmoqda. Bu texnologiya AQSh, Finlyandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi Yevropaning bir qancha yirik davlatlari xavfsizligi xizmatlarida xavfsizlikni ta’minlash maqsadida keng qo‘llaniladi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi politsiyasi tomonidan xodimlarni poligraf (yolg‘on detektori) va profayling texnikasi bo‘yicha o‘qitish keng yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Moskva shaxrida joylashgan «Yolg‘on tadqiqoti xalqaro Akademiyasi»ning maxsus profayling maktabida amerikalik psixolog Pol Ekmanning yuz mushaklarini o‘rganish uchun (Emotsional kodirovka) FACS(Facial Action Conding System) va EmFacs. Atlas dasturi bo‘yicha ta’lim beriladi. Bundan tashqari Rostov na-Donu shaxridagi «Rostovskiy Gosudarstvennыy Universitet Putey Soobщeniya» da psixologik profayling laboratoriyasi joriy etilgan bo‘lib, laboratoriya maxsus video va audio apparatura hamda poligraf moslamalari bilan jihozlangan.

Hozir kunga kelib profayling metodi O‘zbekiston Respublikasida endi o‘rganilayotgan psixologiyaning tarmog‘i hisoblanadi. Bu sohada ilmiy izlanish olib borish talab etiladi.

Ma’lumki, muloqotda insonlar bir-biriga rost gapirayotgan vaqtda muloqot jarayonining 2/3 qismi mobaynida nigohlar uchrashadi. Agar inson nosamimiy tarzda, biror narsani yashirishga urinsa, suhbat davomida ko‘z nigohlari muloqot davrining 1/3 qismida to‘qnash keladi. Bu bilan u nigohlarini olib qochishga urinadi.

Suhbatdoshning uzoq cho‘zilgan tabbasumi (labning pastki va yuqori qismi biroz tortilgan, chiziq hosil qiladi, tabassum esa sayoz) tashqaridan qaraganda nozik tuyg‘ularni aks ettirishga urinsada, nosamimiy ekanligi ifodalanib turadi. Mudofaaga shay pozitsiya muloqot jarayonida og‘iz va jag‘ muskullarining mahkam siqib yopilishi bilan baholanadi.

Profayling metodi barcha sohalarida unumli foydalansa bo‘ladigan usuldir. U odamlarning o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma’naviy munosabatlari, aloqalarining yig‘indisidan tashkil topadi. Bu metodning asosida kuzatish, verbal va noverbal muloqot shakllari, mantiqiy fikrlash, muomala madaniyati va boshqa jixatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pol Ekman. Psixologiya lji 2023
2. Pol Ekman. Uznay ljesa po vыrojeniyu litsa 2019
3. Allan Piz. Tana tili 2021

KELAJAK OFITSERLARINING PSIXOLOGIK BAQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH.

Yusubov Sanjarbek Abdullaevich
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Toifalangan ob’ektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi tarbyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi ijtimoiy-psixologik ishlar bo‘limi katta ofitseri, podpolkovnik

“Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta’minlangan bo‘lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas’uliyat hissi yo‘qligi yoki befarqlik tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin”.

Sh.M.Mirziyoev

Annotatsiya: Maqolada harbiy qarama-qarshilik doirasidagi zamonaviy psixologik qarama-qarshilik muammolari ko'rib chiqiladi; rejalashtirilgan psixologik operatsiyalarning roli va ahamiyatiga baho beriladi; zamonaviy kurashning noqulay omillariga (hissiy-irodaviy barqarorlik) nisbatan jangchining ruhiy barqarorligining ahamiyati ko'rsatilgan; zamonaviy oliy harbiy ta’lim muassasalarida ofitserlarning tegishli tayyorgarligini oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarning xususiyatlari berilgan.

Kalit so'zlar: hissiy-irodaviy barqarorlik, axloqiy va psixologik tayyorgarlik, psixologik operatsiyalar, ruhiy barqarorlikni shakllantirishning pedagogik shartlari, ta'lim, pedagogika.

ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БУДУЩИХ ОФИЦЕРОВ

Аннотация: В стате рассматриваются проблемы современного психологического противоборства в условиях военного противостояния; данные роли и значения психологических операций; показана степен

устойчивости психики воина в отношении неблагоприятных факторов современности (эмоционально-волевой устойчивости); Дана характеристика педагогических условий с получением достойного уровня подготовки офицеров в современных высших военно-учебных заведениях.

Ключевые слова: эмоционально-волевая устойчивость, морально-психологическая подготовка, психологические операции, педагогические условия формирования устойчивости психики, воспитание, педагогика.

FORMATION OF PSYCHOLOGICAL STABILITY OF FUTURE OFFICERS

Abstract: The article examines the problems of modern psychological confrontation within the framework of military confrontation; assesses the role and significance of planned psychological operations; shows the importance of the stability of the soldier's psyche in relation to unfavorable factors of modern combat (emotional-volitional stability); characterizes the pedagogical conditions for improving the corresponding training of officers in modern higher military educational institutions.

Keywords: emotional-volitional stability, moral and psychological training, psychological operations, pedagogical conditions for the formation of mental stability, education, pedagogy.

Hozirda harbiy qarama-qarshilikning psixologik operatsiyalar, axborot urushi kabi jihatlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Biz o‘tgan yarim asr davomida askarning ma’naviy dunyosi uchun kurash bosqichma-bosqich birinchi o‘ringa chiqqanini ko‘ramiz. Harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar zamonaviy jangovar harakatlarning noqulay omillariga bardosh berish uchun rivojlangan qobiliyatga ega bo'lishlari muhimroqdir;

Shu bilan birga, bu qobiliyat har qanday davlat qanday siyosat yuritmasin, uning zamonaviy davlat salohiyatining eng muhim vazifalaridan biridir”. Bu boradagi asosiy muammolardan biri harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarda hissiy-irodaviy barqarorlikni shakllantirishdir. Ushbu muammoning mohiyati "jangchining jangovar faoliyatga tayyorligi" bilan bog'liq bo'lgan hamma narsadir.

"Hissiy-irodaviy barqarorlik" tushunchasini u yoki bu tarzda aniqlashga urinishlar juda ko'p. Shunday qilib, L.M.Abolin "bu shiddatli faoliyat jarayonida shaxsni tavsiflovchi xususiyat bo'lib, uning individual hissiy-irodaviy tarkibiy qismlari bir-biri bilan uyg'un ta'sir o'tkazib, maqsadga muvaffaqiyatli erishishga yordam beradi", deb hisoblaydi. [33].

Bu ta'rif bizga optimal ko'rinadi; ammo boshqa yondashuvlar ham mavjud (nisbatan aytganda, rasmiy - sport, parvoz ishlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqalar - tayinlash bilan bog'liq):

- S.M.Oya hissiy-irodaviy barqarorlik insonning hissiy holatlarini tartibga solish qobiliyatidir, deb hisoblaydi. Hissiy jihatdan barqaror bo'lish - turli xil ish sharoitida hissiy reaktsiyalarni tavsiflovchi qiymatlarda kichik o'zgarishlarga ega bo'lish [5, p. 23].

- O.A.Chernikova hissiy-irodaviy barqarorlikning quyidagi ta'rifini taklif qiladi: bu "sportchi engib o'tolmaydigan aniq tajriba" [6, p. 12].

− E.A.Mileryan ta’kidlaganidek, emotsional-irodaviy barqarorlik deganda, bir tomondan, insonning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hissiy omillarga qarshi immunitet, ikkinchi tomondan, o‘z xulq-atvorini nazorat qilish va cheklash qobiliyati sifatida tushunish kerak. keskin muhit [3, Bilan. 16].

- V.M.Pisarenko, aksincha, hissiy-irodaviy barqarorlikni "stressli vaziyatlarga hissiy holatning bunday o'zgarishi bilan javob berish qobiliyati, bu pasayishga emas, balki samaradorlikning oshishiga olib keladi" deb ta'kidlaydi. [5, p. 11].

Muallif kuchli hissiy va irodaviy barqarorlikning asosi yuqori darajadagi avtomatlashtirish va turli xil jismoniy tayyorgarlikka asoslangan professional ko'nikmalarning katta ta'minoti ekanligiga ishonch hosil qiladi [1, p. 74].

- V.E.Milmanning ta'kidlashicha, hissiy-irodaviy barqarorlik "xavfli vaziyatning adekvatligini va hissiy reaktsiyaning mutanosibligini belgilaydi" [4,p.19].

− K.K.Platonov L.M.Shvarts bilan birgalikda 1948 yilda harbiy uchuvchilarning hissiy va irodaviy barqarorligini o‘rgangan. Ushbu mualliflarning ta'kidlashicha, hissiy jihatdan beqaror odamlar hissiy holatlarning tez-tez o'zgarishiga ko'proq moyil bo'lganlardir.

− K.K.Platonov shunday deb yozgan edi: "Hal qiluvchi narsa o'z-o'zidan katta yoki kichik hissiy qo'zg'aluvchanlik emas, balki uning mahoratga, inson faoliyatiga ko'proq yoki kamroq salbiy ta'siridir va bu nafaqat insonning hissiy sohasining xususiyatlari bilan, balki uning irodasi xususiyatlari bilan ham bog'liqdir" [1, p. 73].

− O‘sha K.K.Platonov keyinchalik hissiy-irodaviy barqarorlikni “hissiy ta’sirlarga qaramay, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, yuqori kasbiy ko‘rsatkichlarni saqlab qolish, murakkab va xavfli faoliyatni zo‘riqishsiz bajarish qobiliyati” deb ta’riflagan [2, p. 10-11].

− Ya.Reykovskiy hissiy-irodaviy barqarorlikni "hissiy hayajonlangan odamning o'z harakatlarining ma'lum bir yo'nalishini saqlab turish, adekvat ishlashi va his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati" deb ta'riflagan. [63].

− P.B.Zilberman emotsional-irodaviy barqarorlikni biroz boshqacha belgilaydi; Uning fikricha, bu "shaxsning murakkab hissiy muhitda faoliyat maqsadiga optimal muvaffaqiyatli erishishni ta'minlaydigan shaxsning aqliy faoliyatining hissiy, irodali, intellektual va motivatsion tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri bilan tavsiflangan shaxsning integral xususiyati". [5, b. 70].

Uning hissiy-irodali G.D.Lukovning ta'rifiga qo'shgan hissasi, zamonaviy janglarda jangchiga vatanparvarlik, burch, o'ziga ishonch, dushmanga nafrat, kollektivizm, qasos, adolat, do'stlik, o'zaro yordam va boshqalar kabi fazilatlar kerak bo'ladi. [6, p. 99].

Lekin, birinchi navbatda, faol armiyadagi askarga o'zini tuta bilish, mustaqillik, qat'iyatlilik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, g'ayrat va hujumkorlik kabi kuchli irodali fazilatlar kerak [6, p. 31-32].

Harbiy tadqiqotchilar orasida hissiy-irodaviy barqarorlik, birinchi navbatda, axloqiy va siyosiy omil bilan belgilanadigan shunga o'xshash yondashuvlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. "Harbiy entsiklopedik lug'at" da biz psixologik tayyorgarlikning quyidagi ta'rifini topamiz: bu "harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda jangovar topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan psixologik fazilatlarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi". Lug‘at mualliflari orasida jasorat, fidoyilik, harbiy do‘stlik va o‘zaro yordam kabilar mavjud. Bu fazilatlarning mavjudligi, aslida, hissiy-irodaviy barqarorlikni shakllantiradi, deb taxmin qilinadi.

Ammo bu faqat yaxshi ma'naviy va psixologik tayyorgarlik asosida amalga oshirilishi mumkin [2, p. 601].

Hissiy-irodaviy barqarorlikni aniqlashga urinishlarni sarhisob qilib, biz uning asosiy mezonini ta'kidlaymiz: bu "inson tomonidan qo'yilgan maqsadga qanchalik muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz erishilganligini tavsiflovchi natija" [1, s. 46].

Shunga o'xshash faoliyat yondashuvi bugungi kunda ko'pchilik mualliflar orasida hukmronlik qilmoqda [3, p. 361-369; 4, p. 26-30; 5, p. 30-36 va boshqalar].

Zamonaviy armiya ofitserlar korpusining harbiy-pedagogik sa'y-harakatlari ushbu maqbul natijaga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. Biz askarlarning zamonaviy jangovar vaziyatlarning noqulay omillariga dosh berishga tayyorligini shakllantirishni boshlaganimizda, quyidagi bir qator holatlarni hisobga olishimiz kerak:

- hozirgi vaqtda jangovar faoliyatga tayyorlik holati yaxlit narsa sifatida tushuniladi (jamoaviy va shaxsiy ko'rinish). Bu yaxlitlikning asosi "ma'lum bir xatti-harakatga bo'lgan ichki moyillik va barcha kuchlarni jangovar harakatlarga maqsadga muvofiq safarbar etish" [7, p. 32-35];

- an'anaviy ravishda harbiy xizmatchining jangovar harakatlarga tayyorligi oldindan (uzoq muddatli) va vaziyatga (vaqtinchalik) bo'linadi.

Uzoq muddatli tayyorgarlik "ilgari olingan ko'nikmalar, bilimlar, qobiliyatlar, tajribalar, fazilatlarga asoslanadi".

Vaqtinchalik tayyorlik holati "barcha kuchlarni yangilash, moslashtirish, to'g'ri yo'l bilan muvaffaqiyatli harakatlar uchun psixologik imkoniyatlar yaratish" [3, p. 117].

Jangga tayyorgarlikning yuqoridagi ikkala turi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Askarlarning jangovar harakatlarni amalga oshirishga tayyorgarligini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

− jangovar vaziyatga kirishdan oldin harbiy xizmatchilarning ruhiyati va tanasini oldindan sozlash;

− yangi vaziyatlarga samarali kirishni, mavjud sifat va imkoniyatlardan oldinda turgan vazifalarga muvofiq foydalanishni ta’minlaydigan hozirgi holatni shakllantirish;

− ijtimoiy ahamiyatga molik motivlarni safarbar qilish, faol harakatlar uchun kayfiyatni saqlash [3, p. 118].

Harbiy kadrlarni jangovar harakatlar uchun tayyorlash muammosi dunyoning turli armiyalarida hal qilinmoqda. Shunday qilib, amerikalik harbiylar psixologik tayyorgarlikning o‘ziga xos qonuniyatlari tizimini ishlab chiqdilar:

- mashg‘ulot vaqtida stress ostida mohirona harakat qilgan askar jangda ham muvaffaqiyatli harakat qiladi;

- askarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradigan va uni harakatga tayyorlaydigan mashg'ulotlar.

Stress ostida;

- askar shaxsiyatining umumiy rivojlanish darajasi uning stressli vaziyatdagi xatti-harakatlariga ta'sir qilmaydi;

- jismoniy holat, xarakter xususiyatlari, jihozlar, tayyorgarlik va tajriba stressli muhitda harakatlarning muvaffaqiyatini oldindan belgilab beradi.

Harbiy xizmatchilarni jangovar topshiriqni to'liq bajarish va zamonaviy jangovar harakatlarning noqulay omillarini bartaraf etish uchun professional (pedagogik jihatdan barkamol) tayyorlash tayyorgarlikning dastlabki bosqichlarida boshlanishi va butun xizmat davomida davom etishi kerak. Har qanday lavozimga tayinlangan ofitser sardori murakkab jangovar sharoitlarda o'z qo'l ostidagilarni boshqarish, ularda yuqori hissiy va iroda barqarorligini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; lekin buning uchun qo'mondonning o'zi ham shunga yarasha tayyorlanishi kerak.

Zamonaviy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini optimal jangovar tayyorgarligi uchun bir qator pedagogik shartlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- tashkiliy nuqtai nazardan, "Qo'shinlarga urushda zarur bo'lgan narsalarni o'rgating!";

Ishonchimiz komilki, bugungi kunda qat'iy belgilangan o'quv predmetlarini o'z ichiga olgan harbiy davlat ta'lim standartini (fuqarolar bilan teng asosda) joriy etishning dolzarb zarurati aniq belgilab qo'yilgan:

- boshlang'ich bosqichda (harbiy maktab), kelajak ofitser uch yildan ko'p bo'lmagan muddatda o'qishi kerak, shundan kamida ikki yilini dalada, lagerlarda, poligonlarda va o'quv markazlarida o'tkazishi kerak, ya'ni amaliy yondashuv, istiqbolli xizmat tayinlanishi kutilayotgan lavozim doirasidagi jangovar tayyorgarlik birinchi o'ringa qo'yilishi kerak;

- boshqacha qilib aytganda, bo'lajak ofitser o'z qo'l ostidagilarni jangovar topshiriqlarni bajarishga tayyorlash uchun javobgarlik darajasini puxta bilishi va tushunishi kerak;

- barcha ta'lim dasturlari va rejalarini qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi va qo'yiladigan talablar (malakaviy talablar yoki malakalar) harbiy sohaning tegishli jangovar tayyorgarlik organi tomonidan ishlab chiqilishi kerak;

- turli fanlarni "ommaviy ravishda" o'qitishdan jangovar tayyorgarlik sharoitida murakkab jangovar topshiriqlarni amaliy hal qilishga o'tish kerak, bunday sharoitda o'qitishning dominant shakli amaliy va guruh darslariga aylanadi, ushbu treningning bir qismi sifatida bo'lajak ofitser kerakli malakalarga ega bo'ladi;

- uslubiy hujjatlar tizimini qat’iy soddalashtirish va pedagogik hujjatlar hajmini qisqartirish zarur, o'qituvchiga harbiy qismning jangovar tayyorgarlik bo'limlari va boshqarmalari uslubiy komissiyalarida ishlab chiqilgan uslubiy topshiriqlar va darsni o'tkazishning shaxsiy rejasidan boshqa hech narsa kerak emas (bugungi kunda o'qituvchi tom ma'noda "qog'ozlar dengizida cho'kib ketmoqda" va eng yaxshisi yaxshi hisobot bergan va ishlamagan bo'ladi);

- maktabda, harbiy bilim yurtlarida zamonaviy jangovar talablarga javob beradigan sodda va samarali tarbiyaviy ish tizimini yaratish kerak.

BIBLIOGRAFIYA:

1. Gamova, E. M. Umumiy ta'lim muassasasi sharoitida ularning "xavfsiz" xulq-atvorini shakllantirishda turli xil ijtimoiy beqarorlik sharoitida o'smirlarning axloqiy va irodaviy barqarorligi kontseptsiyasi E. M. Gamova // Ijtimoiy siyosat va sotsiologiya. 2009. – No 10. – B. 361-369.

2. Girin, A. V. Qo'shinlarning birlashtirilgan qurolli guruhining jangovar qobiliyatini aniqlashning takomillashtirilgan metodologiyasi / A. V. Girin // Harbiy fikr. – 2012. – No 10. – B. 26-30.

3. Goncharov, S. V. Harbiy xizmatchilarning tuzilmalar va harbiy qismlar faoliyatini ma'naviy va psixologik qo'llab-quvvatlashni samarali boshqarishga

tayyorligini shakllantirish / S. V. Goncharov // Harbiy fikr. – 2013. – No 7. – B. 30-36.

4. Krupchak, M. Favqulodda vaziyatlar vazirligi mutaxassislari - yuqori ma'naviy va psixologik barqarorlik / M. Krupchak // Fuqaro muhofazasi. – 2006. – No 5. – B. 31-33.

5. Linebarger, P. Psixologik urush. Ommaviy ongni qayta ishlash nazariyasi va amaliyoti /P. Linebarger. – M.: Tsentropoligraf, 2013. – 445 b.

6. Mixaylov, L. A. Favqulodda vaziyatlarda psixologik himoya / L. A. Mixaylov va boshqalar - Sankt-Peterburg. :Piter, 2009. – 256 b.

7. Osmachko, S. G. Axborot urushi / S. G. Osmachko. - Yaroslavl: YAZRI Havo mudofaasi, 2005. - 67 p.

HARBIY PSIXOLOG MUTAXASISLARNI TAYYORLASHDA HARBIY PEDAGOGLARNING KASBIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev Elyor Urdushevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Kurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz ...” deb ta’kidlagan[41] .

Oliy harbiy ta’lim muassasalarining kursantlari Qurolli Kuchlarda eng muhim ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ega shaxsdir. Ular harbiy faoliyat ob’ekti sifatida harbiy jamoaning muhim a’zosi xisoblanadi. Kursantning fikrlari, his tuyg‘ulari va harakatlari, mulohaza hamda umidlari ko‘p hollarda xizmatdoshlarining munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. Yangi harbiy tuzilmaga kirib kelayotgan yosh fuqarolar qisqa vaqt ichida ijtimoiy-harbiy muhitga, kasbiy faoliyatga (jangovar tayyorgarlik, jangovar shaylik, jangovar trevoga) va shu kabilarga moslashtirilishi lozim[42] .

Kursantlarni yuqorida qayd etilgan vaziyatlarga muhitga psixologik jihatdan moslashishi uchun albatta ushbu jarayonga adaptatsiyasining to‘g‘ri tashkil etilishi juda muhimdir.

[41] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси: -Тошкент: “Ўzbekiston” нашриёти, 2021. 464 бет.
2.Мукумова Д.И. Талабаларни ўқув жараёнига мослашишининг ташкилий педагогик шарт-шароитларини такомиллаштириш: / дис. ... Педагогика фанлари буйича фалсафа доктори (PhD): 13.00.05 / Д.И. Мукумова. - Т., 2018. - 146 б.

Kursantlarning o‘quv jarayonga adaptatsiyasi harbiy pedagogika va psixologiya sohasida rivojlangan mamlakatlarda etarlicha o‘rganilgan. Oliy harbiy ta’lim muassasalari sharoitida kursantlarning adaptatsiya jarayoni muammolarining o‘rganilishini R.M.Maxmudov, R.X.Xodiev, L.I.Akbarov, A.A.Qoraboev, A.A.Ernazarov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin, ularning olib borgan tadqiqotlarida muammo umumiy, an’anaviy uslublarda tadqiq etilgan. Harbiy pedagogikada adaptatsiya muammolari tadqiqotchilari ko‘pincha “Kasbiy adaptatsiya” tushunchasini ishlatadilar. G‘.Z.Ikmatullaevning kasbiy adaptatsiya - kasbiy nuqtai nazardan kursantlar va professor-o‘qituvchilarning faol o‘zaro munosabatlari sharoitida kasbiy faoliyatda o‘z o‘rnini topishi va o‘zini sohada namoyon etilishiga imkon yaratib, kelajakdagi harbiy mutaxassisning muhim kasbiy sifatlarini ketma-ketlikda shakllantirish jarayonini o‘zida aks ettiradi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayonining bir qator o‘ziga xosliklari kursantlarning moslashishiga to‘sqinlik qiladi, buni ayniqsa birinchi bosqich kursantlarida yaqqol kuzatish mumkin bo‘ladi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning yangi ta’lim sharoitlariga moslashish jarayonini o‘rganishida A.V.Mejuev “Harbiy ta’lim muassasalari muhitida kursantlarning faoliyatga tayyorligi” tushunchasini harbiy pedagogikaga kiritdi hamda unda ilk bosqichdagi kursantlarni harbiy-kasbiy muhit sharoitlari va talablariga moslashtirish jarayonida ijtimoiy-psixologik va pedagogik hususiyatlarga ega bo‘lgan qiyinchiliklarni sanab o‘tadi. U adaptiv tayyorgarlikni kursantning jamiyat va shaxslar bilan munosabatlarini samarali tashkil etish, ta’lim oluvchilarning ijtimoiy, ta’lim va boshqa turdagi faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan umumqabul qilingan me’yorlar va qoidalar asosida bilim yurtining ta’lim muhitiga tez o‘rganishi, muloqot qilish qobiliyati sifatida belgilaydi[43] .

Kasbiy faoliyatga psixologik moslashish haqida fikr yuritilar ekan, turli kasb sohalarining hziga xos hususiyatlari va talablari bo‘lishini ta’kidlash muhim. Jumladan, A.A. Satib-Aldievning fikriga ko‘ra, harbiy pedagogik faoliyat bu o‘qituvchi (komandir, boshliq)larning kursantlarni mamlakatni qurolli himoya qilish bilan bog‘liq jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar bilan qurollantirish hamda harbiy-kasbiy mahoratini shakllantirish bilan bog‘liq maqsadli faoliyati[44].

[43]Межуев А.В. Формирование готовности к жизнедеятельности в образовательной среде военного вуза у курсантов младших курсов: Автореф. дис. ... канд. педагог, наук. - Астрахань: 2008. - 22 с.

[44] Сатиб-Алдиев А.А. Офицер-ўқитувчиларнинг педагогик маҳорати. -Т.: Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси, 2019. -264 б.

Bo‘lajak harbiy mutaxassisni tayyorlash jarayoni harbiy-kasbiy psixologik tayyorgarlikning keng ko‘lamli mahoratini, harbiy-texnik vositalarni qo‘llash va xizmat faoliyati usullarini o‘zlashtirishni amalga oshirish, xizmat hujjatlarini ishlab chiqish va rasmiylashtirish hamda o‘quv
Me’yorlarini bajarishlarini o‘z ichiga oladi.

Harbiy ta’lim tizimida davom etayotgan islohotlar jarayonida ijodiy fikrlaydigan mustaqil va noodatiy harakat qilish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Oliy harbiy ta’lim muassasalarining kelajakda ofitser kadrlarni tayyorlaydigan professor-o‘qituvchilar uchun juda dolzarbdir. Shuning uchun kursantlarning o‘quv jarayoniga jalb etiladigan harbiy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining kursantlar adaptatsiyasini to‘g‘ri yo‘naltirishdagi o‘rni juda muhim.

Ta’limning dastlabki bosqichida (1-2 bosqichlarda) fuqarolik oliy o‘quv yurtlari talabalari kabi kursantlar ham harbiy bilim yurtining shartlariga moslashadi, ammo harbiy kadrlarni oliy harbiy muassasalarida o‘qitish harbiy ta’lim jarayoniga moslashtirish qiyinligi, bu davrda kursantlar o‘qish bilan birga harbiy majburiyatlarni o‘zlashtirishlari kerakligi bilan ajralib turadi.

Aynan ushbu davr davomida harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini kursantlarni yangi shart-sharoitlarga moslashishida, o‘zlariga bo‘lgan ishonch va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini ortirishida qo‘llab-quvvatlashi lozim bo‘ladi. Ba’zi hollarda a’loga o‘qiydiganlarni qoloq kursantlar ustidan “otaliq”qa olishni yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi.

Biron-bir o‘qituvchining kursantlarga nisbatan salbiy hissiyotni namoyon bo‘lishini o‘z vaqtida oldini olish muhimdir, bu faqatgina uning faniga emas, balki harbiy xizmatga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda kursantlarning ayniqsa, psixolog kursantlarni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda “Dual ta’lim” tashkil etilib (2020 yil 20-sentyabrdagi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuniga asosan) ularni harbiy qismlarga (batalonlarga) psixolog-o‘qituvchi pedagog-psixologlar olib borishmoqda.

Psixolog kursantlar uchun dual ta’limning afzalligi shundaki, har bir kursant psixolog batalonlardagi psixologlarning xizmat faoliyati bilan tanishadi, tadbirlarda qatnashadi, ish yuritish hujjatlarini o‘rganishadi.

Dual ta’lim jarayonini kursant psixologlarga tashkil etuvchi sub’ektlar professor-o‘qituvchilar va harbiy qismdagi psixolog mutaxasislar hisoblanishadi. Dual ta’limning afzallik tomoni shundaki, har bir kursant psixolog vaqti kelib ofitser bo‘lib o‘zlarini xizmat faoliyatini olib borishga kirishar ekan, ular shoshib qolmaydi, muhitga tez moslashadi, xizmat davrida yuzaga keladigan muammolarni echimini topishni o‘rganishadi.

Psixolog kursantlarga albatta psixolog professor-o‘qituvchilar dual ta’limni tashkil etishsa ayni muddao bo‘ladi, chunki xizmat faoliyatida yuzaga keladigan barcha muammolarni professor-o‘qituvchilar birgalikda umumiy echimini topish mumkin. Chunki, kursant psixolog harbiy qismlardagi muammolarni echimida tajribasiz hisoblashsa ham ular muammoga yangi ko‘z bilan qarashadi. Har qanday muammolarni echimi sub’ektlar hamkorligini talab etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, professor-o‘qituvchilar kursantlarga individual vazifalar va topshiriqlarni ularning layoqati, o‘ziga xos muayyan xarakterlarni shakllantirish uchun axloqiy va jangovar sifatlari, intizomlilik, mas’uliyat va tashkilotchilik kabi shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda tanlashi kerak. Individual yondashuv orqali kursantlarda o‘ziga ishonch va qat’iyatni rivojlantirish, vazifa va topshiriqlarni bajarilishida qat’iyatlik, ko‘rsatishga undash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi: -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

2. Muqumova D.I. Talabalarni o‘quv jarayoniga moslashishining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish: / dis. ... Pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD): 13.00.05 / D.I. Muqumova. - T., 2018. - 146 b.

3. Межуев А.В. Формирование готовности к жизнедеятельности в образовательной среде военного вуза у курсантов младших курсов: Автореф. дис. ... канд. педагог, наук. - Астрахан: 2008. - 22 с.

4. Satib-Aldiev A.A. Ofitser-o‘qituvchilarning pedagogik mahorati. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. -264 b.

РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА ПОЛЕЗНЫЕ И ВРЕДНЫЕ АСПЕКТЫ ТЕЛЕФОННЫХ ИГР

***Файзиева Нодира Собировна**, преподаватель-стажер Джизакского государственного педагогического университета*

Абстрактный: В данной статье представлены мнения психологов о том, почему смартфоны полезны или вредны для детей и как предотвратить их зависимость.

Ключ слова: Гаджеты, память, повреждения компьютера, психическое здоровье, казуальные игры, образовательный инструмент, развитие ребенка.

В современном мире зависимость детей от гаджетов растет. И это естественно для многих родителей.

Для современного поколения телефоны-это не только средство общения, но и способ чувствовать себя комфортно в незнакомой обстановке. Это неудивительно, поскольку с детства мультфильмы и игровые приложения служат инструментом, который не дает детям плакать в гостеприимных или общественных местах и используется, когда их нужно кормить. Вреда от телефона для детей несколько, в частности, наиболее серьезная опасность заключается в том, что он вызывает зависимость.

Со временем регулярное использование телефонов может вызвать у них зависимость. В результате дети практически не выходят на улицу даже во время праздников, у них повреждаются глаза и ухудшается качество сна. Кроме того, возможность легко находить любую информацию через поисковик влияет и на волевые качества детей - разрешение всего, способствует развитию зависимости от телефона и других устройств с доступом в интернет.

Отключение или ограничение ребенка от телефона сразу не всегда эффективно, а иногда только усугубляет ситуацию - дети скрывают от родителей, сколько времени они проводят в сети. Иногда такие меры приводят к потере доверительной связи с ребенком и ухудшению отношений. Кроме того, отключив интернет или забрав смартфон, вы только расстроите или рассердите своего ребенка, потому что не предложите подходящую замену.

Предложите детям книги, настольные игры, упражнения, занятия спортом, творческие занятия и другие подобные альтернативные развлечения. При этом не стоит ожидать, что ваш ребенок самостоятельно займется новым хобби. Ребенку обязательно понадобится партнер. Если у вас нет возможности активно проводить время с ребенком, подумайте о возможности посещать групповые занятия или кружки с другими детьми в центрах, которые специализируются на этом.

Гаджеты не могут…

- А по данным Всемирной организации здравоохранения, нельзя давать “гаджеты” детям до 2 лет!
- А дети старше 3 лет могут пользоваться телефоном в течение 1 часа в день.
- А дети младшего школьного возраста, в среднем 6-12 лет, могут пользоваться телефоном, компьютерами по 2 часа в день.
- А дети в возрасте 12-18 лет могут пользоваться гаджетами 4 часа в день!
- А если в течение дня употреблять больше установленной нормы, у детей могут развиться раковые(онкологические) заболевания.

Пагубное влияние гаджетов на современных детей проявляется и в их малоподвижном образе жизни. Ребенок, который много и часто играет на компьютере или планшете, практически не двигается, что сказывается на позвоночнике и суставах. Кроме того, такие дети имеют тенденцию набирать лишний вес с раннего возраста.

На фоне длительного постоянного общения с гаджетами ухудшается способность ребенка различать реальность и реальность с вымыслом. Большинство детей переносят увиденные на мониторе действия и сюжеты в настоящее, не понимая их вреда и негативных последствий. Модель поведения формируется детьми на основе действий героев виртуального мира. Это основная проблема современных маленьких пользователей электронных устройств – они овладевают способностями персонажей, которые в большинстве своем являются эгоистичными и агрессивными личностями, движимыми только собственными желаниями и потребностями.

Вред от постоянного контакта с гаджетами также проявляется в развитии зависимости у детей. Многие специалисты сравнивают эту зависимость с алкоголем и наркотиками.

Однако родители могут не заметить такого влияния устройства на ребенка. Первые сомнения у них возникают при попытке вывести свое потомство из электронной “игрушки”, заменить виртуальность реальностью.

Однако есть и “плюсы” общения детей с современными мобильными устройствами и компьютерами:

А возможность всестороннего развития ребенка при тщательном контроле со стороны родителей. Это не значит, что с первого года жизни малыша нужно приобщать к гаджетам. Этот навык понадобится эму с семи лет. Современные школьники в возрасте 7-10 лет знают, как включить ноутбук, компьютер или планшет и запустить на нем программу, необходимую для обучения или получения новых знаний. Самое главное, чтобы родители могли быть рядом с детьми в это время, чтобы безупречно помогать им и в то же время контролировать процесс.

А возможность взять ребенка на короткое время в условиях длительного ожидания. Всем известно, что дети не терпят длинных очередей, однородного времени длительных поездок, ожидания в поликлиниках и т.д. В таких ситуациях не всегда есть привлекательные игрушки или бумага с карандашами. Другое дело смартфон или планшет, который может отвлекать ребенка на 10-15 минут. Родители также могут с пользой провести это время, запустив познавательную и развивающую игру. Таким образом, они смогут общаться со своими детьми и, кроме того, знакомить их с новыми знаниями.

Как видите, есть и положительные стороны общения с гаджетами. Однако лучше контролировать время, которое вы проводите перед компьютерными мониторами и планшетами, чтобы избежать виртуального мира путешествий и попыток манипулировать детьми.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Кобылова С. (2008) До школы возраст дети с играбельный национальный игры, Кумкургон . 673.

2. Кадирова Ф., Тошпулатова Ш., Каюмова Н., Азамова М. (2009). Дошкольная педагогика (учебник). Т.: Думая издатель . 6844.

3. Бабаева ДР (2018). Речь расти теория и методология (Учебник). Т.: Идеально файз медиа, 432 5. 4. Джалолова Г. (2004) Использование нетрадиционных игр при подготовке детей к школе Т. 6.

5. Туленова Х.Б. Совершенствование физического воспитания детей 5-7 лет в дошкольных учреждениях пед. наука. кандидат . ...дис – Т., 159 с.

6. Файзуллаева М. и и т. д. (2014) Здоровый – значит здоровый ум Т.: 8. Усмонхуджаев Т. и и т. д. (2014) 500 действий игры Т.: Новый поколение века,

7. Усмонходжайев Т.С., Исламова С.Т. (2006) Физкультура в дошкольных учреждениях, Т

AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA DARS TASHKIL ETISH DAVR TALABI

N. Jumanova
JDPU umumiy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish borasida elektron o‘quv materiallarining ahamiyati to‘g‘risida batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, o‘quvchi, dars, kommunikatsiya, kompyuter, elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Yangi avlodni tarbiyalash-xalqni tarbiyalash deganidir”. O‘qituvchi o‘zining asosiy vazifasidan kelib chiqib, bugungi kun yangiliklarini o‘quvchilarga yetkazishda o‘quvchilarni bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi, mustaqil, erkin fikrlashga o‘rgatishi, o‘quvchilar tashabbuskorligini rivojlantirib borishi darkor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”2019 yil 8 oktabrdagi PF 5847-son hamda “ 2017-2021 yillardaO‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”daamalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish kabi dolzarb masalalar qo‘yilgan.

Ta’lim jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan ko‘plab elektron o‘quv materiallari yaratilganki, unga elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma,

o‘rganuvchi dastur vositalari kabilarni misol qilib ko‘rsatishi mumkin. Ular o‘zida boshqarilishi imkoniyati, interfaol uslublar, sun’iy intellekt elementlari, hissiy moslashuvchanlik kabi xususiyatlar mavjudligiga ko‘ra ta’limda ma’lum samaradorlikni ta’minlaydi.

XXI asr axborotlashtirilgan jamiyat asrida axborot texnologiyalarining roli va o‘rni kundan kunga o‘sib, har bir jabhaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim samaradorligiga erishishda muhim omildir. Bugungi kunda hayotimizni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tassavur etib bo‘lmaydi . Globallashuv jarayoni ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan keng foydalanishni talab etadi. O‘qitishning zamonaviy usullari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llamasdan turib, o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida samarali natijalarga erisha olmaydi. Ammo bunda ta’limning maqsad va mazmuni, usul va vositalar hamda tashkiliy shakllarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda kompyuterlar ta’lim tizimida asosan to‘rt yo‘nalishda foydalanilmoqda.

-o‘rganish ob’ekti sifatida;

-o‘qitishning texnik vositalari sifatida;

-ta’limni boshqarishda;

-ilmiy-pedagogik izlanishda.

Kompyuterli o‘qitishning afzalliklari juda ko‘p: o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o‘quvchilarning ishlash sur’ati jadallashadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanadi; o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jaryonni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo‘ladi.; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta’minlash imkoniyati hosil bo‘ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o‘yin xarakterini oladi va bu bilan o‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi.

Kompyuterli ta’lim jarayonida ta’lim o‘quvchi va kompyuter orasidagi munosabatlarga ko‘ra tashkil etiladi, boshqariladi, nazorat qilinadi.

Kompyuterli ta’limni tashkil etish –o‘quvchi bilan o‘quv materiali o‘rtasidagi bog‘lanishni kompyuter vositasida yo‘lga qo‘yish. O‘quvchi bilan o‘quv materiali o‘rtasidagi bog‘lanishni tashkil etish uchun ta’lim loyihalanadi. O‘quvchilarning o‘quv ishlarini tashkil etish, ular faoliyatini rag‘batlantirish tegishli vositalar asosida modellashtiriladi.

Axborot texnologiyalari qo‘llaniladigan darslarning qulayligi shundaki, unda o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirib olayotganligini doimiy ketma-ket

kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak hollarda tuzatishlar kiritib borishga imkoniyat yaratiladi.

Shuning uchun ham axborot texnologiyalari asosidagi darslarda qiziqish, o‘zini o‘zi boshqarish, yangi bilimlarni o‘zlashtirib borishga intilish dars oxirigacha saqlanib qoladi. Bunday darslarda o‘quvchining bilim olish motivatsiyasi oshib boradi. Ta’lim jarayoni- bu avvalo axborot almashish jarayonidar. O‘qituvchi o‘quvchiga bilimlarni ma’lum qiladi. (tegishli axborot beradi.) va o‘z navbatida teskari aloqa tarzida undan bayon qilingan bilimlar qanday o‘zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi. Bu axborot o‘quvchilarning diqqat bilan o‘tirishlarida, o‘qituvchiga qarab turishlarida, yuz ifodalarida aksini topadi. Agar teskari aloqa bo‘lmaganda edi, o‘qituvchi bergan axborotning o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganin bilmagan bo‘lar edi. Teskari aloqa o‘qituvchiga o‘z nutqini davom ettirish yoki to‘xtatish, ish turini o‘zgartirish yoki umuman, faoliyatini korrektura qilish imkoniyatini beradi.

Shunday ekan axborot kommunikatsion vositalar bilan ishlash hozirgi zamon davr talabi hisoblanadi. Axborot kommunikatsion vositalaridan o‘qitish jarayonlarida foydalanish uning sifatini va samarasini oshiradi, o‘rganuvchiga qulay sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat hayotida kompyuterning keng miqyosda kirib kelishi fuqarolarga axborot olishga bo‘lgan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Tobora shakllanib borayotgan kompyuter texnologiyalari axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini hosil qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son 08.10 2019 y. 21 bet.

2. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”//IshmuhamedovR., va b. Toshkent -2008 y.-49-83 b.

TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING TASHKIL ETILISHI

Xaydarov Ismoil Olloqulovich
Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Maqolada psixologik xizmatni tashkil etish va tuzilishi masalalari yoritilgan. Psixologik xizmatning tarkibiy boshqaruvidagi har bir bo'g'inning funksiyalari va

faoliyatining xususiyatlari atroflicha ko'rib chiqiladi, psixologik xizmatning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Psixologik xizmat***,*** globallashuv jarayoni, shaxs va uning faoliyatini, maktabga psixologik xizmat amaliyoti, o‘quvchining psixologik tabiati va imkoniyati

Abstract

The article describes the organization and structure of the psychological service. The functions and activities of each link in the structural management of the psychological service are thoroughly reviewed, the content and specific features of the psychological service are shown.

Key words: *Psychological service, globalization process, man and his activities, practice of psychological services at school, psychological nature and potential of the student.*

Psixologik xizmat jarayonini ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi.

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar tarbiyasiga va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiyroq e’tibor berish masalasiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, chunki kichik maktab yoshi yoki o‘smirlik davri har bir bolaning butun umri davomidagi o‘ziga xos ijtimoiy fundament vazifasini o‘taydi. Ushbu “tamoyil” ning qanchalik mustahkamligi bolaning individual va intellektual taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshishini maktabdagi psixologik xizmat amaliyotisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Zero, shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy-tatbiqiy yo‘nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko‘pgina olimlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Ayniqsa, I.V.Dubrovina (Moskva) va X.Y.Leymets, Yu.L.Sierd (Tallin) larning ko‘p yillik tadqiqotlari natijasi o‘laroq, umumta’lim maktablarida psixologik xizmatning joriy etilishi bu boradagi MDH amlakatlarida qo‘yilgan ilk qadam ekanligini alohida qayd etish mumkin. Qolaversa, o‘zbek olimlaridan M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Z. Gaynutdinov, Sh.R.Barotov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, U.D.Qodirov, N.A.Sog‘inovlarning ham O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalari va oila tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlari Respublikamizda psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma’lum darajada asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday bo‘lsada, shuni alohida kayd etish kerakki, hanuzgacha O‘zbekistonda mukammal

dasturga va amaliy tajribalar yakuniga asoslangan yagona psixologik xizmat tizimini boshqaruvchi rasmiy maqomga ega bo‘lgan Markazning mavjud emasligi va ayni paytda, psixologik xizmat tizimining bugungi holati va uning amaliy faoliyat yo‘nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollarini ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Demak, tabiiyki, mazkur muammoni bartaraf etish uchun, O‘zbekistonda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va istiqbollarini o‘rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag‘ishlangan psixologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning olib borilishi kelajagi buyuk bo‘lgan O‘zbekistonimiz ravnaqi uchun kechiktirib bo‘lmas davr taqozosidir.

Yuqorida aytib o‘tilganlar bilan bir qatorda, O‘zbekistonda psixologik xizmat muammosining dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan ham belgilanadi: dastavval, shuni ta’kidlash kerakki,"....bizning amaldagi ta’lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko‘p joylarda yaqqol ko‘rinmoqda.

Yuqorida takidlanganidek, maktabga psixologik xizmat amaliyoti turli davlatlarda turlicha shaklda tashkil etilganligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, har bir davlat o‘zining imkoniyatlaridan kelib chiqib psixologik xizmat amaliyoti mexanizmini yo‘lga qo‘yganligini ko‘ramiz. Shunday bo‘lsa-da, mazmunan ushbu jarayonga yondashuv mezoni bir xil ekanligini kuzatish mumkin. U ham bo‘lsa o‘quvchilar bilan tizimli tarzda olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodiagnostik, psixokorreksion va psixokonsultativ ishlar ko‘lamining mavjudligidir. Maktabda tahsil olayotgan har bir o‘quvchi yoki o‘quvchilar jamoasi bilan olib boriladigan ushbu yo‘nalishlarning barcha, avvalo, o‘quvchi shaxsi tarbiyasiga hamda taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Umumta’lim maktablarida psixologik xizmatning tashkil etilishi uning mazmuni va asosiy vazifalari haqida Xalq ta’limi vazirligi tomonidan chop etilgan “Psixologik xizmat Nizomi”da batafsil ko‘rsatmalar berilgan. Ushbu ko‘rsatma va tavsiyalar asosida bugungi kunda maktabda psixologik xizmat amaliyoti olib borilmoqda.

Umumta’lim maktablarida psixologik xizmatning zarurligi har bir o‘quvchining o‘ziga xos “betakror olam”ga adekvat bo‘lgan tarbiya usullarini qo‘llay bilish, har qanday vaziyatda o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatlarini to‘g‘ri yo‘naltira olish, o‘quvchini maktab ta’limiga qabul qilishda va uni kasbga yo‘nalganligini belgilashda to‘g‘ri yo‘l tuta bilishda yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Chunki guruh rahbari yoki fan o‘qituvchisi o‘quvchining psixologik tabiati va imkoniyati haqida to‘laqonli bilimga ega emasligi tabiiy. Bu ishni esa mukammal psixologik bilim va malakalarga ega bo‘lgan professional mutaxassislar amalga

oshirishi mumkin. Qolaversa, shaxs taqdiri bilan hazillashib bo‘lmaydi. Birgina aytilgan noo‘rin so‘z yoki noto‘g‘ri harakat o‘quvchining butun hayotini, xulq-atvorini yoxud hayotga, odamlarga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Psixolog umumta’lim maktabida xizmat ko‘rsatar ekan, avvalo undan har bir yosh davriga xos bo‘lgan psixologik qonuniyatlarni to‘g‘ri baholay olishi va shu qonuniyatlarga tayangan holda o‘quvchi faoliyatini boshqarishi talab qilinadi. Har qanday psixologik xizmat u yoki bu o‘quvchidagi psixologik zaxiralarni o‘rganib, uni ta’lim va tarbiya samaradorligini ta’minlashga yo‘naltira olishi shart. Shuningdek, psixologik xizmat bolalardagi iqtidor kurtaklarini oldindan anglab, uni rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatib bera olishi kerak bo‘ladi.

Qolaversa, har bir bolaning taqdiri to‘g‘ri tarbiyasi va o‘ziga xos psixologik taraqqiyoti uchun barcha ta’lim muassasasi rahbarlari qatori, eng avvalo, maktab psixologiga ham alohida mas’uliyat yuklatilganligini esdan chiqarmaslik kerak bo‘ladi.

Demak, maktab psixologi har bir yosh davri va uning o‘ziga xos psixologik imkoniyatlari, qiyinchiliklari, muammolari va istiqbollari haqida ham to‘g‘ri fikrlay olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda psixologning maslahat berish faoliyati qydagi me’yorlar asosida amalga oshiriladi.

1. O‘quvchi ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan, ma’muriyat, o‘qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari, xodimlariga tegishli psixologik bilimlar doirasida maslahatlar berish.

2. Ta’lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o‘zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish.

3.Ma’muriyatga bolalarning psixik o‘sishi xususiyatlariga oid ma’lumotlar berishi, o‘g‘il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni g‘amxo‘rlik va vasiylik to‘g‘risidagi qabul qilgan qarorlariga munosabat bildirish.

4.Ota-onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, o‘zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo‘yicha ilmiy-amaliy maslahatlar berish.

5.Ota-onalar bilan o‘quvchini maktabga qabul qilish va kasb tanlash masalalari bo‘yicha individual va guruhiy suhbatlar uyushtirish va ularga tegishli maslahatlar berish.

Demak, maktab amaliyoti psixologlari o‘quvchilar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu “to‘g‘ridan to‘g‘ri maslahat berish” deb ataladi.

ADABIYOTLAR:

1. Barotov.Sh.R O‘quvchi shaxsi va sinf jamoasini psixologik tahlil qilish usullari. – Buxoro, 1993. – 29 b.
2. Dubrovina I.V. Shkolnaya psixologicheskaya slujba. – M., 1991.
3. Davletshin.M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi. – Toshkent, 1998. – 94 b.
4. Nemov.R.S. Psixologiya. V 3-x knigax Psxologicheskaya slujba v obrazovanii. Kn.2. – S . 506-527.
5. Nishonova.Z.T. Psixologik xizmat (o‘quv qo‘llanma) –T.; 2006. – 156 b.
6. Nishonova.Z.T., Alimbaeva.Sh.T., Sulaymonov.M. Psixologik xizmat. – T.:Fan va texnologiya markazining bosmaxonasi, 2014.
7. G‘oziev E. Oliy ta’limda psixologik xizmat – T.:O‘qituvchi, 2002. – 95 b.
8. Ovcharova R. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya. -M., 2003.

ПЕРВЫЕ ПРОГРАММЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ВО ВРЕМЯ МИРОВЫХ ВОЙН

Жамилов Жамолбек Жаббор ўгли
Главный специалист отдела управления антикоррупционной системой «Комплаенс-контроль» Ташкентского института текстильной и легкой промышленности

Современное общество сталкивается с множеством вызовов, которые оказывают сильное воздействие на психическое здоровье людей. **Военные конфликты**, такие как локальные войны или антитеррористические операции, ставят военнослужащих в экстремальные условия, приводя к развитию посттравматических стрессовых расстройств (ПТСР), депрессий, тревожных состояний и других психических проблем. Это касается не только участников боевых действий, но и их семей, которые также нуждаются в поддержке и реабилитации.

В **гражданской сфере** давление оказывает также огромное количество факторов, таких как профессиональные стрессы, риск выгорания у

работников помогающих профессий (медиков, учителей, сотрудников экстренных служб), а также последствия пандемий и природных катастроф. Например, во время пандемии COVID-19 резко возрос спрос на услуги психологической помощи, особенно для медицинских работников и граждан, которые оказались в изоляции или потеряли работу.

Таким образом, создание эффективной системы психологической поддержки является важной частью сохранения и укрепления здоровья общества как в военной, так и в гражданской сферах. Эта необходимость становится очевидной в условиях растущей **стрессовой нагрузки**, которая требует новых, адаптивных подходов к оказанию помощи.

В современных условиях психологические службы играют ключевую роль в предупреждении и коррекции эмоциональных расстройств у населения. Для военнослужащих это включает не только подготовку к экстремальным ситуациям, но и поддержку в период реабилитации после завершения службы, когда необходимо вернуться к мирной жизни и адаптироваться к гражданским условиям. Важно отметить, что без профессиональной помощи ветераны часто сталкиваются с долгосрочными проблемами: злоупотреблением алкоголем и наркотиками, семейными трудностями, повышенным уровнем суицидальных наклонностей.

В гражданской сфере психологическая служба охватывает широкие группы населения, включая работников высокострессовых профессий (врачи, спасатели, учителя), а также людей, пострадавших от катастроф или кризисных ситуаций. Психологическая помощь здесь направлена не только на восстановление психического здоровья, но и на предотвращение возможных кризисов, поддержание эмоционального благополучия и обеспечение устойчивости к стрессам.

Нельзя не упомянуть о том, что психологические службы должны развиваться в рамках системного подхода. Это предполагает внедрение научно обоснованных методов, стандартизацию услуг, взаимодействие между специалистами разных областей, таких как психология, психиатрия, педагогика, и социальная работа. При этом важно учитывать как специфические потребности военнослужащих, так и гражданских лиц.

Например, в военной сфере это может быть создание специализированных программ для борьбы с ПТСР, адаптационных курсов для возвращающихся из зоны боевых действий, а также систем поддержки для их семей. В гражданской сфере акцент делается на программы профилактики выгорания, эмоциональной стабильности на рабочем месте и создания центров экстренной психологической помощи в чрезвычайных ситуациях.

Таким образом, системный подход к организации психологической помощи может повысить эффективность профилактики психических расстройств и кризисных состояний, сделать услуги более доступными и качественными как для военных, так и для гражданского населения.

Первая мировая война стала переломным моментом для осознания важности психического здоровья военнослужащих. В это время было зафиксировано множество случаев "окопной болезни" (или "военного невроза"), которая проявлялась как реакция на длительное пребывание в условиях стресса и постоянной угрозы жизни. Психологи и врачи начали понимать, что участники боевых действий не только страдают от физических травм, но и нуждаются в психической реабилитации. В результате были созданы первые программы по поддержке военнослужащих, пострадавших от психических расстройств, связанных с войной. Это были, в основном, меры по краткосрочной стабилизации состояния солдат, чтобы они могли вернуться на фронт.

Во время Второй мировой войны возникло более систематическое и осознанное применение психологической помощи. Появились специализированные подразделения психологической службы, задачей которых стало не только лечение психических расстройств, но и повышение морально-психологической устойчивости военнослужащих перед отправкой на фронт. В этот период также были заложены основы реабилитации ветеранов после возвращения из боевых действий.

После окончания Второй мировой войны возникла необходимость разработать комплексные программы реабилитации ветеранов. Военнослужащие, возвращавшиеся с фронта, сталкивались с серьёзными проблемами адаптации к мирной жизни, включая посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР), трудности в общении с семьёй и обществом, злоупотребление алкоголем и наркотиками.

В Соединённых Штатах в этот период были разработаны и внедрены специализированные программы для ветеранов, включавшие психотерапию, социальную и профессиональную адаптацию, помощь в трудоустройстве. Подобные меры были введены и в других странах, столкнувшихся с необходимостью поддержки больших контингентов военнослужащих.

Эти программы дали толчок к развитию психотерапевтических практик, направленных на лечение травм, вызванных боевыми действиями. Ветеранам предлагались как индивидуальные, так и групповые формы психотерапии, основанные на методах когнитивно-поведенческой терапии, психоанализа и других подходов.

В то время как военная психология делала первые шаги в систематической поддержке военнослужащих, гражданские психологические службы начали формироваться и развиваться в таких сферах, как экстренные службы, образование и здравоохранение.

Например, психологические службы в экстренных структурах (полиция, пожарные, спасатели) начали активно развиваться с середины 20-го века. Психологи начали работать с сотрудниками, которые ежедневно сталкиваются с травматическими ситуациями, опасностями и стрессами. В экстренных службах ключевой задачей психологов стало предотвращение профессионального выгорания, профилактика стресса и эмоционального истощения. Важно было развивать стрессоустойчивость сотрудников и помогать им справляться с психологическими нагрузками.

В образовательных учреждениях также были внедрены психологические службы, которые занимались психолого-педагогической поддержкой учеников и педагогов. Особое внимание уделялось профилактике эмоциональных проблем у детей и подростков, психологической помощи в кризисных ситуациях, таких как буллинг, семейные проблемы, академические трудности.

К 1970-80-м годам в мире начали активно развиваться корпоративные психологические службы. В бизнесе и на предприятиях начали внедряться программы психологического консультирования для сотрудников, направленные на предотвращение профессионального выгорания, улучшение эмоционального климата в коллективах, повышение мотивации и продуктивности. Это стало особенно важным в высокострессовых профессиях и крупных корпорациях, где сотрудники сталкивались с постоянными дедлайнами, многозадачностью и конкуренцией.

Историческое развитие психологической службы началось с военной сферы, где первоочередной задачей было поддержание боевого духа солдат и реабилитация ветеранов. Однако со временем необходимость психологической поддержки распространилась на гражданскую сферу, где она приобрела значение для различных профессий и социальных групп.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Васильев, В. Л. Психология экстремальных ситуаций. Москва: Издательство МГУ, 2015.
2. Митин, Л. М. Психологическая помощь и поддержка военнослужащих. СПб: Питер, 2017.
3. Зайцев, А. Б., Павлов, И. С. Посттравматический стресс: диагностика и терапия. Москва: Академический проект, 2018.

4. Кириллов, Е. Н. Психология военной службы: подготовка и реабилитация. Екатеринбург: Уральское издательство, 2016.

YOSHLARNI HARBIY XIZMATGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK XIZMAT VA UNING AHAMIYATI

Z.R.Qobilov

Mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo‘lishini taminlash, ishlab chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo‘g’inlarida inson omilidan samarali foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to‘la-to‘kis yuzaga chiqarish masalasi O‘zbekiston psixologlari oldiga umumiy psixologiya bilan bog’liq bir qancha vazifalarni amalga oshirishda mas’uliyatni yuklaydi. Shaxsni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari aniqlash maqsadi izlanishlar olib borganlar. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko‘lami kengayib borishi uning mas’uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Inson tom ma’noda ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois uning shakllanishi va shaxs sifatida taraqqiy etishi eng avvalo unga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv olamning o‘ziga xos imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu imkoniyatlar tizimini o‘rganish va tadqiq qilish bugungi psixologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shaxs va uning individual-tipologik xususiyatlari, bilish jarayonlari yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni oshirishga imkon beradi. Aynan mazkur masalalarni keng doirada tadbiq qilish zamon talablariga javob bera oladigan. Raqobatbardosh hodimlarni tayyorlashdan iboratdir. Albatta buning uchun insonlar psixologiyasini bilish, ularda kechadigan psixologik o‘zgarishlarni anglagan holda yondashish zarurligi ta’kidlanmoqda. Bu jarayonda o‘z navbatida psixologik bilimlarga bo‘lgan yehtiyojni ortib borishini ko‘rishimiz mumkin. Chunki insonlar haqidagi bilmlarni qo’lga kiritish uchun eng avvalo psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishimiz lozim ekanligi tobora anglanmoqda.

O‘tgan yildan boshlab mamlakatimizda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang’ich tayyorgarlik tizimida katta o’zgarish ro’y berdi. Zero, 2020-yilning 20-novabr kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o‘tkazilgan yig’ilishda davlat rahbari tomonidan umumta’lim muassasalarning bitiruvchi sinf o‘quvchilarini “Chaqiriqqa qadar boshlang’ich tayyorgarlik” fanidan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida o‘quv yilida bir marta harbiy poligonga olib chiqish tizimini joriy etish bo‘yicha berilgan topshirig’i, mamlakatimizda yoshlarni

harbiy xizmatga qadar tayyorlashda tarixiy voqea sifatida muhrlanib qoldi. Ushbu topshiriqqa asosan. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa va Xalq ta’limi vazirliklarining qo‘shma qarori imzolanib, unga ko‘ra har yili mart va may ovlarida bitiruvchi sinf o‘quvchilarining harbiy poligonlarda bir kunlik amaliy mashg’ulot o‘tishi belgilangan bo‘lib, barcha xarajatlar Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetining qo‘shimcha daromadlari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutildi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Ularda xalqimiz tarixiga va ma’naviy qadriyatlariga yuksak hurmat tuyg’usini shakllantirish, Vatan himovasiga, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta’minlashga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o‘tashga tayyorlash tizimini isloh qilish natijasida yoshlarni harbiy xizmatga qadar tayyorlashning tizimini yanada rivojlantirishga erishilmoqda.

Har qanday ijtimoiy-pedagogik jarayon, yoshlarni armiya muhitiga muvaffaqiyatli moslashtirish uchun harbiy tayyorgarlikning yakuniy natijalarini prognoz qilish imkonini beradigan aniq maqsadlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim tashkilotlari yoshlarni harbiy xizmatni muvaffaqiyatli o‘tash uchun harbiy tayyorgarlik jarayonida o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadilar: - o‘quvchilarning davlat sohasida asosiy bilimlarni rivojlantirishi, ularga harbiy xizmat asoslari bo‘yicha bilimlarni o‘tkazish: ularning harbiy - vatanparvarlik va jismoniy tarbiyasi, jismoniy tarbiya va sportga ijobiy munosabatni shakllantirish va hokazo.

Yoshlarni samarali harbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida aniq funktsiyalar namoyon bo‘ladi: kognitiv, moslashish, reabilitatsiya, qayta tarbiyalash, dam olish. Yetakchilik fazilatlarini amalga oshirish shular jumlasidandur. Masalan, yoshlarning o‘z vatanini qurolli mudofaasiga ichki tayyorgarligini shakllantirishga har tomonlama tayyorgarlik ko‘rishga hissa qo‘shadigan o‘ziga xos shakl va usuldir. N.A.Belousov yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, bir tomondan, ijtimoiy psixologik tizim bo‘lsa, ikkinchi tomondan, butun jamiyat uchun muhim bo‘lgan, har tomondan faol bo’lgan, ko‘p qirrali xususiyatga ega bo‘lgan pedagogik jarayondir deb ta’kidlagan. O‘rganilayotgan jarayon yosh avlodning armiva sharoitida himova funktsiyalarini amalga oshirish uchun maxsus harbiy qobiliyatlarini shakllantirishni ta’minlashga qaratilgan barcha pedagogik psixologik muassasalarning maqsadi, muvofiqlashtirilgan ish orqali amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda saralovchi mutaxassislar, avvalo psixologlardan kuchli bilim va o‘ta sinchkovlikm harbiy pedagogik qarashlar hamda yondashuvlarni mujassamligi talab etiladi. Zero

chaqiriqqa yoshlarni tayyorlash masalasi bugungi tahlikali davrda o‘ta muhim va har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATLARINI TADQIQ ETISHNING IJTIMOIY ZARURATI

Valiboyev Izzatbek To‘xtasin o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura talabasi

Kirish. Yoshlar mamlakatning tayanchi, kelajakdagi poydevori hisoblanadi. Ayni damda, rivojlanayotgan texnologiyalar davrida yashayotgan ekanmiz, har qanday jabhada rivojlanishimiz uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlar ham ortib borayotgani sir emas, mazkur imkoniyatlardan samarali foydalana bilish, komil insonning belgisidir. Shu bilan birga, imkoniyatlarga olib boradigan yo‘llar mashaqqatli bo‘ladigan bo‘lsa, natija ham a’lo darajada bo‘lishi haqida ko‘p marotaba eshitganmiz.

Shuningdek, rivojlangan texnologiyalar imkoniyatlaridan besamar foydalanish, salbiy nuqtayi nazardan olib qaraganda ayanchli voqea sodir bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Jahon miqyosida jinoyatlar sonining ortib borishi ham insoniyatga nafi tegadigan imkoniyatlardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar orqali paydo bo‘ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish BMT doirasida dolzarb bo‘lgan mavzulardan biri hisoblanadi. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan BMT bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan tushunishimiz mumkinki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar asosan yosh avlodni sog‘lom muhitda kamol toptirish, ularni turli xil yod g‘oyalardan asrash va rivojlanishlari uchun barcha zamonaviy imkoniyatlardan foydalanishni tashkil etishdan iborat ekanligidan dalolat beradi. Ushbu anjumanda, yurtboshimiz tomonidan yoshlar siyosatiga oid quyidagi fikr-mulohaza va takliflar ilgari surilgan ya’ni “Aholisining deyarli yarmi yosh avlod[45] vakillari bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Ayni paytda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o‘rnatish, boshqa mintaqalarning ilg‘or tajriba va yutuqlarini o‘rganishdan manfaatdormiz. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh

[45] © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti www.president.uz

tashkil etishni taklif etaman. Uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030” dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir” [1]

Ta’kidlash joizki, Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning miqdori so‘ngi vaqtlarda ortib borayotgani kishini taajjubga solmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etgan. Mazkur ko‘rsatkich, oldingi besh yil davomidagi sodir etilgan jinoyatlar ko‘rsatkichidan 4.4 barobarga oshganini ko‘rsatmoqda. Yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o‘ldirishga urinish jinoyatlari 20% ko‘paygani aniqlangan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko‘p 700 nafari Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Keyingi o‘rinlarda, Toshkent shahri – 545, Namangan viloyati – 451, va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko‘rsatkichlar Jizzax – 54, Navoiy – 62, va Xorazm – 66 nafar voyaga yetmagan shaxs qayd etilgan.[1]

Muhokama va natijalar. Har bir jinoyat o‘zining ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etish vaqti va uslubi hamda sharoiti bilan qolgan jinoyat turlaridan farq qiladi. Bezorilik jinoyati, asosan jamoat joylarida sodir etilishi, voyaga yetmaganlarning ishtiroki mavjudligi va jinoyat turlarining ayrim harakatlari

(badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazib,bir guruh shaxslar tomonidan) aks etishi bezorilikning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Shuningdek, bezorilik jinoyatining kelib chiqish tarixiga yuzlanadigan bo‘lsak, XIX asrda Londonda kelib chiqishi Irlandiyaga mansub Patrik Xouligen yashagan. U mashhur o‘g‘ri hamda bezori bo‘lgani uchun uning ismidan “xuligan” ya’ni bezori so‘zi kelib chiqqan degan qarashlar mavjud.[1] Ingliz tilida bezorilik so‘zi “hooliganism” so‘zi bilan ifodalanib, o‘zini jamoat joyida ochiqcha shovqinli va agressiv xulq-atvorda tutish ma’nosida qo‘llanadi.[1] Bundan kelib chiqadiki bezorilik jinoyatining kelib chiqishi va keng tarqalishi asosan XIX asr oxiri hamda XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. So‘ngi o‘n yillikda, dunyoda bezorilik jinoyatining tobora o‘sib borayotgani, uning bir qancha turlari paydo bo‘layotgani va buning oqibatida ijtimoiy sog‘lom muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani bizga ma’lumdir. Bezorilikni oldini olishga qaratilgan tadqiqotlarga ko‘ra, mazkur jinoyatning sodir etilishi asosan sodir etuvchining sog‘lig‘idagi muammolar tufayli ro‘y berayotgani aniqlangan. Bezorilik jinoyati ko‘pgina holatlarda maktab o‘quvchilari orasida uchrayotgani ham mazkur jinoyatning bevosita salbiy xususiyatlari mavjudligi haqida dalolat beradi. Bezorilik jinoyati – kuchli shaxs

[1] © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti www.president.uz
[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/

yoki guruh tomonidan zaif bo‘lgan shaxsga jismoniy yoki psixologik bosim bilan zarar yetkazish va jabrlanuvchi hamda ayblanuvchi o‘rtasida kuch nomutanosibligini keltirib chiqaradigan harakat sifatida ta’riflangan. Bezorilikni sodir etishga bo‘lgan xohish o‘rta yoshlardagi shaxslarga qaraganda o‘smirlarda yuqori ekanligi namoyon bo‘lmoqda.
47

Bundan tashqari, bezorilik – salbiy xulq atvor sifatida takrorlanib sodir etiladigan, qasddan jismoniy va emotsional tarzda jabrlanuvchiga zarar yetkazadigan harakat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, bezorilik jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, dunyo bo‘yicha bezorilik jinoyati uch xil vaziyatda ya’ni *ijtimoiy hayot* muhitida, *maktab* muhitida va *internet* orqali sodir etilayotgani barchaga tanishdir. Mazkur yo‘llar orqali bezorilik sodir etilishi o‘z navbatida ta’lim–tarbiyaga yuqori darajadagi salbiy holatni aks ettiradi.[1] Bezorilik jinoyati o‘zida turli xil jinoyat ko‘rinishidagi shakllarni o‘z ichiga oladi: a) jismoniy bezorilik, b) verbal bezorilik, c) munosabatga doir bezorilik va d) mol-mulkka zarar yetkazish. **Jismoniy bezorilik –** zo‘ravonlik harakati bilan bezorilikni amalga oshirish; urish, tepish, yuziga musht uloqtirish va tupurish. **Verbal bezorilik –** haqoratlash, shaxsning nomga (taxallus) bo‘lgan huquqini buzish, yozma ravishda haqoratomuz so‘zlardan foydalanib shaxsga tahdid qilish. **Munosabatga doir bezorilik** – shaxsning ruxsatisiz shaxsga doir ma’lumotlarni tarqatish, ko‘ngilsiz suratlarini tarqatib yuborish bilan tahdid qilish, shaxs haqida salbiy mulohaza qilish va bu bezorilik jinoyatining turi asosan yosh insonni nomunosib xulq-atvor bilan qolgan insonlardan uzoqlashtirish hamda munosabat o‘rnatishiga qarshilik qilish. **Mol-mulkka zarar yetkazish** – mazkur turdagi bezorilik jinoyati o‘zida o‘g‘rilik, mukka ziyon yetkazish, egasiz ashyoni
48

---

[1] ISSN: 3030-377X Sardor Suvanov Toshkent Davlat Yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi. “VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK JIHATLARI” ISSUE 14, Volume1 15 May, 2024 https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/index

[2] DOI: 10.1007/s00431-012-1782-9 Bullying and victimization among Turkish children and adolescents:examining prevalence and associated health symptoms Received: 6 March 2012 /Accepted: 12 June 2012 /Published online: 27 June 2012 © Springer-Verlag 2012 https://link.springer.com/journal/431

[1] http://lex.uz//docs/- 111453 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi

[2]Isik Top[1] Belgin Unal[2]. Peer bullying in adolescents and related factors (2024) Turkish Journal of Public Health, 22 (1), pp. 23-34. https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0 DOI: 10.20518/tjph.127258 Document Type: Article Publication Stage: Final Source: Scopus

mulkdorga qaytarishdan bosh tortish va shaxsning ruxsatisiz shaxsiy elektron ma’lumotlarni oshkor qilish.[1]

Shuningdek, voyaga yetmaganlarni bezorilik jinoyatini sodir etishga undayotgan sabablar keng doiradagi risklarga borib taqalmoqda. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi: psixiatrik muammolar ya’ni depressiya, xavotirlik, ijtimoiy zaiflik, ta’limdagi muvaffaqiyatsizlik, darslarda passiv tarzda ishtirok etish va boshqa zo‘ravonlik ko‘rinishidagi xulq-atvorlar. Jismoniy mushtlashish ostidagi bezorilik asosan chekish, alkogol mahsulotlariga ruju qo‘yish va boshqa jinoyatlarda ishtiroki bilan asoslanadi. 2019-yilda AQSHda o‘tkazilgan yoshlar jinoyatchiligiga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash (the Youth Risk Behavior Survey) natijalariga muvofiq, 19.5 % maktab o‘quvchilari tomonidan bezorilik jinoyati sodir etilganligi aniqlangan.[1] O‘tgan yillik bilan mazkur ko‘rsatkich o‘rtasida deyarli farq yo‘qligi o‘rganilgan. Qolaversa, ushbu tadqiqotga ko‘ra, dunyo bo‘yicha eng ko‘p qaysi mamlakatning maktab o‘quvchilari bezorilik jinoyatini sodir etganligi va tengdoshlari tomonidan bezorilikdan jabr ko‘rgan o‘quvchi yoshlarning holati aks etgan statistik ma’lumotlar ko‘rsatilgan. Mazkur statistik ma’lumotlarga muvofiq, Litva davlatida 49%, Latviya 41%, Belgiya 40% va eng past ko‘rsatkich Italiya 8%, Islandiya 8% va Armaniston 6% bilan joy olgan.[1] Bundan ko‘rinib turibdiki, voyaga yetmagan shaxslar xususan maktab o‘quvchilari tomonidan bezorilik jinoyati sodir etilganligi yuqori ko‘rsatkich bilan Litva davlatida qayd etilgan.

Shu bilan birga, Turkiyaning Izmir shahrida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, maktab o‘quvchilari tomonidan bezorilik jinoyatining sodir etilishi tez-tez takrorlanadigan harakatlardan biri hisoblanib, ko‘pincha maktab haqida salbiy [49] fikrga ega bo‘lgan yoshlar o‘rtasida yuzaga kelishi ma’lum bo‘lgan.[1] Boshqa bir tadqiqot, buni inkor etadi ya’ni maktab o‘quvchilarining bezorilik jinoyatini sodir etishga bo‘lgan moyillik darajasi maktab haqida salbiy tushunchaga ega bo‘lgan yoshlar tomonidan emas balki nosog‘lom oila muhitida ulg‘aygan voyaga yetmaganlarda yuqori ekanligini ko‘rsatadi.[1]

Xulosa.Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishdan qaytarish, ularni mazmunli hamda foydali bo‘lgan turmush tarzida hayot kechirishlarini ta’minlash, voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini mustahkamlash, jinoyat sodir etilgandan keyin tarbiyaviy ruhdagi chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish va ularni rivojlanishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish davlatning asosiy

[1]Isik Top[1] Belgin Unal[2]. Peer bullying in adolescents and related factors (2024) Turkish Journal of Public Health, 22 (1), pp. 23-34. https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0 DOI: 10.20518/tjph.127258
Document Type: Article Publication Stage: Final Source: Scopus

vazifasi hisoblanadi. Mazkur turdagi vazifalar so‘ngi yillarda mamlakatimiz tomonidan sezilarli darajada amalga oshirilib kelmoqda. Bezorilik jinoyati jamiyatda salbiy ko‘rinishda namoyon bo‘lishi tabiiy holat hisoblanadi. Ayniqsa, mazkur jinoyatni voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilishi naqadar ayanchli holat sifatida baholanishi va uning turli xil shakllarini yuqoridagi tahlilimiz davomida muhokama qilib o‘tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi

Ilmiy maqolalar:

1. ISSN: 3030-377X Sardor Suvanov Toshkent Davlat Yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi. “VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK JIHATLARI” ISSUE 14, Volume1 15 May, 2024

Xorijiy ilmiy maqolalar :

1. DOI: 10.1007/s00431-012-1782-9 Bullying and victimization among Turkish children and adolescents:examining prevalence and associated health symptoms Received: 6 March 2012 /Accepted: 12 June 2012 /Published online: 27 June 2012 © Springer-Verlag 2012

2. Isik Top[1] Belgin Unal[2]. Peer bullying in adolescents and related factors (2024) Turkish Journal of Public Health, Document Type: Article Publication Stage: Final Source: Scopus.

Internet manzillari:

1. http://lex.uz//docs/-
2. © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti www.president.uz
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/
4. https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/index
5. https://link.springer.com/journal/431

6. https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0

HARBIY XIZMATCHILARDA JANGOVAR STRESSNI NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Shaxnoza Mirzayeva,
Xizmat faoliyatning tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi
3-bosqich 411 A guruhi kursanti

Har kuni biz doimiy ravishda diqqat-e’tiborni jamlagan holda yashash uchun son-sanoqsiz qarorlar qabul qilishimizga to‘g‘ri keladi, ko‘pincha bu bizning jismoniy va psixologik holatimizning buzilishiga olib keladi. Jangovar stressni boshidan kechiradigan yanada keskin holatga duchor bo‘ladigan jangovar sharoitda ishlaydigan xodimlarga e’tibor qaratish kerak. Buning uchun, avvalo, stressning nima ekanligini tushunib olish lozim.

“Stress” atamasi fiziologiya va psixologiyaga ilk bor Uolter Kennon tomonidan uning “kurashish yoki qochish” – universal reaksiya bo‘yicha klassik ishlarida kiritilgan. 1946 yili Gans Sele “stress” atamasidan umumiy moslashuvchan zo‘riqishni belgilash uchun foydalanishni boshladi. Farenbergning komplementarlik konsepsiyasidan so‘ng stressni ikki yondashuvda ko‘rish mumkin: psixik va somatik. Har bir yondashuvda ichki bo‘lganiday, tashqi tomondan ham o‘zaro kesishadigan o‘zining toifalar va munosabatlar tizimi mavjud.

Shunday qilib, stressni tor bo‘lganiday keng ma’nodagi ikki tushunchaga ajratiladi.

“Stress” atamasi tor ma’noda – bu organizm uchun kuchli ekstremal ta’sir bo‘lganida moslashuvchan faollikning maxsus bo‘lmagan fiziologik va psixologik ko‘rinishlari majmui. **Keng ma’noda** – bu organizmning qachonki atrof-muhit talablari va bunday talablar shartlarini udddalashni qanoatlantirish xususiyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik mvjud bo‘lganida yuzaga keladigan psixologik holatidir.

Ta’kidlash joizki, stress har qanday inson hayotidagi ajralmas qism hisoblanadi, chunki uning yordamida shaxs ekstremal vaziyatlarga tushgancha u yoki bu shart-sharoitlarga moslashish mexanizmini ishga tushiradi.

Jangovar stress – bu harbiy xizmatchida hayoti va salomatligiga tahdid soladigan, asosiy insoniy qadriyatlarning buzilishi mumkin bo‘ladigan jangovor harakatlarning salbiy omillariga nisbatan organizm va psixikasining tabiiy reaksiyasi hisoblanadi. Bunday reaksiyalar lavozimi, unvoni, yoshi va tajribasidan qat’i nazar har qanday harbiy xizmatchida namoyon bo‘lishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarda jangovar stress **ijobiy** va **salbiy** ko‘rinishdagi reaksiyalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

IJOBIY reaksiyalar: bo‘linmalarning jipslashuvi, bir-biriga o‘zaro yordamlashish, ishonchning kuchayishi, qahramonlikni namoyon etish, qo‘yilgan vazifalarni qanday bo‘lmasin bajarish.

SALBIY reaksiyalar: qo‘rquv, tahlika, xavotir, shubhalanuvchanlik, xotira, orientatsiya, tafakkurning buzilishi, ishonchning yo‘qolishi, odamovilik, agressiya, zo‘ravonlik, shafqatsizlik, sadizm, buyruqqa bo‘ysunmaslik, jinoyatlar sodir etish, dezertirlik, o‘z-o‘ziga zarar yetkazish, o‘z joniga qasd qilish, psixik kasalliklarning rivojlanishi.

Jangovar stressning salbiy reaksiyalariga duchor bo‘lgan harbiy xizmatchilarda jangovor qobiliyat qisman yoki to‘liq yo‘qoladi, xato harakatlar va noto‘g‘ri qarorlar soni ortadi, vaqt va makonda mo‘ljal olish buziladi, atrof-muhitni anglash qiyinlashadi, harakatlar va qarorlar sustlashadi, qurol-yarog‘ va texnikadan noto‘g‘ri foydalaniladi, buyruqlar tushunilmaydi yoki unutiladi, bu esa qo‘yilgan jangovar vazifalarning bajarilmasligiga, bo‘linmada jangovar ruhning yo‘qolishiga, shaxsiy tarkib, qurol-yarog‘ va jangovar texnikaning yo‘qolishiga, o‘zi yoki xizmatdoshlarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga (o‘z joniga qasd qilishgacha) yoki jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘pincha jangovar stressning salbiy reaksiyalari asta-sekin emas, balki tezkor rivojlanadi: yaqindagina adekvat va jangga layoqatli bo‘lgan harbiy xizmatchi dastavval holatining yomonlashishisiz jangga layoqatini bir onning o‘zida yo‘qotishi mumkin. Jangovar stressning salbiy reaksiyalariga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi holatining og‘irligi haqidagi dastlabki taassurot aldamchi bo‘lishi mumkin: holat tezda yaxshilanish tomongga bo‘lgani kabi yomonlashish tomonga ham o‘zgarishi mumkin, shuning uchun bunday xizmatchini doimiy ravishda kuzatib borish zarur.

Ko‘p hollarda jangovar stressga salbiy reaksiyaning namoyon bo‘lishi harbiy xizmatchiga dam olish imkoniyati berilgan sharoitda 24-48 (72) soat ichida o‘z-o‘zidan o‘tib ketadi.

Harbiy xizmatchilarning holatini kuzatish va yordamni tashkil etishda asosiy vazifa bo‘linma komandirlariga yuklatiladi. Agar bo‘linma komandiri shaxsiy tarkibda o‘zgarishlarni payqasa va harbiy xizmatchida quyidagi aniq belgilarni ko‘rsa:

o‘z joniga qasd qilish, xizmatdoshlarga nisbatan zo‘ravonlik yoki ularni o‘ldirish haqidagi fikrlar paydo bo‘lsa yoxud o‘z niyatlarini amalga oshirishga urinish bo‘lsa;

jangovar stressning salbiy reaksiyalari (sarosima, qo‘rquv, xavotir, tafakkur, xotira, vaqt va makonda mo‘ljal olishning buzilishi, «g‘alati» fikrlar, g‘oyalar va his-tuyg‘ular) 72 soat ichida yo‘qolmasa;

harbiy xizmatchi “g‘alati” qiliqlar qilsa, odamovi bo‘lib qolsa, o‘ylamasdan harakat qilayotgan bo‘lsa, noma’qul yoki jinoiy xulq-atvorni namoyon etayotgan bo‘lsa, nazoratsiz ravishda alkogol, giyohvand vositalar yoki dorilar qabul qilayotgan bo‘lsa darhol chora ko‘rishi zarur.

Bo‘linmaning butun shaxsiy tarkibi jangovar stressning salbiy reaksiyalari belgilari haqida xabardor qilinishi lozim, bir-birini kuzatish va jangovar stressning salbiy reaksiyalari ehtimoliy ko‘rinishlari haqida komandirga zudlik bilan xabar berishlari zarur.

Jangovar stressning salbiy reaksiyalari belgilariga xizmatdoshlarning holatini tushunish va baholashda tana, his-tuyg‘ular va xulq-atvorga e’tibor qaratish kerak.

Tana: haddan tashqari charchoq, ko‘krak va orqada og‘riq, lanjlik, uyqusizlik, tungi bosinqirashlar, nafas olishdagi qiyinchiliklar, qo‘l-oyoqlarning titrashi, kuchli terlash, tez yurak urishi, bosh og‘riqlar.

Emotsiyalar: xavotir yoki sarosima, aybdorlik hissi, qo‘rquv, chetlanish, befarqlik, depressiya, tushkunlik, achchiqlanish, g‘azab, qahr, hayajon, qayg‘uli oldindan sezish.

Xulq-atvor: dam olishda kuchlarni tiklashning imkonsizligi, hissiyotlarga beriluvchanlik, impulsivlik, agressivlik, zo‘ravonlik va shafqatsizlik, xavotirlanuvchanlik, shubhalanuvchanlik, qiziqishning yo‘qolishi, irodasizlik, alkogol va giyohvand moddalarni iste’mol qilish.

Jangovar stressda komandir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan birinchi yordamning 7 ta asosiy elementi mavjud:

1. Holatni baholash, harbiy xizmatchini tinglash va uni kuzatib borish.
2. Jabrlanganni xavfsiz joyga olib chiqish va unga dam olish, uxlash, fiziologik va maishiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini taqim etish.
3. Unga taskin berish, emotsiyalarini chiqarib yuborishi (gapirishi, baqirishi, yig‘lashi) ga imkon berish, diqqatni jarohatlovchi omildan hozirgi xavfsiz holatga va muvaffaqiyatli kelajakka qayta yo‘naltirish, qisqa muddatli jismoniy mashqlar (o‘tirish, turish, musht tugish, espandera, boks grushasiga, yerga yoki xavfsiz predmetlarga zarba berish) orqali jismoniy zo‘riqishni olib tashlash.

Do‘stlari-xizmatdoshlari bilan bevosita aloqani va masofadan turib qarindoshlari va yaqinlari bilan aloqaga chiqishni ta’minlash (operativ holatga ko‘ra).

O‘ziga, o‘zining professional ekanligiga ishonch tuyg‘usini tiklash. Hatto eng kuchli va tajribali harbiy xizmatchilar uchun tabiiy bo‘lgan harbiy sharoitda stressga oid reaksiyalarning me’yoriy ekanligiga ishontirish.

Tibbiy yordam uchun murojaat qilish va uning ko‘rsatilishini muvofiqlashtirish.

Harbiy xizmatchini safga qaytarishda professional malaka va ko‘nikmalarini tiklash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.V.Yakovlev, O.V.Leontiev E.N.Gnevishev. «Stress Psixologiyasi» Qo‘llanma. Sankt-Peterburg. 2020. st 8.

2. G.Selye. Moslashuv sindromi haqidagi esselar / G. Sel’ye. Moskva: Medgiz, 19b.-254p.

3. Jukov Andrey Mixaylovich. Avtoreferat dissertatsii po teme “Stress jizni ofitserov Voorujennых Sil Rossiyskoy Federatsii i yego psixoprofilaktika” Moskva – 2004.

ZAMONAVIY HARBIY TA’LIM:PSIXOLOGIK QO’LLAB-QUVVATLASHNING YANGI YONDASHUVLARI

Baxriddinova Sarvinoz Baxriddin qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti
Xalqaro jurnalistika yo’nalishi
4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bugungi davrda dunyoda urush va tinchlik kabi insoniyat oldida turgan global muammoni hal etish zarur bo’lib turgan bugungi tahlikali zamonda, Vatanimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash O’zbekiston Respublikasi QurolliKuchlari harbiy xizmatchilarning, xususan, har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Yer yuzida mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-psixlogik jihatdan tayyorgarligi muhim yo’nalishlardan biridir. Chunki Vatanimizning tinchligi va osoyishtaligi yo’lida beminnat xizmatini qilib kelayotgan harbiy xizmachilarimiz ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so’zlar: *Harbiy ta’lim, tinchlik, axloqiy-psixologik, psixodiagnostika, virtual, jangovarlik, psixologik sinovlar, jamoaviy psixologik, zamonaviy yondashuv.*

KIRISH

Mamlakatimizda yoshlarga bo’lgan imkoniyatlar hamda bilim-ko’nikmalarni mustahkamlash muhim bir vazifalardan biridir. Ana shunday imkoniyatlardan birti hisoblangan bugungi vaqtda harbiy xizmatchilarimizning psixologik ko’nikmalarini oshirish va yanada shakillantirish maqsadida alohida e’tibor berilmoqda. O’zining psixologik imkoniyatlariga to’g’ri baho bera olmaydigan hamda o’zini yetarli darajada tushunmaydigan inson hayotda ketma-

ket xatolarga yo’l qo’yadi. Demak, psixologiya o’zi nima? Psixologiya “Xulq atvor va aqliy jarayonlarini ilmiy o’rganish” deb ta’riflanadi. Ho’sh, nima uchun psixologiya harbiy bxizmatchilar va bo’lajak ofitserlar uchun ahamiyatga ega? Chunki psixologiyani o’rganish harbiy xizmatchiga aqliy salohiyatini o’stirish , xotirani kuchaytirish hamda insonlar bilan muloqotga ijoibiy kirish imkoniyatlarini beradi. Harbiy xizmatchilar o’z kasbini egasi bo’lish uchun o’zini qurshab turgan atrof-muhit haqida bilim va tasavvurga ega bo’lishlari shartdir.

XIX asr oxirida va XX asr boshlarida Rossiya harbiy psixologiya samarali shug’ullanib kelgan tadqiqotchilardan biri G.Ye.Shumkov o’sha davrlarda askarlarning holatlariga tayyorgarligi ilmiy psixologik bilimlariga asoslangan qat’iy tizim asosida o’tkazilish shart deb hisoblangan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandean so’ng harbiy xizmatchilarga bir qancha sharoitlar hamda imkoniyatlar berildi. Xususan, oliy harbiyb ta’lim muassasalari tashkil qilindi. Bundan asosiy ko’zlangan maqsad yoshlarimizni bolaligidan harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning psixologik holatini barqarorlashtirish, ularnimng bjangovar tayyorgarligini oshirish va stressga qarshi chidamliligini ta’minlash muhim ro’l o’ynaydi. Bu yondashuv nazariy va amaliyotni quyidagilar o’z ichiga oladi:

1. Psixologik xizmatning vazifalari; harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini tahlil qilish, ijtimoiy-psixologik muhitni boshqarish, shaxsiy va jamoaviy psixologik farovonlikni ta’minlasg asosiy maqsad hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda psixologiya, pedagogika, sotsalogiya va boshqa ijtimoiy fanlardan foydalaniladi.

2. Psixodiagnostika; harbiy xizmatchilarni psixologik sinovlardan o’tkazish, ularning shaxsiy xususiyatlar, stress va zo’riqishga qarshi turish qobiliyatini baholash muhumdir. Zamonaviy psixodiagnostika texnikalar, testlar va texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabi hisoblanadi.

3. Psixologik maslahat va terapevtik yondashuvlar; harbiy xizmatning o’ziga xos sharoitlariga moslashtiriligan psixologik maslahatlar va terapevtik usullar joriy qilinadi. Bu usullar harbiylarning psixologik salomatligini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Psixologik tayyorgarlik; harbiylar jangovar holatlarda stressga chidamli bo’lish va ruhiy barqarorligini ta’minlash uchun maxsus treninglar o’tkaziladi. Bu tayyorgarliklarda jismoniy, aqliy va ruhiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar amalga oshiriladi.

5. Innovatsion texnologiyalar; zamonaviy axbarot texnologiyalari va virtual texnologiyalaridan foydalanish orqali jangovar holatlar, stress sharoitlarni

modellashtirish va ularga moslashish usullari ishlab chiqiladi. Misol uchun virtual simulyatorlar yordamida harbiy xizmatchilarning ruhiy bardoshligi sinovdan o'tkaziladi. Mana shunday yondashuvlarda psixologik xizmatning harbiylar uchun eng yuqori darajada individual yondashuvlar hamda ilg'or texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi. Shuningdek, samarali psixologik xizmat jangovar vaziyatlarda ham barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Harbiy psixologiyaning alohida tarmog'i sifatida XX asr boshlarida shakillangan. Tabiiyki, o'tmishdagi Qurolli Kuchlar bilan zamonaviy armiya o'rtasida juda katta farq bor. Sohibqiron Amir Temur o'z davrida shaxsiy tarkib orasida mard, aqlli askarlarini doimi tanlab olib ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan va o'stirgan. Bugungi kunga kelib harbiy qism xizmatchilari va bo'lajak ofitserlarga malakali harbiy psixologlar tomonidan harbiy xizmat samaradorligini oshirish bo'yicha bir qancha jangovar, axloqiy-ma'rifiy tayyorgarligiga erishilmoqda. Bugungi kunda Jamoat Xavfsizlik universitetining bakalaviriat bosqichida "xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash mutaxassisligi" yo'nalishi tashkil qilingan.

Demak, oliy harbiy ta'lim muassasalarda va harbiy qismlarda psixologiya tizimi deyarli shakillangan. Shuni ta'kidlash joizki, yurtimizda markazlashgan psixologik ta'lim muassasalari tarkibida psixologik xizmatlar uchun maxsus bo'limlar hamda markazlar tashkilo qilindi. Harbiy xizmatchilar muntazam ravishda psixologik sinovlar olib borilmoqda. Bo'lajak ofitserlarimiz uchun hamda harbiy xizmatchilarimiz uchun maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqildi.

TAKLIFLAR

Harbiy ta'lim va harbiy qismlarda psixologiyani rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar berib o'tmoqchiman:

1. Stress va boshqa ko'nikmalarini oshirish; bunda harbiy xizmatchilarning stressini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam ravishda treninglar o'tkazilishgi, stressni kamaytirishga yordam beradigan texnikalar, masalan, meditatsiya va nafas olish mashgqalarini o'rgatish.
2. Psixologik tayyorgarlik dasturlari; jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik tayyorgarlik dasturlarini joriy etish kerak. Bunda harbiy xizmatchilarning jangovar vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.
3. Harbiy xizmatchilar uchun psixologik maslahat markazlari; harbiylarning oilaviy va shaxsiy muammolariga yordam beradigan maslahat xizmatlarini tashkil qilish.
4. Psixologik faravonlikni monitoring qilish; harbiy xizmatchilarning psixologik holatini muntazam ravishda baholab turish hamda anonym so'rovlar va testlardan foydalanish.

5. Motivatsiyani oshirish dasturlari; bunda harbiylar orasida psixologik rag'batlantiruvchi tadbirlar o'tkazish va ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Bu takliflar harbiy xizmatchilar salomatligini va ularning xizmatdagi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, harbiylik kasbi eng sharafli kasblardan biri hisoblanadi. Harbiy kadrlarni tayyorlash borasida moslashuvchanlikni sindirish, psixologik jihatdan bilimlarini yanada oshirishni oldiga maqsad sifatida qo'yiladi. Ularni harbiy vatanparvarlik ruhida shakillantirishda harbiy xizmatchilarimizning o'z kasbiga hamda oilasiga munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Negaki milliy armiyamizga yetuk, bilimli hamda har taraflama shakillangan jasur harbiylarimiz tirgakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz",//T.;"O'zbekiston", 2017, 179-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli Qarori //Xalq so'zi, 2018 yil 6 avgust
3. Harbiy pedagogika Sotiboldiyev. A, Karimjonov A. "Sharq", 2005 yil
4. Harbiy psixologiya Ch. R. Nasriddinov "Fan" nashriyoti 2004 yil.
5. Yoshlar psixologiyasi va pedagogika psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahrir ostida-T.: O'qituvchi, 1974. 194 s.
6. "Harbiy rahbarlik psixologiyasi" P.V.Simonov.
7. "Harbiy psixologiya asoslari" V.D.Nebylitsin.
8. https://nziyouz.com
9. https://cyberleninka.uz

BOLALARGA XOS AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI

Qodirova Malikaxon Kaxramonovna,
katta o'qituvchi Jizzax davlat pedagogika universiteti
qodirovamalika1973@gmail.com

Ismoilova Madina Farxod qizi,
Usmonova Mohlaroyim Xoliyor qizi,
Psixologiya yo'nalishi II-bosqich talabalari

Annotasiya: Maqolada tajovuz va tajovuzkorlik tushunchasi, tajovuzkorlikning har bir davrda yoshga oid rivojlanish xususiyatlari, tajovuzkor bolalar bilan ishlash, ular bilan munosabat qilishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: tajovuz, tajovuzkorlik, bola, pedagog, ota-ona, janjal, munosabat, norozilik, harakat, tashvish.

Аннотация: В статье рассмотрены понятие агрессии и агрессии, возрастные особенности развития агрессии в каждом периоде, педагогические и психологические аспекты работы с агрессивными детьми и общения с ними.

Ключевые слова: агрессия, агрессия, ребенок, педагог, родители, ссора, отношение, протест, действие, беспокойство.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir.

Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko‘pchilik o‘zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o‘zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo‘llari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Agressiya kundan-kunga “yosharib bormoqda”. Kundalik hayotning bunday sharoitida zo'ravonlik va tajovuzga to'la dunyoda bolani ijtimoiylashtirish uchun pedagoglar va psixologlar o'z sa'y-harakatlarini qayerga yo'naltirish kerakligini hal qilishlari qiyin.

Insoniyat jamiyatida tajovuzkorlik o'ziga xos funktsiyalarga ega. Birinchidan, u qandaydir mazmunli maqsadga erishish uchun vosita sifatida ishlaydi. Ikkinchidan, tajovuz ko'pincha bloklangan ehtiyojni almashtirish va faoliyatni almashtirish usulidir. Uchinchidan, tajovuz ba'zi odamlar tomonidan o'zini-o'zi tasdiqlashga bo'lgan ehtiyojni qondirish usuli va mudofaa harakati sifatida ishlatiladi.

Bolalarda tajovuzkorligining kuchayishi bolalar jamoasida eng ko'p uchraydigan muammolardan biridir. U nafaqat pedagoglarni, balki ota-onalarni ham tashvishga soladi. Agressiyaning ba'zi shakllari ko'pchilik kichik maktab o'quvchilariga xosdir. Deyarli barcha bolalar janjallashishadi, janjal qilishadi, ismlarni chaqirishadi va hokazo. Odatda, xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini

o'zlashtirish bilan, bolalar tajovuzkorligining bevosita namoyon bo'lishi xulq-atvorning ijtimoiy shakllariga yo'l beradi. Biroq, ma'lum bir toifadagi bolalarda tajovuz nafaqat davom etadi, balki rivojlanib, barqaror shaxs sifatiga aylanadi. Natijada, bolaning ishlab chiqarish salohiyati pasayadi, to'liq muloqot qilish imkoniyatlari torayadi, uning shaxsiy rivojlanishi deformatsiyalanadi. Agressiv bola nafaqat boshqalarga, balki o'ziga ham ko'p muammolarni keltirib chiqaradi.

Bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlari muammosi bugungi kunda juda dolzarb bo'lib bormoqda. Maktab o'qituvchilarining ta'kidlashicha, tajovuzkor bolalar yildan-yilga ko'payib bormoqda, ular bilan ishlash qiyin va ko'pincha o'qituvchilar o'zlarining xatti-harakatlariga qanday munosabatda bo'lishni bilishmaydi. Vaqtinchalik qutqaruvchi yagona pedagogik ta'sir jazo yoki tanbeh bo'lib, undan keyin bolalar bir muncha vaqt o'zini tutadi va ularning xatti-harakatlari kattalar talablariga mos kela boshlaydi. Ammo bunday pedagogik ta'sir ko'proq bolalarning xususiyatlarini oshiradi va hech qanday tarzda ularning qayta tarbiyalanishiga yoki xatti-harakatlarining yaxshi tomonga o'zgarishiga yordam bermaydi.

Ilmiy adabiyotlarda tajovuz ko'pincha boshqa shaxsga, odamlar guruhiga yoki hayvonga zarar etkazishga qaratilgan har qanday qasddan harakat sifatida tushuniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tajovuzkorlik va tajovuzkorlik tushunchalari sinonim emas. Agressivlik tajovuzga tayyorlikda ifodalangan shaxsiy xususiyat sifatida tushuniladi. Shunday qilib, tajovuz - bu boshqa ob'ektga zarar etkazadigan muayyan harakatlar; tajovuzkorlik esa boshqasiga nisbatan tajovuzkor harakatlarga tayyorlikda ifodalangan shaxsiy xususiyatdir. Agressivlik ijtimoiy-pertseptiv komponentni ham o'z ichiga oladi, bu holda odamning boshqa birovning xatti-harakatini dushmanlik sifatida qabul qilishga va talqin qilishga tayyorligi (moyilligi)dan iborat.

Shunday qilib, asosan, tajovuz zararli xatti-harakatni anglatadi. Bundan tashqari, "tajovuz" tushunchasi turli shakldagi xatti-harakatlar va natijalarni o'z ichiga oladi - yovuz hazillar, g'iybatlar, dushmanlik xayollari, xulq-atvorning buzg'unchi shakllaridir.

Boladagi tajovuzkor harakatlar juda erta yoshdan kuzatilishi mumkin. Hayotning birinchi yillarida tajovuz deyarli faqat impulsiv o'jarlik hujumlarida namoyon bo'ladi, ko'pincha kattalar nazorati ostida bo'lmaydi. Bu ko'pincha g'azab yoki g'azabning portlashi bilan ifodalanadi, ular baqirish, tepish va janjal bilan birga keladi.

T.Gasparov ta'kidlaganidek, bolaning faolligi hayotning ikkinchi yilida kuchayadi. Mustaqil harakat imkoniyatlarining kengayishi bilan bolaning xatti-harakatlarida mustaqillik kuchayadi. Bu mustaqillikka intilish kichkina odamning

ota-onasining xohishiga qarshi o'z-o'zidan turib olishga birinchi urinishlariga olib keladi [3].

Uch yoshga kelib, bolaning qaysarligi haqidagi shikoyatlar ko'proq davom etadi. Bu davrda tajovuzkorlik xarakterga ega. Mojarolar ko'pincha narsaga egalik qilishda yuzaga keladi. I.A.Furmanov ta'kidlaganidek, bu yoshda "izlanish xarakteri" kuchayadi va shu bilan birga chaqaloq yangi taqiqlar, cheklovlar va ijtimoiy mas'uliyatlarning butun tizimiga duch keladi. O'z-o'zidan paydo bo'lgan qiziqish va ota-onaning "yo'q" o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatga tushib qolgan bola, beixtiyor eng kuchli mahrumlikni - uning ehtiyojlarini qondirish qobiliyatining cheklanishini boshdan kechiradi. Bola bu holatni ota-onaning rad etish harakati sifatida qabul qiladi. Ushbu konfliktni hal qilishning mumkin emasligi unda g'azab, umidsizlik va tajovuzkor tendentsiyalarning uyg'onishiga olib keladi [20].

Olti yoki etti yoshga kelib, instrumental tajovuz shaxsan boshqa shaxsga qaratilgan tajovuz bilan aralasha boshlaydi. Agressiya shakllarida o'zgarish mavjud - oddiy jismoniy hujumning chastotasi ijtimoiylashgan shakllarning o'sishi (haqorat, kurash) tufayli kamayadi.

Bu davrda bolalar o'zlariga nisbatan barqaror munosabatni shakllantirishda davom etadilar. Bolaning barcha savollar bo'yicha o'z nuqtai nazari bor, u faol himoya qiladi, bu ko'pincha ota-onalarning noroziligiga sabab bo'ladi. "Jim bo'l!", "Sizdan so'ramaydilar!", "Sening ishing yo'q. Shunday qilib, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvoridagi barqaror tajovuzkor tendentsiyalar o'zlarining kelib chiqishi kattalar bilan munosabatlar sohasidan kelib chiqadi.

Bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlarning paydo bo'lishi haqida batafsilroq gapirishdan oldin, boshlang'ich maktab yoshidagi tajovuzkor bolalarning xarakteristik xususiyatlariga to'xtalib o'tish kerak. Amerikalik psixolog M.Olvard tajovuzkor bolalarning bir qator xarakteristik xususiyatlarini aniqlaydi, bu esa bunday bolalarning ichki qarama-qarshiliklarini, muammoli sohalarini va ichki ziddiyatlarini ko'rsatadi.

Agressiv bolalarning xarakterli xususiyatlari quyidagicha:

1. Keng doiradagi vaziyatlarni ularga nisbatan tahdid, dushmanlik sifatida qabul qiladi.
2. O'ziga nisbatan salbiy munosabatga haddan tashqari sezgir.
3. Boshqalar tomonidan o'zini-o'zi salbiy qabul qilish uchun oldindan sozlangan.
4. O'zlarining tajovuzkorligini tajovuzkor xatti-harakatlar sifatida baholamaydi.
5. O'zlarining buzg'unchi xatti-harakatlarida doimo boshqalarni ayblaydi.
6. Qasddan tajovuzda aybdorlik hissi bo'lmaydi yoki aybdorlik juda zaif tarzda namoyon bo'ladi.
7. Ular o'z harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olmaslikka moyil.
8. Muammoli vaziyatga cheklangan reaktsiyalar to'plamiga ega bo'ladi.

9. O'zaro munosabatlarda ular empatiyaning past darajasini ko'rsatadilar.
10. O'z his-tuyg'ularini nazorat qilish yomon rivojlangan bo’ladi.

Undan tashqari g'azabdan boshqa his-tuyg'ularini bilmaydi, ular ota-onasining xatti-harakatlarida oldindan aytib bo'lmaydigan narsadan qo'rqishadi, ular o'z harakatlarining oqibatlarini qanday bashorat qilishni bilishmaydi, ular tajovuzga ijobiy munosabatda bo'lishadi, chunki tajovuz orqali ular o'zlarining qadr-qimmatini va kuchini his qiladilar.

Lovber va Hay ta'kidlaganidek, boshlang'ich maktab o'quvchilaridagi tajovuz ma'lum darajada yosh normasi hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, boshqalarga zarar etkazish niyatidagi xatti-harakatlar, hech bo'lmaganda, vaqti-vaqti bilan, ko'pchilik bo'lmasa ham, ushbu yosh guruhlari vakillari tomonidan namoyon bo'ladi. Biroq, bolalarning ma'lum bir qismi rivojlanishning ushbu normal chizig'idan chetga chiqadi va doimiy ravishda yuqori darajadagi tajovuzkor xatti-harakatlarni namoyon qiladi, bu endi yosh normasi deb hisoblanishi mumkin emas. Aynan shunday shaxslarning xatti-harakati tajovuzning paydo bo'lishi tadqiqotchilari uchun alohida qiziqish uyg'otadi [5].

Xulosa qilib aytganda bolalikda tajovuzkor xatti-harakatlarning rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda ko'plab omillar ta'sir qiladi. Agressiv xatti-harakatlar oila, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri bilan belgilanadi. Bolalar tajovuzkor xatti-harakatlarni to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlash orqali, shuningdek, tajovuzkor harakatlarni kuzatish orqali o'rganadilar. Oila yetakchiligining tabiati tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanishi va mustahkamlanishi bilan bevosita bog'liq. Bola tengdoshlari bilan muloqotdan ham tajovuz haqida ma'lumot oladi.

Bolalardagi tajovuzkorlikni kamaytirish uchun tuzatish dasturlarini ishlab chiqishda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish mumkin:

- bolaning shaxsiy tashvish darajasini pasaytirish;
- bolaga g'azabini ifoda etishning maqbul usullarini o'rgatish;
- bolaga salbiy hissiy holatlarni nazorat qilish usullarini o'rgatish, shuningdek, o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- bolalarda muammoli vaziyatlarda konstruktiv xulq-atvor reaktsiyalarini shakllantirish;
- empatiya va o'z-o'zini hurmat qilishning adekvat darajasini rivojlantirish.

Bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlari ko'pincha o'zini o'zi tasdiqlash va o'zini o'zi anglash istagi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Biroq, xatti-harakatlar modellarining etishmasligi bolaning o'zini adekvat tarzda ifodalashiga imkon bermaydi. Shu munosabat bilan bolaning tajovuzkorligining pasayishi uning xulq-atvor vositalarining rivojlanishi, shuningdek, aks ettirishning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buttner K. Agressiv bolalar bilan yashash. M., 1991 yil.
2. Baron R., Richardson D. Agressiya. SPb., 1997 yil.
3. Gasparova T.I. O'jarlik va injiqlik. // Maktabgacha ta'lim.-1989.- No 1.-76-83-betlar.
4. Dubinko N.A. Kognitiv jarayonlarning bolalikdagi tajovuzkorlikning namoyon bo'lishiga ta'siri // Psixologiya savollari, 2000 yil, N 1.
5. Kreychi B. Agressiyaning ijtimoiy psixologiyasi. SPb., 2003 yil.

TALABA YOSHLARDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.

Fayziyeva Gulzoda Ulugbekovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura bosqichi “Psixologiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy axborot tahdidlari sharoitida talaba yoshlarining axborot va psixologik xavfsizligini ta'minlashning psixologik jihatlarini o'rganish bo‘yicha usullar va yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: axborot-psixologik xavfsizlik, axborot-psixologik tahdidlar, manipulyatsiya texnikasi, psixologik bosim, dezinformatsiya, kiberbulling, kiberxavfsizlik, psixo-emotsional holat.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi axborot olamining tobora kengayishiga, insoniyatning xabardorlik darajasining oshishiga shu bilan birga axborot xavfsizligi masalasining dolzarbligining oshishiga ham xizmat qilmoqda. Bu borada davlatimiz raxbarining 2020-yil 25-dekabrdagi yoshlar bilan uchrashuvida, yoshlar ma’naviyati bilan bog‘liq muammolarga to‘xtaldi.Forumda, jahonda turli nizo va ziddiyatlar avj olayotgani, terrorizm, ekstremizm balosi va boshqa tahdidlar internet makoniga chuqur kirib, moslashib olgani ta’kidlandi.

Prezidentimiz: “Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak. Shu o‘rinda men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo‘lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da’vat etaman[1] degan

so‘zlari ham aslida yoshlarimizni axborot xavfsizligini ta’minlashning takomillashishiga jiddiy munosabatda bo‘lishimizga murojaat desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari forumda yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega ekanini alohida takidladi. Darxaqiqat, zamonaviy axborot texnologiyalari inson ongi va imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatdi, uning turmush tarzi va qadriyatlarini o‘zgartirdi, bu esa insoniyatning axborot muhitini sifat jihatdan qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Jamiyatning ma’naviy-madaniy sohasida axborot texnologiyalaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanish xavfi inson ongini manipulyatsiya qilish, shaxsning ruhiy va ijtimoiy moslashuvi xavfini keltirib chiqargan bo‘lsa, harbiy siyosiy sohada yangi turdagi axborot qurolini ishlab chiqarish imkoniyatlariga bo‘lgan zaruriyat keskin oshdi, shuning uchun ham, hozirgi zamonaviy urushda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari zarba berishning asosiy usullari va vositalari deb qabul qilinmoqda, bunda axborot targ‘iboti alohida o‘rin egallayotgani nam hech kimga sir emas[2]. Bu o‘z navbatida, yoshlarda axborot psixologik xavfsizlikni ta’minlashni takomillashtirishga jiddiy ahamiyat berishimiz kerakligidan dalolat.

Ushbu forumda, davlatimiz rahbarining: Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz[3], – deganlari ham bejizga emas edi.

Axborot muhiti jamiyat faoliyatining sifatini, uning rivojlanish darajasi va xavfsizligini belgilash bilan bir qatorda jamiyat hayotini ta’minlashning barcha jarayonlarini tartibga soladi.

Shuning uchun zamonaviy axborot tahdidlari sharoitida talaba yoshlarining axborot va psixologik xavfsizligini ta'minlashning psixologik jihatlarini o'rganish bugungi olimlardan yeng shimarib ishlashni talab qiladi. Quyida esa talabalarning axborot ta'siriga psixologik barqarorligiga hissa qo'shadigan asosiy omillarni aniqlashga, shuningdek, psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish va axborot ta'sirining salbiy oqibatlarini oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligi muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, psixologik jihatlarga alohida e'tibor berish.
2. Talaba yoshlar duch keladigan asosiy axborot tahdidlarini va ularning psixo-emotsional holatga ta'sirini aniqlash.

3. Axborot hujumlari va manipulyatsiyalarga qarshilik ko'rsatadigan psixologik omillarni o'rganish.

4. Talabalarning axborot va psixologik xavfsizligi darajasini oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan himoya mexanizmlarini aniqlash.

5. Axborot-psixologik tahdidlarning salbiy oqibatlarini oldini olish va minimallashtirishga qaratilgan tarbiyaviy va psixologik strukturalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

6. Talabalarning psixologik xavfsizligi kontekstida axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash dasturlarining samaradorligini tadqiqot qilish.

Ushbu tadqiqot ob'yekti oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talaba yoshlardir. Ushbu guruh raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va umuman internetdan faol foydalanish tufayli axborot tahdidlariga eng ko'p duch kelgan va qaram bo‘lganlar.

Afsuski, tadqiqot ob'yekti sifatida aksariyat qismi yoshlar(ayniqsa talabalar) ekani va bu esa bir qancha omillarga bog'liqligini kuzatishimiz mumkin:

1. Psixo-emotsional beqarorlik. Universitetda o'qish davrida talabalar ko'pincha yangi sharoitlarga moslashish, o'quv yuklari va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar kabi yangi stress omillariga duch kelishadi, bu ularning axborot tahdidlariga moyilligini oshirishi mumkin.

2. Dunyoqarashni shakllantirish. Talabalik yoshi o‘z-o‘zini anglash va qadryatlar qiymatini shakllantirishning asosiy davri hisoblanadi. Dezinformatsiya va manipulyatsiyaning ta'siri haqiqatni idrok etishni sezilarli darajada buzilishiga va psixo-emotsional farovonlikni buzishilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

3. Ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri. Talabalar axborot makonining faol ishtirokchilaridir va ularning bu kontekstdagi xatti-harakatlari jamoatchilik fikri va ijtimoiy tendentsiyalarni shakllantirish kabi ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilishi mumkin.

Talaba yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligining psixologik jihatlarini o'rganish uchun quyidagi yondashuvlar va metodlar tanlashni belgilashimiz maqsadga muvofiq. Ushbu ishda ham miqdoriy, ham sifat usullari qo'llaniladi, bu muammoni har tomonlama tahlil qilishga imkon beradi. Asosiy metodologik yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

Tizimli yondashuv. Tadqiqot axborot-psixologik xavfsizlikni turli jihatlarni (psixologik, ijtimoiy, texnologik) o'z ichiga olgan murakkab va ko'p darajali hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Tizimli yondashuv ushbu jihatlar o'rtasidagi munosabatni hisobga olishga va ularning talabalarning psixo-emotsional holatiga ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Sifatli usullar. Axborot tahdidlarini idrok etish va ularning talabalarga ta'sirini o'rganish uchun chuqur intervyular va fokus-guruhlar metodologiyasidan

foydalaniladi. Ushbu usullar talabalarning shaxsiy tajribasi va ularning axborot xavfsizligiga munosabati to'g'risida sifatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Miqdoriy usullar. Axborot-psixologik xavfsizlik darajasini aniqlash va talabalarning axborot tahdidlariga chidamliligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun so'rovnomalar va testlar qo'llaniladi. Bu esa statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va qonuniyatlarni aniqlashni ta'minlaydi.

Kontent-analiz. Ommaviy axborot vositalarida keng tarqalgan axborot tahdidlari va manipulyatsiyalarini tahlil qilish uchun kontent-analiz metodi qo'llaniladi. Bu axborot makonida qo'llaniladigan asosiy mavzular, ta'sir shakllari va metodlarini ochib beradi.

Ta‘lim faoliyatiga nisbatan ―axborot xavfsizligi tushunchasi shakllanish bosqichida va bir nechta talqinlarga ega. Shaxsning axborot xavfsizligi – bu shaxsni himoya qilish holati, uning faol ijtimoiy subyekt sifatida yaxlitligini va atrof-muhit bilan axborot o‘zaro ta‘siri sharoitida rivojlanish imkoniyatlarini ta‘minlaydi [4].

Shaxsning axborot xavfsizligi-bu uning asosiy manfaatlarini himoya qilish holati, bu konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni amalga oshirish, shaxsiy xavfsizlikni ta‘minlash, turmush sifati va darajasini oshirish, jismoniy, ma‘naviy va intellectual rivojlanish, insonning psixikasi va ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga axborot ta‘siridan kelib chiqadigan tahdidlardan iborat jamiyatning turli xil ijtimoiy subyektlari va axborot muhiti [5].

Sivilizatsiyalashgan jamiyatdagi xavfsizlik darajasi tashqi dunyodan sun‘iy izolyatsiya emas, balki tsivilizatsiyalashgan jamiyatdagi haqiqiy o‘zaro ta‘sir jarayonida shakllanadigan talabalarning tanqidiy tafakkurining yuqori darajada rivojlanishi bilan ta‘minlanishi mumkin va kerak. Axborot bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, global tarmoqdagi odob-axloq qoidalariga rioya qilish qobiliyati birinchi o‘ringa chiqadi. Bularning barchasi madaniyatli jamiyatda yoshlar xavfsizligi madaniyatini shakllantirish uchun ishonchli platformaga aylanmoqda[6].

Shunday qilib, turli xil metod va yondashuvlardan foydalanish axborot va psixologik xavfsizlik muammosini har tomonlama tushunishni va uni ta'minlash uchun samarali tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlar instituti axborot xavfsizligini ta’minlash maruza matnlari

2. Alikariyev N.S., Alikarieva A.N. Oliy ta‘lim sifati menejmenti tizimini rivojlantirish konsepsiyasi//―Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali‖ (www.tadqiqot.uz\soci)

elektron jurnali. №1. – Toshkent, 2020. – B. 7-18. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1

3. https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/25/forum/

4. Заитов Э. Mahallaning o _rganilishida tarixiy yondashuv //Журнал социальных исследований. – 2024. – Т. 7. – №. 1.

5-6. YOSHLAR AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‟MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI B. J. Rispaev Erkin tadqiqotchi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

TALABALARDA O‘QUV JARAYONIDAGI STRESSLI VAZIYATLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

Rasulov Isomiddin Ravshanjon o‘g‘li
O‘zbekiston respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura bosqichi psixologiya yo’nalishi talabasi

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim-tarbiya doimo jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, jarayonlar va aloqalarning markazida turadi. Globallashuv jarayoni inson va uning ilmiy-ma’rifiy potensialini ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun globallashuv jarayoni xosdir. Innovatsion texnologiyalar taraqqiyotining ilg‘or natijalarini qo‘llash, yuqori darajadagi texnika texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, eng muhimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bu boradagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi[1]. Mamlakatimizda qabul qilingan yangi taxrirdagi «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun»i bo‘yicha butun ta’lim tizimi isloh qilinar ekan, asosiy diqqat ana shunday saviyadagi kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Bilamizki, talabalik davri turli yoshlarni o’z ichiga qamrab oladi oladi. Bu davrda ko'plab psixologik xususiyatlarni kuzatishimiz mumkin aynan ota-onasidan uzoqda, moliyaviy jihatdan qiyinchiliklar hamda maktab davriga nisbatan murakkab aqliy yuklamalar ostida o‘qiyotgan talabalarda o’z tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatlarda ham salbiy muammolar kelib chiqishi mumkin bundan qolaversa, bu davrda oila a’zolari bilan munosabatlarda ham stressga moyillik darajasi yuqorilashib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Oddiygina talabaning uyiga bo‘lgan sog'inchi, yaqinlarini sog‘inish, ustozlaridan dakki eshitishi, o’qishidagi qiyinchiliklar hattoki o‘z tengdoshlari bilan munosabatining uzoqligi talabani stressga tushishiga sabab bo’lishi mumkin aynan oilaviy mehrdan yiroqda bo‘lgan qiz bola talabalarda muhabbatga bo‘lgan hissiyotlari shaklanadigan bir davr bo‘lib o‘zi hohlagan munosabatga javob olmasligi ham talabalarning stressogen

vaziyatlarga tushishiga sabab bo'la oladi. Stress tushkunlik holatini keltirib chiqaradi. Tushkun kayfiyatning uzoqroq davom etishi bazida depressiya holatlarini keltirib chiqarish mumkun aynan talabalik davridagi qizlarda semizlikdan aziyat chekkan vaqtlarda va kuchli dieta vaqtida ham stresss alomatlari kelib chiqishi mumkin.

Inson hayoti davomida turli hayotiy muammolarga duch keladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda inqiroz hodisalarining o'sib borayotganini hisobga olgan holda, murakkab, chigal, inqirozli vaziyatlarning soni sezilarli darajada ortmoqda. Buning sababi malum bir hayotiy qiyinchiliklarni yengish tajribasining kamligi yoki shaxsiy va atrof-muhit resurslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bo'lishi mumkin. Ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, aynan talalabalar bunday holatlarda nisbatan yuqori darajali stress holatlarga tushadilar.

Oliy ta'lim tizimidagi islohatlar (kirish imtihonlarining test savol-javoblari bilan almashtirilishi, imtihon va sinovlarning reyting tizimi bilan almashtirilishi, ta'lim olish uchun yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi va boshqalar) ta'lim tarbiya ishida qator ijobiy natijalar bilan birgalikda ma"lum miqdorda stress reaktsiyalar uyg"otuvchi omillar bo"lib ham keladi. Shuning uchun talaba yoshlar orasida turli xil xastaliklarning keyinga vaqtlarda keng tarqalishi kabi holatlarning yuzaga kelishi bejiz emas. Bunday salbiy reaktsiyalardan qutulish uchun ham stress haqdagi tishunchalarning keng ma"noda yoyilishi uning mohiyatini tushunish, sabablarini aniqlash, qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhimdir[2].

Agar talaba doimiy holatda stress reaktsiyalariga uchrab tursa, ushbu holat uning bajaradigan ish sifatiga ham salbiy ta"sir etadi. Unda loqaydlik, yurush turush va kiyinishiga etiborsizlik, darslarga, majlislarga va boshqa tadbirlarga kechikib borish, sababsiz darslarga qatnatmaslik holatlari ro'y beradi. Qayd qilingan holatlarga tushib qolgan talabalarni me'yoriy holatga qaytarish uchun uning qanday stress omillarga duch kelganligini va bunday stress reaktsiyalarning salbiy oqibatlaridan qutulish yo'llarini izlash lozim.

Talabalik hayotining qiyinligi va noqulayligi tufayli qiynalib qolgan shaxslar tamaki maxsulotlari, pivo va boshqa alkogolli ichimliklardan najot kutib ularni iste'mol qilganda roxatlangandek, qisman bo'lsada tashvishlardan halos bo'lgandek his qiladi. Lekin bu holat sarobga o'xshash aldanishdan boshqa hech narsa emas. Boz ustiga bunday talabalar o'qishni tugatgunicha psixatrop dori vositalariga o'rganib oliy ta'lim tizimiga kirayotganida chekmaydigan va ichmaydiganlar yaxshigina ichuvchi va surunkali holda chekuvchi shaxsga aylanadilar. Ushbu holatlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun har bir talaba uni shu holga tushishiga sabab bo'lgan stress reaktsiyalarning tabiatini o'rganishi lozim va

unga qarshi kurash metodlarini o‘rganib o‘zini bunday salbiy holatlardan qutqara bilishi kerak.

Umuman olganda stresssiz hayot bo‘lishini tassavur qilish mumkin emas. Stressning tegishli kuchga ega bo‘lib distress holatiga o‘tib ketmasligi organizmni turli xil noqulay omillarga chidamliyligini oshiradi, sihat – salomatligini mustahkamlaydi, har xil yuqumli kasalliklardan himoya qiladi va hakazolar. Lekin stress eustress holatidan o‘tib ketib distressga aylansa undan himoyalanish albatta zarur[3]. Har qanday distressdan himoyalanishda dastavval shunday stressni chaqiruvchi omilni aniqlash va uni bartaraf qilish kerak. Bunday kurashlar asosan ikki yo‟nalishda olib boriladi[4].

1. Har bir indvid ta’sir ko‘rsatuvchi omilni aniqlab uni bartaraf qilishda shaxsan ishtirok etishi kerak:
2. Mavjud bo‘lgan stress omillarini tashkilot nuqtai nazaridan bartaraf qilish.

Distress holatlarining to‘g‘ridan – to‘g‘ri oldini oladigan tadbirlarni o‘tkazish va ularga doimiy holatda amal qilish. Masalan, o‘quv auditoriyalarida, bevosita ishlab chiqarish ishlari olib boriladigan bin ova inshoatlarda har 2 soatda tanaffuslar o‘tkazib turish. Bunday tanafuslar hammaga yoqadigan musiqa sadolari bilan olib borilsa foydasi ancha yuqori bo‘ladi. Xuddi shuningdek ishchi xizmatchilar, talabalar, ruhiy psixologik zo‘riqishni kamaytiradigan xonalarda dam olishi va boshqalar. Shuni ham aytib o‘tish kerakki qayd qilingan hamma ishchi xodimlarga bir xil ta‟sir etmaydi bining uchun amalga oshiriladigan tadbirlarda ishchi xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish olib borish zarur[5].

Oliy pedagogik tizim talabalarida milllatlararo munosabatlarni ta’lim jarayonida rivojlantirish tamoyillaridan biri tolerantlikdir. Tolerantlik (lot.tolerantia – chidam, sabr-toqat), bag‘rikenglik – o‘zgarlarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo‘lish. Bu bir-biriga o‘xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Biron-bir insonda yoki biron-bir begona madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o‘zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa, ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. Ya’ni tolerantlik bu o‘zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda buysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo‘lidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi[6].

O‘z-o‘zini tahlil etish gnoseologiya, psixologiyada bilish va amaliy faoliyatga doir barcha harakatlarni o‘z ichiga oladi, pedagogikada esa, tadqiq qilinayotgan narsahodisalarning alohida tarkibiy qismlarga ajratish qonuniyat va

usullarini o‘zida aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida ifoda etiladi. O‘z-o‘zini tahlil etish falsafa va psixologiyada o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini baholashning tarkibiy qismi sifatida aks ettirilsa ham mustaqil kategoriya sifatida ishlatilmaydi. Biroq o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi o‘z-o‘zini tahlil etish asosida amalga oshishini esda tutish zarur. Talabalarida o‘z-o‘zini tahlil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o‘zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan “Men-kontseptsiyasi”ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiylaridan biridir.

Bugungi kun talabalarining ham jismoniy, ham ruhiy salomatligi jiddiy tasir korsatadigan stress holatlarining mavjudligi va unga nisbatan barqaror munosabat bildirish uning uchun nafaqat salomatligini asrash kaliti, balki olib borayotgan faoliyatining samarasiga ham tasir korsatuvchi muhim omil ekanligini hisobga olgan holda bugun talabalarning stressga barqarorligini tadqiqot predmeti sifatida organish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ayniqsa talabalarda stressga barqaror munosabat bildirishning psixologik determinantlarini o'rganish juda dolzarbdir.

Yuqoridagi stress to’g’risidagi mulohazalardan kelib chiqqan holda stress holatida shaxs o’z o’zini boshqarishini nazariy jihatdan o’rganibgina qolmay uni amaliyotda ham tadqiq etish asosiy masalalardan biri ekanligini ko’rishimiz mumkin. Shunday xulosa qilish mumkinki, inson qanchalik yosh bo’lsa, nerv tizimi qanchalik egiluvchan bo’lsa, va turli tashvishlardan holi bo’lgan ong egasi bo’lsa, adaptatsiya jarayoni shunchalik yengil kechadi va stressli holatlar asoratlarsiz o’tkaziladi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-son Farmoni.
2. Кушкерова Н.Ф. и др. Профилактика стресовых состояний студентов очной формы обучения // Гигиена и санитария. 2007, № 4. С. 47–50.
3. Қурбонов Ш. Стресс нима? Илмий оммабоп қўлланма. Тошкент, 1982. 12-18 бетлар.
4. Росинкая Т.И. Профилактика стресса в студенческой среде. “Ананьевские чтения – 2001.” Санкт-Петербург, 2001.
5. Кушкерова Н.Ф. и др. Профилактика стресовых состояний студентов очной формы обучения // Гигиена и санитария. 2007, № 4. С. 47–50.
6. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.

7. http:// www. zdorovieinfo.ru
8. http://www. med – tutorial. ru

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATLARINING YURIDIK TAHLILI

Valiboyev Izzatbek To‘xtasin o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura talabasi

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida insoniyatga foydali bo‘lgan imkoniyatlar tobora kengayib bormoqda, bu o‘z navbatida mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanishni anglatadi. Inson qo‘l mehnatini asta-sekin texnologiyalar egallagani XX asrning eng katta yutuqlaridan bir edi. XXI asrda inson aqliy faoliyatini ham texnologiyalar egallayotgani bizga notanish emas, bundan murod shuki, sivilizatsiya yutuqlaridan bemaqsad, noto‘g‘ri yo‘lda foydalanish kutilmagan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ma’lumki, jinoyat avvalo nosog‘lom muhitda yuzaga keladi, uning paydo bo‘lishiga qarshi har bir inson kurashmoqligi darkor hisoblanadi. Jinoyatning ildizi nafaqat nosog‘lom oila muhitida yuzaga kelishi bilan birga aksariyat hollarda sog‘lom oila muhitida ham nazoratni yo‘lga qo‘ymaslik orqali vujudga kelishi mumkinligi bizga ma’lumdir. Ma’lum bir jinoyatlarda voyaga yetmaganlarning ham ishtiroki borligi jinoyatning naqadar ayanchli ekanligidan dalolat beradi. So‘ngi yillarda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi ortib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida yoshlarni foydali mashg‘ulotlarga jalb etmaslik, ularning bo‘sh vaqtlari ko‘proqligi va har qanday jinoyatga jazo muqarrarligi haqida huquqiy bilimlarga ega emasliklari sabab bo‘lishi mumkin. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2024-yil 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida yoshlar haqida quyidagi jumlani aytib o‘tdilar. “Yoshlarimiz hayotda
[50]
munosib o‘rnini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to‘liq ishga solamiz. Sizlar mamlakatimizning ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarisiz”.[1]

Shuningdek, xalqaro sog‘liqni saqlash tashkiloti (The World health statistics report) tomonidan taqdim etilgan statistikaga muvofiq, butun dunyo bo‘yicha 12-18 yoshdagi voyaga yetmaganlarning o‘rtacha 20 foizi bezorilik jinoyatlarini sodir etganligi hamda buning natijasida fuqarolar hamda jamiyat manfaatlariga yuqori

[50] © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/oz

miqdorda zarar yetkazilganligi aniqlangan. Yurtimizda ham voyaga yetmagan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etish holatlari oldingi yillarga nisbatan oshganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, respublikamizda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etganligi ma’lum qilingan. Yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o‘ldirishga urinish jinoyatlari 20% ko‘paygani qayd etilgan.[1] Voyaga yetmaganlar tomonidan bezorilik jinoyati sodir etilishi ushbu jinoyatga nisbatan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, bezorilik jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Bezorilik – uzoq va qisqa muddatda sodir etiladigan jismoniy hamda sotsio-emotsional oqibatlarni keltirib chiqaradigan

harakat hisoblanadi. Bir qancha tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bezorilik jinoyati asosan yuqori darajadagi aqliy, ruhiy, tibbiy va hissiy muammolari mavjud bo‘lgan yoshlar tomonidan sodir etilishi aniqlangan.[1] Shu bilan birga bezorilik jinoyati – tajovuzkor xulq-atvor sifatida baholanib, bir guruh yoki individual shaxslar o‘rtasida jismoniy jihatdan kuch nazoratsizligini keltirib chiqaradigan qilmish hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon miqyosida bezorilik jinoyati maktab o‘quvchilari tomonidan ham sodir etilayotgani notanish holat emas, maktabdagi bezorilik ko‘p holatlarda zo‘ravonlik ko‘rinishidagi harakat bo‘lib, asosan o‘quvchilar guruhi, o‘quvchi, o‘qituvchilar va maktabdagi xodimlar tomonidan maktab hududida sodir etilayotgani qayd etilmoqda. Mazkur xatti-harakatlar doimiy ravishda Indoneziya davlatida uchrayotgani u yerdagi aholini jiddiy tashvishga solmoqda.[1] Indoneziyalik huquq mutaxassislari ta’kidlashicha, texnika-texnologiyalarning rivojlanishi, bezorilikning boshqa bir shaklini paydo bo‘lishiga yordam bermoqda ya’ni virtual olamda fuqarolarning mulkiga tajovuz qilish holatlari hamda internet vebsaytlari yordamida shaxslarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazuvchi harakatlar qilinayotgani aniqlanmoqda.[1]

---

[1] http://lex.uz//docs/- 111453 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi

[2]O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/

[3]Bullying among Kazakhstan School Learners and Overcoming Strategies Assylbekova Marziya1, Atemova Kalipa2, Baltabayeva Zhaniyat3, Muhambek Dilnur4. DOI:10.5281/zenodo.7900744RESEARCH ASSOCIATION for INTERDISCIPLINARY STUDIES https://zenodo.org/communities/eu

Bundan tashqari, har bir jinoyat ijtimoiy xavfliligi sodir etilishi uslubi, voqea joyi bilan qolgan jinoyatlardan farq qiladi. Masalan, bezorilik jinoyati ham voyaga yetmaganlar orasida keng tarqalganligi, bajarilishining turli ko‘rinishlari va asosan jamoat joylarida sodir etilishi bilan o‘ziga xos ko‘rinishga egadir.[2] Shu o‘rinda voyaga yetmaganlar jinoyatining umumiy sabablariga nazar tashlash bilan birga bezorilik jinoyatini yuzaga keltiruvchi omillarga ham qisqacha to‘xtalib o‘tish lozim. Bezorilik jinoyatini sodir etishda ham sabablar motivlarga bevosita bog‘liq
52

bo‘lib asosan axloq tushunchalari, o‘ziga o‘zgalarning baho berishi bilan hisoblashish, depressiya va stresslar uyg‘unlashgan holda jamiyatdan umumiy norozilik kabilar bilan birga kechuvchi ruhiy jarayonlar pirovardida asosiy omil bo‘ladi. Turli tahlillarga ko‘ra[30] bezorilik sodir etilishiga quyidagilar lokomotiv vazifasini bajarmoqda: 1) qilmishni sodir etgan shaxsning o‘zini o‘zgalar oldida ko‘rsatib qo‘yishga intilishi; 2) jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy yurish turish qoidalarini oshkora mensimaslik; 3) muqaddam jinoyat sodir etganlarning ta’sir doirasiga tushib qolish; 4) oilaviy hayoti, turmushi va boshqalardan nafratlanish; 5) boshqa motivlar (o‘ch olishga intilish, rashk va h.q) 6) voyaga yetmaganlarning o‘rtoqlari va kattalarga ko‘r ko‘rona taqlidi.[2]

Shuningdek, bezorilik jinoyati bilan ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanmish mayda bezorilikni bir-biridan farqlash zarur.[1] Mayda bezorilik tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 183-moddasida berilgan bo‘lib, uning mazmuniga ko‘ra, ushbu huquqbuzarlik jamoat joylarida uyatli so‘zlar aytish yoki shunday so‘zlar bilan so‘kinish, behayo qiliqlar ko‘rsatish yoxud odamlarga nisbatan haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan-ochiq mensimaslik harakatlarida ifodalanadi.[1] Agarda mayda bezorilik harakatlari davom etib, aybdorning keyingi harakatlari shaxsni urish-do‘pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki mulkka ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud nobud qilish bilan sodir etilgan bo‘lsa, shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilmasdan, faqat jinoiy javobgarlikka tortiladi.[1] Urish-do‘pposlash deganda, aybdor tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan buzib, shaxsning badaniga shikast yetkazmagan holda bir necha zarba berish tushuniladi.[1]
53

[1]ISSN 2580-3085 THE UNDERSTANDING CHILDREN AS BULLIES FROM A CRIMINOLOGICAL PERSPECTIVE (Online) Lusia Sulastri Bhayangkara Jakarta Raya University, Indonesia lusia.sulastri@dsn.ubharajaya.ac.id Jurnal Pembaharuan Hukum

[2]ISSN: 3030-377X Sardor Suvanov Toshkent Davlat Yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi. “VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK JIHATLARI” ISSUE 14, Volume1 15 May, 2024 https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/index

Ta’kidlash joizki, huquqshunos olim L.I.Aitstova bezorilik jinoyatining obyektiv tomoni quyidagi holatlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatib o‘tgan:

- jamoat tartibini qo‘pol ravishda buzish;
- jamiyatga nisbatan aniq hurmatsizlikni ifodalash;
- fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik ishlatish yoki zo‘ravonlik ishlatish bilan qo‘rqitish, shuningdek mol-mulkini nobud qilish.[1]

Qolaversa, subyektiv tomondan bezorilik to‘g‘ri qasddan sodir etiladi. Aybdor jamoat tartibini buzayotgani, do‘pposlayotgani, badanga shikast yetkazayotgani yoki o‘zganing mulkini nobud qilayotgani yoki unga shikast yetkazayotganini anglaydi va bu harakatlarni amalga oshirishni istaydi.[1] Ushbu holatda o‘zganing mulkiga shikast yetkazish va nobud qilish tushunchalarining bir-biridan mazmun jihatdan farq qilishini holatga to‘g‘ri huquqiy baho berish uchun bilish kerak.[1] Ya’ni mulkka shikast yetkazish–qisman yaroqsiz holga keltirilgan mulkni muayyan sarf-xarajatlar evaziga tiklash imkoniyatining mavjudligini, mulkni nobud qilish deganda, uni batamom yaroqsiz holga, ya’ni mulkdan ko‘zlangan maqsadda foydalanib bo‘lmaydigan holga keltirilishini tushunish lozim[10].

Shu bilan birga, bezorilik jinoyatining motivi bezorilik, ya’ni jamiyatga ochiqdan-ochiq hurmatsizlik motivi bo‘lib, u o‘zining atrofdagilarga g‘ayriqonuniy qarshi qo‘yish, o‘zining alohida shaxsiyatini namoyon qilishda, dag‘al kuchni namoyish etishda aks etadi.[1] Bunda jinoiy harakat qanday predmetga qaratilganligi va u qaysi ijtimoiy munosabatlar tizimida amalga oshirilayotganligi ahamiyatga ega emas. O‘n olti yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs JKning 277-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan bezorilikning subyekti

hisoblanadi, ushbu moddaning 2 – va 3 – qismlari bo‘yicha esa 14 yoshga to‘lgan shaxslar subyekt hisoblanadi.[1]

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, bezorilik jinoyati jamoat tartibiga qaratilgan bo‘lib, buning natijasida kelib chiqadigan oqibat fuqarolar va jamiyatga ziyon yetkazishga olib keladi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar tomonidan bezorilik jinoyatini sodir etilishi jamiyatda

---

[1] Jasur Xudoyberdiyev, Surxondaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati sudyasi,https://www.sariosiyo.uz/uz

[2]ISSN: 3030-377X Sardor Suvanov Toshkent Davlat Yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi. “VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK JIHATLARI” ISSUE 14, Volume1 15 May, 2024 https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/index

[1]BEZORILIKKA OID ISHLARNING BIR-BIRIDAN FARQI Quyi Chirchiq tuman adliya bo‘limi yetakchi maslahatchisi A.Kazimbaev [10] © 2009-2024 O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi https://toshkent-vil.adliya.uz/

bezorilikka nisbatan salbiy qarashlarni yuzaga keltirish bilan birga uni barvaqt oldini olishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarni ularning qonuniy vakillari tomonidan muntazam ravishda nazorat olib borilishi hamda ta’lim dargohlarida o‘quvchi yoshlarga vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda jinoyat sodir etishning ayanchli oqibatlari haqida ma’lumot berilishi va voyaga yetmaganlarning jinoiy ishlarini sayyor sud majlisi tartibida ta’lim markazlarida sud muhokamalari o‘tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qolaversa, mashhur tadbirkor yoki o‘z sohasida muvaffaqiyatga erishgan insonlar bilan ta’lim markazlarida uchrashuvlar tashkil etilishi o‘rinli bo‘ladi. Yuqoridagi tahlilimiz davomida bezorilik jinoyatining huquqiy tabiati o‘zida bir nechta jinoiy harakatlarni qamrab olishini muhokama qilib o‘tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi

Ilmiy maqolalar:

2. ISSN: 3030-377X Sardor Suvanov Toshkent Davlat Yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi. “VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK JIHATLARI” ISSUE 14, Volume1 15 May, 2024

Xorijiy ilmiy maqolalar :

3. Bullying among Kazakhstan School Learners and Overcoming Strategies Assylbekova Marziya1, Atemova Kalipa2, Baltabayeva Zhaniyat3, Muhambek Dilnur4. DOI:10.5281/zenodo.7900744RESEARCH ASSOCIATION for INTERDISCIPLINARY STUDIES

4. ISSN 2580-3085 THE UNDERSTANDING CHILDREN AS BULLIES FROM A CRIMINOLOGICAL PERSPECTIVE (Online) Lusia Sulastri Bhayangkara Jakarta Raya University, Indonesia lusia.sulastri@dsn.ubharajaya.ac.id Jurnal Pembaharuan Hukum

Davlat tashkilotlarining rasmiy vebsaytlari:

5. Jasur Xudoyberdiyev, Surxondaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati sudyasi,https://www.sariosiyo.uz/uz

6. BEZORILIKKA OID IShLARNING BIR-BIRIDAN FARQI Quyi Chirchiq tuman adliya bo‘limi yetakchi maslahatchisi A.Kazimbaev 10 © 2009-2024 O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi https://toshkent-vil.adliya.uz/

Internet manzillari:

7. http://lex.uz//docs/-
8. © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti www.president.uz

9. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/
10. https://www.sariosiyo.uz/uz
11. https://toshkent-vil.adliya.uz/

O’SMIRLIK DAVRIDA YOLG’IZLIK HISSI

Jumanova N.SH *- katta o’qituvchi*
Mo’llaboeva Z*-Psixologiya (amaliy)*
yo’nalishi 2- bosqich talabasi JDPU

Annotatsiya: Ushbu maqola o'smirlardagi yolg'izlik muammosiga bag'ishlangan. Muallif ushbu hodisaning sabablariga e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, depressiyaga olib keladigan bir qator omillar mavjud.

Kalit so'zlar: yolg'izlik, depressiya, o'smirlik, shaxsiyat, ziddiyat, o'smir depressiyasi, negativ.

XXI-asrning dolzarb muammolaridan biri ayrim insonlarning yolg’izlikka moyilligidir. Shaharlar va aholi sonining ko'payishi munosabati bilan inson o'zining jamiyat bilan birligini kamroq his qiladi va foydasizlik va begonalashish tuyg'usini boshdan kechiradi. Bir necha o’n yilliklar davomida insonparvarlik nuqtai – nazaridan bizning jamiyatimizda yolg’izlikning bo’lishi mumkin emas degan fikr mavjud edi. Ammo bu fikr reallikdan yiroqdir. So’nggi paytlarda olimlar tomonidan keksa yoshdagilar yolg’izligi muammosi bilan bir qatorda o’smirlar va yoshlar o’rtasidagi yolg’izlik masalasiga ham e'tibor qaratila boshlandi Yolg’izlik muammosi insoniyatning eng jiddiy muammolaridan biri bo’lib, bunda inson u yoki bu sabablarga ko’ra na do’stlik, na muhabbat, na dushmanlik munosabatlarini o’rnata oladi. Inson o’z munosabatlarining to’laqonli va ahamiyatli emasligini his qilganida muloqot ehtiyojlari qondirilmaganda yanada o’zini yolg’izroq his qila boshlaydi. Yolg’izlik nazariyalarini falsafiy va psixologik tahlil qilish natijasida uning ob'yektiv va sub'yektiv, ijobiy va salbiy jihatlarini farqlash mumkin.

Yolg’izlikning ob'yektiv tomoni ijtimoiy munosabat va faktlar bilan bog’liq. Sub'yektiv tomoni esa shaxsning xususiyatlari bilan bog’liq holda namoyon bo’lishidir. Yolg’izlikning ijobiy (pozitiv) jihati uning shaxs ijtimoiylashuvi va individualligi shakllanishining ajralmas qismi ekanligidadir. Yolg’izlikning ijobiy imkoniyati: o’zini-o’zi bilish, o’zini-o’zi boshqarish, ijod qilish, o’zini-o’zi

takomillashtirish, psixofizik holatlarini barqarorlashtirish, tashqi ta'sirlardan o’z “Men”ini muhofaza qilish kabi vazifalarda namoyon bo’ladi.

Yolg’izlikning salbiy (negativ) tabiati- u o’ziga barcha psixik jarayonlarni bo’ysundiradi, shaxsning ichki yaxlitligini buzadi, psixologik himoya mexanizmi sifatida namoyon bo’ladi. Atrofdagilardan ko’p narsani kutishga, shaxs sifatida hakllanishidagi boshqalarning rolini oshirib baholashiga olib keladi.

Yolg’izlikning negativ va pozitiv jihatlari o’rtasidagi dialektik munosabatni e'tiborga olgan holda ta'kidlash joizki, muayyan sharoitlarda (yolg’izlikni anglaganda, unga munosabatning faol uslubi shakllanganda, qiyinchiliklar bilan kurashish tajribasi tarkib topganda, yolg’izlik motivatsiyalanganda) negativ yolg’izlik pozitiv ahamiyat kasb etishi ham mumkin.

O’smirlikdagi yolg'izlikning sabablarini bolalik davrida paydo bo'ladigan, bola bir vaqtning o'zida sevilish quvonchini his qiladigan va ayni paytda o'zining kichik va zaif ekanligidan hayratda qoladigan davrda e’tibordan chetda qolishidir. F.Fromm-Reyxman onalik mehridan muddatidan oldin sutdan ajratishning zararli oqibatini yolg'izlikning asosiy sababi deb ataydi. O'smirlarda yolg'izlik paydo bo'lishining asosiy sabablari:

1) tengdoshlari bilan etarli darajada muloqot qilmaslik, kommunikativ ko'nikmalarning past darajada rivojlanishi;

2) o'smirning boshqalar tomonidan qabul qilinmasligi;

3) o'zini va ichki dunyosini baholay olmaslik;

4) boshqa odamlarga nisbatan ortiqcha talab va umidlar;

5) odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi haqiqiy bo'lmagan g'oyalar.

G. R. Shagivaleeva yolg‘izlikning quyidagi sabablarini ajratib ko‘rsatadi:

1) Insonning yolg‘izlikka ongli va maqsadli intilishi, shuningdek, odamlar bilan muloqot qilish va yaqin munosabatda bo‘lishni qiyinlashtiradigan ma’lum xarakter xususiyatlarining mavjudligi sababli yolg‘izlikka moyilligi.

2) boshqa odamlar tomonidan e'tibor bermaslik, qochish, majburan cheklash va hokazo.

3) vaziyatlarning kombinatsiyasi natijasida ob'ektiv izolyatsiya.

Chet ellik olimlar L. M. Xorovits, R. de Frantsiya va K. A. Andersonlarning fikricha, yolg'iz odamning aksariyat belgilari depressiv odam prototipida deyarli to'liq takrorlanadi. Bundan kelib chiqadiki, agar odam yolg'iz bo'lsa, unda odam depressiyaning asosiy belgilarini ko'rsatadi.

O'smir depressiyasi o'z joniga qasd qilish, zo'ravonlik, giyohvandlik va xatti-harakatlarning og'ishiga olib keladigan eng murakkab tibbiy muammolardan biridir. MB Kellerning ta'kidlashicha, depressiya boshlangan bemorlarning o'rtacha yoshi 14 yoshni tashkil qiladi. O'smirlik davrida reallashtirilgan ehtiyojlar va ularni qondirishning mumkin emasligi o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ladi, chunki ko'plab

eski munosabatlar buziladi va qayta tiklanadi, bu umidsizlikni keltirib chiqaradi, depressiv reaktsiyalar ruhiy reaktsiyaning mumkin bo'lgan shakllari bo'ladi.

Shunday qilib, yolg'izlikning sabablarini tahlil qilish salbiy holatni bartaraf etish uchun profilaktika choralari va usullarini yaratish, shuningdek, ijtimoiy barqaror, ijtimoiy mustaqil, mas'uliyatli, harakatchan shaxsni shakllantirish uchun zarurdir. O'smirlik turli xil ruhiy kasalliklarning paydo bo'lishi uchun eng sezgir hisoblanadi, shuning uchun ularning belgilarini o'z vaqtida tanib olish va bolaga ta'sir qiluvchi salbiy omillarni bartaraf etish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Burlachuk L.F., Morozov S.M. Slovarь-spravochnik po psixodiagnostike. - SPb., 1999. - 528 s.

2.Yo'ldoshev M "Yoshlar muammosi aslida kattalar muammosi" Maktab va hayot, 2004 - № 7. 25- 30 (27).

3.Jumanazarov Yo, Mullaboyeva N, O'smirlar va ota-onalar munosabatlari, "Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Namangan 2009, 79-80.

4. Nasiba Jumanova, Цели и задачи активации, ускорения педагогических технологий , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

5. Jumanova, N. (2021). Профилактика психологических дефектов в развитии личности. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365

6. Jumanova, N. (2021). Характеристики пробуждения большой группы детей любовь к литературе. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366

7. Jumanova, N. (2020). Актуальные вызовы современной науки. Архив Научных Публикаций JSPI.

8. Obidova, D., & Nasiba, J. Analysis of the activities of health care institutions: prospects for the application of psychological knowledge.

9. Атамуродова, Р. К., Жуманова, Н. Ш., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Взгляды учёных средневековья о душе человека. Проблемы педагогики, (8 (19)).

10. Sherboevna, N. J. (2020). The use of integrated technologies in the cultivation of children's speech in preschool education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

HARBIY XIZMATCHILARNI JANGOVAR HARAKATLARGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

R.B.Ne'matov *- O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Tarbiyaviy-psixologik ta'minlashning qo'mondonlik shtab faoliyati magistratura tinglovchisi, leytenant,*

Annotatsiya: Ushbu tezisda ofitserlarni jangovar vaziyatlarga tayyorlashning axloqiy-ruhiy tamoyillari, ularni prinsipial masalalari xususida so'z boradi. Shuningdek, tayyorgarlikning zamonaviy usul va vositalari, ularni qo'llashning nazariy masalalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *harbiy xizmatchi, psixologik tamoyil, jangovar tayyorgarlik, ahloqiy-ruhiy ta'minot.*

Abctract: This thesis deals with moral and spiritual principles of preparing officers for combat situations, their fundamental issues. Also, modern methods and means of preparation,theoretical issues of their goal are analyzed.

Keywords: military serviceman, psychological principle, combat training, moral and spiritual support.

Bugungi kunda Vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifa mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligi hamda osoyishtaligini saqlash muhim hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, yurt ozodligi, mustaqilligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Amir Temur, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi milliy qahramonlarimizning jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish orqali ularda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Bu borada Prezidentimiz ulug' ajdodlarimizning o'rni beqiyosligini ta'kidlab, "…Mana, ulug' ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburni olaylik, bu buyuk zot o'n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o'zini o'tga ham cho'g'ga ham urdi, hech qanday dushmandan, sinovdan ham qo'rqmadi. Qirq yetti yillik umri davomida bir zum ham xalovat bilmasdan o'tdi. O'z avlodlariga Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatni, ezgu fazilatlarni meros qilib qoldirdi" deya ta'kidlagan.

Yuqoridagi vatanparvarlik tuyg'ularini asrash, yoshlar ongiga singdirish borasida, harbiy bo'linmalarda axloqiy-psixologik munosabatlarni shakllanishini kuchaytirishda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda harbiylarning ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratilishi va bu nafaqat harbiylar balki kursantlar tarbiyasida ham muhim hisoblanadi. Xususan, harbiy

bo‘linmada ofitserlarning kursantlar oldidagi javobgarligi, shakllangan kursantlarning ofitser oldidagi burchlarini yanada chuqurroq his qilishlarini ta’minlashda, harbiy–xizmatchilarning axloqiy-psixologik munosabatlarini ijobiyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti-Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek, “…biz bugun armiyamizni haqiqatan ham mutlaqo yangicha, zamonaviy negizda, avvalambor, yuksak ma’naviy asosda tashkil qilmoqdamiz”[1].

Zero, ma’naviy-ma’rifiy, odob-axloq, tartib-intizom, vatanparvarlik, askariy do‘st birodarlik xususidadir. Aynan ma’naviy sog‘lomlik, axloqiy tozalik yangilanishga va taraqqiyotga keng yo‘l ochib beradi. Bunday jamiyatda Qurolli Kuchlar xalqning jon-tani, mamlakat mustaqilligi, uning hududiy yaxlitligi, tinch hayoti va yaratuvchilik mehnatining kafolati, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning katta maktabi bo‘lib qolaveradi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya qator jihatlarga ega bo‘lib, ko‘proq shaxsning emostional-ruhiy hislatlariga aloqador sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois jangchi Vatan himoyachisi uchun zarur bo‘lgan quyidagi sifatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. [3]

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi-harbiy xizmatchilar ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va singdirish, buyuk ajdodlarimizning boy madaniy-tarixiy meroslari bilan faxrlanish, an’analarga sodiqlik, milliyligimizni anglash, ular qalbida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat ruhini qaror toptirish va doimo o‘z burchlarini munosib o‘tash uchun tayyorlashga qaratilgan.

Harbiy axloqning quyidagi asosiy tushunchalarini ko‘rsatish mumkin:

1. Harbiy burch;
2. Harbiylarning axloqiy mas’uliyati;
3. Harbiy qahramonlik;
4. Harbiy intizom;
5. Talabchanlik va ijrochilik;
6. Mardlik;
7. Jonkuyarlik;
8. Jangovar o‘rtoqlik va boshqalar.

Biz uzoq vaqt davomida Vatanimizda o‘zligimizga begona bo‘lib yashadik. Bugungi hurriyatimizga erishgunimizga qadar ming-minglab ziyoli, xalqni etaklovchi bobolarimiz shahid ketishdi. Mana shu ulkan baxtimizni ko‘ra olmayotgan, erkimiz, tinchligimizga rahna solmoqchi bo‘layotgan manfur dushmanlar ham bu haqiqatni anglab yetishgan bo‘lsa ajabmas.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomida «Harbiy xizmatchi askariy birodarlikni e’zozlashga, o‘z hayotini ayamasdan o‘rtoqlarini xavf-xatardan qutqarishga, ularga so‘z va ish bilan yordam berishga, har birining or-nomusi va qadr-qimmatini hurmat qilishga, o‘ziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan ko‘pollik va tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslikka, ularni noloyiq qilmishlardan tiyib qolishga majburdir», deb yozilgan. Jangchilar xizmat faoliyatlarida askariy o‘rtoqlikning muhimligini idrok etishlari uchun eng avvalo umumiy tarzda bo‘lsa ham, ularni askariy o‘rtoqlikning tarixiy ildizlaridan voqif qilish zarur.

Yuqorida ta’kidlangan vazifalarni har bir komandir yoki boshliq o‘z bo‘ysunuvidagi shaxsiy tarkib bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Zero, tinchlik davrida shaxsiy tarkibni jangovar harakatga axloqiy va ruhiy tayyorlash Mudofaa vazirligi tomonidan belgilangan jangovar o‘quv va tarbiyaviy ishlarning qat’iy tizimini hayotga joriy etish orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy tarkib yuksak axloqiy-jangovar va ruhiy sifatlarini rivojlantirishda tinchlik davridagi jangovar o‘qishning alohida roli bor. Hozirgi zamon jangida yaxshi o‘qitilgan, dushmanga qarshi turishi mumkin bo‘lgan, olis masofadan, har qanday ob-havo va har qanday joyda, kun va tunda nishonni bir o‘q otishdayoq yakson qila oladigan, katta axloqiy va ruhiy og‘irlikni va jismoniy keskinlikni enga oladiganlargina g‘alabaga erishadi. Ishonib topshirilgan qurol va harbiy texnikani mukammal egallagan, uni jangda mohirona qo‘llay oladigan, jangovar kasb ustasi, o‘ziga ishongan jangchi g‘alabaga erishadi.

Tinchlik davrida shaxsiy tarkibni jangovar harakatlarga axloqiy va ruhiy tayyorlash jarayoni ularda harbiy intizom, shaxsiy tarkibning ijrochilik ruhida tabiyalashni ham taqozo etadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, janglarda g‘alabaning muhim manbai sifatida aynan mustahkam intizom, mardlik va matonatning misli ko‘rilmagan namunalari zarurdir. Tinchlik davrida intizomli jangchini tarbiyalash birinchi navbatda qism va bo‘linmalarda qat’iy Nizom tartibini saqlash, kun tartibini o‘z vaqtida bajarishga aloqador bo‘lib, bu jangchilarda intizomlilik, hozirjavoblik, ijrochilik kabi axloqiy-jangovar sifatlarni shakllantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarni jangovar tayyorgarligi bevosita psixologik masala hisoblanib, ijtimoiy omillar bartaraf etilgandagina, ijtimoiy munosabatlardagi ahloqiy-ruhiy ta’sirlar ijobiy bo‘lishi, harbiy vazifalar sidqidildan bajarilishi ortidan kutilgan natijalarni berishi mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent 2003 y. 28-35-Bet.

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2010.
5. Karimov I.A. Milliy armiyamiz mustaqilligimiz, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. - T.: “O‘zbekiston”, 2003
6. Harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini o‘rganish va psixologik ta’sir etish usullari bo‘yicha amaliy-uslubiy qo‘llanma. T., HTI, 2018. -199 bet.
7. www.lex.uz

TALABALARDA IJTIMOIY FAOLLIK NOMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

Agamurodov Sarvar Istamovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda ijtimoiy faollik tushunchasi tadqiq etilgan. Talaba yoshlar hayotida ijtimoiy faollikning nomoyon bo‘lish mexanizlari shu bilan birgalikda ijtimoiy faollik jarayoniga ta’sir etuvchi ijobiy va salbiy psixologik xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan. O‘prinlik davridagi talabalar faoliyatining asosini tashkil etuvchi ijtimoiy appersepsiya tushunchasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy faollik, tashqi va ichki faollik, harakat, xulq-atvor, layoqat, ko‘nikma, qiziquvchanlik, ehtiyoj.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕДОСТАТКА СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Агамуродов Сарвар Истамович
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры психологии.

Аннотация В данной статье исследуется понятие социальной активности студентов. Научно проанализированы механизмы исчезновения социальной активности в жизни студенческой молодежи, а также положительные и отрицательные психологические характеристики, влияющие на процесс социальной активности. Изучено понятие социальной

апперцепции, составляющее основу деятельности студентов в юношеском возрасте.

Ключевые слова: Социальная активность, внешняя и внутренняя активность, действие, поведение, способность, умение, любознательность, потребность.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF LACK OF SOCIAL ACTIVITY IN STUDENTS

Agamurodov Sarvar Istamovich Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Psychology.

Annotation. This article explores the concept of social activity among students. The mechanisms of the disappearance of social activity in the life of young students, as well as the positive and negative psychological characteristics that affect the process of social activity, have been scientifically analyzed. The concept of social apperception, which forms the basis of students' activities during their youth, has been studied.

Key words: Social activity, external and internal activity, action, behavior, ability, skill, curiosity, need.

Kirish. Ijtimoiy faollik tushunchasi tevarak-atrof bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglashi uchun, har bir faoliyatni muvofiqlashtiruvchi, shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyati — bu uning faolligidir. Ijtimoiy faollik tushunchasi shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bu elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi: **Tashqi faollik** — bu tashqaridan va o‘z ichki istak-xohishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik.

Ichki faollik — bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi. Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so‘ng ona o‘z farzandi visoliga yetdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko‘zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko‘rsak, ichki faollik — o‘sha ko‘z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog‘inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik

tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta’siri), ko‘rib idrok qilgandagi o‘zaro bir-birlariga intilishni ta’minlovchi ichki, bir qarashda ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo‘ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo‘lsak ham, uni ifodalagan rasmni ko‘rsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, shaxsning jamiyat bilan bo‘ladigan murakkab va o‘zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o‘zligini namoyon qilad. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya’ni, faoliyat — inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Bu yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o‘z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o‘yin faoliyati, bu — moddiy ne’matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, bu rekordlarni ko‘paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o‘xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lib turadi. Faoliyat turlari. jismoniy va aqliy xarakatlar. har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma’lum narsaga — predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, ma’ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo‘lib, u avvalo o‘sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o‘zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo‘ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo‘naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat bo‘lsa, ichki faoliyat — birinchi navbatda aqliy faoliyat bo‘lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro‘y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo‘lsak, bola dastlabki so‘zlarni qattiq tovush bilan

tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o‘zicha gapirishga o‘rganib, o‘ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o‘z oldiga maqsad va rejalar qo‘yadigan bo‘lib boradi. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy-motor harakatlar mujassam bo‘ladi. Agar o‘ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo‘lgani bilan uning peshonalari, ko‘zlari, xattoki, tana va qo‘l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to‘xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish ro‘y bergan bo‘lsa, bunday jarayonni psixologiyada interiorizatsiya deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishi eksteriorizatsiya deb yuritiladi.

Faollik turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo‘lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo‘nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o‘tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko‘pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o‘girilganda, malaka hosil bo‘ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o‘rganganmiz. Agar malakalarimiz qat’iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko‘ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlasa, biz buni ko‘nikmalar deb ataymiz. Ko‘nikmalar — doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko‘nikma va malakalar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ham o‘quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko‘nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi.

Agar, faqat malakani oladigan bo‘lsak, uning shakllanish yo‘llari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

*oddiy namoyish etish yo‘li bilan;

*tushuntirish yo‘li bilan

*ko‘rsatish bilan tushuntirishni uyg‘unlashtirish yo‘li bilan.

Hayotda ko‘nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni yengillashtiradi va o‘qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlaydi. Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo‘lishning yana bir keng tarqalgan

usuli bu barcha insonlarga xos bo‘lgan asosiy faollik turlari bo‘yicha tabaqalashdir. Bu — muloqot, o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyatlaridir. Muloqot — shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri — inson bo‘lish, odamlarga o‘xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o‘z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi. O‘yin shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o‘zlashtiriladi. Bola toki o‘ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma’no va mohiyatini anglab yetolmaydi. O‘qish faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o‘ynaydi va ma’no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi. Mehnat qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo‘lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdir. Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faollik ya’ni faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni eslab qolish va kerak bo‘lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo‘lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo‘naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog‘liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug‘ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar-sabablar muhim bo‘lib, bu faoliyat motivlaridir. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi. Yuqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o‘zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Faollikning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv» va «motivatsiya» tushunchalari ishlatiladi. «Motivatsiya» tushunchasi «motiv» tushunchasidan kengroq ma’no va mazmunga ega. Motivatsiya — inson xulq-atvori, uning bog‘lanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo‘lganda ishlatiladi. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tutishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa bo‘lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya’ni xatti-harakat egasining sub’ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b)

tashqi sabablar — faollikning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya’ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir. Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar ham deb ataladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya’ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag‘lubiyatga uchraganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizning sabablari bizga ayon bo‘lavermaydi. Demak, ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy ob’ektlar, xodisalar, guruhlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik xolatiki, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi. Ijtimoiy ustanovkalar ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlarda ro‘yobga chiqadi. Demak, motiv — har qanday ijtimoiy faollik sababi (undov), sharti bo`lsa, ustanovka — ana shu faollikni amalga oshirishga qaratilgan insondagi ichki psixologik holatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaeva Sh.K. “Pedagogik kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari”. - T.: 2019. - B. 36-49.
2. Божович Л.И. Проблема развития мотивационной сферы ребенка // Изучение мотивации поведения детей и подростков. - М., 1999. - С. 41-42.
3. Лазурский, А. Ф. А. Ф. Лазурский. Избранные труды по общей психологии. К учению о психической активности. Программа исследования личности / А.Ф. Лазурский. - М.: Алетейя, 2001. - 192 с.
4. Ag‘amurodov.S.I “O‘smirlarda kasbiy qobiliyatlar shakillanishinig ijtimoiy psixologik xususiyatlari” INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS Volume: 2, Issue: 2, 2023
5. Ag‘amurodov.S.I “O‘smirlik davrida shaxsning shakillanish psixologiyasi” ISSN (E): 2992-9148 ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2023 VOLUME-1, ISSUE-5
6. G‘oziev E.G‘. Faoliyat va xulq–atvor motivatsiyasi. – T.: “Universitet”, 2003, – 124 b. G‘oziev E.G‘. Usmonova Sh. Intellekt psixologiyasi. – T.: ToshDU, Universitet, 1996, – 48 b.
7. Ag‘amurodov.S.I “O‘smirlarda kasbiy qobiliyatlar shakillanishinig ijtimoiy psixologik xususiyatlari” INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS Volume: 2, Issue: 2, 2023

HARBIY XIZMATCHILARDA AXLOQIY TARBIYANING SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

R.B.Ne’matov,
O‘zbekiston Reapublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Tarbiyaviy-psixologik ta’minlashning qo‘mondonlik shtab-faoliyoti”
mutaxassisligi magistratura tinglovchisi .

Annotatsiya. *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda axloqiy-psixologik munosabatlarning shakllanishi va harbiy bo‘linmada ofitserlarning kursantlar oldidagi javobgarligi va kursantlarning Vatan oldidagi burchlarini yanada chuqurroq his qilishlari haqida so‘z boradi.*

Аннотация. *В данной статье говорится о формировании морально-психологических отношений у военнослужащих и ответственность офицеров перед курсантами в воинской части, а также о более глубоком чувстве долга курсантов перед родиной.*

Annotation. *This article, talks about the formation of moral and psychological relationships in military personnel and the responsibility of officers to cadets in a military unit, and the cadet’s deeper sense of duty to officers.*

Bugungi tahlilkali davrda mamlakat mudofasi bevosita harbiylar zimmasida bo‘lib, bu bo‘lajak ofitserlarni tarbiyalash, psixologik va ma’nan barqaror sifatlar bilan shakllantirilganligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Zero, urushda g‘alabaga erishish harbiy, iqtisodiy va ma’naviy-siyosiy omillarga, uning muvaffaqiyatli olib borilishi jangovar texnika va qurollar hamda tayyorgarlik ko‘rgan qo‘shin, yuksak malakali ofitserlar bilan ta’minlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Ma’naviy omili esa, xalq va Qurolli Kuchlarning ma’nan birligigida namoyon bo‘lib, Qurolli Kuchlarning ma’naviy ruhi asosiy uch sifatni o‘z ichiga oladi:

shaxsiy tarkibning g‘oyaviy-siyosiy holati;

shaxsiy tarkibning axloqiy-jangovar holati;

shaxsiy tarkibning ruhiy holati.

Quroli Kuchlar ma’naviy ruhini tashkil etuvchi g‘oyaviy-siyosiy jihati qanchalik darajada yetukligida o‘z ifodasini topadi. Bular, g‘oyaviy e’tiqodlilik, vatanparvarlik, dushmanlardan nafratlanish, baynalminallik, o‘z burchi va majburiyatini yuksak darajada anglash, shuningdek, g‘alabaga erishish yo‘lida har qanday yo‘qotish va qiyinchiliklarga bardosh berishdir. Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ahloqiy ruhining jangovar tomoni esa,

mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish;

jangovar mahorat;

o‘z harbiy texnikasi va quroliga ishonch hissi;

o‘z komandirlariga, o‘z-o‘ziga va g‘alabaga bo‘lgan ishonch;

Harbiy jamoa psixologiyasidagi axloqiy-jangovar komponent yuksak jangovar tayyorgarlik va jangovar qobiliyatni his qilishda va shuningdek, jangovar jipslikka erishishda, hujumkorlik va shijoatkorlik ruhida namoyon bo‘ladi. Qurolli Kuchlar ahloqiy ruhining psixologik tomoni shaxsiy tarkibdagi ahloqiy-siyosiy va jangovar sifatlarning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari harbiy xizmatchilardagi psixologik xususiyatlar, psixik jarayonlar, shaxslararo munosabatlar, shuningdek, harbiy jamoaga xos xususiyatlar ham ahloqiy-ruhiy qismini tashkil etadi.

Binobarin, hozirgi paytda harbiy uchuvchi taxminan 30 ta psixologik va psixofiziologik sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Ulardan qaror qabul qilishdagi mustaqillik va tezkorlik, idrok va diqqat qobiliyatining yorqin namoyon bo‘lishi, yaxshi fazoviy tasavvur va operativ xotira, sensomotor va aqliy ko‘nikmalarni tezda egallash qobiliyati, yuksak emotsional irodaviy barqarorlik va hokazo. Uchuvchining bunday sifatlarni egallashi harbiy texnikani boshqarish va urush talablari bilan bog‘liq. Harbiy jamoalarda axloqiy-jangovar komponent yuksak jangovar tayyorgarlik va jangovar qobiliyatni his qilishda va shuningdek, jangovar jipslikka erishishda, hujumkorlik va shijoatkorlik ruhida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, harbiy jamoani quyidagi ijtimoiy-psixologik sifatlarsiz ham tasavvur qilib bo‘lmaydi:

harakatlarning yuksak darajadagi uyg‘unligi va ijtimoiy-psixologik jipslik;

jangovar birodarlik va o‘rtoqliq hissi;

g‘alabaga erishish yo‘lida fikrlar va intilishlarni birlashtira olish;

hujumga shiddat bilan kirishish va mudofaada sabot bilan tura olish;

jamoada ko‘pchilikning ozchilikning fikrlariga nisbatan bag‘rikengligi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, harbiy jamoaning munosabatlari ularning individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini namoyon etishlariga bog‘liq bo‘ladi va bu Qurolli Kuchlarda olib boriladigan axloqiy-siyosiy, jangovar va psixologik tayyorgarliklarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonda axloqiy-siyosiy va jangovar tayyorgarlik yetakchi bo‘lib, uning psixologik jihatlari esa har ikki jarayonni bevosita shakllantirishda ishtirok etadi. Psixologik munosabatlarda axloqiy tarbiya nafaqat harbiylarda bilimlarni hosil qilishni ko‘zda tutadi, balki bu me’yorlar ularning qarashlariga va e’tiqodlariga singdirishni, uni odatdagi xulq-atvor shakllariga aylantirishni nazarda tutadi. Psixologik munosabatlarda axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi yuksak axloqli insonni tarkib toptirishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Andriadi I.P. ―Pedagogik mahorat asoslari‖-M.: Akademiya, 2009 yil.
2. Bodalev A.A. ―Muloqot psixologiyasi‖-M .: MPSI, 2002.
3. Volkov B.S., Volkova N.V. ―Harbiy xizmatchilardagi muloqot psixologiyasi-Sankt-Peterburg: Peter,-2008.-272p.
4. Gangus V.G. "Xushmuomalalik ABC"-M.: ROSMEN,-1996 yil.
5. Gippenrayter, Yu.B. ―Harbiy xizmatchi bilan muloqot qiling. Qanday?‖-M.: Astrel,-2014.
6. Groxiyev V.S. ―Pedagogik muloqot madaniyati. ― O‘qituvchi uchun kitob M.: Akademiya, 2007 yil.
7. Жон Честара. Деловой этикет.-М., 1997.-Б.26.
8. Филонов Л.Б. Тренинги делового общения сотрудников органов внутренних дел с различными категориями граждан.-М., 1992.-С.5-6.

BOLALAR VA O‘SMIRLARDA XULQ OG‘ISHINING OLDINI OLISHGA QARATILGAN TAVSIYALAR.

Qodirov Islombek Ravshanbek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti magistratura tinglovchisi

Biz o‘z farzandlarimiz baxtu saodatini, iqboli va kamolini ko‘rishni istar ekanmiz, oilada, mahalla-ko‘yda odamlarning xatti-harakati hamda ta’lim muassasalaridagi olib borilayotgan ta’limiy-tarbiyaviy ishlar bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida doimo o‘ylashimiz, ushbu jiddiy masalani ijobiy hal etishda hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz zarur.

Hozirgi davrrivojlanish dinamikasi, ijtimoiy andoza (stereotip)lardagi chuqur va keskin o‘zgarishlar, nafaqat kattalar, balki bolalar oldiga ham yuqori talablarni qo‘ymoqda. Bularning barchasi oiladagi talabga javob bermaydigan tarbiyaviy ta’sir, oshkora va yashirin qarovsizlik, qadriyatlarning buzilishi, bolalar xulqida noijtimoiy, ya’ni jamiyatga yot bo‘lgan holatlarning paydo bo‘lishi kabi ruhiy jarohat beruvchi ijtimoiy omillarning kuchayishiga olib keladi. Buning sabablari esa quyidagilar: maktab va oiladagi kelishmovchiliklar, ijtimoiy moslashuvning qiyinchiliklari; sog‘liq bilan bog‘liq muammolar; rivojlanishdan orqada qolish va h.k.

Haqiqatdan ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, bolalar va

o‘smirlar o‘rtasidagi turli xil g‘ayriqonuniy, shu jumladan jinoyatchilik hodisasining oldini olishga qaratilgan, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda eng avvalo jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik, individual psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan qonunbuzarliklarning oldini olish ishlari umumiy va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi.

Bolalar va o‘smirlar o‘rtasida xulq og‘ishi va qonunbuzarliklarning oldini olishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsida asotsiallik, ruhiy beqarorlik, o‘zgaruvchanlik, affektga moyillik kabi xususiyatlarning yaqqol ifodalanganligidan kelib chiqib, ular yashayotgan oila va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash natija beradi;

- voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi xulq og‘ishining kelib chiqishi asosiy sabablari sifatida bolalar va o‘smirlar faoliyatini nazorat qilmaslik, oilada bola tarbiyasiga e’tiborning susayishi kabilar namoyon bo‘lganligidan kelib chiqib, oilada va oiladan tashqarida bolalar va o‘smirlar faoliyatini, bo‘sh vaqtlarida nima bilan shug‘ullanayotganligini nazorat qilish va oilada bola tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir;

- kriminogen xulqli oilalarni aniqlash, ularda tarbiyalanayotgan bolalar va o‘smirlar ahvolidan xabardor bo‘lib turish;

- moddiy maishiy sharoitning yetarli emasligi voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’sir etishligini hisobga olib, bunday oilalarga mahalliy hokimiyat, ijtimoiy ta’minot va xayriya jamg‘armalari tomonidan moddiy yordamlar berib turishni tashkil etish;

- ota-onalar, katta yoshdagi kishilar va o‘qituvchilar tomonidan bolalar va o‘smirlarga nisbatan qo‘llanilayotgan qattiqqo‘l, qo‘pol va adolatsiz munosabatlarga barham berish;

- voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi ko‘pincha ota-onalar, o‘qituvchilarning bolalar va o‘smirlar psixologiyasini bilmasdan turib munosabatda bo‘lishliklari natijasida kelib chiqayotganligini hisobga olib ota-onalar va o‘qituvchilarning psixologik bilimlarni oshirish tadbirlarini belgilash;

- voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining oldini olishda bolalar va o‘smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Demak-ki, o‘quvchi shaxsini individual psixologik xususiyatlarini har tomonlama mukammal tahlil qilish ularni o‘qitish va tarbiyalash samaradorligining muhim shartlaridan biridir. Tarbiyaning salbiy omillar va sharoitlari eng yoqimsiz

tarzda, umuman o‘sib kelayotgan shaxsning, avvalo, uning butun ahloqiy-irodaviy xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir etadi. O‘quvchining ahloqiy rivojlanishi asosan uning tevarak-atrofdagi kishilarga va atrofdagilarning unga bo‘lgan o‘zaro munosabati va o‘zaro ta’sir xususiyatlari bilan bog‘liq ekan, o‘qituvchilardan pedagogik jihatdan o‘z holiga tashlab qo‘yilgan va tarbiyasi qiyin, huquqbuzarlik va giyohvandlikka moyilligi bor, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini bilishlari, amaliyotchi psixologlardan esa mavjud holatlarning oldini olish va barataraf etish usullaridan samarali foydalanishlari talab etiladi.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir.

Farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, ahloq-odob, yuksak ma’naviyat, o‘z iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari asosida kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirish oiladagi dolzarb masalalardir.

Bolalarni ota-onalari tomonidan tushunilmasligi, ota-onalar tomonidan befarqlik, oiladagi emotsional aloqalarni uzilishi, bola shaxsiga hurmatsizlik, nazoratning yo‘qligi, ota-onalar tomonidan e’tiborning yetishmasligi, maktabning oila bilan o‘zaro aloqalarning yo‘qligi, sinf rahbarlari va maktab ma’muriyati “xavfli bolalar va oilalar” to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega emasligi va ular bilan yetarli ishlar olib borilmasligi, bolalar va o‘smirlar o‘rtasidagi turli xil g‘ayriqonuniy, shu jumladan jinoyatchilik hodisalarning ko‘payishiga sababdir.

Amaliyotdan kelib chiqib, uzoq vaqt davomida surunkali dars qoldiruvchi va keyinchalik o‘qishdan orqada qolib ketishga, turli xil g‘ayriqonuniy, shu jumladan jinoyatchilikka moyilligi bor oila farzandlarini quyidagi shartli guruhlarga ajratish mumkin.

Nochor oila farzandlari.

Bunday oilalarda ota-onalar ma’lum ishga ega emas, tasodifiy ish haqi hisobiga ishlaydilar, o‘tmishda sudlanib chiqqan, yoki giyohvand, yoki alkogolga ruju qo‘yganlar. Bunday oilalar farzandlarining o‘qishi va tarbiyasi borasidagi qiyinchiliklar ota-onalarning maktab bilan muloqotga layoqatsizligi va hohishi yo‘qligi sababli kuchayib boradi.

To‘liq bo‘lmagan oila farzandlari.

Bunday oilalarda oilaning hayot tarzini bir maromda saqlash, shuningdek, farzand tarbiyasi vazifalari birgina inson (ko‘proq ona) zimmasiga tushadi, ko‘plar uchun bu ortiqcha, qudrati yetmaydigan ish. Vaqt yetishmasligi sababli farzandining vaqtini qanday o‘tkazilishini nazorat qilaolmaydi yoki o‘qish jarayoniga ko‘maklashish imkoniyati, layoqati cheklangan bo‘ladi. Shaxsiy hayotdagi omadsizlik oilada og‘ir ruhiy holatni yuzaga keltiradi.

Ota-onalari ajralishgan, biroq bolaga ta’sir etishda raqobatda bo‘lgan va bir-biri bilan hamkorlik qilishga moyilligi yo‘q oila farzandlari.

Bola go‘yoota-onalaro‘rtasida, goh u oilada, gohboshqaoiladayashaydi. Bunday sharoitdagi bolalar ertaroq u tomonning ham, bu tomonning nazoratidan qochish uchun o‘z shaxsiy pozitsiyalarini, shuningdek o‘z xatti-harakatlarini ham ishlab chiqadilar.

Ota-onalarining ish haqi uzoq muddatli safarlar bilan bog‘liq oilafarzandlari. Bunday holatlarda bolalar ota-ona talabiga ko‘ra kattalar o‘rnida qolib, “uyni qo‘riqlaydilar”, uy ro‘zg‘or ishlarini yuritadilar va uka-singillariga qarab turadilar.

Ota-onalarining ikkalasi ham belgilanmagan ish kuni bo‘yicha ishlaydigan oila farzandlari.

Ota-onalar uyda bo‘lmaydilar, farzandining ijtimoiy hayotiga yetarli e’tibor berishi uchun vaqti yo‘q. Bunday hollarda ota-onalarning maktab bilan aloqasi vaqt yetishmasligi oqibatida qiyinlashgan.

Bolalarning xulqiga yetarli ta’sir ko‘rsata olmaydigan yoki ularni ta’minlay olmaydigan qarindoshlar qaramog‘ida bo‘lgan bolalar.

Ota-onalar u yoki bu sabalarga ko‘ra (ko‘p bolali oila, ota-onalari safarda bo‘lganda) farzandi tarbiyasini yaqin qarindoshlar zimmasiga yuklaydilar.

Mazkur oila farzandlarning ro‘yhati shakllantirib, oilalar va bolalar bilan manzilli ish olib borish kerak lozim deb topamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Байярд Р.Т., Байярд Д.* Ваш беспокойный подросток. М.: “Просвещение”, 1991

2. Захаров А.И. Как предупредить отклонения в поведении ребёнка.: 1986

3. Леви В.Л., Нестандартный ребёнок М., «Левицентр», 1996

4.Лютова Е.К., Монина Г.Б. Шпаргалка для врослых. Психокоррекционная работа с гиперактивными, агрессивными, тревожными и аутичными детьми. М.: «Генезис», 2000

5. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. М.: Прогресс, 1996

6. Эйдемиллер Э.Г. Юстицицкис В. Психология и психотерапия семьи. Санкт-Петербург.: «Питер», 2000.

SHAXSNING STRESSLI VAZIYATLARGA NISBATAN ADAPTATSIYASI

Raximov Alisher Farxadovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti “Tarbiyaviy-psixologik ta’minlashning
qo‘mondonlik-shtab faoliyati” mutaxassisligi
magistratura tinglovchisi

Insonning funksional holati mazmuni va uning klasifikatsiyasi haqida so‘z borganda, albatta stress holatini o‘rganish borasidagi muammolarga duch kelmasdan ilojimiz yo‘q. Biroq turli hayotiy vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi turli xildagi inson hulq atvorini o‘rganish borasidagi tadqiqotlardan olingan bu mavhum termin, “stress” va “funksional holat” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligini ochib berishga imkon bermaydi. Shu bilan birga o‘tkazilgan ko‘plab tabiiy va eksperimental tadqiqotlar natijasida ekstrimal faktorlar ta’sirida inson holatida yuz beruvchi o‘zgarishlarga oid juda katta va qiziqarli ma’lumotlar ham to‘plangan. Bunday holatlarni bir guruhga birlashtira olishi mumkin bo‘lgan me’zon javob reaksiyalarining paydo bo‘lishi va shakllanishi borasidagi umumiy qonuniyatlar borligini tasdiqlaydi.

Reaksiya ko‘rsatish jarayoni: Stress holatini o‘rganish borasidagi eng muhim bo‘g‘inlardan biri bu ekstrimal vaziyatlarga reaksiya ko‘rsatish jarayoni hisoblanadi. G.Sele o‘z tadqiqotlarida adaptatsiya jarayoninig bosqichlarini sanab o‘tadi. Bular: “qo‘zg‘alish (trevoga)”ning boshlang‘ich bosqichi-yekstrimal ta’sir natijasida yuzaga keladi va organizmning qarshilik ko‘rsatish darajasini birdan tushib ketishida namoyon bo‘ladi; “qarshilik ko‘rsatish” bosqichi-adaptatsion imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishi bilan izohlanadi; “istoщenie”- organizm rezervlarining kamayishiga ta’sir ko‘rsatadi. Qiyin hayotiy vaziyatlarni analiz qilganda bu bosqichlarning fiziologik interpritatsiyasi psixologik mazmun kasb eta boshlaydi. Yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni yengish ya’ni “stressga javob qaytarish” jarayoni emotsional va kognitiv holatlarning notekis namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi va noadekvat xatti-harakatlar natijasida ularning har biri salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Insonning turli ko‘rinishdagi stressli vaziyatlarga nisbatan chidamliligi avvalambor shaxsning individual-psixologik hususiyatlari va mativatsion orientatsiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuni takidlash joizki, ekstrimal ta’sirlar har doim ham amalga oshirilayotgan faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatavermaydi. Aks holda sharoit qiyinlashuvi natijasida paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni yengishning umuman iloji bo‘lmas edi. Biroq stressli vaziyatlarda ishlash, albatta, ichki resurslarning qo‘shimcha mobilizatsiyalanishiga olib keladi va natijada salbiy oqibatlar ham kuzatiladi. “Stress etimologiyasi” bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar qatoriga: yurak qon tomir tizimi patalogiyasi, oshqozon yarasi,

psixosomatik buzulishlar, nevrozlar, depressiv holatlarni kiritish mumkin. Shuning uchun ham insonning stress holatiga nisbatan individual chidamliligini o‘rganish borasida amaliy tadqiqotlar o‘tkazish zarur.

M.Fridman va R.Royzenman tadqiqotlarida aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi keng doiradagi insonlar (ilmiy ishchilar, injinerlar, adminisratorlar) tadqiq qilindi va ular tomonidan insonlarning 2 xil tipi: **A**-stressga beriluvchanlar va **B**-stressga chidamli shaxslar tipiga ajratildi. **A** tipining namoyondalari yorqin xulq atvor sindromining egalaridir. Ularda ko‘pincha: “raqobatga nisbatan qaramlik, maqsadga intiluvchanlik, agressivlik, sabrsizlik, havotir, giperaktivlik, ekspressiv nutq, yuz muskullarining doimiy tarangligi, doimo vaqt yetishmasligini his qilish va yuqori aktivlik”. Buning natijasi o‘laroq hali yosh bo‘lishiga qaramay sog‘liqni yoqotish holatlari ko‘plab kuzatiladi. Stressing nafaqat tibbiy, balki zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan turli hildagi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari - ishdan qoniqmaslik, mehnat mahsuldorligining tushib ketishi, yo‘l transport hodisalari, kechikishlar - psixologik stress holatini o‘rganishga nisbatan katta ehtiyojni paydo qiladi. Har qanday mehnat sharoitini optimizatsiya holatiga keltirish stress holatini yoqotish yoki imkon qadar maksimal darajada chetlashtirishga qaratilgan kompleks uslublardan iborat bo‘ladi.

Adaptatsiya-bu tirik organizmlarning sharoit o‘zgarishiga qaramay o‘zining yashashi uchun zarur bo‘lgan chidamliligini, nasl qoldirish va uni rivojlantirish husuiyatini saqlab qolishga qaratilgan dinamik jarayondir. Uzoq evolyusiya natijasi hisoblanadigan adaptatsiya jarayoni, atrof olamning doimiy o‘zgarishiga qaramay tirik organizmning yashashini ta’minlab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Aynan adaptatsiya jarayoni tufayli organizmning doimiy ravishda tashqi olam bilan ta’sirlanishiga qaramay gomeostaz holati saqlanadi. Adaptatsiya holati o‘zida nafaqat organizm holatining optimizatsiyalanishini namoyon qiladi, balki “organizm-tashqi muhit” tizimini muvozanatda ushlashini ham taminlaydi. Adaptatsiya holati doimo “organizm-tashqi muhit” tizimida paydo bo‘luvchi katta o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘ladi, va fiziologik funksiyalar va hulq atvor reaksiyalarining maksimal samaradorligiga erishtiruvchi yangi gomeopatik holat shakllanishiga zamin yaratadi. Organizm va tashqi muhit dinamik muvozanatda bo‘lar ekan, u holda ularning aloqasi doimiy ravishda o‘zgarib turadi, natijada adaptatsiya jarayoni ham doimiy taminlanishi shart bo‘ladi. Yuqorida keltirilganlarning hammasi ham inson ham hayvonlar uchun tegishli. Ammo insonlarning farqli jihati shundan iboratki, “individuum-tashqi muhit” tizimida ya’ni o‘zaro adekvat munosabatlarni saqlab turish jarayonida psixik adaptatsiya juda muhim rol o‘ynaydi.

Adaptatsiya jarayonini o‘rganish emotsional taranglik va stress tushunchalari bilan uzviy aloqador hisoblanadi. Stress- organizmning mavjud ehtiyojlari va

ularga umumiy adaptatsion sindrom sifatida qarash natijasida paydo bo‘luvchi nospetsifik reaksiyasidir.

Mashxur psixologi Gans Sele ga’rbda stress va asabiy zo‘riqishlarni o‘rgangan olim hisoblanadi va u stress jarayoninig quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatadi:

1) tasurotga nisbatan bevosita paydo bo‘luvchi reaksiya (trevoga bosqichi)

2) maksimal samarador adaptatsiya (resitsentlik bosqichi)

3) adaptatsiya jarayonining buzulishi (isosheniya bosqichi)

Professor Beryozin psixik adaptatsiya jarayonining muhim elementi hisoblangan vahima qatorini ajratib ko‘rsatadi.

Aynan vahima- ushbu qatorning markaziy nuqtasi. Noma’lum havf hatarni his qilish bilan izohlanadi. Harakterli belgisi: havfning harakterini, uning paydo bo‘lish vaqtini aniqlay olmaslik. Ko‘pincha noadekvat mantiqiy tahlil kuzatiladi va natijada asoslar yetishmasligi tufayli noto‘g‘ri qarorga kelinadi.

Sele juda qiziqarli gipotezani ilgari suradi yani uning fikricha qarilik-organizm o‘z hayoti davomida duch kelgan barcha stresslarning natijasi hisoblanadi. Bu “istoщenie” bosqichiga to‘g‘ri keladi va ma’lum ma’noda normal qarish jarayonini tezlashtiradi. Har qanday stress ayniqsa besamara ketdan harakatlar inson organizmida qaytarib bo‘lmaydigan kimyoviy o‘zgarishlarni hosil qiladi, ularning to‘planishi esa hujayralarda qarish jarayonini keltirib chiqaradi.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi inson psixologiyasini o‘rganishda psixik adaptatsiya hodisasi borasidagi tadqiqotlarning ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatadi va adaptatsion konsepsiya insoniyatni kompleks o‘rganishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Александровский Ю. А. Состояния психической дезадаптатсии и их компенсация. М., 1976.

2. Березин Ф. Б. Психологическая и психофизиологическая адаптация человека. Л., 1988.

3. Василюк Ф. Е. Психология переживания. М., 1984.

4. Губачёв Ю. М., Иовлев Б. В., Карвасарский Б. Д. и другие. Эмотсионалный стресс в условиях нормы и патологии человека. Л., 1976.

5. Кон И. С. Сотсиология личности. М., 1967.

6. Селе Г. Очерки об адаптатсионном синдроме. М., 1960.

7. Судаков К. В. Системные механизмы эмоционалного стресса. М., 1981.

8. Шарай В. Б. Функциональное состояние студентов в зависимости от форм организатсии экзаменационного процесса. М., 1979.

HARBIY XIZMATCHILAR VA XODIMLAR FAOLIYATIDA NAMOYON BO‘LAYOTGAN DELINKVENT HULQ-ATVOR OMILLARI

(tajovuzkorlik, delikvent xulq, ichkilikbozlik, suitsidal holatlar)

Ikramov Kamronbek
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xafvsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, «Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug‘lashni eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo‘ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash orqali xalqimizni rozi qilish» .

Respublikamizda yuz berayotgan demokratik huquqiy davlatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan global islohotlar sharoitida harbiy xizmatchilar faoliyatida qator talablar ortib bormoqda. Ularda yuksak axloqiy barqarorlik va professionalizm, kasbiy fidoyilik hamda murakkab va favqulodda sharoitlarda harakat qilishga ruhan tayyorlikning muhimligi ta’kidlanmoqda.

Harbiy xizmatchilarga qo‘yiladigan mazkur talablar kelgusida harbiy xizmatchilarda delinkvent xulq muammosining namoyon bo‘lishini oldini olishga qaratilganidan dalolat beradi. «Delinkvent» atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, qonunga xilof, jinoiy degan ma’nolarni anglatadi. Delinkvent xulq – qonundan og‘uvchi, g‘ayriqonuniy, jinoiy xatti-harakat turi. Bu xizmatdoshlari va yaqinlariga nisbatan janjalli, tajovuzkor xatti-harakatlarda; spirtli ichimliklar, narkotik vositalar, kuchli ta’sir etuvchi tibbiy vositalarni suiiste’mol qilish, kashandalikda; tavakkalli xatti-harakat uslubi: transport vositalarini haydash, ayniqsa mast holda boshqarishda; g‘ayriijtimoiy xulq, huquqbuzarlik, hattoki jinoiy qilmishlar sodir etishda; o‘zini o‘ldirishga urinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlarda ba’zan delinkvent xulq destruktiv hamda deviant xulq sifatida ta’riflanadi. Deviant xulq – ushbu muhitda qabul qilingan qoidalardan og‘uvchi xulq. Insonning deviant xulqini jamiyatda qabul qilingan qoidalarga zid keluvchi hamda muvozanatlashmagan ruhiy jarayonlar, noadaptivlik (moslasha olmaslik), o‘zini faollashtirish jarayonining buzilishi yoki o‘z xulqini axloqiy va estetik nazorat qilishdan og‘ish ko‘rinishidagi xatti-harakatlar tizimi yoki alohida harakat sifatida ta’riflash mumkin. Biz bu ta’riflarni qo‘llanilayotgan atamalarning

ma’nosini tushunish uchun keltirdik va idrok etish qulay bo‘lishi uchun bunday xatti-harakatni deviant xulq deb ataymiz.

Deviant xulqni amalga oshirishga xizmat faoliyatining o‘ziga xos sharoitlari bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Deviant xulq haqida so‘z yuritganda, yuqorida aytganimizdek, avvalo ichkilikbozlik, giyohvandik va qimorbozlik kabilarni tushunamiz. Psixologiyaga oid adabiyotlarda bunday murakkab hodisalar haqida so‘z yuritganda inson ruhiy noqulaylik holatini yengishda foydalanadigan stimulyatorni bildiruvchi «addiksiya» atamasidan foydalaniladi. Addiktiv xulq yoki tobelik – zamonaviy jamiyatining eng dolzarb muammolaridan bo‘lib, ijtimoiy, biologik va psixologik sabablarga ega bo‘lishi mumkin. Psixoterpevtlarning bu sohadagi tajribasi ko‘pincha tobe xulq manbaini shaxsdagi murakkab buzilishlar tashkil etishini ko‘rsatmoqda. Hal qilinmagan ichki muammo qanoatlantirilmagan ehtiyojlarning «o‘rinbosarlari»dan foydalanishga olib kelishi mumkin. Ana shuning uchun ham tobelikning turli shakllari – ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, qimorbozlik kabilarda umumiy hosil bo‘lish mexanizmi mavjud. Shu bois bunday tobelik kompensator xulq yoki shaxsning noadekvat himoya shakli deb ham ataladi.

Addiktiv xulq deganda o‘z ruhiy holatini o‘zgartirish orqali real voqelikdan qochish tushuniladi. Bunday o‘zgartirishga ayrim moddalarni qabul qilish yoki diqqatni muayyan narsalar yoki faoliyat turlarga doimiy ravishda qaratish orqali erishiladi. Bu esa intensiv (jadal) his-tuyg‘ularning rivojlanishi bilan kechadi. Ruhiy holatni o‘zgartiruvchi moddani iste’mol qilish jarayoni, narsaga bog‘liq bo‘lib qolish yoki faollikda ishtirok etish shunchalar katta miqyosga ega bo‘ladiki, insonning hayotini boshqara boshlaydi, uni ojiz qilib qo‘yadi, addiksiyaga qarshi kurash istagi (irodasi)dan mahrum etadi. Deyarli barcha tobeliklar asosida shaxsning ichki ziddiyatlari yoki shaxs voqelikdan qochmay turib boshqara olmaydigan ziddiyatlar yotadi. Shu bois tobelik shaxsdagi buzilishdir.

Tobelik ruhiy va jismoniy turlarga bo‘linadi.

Ruhiy tobelikka psixofaol (psixikaga kuchli ta’sir etuvchi) moddalarni iste’mol qilish istagi yoki yengib bo‘lmas xumor egallab olishi, kutilayotgan samaraga erishish uchun uning dozasini oshirib borish xos bo‘lib, bunday moddani qabul qilmaslik ruhiy noqulaylik va vahima hislarini keltirib chiqaradi.

Jismoniy tobelik iste’mol qilinayotgan modda organizm normal faol ko‘rsatishi uchun doimiy ravishda zarur bo‘lib qoladigan va hayotini ta’minlash sxemasiga kirib qoladigan holat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu moddadan mahrum etish olib qo‘yish sindromini (abstinent sindrom)ni yuzaga keltiradi. U somatik, nevrologik va ruhiy buzilishlarda namoyon bo‘ladi. Bu axborot faqat psixologik yordam bilan natijaga erishib bo‘lmasligi va eng kamida bu ishga turli mutaxassislar qo‘shilishi kerakligi haqida xulosa chiqarishimizga imkon beradi.

Addiktiv xulq bilan bir qatorda xodimlarning **tajovuzkor xulqi** ham juda murakkab buzg‘unchi ko‘rinishdir. Tajovuzkorlik jismoniy va ruhiy noqulaylikka javob, stresslar va frustratsiyalarga javob shakli bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlarda tajovuzkor xulqni tavsiflashda uning quyidagi turlarini ajratish qabul qilingan: ob’ektga qaratilganligi bo‘yicha: geterotajovuzkorlik (boshqalarga) va autotajovuzkorlik (o‘ziga qaratilganlik: o‘zini yo‘q qilish va hatto o‘ldirish, o‘zini buzuvchi xulq, psixosomatik kasalliklar); ifodalanish sabablari bo‘yicha: reaktiv (nizo vaziyatiga javob reaksiyasi sifatida) hamda spontan (aniq bir sababsiz, ichki impulslar ta’sirida); ochiq namoyon bo‘lishi bo‘yicha: bevosita (tajovuzkor reaksiya keltirib chiqargan ob’ektga bevosita) hamda bilvosita (masalan, yaqinlarga); namoyon bo‘lish shakli bo‘yicha: verbal (so‘zlarda), ekspressiv (noverbal: imo-ishoralar, intonatsiya va boshqalar) hamda jismoniy.

Butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zini o‘ldirish o‘lim sabablari orasida yurak-tomir, onkologik kasalliklar va shikastlanish (travmatizm)dan keyingi to‘rtinchi o‘rinni egallaydi.

M. I. Marina, V. Yu. Ribnikova va boshqalarning fikricha, suitsidal xulq o‘zini hayotdan mahrum qilish haqidagi tasavvurlar (xayollar) bilan belgilanadigan va yo‘naltiriladigan har qanday ichki yoki tashqi ruhiy harakatlar shakli sifatida ta’riflanadi.

Suitsidal xulq ikkita asosiy shaklda, ya’ni tashqi va ichki shakllarda namoyon bo‘ladi. Ichki shakllariga suitsidal fikrlar (tasavvurlar, kechinmalar); suitsidal tamoyillar (niyatlar, maqsadlar) kiradi. Tashqi shakllariga – suitsidal ko‘rinishlar: suitsidal suiqasdlar (urinishlar) kiradi. «Suitsidal tavakkalchilik» (xavf) – yana bir tushuncha bo‘lib, shaxsning o‘zini o‘ldirishga imkoniyatda tayyorligi sifatida namoyon bo‘ladi hamda shaxsdagi suitsidal va aksilsuitsidal omillar nisbati sifatida baholanishi mumkin.

Deviant xulqning oldini olishga qaratilgan psixologik ish turlaridan biri – **yakka tartibda psixologik maslahat berish.** Bunday maslahatlashuv jarayonida psixolog qiyinchiliklarning tabiatini anglashda, shaxsiy xususiyatlar va kasbiy faoliyat bilan bog‘liq psixologik muammolarni tahlil qilish va hal etishda aniq yordam berishi mumkin.

Bundan tashqari, deviant xulqning oldini olishda o‘zini boshqarish usullari va yo‘llarini o‘rgatish ishlari ham muhimdir. Psixologik profilaktikaning samarali usullaridan bir **psixokorreksion trening** bo‘lib, bunda o‘z muammolarining tabiati va shaxs xulqini tuzatish haqidagi muayyan psixologik bilimlarni egallashga qaratilgan guruhiy ish usullari qo‘llaniladi. Bundan tashqari, bu ishda shaxslararo hamkorlik va refleksiv ko‘nikmalar (masalan, o‘z xulqini tahlil qilish qobiliyati) shakllanadi, vaziyatga tezda moslashish va turli sharoitlarda tezkorlik rivojlanadi.

Tajovuzkorlik va tajovuzkor harakatlarni tiyib turish ustidan o‘z nazoratini shakllantirishda esa empatiya, identifikatsiya va detsentralizatsiya kabi psixologik jarayonlarning rivojalanishi katta rol o‘ynaydi. Boshqa shaxs haqida noyob qadriyat sifatidagi tasavvurning shakllanishiga boshqa odamlarni tushunish va ular bilan hamdard bo‘lish qobiliyati asos bo‘ladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, psixoprofilaktika, psixokonsultatsiya va psixokorreksiya tadbirlari natijasida Deviant xulq shakllarini namoyon bo‘lishini oldini olishimiz mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G‘oziev Umumiy psixologiya. 2011
2. Болшая психологическая энциклопедия. – М., 2007
3. Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения. – М., 2001
4. Каменская А.И., Радченко А.Ф. Современная психотерапия и лечение зависимостей // Методы современной психотерапии: Учебное пособие. – М., 2001
5. Короленко с.П., Донских А.П. Сем путей к катастрофе. Деструктивное поведение в современном мире. – Новосибирск: Наука, 1990
6. Завялов В. Ю. Психологические аспекты формирования алкоголной зависимости. – Новосибирск: Наука, 1988

HARBIY XIZMATCHILAR AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINING ASOSIY TUSHUNCHALARI MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Yangiboyev Oxunjon Sharifboy o‘g‘li
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti magistratura tinglovchisi

Harbiy xizmatchilarda huququzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha asosiy prinsiplardan biri bu harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligidir. Qism va bo‘linmalarda asosiy qoidalar va tartibni tashkil qilish Umumharbiy nizomlar bilan qat’iy belgilanadi. Qurolli Kuchlar Ichki xizmat nizomi harbiy xizmatchiga o‘z davlati Konstitustiyasiga va qonunlariga katiy rioya qilish, Umumharbiy nizomlar talablarini bajarish vazifasini yuklaydi. Umumharbiy nizomlar, shuningdeq harbiy burchni bajarishda rostgo‘y, intizomli, mard va jasur bo‘lish, oqilona tashabbuskorlikni namoyon etish, komandir (boshliq)larga so‘zsiz buysunish va ularni jangda himoya qilish, harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini avaylabasrashni talab qiladi. Qurolli Kuchlar Umumharbiy nizomlarida bayon etilgan ushbu va boshqa vazifalar, talablar shaxsiy tarkib faoliyatining huquqiy

asosini yaratadi, harbiy xizmatchilar harakati, shuningdek, komandir qarorlarining huquqiy me'yorlarini ta'minlab beradi. Komandirning qarori va buyruqlarida jangchilarning kundalik amaliy faoliyatidan ko'zlangan maqsad, ularga erishish yo'llari va usullari, ichki tartib, kun tartibi, moddiy va texnik ta'minot, qo'shin xizmatini tashkil etish va o'tash tartibi, shaxsiy tarkib hayoti hamda faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar belgilanadi.

Buyruq-bu buysunuvchi uchun qonun. U so'zsiz, aniq va belgilangan muddatda bajarilishi kerak, deb ta'kidlanadi[1] Intizom nizomida. Buyruqning bajarilmasligi, tinchlik vaqtida ham, urush vaqtida ham eng og'ir harbiy jinoyat sifatida baholanadi. Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev rahbar siyosiy yetukligi, yuksak axloqiyligi, munosibligi, tashabbuskor, ijodkor va yangilikka intiluvchanligi bilan ajralib turishi kerak, deb bir necha bor bejiz ta'kidlamagan. Bularning barchasi Qurolli Kuchlarimiz ofisterlariga ham bevosita taalluqlidir. Hayot, harbiy xizmat, mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatning xarakteri harbiy kadrlarimizdan g'oyaviy toblanganlik va siyosiy etuklik, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat, yuksak kasbiy mahorat, intizomlilik va ijrochilik, jangovar texnika va qurol-aslahani mukammal bilish, murakkab sharoitlarda qism va bo'linmalarni boshqara olish, irodalilik va tashkilotchilik qobiliyati, shaxsiy tarkib bilan ishlay olish, respublika rahbariyati, Mudofaa vazirligi qo'ygan har qanday vazifani bajarishga shaylik, xalqi, Vatani va Prezidentiga, Harbiy qasamyodi, harbiy burchiga sadoqatni talab etadi. Jamiyat rivojlanishi tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqish va tashkil etish usullariga qarab, ularda muayyan turdagi harakatlar va ruhiy ko'nikmalar vujudga keladi. Axloqni bir kasb-hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin: o'qituvchilik ixtisosiga qarab pedagog axloqi; tibbiyot ixtisosiga qarab shifokor axloqi; huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab — yurist axloqi; Qurolli Kuchlar ixtisosiga qarab harbiy axloq va boshqalar.

Harbiy xizmatchilar axloqi-vatanparvarliq mardliq eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmasliq Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turadi.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalari Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan.Harbiy xizmatchilar axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar-dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi. Harbiy xizmatchilar axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy

munosabatlardan tashkil topgan uch qismdan iborat. Harbiy xizmatchilarning axloqiy ongi-xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g‘oya, qarash, ishonch, tuyg‘u kabi hissiyotlar tizimidan iborat bo‘lib, bu ularning jamiyatdagi, kundalik turmushdagi, xizmat faoliyatidagi xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari va odatlarida, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik qarashlari, kechinmalari shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, ular Vatanga bo‘lgan muhabbat, vatanparvarlik, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas’ullik, milliy iftixor, vijdon, or-nomus, qadr-qimmat, ezgulikka intilish, g‘amxo‘rlik, samimiyat hissiyotlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining P/Q 4447 sonli qarori. 18.08.2018
3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umum harbiy nizomllari. Ichki xizmat nizomi. PF-1571-son 09.10.1996

DELINKVENT XULQ-ATVOR DOLZARB PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Saburov Alisher Ikramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xafvsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, mayor

Jamiyatdagi ma’naviy muhit ta’sirini kuchaytirish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish shaxs ijtimoiylashuvning tizimli amalga oshishiga ko‘maklashadi. Jamiyatda mavjud ma’naviy ahloqiy me’yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jamiyatda islohatlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlar jamiyatda mavjud eski muvozanatlarning o‘zgarishi, yangi me’yorlarning kirib kelshiga asos bo‘ladi. Dunyo miqyosidagi global ijtimoiy o‘zgaruvchanlikning kuchayishi muhtojlik, jinoyatchilik, millatlar o‘rtasidagi nizolar, ishsizlik, kabi dolzarb ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Dunyo mamlakatlarida demografik inqiroz, oila inqirozi, alkogolizm, zo‘ravonlik, o‘zaro munosabatlardagi ziddiyatlar, yoshlarning qarovsizligi, jinoyatchilik va boshqa ijtimoiy xatarli hodisalarda shaklida namoyon bo‘lmoqda.

Delinkvent tushunchasini yoritish jarayonida aytish mumkinki-jamiyatga qarshi, individning noqonuniy xulq-atvorlari, individning nojo‘ya xatti –harakatlari (anglab yetilgan yoki anglab yetilmagan), zararli jihatlarini ko‘payishi, yakkalanish, jamiyatdan ajralib qolish (marginallashuv), o‘z faoliyatida

qonunlarga bo‘ysunmasligini ko‘rish mumkin. Bir muncha ahamiyati past bo‘lgan delinkvent xulq-atvor ko‘rinishlari bular jinoyat kodeksdi qayd qilinmagan: kichik bezoriliklar, xaridor tomonidan magazindagi narsani bildirmasdan olib ketishi, tarnsport va bozordagi mayda o‘g‘irliklar, yoqalashishi natijasida yengil jarohat yetkazish, sotuvchi haridorni aldashi, soliq xodimlarini aldash, ishga kech qolish, taqiqlangan joylarda chekish va boshqalar. Delinkvent xulq-atvor harakatlari ko‘pincha o‘smir yoshi o‘quvchilarida kuzatiladi: kechgacha ko‘chada yurish, spirtli mahsulotlarini istemol qilish, mushtlashish, o‘zini kattalarday his qilish, darslardan qochish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, boshqa sinfdoshlarining narsalarini o‘g‘irlash, jamiyat ijtimoiy me’yorlarini buzish, jamiyat mulkini talan taroj qilish, devorlarga yozish yoki chizish. Yoshlardagi delinkvent xulq-atvor elementlarning bo‘lishiga asosan boshqaruv tizimidagi xatolar sabab.

Bundan tashqari, xohlagan xulq agar jamoatchilik fikriga to‘g‘ri kelmas ekan, u deviant deb aytiladi. Agar qonunga nomuvofiq bo‘lsa bu –delinkvent deb aytiladi. Nomaqbullik bu jazoni anglatmaydi. Jinoiy javobgarlik delikvent va jinoy xulq orasidagi chegaralar orqali tafsiflanadi. O‘smir militsiya tayanch punktida ro‘yxatda turadi bu-delinkvent deyilishi mumkin lekin jinoyatchi emas. (qachonki uning aybi sudda tasdiqlanib jazo berilmaguncha). O‘smirlar o‘rtasida delikvent xulq-atvor doimiy tarzda o‘zgarib bormoqda bu achinarli holdir.

O‘qish va ish faoliyatidan bosh tortish. Maktabda darslardan qochish, doimiy tarzda vazifalarni bajarmaslik, dars davomida e’tiborsiz bo‘lish, o‘qishni davom ettirishni xoxlamas.

Noformal guruhlarning jamiyatga qarshi kayfiyatda bo‘lib turishi;

Jamiyatga qarshi majburiy faoliyatlar. Bular tajavuzkorlik, o‘g‘rilik, talonchilik, mol-mulka zarar yektkazish va yo‘qotish shunga o‘xshash faoliyatlar;

Jamiyatga nisbatan g‘arazgo‘ylik faoliyati. Mayda o‘g‘irlik, kichik choyqovchiliklar, tovlamachiliklar shaklida aks etadi;

Jamiyatga qarshi seksual harakatlar. Bu ko‘rinishdagi og‘ma xulq-atvor butunlay bexayolik, axloqsiz seksual harakatlar, yo‘alishlari odatiy jinslar orasida;

Alkagol maxsulotlarini istemol qilish;

Giyohvand moddalarni itemol qilish;

Uydan qochib ketish va daydi bo‘lish;

O‘yinlarga beriluvchan;

Boshqa ko‘rinishdagi og‘ma xulq-atvorlardir.

Delinkvent xulqli odamlar o‘zlarining ichki ziddiyatlarini nevrotiklarga o‘xshab himoya mexanizmlari bilan qo‘riqlay olmaydilar. Lekin ular shizofreniklarga o‘xshab illyuziyalar dunyosiga chekinib, reallik bilan o‘z aloqalarini uzmaydilar ham. Ichki zo‘riqishga bardosh berish uchun ular ichki kasallikka ham murojaat qilmaydilar. Shunday bo‘lsa ham ular har holda reallik bilan aloqani uzadilar hamda ta’qib qilinadigan, davlat tomonidan va qonun yo‘li bilan jazolanadigan ta’qiqlangan harakatlar sodir qilish yo‘li bilan o‘z ichki voqeliklaridan qutiladilar.

Agar bunday odamlarning xulq stereotiplariga nazar tashlansa, ularning bolaligida psixoz yoki psixosomatik kasallik bilan og‘riganlarga o‘xshash

munosabatlarning jarohatlovchi buzilishini kuzatish mumkin. Bunday odamlarni yoshligida yaxshi ko‘rishmagan, suyishmagan. Hech bo‘lmaganda ularga e’tibor berishmagan, ularning tarbiyasini “qo‘ldan chiqarishgan”, bunday odamlar yetishmovchilik ekstremal holatini, kattalar tomonidan muloqot va e’tibor defitsitini boshdan kechirishgan. Buning fojiali oqibati esa – ruhiy tuzilishdagi kuchli yetishmovchilik bo‘lgan.

Bunday ahvolga yana qo‘shimcha jarohatlovchi hodisalar: bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabat (jismoniy jazo) yoki ularning ruhiy shafqatsizlik va befarqlik sharoitida tarbiyalanishlari ham qo‘shilishi mumkin. Delinkvent xulq tarbiyada jazolash usuli bilan uzviy bog‘liq. Shunday muhitda o‘sgan bola jazolash va shafqatsiz muomala haqidagi bilimdan boshqa narsani o‘zlashtirmaydi. Bunday tarbiya qurboni keyinchalik o‘z tajribasini boshqa odamlarga ham tarqatadi, “agressor bilan identifikatsiya” qilish hodisasi sodir bo‘ladi. Jinoyatchi o‘zi bilan bolalikda nima qilishgan bo‘lsa, o‘z qurbonlari bilan ham shunday yo‘l tutadi.[55]

Delinkvent xulqli shaxs ruhiy tuzilishini o‘zligini yo‘qotish qo‘rquvi, birovni yaxshi ko‘rmaslik, yakkalanish, ma’nosizlik, ojiz g‘azab va umidsizlik bilan bog‘liq og‘ir kechinmali psixik holatlar tashkil qiladi. Agar bunday shaxs o‘ziga o‘xshagan odamlar bilan bir guruhga birlashsa, o‘z shaxsiy vaziyatining chidab bo‘lmasligini unutishi oson kechadi. Agar ular birgalikda jinoyat sodir qilishsa, bunday jinoyat odatda jamiyat vakillariga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Guruh ishtirokchilari endi tarbiyani so‘zma-so‘z tushunib, bir vaqtlar ota-onalari ularga nisbatan qo‘llagan tarbiyaning qurbonlari bo‘lishdan qutuladilar. Shu bilan birga ular endi o‘zlarining ahvolini qoniqtiradigan mashg‘ulot bilan shug‘ullanishga yo‘l qo‘ymayotgan turli instansiyalarning qurbonlari ham emaslar. Endi ular faol harakat qilayotgan aybdorlardir. Chunki bunday odamlar o‘z tasavvurida hech bo‘lmaganda o‘z xohishi bilan qonunni oyoqosti qilayotganidan ham qoniqish hosil qilishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib shuni aytish mumkinki, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda deviant xulq-atvorga xos bo‘lgan belgilarni namoyon bo‘lishi oldini olish zarur ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Otajanov. Psixoanaliz asoslari. Toshkent “O‘zbekiston” 2004
2. Агеев В.С. Психологическое исследование социальных стереотипов // Вопросы психологии. 1986
3. Алимов Х. Миллийлик ва ижтимоий руҳият .Т., 1992
4. Асмолов А.Г. Психология личности. -М.: МГУ. 1990.
5. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. -М.: Наука. 1989

PEDAGOGIK FAOLIYATDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR ORQALI VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLARNING

[55] М.Отажанов. Психоанализ асослари. Тошкент “Ўзбекистон” 2004

PSIXOLOGIK QIRRALARI

Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrasi dotsenti, psixol.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlar orqali vujudga keladigan muammolarning psixologik qirralari mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida pedagogik faoliyatda pedagog xodimlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlar va psixologik munosabatlar, pedagoglarda shakllangan kasbiy motivlar, tolerantlilik va empatik qobiliyatlar kabi masalalar ham keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, ta'lim, pedagogik faoliyat, pedagog muloqot,shaxslararo munosabatlar, tolerantlik, empatik qobiliyat, muvaffaqqiyat motivlari, bilim, malaka, kasb.

Аннотация:

Ключевые слова: учитель, образование, педагогическая деятельность, самосовершенствование, толерантность, эмпатическая способность, мотивы успеха, знания, умения, профессия, саморазвитие.

Annotation: This article is devoted to the topic of Socio-psychological problems of raising children in the conditions of pedagogical activity. Thus, Mao Zedong's pedagogical activity is based on such issues as psychological foundations, social psychological determinants, psychological motives, tolerance and empathic motives.

Key words: teacher, education, pedagogical activity, self-improvement

Shaxslararo munosabatlarga bo'lgan qobiliyat pedagog xodimlar uchun juda muhim psixologik unsur sanalib, uni yaxshi shakllanlantirmasdan turib, kasbiy faoliyatini muvaffaqqiyatli tashkil etish, oqilona qarorlar qabul qilish mumkin emas. Shu boisdan, pedagog xodimlarida shaxslararo munosabatlarni to'g'ri shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish hozirgi kun talablaridan biridir. Boshqa kasbiy faoliyat turlaridan farqli o'laroq, pedagog xodimlarning professional kasbiy faoliyatlari o'ziga xos psixologik sifatlarni talab etib, u ko'plab ekstremal sharoitlarda murakkab vazifalarni bajarish bilan xarakterlanadi. V.G.Kriskoning ta'kidlashicha, shaxslar har doim kasbiy va maishiy faoliyatlarida boshqalar bilan munosabatda bo'lishadi. Bu munosabatlar davomiy va rivojlanish dinamikasiga ko'ra, ahamiyatli sanaladi[56]. Rus psixologi G.M. Andreevaning ta'rificha, shaxs butun hayoti davomida biror jamoa yoki guruh a'zosi sifatida, turli ko'rinishga ega bo'lgan va turli xil darajadagi munosabatlarga kirishadi. Shu bois, shaxslararo munosabatlar jarayoni o'z murakkablik darajasi bilan xarakterlanadi[57]. Bundan tashqari, A.A.Bodalevning

[56] Крысько В.Г. Социальная психология: учебник для бакалавров.- 4-е изд. - М., 2014. – С.79.
[57] Андреева Г.М. Социальная психология. – М., 2011. – С.42.

yozishicha, ijtimoiypsixologiya fanida shaxslararo munosabatlarning quyidagi turlari ajratiladi[58]:

– namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra - iqtisodiy (ishlab chiqarish), huquqiy (huquqiy), mafkuraviy, siyosiy, diniy, axloqiy, estetik va boshqalar;

– turli guruhlarga mansubligi bo‘yicha - milliy (millatlararo, etnik), sinfiy, konfessional va boshqalar[59];

– ishlash usuli bo‘yicha - vertikal va gorizontal munosabatlar;

– shaxslar va guruhlar o‘rtasida (rasmiy va norasmiy, kichik va katta, uyushgan va uyushmagan), guruhlar va jamiyat o‘rtasida, shaxs va jamiyat o‘rtasida va boshqalar;

– tartibga solish xarakteriga ko‘ra - rasmiy va norasmiy va boshqalar[60] .

Demak, shaxslararo munosabatlarni shakllanishi uning namoyon bo‘lish xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatlarida shaxslararo munosabatlarga bo‘lgan qobiliyatlar shakllanishini, ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha shakllarida ko‘rish mumkin. Mazkur masalada V.N.Myasishevning g‘oyalari e’tiborga molik hisoblanadi. Muallifning aytishicha munosabatlarning ikki turi farqlanadi, ya’ni[61]: – ijtimoiy munosabatlar; – psixologik munosabatlar[62]. Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, pedagog xodimlarida psixologik munosbatlarni shakllantirish muammosiga doir ishlarni V.P.Poznyakovning izlanishlarida ko‘rish mumkin. Muallifning yozishicha, psixologik munosabatlar-insonlar ongida turli aloqalar va munosabatlarning bevosita aks ettirilish natijasidir paydo bo‘ladi. Bunda insonlarga xos yoqtirish yoki yoqtirmaslik, voqe’likni boshidan kechirish, his qilish va munosabat bildirish kabi psixologik xususiyatlar aks etadi. Ana shunday o‘ziga xos psixologik xususiyatlarning shakllanishi, ular mansub bo‘lgan guruhlar va ular yashayotgan jamiyatning o‘zaro ta’siriga bevosita bog‘liqdir[63]. Shuning uchun, pedagog xodimlarida psixologik munosabatlarni shakllanishi nafaqat, ularning ichki-psixik olami bilan bog‘liq balki, kasbi, jamoasi, ular yashayotgan muhit, oilasi kabilarga aloqador sanaladi. Yu.A.Fomin o‘zining “Ishdagi muloqot psixologiyasi” nomli monografiyasida keltirishicha, shaxslararo munosabatlar fenomenini tavsiflashda quyidagilar hisobga olishi kerak[64]:

– odamlar faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiypsixologik fon va ijtimoiy-psixologik sharoitlar[65];

---

[58] Бодалев, А. А. Психология общения / А. А. Бодалев. – М.; Воронеж. 2018. – С.108.

[59] Буева Л. П. Человек: деятельность и общение / Л. П. Буева. – М., 2016. – С.76.

[60] Бодалёва А. А.. Общение // Психология общения. Энциклопедический словарь / М.: Изд-во «Когито-Центр», 2015. — С.255

[61] Мясищев В.Н. Психология отношений: избранные психологические труды / В. Н. Мясищев. - М.: МПСИ Воронеж: МОДЭК, 1995. – С.137.

[62] Карпова Э. Б. , Исурина Г. Л. , Журавлев А. Л. Психологическая концепция отношений В. Н. Мясищева: основы и содержание // Психологический журнал – 2020. – Том 41. – № 2 С.5-14.

[63] Позняков В. П. (2013). Психологические отношения субъектов совместной жизнедеятельности. Знание. Понимание. Умение, (1), С.167-174..

[64] Фомин Ю.А. Психология делового общения / Ю.А.Фомин. – 3изд., перераб. и доп. – Мн.: Амалфея, 2003. – С.123.

[65]Майерс Д. Социальная психология / Д. Майерс. – 7-е изд. – СПб.: Питер 2004. – С.58.

– insonning ijtimoiy guruhlar va jamoalarga mansubligi, bu jarayonlar o‘zaro munosabatlar, shaxslararo munosabatlar va muloqotni optimallashtirish va samaradorligiga hissa qo‘shadigan yoki qo‘shmaydigan jarayonlardir[66] . Pedagog xodimlar faoliyatining o‘ziga xosliklarini hisobga olish, shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda juda muhim ish sanaladi. Shaxslararo munosabatlar dinamik harakterga ega bo‘lib, ular paydo bo‘ladi, o‘zgaradi va rivojlanadi. Tadqiqotchi A.I.Kravchenkoning ta’kidicha, ushbu jarayon uch bosqichda sodir bo‘ladi[67]:

1.Odamlar tomonidan - o‘zaro aloqalarning paydo bo‘lishi, o‘zaro tushunish va bir-birini baholash sodir bo‘ladi. Bu asosan, ular o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatini belgilaydi. Shu bilan birga, qabul qiluvchining shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribasi, uning qadriyatlari, kechinmalari, munosabatlari, idrokning turli xil ta’siri, bajaradigan rol funksiyalari va boshqalar bilan xarakterlanadi. Boshqalarni tushunishning adekvatligi ko‘p jihatdan, boshqa odamlarni nafaqat ratsional balki hissiy idrok etish, hamdardlik tuyg‘usini namoyon etish kabi qobiliyatiga ham bog‘liq bo‘ladi;

2.Odamlarning o‘zaro munosabatlari - ratsional va emotsional darajada namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi[68]. Ratsional daraja - bu odamlar bilan muloqot qilish natijasida birbirining yaxshi va yomon tomonlarini bilishdir. Hissiy darajada esa, tegishli tajribalar, hissiy kechinmalar va boshqalar orqali paydo bo‘ladi. L.Ya.Gozmanning yozishicha, ichki tomondan odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati hurmat yoki hurmatsizlik, ishonch yoki ishonchsizlik, yoqtirish yoki yoqtirmaslik, xayrixohlik yoki yomon ko‘rish, qoniqish yoki norozilik, yordam yoki qarshilik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi[69]. Ichki munosabatlarning tabiati ko‘p jihatdan, boshqa odamning idrok qilish va baholash shu bilan birga, ularning ustun bo‘lgan fikrlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Bir-biri bilan aloqa qilish, tajriba to‘plash jarayonida birinchi fikrni kuchaytirish mumkin yoki uni o‘zgartirish ham mumkin. Agar nuqtai-nazar ijobiy bo‘lsa, ichki munosabat ham shunday bo‘ladi. Bunda ikkinchi kishi shaxsiy fazilatlarining qadriyat yo‘nalishlariga muvofiqligi darajasi muhim rol o‘ynaydi. Ular mos kelganda, ichki ijobiy munosabat paydo bo‘ladi.

3.Odamlarda ichki munosabatlarning namoyon bo‘lishi-bu bir-birlariga o‘zaro murojaat qilish shaklida kechadi. Shuni yodda tutish kerak-ki, ichki munosabatlardagi mazmun va jozibadorlik yoki tashqi ko‘rinish har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi[70] . Pedagog xodimlarda ob’ektiv shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda ko‘proq, ratsional darajaga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Tadqiqotchi V.N.Kunisьnaning ta’rificha, tashkilotdagi jamoa - bu shaxsning eng asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini

[66]Петровский В. А. Вместо послесловия. «Многовершинность» личности // Петровский А. В. Психология и время. – М., 2007. – С.437– 447.
[67] Кравченко А.И. Психология и педагогика. М., Инфра-М, 2008. – С.94.
[68] Руденский Е.В. Основы психотехнологии общения менеджера. Москва - Новосибирск, 1997. – С.15-25.
[69] Гозман Л.Я. Психология эмоциональных отношений. М., 1990. – С.114.
[70] Кравченко, А. И. Социология : учебник и практикум для академического бакалавриата / 4-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2018. – С.59.

namoyon qiluvchi, kichik uyushgan guruh bo‘lib, u quyidagilar bilan tavsiflanadi[71]:

– jamoa bu - faoliyatning maqsadlari va istiqbollariga munosabatni qolaversa, shaxsda yutuqlarga erishishga nisbatan motivatsiyani shakllantiradi va unda o‘z-o‘zini anglash va o‘zini e’tirof etish kabi sifatlarni shakllantiradi;

– jamoa bu - shaxsning guruhga moslashishiga, uning maqsadlari va harakatlarining guruh dinamikasi bilan mos kelishiga, jamoa va uning atrofidagi jamiyat bilan “birgaligi”ni his qilishiga katta ta’sir qiladi[72];

– jamoa bu - shaxsning hayotini, ijtimoiy hodisalarga bo‘lgan munosabatini kuchaytiradi va doim faol bo‘lishiga ta’sir qiladi.

Munosabatlar tizimi pedagog xodimning nafaqat ish bilan bog‘liq kechinmalarini balki, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq, boshqa bir idrok etish xususiyatlarini ham tavsiflaydi. Jamoa a’zolari bilan bo‘lgan munosabatlarning ijobiy yoki salbiy ta’siri, har bir xodimning shaxsiy munosabatlariga mos, ichki munosabatlar tizimini shakllantiradi. L.N.Djrnazyanning so‘zlariga ko‘ra, barcha kasb egalarida shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir etadi[73]:

– jismoniy jozibadorlik;
– fazoviy yaqinlik;
– aloqada mavjudligi;
– o‘zaro ta’sirning davom etishini kutish;
– o‘zaro munosabat;
– o‘xshashlik;
– bir -birini to‘ldiruvchanlik;
hamdardlik;
– maqsadlarga erishishga hissa qo‘shish;
– shaxsiy uyg‘unlik.

Demak, tashqi ko‘rinishdan tortib, insonning boshqa kishilarga bo‘lgan ta’sir darajasi, yuqori empatik qobiliyat, maqsadlarga hissa qo‘sha olish imkoniyati kabilar ham shaxslararo munosabatlarni rivojlantiruvchi omillar hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, pedagog jamoasining har bir a’zolari o‘z xususiyatlari bilan, jamoadoshlarining barcha sifatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada I.N.Kuznesovning izlanishlari alohida ahamiyatga ega sanaladi. Muallifning aytishicha, samarali shaxslararo muloqot dinamikasi quyidagilar bilan tavsiflanadi[74]: – psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyati; – kommunikativ ta’sirning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; – aloqa o‘rnatish vaziyatlarning izchilligi

[71] Куницына В.Н., Казаринова .В., Погольша В.М. Межличностное общение. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2001. – С.167.

[72]Садовская В. С. Психология общения : учебник и практикум для среднего профессионального образования / В. С. Садовская, В. А. Ремизов. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2020. – С.55.

[73] Джрназян Л. Н. Механизмы эмпатии в межличностных отношениях (на материале изучения малых студенческих групп) : дис. ... канд. психолог. наук / Джрназян Л. Н. - Ереван, 1999. – С.123.

[74] Корпоративная культура делового общения: Главные правила общения и поведения в современном обществе / Авт.-сост. И.Н. Кузнецов. – М.: АСТ; Мн.: Харвест, 2005. – С.95.

va adekvatligi bilan; – og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotning samaradorligi bilan; – suhbadoshlarning tashqi ko‘rinishi, jozibadorligi, imij, qiyofa va boshqalar. Shaxs individualligini yaxlit tizimi, narsalarni ajratishi, uning ob’ektiv voqelikdagi turli hodisalarga ongli aloqasi shu jumladan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch komponent: insonni boshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga va tashqi olamdagi predmetlarga aloqasi tushuniladi. Xulosa o‘rnida pedagog xodimlar shaxsida shakllanuvchi shaxslararo munosabatlarning dinamikasi, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zini o‘zi takomillashtirish, kasbiy martabaga erishish kabi sifatlar, shaxslararo munosabatlarga bo‘lgan qobiliyat kabilarning namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Крыско В.Г. Социалная психология: учебник для бакалавров.- 4-е изд. - М., 2014. – С.79.

2. Андреева Г.М. Социалная психология. – М., 2011. – С.42.

3. Бодалев, А. А. Психология общения / А. А. Бодалев. – М.; Воронеж. 2018. – С.108.

4. Буева Л. П. человек: деятелност и общение / Л. П. Буева. – М., 2016. – С.76. 5.Мясищев В.Н. Психология отношений: избранные психологические труды / В. Н. Мясищев. - М.: МПСИ Воронеж: МОДЭК, 1995. – С.137.

6.Карпова Э. Б. , Исурина Г. Л. , Журавлев А. Л. Психологическая концепция отношений В. Н. Мясищева: основы и содержание // Психологический журнал – 2020. – Том 41. – № 2 С.5-14.

7.Фомин Ю.А. Психология делового общения / Ю.А.Фомин. – 3изд., перераб. и доп. – Мн.: Амалфея, 2003. – С.123.

8.Майерс Д. Социалная психология / Д. Майерс. – 7-е изд. – СПб.: Питер 2004. – С.58.

9.Петровский В. А. Вместо послесловия. «Многовершинност» личности // Петровский А. В. Психология и время. – М., 2007. – С.437– 447.

10.Садовская В. С. Психология общения : учебник и практикум для среднего профессионалного образования / В. С. Садовская, В. А. Ремизов. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва : Издателство Юрайт, 2020. – С.55.

KOMPYUTER O‘YINLARIGA QARAMLIK: ONLAYN QIMORBOZLIK SABABLARI, OQIBATLARI VA PSIXOLOG OLIB BORADIGAN ISH

Maloxat SAIPOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi 411 B guruhi kursanti

Kalit so‘zlar: kompyuter, internet, onlayn, o‘yinlar, salomatlik, ilovalar, muloqot, qaramlik, qiziqishlar, depressiya, moliyaviy, vaqt, nazorat.

Annotatsiya: Maqolada muallif kompyuter va internetdan foydalanishning foyda va zararlari, shuningdek, onlayn qimor o‘yinlariga qiziqish sabablari, uning alomatlari va oqibatlariga to‘xtalib o‘tadi. Olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilish asosida psixologning bu toifadagi odamlar bilan ishlash uslubini tavsiya etadi.

КОМПЬЮТЕРНАЯ ИГРОВАЯ ЗАВИСИМОСТЬ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ ОНЛАЙН-ИГРЫ И РАБОТА ПСИХОЛОГА

Ключевые слова: компьютер, интернет, онлайн, игры, здоровье, приложения, общение, зависимость, интересы, депрессия, финансы, время, контроль.

Аннотация: В статье автор акцентирует внимание на пользе и вреде использования компьютеров и Интернета, а также на причинах интереса к онлайн-гемблингу, его симптомах и последствиях. На основе анализа исследования ученых рекомендует методику работы психолога с данной категорией людей.

COMPUTER GAMING ADDICTION: CAUSES, CONSEQUENCES OF ONLINE GAMES AND THE WORK OF A PSYCHOLOGIST

Keywords: computer, Internet, online, games, health, applications, communication, addiction, interests, depression, finances, time, control.

Annotation: In the article, the author focuses on the benefits and harms of using computers and the Internet, as well as the reasons for interest in online gambling, its symptoms and consequences. Based on an analysis of the research, scientists recommend a psychologist’s methodology for working with this category of people.

Kompyuter va internetdan foydalanuvchilar axborotni idrok etishning yuqori tezligi, ko‘p vazifalilik va ommaviy axborot vositalarining ko‘p vazifali ekanligi, intellektual salohiyat, uzluksiz ta’lim qadriyatlari, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish, butun dunyo bo‘ylab odamlar bilan tezda muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish quyidagi afzalliklari bilan ham odamlarni o‘ziga yanada jalb qildi:

xotira va bilim (Vikipediya, Google, fayllarni “bulutli” saqlash, kompyuterdagi fayllar bo‘lgan papkalar, elektron “kalit shodalar”i, fotosuratlar, kontaktlar);

o‘z-o‘zini boshqarish (vaqtni nazorat qilish ilovalari, smartfon eslatmalari, eslatmalar bilan chatbotlar, xarajatlarni kuzatish ilovalari);

salomatlik (jismoniy faollik, sikl, vazn, uyqu, ovqatlanishni kuzatadigan ilovalar);

o‘z-o‘zini taqdim etish va muloqot (ijtimoiy tarmoqlardagi profillar, postlar, hikoyalar, yoqtirish/yoqtirmaslikni ifodalovchi belgilar, sharhlar, do‘stlar ro‘yxati, messenjerlardagi yozishmalar);

kasbiy identifikatsiya (ish dasturlari va ilovalari, individual sozlamalar, professional ijtimoiy tarmoqlardagi profillar).

Biroq ijobiy jihatlar bilan bir qatorda milliy xavfsizlik va millatning psixik salomatligiga jiddiy tahdid soluvchi addiktiv (lot. tilidagi addictus – tobe, nimagadir o‘ta ishqiboz, to‘liq sadoqatli, qaram, erkinligidan mahrum) axloqqa ega bo‘lgan shaxslar sonining ortishiga sabab bo‘ladi [2, 3].

Xulq-atvorning ijtimoiy xavfli addiktiv shakllaridan biri bu – shaxsning psixopatologik o‘zgarishini rivojlantirish bilan shartlangan va ijtimoiy xulq-atvor normalarining buzilishiga, huquqbuzarliklarga, o‘z joniga qasd qilishga olib keladigan kompyuter o‘yinlariga qaramlik hisoblanadi [1]. Kompyuter o‘yinlariga tobelikda shaxsdagi ijtimoiy-psixologik ustanovkalarning buzilishi ijtimoiy xulq-atvorning buzilishiga, shaxslararo va shaxsning ichki nizolariga, insonni asotsial va jinoiy xatti-harakatlarga jalb qilinishiga olib keladi [4, 5].

Kompyuter o‘yinlariga tobelik, xoh u kompyuter yoki o‘yin avtomatlaridan nari ketmaydigan, kunlik xarajatlari uchun ota-onasi bergan bor pulini sarflaydigan o‘smir bo‘lsin, xoh u kazinoda kunini o‘tkazadigan, har qanday odamga o‘zi bilan olib yurish hatto xayoliga kelmaydigan pul miqdorini qoldiradigan katta yoshli inson bo‘lsin, har doim haqiqiy muammo bo‘ladi.

Kompyuter o‘yinlariga bog‘lanib qolgan odamni o‘yindan chalg‘itish qiyin, u odamovi bo‘lib qoladi, uning muloqot va qiziqishlari doirasi torayadi, unda psixik buzilishlar boshlanadi. Chunki dastlab o‘yin vositasida o‘yinchi kuchi ortib borayotganini his qilsa va unda har qanday raqibni mag‘lub eta oladigan aldamchi tuyg‘u yuzaga kelsa, keyinchalik bu holat unda kuchning pasayishiga va ko‘pincha depressiyaga aylanadi.

Kompyuter o‘yinlari ishqibozlarining o‘ziga kelsak, aksariyat hollarda kasallik psixik kasalliklarga moyil bo‘lganlarda va shaxsiyat rivojlanishining anomalligi bo‘lgan odamlarda, ya’ni insonda ko‘pchilik uchun xos bo‘lmagan tug‘ma fazilatlar mavjud bo‘lganda, masalan, u haddan tashqari uyatchan yoki haddan tashqari jizzaki bo‘lganida yuzaga keladi.

Kompyuter o‘yinlari, ayniqsa, onlayn qimor o‘yinlariga tobe bo‘lib qolganlarni darhol tanish oson emas. Chunki bu hayotda ko‘p narsalarga erishgan, muvaffaqiyatli, maqsadli, hatto taniqli inson bo‘lishi mumkin. Kundalik hayotda boshqarishga odatlangan rahbarlar buzish taqiqlangan aniq qoidalar mavjud bo‘lgan o‘yindan haqiqiy zavq oladilar. Ammo o‘yin virtual bo‘lgani bois

odam bo‘shashadi va bu qoidalarga bo‘ysunadi. O‘yin jarayoni bolalar va kattalar uchun qiziqarli va o‘ziga chulg‘ab oladi. Yoshga bog‘liq bo‘lmagan bir xil insoniy jarayonlar boshlanadi. G‘alaba o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni uyg‘otadi va darhol omadga erishish mumkindek tuyula boshlaydi. Mag‘lubiyat o‘kinch g‘azablanish hissini tug‘diradi. O‘yinchilar har qanday holatda ham keyinga qoldirmasdan g‘alaba qozonishni xohlashadi. Shu yerda va hozir!

Onlayn qimor o‘yinlariga tez qiziqib ketadigan, mag‘lub bo‘lishni bilmaydigan odamlar moyil bo‘ladilar.

Psixiatrlarning ta’kidlashicha, onlayn qimor o‘yinlariga juda qisqa vaqt – atigi 2-3 hafta ichida ruju qo‘yish mumkin. Ammo virtual makondan chiqib olish juda tez kechmaydi va faqat sanoqli odamlargina buni uddalaydilar. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik psixiatrlar va jurnalistlar tomonidan o‘ylab topilgan kasallik emas, balki jiddiy psixik kasallikdir. Kasalliklarning xalqaro tasnifiga ko‘ra, uning asosiy belgisi – bu qimor o‘yinlarida muntazam ravishda takrorlanuvchi ishtirok etishdir. Shu bilan birga, odam ijtimoiy oqibat (qashshoqlik, do‘stona va oilaviy o‘zaro munosabatlarning buzilishi, shaxsiyatning tanazzulga uchrashi va boshqa) larga qaramay, o‘ynashni davom ettiradi.

Bu holatning xavotirli joyi shundaki, ko‘pincha o‘yinchi istalgan vaqtda onlayn qimor o‘yinlaridan voz kechib, o‘zini to‘xtatishga qodir, deb hisoblaydi. Ammo aslida o‘yinga bo‘lgan ishtiyoq shunchalik chidab bo‘lmas darajada yuqoriki, ba’zilar hatto o‘yin uchun pul topish maqsadida jinoyat sodir etishlari mumkin. Qimorga qaramlikning oqibatlari juda achinarli bo‘lishi mumkin: odamlar o‘zlarining axloqiy va moliyaviy tanazzuliga dosh berolmay, o‘z joniga qasd qilishadi.

Keling, shu o‘rinda onlayn qimor o‘yinlariga berilishning sabablarini ko‘rib chiqamiz. Zero, bu har bir inson uchun mutlaqo individual masala bo‘lib, bir nechta asosiy sabablarni ajratib ko‘rsatish mumkin, xususan:

Birinchidan, bu yolg‘izlik tuyg‘usi. Bu tuyg‘u odamni birinchi marta o‘yinga murojaat qilishga va o‘yin davomida olingan taassurotlar hamda his-tuyg‘ular ularni yana bir bor unga qaytishga majbur qiladi.

Qanoatlanmaslik hissi. Bu tuyg‘u odamni o‘yinda o‘zini namoyon etishga majbur qiladi. Haqiqiy hayotda yetarlicha amalga oshirilmagan, o‘zidan qanoat hosil qilmagan odam haqiqiy hayotga qaraganda g‘olib bo‘lish ancha oson bo‘lgan o‘yinda o‘zini ifoda etishga intiladi. Va uning o‘yindagi natijalari qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lsa, u yana va yana unga qaytishni xohlaydi.

Oson boylik orttirish tuyg‘usi. Bu, birinchi navbatda, onlayn qimor o‘yinlari, kazino va boshqalarga taalluqli. Bir marta g‘alaba qozongan va shu qadar oson qo‘lga kiritilgan pulga ega bo‘lishdan adrenalin oqimini his qilgan odam ko‘pincha muvaffaqiyatsiz bo‘ladigan o‘yindagi muvaffaqiyatini takrorlashga harakat qiladi.

Har xil turdagi tobeliklarga oson berilish. Onlayn qimor o‘yinlariga boshqa har qanday tobeligi bo‘lgan, giyohvandlik moddalari, spirtli ichimliklarga qaram odamlar uchun xavfli hisoblanadi.

Turli darajadagi psixik buzilishlar va tavsifnomalar. Bir paytlar psixik kasalliklardan davolangan odamlar ham onlayn kompyuter qimor o‘yinlariga qaramlikkka moyil bo‘ladilar. Ularning qimor o‘yinlariga berilishining yuqori darajasi aniqlangan, buning natijasida qimorga qaramlik yuzaga keladi.

Ba’zi olimlar bunga miya faoliyatidagi o‘zgarishlar aybdor, deb hisoblashadi.

Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikning aniqlashning 10 ta asosiy alomatlari mavjud:

1. O‘yinga butkul singib ketish, o‘yin natijalaridan tashvilanish (oldingi o‘yinlarini eslaydi, kelajakda kiritadigan stavkalarini rejalashtiradi, keyingi o‘yin uchun qanday qilib pul topish haqida o‘ylaydi).

2. Kompyuterda onlayn qimor o‘yinlarini o‘ynagancha, u to‘lqinlanadi va stavkalarni ko‘tarishni boshlaydi.

3. Bunday o‘yinlarni o‘ynayotganida u begona mavzular haqida gapira olmaydi (o‘yinga to‘liq singib ketgan bo‘ladi).

4. Stavkalarni pasaytirish yoki o‘yinni to‘xtatish zarur bo‘lib qolsa, tashvishlanish yoki achchiqlanishni boshlaydi.

5. Kompyuterda onlayn qimor o‘yinlarini o‘ynash uchun ko‘proq pulga ega bo‘lish maqsadida o‘zini har qanday narsa (oziq-ovqat, kiyim-kechak, alkogol va boshqalar)dan cheklashga tayyor.

6. O‘yinda yutqizgan kunining keyingi kuni mag‘lubyatini qoplashga urinadi.

7. O‘zining o‘yindagi haqiqiy ishtirokini yashirish uchun oila a’zolarini aldaydi.

8. O‘yinni moliyalashtirish uchun qalbakilashtirish, aldash, o‘g‘irlik yoki kamomad kabi noqonuniy harakatlarni sodir etadi.

9. O‘yin tufayli ishini, oilasini, do‘stlarini, xizmat pillapoyalaridan ko‘tarilish yoki ta’lim olish imkoniyatini yo‘qotish xavfi bilan yashaydi.

10. O‘yin tufayli mavjud qarzlarini to‘lash uchun yana boshqa odamlardan qarz oladi.

Agar odamda aytib o‘tilgan alomatlardan 4 tasi mavjud bo‘lsa, u malakali psixolog yordamiga muhtoj. Aks holda, salomatlik va turmush kechirishi uchun oqibatlari juda achinarli bo‘lishi mumkin.

Kompyuterda onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik salomatlik uchun jiddiy tahdid ham hisoblanadi. Inson g‘alaba qozonishi yoki mag‘lubiyatga uchrashidan qat’i nazar bunday o‘yinlar juda stressli. Chunki u hamisha go‘yoki “murvati burab qo‘yilgan” soat kabi umr kechiradi.

Uning tanasida organik reaksiyalar sodir bo‘ladi:

– tomirlar torayadi (shu jumladan, bosh miyada ham)

– yurak urishining tezligi ortadi;

qon bosimi oshadi;

endokrin bezlar qonga gormonlarning qattiq zarba beradigan dozalarini chiqargancha faolroq ishlay boshlaydi, bu esa, o‘z navbatida, turli kasalliklarga olib keladi.

Kompyuterda onlayn qimor o‘yinlariga qaram bo‘lganlarda yana birga boruvchi quyidagi alomatlar kuzatiladi:

qo‘zg‘aluvchanlikning oshishi;

haddan tashqari asabiylashish;

jizzakilik;

asossiz g‘azablanish;

odamlarga va atrofdagi narsalarga loqaydlik;

o‘z-o‘zini nazorat qilishga layoqatsizlik (g‘alaba qozonganidan keyin bo‘lganiday, uzluksiz mag‘lubiyatlardan keyin ham o‘ynashni to‘xtatishga qodir bo‘lmaslik);

o‘yindan tashqari hayotga qiziqishning susayib ketishi;

o‘yin o‘ynashga sarflangan vaqt miqdorining doimiy ravishda oshirilishi;

o‘ynash uchun hech qanday imkoniyat bo‘lmaganida, o‘zini qo‘yarga joy topa olmaslik;

o‘yinga qayta-qayta qaytishga bo‘lgan yengib bo‘lmas istakning mavjudligi;

o‘yinni qayta boshlash vasvasasiga qarshi turish qobiliyatining tezkor sur’atda pasayishi.

Hatto hech bir jismoniy kasalligi bo‘lmagan bunday odamda onlayn qimor o‘yinlariga tobelik natijasida:

asabiy-psixik buzilishlar;

qon bosimining ko‘tarilishi;

yurak qon-tomir kasalliklari va boshqa kasalliklar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori.

Geymerlar kompyuterdagi har qanday onlayn o‘yin ermak, ovunchoq, sevimli mashg‘ulot va yoqimli dam olish variantlaridan biri ekanligini tushunishlari kerak. Jiddiy muammolarni oldini olish uchun har bir foydalanuvchiga quyidagi qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi:

o‘yin vaqtini belgilang;

moliyaviy chegaralarni aniqlang va hech qanday holatda ulardan oshmang;

o‘yin hayotda asosiy ustuvorlikka aylanmasligi kerak;

mag‘lubiyatga uchradingizmi, tanaffus qiling va o‘zingizni chalg‘iting;

yaqinlaringizdan yordam so‘rashdan qo‘rqmang.

Ushbu oddiy, amaliy qoidalarga rioya qilish ko‘plab qiyinchiliklardan qochishga yordam beradi, shu jumladan, faqat bir necha odamlargina malakali tibbiy yordamisiz yengishga qodir ludomaniya (grek tilida ludo – o‘ynayman, maniya – ishtiyoq) kabi jiddiy patologik holatning rivojlanishining oldini oladi.

Psixologning kompyuterdagi onlayn o‘yinlarga qaram bo‘lganlar bilan ishi quyidagilarni qamrab olishi zarur:

xulq-atvorni o‘zgartirish orqali bunday qaramlikdan xalos bo‘lishga erishiladigan xulq-atvor psixoterapiyasi. Bunda istalmagan fe’l-atvor shakllarini foydali shakllar bilan almashtirish orqali yo‘q qilinadi;

psixolog qaramlikning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan omillarni aniqlaydi va keyin ulardan xalos bo‘lishga yordam beruvchi psixoanaliz metodikalaridan foydalanadi;

o‘z-o‘zini ifoda etish qo‘rquvi bilan ishlash, o‘z-o‘zini oshkor qilishga, o‘z imkoniyatlarini namoyish etishga ijobiy munosabatni rivojlantirish; mijozning o‘zini o‘zi baholashi, uning o‘z faoliyati mahsulotlariga munosabati, xususiyatlari, ularning sabablari va amal qilish darajasini ko‘rib chiqish. Fikrlashning qat’iy dixotomiyasini tenglashtirish, uning tafakkurini kamaytirish va umuman, o‘zini va faoliyati mahsulotlarini ortiqcha baholash imkoniyati bilan o‘zini ijodiy jihatdan namoyon qilishini birlashtirgan Art-terapiya usullari tavsiya etiladi.

boshqalarning umidlarini mos kelmaslik qo‘rquvni kamaytirish bo‘yicha ishlash; mijozning kelajak, harakatlarning taxmin qilinayotgan oqibatlari haqidagi tasavvurlarini tahlil qilish tavsiya etiladi. Mijoz uchun boshqalar bahosining muhimligi sabablariga, olingan baholarning to‘g‘riligiga e’tibor berish; Bunday tajribaning mavjudligini aniqlash uchun tajribani tahlil qilish bilan kutilayotgan bahoning modalligini ko‘rib chiqish; kognitiv psixoterapiyadan foydalanish, shu jumladan, kelajakdagi voqealar haqida ortiqcha umumlashtirish va salbiy bashoratlar darajasini pasaytirish, atrofdagilarga “Yorliq” yopishtirish refleksiyasi bo‘yicha ishlardan foydalanish;

shaxslararo nizolarni aniqlash va hal qilish, muqarrarlikka munosabatni o‘zgartirish; mijozning intilishlari, ularni amalga oshirishdagi xayoliy va ob’ektiv cheklovlar bilan ishlash. Mijozlarning umidsiz ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishning muqobil usullarini qidirish. Majburiy harakatlar holatlarini, ushbu harakatlarga qarshilik ko‘rsatish sabablarini va harakatlanish hamda majburiyat zaruriyatini tahlil qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асмолов А.Г. Цветкова Н.А., Цветков А.В. Психологическая модель интернет-зависимости личности. // Ж.: Мир психологии, 2004. № 1. С. 179-192.

2. Григорьев Г.И. Духовно ориентированная психотерапия патологических зависимосте. / Под ред. Г.И. Григорьева. – СПб.: ИИЦ ВМедА, 2008. - 504 с.
3. Зайцев В.В., Евдокимов В.И. Патологическая склонность к азартным играм: методология, распространенность, диагностика и лечение. // Мед.-биол. и соц.-психол. пробл. безопасности в чрезв. Ситуациях, 2008. № 2. С. 67-74.
4. Евдокимов В.И., Зайцев В.В. Научно-методические аспекты развития и лечения патологической зависимости от азартных игр. // Вестник психотерапии, 2007. № 25 (30). С. 18-25.
5. Карвасарский Б.Д. Психотерапевтическая энциклопедия. / Под ред. Б.Д. Карвасарского. 3-е изд. перер. и доп. – СПб.: Питер, 2006. 944 с.

КОПИНГ СТРАТЕГИИ КАК ПРЕДИКТОР РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ САМОРЕГУЛЯЦИИ ЛИЧНОСТИ

М.Р.Киёмхужаева
Преподаватель кафедры Воспитательно-психологического обеспеченя служебной деятельности университета Общественной безопасности Республики Узбекистан

В современном мире, где на каждом шагу человечества встречаются триггерные ситуации, которые превышают ресурсы личности, необходимо и очень важно уметь противостоять этим стрессорам. Для экологичесности здорового подхода к стрессогену, уместно знать и уметь использовать методы психической саморегуляции как физическая нагрузка, музыкотерапия являются экологически здоровым подходом к стрессору. Один из таких важных методов, требующих активизации высших мыслительных процессов, что свойственно лишь интеллектуально-развитой личности, являются копинг-стратегии. Копинг-стратегии в психологии – это сознательные активные усилия, которые предпринимаются в ситуации психологической угрозы и направленные на совладение со стрессом копинг –поведение отчасти схоже с психологической защитой, но отличается тем, что в стрессовой ситуации психологические защиты не осознаны, когда как копинг используется сознательно.[75] По анализам литературы Е.В.Сухановой , можем понять, что в настоящее время под копинг-стратегиями понимаются осознанно используемые человеком приемы совладения с трудными ситуациями, состояниями, совокупность различных поведенческих стратегий, меняющиеся попытки в когнитивной и поведенческой областях справиться со специфическими внешними и внутренними требованиями,

[75] Рыжов Д.М. Развитие научных представлений о психологической защите и ее исследование у детей младшего школьного возраста //Вестник МГГУ им. М.А.Шолохова. Педагогика и психология 2013 №1 – с100-101

которые оцениваются как чрезмерные или превышающие ресурсы личности.[76]

Следует уточнить какое значение на самом деле имеет термин «копинг». Сам термин был введен А.Маслоу (1951) ««Копинг» (заимствован из английского языка и является буквальным переводом слов «coping» или «to cope with», что значит «справляться со стрессом», «совладать над чем-либо») – это индивидуальный способ взаимодействия с ситуацией в соответствии с ее собственной логикой, значимостью в жизни человека и его психологическими возможностями»[77]. Таким образом, копинг-стратегии в психологии представляют собой методы, с помощью которых люди адаптируются к стрессовым обстоятельствам. Проще говоря, это вся совокупность реакций на стрессовые ситуации, которые проявляются через высоко-когнитивную функцию личности. В процессе мышления анализировав, синтезировав, сравнив и далее обобщив ситуацию, можно через речь выражать свою реакцию. Поскольку смысл совладения состоит в обеспечении психологической адаптации к ситуации, решения проблемы, восстановлении психологического благополучия, здесь важно понять, насколько разные копинг-стратегии способствуют процессам психологической защиты. С понятием «копинг» связывают разного рода процессы, направленные на возможно лучшее решение личностных, межличностных или профессиональных проблем, адаптацию личности к требованиям ситуации, вызывающей стресс, позволяющую овладение ею, ослабление или смягчение этих требований и восстановление психологического благополучия. Как отмечают Е.Рассказова, Т.Гордеева и Т.Осин в своих научных исследованиях[78], копинг-стратегии имеют большую и сложную историю. Можно выделить три главных источника, стимулировавших развитие проблематики копинг-стратегий: 1) исследования психологических защит, начатые в рамках психодинамического подхода и продолженные современными исследователями; 2) исследования в области психологии стресса, включающие изучение реакций человека на ситуацию болезни и других стрессовых ситуаций, угрожающих здоровью (Lazarus, Folkman, 1984); 3) исследования мотивации деятельности, развернувшиеся в рамках изучения мотивации достижения, саморегуляции, целеполагания, реагирования субъекта на трудности и неудачи в выполнении учебной, профессиональной и другой продуктивной деятельности (Леонова, 2011; Brown et al., 2005; Carver, Scheier, 2000). Первое направление исследований способствовало выяснению роли разных типов защитных механизмов в психологическом благополучии; второе — исследования самих событий, вызывающих стресс, а также типов реакций на них; третье, самое молодое,

[76] Суханова Е.В. Понятие «копинг-стратегии» и пример асоциальных копинг-стратегий//Прикладная юридическая психология. 2014 №1 с 76-83

[77] Моросанова, В.И. Индивидуальный стиль саморегуляции / В.И.Моросанова. – М.: Наука, 2015. 63 стр.

[78] Е.И.Рассказова, Т.О.Гордеева, Е.Н.Осин «Копинг-стратегии в структуре деятельности и саморегуляции: психометрические характеристики и возможности применения методики “cope»

роль копингов в процессах саморегуляции и их вклад в успешность выполнения продуктивной деятельности. В последние годы копинг-стратегии рассматриваются как компонент личностного потенциала (Леонтьев, 2011; Личностный потенциал, 2011), то есть как система личностных факторов, определяющих успешность саморегуляции в различных ситуациях.

По мнению исследователей, переходя к выбору копинг-стратегий, которые способствуют дальнейшему пути решения проблемы, важно отметить, что подборка данных видов стратегий непосредственно связаны с личностными и когнитивными особенностями личности. Выбор копинг-стратегий определяется не только внешними факторами (типом ситуации), но и внутренними (личностными чертами и диспозициями (направленность человека на ту или иную модель поведения)). Изучение связей личностных черт с копинг-стратегиями может способствовать как использованию определенных личностных черт в качестве предикторов копингов. Как отмечают в своих исследованиях Дж.Коннор-Смит и С. Флэсбарт, личность может напрямую способствовать или препятствовать преодолению трудностей, но связь между личностью и преодолением трудностей в разных исследованиях была неоднозначной, что говорит о необходимости уделять больше внимания методам и выборкам. В зарубежных исследованиях данной теории весьма информативны результаты метаанализа связи копинг-стратегий и факторов «Большой пятерки», то есть личностные факторывлияющие на механизмы копинга. По результатам анализа, личностные черты довольно слабо, но значимо связаны с отдельными копинг-стратегиями. Наиболее осмысленные и консистентные связи с копинг-стратегиями обнаружили такие черты, как нейротизм, добросовестность и экстраверсия, наименее выраженные и стабильные — доброжелательность и открытость опыту. Нейротизм связан с более низкой вероятностью обращения к когнитивному переструктурированию проблемы, и более высокой — к стратегиям выражения негативных эмоций, а также ухода от решения проблем, таким как употребление «успокоительных» (алкоголь, лекарства), фантазирование в форме «вот если бы» (принятие желаемого за действительное). Добросовестность связана с высокой вероятностью обращением к стратегиям активного решения проблемы, вовлеченностью в деятельность и ощущением контроля, использованием стратегий когнитивного переформулирования и, напротив, с низкой вероятностью обращения к отрицанию и «успокоительным» средствам. Экстраверсия связана с поиском социальной поддержки, активным решением проблемы. [79]

Существует множество разнообразных систематизаций копинг-стратегий в психологии стресса. Как известно, стресс – это основа нервно-психологического напряжения и существуют теории о том, что гендерные различия при ответной реакции на сложившуюся трудную ситуацию и ее

[79] “Relations between personality and coping: a meta-analysis.” Journal of Personality and Social Psychology 10 October 2007. Doi: https://doi.org/10.1037/0022-3514.93.6.1080

решении способствуют тому, что мужчины и женщины предпринимают различные модели поведения и копинг-стратегии при психической саморегуляции. Р.Лазарусом и его коллегой С.Фолкман[80] была предложена первая классификация копинг–стратегий, в рамках которой «копинг» рассматривался как стабилизирующий фактор, который помогает личности адаптироваться в период воздействия стресса и выделил два глобальных стиля реагирования: 1) проблемно–фокусированный копинг направленный на анализ проблемы, и эмоционально-ориентированный слить, который направлен на редукцию эмоционального напряжения и 2) эмоционально–фокусированный копинг, наоборот, играют негативную роль и усиливают стресс, поскольку не разрешают саму ситуацию . Подавляющее большинство классификаций копинг–стратегий, которые появились после классификации Р. Лазаруса и С. Фолкман, дифференцировались схожим образом, предлагая разделение копинг–стратегий по принципу «работа с проблемой» и «работа с отношением к проблеме»[81] Также немаловажно упомянуть, что самой разработанной и активно используемой теорией совладеющего поведения или «копинга» является концепция Р.Лазаруса.

Схема№1

[80] Муздыбаев К. Стратегия совладания с жизненными трудностями / К. Муздыбаев // Журнал социологии и социальной антропологии. / СПб, гос. ун–т. – 1998. – Том 1, вып. 2. – С. 37–47

[81] Рассказова Е.И. Копинг–стратегии в психологии стресса: подходы, методы и перспективы [Электронный ресурс] / Е.И. Рассказова, Т.О. Гордеева // Психологические исследования: электрон. науч. журн. – 2011. – №3 (17). URL: http://psystudy.ru (дата обращения: 08.02.2018).



Исходя от стимула и реакции можно выделить две группы стретгии: первая группа:

1. **Изучение данных и составление стратегии**. Этот метод является начальным звеном копинга и заключается в желании собрать больше информации о возникшей ситуации и сформировать план предпринимаемых действий для ее решения.

2. **Активное преодоление трудностей**. Личность не надеется на то, что задача решится сама по себе, а активно ищет пути ее решения. Энергичный подход способствует повышению уверенности и ощущения контроля над происходящим.

3. **Корректировка или оценка собственных целей** для успешного преодоления стрессовых обстоятельств может включать в себя адаптацию планов, изменение сроков выполнения задач или перераспределение доступных ресурсов.

4. **Социальная поддержка** представляет собой содействие родных, друзей или коллег. Эта стратегия включает запрос помощи, рекомендации или профессионального мнения у окружающих.

5. **Переоценка событий** с более позитивной перспективы. Взгляд на ситуацию под другим углом. Это помогает поиску новых и более действенных методов решения проблемы.

6. **Применение ранее достигнутых успехов** для выполнения современных задач. То есть на основе имеющегося опыта принимать какие-либо решения.

Вторая группа стратегий, ориентированных на эмоции, нужны в тех случаях, когда решение кризиса не зависит от вас. К таким эмоционально-ориентированным методам можно отнести:

1. **Выражение чувств** — порой, чтобы справиться с эмоциональным напряжением, необходимо дать выход своим эмоциям «выдохнуть пар»: поговорить с кем-то, заняться боксом или просто поплакать.

2. **Создание дистанции** поможет уменьшить значимость ситуации. Например, можно попробовать найти положительные аспекты текущих обстоятельств или переключиться на другую деятельность. Если проблема не срочная, разумно отложить ее разрешение на потом.

3. **Юмор** — попытка взглянуть на ситуацию с легкостью и посмеяться над ней, то есть взглянуть на сложившуюся ситуацию с другого ракурса, то есть использовать метод когнитивного рефрейминга.

4. **Релаксация** — вербальные и невербальные приемы саморегуляции, такие как методы глубокого дыхания, медитация, занятия йогой, музыкотерапия, арт-терапия, танцевальная терапия и различные способы для отдыха.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Рыжов Д.М. Развитие научных представлений о психологической защите и ееисследование у детей младшего школьного возраста //Вестник МГГУ им. М.А.Шолохова. педагогика и психология 2013 №1 – с100-101

2. Суханова Е.В. Понятие «копинг-стратегии» и пример асоциальных копинг-стратегий//Прикладная юридическая психология. 2014 №1 с 76-83

3. Моросанова, В.И. Индивидуальный стиль саморегуляции / В.И. Моросанова. – М.: Наука, 2015. 63стр

4. Е.Рассказова, Т.Гордеева и Т.Осин «Копинг-стратегии в структуре деятельности и саморегуляции: психометрические характеристики и возможности применения методики COPE»

5. “Relations between personality and coping: a meta-analysis.” Journal of Personality and Social Psychology 10 October 2007. Doi: https://doi.org/10.1037/0022-3514.93.6.1080

6. Муздыбаев К. Стратегия совладания с жизненными трудностями / К. Муздыбаев // Журнал социологии и социальной антропологии. / СПб, гос. ун–т. – 1998. – Том 1, вып. 2. – С. 37–47

7. Рассказова Е.И. Копинг–стратегии в психологии стресса: подходы, методы и перспективы [Электронный ресурс] / Е.И. Рассказова, Т.О. Гордеева // Психологические исследования: электрон. науч. журн. – 2011. – №3 (17). URL: http://psystudy.ru (дата обращения: 08.02.2018).

HARBIY XIZMATCHILARNING FRUSTRATSIYA MUAMMOLARIGA NAZARIY YONDASHUV

Bo‘taev Ulug‘bek Abdusattorovich,
O‘R MG Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi
Ijtimoiy-gumanitar fanlar sikli katta
o‘qituvchisi, podpolkovnik.

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning frustratsiya muammolariga dunyo miqyosidagi olimlarning fikrlari, nazariy yondashuvlari yoritilgan va tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Harbiy xizmatchi, frustratsiya, ehtiyojlar, stress, xulq-atvor, shaxs.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini amalga oshirish, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnikalar bilan ta’minlash hamda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘zda tutadigan qarorlar qabul qilindi.

An’anaga ko‘ra Qurolli Kuchlarimiz tizimida harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshirish maqsadida, buyuk ajdodlarimizga munosib mard va jasur, bilimli va jismonan baquvvat bo‘lgan dovyurak jangchilarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda [1].

Dunyo miqyosida frustratsiya holati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, psixolog A.Freyd frustratsiya tushunchasini “Frustratsiya bu - ehtiyojlarni qondirish, maqsadga erishish yoki berilgan vazifani bajarishga to‘sqinlik qiladigan, ob’ektiv ravishda yengib bo‘lmaydigan yoki sub’ektiv ravishda qabul qilinadigan qiyinchiliklar natijasida kelib chiqadigan, ong va faoliyatning buzilish holatidir” deb ta’riflaydi [2]. Ya’ni biror narsadan ko‘ngil qolishi, g‘azablanish, tushkunlik, xavotir, muvaffaqiyatsizlik hissi va hokazo.

X.Bettxer psixoterapevtik usulda shakllantiriladigan frustrator reaksiyalarning (to‘siqlarning) ikki guruhini ajratadi [3]:

1. To‘siqlar – insonda motivatsiyani oshiradi, inson o‘z maqsadlaridan voz kechmaydi, balki ularga qat’iyat bilan erishishga harakat qiladi. Ushbu vaziyatda to‘siqlar harakatlarni kuchaytiradi va organizmning faollik darajasini oshiradi;

2. To‘siqlar insonning vaziyatlarni qayta ko‘rib chiqishiga, xarajatlarni hisoblashga, maqsadlarni qiyoslashga, eng kerakli maqsadni saqlab qolib, vositalarni o‘zgartirishga majbur qiladi. Shuningdek, ushbu vaziyatda insonning dastlabki maqsadlari qayta to‘g‘rilanib, boshqa xulq-atvor reaksiyalari me’yor chegarasida qoladi hamda konstruktiv xatti-harakatlar inson tomonidan qayta

o‘zlashtiriladi. Agar insonda tolerantlik hissi past bo‘lsa, unda inson kam kuchga ega frustratorlarga ham noadekvat xatti-harakatlar bilan javob qaytaradi.

Tadqiqotchi N.Mayer frustratsion holatlarda yuzaga keladigan va boshqalarga qaratilgan, distruktiv xatti-harakatlarni quyidagilarga ajratadi:

- frustratsiya holatini keltirib chiqargan shaxsga qaratilgan xatti-harakatlar;
- agressiya haqiqiy aybdorga emas, balki taxmin qilingan aybdorga qaratiladi, shuningdek, agressiya jonsiz narsalarga yo‘naltirilgan ham bo‘lishi mumkin;
- o‘zini tinchlantirish, ya’ni inson erishib bo‘lmaydigan maqsadlarida juda ko‘p kamchiliklarni ko‘radi va oxir – oqibat ulardan voz kechadi [4].

Psixoanalitik ta’limotdan farqli ravishda, frustratsiyani tushuntirishda bixevioristik yondoshuv mavjud bo‘lib, mazkur ta’limotning eng faol namoyondachisi D.Dollard sanaladi. Muallifga ko‘ra, “frustratsiya” tushunchasi shaxs kutayotgan rohatni qabul qilishga to‘sqinlik qiladigan tashqi holatdir. Ya’ni frustratsiya bu – “xatti-harakatlar ketma-ketligida maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni, tegishli vaqtda amalga oshirishga aralashishdir” [5]. D.Dollard o‘z xulosalaridan kelib chiqib, frustratsiya holatiga mos “tashvishlanish” nazariyasini taklif etadi. Ushbu yondoshuv hayotiy qaltis vaziyatlar – stress, nizo, inqiroz kabi kechinmalar orqali tushuntiriladi. Umuman olganda, frustratsiya masalasini psixologik tadqiq etish uchun avvalo, frustratsiyalanganlik va frustratsiyali xulq-atvor holatlarining ma’nosini tushunib olish ahamiyatli sanaladi.

L.F.Burlachukning aytishicha, shaxsning frustratsiyalanganligi bu – uning vaziyatlarni salbiy baholashi hamda ekstremal vaziyatlarga nisbatan moslashuvni yo‘qotishi kabilar bilan xarakterlanadi. Frustratsiya asosida muhim, ammo amalga oshirilmagan har xil darajali ehtiyojlar, motivlar va qadriyatlar kabilar aks etadi [6].

Tadqiqotchilardan S.Ye.Lukin hamda A.V.Suvorovlarning fikricha, frustratsiya tushunchasini ta’riflashning ikki jihati mavjud, ya’ni birinchi holatga ko‘ra, frustratsiya ba’zi bir to‘siqlar tufayli allaqachon faollashgan ehtiyojlarni qondirishning imkoni yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi holatda esa, ehtiyojni qondirishga to‘sqinlik qiladigan va nizolarni keltirib chiqaradigan xatti-harakatlar orqali paydo bo‘ladi [7]. Taklif etilgan ikkala ta’rifda ham, frustratsiya fenomeni vaziyatli holatlarni tavsiflaydi. Ba’zan, kamdan-kam holatlarda, frustratsiya hissi shaxsning barqaror xususiyati yoki stress vaziyatlariga moslasha olmaslik sifatida tushuniladi.

Yuqorida tahlil etilgan yondoshuvlardan farqli o‘laroq, S.Rozensveygning qarashlari frustratsiya fenomenini tushuntirishning eng maqbul tamoyillaridan biri hisoblanadi deb tasdiqlaydi M.Korduell. U frustratsiyani tabiiy xususiyat, barqaror jarayon, moslasha olmaslik xususiyati emas, balki holat sifatida ta’riflaydi [8].

Chunki frustratsiyaning vaziyati faqat ma’lum vaqt bilan cheklangan vaziyatlardir. Insonning bunday vaziyatdagi va undan keyingi holati bir muncha vaqt cheklangan bo‘ladi. Shuningdek, holat – shaxsning unchalik barqaror bo‘lmagan jarayon hisoblanib, u tez-tez o‘zgarib turadi. Ya’ni frustratsion holatlarni keltirib chiqaruvchi ko‘plab omillar vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Harbiy faoliyatda frustratsiya holatlari bir qator ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga bog‘liq ravishda yuzaga kelishi mumkin.

A.N.Tarasovning fikricha, harbiy xizmat faoliyatida frustratsiya shakllanishining ob’ektiv sabablariga quyidagilar kiradi [9]:

– xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarning nomuvofiqligi;

– xizmat faoliyatida shakllanadigan xarakter sifatlari;

– yosh harbiylarning xizmat sharoitiga nisbatan kasbiy va ijtimoiy moslashuvidagi nomuvofiqliklar;

– harbiy faoliyatning dinamikligi va murakkabligi;

– harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ziddiyatlarni hal qiluvchi huquqiy asoslarning sust ishlab chiqilganligi;

– xizmat sharoitida ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash hamda ma’naviy va moddiy rag‘batlantirishni taqsimlashdagi tartibsizliklar;

– harbiy bo‘linma oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish va normal hayot uchun zarur bo‘lgan narsalar bilan lozim darajada ta’minlanmaganligi va hokazolar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, frustratsiya nazariyasining asoschisi S.Rozensveyg, frustratsiya vaziyatida namoyon bo‘luvchi reaksiyalarning barchasini to‘qqiztaga qisqartirib, uni aniqlashning psixodiagnostik usulini ham ishlab chiqqan. Hozirda mazkur metodika orqali biror shaxsni frustratsiya holatida o‘zini qanday tutishini va unga moslashish imkoniyati qanday ekanligini oson aniqlash mumkin. Bundan tashqari, frustratsiya hissini o‘rganish orqali, insonlarning salbiy hayotiy vaziyatlar ta’siriga chidamliligi va unga bo‘lgan optimistik munosabatlarini yoritishga keng xizmat qiladi. Ushbu mulohazaga ko‘ra, shaxs ichki va tashqi to‘siqlarning mavjudligi tufayli rivojlanib kamol topadi. Aynan, shu omillar shaxs faolligini kuchaytiradi, atrof-muhit bilan aloqasini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan frustratsion holatlarni psixologik jihatdan konsepsiyalar asosida tahlil qilish ulardagi bu vaziyatlarning bartaraf etish imkoniyatini yaratib berishga asos bo‘ladi. Bundan tashqari, harbiy mashg‘ulotlar jarayoniga tayyorgarlik vaqtida turli xil to‘siqlarga duch kelish xizmat faoliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, emotsional barqarorlikni vujudga keltirish va uni saqlab turish ko‘zlangan natijalarga erishishga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi (president.uz). https://president.uz/uz/lists/view/5821

2. Фрейд А. Эго и механизмы психологической защиты. М.: АСТ. Астрель. Харвест, 2008. – С.65.

3. Betther H. G. Therapeutic Models in Positive Psychotherapy// First World Conference of Positive Psychotherapy: St. Petersburg, May 1997 Wiesbaden, Germany, 1997 - P 178-185.

4. Майер Н. Фрустрация: поведение без цели / Н.Майер. - М.: 2005. – С.98.

5. Dollard D. Frustration and aggression. (Analysis of the Dollard Concept) Journal for the theory of social behavior, 1996. 26.№2. P. 95-120.

6. Бурлачук Л.Ф., Коржова Е.Ю. Психология жизненных ситуаций: Учебное пособие - М.: Российское педагогическое агентство, 1998. – С.111.

7. Лукин С.Е., Суворов А.В. Тест рисуночной ассоциации С.Розенцвейга. Руководство по использованию. – СПб, 1993. – С.46.

8. М.Кордуэлл. Психология А-Я словарь – справочник. М.: «Фаир-Пресс», 2003. – С.131.

9. Тарасов А.Н. Психологические особенности деятельности офицера - связиста в стрессовых ситуациях: Автореф. дис. канд. психол. наук. -М.: ВПА, 1990. – 32 с.

ONLAYN KOMPYUTER O‘YINLARIGA QIZIQISH: “MURVATI BURAB QO‘YILGANLIK HOLATI”

Maloxat Saipova,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi 411 A guruhi kursanti
Yamanqulov S.

Kalit so‘zlar: zamonaviy, kompyuter, internet, onlayn, o‘yinlar, salomatlik, ilovalar, muloqot, qaramlik, qiziqishlar, moliyaviy, vaqt, nazorat.

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘lmish kompyuter va internetdan foydalanish, onlayn kompyuter o‘yinlarining inson salomatligiga ta’siri masalalarini yoritadi. Shuningdek, bu masalada o‘z mualliflik xulosasini beradi.

ИНТЕРЕС К КОМПЬЮТЕРНЫМ ОНЛАЙН-ИГРАМ: СОСТОЯНИЕ «ЗАВЕДЕННОГО»

Ключевые слова: современность, компьютер, интернет, онлайн, игры, здоровье, приложения, общение, зависимость, интересы, депрессия, финансы, время, контроль.

Аннотация: В данной статье автор освещает вопросы использования современных информационных технологий, компьютера и Интернета, а также влияние компьютерных онлайн-игр на здоровье человека. Также приводится авторское заключение по данному вопросу.

INTEREST IN ONLINE COMPUTER GAMES: THE “WITCHED” STATE

Keywords: modernity, computer, Internet, online, games, health, applications, communication, addiction, interests, depression, finances, time, control.

Annotation: In this article, the author covers the use of modern information technologies, computers and the Internet, as well as the impact of online computer games on human health. The author's conclusion on this issue is also provided.

Bugungi kunimizni zamonaviy axborot texnologiyalari, shu jumladan, kompyuter va internetsiz tasavvur qila olmaydigan bo‘lib qoldik. Chunki biz kompyuter va internet orqali:

– bilimlarga ega bo‘lamiz: ma’lumot qidiramiz, kerakli axborotlarni olamiz;

– o‘zimizni qiziqtirgan mavzu bo‘yicha dunyoning turli qit’alaridagi mavjud materiallarni topib, tahlil qilish imkoniga ega bo‘lamiz;

– turli dastur va ilovalardan foydalangan holda o‘z-o‘zimizni nazorat qilish, salomatligimizga e’tibor qaratishni o‘rganamiz;

– do‘stlar, hamkasblar, mamlakat tashqarisidagi tanishlar bilan muloqot qilamiz, axborot almashinamiz;

– ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy sahifamiz orqali o‘zimizni namoyish qilamiz.

Hozirda butun dunyoni o‘ylantirayotgan masala – bu insonlarning kompyuter o‘yinlariga, ayniqsa, onlayn o‘yinlarga tobe bo‘lib qolayotganliklari muammosi bo‘lmoqda. “Kompyuter o‘yinlari u yoki bu sohada ish qobiliyatini va chidamliligini rivojlantirish uchun foydali manba hisoblanadi. *Birinchidan,* ular ijro etuvchi faoliyatni yaxshilashga ko‘maklashadilar. Ijro etuvchi faoliyat deganda insonning aqliy resurslari (idroki, e’tibori, xotirasi kabilar) ni muammolarni tez va

samarali hal qilish yoki qaror qabul qilishga imkon beradigan tarzda taqsimlash qobiliyati tushuniladi. Ko‘pgina tajribalar videoo‘yinlarning ijro etuvchi faoliyatga ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. *Ikkinchidan,* bir vaqtning o‘zida ko‘plab vazifalarda ishtirok etish qobiliyatining yaxshilanishi faol va muvaffaqiyatli inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, bu ham kompyuter o‘yinlarining xizmatidir. *Uchinchidan,* kompyuter o‘yinlari borliqda o‘zaro muvofiqlashtirishni yaxshilaydi” [6].

Shu o‘rinda shaxsning kompyuterga erta oshno bo‘lishini salbiy oqibatlariga to‘xtalamiz:

1. ***Ijtimoiy-psixologik aspektda:***

a) *Asab tizimidagi buzilish.* “Noto‘g‘ri” kompyuter o‘yiinlarini tanlash bolaning psixikasida jiddiy buzilishlarga olib kelishi, ya’ni tajovuzkorlik yoki darg‘azablikning yuzaga chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bolalar sershovqin, o‘ta asabiylashuvchan va boshqarib bo‘lmaydigan holatda bo‘lib qoladilar. E’tibor qilinga, kompyuter o‘yinlarining ko‘pida kimnidir o‘ldirish, nimanidir o‘g‘irlash, kimnidir kaltaklash kabi syujetlar bo‘lib, bu syujetning yechimi bolalarni o‘ziga jalb qiladi.

b) *Tortinchoqlik, internet-tobelik.* Bola hali alifboni o‘zlashtirmay, tengdoshlari bilan bekinmachog‘u, quvlashmachoq o‘ynab ulgarmay turib, qo‘l telefoni-yu, kompyuter ekraniga muhrlanib qolyapti. Agar siz farzandingizning yanada ko‘proq vaqtini televizor, kompyuter oldida o‘tkazishga harakat qilayotganini, tengdoshlari bilan hech qanday muloqotga intilmayotganini sezsangiz, unda internet- yoki kompyuter-tobelik namoyon bo‘layotganidan darak bo‘lishi mumkin. Chunki tobe bolalarning aksariyati real odamlarga qaraganda elektron do‘sti bilan muloqotni afzal ko‘radilar. Bu holat yengil asabiylik, odamovilik va kelajakda ijtimoiy moslashuvdagi muammolarga olib keladi.

2. ***Tibbiy aspektda:***

a) *qomatning buzilishi.* Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra skolioz bilan azoblanuvchi 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar soni oxirgi yillarda 16 martaga ortdi. Bu kasallik sabablari orasida kompyuter ortida uzoq muddat o‘tirishni ham ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, osteoxondroz, gemorroy kabi kasalliklar ham uzoq vaqt bitta pozada harakatsiz o‘tirish oqibatlari hisoblanadi;

b) inson doimiy ravishda axborotlar almashinuviga muxtoj va uni olishda asosiy vosita – ko‘rish qobiliyatidir, demak, olinajak axborotlarning 80 foizi ko‘rish organlari orqali bo‘ladi. stol atrofida noto‘g‘ri o‘tirish esa *ko‘rishning yomonlashishi*ga sabab bo‘ladi;

v) har bir organning o‘z vazifasi bo‘lgani kabi ularning rivojlanishida muayyan ta’sirlar rol o‘ynaydi. Bolalarning sho‘x, o‘ynoqi faoliyati bu organlarning me’yorda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan harakatli faollikning pasayishi *vaznning oshishi*ga ham olib keladi;

g) doimiy ravishda kompyuter oldida o‘tiruvchilarning immun tizimiga zarar yetishi oqibatida *immunitetning susayishi* kelib chiqadi;

d) tabiiyki, immun tizimining shikastlanishi turli *allergik reaksiya*larga sabab bo‘ladi.



Biroq ijobiy jihatlar bilan bir qatorda milliy xavfsizlik va millatning psixik salomatligiga jiddiy tahdid soluvchi addiktiv (lot. tilidagi addictus – tobe, nimagadir o‘ta ishqiboz, to‘liq sadoqatli, qaram, erkinligidan mahrum) axloqqa ega bo‘lgan shaxslar sonining ortishiga sabab bo‘ladi [2, 3].

Xulq-atvorning ijtimoiy xavfli addiktiv shakllaridan biri bu – shaxsning psixopatologik o‘zgarishini rivojlantirish bilan shartlangan va ijtimoiy xulq-atvor normalarining buzilishiga, huquqbuzarliklarga, o‘z joniga qasd qilishga olib keladigan kompyuter o‘yinlariga qaramlik hisoblanadi [1]. Kompyuter o‘yinlariga tobelikda shaxsdagi ijtimoiy-psixologik ustanovkalarning buzilishi ijtimoiy xulq-atvorning buzilishiga, shaxslararo va shaxsning ichki nizolariga, insonni asotsial va jinoiy xatti-harakatlarga jalb qilinishiga olib keladi [4, 5].

Kompyuter o‘yinlariga tobelik, xoh u kompyuter yoki o‘yin avtomatlaridan nari ketmaydigan, kunlik xarajatlari uchun ota-onasi bergan bor pulini sarflaydigan o‘smir bo‘lsin, xoh u kazinoda kunini o‘tkazadigan, har qanday odamga o‘zi bilan olib yurish hatto xayoliga kelmaydigan pul miqdorini qoldiradigan katta yoshli inson bo‘lsin, har doim haqiqiy muammo bo‘ladi.

Kompyuter o‘yinlariga bog‘lanib qolgan odamni o‘yindan chalg‘itish qiyin, u odamovi bo‘lib qoladi, uning muloqot va qiziqishlari doirasi torayadi, unda psixik buzilishlar boshlanadi. Chunki dastlab o‘yin vositasida o‘yinchi kuchi ortib borayotganini his qilsa va unda har qanday raqibni mag‘lub eta oladigan aldamchi tuyg‘u yuzaga kelsa, keyinchalik bu holat unda kuchning pasayishiga va ko‘pincha depressiyaga aylanadi.

Kompyuter o‘yinlari ishqibozlarining o‘ziga kelsak, aksariyat hollarda kasallik psixik kasalliklarga moyil bo‘lganlarda va shaxsiyat rivojlanishining anomalligi bo‘lgan odamlarda, ya’ni insonda ko‘pchilik uchun xos bo‘lmagan

tug‘ma fazilatlar mavjud bo‘lganda, masalan, u haddan tashqari uyatchan yoki haddan tashqari jizzaki bo‘lganida yuzaga keladi.

Kompyuter o‘yinlari, ayniqsa, onlayn qimor o‘yinlariga tobe bo‘lib qolganlarni darhol tanish oson emas. Chunki bu hayotda ko‘p narsalarga erishgan, muvaffaqiyatli, maqsadli, hatto taniqli inson bo‘lishi mumkin. Kundalik hayotda boshqarishga odatlangan rahbarlar buzish taqiqlangan aniq qoidalar mavjud bo‘lgan o‘yindan haqiqiy zavq oladilar. Ammo o‘yin virtual bo‘lgani bois odam bo‘shashadi va bu qoidalarga bo‘ysunadi. O‘yin jarayoni bolalar va kattalar uchun qiziqarli va o‘ziga chulg‘ab oladi. Yoshga bog‘liq bo‘lmagan bir xil insoniy jarayonlar boshlanadi. G‘alaba o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni uyg‘otadi va darhol omadga erishish mumkindek tuyula boshlaydi. Mag‘lubiyatdan o‘kinch g‘azablanish hissini tug‘diradi. O‘yinchilar har qanday holatda ham keyinga qoldirmasdan g‘alaba qozonishni xohlashadi.

Onlayn qimor o‘yinlariga tez qiziqib ketadigan, mag‘lub bo‘lishni bilmaydigan odamlar moyil bo‘ladilar.

Psixiatrlarning ta’kidlashicha, onlayn qimor o‘yinlariga juda qisqa vaqt – atigi 2-3 hafta ichida ruju qo‘yish mumkin. Ammo virtual makondan chiqib olish juda tez kechmaydi va faqat sanoqli odamlargina buni uddalaydilar. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik psixiatrlar va jurnalistlar tomonidan o‘ylab topilgan kasallik emas, balki jiddiy psixik kasallikdir. Kasalliklarning xalqaro tasnifiga ko‘ra, uning asosiy belgisi – bu qimor o‘yinlarida muntazam ravishda takrorlanuvchi ishtirok etishdir. Shu bilan birga, odam ijtimoiy oqibat (qashshoqlik, do‘stona va oilaviy o‘zaro munosabatlarning buzilishi, shaxsiyatning tanazzulga uchrashi va boshqa) larga qaramay, o‘ynashni davom ettiradi.

Bu holatning xavotirli joyi shundaki, ko‘pincha o‘yinchi istalgan vaqtda onlayn qimor o‘yinlaridan voz kechib, o‘zini to‘xtatishga qodir, deb hisoblaydi. Ammo aslida o‘yinga bo‘lgan ishtiyoq shunchalik chidab bo‘lmas darajada yuqoriki, ba’zilar hatto o‘yin uchun pul topish maqsadida jinoyat sodir etishlari mumkin. Qimorga qaramlikning oqibatlari juda achinarli bo‘lishi mumkin: odamlar o‘zlarining axloqiy va moliyaviy tanazzuliga dosh berolmay, o‘z joniga qasd qilishadi.

Onlayn qimor o‘yinlariga berilishning bir qator sabablari bor, jumladan:

1. Yolg‘izlik tuyg‘usi odamni birinchi marta o‘yinga murojaat qilishga majbur qiladi, o‘yin davomida olingan taassurotlar hamda his-tuyg‘ular esa ularni o‘yinga takror va takror qaytishga undaydi.

2. Hayotdagi o‘z o‘rnidan, ijtimoiy maqomidan qanoatlanmaslik hissi. Haqiqiy hayotda o‘zidan qanoat hosil qilmagan odam turli o‘yinlarda haqiqiy hayotga qaraganda g‘olib bo‘lish orqali o‘zini ifoda etishga intiladi.

3. Onlayn qimor o‘yinlari, kazino va boshqalar vositasida oson boylik orttirish tuyg‘usi. Bir marta g‘alaba qozongan va shu qadar oson qo‘lga kiritilgan pulga ega bo‘lishdan adrenalin oqimini his qilgan odam ko‘pincha muvaffaqiyatsiz bo‘ladigan o‘yindagi muvaffaqiyatini takrorlashga harakat qiladi.

4. Har xil turdagi tobeliklarga oson berilish. Onlayn qimor o‘yinlariga boshqa har qanday tobeligi bo‘lgan, giyohvandlik moddalari, spirtli ichimliklarga qaram odamlar uchun xavfli hisoblanadi.

5. Turli darajadagi psixik buzilishlar va tavsifnomalar. Bir paytlar psixik kasalliklardan davolangan odamlar ham onlayn kompyuter qimor o‘yinlariga qaramlikkka moyil bo‘ladilar. Ularning qimor o‘yinlariga berilishining yuqori darajasi aniqlangan, buning natijasida qimorga qaramlik yuzaga keladi.

Ba’zi olimlar bunga miya faoliyatidagi o‘zgarishlar aybdor, deb hisoblashadi.

Kompyuterda onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik salomatlik uchun jiddiy tahdid ham hisoblanadi. Inson g‘alaba qozonishi yoki mag‘lubiyatga uchrashidan qat’i nazar bunday o‘yinlar juda stressli. Chunki u hamisha go‘yoki “murvati burab qo‘yilgan” soat kabi umr kechiradi.

Uning tanasida organik reaksiyalar sodir bo‘ladi, ya’ni tomirlar torayadi (shu jumladan, bosh miyada ham); yurak urishining tezligi ortadi; qon bosimi oshadi; endokrin bezlar qonga gormonlarning qattiq zarba beradigan dozalarini chiqargancha faolroq ishlay boshlaydi, bu esa, o‘z navbatida, turli kasalliklarga olib keladi.

Kompyuterda onlayn qimor o‘yinlariga qaram bo‘lganlarda quyidagi alomatlar kuzatiladi:

- qo‘zg‘aluvchanlikning oshishi;
- haddan tashqari asabiylashish;
- jizzakilik; asossiz g‘azablanish;
- odamlarga va atrofdagi narsalarga loqaydlik;
- o‘z-o‘zini nazorat qilishga layoqatsizlik (g‘alaba qozonganidan keyin bo‘lganiday, uzluksiz mag‘lubiyatlardan keyin ham o‘ynashni to‘xtatishga qodir bo‘lmaslik);
- o‘yindan tashqari hayotga qiziqishning susayib ketishi;
- o‘yin o‘ynashga sarflangan vaqt miqdorining doimiy ravishda oshirilishi;
- o‘ynash uchun hech qanday imkoniyat bo‘lmaganida, o‘zini qo‘yarga joy topa olmaslik;
- o‘yinga qayta-qayta qaytishga bo‘lgan yengib bo‘lmas istakning mavjudligi;
- o‘yinni qayta boshlash vasvasasiga qarshi turish qobiliyatining tezkor sur’atda pasayishi.

Hatto hech bir jismoniy kasalligi bo‘lmagan bunday odamda onlayn qimor o‘yinlariga tobelik natijasida: asabiy-psixik buzilishlar; qon bosimining ko‘tarilishi; yurak qon-tomir kasalliklari va boshqa kasalliklar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori.

Geymerlar kompyuterdagi har qanday onlayn o‘yin ermak, ovunchoq, sevimli mashg‘ulot va yoqimli dam olish variantlaridan biri ekanligini tushunishlari kerak. Jiddiy muammolarni oldini olish uchun har bir foydalanuvchiga quyidagi qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- ✓ o‘yin vaqtini belgilang;
- ✓ moliyaviy chegaralarni aniqlang va hech qanday holatda ulardan oshmang;
- ✓ o‘yin hayotda asosiy ustuvorlikka aylanmasligi kerak;
- ✓ mag‘lubiyatga uchradingizmi, tanaffus qiling va o‘zingizni chalg‘iting;
- ✓ yaqinlaringizdan yordam so‘rashdan qo‘rqmang.

Ushbu oddiy, amaliy qoidalarga rioya qilish ko‘plab qiyinchiliklardan qochishga yordam beradi, shu jumladan, faqat bir necha odamlargina malakali tibbiy yordamisiz yengishga qodir ludomaniya (grek tilida ludo – o‘ynayman, maniya – ishtiyoq) kabi jiddiy patologik holatning rivojlanishining oldini oladi.

Inson o‘z aqli bilan ish tutadigan mavjudot sifatida o‘zining har qanday xatti-harakatini boshqara olishini inobatga olsak, xulosa o‘rnida aytish mumkinki, insondagi har qanday og‘ish – u turli darajadagi tobelik bo‘ladimi, fe’l-atvordagi o‘zgarish bo‘ladimi – o‘z vaqtida mutaxassisga murojaat qilish natijasida samaraga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асмолов А.Г., Светкова Ҳ.А., Светков А.Б. Психологическая модел интернет-зависимости личности. // Ж.: Мир психологии, 2004. № 1. С. 179-192.
2. Григорев Г.И. Духовно ориентированная психотерапия патологических зависимосте. / Под ред. Г.И. Григорева. – СПб.: ИИС ВМедА, 2008. - 504 с.
3. Зайцев В.В., Евдокимов В.И. Патологическая склонность к азартным играм: методология, распространенност, диагностика и лечение. // Мед.-биол. и сос.-психол. пробл. безопасности в чрезв. ситуатциях, 2008. № 2. С. 67-74.
4. Евдокимов В.И., Зайцев В.В. Научно-методические аспекты развития и лечения патологической зависимости от азартных игр. // Вестник психотерапии, 2007. № 25 (30). С. 18-25.
5. Карвасарский Б.Д. Психотерапевтическая энциклопедия. / Под ред. Б.Д. Карвасарского. 3-е изд. перер. и доп. – СПб.: Питер, 2006. 944 с.
6. Секенева Б.Б. Влияние компьютерных игр на психологию человека Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # 32, 2016. Психологические науки. //

https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-kompyuternyh-igr-na-psihologiyu-cheloveka-1. /
Murojaat sanasi: 17.04.2024.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARBIY XIZMATNI O‘TASHNING XUQUQIY ASOSLARI

Yangiboyev Oxunjon Sharifboy o‘g‘li
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti magistratura tinglovchisi

O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmat o‘tash mavzusi bo‘yicha o‘rganiluvchi obyekt harbiy xizmtchilar bo‘lsa, faoliyatimizning asosiy markazida turuvchi predmeti harbiy xizmtchilarning axloqiy ruhiy holati va faoliyatga bo‘lgan ijtimoiy qarashlaridir. Biz murojat qilayotgan kasbga moslashtirish masalasida hozirgi aksariyat yoshlar yangi sharoitga qiyinchiliklarsiz moslashish imkonini beradigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishning yuqori mezonlariga mos kelmaydi. Shundan kelib chiqib, bo‘linma ofitseriga me’yorlarga muvofiq shaxsning boshlang‘ich sifat va imkoniyatlarini rivojlantirishning yo‘llarini hisobga olgan holda moslashish jarayonini amalga oshirishning optimal usullarini qidirish vazifasi yuklanadi.

Har qanday ijtimoiy faoliyatning ishonchliligi va ma’suliyat yukining og‘irlgi huquqiy asosning qanchalik ahamiyat kasb etishiga bog‘liq hisoblanib, mavzuning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini tanlashda mezon vazifasini bajaradi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Yangilangan Konstitutsiyasining 64-moddasida, “…O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqorosining burchidir. Fuqorolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘taydilar”;

O‘zbekiston Respublikasi Yangilangan Konstitusiyasining XXVI “Mudofaa va Xavfsizlik” bobining 125-moddasida “…O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlar tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi” hamda 126-moddasida “…O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega” ekanligini belgilanganligi bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqorolariga konstitutsiyaviy majburiyatlarni yuklaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunining 3-moddasida “…Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo‘ladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) safini to‘ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta’minlash maqsadida joriy etiladi. Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat o‘tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro‘yxatdan o‘tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo‘lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi” deb belgilangan.

Ushbu Qonunning yana bir jihatiga ahamiyat qaratilsa, O‘zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolari,

— harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar — chaqiriluvchilar;

— haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar — harbiy xizmatchilar;

— qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxirasidagi shaxslar — harbiy xizmatga majburlar;

Shuningdek, turli sabablarga ko‘ra harbiy ro‘yxatga olinmagan yoki harbiy ro‘yxatdan chiqarilgan, shu jumladan iste’fodagi shaxslar — harbiy xizmatga majbur bo‘lmagan shaxslar deb ataladi. Haqiqiy harbiy xizmat chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir.

Umumiy harbiy majburiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Harbiy xizmatchi sifatida kasbiy faoliyatga kirishgunga qadar kursantlik davridan motivatsion tarbiyaviy harakarlar amalga oshirilib, bo‘lajak ofitserlarda ham kasbga hurmat, kasbga sadoqat, vatanga muhabbat hissini uyg‘otish maqsadida qabul qilinadiga harbiy qasamiyodni keltirib o‘tishimiz joiz bo‘ladi. Har bir harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo‘yicha) kirgan fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i oldida quyidagi mazmunda Vatanga qasamyod qabul qiladilar:

“Men, (familiyasi, ismi, otasining ismi), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, davlatim timsoli bo‘lmish muqaddas bayroqni o‘pib, buyuk ajdodlarimning pok ruhlari oldida, vatanim oldidagi burchimni halol bajarishga bel bog‘lab, vijdonim, or-nomus va sha’nimni o‘rtaga qo‘yib:

O‘zbekiston Respublikasiga, xalqimga va Prezidentimga bir umr sodiq bo‘lishga, Vatanimning mustaqilligini, uning sarhadlarini, ona xalqimning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarini so‘nggi nafasimgacha himoya qilishga, O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz va g‘arazli harakatlarga qarshi ayovsiz kurashishga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlari va umumharbiy nizomlarga qat’iy amal qilishga, davlat va harbiy sirlarni saqlashga, Quruqlikda, suvda, havoda — har qanday sharoitda ham o‘z burchimni vijdonan bajarishga, Har qanday mashaqqatli sinov va qiyinchiliklarda ham el-yurtimning yuksak ishonchini oqlashga tantanali ravishda qasamyod qilaman!”.

Muqaddam Vatanga qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatga majburlar harbiy yig‘inlarga jalb etilganlarida yoki safarbarlik bo‘yicha chaqirilganlarida Vatanga qasamyod qabul qiladilar. Vatanga qasamyod qabul qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shu kabi boshqa organlariga xizmatga kirish taqiqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining P/Q 4447 sonli qarori. 18.08.2018
3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umum harbiy nizomllari. Ichki xizmat nizomi. PF-1571-son 09.10.1996

PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARASI

Saburov Alisher Ikramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xafvsizligi universiteti magistratura tinglovchisi mayor

So‘ngi davrda yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlashda yangi mexanizmlarni joriy etish, ertangi kunga ishonch bilan qarash va ichki ishlar organlari tizimiga xalqning ishonchini oshirish bilan birga “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyiliga rioya qilgan holda keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Natijada kadrlarni tanlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda ularning kasbiy-malakaviy bilimlarini oshirish, huquqbuzarliklarni oldini olish, jamoat

tartibini saqlash, fuqarolarning xuquq va erkinliklarini himoya qilish borasida yangi to‘laqonli tizim shakllandi.

Xodimlarning xizmat jarayoni yuqori zo‘riqishlar, stressli vaziyatlar va o‘z xayotini xavf ostiga qoldirish bilan bog‘liq. Shuning uchun ichki ishlar organlari tizimida psixologiya fanining yutuqlaridan va ilg‘or yangiliklaridan foydalangan holda, shaxsiy tarkibning belgilangan vazifalarini bajarishlarida ijobiy natijalar ko‘rsatishi muhimdir albatta.

Shaxsiy tarkibning o‘z xizmat vazifalarini to‘laqonli va sifatli bajarishlari uchun, turli stress va qaltis vaziyatlarda o‘zlarini to‘g‘ri boshqara olishlari va adekvat qaror qabul qilishlari uchun muntazam ravishda mutaxassis-psixologlar ishtirokida o‘quv psixologik treninglar tashkillashtirib kelinmoqda.

Bu esa o‘z navbatida shaxsiy tarkibning axlohiy-psixologik tayyorgarligini oshirishidagi ahamiyati yuqori ekanligini bildirib, xodimning avvalambor axloqiy-ruhiy tayyorgarligini, irodasi baquvvatligini va turli stressli vaziyatlarga barqarorligini ta’minlaydi.

Shu sababdan 2010 yildan boshlab ichki ishlar organlari tizimida psixologik ta’minlash guruhlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, uning oldiga shaxsiy tarkibning ruhiy tayyorgarligini oshirish, xodimlarning ruhiy salomatligini muhofaza qilish va favqulodda hodisalarni oldini olish asosiy vazifasi etib belgilangan.

Psixologik xizmat deganda xodimlarni ichki ishlar organlari tizimiga xizmatga kirishdan to nafaqaga chiqgunga qadar bosib o‘tgan umrini psixologik tomonidan kuzatib, uni qo‘llab-quvvatlab borish, yosh xodimni xizmatga moslashish jarayoniga ko‘maklashishdan tortib, uning rahbar bo‘lib yetishishi, kasbiy o‘sishi va turli qaltis vaziyatlarda o‘zini boshqara olishi va sarosimaga tushmagan holda to‘g‘ri qaror qabul qilishi tushuniladi.

Har bir shaxs individual bo‘lib, uning ichki ishlar organlari tizimiga moslashishi, o‘zini tizimda namoyon qilishi uning asab tizimiga, temperamenti, xarakteri va individual-psixologik hususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun har bir xodimga individual yondashgan holda, uning ichki potensialini yuzaga chiqarish va uning kuchli tomonlarini namoyon qilish va rivojlantirish ham psixologiya xizmatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, mutaxassis-psixologlar tomonidan ichki ishlar organlari va ta’lim muassasalariga nomzodlarni tanlashda ularning kasbiy layoqati, rahbarlik lavozimlariga tayinlanayotgan xodimlarning qobiliyatlari hamda lavozimdan lavozimga o‘tayotgan xodimlarning kasbiy xususiyatlari chuqur o‘rganilishi nazoratga olinib, xodimlarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, turli ruhiy zo‘riqish holatlarining oldini olish maqsadida joylarda «Ruhiy yengillashtirish xonalari»ning jihozlanishi zamonaviy talablar asosida

takomillashtirilib borilib, jinoyatchi shaxslar bilan psixofiziologik moslama poligraf (yolg‘on-detektori)dan foydalangan holda so‘rovlar o‘tkazish faoliyatda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Ijobiy va sog‘lom shakllangan ma’naviy-ruhiy muhit ichki ishlar organlarida xodimlarning a’lo darajada va to‘laqonli ravishda xizmat olib borishlarida eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ma’naviy-ruhiy muhitni muntazam ravishda tahlil qilib, sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab borish shaxsiy tarkibning ijtimoiy rivojlanishi va uning psixologik resurslarini yanada to‘liq yuksaltirishiga qaratilgan omillardan biridir.

Ma’naviy-ruhiy muhit ostida jamoa a’zolarining individual, shaxsiy qadriyatlar va yo‘nalishlar asosida o‘zaro bir-biriga, faoliyatga, atrofdagi voqealarga va umuman tizimga bo‘lgan munosabatlari tushuniladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyatining asosiy qismi jamoa muhitida amalga oshiriladi. Xodimlar uchun muloqot hamda o‘zaro munosabat muhim bo‘lsa, rahbar xodimlar uchun esa yuqori sifatda tashkil etilgan jamoada xizmat olib borish axamiyatlidir. Ammo ushbu jamoani shakllantirish uchun rahbarlardan iroda va malaka talab etiladi.

Shuning uchun jamoaning axloqiy muhitini shakllantirishning dastlabki bosqichida ijobiy va salbiy omillarni aniqlab olish lozim. Avvalo, rahbar xodim to‘g‘ri axloqiy muhitni saqlab qolishi va shaxsiy tarkibning ma’naviy va psixologik muvofiqligini ta’minlashi uchun ba’zi omillar va odatlarni ishlab chiqishi va jamoga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatuvchi muammolarni bartaraf etishi kerak.

Ma’naviy-ruhiy muhit jamoalardagi shaxslararo munosabatlarda, ya’ni xodim-xodim, rahbar-xodim munosabatlarida, o‘zaro hurmat, ishonch, shaxsiy tarkib o‘rtasidagi hamjihatlik, bog‘liqlik va yakdil mehnat qilishda ifodalanadi.

Ma’naviy-ruhiy muhitni yaxshilash borasida bir qator ishlar amalga oshirilishi lozim, bular:

1) mehnat sharoitlarini yaxshilash: muayyan ish joyni tahlil qilish;

2) ish va dam olish kunlarini taqsimlash, ma’naviy va moddiy imtiyozlarni tashkil etish;

3) jamoa a’zosi sifatida faoliyat yuritish. Inson yakka yashashga va faoliyat yuritishga qodir emas, u o‘zgalarni yaqinlaridek his qilishi kerak; garchi shaxs jamoada o‘zini yaqinlari bilan ishlagandek his etsa, unda intilish tobora oshib boradi;

4) jamoaning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini yaxshilash;

5) xizmat joyda qulay dizaynni yaratish: bo‘yoqlar gammasi va yoqimli atrof muhit samarali faoliyat yuritishda muhim o‘rin egallaydi;

6) har bir xodimga bir dek muomala qilish, ularni eshita bilish va dalda bo‘la olish;

Shunday ekan, agarda jamoadagi xodimlarning manfaatlari, eriknliklari va huquqlari inobatga olinmasa, o‘zaro ishonch va hurmat bo‘lmasa, xodimlar xizmat qilishi uchun yomon shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, shuningdek jamoada yoshga, jinsga, irqqa ajratishlar bo‘lsa ushbu xizmat jamoasida nosog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit hukm suradi.

Rahbar xodim jamoada salbiy ta’sirni kamaytirish yoki oldini olish uchun ish samaradorligini tushurmagan holda quyidagi tavsiyalarga e’tibor qaratishi lozim:

1) tez-tez xodimlarning qobiliyatlarini baholab, qobiliyat darajasi aniqligi va xodimlarning moyilligi haqida fikr yuritish;

2) xodimlar o‘rtasida xizmat vazifa hamda mas’uliyatni aniq taqqoslash;

3) qo‘l ostidagi xodimlarga ishonch bildirish va qo‘llab quvvatlash;

4) xodimning faoliyatida uchraydigan kamchiliklarda birinchi navbatda uning shaxsiga xos xususiyatlariga emas, balki vaziyatga baho berish;

5) qo‘l ostidagi xodimlar bilan murosaga kelish, yon bosish va uzr so‘rash kabi ishonchli aloqalar o‘rnatish;

6) garchi kimnidir tanqid qilish lozim bo‘lsa, konstruktiv va axloqiy tanqid qoidalarini yodda tutish;

7) muntazam ravishda xodimlarda to‘plangan stressni bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risida qayg‘urish (ehtiyoj tug‘ilganda mutaxassis-psixologga yo‘llash);

Yana shuni yoddam tutish kerakki, jamoaning ma’naviy-ruhiy muhitiga qarab, tizim o‘z oldiga qo‘ygan yutuqlariga erishishi mumkin.

Ba’zan ayrim xodimlar xizmat rahbarini talab va topshiriqlarini noto‘g‘ri talqin etishi yoki rahbarga nisbatan shaxsiy adovati sabab, boshqa xodimlarni ham rahbarga qarshi qo‘yishga harakat qiladi. Rahbarni majlis yoki xizmat oldi yo‘riqnomalaridagi haqli e’tirozlarini bo‘rttirib, “ma’naviyati past, qo‘pol” rahbar sifatida shaxsiy tarkib orasida targ‘ibot-tashviqot qilib, sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhitga ta’sir etishi kuzatiladi.

Rahbar qaysidir xodimga e’tiroz bildirsa yoki uni tanqid qilsa, shu jamoaning ma’naviy-ruhiy muhiti buziladimi? Yo‘q albatta, bir xodimga qilingan e’tiroz yoki tanqid natijasida butun boshli jamoadagi sog‘lom muhit o‘zgarib qolmaydi, bu xato tushuncha hisoblanadi.

Ko‘p hollarda, rahbar tomonidan yoshi katta xodim rag‘batlantirilsa yoki mukofotlantirilsa bu yoshi kichiklar tomonidan ijobiy qabul qilinadi, ammo aksincha yoshi katta xodim qolib, yoshi kichik xodim mukofotlantirilsa yoki rag‘batlantirilsa unda bu yoshi katta xodimlar tomonidan salbiy qabul qilinadi. Ushbu jihat rahbar tomonidan anglangan holda shaxsiy tarkibga mukofot va rag‘batga xodimlar o‘z xizmat vazifalarini sidqidildan, mas’uliyat bilan ado

etishlari natijasida erishishi mumkinligi muntazam ravishda yetkazib borilishi lozim.

Har bir xodim anonim so‘rovnoma shaxsan psixolog-mutaxassis tomonidan tahlil qilinishi va ushbu anonim so‘rovnomaning asosiy maqsadi ushbu muhitni yaxshilashga qaratilishini yodda tutishi kerak. Ayrim xodimlar, sog‘lom muhit yaratish uchun xizmat rahbarini almashtirish kerak deb hisoblashadi. Biroq, rahbarni o‘rniga boshqa rahbar kelgani bilan birdaniga jamoa muhiti o‘zgarib qolmaydi. Jamoadagi sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhitni shakllantirish uchun avvalo, o‘zimizning ya’ni shaxsiy tarkibning ongi o‘zgarishi kerak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G‘oziev Umumiy psixologiya. 2011
2. Большая психологическая энциклопедия. – М., 2007
3. Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения. – М., 2001
4. Каменская А.И., Радченко А.Ф. Современная психотерапия и лечение зависимостей // Методы современной психотерапии: Учебное пособие. – М., 2001
5. Короленко Ц.П., Донских А.П. Семь путей к катастрофе. Деструктивное поведение в современном мире. – Новосибирск: Наука, 1990
6. Завьялов В. Ю. Психологические аспекты формирования алкогольной зависимости. – Новосибирск: Наука, 1988

SHAXS RIVOJLANISHINING INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARI

Raximov Alisher Farxadovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, katta leytenant

Xarakter – shaxs individual xususiyati sifatida. Har bir odam har qanday boshqa odamdan o‘zining individual-psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu yerda gap xarakter haqida boradi. «Xarakter» so‘zi aynan tarjima qilinganda grekchadan «tamg‘a» degan ma’noni anglatadi. Lekin har qanday individual xususiyatlar ham xarakter bo‘la olmaydi. Masalan, ko‘rish va eshitishning o‘tkirligi, tez esda olib qolish bu xarakter emas.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo‘ladigan, tipik sharoitlarda ko‘rinadigan va bu sharoitlarda shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual-psixologik xususiyatlar yig‘indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo‘lishi har bir tipik vaziyat

hissiy kechinmalarining individual o‘ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog‘liq. Ikkinchi tomondan, har bir tipik vaziyatdagi harakat sifatlari va individual o‘ziga xos usullari shaxs munosabatlariga bog‘liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy hislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta’siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga) o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz.

Xarakterning juda ko‘p hislatlari odamning ish-harakatlarini belgilovchi chuqur va faol mayllar hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo‘ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko‘pincha ob’ektiv sharoitga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo‘llaydi. Ayrim odamlar bilib turib qiyin vazifani tanlaydilar, ayrimlar aksincha.

Xarakter qarshilik ko‘rsatuvchi sharoitlar bilan kurashda sinaladi. Xarakterni tarbiyalash barkamol avlodni tarbiyalashning markaziy va muhim vazifalaridan biridir. Qat’iyatlilik tanqidiy qarash, fahm-farosat, qo‘zg‘atuvchanlik, xushfe’llik singari hislatlari-intellektual (aqliy), quvnoqlik, mexribonlik-hissiy-irodaviy xususiyatlarga kiradi.

Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xarakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat. Xarakter xislatlari shaxsnint qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo‘lganlari tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual xayot jarayonida asab tizimining o‘zgargan xususiyatlaridan iborat. Hayvon asab faoliyatining tug‘ma konstitutsion turi genotip. Lekin hayvon tug‘ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g‘oyat xilma-xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali u muqarrar javob berishi lozim bo‘ladiki, ko‘pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun xayoti bo‘yicha saqlanib qoladi. »

Dinamik stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo‘lib olgan xususiyatlarining, jumladan, xarakter xislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir. Xarakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun I.P. Pavlovning ikkinchi signal tizimi haqidagi ta’limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nutq na tafakkurning fiziologik asosi bo‘lish bilan birga, kishi xulqini idora qiladi. Xarakterning fiziologik asosi xarakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlari, chunonchi, ijtimoiy maslak "mardlik, o‘z burchiga sadoqatli bo‘lishlarini o‘z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta xarakter psixologiyasining mazmuni o‘zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir: psixologiya xarakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritishligi tufayli, u ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko‘rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U.Sheldon, E.Fromm, K.Leongard va A.E.Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etildi. Inson xarakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g‘oyalarga muvofiq tarzda tashkil etilgan:

1. Inson xarakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida juda erta namoyon bo‘la boshlaydi va butun hayoti davomida barqaror bo‘lib boradi.

2. Xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushma emas. Ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3. Mazkur tipologiyaga ko‘ra, ko‘pchilik kishilarni ma’lum guruhlarga birlashtirish mumkin.

E. Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitutsiyasiga ko‘ra, eng ko‘p uchraydigan uchta tipni ajratib ko‘rsatgan (astenik, atletik, piknik).Ularning har birini shaxsning ma’lum xarakter tiplari bilan bog‘langan bo‘lsa ham aslida hech qanday ilmiy asoslar bo‘lmagan.

1. Astenik tip Krechmer fikricha, uncha katta bo‘lmagan gavda tuzilishi o‘rtacha yoki undan balandroq bo‘yli, oriq kishilardir. Asteniklarning tana va va yuz terisi nozik, yelkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

2. Atletik tip-skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o‘rtachadan yuqori, baland bo‘yli, keng yelkali, kuchli ko‘krak qafasli, boshini tik tutib yuradigan kishilardir.

3. Piknik tip-bosh, ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch-harakat a’zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

Krechmer mazkur tiplar bilan ayrim ruhiy kasalliklar o‘rtasida muvofiqlik bor, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, atletik va astenik tiplar shizofreniyaga moyilroq deb hisoblaydi.

Krechmer tipologiyasi hayotiy ko‘zatishlar asosida xulosalar chiqarish orqali tuzilgan bo‘lsa ham kamchiliklarga ega. Ba’zi ilmiy tadqiqotlar ma’lum tana tuzilishiga ega kishilar ruhiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xarakter aksentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

Nemis psixiatri K.Leongard fikricha, 20-50 % kishilarda ba’zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba’zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aksentuatsiyasi biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarining yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixologiya

darajasigacha bo‘lishi mumkin. O‘smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko‘p (50-80%) uchraydi. Uni turli psixodiagnostik testlar, masalan, shimshek testi orqali aniqlash mumkin.

To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Odam xarakterining tarkibi turli xususiyatlari tasodifiy yig‘indisidan iborat emas. Xarakterning ayrim xususiyatlari bir-biriga bogliq, biri-biriga tobe yaxlit organizmni hosil qiladi. Mana shuday yaxlit organizm xarakter tarkibi deb ataladi. Masalan, odamning takabbur va shuxratparastligini bilsak, uning ichiqora, qora ko‘ngilli deb, kamtarligini bilsak, ko‘ngilchan deb aytamiz.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to‘rtta tizimi farqlanadi.

1. Jamoa va ayrim olamlarga bo‘lgan munosabatlarini ifolalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va shu kabilar).

2. Mehnatga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas’uliyat yoki mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lish kabilar).

3. Narsalarga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo‘lish kabilar).

4. Odamning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafslilik, shuxratparastlik, mag‘rurlik, o‘zini qarata olish, kamgaplik kabilar).

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa juda ko‘p xususiyatlar ham mavjud: o‘ziga ishonish, o‘zbilarmonlik, o‘ziga bino quyish, maqtanchoqlik kabilar. Xarakterning hamma xususiyatlari bir-biri bilan bog‘liq, kishining xarakter nisbatan bir butundir.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni birmuncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda olamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi . Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga undash kuchi bilan tashqi sharoitlarga qarshilik ko‘rsatish darajasi bilan belgilanadi.

Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatlari xarakterning iroda bilan bog‘liq bo‘lgan hislatlaridir, bu sifatlar alohida ko‘rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, qat’iyat, sabr-toqat,

chidamlilik, dadillik, o‘zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, mas’uliyatni his qilish, o‘z-o‘zini tanqid ahloqiy hislatlarlir.

Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo‘lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi. Egizaklar temperament xususiyatlari jihatidan o‘xshasalar ham xarakter hislatlari bir-birilan farq qiladi. Xarakterning har xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog‘liqdir. Lekin shaxs munosabatlari o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Kishining xarakteri tug‘ma doimiy va o‘zgarmaydigan narsa emas. hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo‘y yoki yolg‘onchi, qo‘rqoq yoki jasur bo‘lib tug‘ilmaydi. Har bir odamning xarakteri temperamenti aslida, ijtimoiy muhit ta’siri bilan tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o‘z-o‘zini tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o‘zgarib boradi.Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bag‘liqdir.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakterining tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta’sir ko‘rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilarga va kattalarga o‘xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofida o‘zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklarga va jonivorlarga munosabatlarini ko‘rsatadilar.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o‘zlari bunday sifatlarga ega bo‘lishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G‘og‘iev Umumiy psixologiya 2011 .
2. Э.Фромм Анатомия человека 1973.
3. Э.Кречмер Строение тела и характер 1995.

FANLARNI O‘QITILISHINI TIZIMLI BOSHQARUVI ASOSIDA KURSANTNING HARBIY – KASBIY KOMPETENTLIKLARINI MUKAMMAL SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI.

Mirzaolimov Ahmadjon Qorajonovich

Axborot kommunikasiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti katta o‘qituvchisi . telefon raqam: 99-944-79-19.

Annotasiya: Mazkur maqolada oliy harbiyta'lim muassasasalarida Fanlarni o‘qitilishini tizimli boshqaruvi asosida kursantning harbiy – kasbiy kompetentliklarini mukammal shakllantirishning muhim omillari sifatida fanlar integrasiyasi va optimizasiyasini amalga oshirish yuzasidan fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so'zlar: integrasiya, optimizasiy, tizim, boshqaruv, ta'lim, jarayon.

Аннотация: В данной статье приведены результаты исследований по осуществлению интеграции и оптимизации дисциплин, как важнейших факторов совершенствования военно – профессиональной компетентности курсанта на основе системного управления преподаванием дисциплин в высших военно-учебных заведениях.

Ключевые слова: интеграция, оптимизация, система, управление, образование, процесс.

Abstract: This article presents considerations on the implementation of integration and optimization of disciplines as the most important factors in improving the military professional competence of a cadet based on the systematic management of teaching disciplines in higher military educational institutions.

Keywords: integration, optimization, system, management, education, process.

Kirish

Bugungi oliy harbiy ta'lim muassasalari oldida turgan yuksak vazifa bu – kursantni o‘zi tanlagan kasbini mukammal egasi, faoliyatini mohirona olib bora biladigan bo‘lg‘usi ofiser-mutahassis kadr sifatida tizimli o‘qitish va tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur vazifani uzluksiz tizimda amalga oshirishda esa, ta'lim elementlarini to‘liq ishlashi uchun ularni tizimli integrasiyasi va optimizasiyasini munosib yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Ta’lim jarayoni integratsiyasini muaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim omillaridan bu jarayondagi vertikal va gorizontal integral ulanishlardir. Harbiy ta’lim muassasasida bir vaqtning o‘zida gorizontal, ya’ni fanlararo va vertikal ravishda mutahassislar tayyorlash kesimida, o‘zlashtirish darajasiga taqsimlangan o‘quv guruhlari o‘rtasida integratsiyalashni amalga oshirish mumkin.



1-Rasm. Fan va mavzularni o‘zaro integratsiyasini amalga oshirish usullari.

Ta’lim jarayonini tizimlashtirishdan avval,ta’lim jarayoni davomida amalga oshiriladigan o‘quv materiallarini taqdim etilishini tizimlashtirish zarur. O‘quv jarayonini tizimlashtirish deyilganda, o‘quv ma’lumotlarini materialni tushunish va o‘zlashtirishni osonlashtiradigan mantiqiy tuzilishga aylantirish jarayonini anglash kerak. Tizimlashtirilgan material-bu tartibli bilimlar zanjiri bo‘lib, unda har bir bo‘g‘in boshqalar bilan o‘zaro bog‘langan va o‘z o‘rni va ma’nosiga ega bo‘lishi shart [1].

Tizimlashtirish tamoyillari bizga o‘quv materialidagi barcha nomutanosibliklar, o‘zaro mos kelmaslik darajalari anglab etishishga va bu orqali qonuniyatlarga mos keluvchi turg‘un tuzilmani yaratishga imkon beradi. Tizimlashtirishning asosiy tamoyillari sifatida, ichki aloqa, mantiqiy ketma-ketlik va yaxlitlikni ta’minlash jarayonlari sanaladi (1-rasm).

Ichki ulanish materialning har bir elementi qolgan elementlarga ulanishi kerakligini taxmin qiladi. Bu shuni anglatadiki, o‘quv materiali tasodifan emas, balki mavjud munosabatlar va bog‘liqliklarni hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Bunday shakllanish bo‘shliqlarni to‘ldirishga va o‘rganilayotgan mavzuning to‘liq tassurotni yaratishga imkon beradi [2-4]

Mantiqiy ketma-ketlik shuni anglatadiki, o‘quv materialidagi har bir yangi bilim, avvalgilariga asoslanadigan tarzda taqdim etilishi kerak. O‘quv materiali “oddiydan-murakkabga”, “noma’lumdan - ma’lumgacha” rivojlantirilishi kerak. Bu kursantga o‘tilgan o‘quv mavzu yaxlitligi va tushunchasini uzoq muddatli hotirada saqlash, shuningdek o‘rganilgan ma’lumotlarni chuqurroq o‘zlashtirishga imkon beradi.[1,5]

Yaxlitlik- o‘quv materialini bir butunligini tashkil qilishi va bunda, har bir element o‘z o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lishini talab etadi. Bunday tashkillashtirish kursantga to‘liq tassavur va turli elementlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnata bilish imkonini beradi, bu esa materialni chuqurroq tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradi.

Bugungi kunga kelib, zamonaviy harbiy ta’lim tizimida xususan, Qurolli Kuchlar Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti misolida o‘quv ishlarini tashkil etish, fanlararo o‘zaro aloqalar asosida amalga

oshirish-bo‘lg‘usi aloqachi ofitser-muhandislarni fanlararo integratsiya tizimida o‘qitish va qayta o‘qitish ta’lim va tarbiyaning ajralmas tizimi sifatida qaralmog‘i shart.

Fanlararo aloqalar tizim hisoblanmasda, lekin ularning o‘zaro integratsiyasi-alohida soha yo‘nalishidagi fanlar o‘quv materiallarini o‘zaro birikmasini shakllantirgan holda, bir butun bog‘lanishni taklif qiluvchi jarayondir.

Ta’limda integratsiya jarayoni- bu o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni chuqur, izchil, ko‘p qirrali ochib berish bilan etakchi g‘oya va etakchi pozitsiyalarga asoslangan fanlar, o‘quv fanlari, o‘quv fanlari bo‘limlari va mavzularining tabiiy o‘zaro bog‘liqligi ta’minlab beradi. Shuning uchun ham, tanlangan qismlarni bir butunga birlashtirib, bitta fanning materialini boshqasining materiali bilan to‘ldrgan holda o‘rganilishini ta’minlaydi.[3,6]

O‘z navbatida, fanlararo integratsiya- ikki yoki undan ortiq fan faktlari, tushunchalari va tamoyillarini sintezi sifatida ham qaraladi. Fanlararo integratsiya bir o‘quv fani materialidan boshqasini o‘quv fanida keltirib o‘tilgan savollarni o‘zaro tizimli o‘rganishda namoyon bo‘lib, kursantlar ongida o‘rganilayotgan ob’ektning yaxlit tasvirini shakllantirish kabi kognitiv (bilim, ishonch, fikrlash qobiliyatini, o‘rganish, bilimlarni saqlash va boshqalar bilan almashish) natijalarga olib keladi [4,5,7].

Psixolog olimlar – “fikrlash va xotiraning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, ta’limning yangi materialini yaxshiroq tushunish uchun shuningdek, o‘quvchini avval olgan bilimlarini ko‘paytirish qobiliyatini shakllantiradigan tarzda qurilishi kerak “degan xulosani ilgar surib kelishadi. Yodlashning eng muhim xususiyatlari - bu o‘quv materialini semantik guruhlash usullari va semantik mos yozuvlarning asosiy me’zonlarini ajratish, ma’lum bo‘lgan narsa yoki jarayon bilan bog‘liq holda o‘rnatilayotgan hodisa va holatni semantik korrelyatsiyasidir. Binobarin, ma’lum bir mavzu bo‘yicha bilimlarni uzatish texnikasini o‘zlashtirish, boshqasini o‘zlashtirish esa talabaning analitik va sintetik faoliyatiga ko‘proq maqsadga muvofiqligini anglatadi, mustaqil ta’lim olish usullarining samaradorligini oshiradi, aqliy faoliyatni yaxshiroq tashkil etishni ta’minlaydi va nihoyat, umumiy va alohida vazifalarni hal qilishda mantiqiy ketma-ketlikni rivojlantiradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida integratsiyaning bir nechta yo‘nalishlari va darajalari mavjud bo‘lib,ular maqsadli qo‘llanilishiga ko‘ra; [3,5]:

- Fan ichidagi-alohida o‘quv fanlari doirasida

tushunchalar, bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish;

Fan ichra integratsiya-bu ma’lum bir mavzuga oid tushunchalar, bilim va ko‘nikmalarning bog‘lanishi, intrasub’ekt faktlarini tizimlashtirish degan tushunchani beradi. Mazkur darajadagi integratsiyani ma’lum bir materialning

alohida o‘quv bo‘linmalaridagi yig‘indisi deb hisoblash mumkin. Pirovard natijasi esa, mavzu mazmun tuzilishi o‘zgarishiga olib keladi.

- fanlararo-ikki yoki undan ortiq fanlarning faktlari, tushunchalari va tamoyillarini sintez qilish sifatlariga ajratiladi ya’ni, bu bitta tushuncha, mavzu yoki hodisani o‘rganish paytida bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlarda o‘qitishni birlashtirgan maxsus dars turi.

Tizim (tizimlararo) integratsiya turli ta’lim sohalarida mavjud bo‘lgan bilimlarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu davlatning faol rivojlanishi, yangi ijtimoiy munosabatlarning o‘rnatilishi, jamiyatning yangi turini shakllantirish natijasida vujudga keladi. Mazkur integrayiyani ta’minlovchi vosita sifatida, zamonaviyy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari yoki bo‘lmasa tahsil olayotgan kursantga qo‘shimcha kasbiy sohada shakllanishi ta’minlovchi "Kampus" kurslarini misol keltirish mumkin.

Hulosa

Hulosa o‘rnida shuni takidlab o‘tish kerakki, bugungi kunda OHTM-larida ta’lim jarayonlarini optimallashtirish, fan va fanlararo integratsiyani amalga oshirish qolaversa, mashg‘ulotlar turlari va harbiy amaliyotlar turlarini kursantdagi kompetentlik komponentlarini shakllantirish yuzasidan o‘zaro sintezlash orqali;

ta’lim sifatini yanada oshirishga;

o‘quv materiali va amaliy topshiriqni tushunishi va uqib olishni takomillashtirish;

kursantlarda motivatsiyani shakllantirish va ularni harbiy sohani o‘rganishga yanada qiziqtirish;

vaqt va boshqa resurslarni tejash;

o‘quv materialini doimiy ravishda yangilash va uni bugungi kun Armiyasi uchun moslashtirish kabi ko‘plab ijobiy imkoniyatlarni yaratadi.[1,3,7]

Foydanailgan adabiyotlar ro'yhati.

1.Ерунов В.П. Системный подход к управлению учебным процессом в вузе / Современные технологии в энергетике, электронике и информатике. Материалы региональной научно-практической конференции. Выпуск 1 // Оренбург, Оренбургский государственный университет, 1998. - С. 236 - 238.

2.Коберник О. Мониторинг как способ управления качеством обучения //Народное образование, 2002, №9. С. 56-61.

3. Романова Е.С. Технологии профессионально-ориентированного обучения: учебное пособие; под общ. ред. А.П. Макарова. М.: КНОРУС, 2021. -230 с.

4. Зверева В. И. Как оценить успешность в управления //Завуч, 2007, №5. С.12-17.

2. Ruhiy Salomatlik Markazi: psychological-service.uz
3. "Bola va Oila": bolaoila.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Psixiatriya Boshqarmasi: psychiatry.uz
5. ziyonet.uz

Ғ.З.Икматуллаев,
Хизмат фаолиятини тарбиявий-психологик таъминлаш кафедраси бошлиғининг ўринбосари, подполковник.
С.Хамраев,
Магистратура тингловчиси, подполковник.

Оммавий тадбирлар ўтказиш вақтида жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлашда психологик билимлардан фойдаланиш

Оммавий тартибсизликларнинг ижтимоий хавфли хусусиятлари, уларнинг юз бериши жараёнида ушбу ҳаракатларнинг иштирокчилари томонидан бошқа бир қатор оғир жиноятларни содир этиш билан кечиши, фуқаролар ҳаётига, соғлиғига ва мол-мулкларига жиддий хавф солиши ҳамда бошқа шу каби бир қатор оғир оқибатларни келтириб чиқиши билан юз беришида намоён бўлади.

Оммавий тартибсизликларнинг энг хавфли томони шундаки, уларнинг ўз вақтида олди олиниб бартараф этилмаса, улар жамият ҳаётига путур етказиб, уни инқирозга юз тутишига олиб келади.

Оммавий тадбир ўтказилаётган объектда ва унинг атрофида турли хил фавқулодда вазиятлар келиб чиқишининг олдини олиш мақсадида, жамоат хавфсизлигига масъул ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан профилактик тадбирлар ўтказилаётганда қуйидаги психологик билимларга эга бўлишлари мақсадга мувофиқ:

- жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизликни таъминлашга жалб этилган ходимларнинг тезкор вазиятни доимий равишда *кузатишлари* асосида шубҳа уйғотувчи ва тез экстаз ҳолатга тушиб қолувчи шахсларни аниқлаш;

- жамоат тартибининг бузилишига олиб келувчи сабаб ва шароитларни аниқлаш ва уни бартараф этиш бўйича ўз вақтида оммавий тадбир иштирокчиларига психологик таъсир чораларини кўриш;

- шубҳа уйғотувчи ва экстаз ҳолатга тушиб қолувчи шахсларга психологик таъсир кўрсата олиш (ходимлар томонидан доимий назоратда эканлигини ҳис қилиб туриши);

- тезкор ходимлар томонидан оммавий тадбир иштирокчиларига психологик таъсир кўрсатиш мақсадида миш-миш гаплардан фойдаланиш;

- оммавий тадбир иштирокчилари орасидан шубҳа уйғотувчи шахсларни олиб чиқиб кетишда обрўсизлантириш усулидан фойдаланиш.

Оммавий тадбирлар ўтказилаётганда оммавий тартибсизлик вужудга келишининг олдини олишда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимлари томонидан психологик билимларга эга бўлиш, айниқса омма орасидан шубҳали шахсларни аниқлаш муҳим аҳамият касб этади.

Бинобарин, психологик билимлар натижасида ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг фукароларни ва жамиятни террорчилик, қўпорувчилик хуружидан, барча шаклдаги экстремизм, уюшган жиноятчилик каби жиноят кўринишларидан ишончли химоя қилишни таъминлайди.

Шу сабабли ҳар қандай хатти-ҳаракатлар, яъни оммавий ижтимоий тартибсизликлар ижтимоий қўрқув, ваҳима остидаги деликвент хулқ ўзгаришларини юзага келтиради. Деликвентлик – тартиб, тарбиянинг издан чиқиши, яъни тартибсизлик, тарбиясизлик, конфромлилик (ташқи таъсирларга берилиш), маданиятсизлик каби психик камчиликларни намоён этади. Инсон хулқ-атворида конформлик даражасининг кучайиши оқибатида ноадекват (номуносиб) хатти-ҳаракатлар юзага келади ва ташқи таъсирларга берилувчанлик ҳолатлари кузатилади. Натижада шахс хатти-ҳаракатларининг маълум маънода қолипдан чиқиши ва жамиятдаги мавжуд қонунчиликка мос келмайдиган, жамият учун зид бўлган хулқ-атвор ҳолатлари юзага келади.

Оммавий тартибсизликлар бу – шахс хулқ-атворининг қонун доирасидан четга чиқиши ва жамиятда ўрнатилган тартиб-қоида ва қонунларни билиб-билмасдан уларга қарши зид хатти-ҳаракатларни содир этишидир Оммавий тартибсизликларнинг ўз вақтида олди олиниб бартараф этилмаса, улар жамият ҳаётига путур етказиб, уни инқирозга юз тутишига олиб келади.

Турли оммавий тартибсизликлар доимо ҳуқуқшунослар, психологлар ва социологлар диққат-эътиборида бўлган. Оммавий тартибсизликлар психологияси ҳақида бир қатор олимлар ўз қарашларини баён этган. Масалан, француз психологи Ле Бон Гюставнинг фикрига кўра, «инсоннинг маълум бир гуруҳ ёки жамоа орасида бўлганида ўзига бўлган ишончи, иродавий кучининг ортишини ва интеллектуал онгининг сусайишини кузатамиз. Аксарият ҳолларда оломондаги одамда ўз хатти-ҳаракатига нисбатан назоратнинг йўқолганлигини кўриш мумкин»[82].

Рус олими Ф. Н. Плевако инсонларнинг оммавий тартибсизликлардаги хатти-ҳаракатларини психологик жиҳатдан таҳлил этган ва умумий хулосага келган. Муаллифнинг фикрича, **оммавий оломон – катта бир девор, ундаги одамлар эса ушбу девор элементларидир. Улар орасида бўлиш, ундаги**

[82] Қаранг: *Ле Бон Гюстав.* Психология масс и народов. – М., 2000. – С 56.

инстинкт белгиларидир[83]. Оммавий тартибсизликлар орасидаги одамлар хатти-ҳаракатлардаги зарур элементлардан бири унда лидернинг мавжудлигидир.

Шу нуқтаи назардан «инсоннинг жамоадан ташқари хатти-ҳаракати» тушунчаси ижтимоий психология ва юридик психологияда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, инсон хулқ-атворининг маълум маънода ҳуқуқий нормадан чиқиши, унда инпульсив (шартсиз рефлекс) ҳаракатнинг намоён бўлиши билан изоҳланади. Бундан ташқари, инсон руҳиятида кучли қўзғалишни, ҳиссий мувозанатсизликнинг ортишини ва идрок этиш кўламининг торайишини сезиш мумкин.

Бу борада атоқли рус олими М .И. Еникеевнинг «аксарият жиноий хатти-ҳаракатларнинг замирида одамларнинг айрим ижтимоий кўринишларга бўлган дезадаптациялашуви (мослаша олмаслиги) сабаб бўлади»[84], деган фикрларида қайсидир маънода ҳақиқат мавжуд.

Оммавий тартибсизликларни келтириб чиқарувчи омиллар миш-миш гаплар ва оломон психологиясини ўрганиш бугунги кунда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича масъул бўлинмалар фаолиятидаги муҳим муаммолардан бири саналади. Шу сабабли ушбу ижтимоий-психологик кўринишларга батафсил тўхталиб ўтиш максадга мувофиқдир.

«Оломон» тушунчаси атама сифатида ижтимоий психологияга XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошида юз берган омманинг қудратли инқилобий кўтарилиши натижасида юзага келган.

Ўз табиатига кўра оломон ҳаракатдаги, шунингдек, *тажовузкор, қутқарилаётган, манфаатпараст, экстатик* (масалан, пир, айтайлик машҳур жаз мухлисларининг диний мутаассиблиги ёки ақлсизлиги туфайли юзага келадиган оломон) турларга бўлинади. Юқорида келтирилган таснифнинг муаллифи психолог Ю. А. Шерковин таъкидлаганидек[85], бундай ажратиш шартлидир. Оломоннинг бир тури айни вақтда бошқасининг жиҳатларига эга бўлиши ва янги турига айланиши мумкин.

Оломоннинг энг муҳим фарқли жиҳати уни ташкил этувчи одамлар таркибининг тасодифийлиги, жинси, касби, миллатининг аҳамияти йўқлиги.

Бунга ишонч ҳосил қилиш учун спиртли ичимлик истеъмол қилган ва безорилик қилаётган ўсмирлар оломонига мурожаат этишнинг ўзи етарли. Бундай оломон таркибида уни жипслаштириш бўйича фаол ҳаракат қилувчи ва секин-аста унинг хатти-ҳаракатини йўналтирувчи ***бошловчилар*** ажралиб

---

[83] Қаранг: *Плевако Ф.Н.* Избранные речи. – М., 1993. – С. 74.

[84] Қаранг: *Еникеев М. И.* Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 65.

[85] Қаранг: Социальная психология. Ю. А. Шерковина. – М., 2005. – С. 35.

туради. Бундай тоифадаги одамлар жамиятда ўрнатилган ахлоқ қоидаларини қонунни тан олмайдиган, улар ахлоқ жиҳатдан бузилган одамлар йиғиндисидир. Ўз қадриятларини оломон ҳаракатларининг йўналиши билан ***бирдай кўрувчи*** оломон иштирокчилари улардан ажралиб туради. Масалан, баъзан оломоннинг тажовузкор ҳаракатлари қаратилган объектдан аламзада бўлиб юрган одамлар ҳам гуруҳий тартиббузарликларга тортиладилар. Улар бошловчи эмас, аммо оломоннинг таъсир доирасида қолиб, унда фаол иштирок этадилар. Оломон ичида унга фақат ўз «бебош феълини» кўрсатиб қўйиш, ўзининг шафқатсизликдан ҳузур қиладиган импульсларини чиқариш имконияти пайдо бўлгани туфайлигина оломонга қўшилган ***тажовузкор*** шахслар айниқса катта хавф туғдиради. Энг оғир хатти-ҳаракатларни одатда улар содир этадилар.

Оломон иштирокчилари орасида ҳалол, аммо ***адашганлари*** ҳам мавжуд. Улар вазиятни хато, адолат принципини нотўғри тушунганлиги туфайли оломонга қўшилиб қоладилар. Бундай шахсларнинг хулқини баҳолашда унинг объектив оқибатларини ва субъектив жиҳатларини фарқлаш зарур. Объектив жиҳатдан у оммавий тартиббузарлик иштирокчиси бўлиб қолади, субъектив жиҳатдан эса у ўзини жамиятга қарши унсур деб ҳисобламайди.

Оммавий тартиббузарлик содир этаётган оломонга, ***тасодифий қўшилиб қолганлар*** ҳам киради. Улар унча даражада фаоллик кўрсатмайдилар, уларни, спорт шарҳловчилар айтганларидек, ҳаяжонга солувчи томоша сифатидаги тартиббузарлик ўзига жалб қилади. Бу томоша гўёки уларнинг бир хил ва зерикарли, бемаъни тирикчилигига қандайдир янгилик киритади. Оломоннинг хатти-ҳаракатида умумий кайфиятга берилувчан, стихияли ҳодисалар ҳукмига ўзини қаршиликсиз бериб юборадиган ўта ***таъсирчан*** одамлар ҳам иштирок этадилар. Ниҳоят, оммавий тартиббузар оломонга ташқаридан (ички позицияси нуқтаи назаридан) кузатиб турадиган, воқеаларнинг боришига аралашмайдиган оддийгина ***томошабинлар*** ҳам киради. Бироқ уларнинг ҳозир бўлиши оммавийликни оширади ва оломон стихиясининг одамлар хатти-ҳаракатига таъсирини кучайтиради.

Демак, юқорида таъкидланганидек, оломоннинг ўзига хос психологик хусусиятларидан бири тасодифий шахсларнинг мавжудлигидир. Бинобарин, оммавий тартиббузарликларга қарши кураш чораларини кўришда буни инобатга олмаслик мумкин эмас.

Оломон ҳаракатининг кейинги хусусияти одамлар ***хатти-ҳаракатининг бир хиллигини белгиловчи*** ижтимоий-психологик ҳодисаларнинг ўзига хослигида намоён бўлади. Жамоада, маълумки, бир хилдаги хатти-ҳаракат онгли равишда қўйилган ва барча эътироф этган ҳамда

ижобий ижтимоий аҳамиятга эга бўлган қадриятларнинг умумийлиги билан таъминланади. Оломон эса асосан одамларнинг бундай умумийлигини норозилик объектига қ а р ш и қ ў й и ш эвазига яратилади. Психолог Б. Ф. Поршинев таъкидлаганидек, оломонни унинг «қаршилиги», «уларга» қаршилиги умумийликка айлантиради.

Оломоннинг кейинги хусусияти – унда, шартли равишда, ***ҳ и с с и й резонанс*** деб аташ мумкин бўлган ўзига хос ижтимоий психологик ҳодисанинг амал қилиши саналади.

Оломон шаклланишининг илк белгиларидан оммавий тартиббузарлик-кача бир қанча босқичлар босиб ўтилади.

Биринчи босқич: ***Баҳонанинг юзага келишини*** оломонни йиғилиши ва оммавий тартиббузарликларнинг бошланиши деб ҳисоблаш мумкин. Одамларнинг эътиборини тортган ва улар нотўғри талқин этган ҳар қандай воқеа ёки далил ана шундай баҳона бўлиши мумкин. Баҳоналар ниҳоятда хилма-хил бўлиши мумкин.

Оммавий тартиббузарликнинг етилишидаги **иккинчи босқичи** дастлабки ***х а в о т и р л и м и ш - м и ш г а п л а р н и н г*** п а й д о б ў л и ш и билан боғлиқ. Тартиббузарликларнинг олдини олиш борасидаги фаолият ушбу босқичда анча қийинлашади. Одамлар воқеага нисбатан муайян қарашни ўзлаш-тиришга улгурган бўладилар ва ҳар қандай ахборотни ўзларининг янглишувлари орқали қабул қиладилар.

Учинчи босқични шартли равишда ***о н г н и н г ў з г а р и ш и*** деб аташ мумкин. Дарҳол рад қилинмаган миш-миш гаплар тарқалишда давом этади, катта ўзгаришларга учрайди ва одамлар онгида ***“душман образи”***ни пайдо бўлишига сабаб бўлади ва «кар» қўзғалишни юзага келтиради. Бу босқич ҳам, аввалги иккита босқич ҳам одамларнинг – оломоннинг тўпланишидан аввал келади ва унга оломон ўзини психологик жиҳатдан тайёрлайди.

Тўртинчи босқич, ***оломоннинг шаклланиши*** билан боғлиқ. Дастлаб тўпланган одамлар орасида ўзига хос ***ц и р к у л я р р е я к ц и я*** бошланади, яъни бундан кейин бир хилдаги хатти-ҳаракатга руҳий асос яратувчи фикр ва ҳиссиётларнинг жадал алмашинуви рўй беради. Сўнгра а й л а н и ш ж а р а ё н и бошланади: ҳиссий қўзғалиш кучаяди, одамлар бунинг оқибатида зудлик билан ҳаракатга ўтишга тайёр бўлиб қоладилар. Айланиш жараёнида норозилик объекти аниқлашади, нафрат образи шаклланади. Ниҳоят, турли тоифадаги шахсларнинг ф а о л л а ш у в и бошланади. Бу жараёнда, масалан, оломон етакчиси амалга ошираётган қўшимча рағбатлантириш айланиш

жараёнида шаклланган образга қарши қаратилган импульсларни юзага келтиради[86].

Бешинчи босқич оломоннинг ***ғайриижтимоий хулқининг ривожланиши***, яъни оммавий тартиббузарликларнинг ўзидир. Тартиб-бузарликни бошловчилар иғвосига учган энг тажовузкор шахслар бошлаб берадилар. Сўнгра, тақлид асосида, оломон ёмон намунага эргашади, бебошликни ривожлантиради. Оломоннинг ғайриижтимоий ҳаракатларининг олдини олиш ва уларга чек қўйиш учун турли шакл ва усуллардан фойдаланилади. Улар учун умумий бўлган жиҳат – оломон хулқининг психологик қонуниятларини чуқур билиш ва аниқ ҳисобга олиш. Масалан, анонимлик ҳисси оломон иштирокчиларини онгсиз ҳаракатларга ундашидан қуйидагича фойдаланиши мумкин. Оломон анча катта бўлганида овоз кучайтиргич воситаси орқали унинг аниқ иштирокчиларига мурожаат этиш тўғри бўлади. Бу ҳол энг соғлом фикрловчиларни ўз ҳаракатларини англашга ундайди, уларга ўзини назорат қилишдек йўқотган ҳиссиётини қайтаришда ва ўз хатти-ҳаракати учун масъулиятни ҳис қилишида ёрдам беради.

Шу нуқтаи назардан **оломон**, *психологик жиҳатдан келиб чиқишига кўра, махсус, ҳеч қандай инсонлар томонидан ташкил этилмаган одамларнинг хатти ҳаракатлари йиғиндисидир*.

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, оломон психологиясини билиш жамоат хавфсизлигини таъминлашга масъул ходимлар учун муҳим аҳамиятга эга бўлиб, оммавий тартибсизликлар, намойишлар, митинглар каби салбий ҳолатларнинг олдини олиш ва жамоат тартибини сақлашда қўл келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Социальная психология. Ю. А. Шерковин. – М., 2005.
2. Еникеев М. И. Юридическая психология. – СПб., 2005.
3. Социальная психология. Ю. А. Шерковина. – М., 2005.
4. Ле Бон Гюстав. Психология масс и народов. – М., 2000.
5. Плевако Ф.Н. Избранные речи. – М., 1993. – С.

[86] Қаранг: Социальная психология. Ю. А. Шерковин. – М., 2005. – С. 37.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holatining o‘rni va ahamiyati

Ulug‘bek Abdullaevich Yunusov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Magistratura boshlig‘i, dotsent

Bugungi kunda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish, jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini oshirish doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi va davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi”[87] – deb alohida ta’kidlab, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan aniq vazifalarni belgilab berdi. Bu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida soha yo‘nalishida katta islohotlar amalga oshirildi. Harbiy islohotlarning natijasi o‘laroq, 2017-yil 4-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi, 2020-yil 18-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” qonun tasdiqlandi.[88] Qonunda Milliy gvardiyaning huquqiy maqomi va asosiy vazifalari, faoliyatni tashkil etish, faoliyatning asosiy prinsiplari, harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi va shartlari aniq belgilab berildi. Sohada malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida keng qamrovli tashkiliy va tarbiyaviy chora-tadbirlar jadal sur’atlar bilan tashkil e’tildi. Bu borada shuni ta’kidlash joizki, Prezidentimiz

[87]Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T., “O‘zbekiston”, 2018. –B.422.

[88] O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida. O‘RQ-647-son. Toshkent sh., 2020-yil 18-noyabr.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28-yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida “Jangovar tayyorgarlikning modernizatsiya qilingan, moslashuvchan tizimini joriy etish bilan uyg‘un holda, Qurolli Kuchlarning yangi tashkiliy tuzilmaga o‘tkazilishi milliy armiyamizning jangovar qobiliyatini bir necha barobar oshirdi”[89] – deb, Milliy gvardiya tizimida amalga oshiriyotgan ishlarni alohida e’tirof etib, tizimda amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, yurt tinchligi, osoyishtaligi, totuvligi va xavfsizligini ta’minlash, xalqimizning ishonchini oqlash bo‘yicha vazifalarni belgilab berdi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan Qurolli Kuchlar, xususan, Milliy gvardiya tizimini takomillashtirishga oid barcha sharoitlar yaratib berildi. Lekin bir narsani yodda tutish lozim, “Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta’minlangan bo‘lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas’uliyat hissi yo‘qligi yoki loqaydlik tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin”.[90]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga asosan jamoat xavfsizligini ta’minlovchi sub’ektlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari belgilandi.

Ushbu farmonda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqish,

[89] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi //Xalqso‘zigazetasi. 2020- yil 15-yanvar, № 11 (7513).

[90] Mirziyoyev Sh.M. Milliy armiyamizni yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Xalq so‘zi gazetasi. 2020 yil 11 yanvar №8 (7510).

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish, o‘ziga biriktirilgan jamoat joylarida, ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish sohalarida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirish kabi bir qator vazifalar qo‘yildi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish hamda ularni hurmat qilish kabi tamoyillarga tayangan holda amalga oshirish belgilandi.[91]

Belgilangan hududlarda xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida har tomonlama ya’ni jangovar shay va axloqiy-ruhiy jihatdan chiniqtirilgan shaxsiy tarkib, albatda belgilangan topshiriqlarni ham sifatli, ham samarali bajara oladi. Bu o‘z navbatida favqulotda vaziyat bo‘ladimi yoki ekstremal vaziyat bo‘ladimi albatta harbiy xizmatchilarning esankiramasdan qo‘yilgan vazifani bajarishiga katta imkoniyat beradi.

Harbiy xizmatchilarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida har tomonlama yetuk professional etib tayyorlashga katta e’tibor qaratilgan. Ayniqsa ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda sohaga yo‘naltirilgan ko‘nikmani shakllantirish, tajribasini orttirish, malakasini oshirish, ibratli va tashabbuskor bo‘lishlariga katta ahamiyat qaratilgan.

Bu olib borilayotgan ishlar yetarlicha natija bermoqdami?, Harbiy hizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va jangovar tayyorgarligi bugungi kun talabiga to‘la qonli javob beradimi? –degan savollarga, ha deb javob berish mushkul masala. Birgina misol, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 8-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy va jangovar tayyorgarligini oshirishga oid qarorning tasdiqlanishi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish lozimligi hamda dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

[91] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 29 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. 2-bob, 6 va 9-bandlar.

Harbiy xizmachilarning axloqiy-ruhiy va jangovar tayyorgarligini oshirish o‘z ichiga keng ko‘lamli ishlarni oladi. Mana shu ishlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tsak. Xususan, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar o‘rni katta hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, har bir harbiy xizmatchi yuksak madaniyatli, tarbiya ko‘rgan, o‘z kasbini ardoqlaydigan va vazifasini ongli ravishda bekamu ko‘st bajaradigan huquqiy madaniyat sohibi, ma’naviy yetuk, jismonan baquvvat, bilimli, tajribali, o‘z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog‘lagan, mamlakat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati va maqsadini teran anglagan holda uning faol ishtirokchisi sifatida o‘zini namoyon eta oladigan xodim bo‘lib shakllangan bo‘lmog‘i lozim.[92]

Bizning fikrimizcha, bu jarayonda harbiy xizmatchilarni odob-axloqli, axloqiy fazilatli, g‘oyaviy e’tiqodga ega, Vatanparvar, burchga sadoqatli, mas’uliyatli, or-nomusli, Vatan himoyasida jonini fido qilishga tayyor komil inson etib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratish o‘z navbatida bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar samaradorligiga katta xissasini qo‘shadi.

Shu ma’noda odob-axloq va axloqiy fazilatlarning ahamiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, harbiy libos kiygan kishi borki, u hamisha jamoatchilikning diqqat-e’tiborida bo‘ladi. Shuning uchun ham ularning yurish-turishi odob-axloqi masalalarida ba’zi bir qoidalarni puxta bilish harbiy xizmatchilar uchun juda foydalidir. Albatta bunda hoxish-istakning o‘zigina yetarli emas, balki har bir muayyan davralarda o‘zini munosib tutish, muomala qoidalarini qat’iy o‘zlashtirish, ularni amalda qo‘llay bilish zaruriyat hisoblanadi. Harbiylarga xos odob-axloq talablarini chuqur o‘rganish va unga qat’iy amal qilish, har bir harbiy xizmatchiga bu borada ko‘nikma va malaka hosil qilishga, hayotda tez-tez uchrab turadigan muammoli vaziyatlarda oson va samarali yechim topishga zamin yaratib berish bilan bir qatorda shaxsning jamiyatdagi munosib o‘rnini egallashiga ham

[92] O‘zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlarn tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish Kontseptsiyasi. PQ-3898. 04.08.2018 y.

asos bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, mamlakatda xavfsiz va barqaror muhitni qaror toptirish jarayonida Milliy gvardiyaning ham o‘z o‘rni va roli muhimligini inobatga olsak, bu Milliy gvardiya harbiy xizmatchilaridan o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lish bilan bir qatorda yuksak axloqiy fazilatlarga, muomala va huquqiy madaniyat egasi bo‘lishlikni talab etadi.

Odob - kishining jamoada o‘zini tutishi, odamlar bilan muomala qilishi, turmush tarzi, bo‘y vaqtini tashkil etishi, ichki va tashqi olami qanday bo‘lishi lozimligiga oid qoidalarni (masalan: or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalik,) o‘z ichiga oladi. Axloq - ma’naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviyat hodisasiga oid tizim hisoblanadi. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy hayotdagi o‘zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me’yor va qoidalar yig‘indisi. Insof, va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Axloqiy ideal – xulqning yuksak darajasi, ibrat. Axloqiy madaniyat – axloqning yuksak darajasi, fuqarolarning axloqiy saviyasi, muomala odobi, ma’noli ravon so‘zlash, tinglay bilish, nutq madaniyati. Axloqiy fazilat – insonni yaxshilikka chorlaydi, yomonlikdan qaytaradigan axloqiy qarashning doimiy odati, doimiy faoliyatga aylanganini bildiradigan tizim hisoblanadi.[93]

Yuqorida ta’kidlanganlarga asoslanib bizningcha, axloq-odobning asosini muomala madaniyati, nutq madaniyati va axloqiy fazilatlar tashkil etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Lekin, bugungi kunda harbiy xizmatchilarning muomala, nutq madaniyatini va axloqiy fazilatlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga bir qator to‘siqlar mavjudligini amaliyot ko‘rsatib kelmoqda.

Masalan harbiy xizmatchining faoliyatiga to‘siq bo‘luvchi omillar: ishni keyinga surish; boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik; hamma ishni birdaniga bajarish; vazifani yakka o‘zi hal qilish; “Boshqalarga qaraganda men o‘zim

[93] Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. -T:. G‘ofur G‘ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2010. -447, 48, 53 bb.

yaxshi bilaman” degan tuyg‘u; xizmat vazifalarini chegaralay olmaslik; ayb va aybdorni qidirish va aybni boshqalarga to‘nkash; vaqtni ishga to‘g‘ri taqsimlay olmaslik; sustkashlik; topshiriqning bajarilishi va uning natijasini nazorat qilmaslik kabilar.

Yoki, harbiy xizmatchining ma’naviyatiga putur yetkazuvchi illatlar: o‘zini-o‘zi boshqara olmaslik; shaxsiy qadriyatlardan putur ketishi; shaxsiy maqsadning noaniqligi; o‘zini-o‘zi kamol toptirishning izdan chiqqanligi; muammolarni hal qilish malakalarining yetishmasligi; ijodiy yondashuvda nuqsonlarning mavjudligi; odamlarga ta’sir o‘tkaza olmaslik; boshqalarni o‘qitish, ularga saboq berish, o‘rgatish uquvining yo‘qligi; fuqarolarni sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar va muomalaga (haqorat qilish) yo‘l qo‘yish, ularga nisbatan qonunga xilof ravishda jismoniy kuch ishlatish yoki shunday kuch ishlatish bilan qo‘rqitish; odamlar bilan muomala qilish madaniyatining yo‘qligi; aql va o‘zini tuta bilish bobidagi sustkashlik shular jumlasidandir.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan harbiy xizmatchining faoliyatiga to‘siq bo‘luvchi omillar va ma’naviyatiga putur yetkazuvchi illatlarni yengib o‘tishda, ularda, muomala va nutq madaniyatiga oid ayrim jihatlar, ya’ni, suhbatdoshni diqqat bilan tinglash, eshitish va tenglik asosida munosabat ko‘rsata bilish, o‘rinsiz savol berish, kesatiq, qochirim so‘zlardan foydalanmaslik, sabr-bardoshli, qanoatli, e’tiborli va samimiy bo‘lish, shaxsni anglay olish, qayg‘urish, do‘stona munosabat ko‘rsata olish, bosiqlik, hurmat qila olish, g‘azabni yenga bilish, muloyimlik, ochiqlik, to‘g‘rilik, shaxsiy ibrat ko‘rsatish, xatoni tan olish va minnatdorchilik bildira olish, shaxsni haqorat qilmaslik va mojarolarni odilona hal etish, o‘ta qiziqqon, ginachi, yolg‘onchi va tajovuzkor bo‘lmaslik hamda boshqalarni kamsitmaslik, g‘iybat, bo‘hton va o‘zini maqtashdan tiyilish albatta katta ijobiy natijalar uchun imkoniyatdir. Bu qoidalarga rioya etgan harbiy xizmatchilar o‘zlarini yurish-turishlari, kiyinishlari, muomala madaniyati, ibratliligi va tashabbusukorligi bilan ajralib tura boshlaganliklarining o‘zlarida his qilishlariga erishish orqali, ularning

ahloqiy-ruhiy holatlarini yanada mustahkamlashga erishish mumkin. Bu natija orqali xizmatdagi natijadorlik foizining ortishiga erishish imkoniyati vujudga keladi.

Hulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, harbiy xizmatchilarning odob, axloq, axloqiy ideallik, axloqiy madaniyat va axloqiy fazilat borasidagi bilim, ko‘nikmalarini takomillashtirish, bu borada amalga oshirishlari lozim bo‘lgan ishlarni anglab yetganliklariga erishgan holda xizmatga jalb qilish orqali jamoat joylarida xizmatni sifatli tashkillashtirish, natijadorlikka va samaradorlikka erishish imkoniyatini beradi. Qachonki harbiy xizmatchi o‘ziga yuklatilgan vazifalarning mohiyatini anglab yetmas ekan, undan to‘laqonli ijobiy natija kutish mantiqan to‘g‘ri hisoblanmaydi.

Shu ma’noda aytish lozim harbiy xizmatchilar yuqorida ta’kidlangan odob-ahloqqa oid madaniyat qoidalarini anglab yetishi orqali dastlab ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mustahkamlanishiga, shaxsiy tarkib o‘rtasida muhitning yaxshilanishiga, axloqiy-ruhiy holatning barqarorligiga, so‘ng xizmat vaqtida fuqarolar o‘rtasida tizimga nisbatan iliq munosabat va ishonchning ortishiga, ayniqsa belgilangan joylardi jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida hamkorlik va hamjihatlikni, osoyishtalikni ta’minlash uchun katta imkoniyat yaratadi.

MUNDARIJA:

M.X.Rustambayev		**Kirish so‘zi**	**4**
Саудабаева Гульмира Сауытжановна		Личностные особенности и профессионализация личности	**5**
Farfiev Yoqubjon Atxamdjonovich		Ichki ishlar organlarida psixologik xizmat: muammo va yechimlar	**10**
D.A.Saliyeva		Xarbiy xizmatchi xodimlarning psixologik xizmat ko‘rsatish uslublarining o‘ziga xos jihatlar	**13**
D.M.Mamatkulov		Harbiy pedagogikada mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi	**5**
D.M.Mamatkulov		Harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati va ma’naviy qiyofasini yuksaltirishda badiiy asarlarning o‘rni	**8**
Махмудов Р.М. Имиров С.К.		Теоритические методы совершенствования правовой культуры курсантов академии национальной гвардии республики казахстан (психолого-правовые аспекты)	**12**

N.Ismoilova		Harbiy xizmatchilarda stressga barqarorlikni oshirishga qaratilgan trening dasturining mazmun-mohiyati.	**20**
M.Saipova		Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarga psixologik hamroxlik va psixologik xizmatni tashkil etish masalalari	**24**
M.Saipova		Murakkab vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning agressiv xulq-atvori korreksiyasi	**27**
I.M.Xaydarov		Jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxs faolligiga doir gumanistik nazariya	**33**
D.S.Abdullajanova		Gender xususiyatlarini shaxs psixoemotsional faolligiga ta’sirining psixologik tahlili	**37**
SH.T.Baxranov		Yoshlarda harbiy-vatanparlik tuyg‘usini takomillashtirishning psixologik yechimlari	**44**
N.Mirashirova M.Ashurmatov		Psixologik xizmat harbiy xizmatchilar psixologik barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida	**48**
E.N.Sirliyev		Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda psixologik xizmat ahamiyati	**52**
E.N.Sirliyev		Yoshlarda harbiy-vatanparlik tuyg‘usini takomillashtirishning psixologik yechimlari	**54**
A.K Paxratdinova		Harbiy xizmatchi ayollar faoliyatidagi muammolarni bartaraf etishning pedagogik jihatlari	**57**
D.A.Saliyeva		Xarbiy xizmatchi xodimlarning psixologik xizmat ko‘rsatish uslublarining o‘ziga xos jihatlari.	**61**
Б.М.Хушвактов		Педагогические возможности игрового моделирования при подготовке курсантов высших военнқх образовательных учреждений к будущей профессиональной деятельности	**68**
N.A.Sog’inov		Psixologik xizmatni tashkil etishda milliy qadriyatlardan foydalanish	**72**
G.Z.Ziyavitdinova		O‘spirinlik davrida harbiy xizmatga psixologik tayyorlikni shakllantirish shartlari va xususiyatlari	**75**
G.Z.Ziyavitdinova		Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik jihatlari	**77**
I.B.Ahmedov		Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlashning ahamiyati	**81**
Z.X.Kamalova O.O.Bobonazarova		Oliy harbiy ta’lim muassasalarida psixologik yondashuvlar: ta’lim metodlari va shaxsiy rivojlanish	**86**
F.E.Raxmanov S.X.Isakov		Oliy harbiy ta’lim muassasalarida tarbiya jarayoni samaradorligining psixologik shart-sharoitlari	**89**
S.X.Isakov		Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi: jamoat xavfsizligini ta’minlashda	**93**
S.X.Isakov N.A.Mirzaliyev		Harbiy xizmatchi va xodimlar xizmat faoliyatida psixologik tayyorgarlik	**96**
S.X.Isakov H.A.Ergashev		Harbiy xizmatchilarda kasbiy psixologik bilimlarning o‘rni va zaruriyati	**99**
L.U.Ravshanov		Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari imijining ijtimoiy-psixologik jihatlari	**103**
D.B.Norqo‘ziev G.D.Kuldasheva		Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda psixologiyaning ahamiyati	**108**
I.I.Rejametova		Shaxsga adabtatsiya va refleksiv jarayonlarini rivojlanishiga doir yondashuvlar	**111**

G.D.Kuldasheva		Harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashda kasbiy psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati	**114**
Г.Д.Кулдашева		Роль психолого-педагогических знаний в деятельности современного офицера	**118**
I.I.Rejametova		Bo‘lajak ofitserlarda refleksivlikni namoyon bo‘lishida adptatsiyaning o‘rni	**121**
Sh. A.Mirabdullayeva		O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy psixolog kasbini egallashning nazariy-metodik asoslari	**124**
Костин А.В.		Современные подходы в психологическом обеспечении подготовки военных водителей	**129**
Inoqov B.B.		Tezkor-qidiruv xodimlarining muvaffaqiyatga erishishida psixologik bilimlarning o‘rni	**133**
Акбарходжаев К.А.		Психологические основы патриотического воспитания курсантов образовательных учреждений силовых структур Узбекистана	**136**
Norbutayev S.A.		Harbiy xizmatchi xulq-atvorini stressli vaziyatlarda namoyon bo‘lishining metodologik tahlili	**141**
G‘ozibekov T.H.		Bolog‘at yoshiga yetmagan shaxslar tarbiyasida psixologik bilimlar va uning tarbiyaviy ahamiyati	**149**
Ismailov D.T.		Harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining milliy tarbiyasini takomillashtirishda ta’lim ishiga texnologik yondashuv	**153**
Tavakalov A.A.		Harbiy pedagogik jarayonning xususiyatlari pedagogikaning asosiy maqsadi sifatida	**157**
Anorboyev A.A.		Bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashda psixologik xizmatni tashkillashga doir zamonaviy yondashuvlar.	**162**
Жолдошбаев Д .Д.		Психологические особенности возникновения девиантного поведения в семьях военнослужащих	**165**
Рахимова И.И.		Теоретические основы психологической службы молодежи	**167**
Raximova I.I. **Akramova M.T.**		Harbiy xizmatchi oilalarning psixologik xizmat ko‘rsatishga doir zamonaviy yondashuv nazariya va amaliyot	**170**
Qurbonova G. **Qo’chqorova D.**		Harbiy va fuqarolik sohalarida psixologik xizmatni tashkillashga doir zamonaviy yondashuvlar.	**173**
Rahimova I.I. **Abdurasulova L.E.**		Harbiy psixologiyaning umumiy vazifalari	**177**
Xasilov X.X.		Ichki ishlar organlarining milliy gvardiya xodimlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil etishda amaliy psixologiyaning roli va o‘rni	**181**
Xo’janov Z.M.		Ichki ishlar o‘rganlarida kasbiy saralash muammosining ijtimoiy-psixologik asoslari	**191**
Ibrohimov A.R.		Oliy harbiy ta’lim muassalarida va harbiy qismlarda psixologik xizmatni tashkil etishda zamonaviy yondashuvni nazariy va amaliy jihatlari	**194**
Ahmadjonova N.A.		Harbiy xizmatchilarga psixologik xizmat ko’rsatishning amaliy ahamiyati.	**198**
Bannayeva M.O.		Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning matematika darslarida ijodiy faoliyatini shakllantirish	**202**

Baratullayeva D.X.		Harbiy va fuqarolik sohalarida psixologik xizmatni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari	**207**
Rahmatova Sh. N. Mirsobitova L.M.		Bilish jarayonlarini rivojlantirish orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda matematik kompetensiyalarni shakllantirish	**210**
Norbo’tayev S.A.		Harbiy xizmatchi xulq-atvorini stressli vaziyatlarda namoyon bo‘lishining metodologik tahlili	**214**
Qodirova M.K.		Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini rivojlantirish	**222**
Rahmatova Sh. N.		Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga o‘qitishning verbotonal usulida texnik vositalarni qo‘llanilishi	**226**
Xidirov F.Sh.		Mahalla huquq-tartibot maskani	**232**
Xidirov F.Sh.		Huquq tartibot maskanlarida profilaktika inspektorlarining tutgan o’rni	**235**
Saburov A.I.		Harbiy xizmatchilar va xodimlar faoliyatida profayling metodidan foydalanish	**239**
Yusupov S.A.		Kelajak ofitserlarining psixologik baqarorligini shakllantirish.	**242**
Ergashev E.U.		Harbiy psixolog mutaxasislarni tayyorlashda harbiy pedagoglarning kasbiy ongini takomillashtirish	**248**
Fayziyeva N.S.		Развитие детей дошкольника полезные и вредные аспекты телефонных игр	**252**
Jumanova N.		Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda dars tashkil etish davr talabi	**254**
Xaydarov I.O.		Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi	**257**
Jamilov J.J.		Первые программы психологической помощи во время мировых войн	**260**
Qobilov Z.R.		Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda psixologik xizmat va uning ahamiyati	**264**
Valiboyev I.T.		Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan bezorilik jinoyatlarini tadqiq etishning ijtimoiy zarurati	**266**
Mirzayeva Sh.		Harbiy xizmatchilarda jangovar stressni namoyon bo‘lish xususiyatlari	**271**
Baxriddinova S.B.		Zamonaviy harbiy ta’lim:psixologik qo’llab-quvvatlashning yangi yondashuvlari	**274**
Qodirova M.K.		Bolalarga xos agressiyaning nazariy asoslari	**277**
Fayziyeva G.U.		Talaba yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashni takomillashtirish.	**282**
Rasulov I.R.		Talabalarda o‘quv jarayonidagi stressli vaziyatlarga qarshi immunitetni shakllantirish	**286**
Valiboyev I.T.		Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan bezorilik jinoyatlarining yuridik tahlili	**289**
Jumanova N		O’smirlik davrida yolg’izlik hissi	**295**
Ne’matov R.B.		Harbiy xizmatchilarni jangovar harakatlarga tayyorlashning psixologik tamoyillari	**297**
Agamurodov S.I.		Psychological characteristics of lack of social activity in students	**301**
Ne’matov R.B.		Harbiy xizmatchilarda axloqiy tarbiyaning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lishining psixologik jihatlari	**306**

Qodirov I.R.		Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar	**309**
Rahimov A.F		Shaxsning stressli vaziyatlarga nisbatan adaptatsiyasi	**312**
Ikramov K.D.		Harbiy xizmatchilar va xodimlar faoliyatida namoyon bo‘layotgan delinkvent hulq-atvor omillari	**315**
Yangiboyev O.Sh.		Harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy tayyorgarligining asosiy tushunchalari mohiyati va xususiyatlari	**319**
Saburov A. I.		Delinkvent xulq-atvor dolzarb psixologik muammo sifatida	**321**
Shakarboeva Sh. A.		Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlar orqali vujudga keladigan muammolarning psixologik qirralari	**323**
Saipova M. Xolmirzaev D.		Kompyuter o‘yinlariga qaramlik: onlayn qimorbozlik sabablari, oqibatlari va psixolog olib boradigan ish	**328**
М.Р.Киёмхужаева		Копинг стратегии как предиктор решения проблемы психологической саморегуляции личности	**334**
Bo‘taev U.A.		Harbiy xizmatchilarning frustratsiya muammolariga nazariy yondashuv	**340**
Saipova M. Yamanqulov S.		Onlayn kompyuter o‘yinlariga qiziqish: “murvati burab qo‘yilganlik holati”	**343**
Yangiboyev O.Sh.		O‘zbekiston respublikasida harbiy xizmatni o‘tashning xuquqiy asoslari	**350**
Saburov A.I.		Psixologik xizmat samarasi	**352**
Raximov A.F.		Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari	**356**
Mirzaolimov Ahmadjon Qorajonovich		Fanlarni o‘qitilishini tizimli boshqaruvi asosida kursantning harbiy – kasbiy kompetentliklarini mukammal shakllantirishning muhim omillari.	**360**
Sunnatov Sherzod Husniddin o’g’li		Motivatsiya muammosi	**375**
Usmanov Jasurbek Zokir o’g’li		Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchi yoshlarning ijtimoiy psixologik faolligini oshirishning omili sifatida	**381**
Mamazokirov Xurshidbek Vohidjon o’g’li		Nizo tushunchasini tarixiy ildizlari	**385**
Bahronov Fahriddin Bahodirovich		Voyaga etmaganlar orasida suisid xulq-atvorning oldini olishga oid profilaktik ishlar samaradorligi	**390**
Ғ.Икматуллаев, С.Хамраев		Оммавий тадбирлар ўтказиш вақтида жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлашда психологик билимлардан фойдаланиш	**396**
Ulug‘bek Abdullaevich Yunusov		Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holatining o‘rni va ahamiyati	**402**
Mundarija……			**408**

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK TA’MINLASH KAFEDRASI

“OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI VA HARBIY QISMLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV: NAZARIYA VA AMALIYOT” MAVZUSIDAGI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya

2024-yil 30-oktabr

Konferentsiya materiallari to‘plami

Mas’ul muharrir: podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov
Texnik muharrir: kapitan I.M.Xaydarov